Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

«ELNUR-PRINT»
Toshkent – 2024

ZJV5401

UO‘K:
KBK:
D
“Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ma’naviyatini yuksaltirishning zamonaviy texnologiyalari”: respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: “Elnur-print” nashriyoti, 2024. – 448 bet.

ZJV5401

Mas’ul muharrir:
Olimjon Davlatov,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:
S.G‘ofurov, Sh.To‘rayev, M.Musayev, B.Qodirov, K.To‘rayev,
A.Madraximov, X.Serobov.

Ushbu to‘plamda **“Zamonaviy targ‘ibot texnologiyalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari”** mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. Shuningdek, to‘plam “O‘zbekiston-2030” strategiyasi, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 50-son yig‘ilish bayonida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalar ijrosini ta’minlash yuzasidan yoshlarning fuqarolik fazilatlarini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish va ma’naviyatini yuksaltirish maqsadida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan tayyorlandi.

ZJV5401

To‘plam siyosatshunoslik, sotsiologiya, din, falsafa, ma’naviyat, ta’lim yo‘nalishlari mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

ISBN: 978-9910-9464-9-3

© Olimjon DAVLATOV, 2024
© “ELNUR-PRINT” nashriyoti, 2024

ZJV5401

ZJV5401

I SHO‘BA.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK VA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH ASOSIDA MILLIY O‘ZLIKNI YUKSALTIRISH TEXNOLOGIYALARI

ZJV5401

YOSHLAR DAVLATIMIZNING BEBAHO BOYLIGIDIR

Dilorom YUSUPOVA,
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Dunyo aholisining qariyb **20** foizini yoshlar tashkil qiladi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich **60** foizdan oshadi. Yoshlar xalqimiz, davlatimizning bebaho boyligi. Ular uchun barcha shart-sharoit yaratilgan, imkoniyatlar eshigi keng ochilgan.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko‘p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O‘zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Alohida ta’kidlash joiz, «2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»da ham bu masala alohida o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Farmon bilan «Yoshlar – kelajagimiz» jamg‘armasi tashkil etildi va ushbu jamg‘arma yoshlarning bisnes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo‘yildi. Ushbu hujjatga e’tibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko‘rish mumkin.

O‘z navbatida, O‘zbekistondagi barcha o‘zgarishlarning negizi hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qo‘yilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, ta’lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini ta’kidlamoqda.

Shu maqsadda, mamlakatda Maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi, maktab ta’lim tizimi tubdan isloh qilinib, 11 yillik umumiy o‘rta ta’lim qayta joriy etildi. Viloyatlarda yangi oliy ta’lim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy o‘quv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Sirtqi va kechki oliy ta’lim shakllari tiklandi. Keying ikki yil ichida 15 dan ortiq rivojlangan davlatlarning nufuzli universitetlari filiallari ochildi.

Muxtasar aytganda, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda.

ZJV5401

YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY VA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH YO‘LIDA TARBIYALASHDA AJDODLAR MEROSINING O‘RNI

Shavkat TO‘RAYEV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari doktori (DSc)

Yoshlarni ma’naviy-axoloqiy tarbiyalashda, ularga milliy o‘zlikni singdirishda ajdodlarimiz merosining o‘rni beqiyos ekani tan olingan haqiqatdir. Binobarin, Markaziy Osiyoda ilg‘or jamiyat barpo etish va bu jarayonda ma’naviyat, mafkura hamda milliy g‘oyaning naqadar muhimligi haqidagi ta’limotlar, hozirgi davrda ham nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga molik nazariyalardan hisoblanadi. Ana shunday yirik mutafakkirlardan Alisher Navoiy o‘z faoliyatida amaliyot bilan nazariyaning birligini mujassam etgan siymolardan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy nazariyotchi va amaliyotchi sifatida xalq hokimiyati va davlat siyosatining adolatga asoslanganligini va uning mafkuraviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Uning fikricha, adolatsizlik, fuqarolarning fikrini inobatga olmaslik davlat boshqaruv tizimi tanazzuliga sabab bo‘ladi va pirovard natijada demokratik jamiyat emas, balki jamiyatni jaholatga olib keladi.

Navoiy o‘zining shoh asarlaridan biri bo‘lgan “Mahbub ul-qulub” nomli asarida, “Goh amirlik o‘rnida o‘tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arzu dodini so‘rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko‘rsatdim”[1], – deydi. Navoiyning ijtimoiy-falsafiy ta’limotining asosida adolatli jamiyat g‘oyasi yotadi. Adolatli jamiyat esa, kishilarning jamiyat hayotidagi tengligini ta’minlay oladi. Bunday jamiyatga erishishda, nafaqat podshohning adolatliligi, balki kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning yuksak ma’naviyat va mafkura asosida sog‘lom bo‘lishi lozimligiga e’tiborni qaratadi.

Ayni paytda, Navoiy jamiyatda ijtimoiy illatlarning mohiyatini, ularni keltirib chiqaruvchi sabablarini, inson ruhiyati, ma’naviyati ongi bilan bog‘liqligini qo‘yidagicha izohlaydi: “Yaxshilikka mukofot – qo‘pollik; odob bilan qilingan xushmuomala evaziga kekkayish, takabburlikdan o‘zgacha munosabat ko‘rmaysiz. Birovga xizmat qilsang, undan o‘n zarb

[1] Алишер Навоий Маҳбуб ул қулуб. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.-Б.12.

yeyishga tayyor turmoq kerak; kimgaki bir tavoze' ko'rsatsang ming qo'pollik va dilsiyohlikka hozir turmog'ing lozim"[2]. Ana shunday illatlar jamiyatni tanazzulga yetaklashidan ogohlantirib, Navoiy kishilarni o'z g'oyalari bilan adolatli jamiyat qurishga chorlaydi.

Yurtimizga islom dini kirib kelishi bilan adolatli jamiyat haqidagi tarixiy ma'lumotlarning barcha ko'rinishlarida islom falsafasi, fiqh ilmi arkonlarining qarashlari o'z ifodasini topgan. Jumladan Imom Buxoriyning islom olamida Qur'oni sharifdan keyin ikkinchi muqaddas kitob hisoblanmish "Al-Jomi' as sahih" (Ishonarli to'plam) deb nomlangan 4 jilddan iborat hadislari hamda "Al-adab al-mufrad" (Adab durdonalari), Abu Iso Muhammad at-Termiziyning "Shamoili Muhammadiya", Burhoniddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" nomli kitoblari, Alisher Navoiyning islom aqidalari nomoz farzlari haqida so'z yuritilgan "Siroju-l muslimiyn" (Musulmonlar chirog'i) risolasi, islom dinining tarixi, o'ziga xos qonun-qoidalarini o'rganishda Muhammad Xuzariyning "Nur-ul yaqin", Ahmad Hodisiy Maqsudiyning "Ibodati islomiyya" "Islom ibodatlari". Ma'naviy qadriyatlarimizni tiklashda, kishilarda axloq-odob, halollik, rostguylik, poklik singari umuminsoniy fazilatlarni qaror toptirishda va mustahkamlashda Alixonto'ra Sog'uniyning "Tarixi Muhammadiy", xalqimizning taniqli shoiri hoji Abdulla Orifning "Haj daftari" asarlarida insonlarning ma'naviy-ruhiy va axloqiy tarbiyalanishida islomning o'rni qanchalik muhim va zarur ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Binobarin, islom dini jamiyatda insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalarini keng targ'ib-tashviq qiladi. Unda, birovlarning haqiga ko'z olaytirish, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'g'rilik kabi qabih ishlar bilan shug'ullanish, fohishabozlik, poraxo'rlik qattiq qoralanadi. Odamlarni harom-harish yo'llardan uzoq yurishga, insofli-diyonatli bo'lishga, o'zidan yaxshi iz qoldirishga undaydi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning nazariy asoslarini jadidchilik harakatida ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, demokratik jamiyat shakllanishining muhim omillaridan biri bo'lgan milliy g'oyaning shakllanishida, ularning ta'limoti alohida o'rin tutadi. Jadidlarning ijtimoiy hodisalarni tahlili va tavsiriga oid g'oyalari mamlakatimiz mustaqilligi uchun kurash bilan sug'orilgan. Shuningdek, ularning qarashlarida har qanday millat toki ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatchiligi tamoyillarini o'rnatmagunicha ijtimoiy adolatni qaror toptirib bo'lmasligi aks etgan. Jadidlarning fikriga ko'ra, demokratik

[2] Алишер Навоий Маҳбуб ул қулуб. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.-Б.12.

jamiyat faqat yuksak ma’naviyat va mafkuraga asoslanmog‘i kerak. Ularning “Usuli jadid” (“Yangi usul”) tamoyilidan kelib chiqib, yangi usuldagi turli bilim maskanlarini muzeylar, kutubxonalar, maktablar, ro‘znomalar tashkil etishlari, O‘zbekistonda milliy davlatchilikning takomilida muhim bosqich bo‘ldi.

G‘arb davlatlarining, xususan, Rossiyada yangi texnologiya, fan va texnika yutuqlarini Turkiston ijtimoiy hayotiga joriy etishni zaruriyat ekanligini, milliy ta’lim tizimini yuzaga keltirish, yangicha tafakkur, dunyoqarashni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglashni real ijtimoiy voqelikdan kelib chiqqan holda yuksaltirish, ularning jamiyat va shaxs falsafasiga oid qarashlarining negizi deyishimizga to‘la asos bor. Albatta, jadidchilik harakatini tom ma’nodagi demokratik jamiyat barpo etish harakati deb tushunish ayrim aniqliklar kiritishni taqozo etadi.

Birinchidan, ularning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ma’rifatchilik, milliy mafkurani rivojlantirish tendensiyalari mavjud bo‘lgani uchun ham, mazkur ijobiy o‘zgarishlarga da’vatning mohiyati va mazmunini o‘sha davr ijtimoiy hayotida demokratik islohotlarni amalga oshirish tashkil etadi.

Ikkinchidan esa, jadidlarni o‘z davrining demokratlari deyishimiz barobarida, ularning jamiyat rivojlanishi haqidagi ta’limotlarini demokratiyaning milliy xususiyatlari ustuvorlashtirilgan ko‘rinishlaridan biri ekanligini ham e’tirof etish lozim.

Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va bu ijtimoiy-siyosiy tizimning ichki ziddiyatlari jadidchilik harakatining yirik namoyondalari Munavvarqori Abdurashidxon o‘g‘li, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Avloniy va boshqalarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonlik jadidlar asosan qo‘yidagi ijtimoiy muammolarga e’tiborini qaratgan edilar.

Birinchidan, Turkistonda milliy davlatchilik shaklini tashkil etish.

Ikkinchidan, mazkur davlat tizimini boshqaruv mexanizmlarini yaratish.

Uchinchidan, inson huquqini muhofaza qiluvchi va sud idoralarini tashkil etish kabi demokratik jamiyatning muhim atributlari shular jumlasidandir. Ta’kidlamoq kerakki, jadidlar yuqorida qayd etilganlarni, belgilovchi asosiy omillardan biri deb, milliy-madaniy va ma’rifiy tadbirlarni e’tirof etganlar.

Umuman, jadidchilik harakati, jamiyat ijtimoiy hayotini insonparvarlashtirishda ularning olib borgan faoliyatlari mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda atroflicha ob’yektiv o‘rganildi

va tahlil etildi. Jumladan, “Jadidizm namoyondalari, – deb ta’kidlaydi faylasuf olim A.Choriyev, – jamiyat hayotini insonparvarlashtirish, demokratlashtirishning asosiy sharti O‘rta Osiyo mamlakatlarida mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni o‘zgartirish, xususan, mamlakat boshqaruvini qayta qurish, milliy mustaqillikka erishish bo‘lib, bunday oliyjanob vazifani, maorif tizimini isloh qilishdan boshlamoq zarur, deb hisoblaydilar”[3].

Jamiyatda demokratik jarayonlar – fuqarolarning ongi, milliy g‘ururi, tafakkurini shakllantirish bilan bevosita bog‘liq. Jadidizm namoyondalari qarashlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, jamiyatni demokratlashtirishning eng muhim omillari, bu zamonaviy yoshlar tarbiyasi va xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik munosabatlarini ta’minlovchi milliy g‘oyaning, madaniy-ma’rifiy aloqalarni rivojlantirishdir. Albatta, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti bugun biz uchun eng muhim masala. Bu borada olib boriladigan barcha demokratik islohotlarning markazida yoshlarga imkon berish, ulrani davlatimiz kelajagi uchun shijoatli va mard vatanparvar farzanlar qilib tarbiyalash vazifasi turadi. O‘zbekiston Ryespublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Albatta yoshlikka xos shijoat, jo‘shqinlik va mardlikni, ezgu orzu-intilishlarni amaliy harakatga aylantirib, salmoqli natijalarga erishish uchun inson o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi kerak. Agar tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, buyuk ajdodlarimiz erishgan olamshumul yutuqlar zamirida avvalo ona vatanga, xalqqa xizmat qilishdik oliyjanob maqsad mujassam ekanini ko‘ramiz...

Bizning tomirlarimizda ana shunday ulug‘ bobolarimizning qoni oqar ekan, ularning munosib vorislari bo‘lish, ular kabi yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning burchimizdir”[4].

Vatanparvarlik bilan bog‘liq nazariyalar va ta’limotlar tarixiga oid misollarni yuqorida tahlil qilib o‘tilganlar bilan chegaralab bo‘lmaydi. Ijtimoiy voqelikning turli sharoitlarida har qanday nazariyalar va ta’limotlar tarixiga oid misollarning goh unisi, goh bunisi o‘z mohiyatini, ahamiyatini ko‘proq namoyon qilishi mumkin. Ammo bizning nazarimizda, yuqorida ko‘rib chiqqan jihatlar bugungi kunda O‘zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning tarixiy-nazariy asoslari desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda, ulug‘ ajdodlarimiz yaratgan boy rang-barang ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-madaniy, meroslarining tiklanib borishi va xalqimiz hayotiga kirib borishini alohida ta’kidlamoq kerak. Ayniqsa, jahon ilm

[3] Чориев А. Инсон фалсафаси. 1- китоб. -Т.: Маънавият, 1998.-Б.-152.

[4] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Т.: Ўзбекистон, 2022. 248-249 б.

fani va tafakkuri taraqqiyoti tarixida muhim o‘rin egallovchi ilmiy-falsafiy meros, turli tarixiy davrlarda, yaratilgan ma’naviy meros bilan birga, moddiy madaniyatimizning nodir namunalari ham, o‘zimizga xos bo‘lgan jamiyatning shakllanishida o‘z o‘rniga egadir.

VATANPARVARLIK VA AXLOQIY TARBIYA: YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING BOSH MEZONI

Sarvarjon G‘AFUROV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, siyosiy fanlar doktori, professor

Globallashuv jarayonlari dunyo davlatlarini zamonaviy tahdidlar, sivilizasion ziddiyatlar, mafkuraviy kurashlar girdobiga tortdi. Bugungi kun voqeliklari kelajak avlod yuzlashishi mumkin bo‘lgan murakkab ijtimoiy va mafkuraviy muammolarning debochasi bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Yetishib kelayotgan avlodni barqaror va xavfsiz jamiyatda yashashini kafolatlashning eng muhim omili – mafkuraviy va g‘oyaviy tahdidlarga qarshi tura oladigan ma’naviy immunitetni mustahkamlashdan iborat.

Ma’naviy immunitetni mustahkamlash – ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tizimli va samarali olib borilishiga bog‘liq. Yoshlar kelajak poydevori. Ana shu poydevorni mustahkamlashga ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan erishiladi. Tarbiya barqaror kelajakni qurishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Tarbiyaga e’tibor qaratilgan davlat va jamiyatda barqaror taraqqiy etadigan mamlakat barpo bo‘ladi.

Aristotelning “***Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi***”, degan ibratli gapi bor. Unda katta ma’no mujassam. Qadimgi davrlardanoq yoshlar tarbiyasi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri sifatida ko‘rilgan. Vatanparvarlik tarbiyasining muhimligini ta’kidlab mutafakkirlar, ahli ilmlar ko‘plab asarlar bitganlar. Har zamon va makonda ajdodlarimizning Vatan, millat, xalq uchun fidoyi bo‘lganligi bugungi kun yoshlari uchun buyuk ibrat. Bunday ulug‘ insonlar va ularning bebaho ilmiy, ma’naviy merosiga oid misollar tarix zarvaraqlarida ko‘plab uchraydi. Bugungi kunda tarbiya – davlat va jamiyat, millat taraqqiyoti rivojiga o‘zining hissasini qo‘shgan ajdodlar yaratuvchanlik merosining ma’naviy davomi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “***...o‘qigan, zamonaviy ilm va hunarlarni puxta egallagan, yosh avlodini ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda***”, degan so‘zlarida ham ta’limning yuksak ahamiyati

ta’kidlanmoqda.

Bugungi kunda jaholatga qarshi kurashishning bosh quroli ma’rifat bo‘lsagina ijobiy natijalarga erishish mumkinligi o‘z isbotini topmoqda. Imom G‘azzoliy “Kimyoi saodat” asarida “***Ma’rifat hidoyatning avvali***” degan edi. Shu jihatdan ma’rifat – tarbiyaning bosh mezoni. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “***...ta’lim-tarbiya va ma’rifat jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi,sahovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi***”. Tarbiya esa, yetishib kelayotgan avlodlarning kelajakda barqaror va xavfsiz jamiyatni barpo etish va uni yuksaltirishida ma’naviy dastagi bo‘ladi. Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarning ortishi va o‘z girdobiga yoshlarni tortib ketayotganligi ayniqsa ayanchli. Kelajakda ma’naviy tanazzuldan saqlanishning eng muhim sharti – bugungi kunda yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi yoshlar kreativ, zamonga moslashuvchan, talabchan, ma’lumot olishning cheksiz imkoniyatlariga ega. Ularga standart talablari asosida ta’lim berishning davri o‘tdi. Bugungi ta’lim zamonaviy yondashuvlar asosida, taraqqiy etgan ta’lim va yangicha targ‘ibot texnologiyalari asosida amalga oshirilishi talab etiladi. Bu jarayonlarda eng muhim jihat ta’lim bilan birgalikda, yoshlarning ma’naviy dunyosini ham shakllantirib borishga e’tiborni susaytirmaslik kerak. Ta’lim va tarbiyani uzviy, tizimli shaklda, bir-birini to‘ldirib borgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Qadimgi tarbiya uslublari va bugungi ta’lim texnologiyalarini qorishmasini qo‘llash, oldingi “ustoz-shogird” an’analarini zamonaviy tarbiya jarayonlarida damo ettirish kerak.

Bugun ta’lim va ma’naviy-axloqiy tarbiyaga e’tibor qaratishning aktualligi Prezidentning “...***bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g‘oyat muhim vazifa bo‘lib qoladi***”, degan gaplari bilan o‘z tasdig‘ini topadi. Buyuk ajdodlarimiz o‘zlarining bebaho ilmiy-ma’rifiy asarlarida ham ma’naviy-axloqiy tarbiyaga, Vatanni sevishga, uni ulug‘lashga chaqirib kelgan edilar. Ma’naviy-ruhiy tarbiya asosida ota-onaga ehtirom, oilaviy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat markaziy o‘rin egallaydi.

O‘zbekistonda yoshlarning ta’lim va tarbiyasi mamlakatni siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy, ma’rifiy rivojlantirishning uzviy qismi sifatida qaraladi. Bu jarayon milliy qadriyat va an’analar, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, jahondagi ilg‘or tajribalar bilan uyg‘un ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Har bir mamlakat milliy o‘zligi, mentaliteti, o‘ziga xos madaniyati bilan ajralib turadi. Shunga qaramasdan, ularni birlashtirib turuvchi jihat – yoshlarga e’tibor, ularning

ta’limi va tarbiyasiga jiddiy siyosiy yondashuvdir.

Mamlakatimizning tarixiy rivojlanish bosqichlarida milliy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar, ulug‘ ajdodlarning boy ilmiy merosi, ma’naviy boyligini saqlab, avlodlarga yetkazib kelingani, xalqimizda birdamlik, vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini singdirib borilganini e’tirof etish kerak. Endilikda ma’naviy-axloqiy tarbiya ustuvorligiga yanada kengroq urg‘u berish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Bugungi yoshlar ta’lim va axborot olishning o‘ta zamonaviy imkoniyatlariga ega. Ularga ta’lim olishda, ma’lumot olish va uni uzatishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko‘plab qulayliklarni yaratishi bilan bir qatorda, turli g‘oyaviy-mafkuraviy ta’sir doirasiga tushib qolishiga ham sabab bo‘lmoqda. Ommaviy axborot vositalari, internet manbalari, turli ijtimoiy tarmoqlar ma’lumot olish va uni uzatishning asosiy manbai sifatida yoshlarning zamonaviy dunyoqarashi, axborotlarni qabul qilish, uni anglash va tegishli xulosa chiqarish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur axborot vositalarini ta’lim va tarbiyaviy jarayonlarda ham keng qo‘llash, to‘g‘ri yo‘naltirish soha mas’ullarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Yoshlarimiz dunyoqarashida “ommaviy madaniyat”ning salbiy jihatlari, ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri sezilib turibdi. Moddiyatning madaniyat va ma’naviyatdan ustun kelishi holatlari yaqqol kuzatilmoqda. Bunga jiddiy ijtimoiy muammo sifatida qaralmog‘i lozim. Agar yoshlar bugungi kunda ma’naviy barkamollikdan ko‘ra moddiy ta’minotni muhim deb hisoblasa, bu ta’lim va tarbiyaning, millat va jamiyatning notekis rivojini anglatadi. Yoshlarning sog‘lom ma’naviy dunyoqarashini shakllantirmay turib, taraqqiy etgan jamiyatni qurish borasidagi islohotlardan samarali natijalar kutish ma’nisizlikdir.

Yuqoridagi vaziyatlarni e’tiborga olgan holda, bugungi kunda davlat va jamiyat oldida turgan eng aktual vazifalardan biri – yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat ekanligini to‘g‘ri anglashimiz lozim. O‘zbekistonning boy tarixida millatning shakllanishi, mahalla boshqaruv tizimining yuzaga kelishi, oila, unda ota-ona tarbiyasining ahamiyati, oila kodeksi, ustoz-shogird munosabatlari, uzluksiz ta’lim tamoyillari yoshlar tarbiyasida keng o‘rin egallab kelgan. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash ularning mamlakat taraqqiyotini yuksaltirish, barqarorligi va xavfsizligini ta’minlashda aloqador hissi shakllantirilib boriladi. Yoshlarga davlat, millat va jamiyat xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutishi singdiriladi. Tarbiya jarayonlarida yoshlarning mamlakatning taraqqiy ettirishga doir g‘oyalari, tashabbuslari, innovasion yondashuvlarga muvofiq takliflarini o‘rganish,

ularni umumlashtirish, qo‘llab-quvvatlashda ham maxsus platformani tashkil etish mumkin.Ma’naviy-axloqiy tarbiya maktabgacha ta’lim, maktab ta’limi, oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim hamda mahallalarda aholi va yoshlar bilan ishlash bosqichlarida o‘ziga xos dasturlarni ishlab chiqish orqali, uzviy ta’lim tizimi tamoyillarini amalga oshirishni talab etadi. Bu borada, umumta’lim dasturlari bilan birgalikda yoshlarni ruhiy-axloqiy tarbiyalash, ularning dunyoqarashini shakllantirish, shaxs sifatida kamol topishi, psixologik holati kabi jarayonlar e’tiborga olinishi muhim.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmlarining tizimli yo‘lga qo‘yilishi davlat va jamiyat barqarorligi, **milliy xavfsizlikni ta’minlash**ning muhim shartlaridan hisoblanadi. Vatanga munosib farzand bo‘lish uchun qadrdon tuproqqa bog‘liq ekanlikni teran anglash, unga chin farzandlikni ko‘rsatish, uni ulug‘lash, himoya qilish, ardoqlashdan iborat ekanligini yosh avlodga singdirib borish zarur. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarini namunali, zamonaviy targ‘ibot texnologiyalariga asoslangan shaklda, uzviy va tizimli tashkil etish bir qator ijobiy natijalarga, samaradorligi va ta’sirchanligiga erishishga zamin yaratadi. Jumladan:

- Yoshlarni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda, millatning asrlar davomida shakllangan an’analari, urf-odatlari, taraqqiyparvar **ajdodlarning aql-zakovati, ma’naviy-ma’rifiy merosi**, iroda va matonati barcha uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilishi singdiriladi;

- Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yosh avlod dunyoqarashini shakllantirish borasida davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla, xotin-qizlar bilan ishlash bo‘limlari, aholi va yoshlar bo‘yicha mas’ullar, barcha bosqichdagi ta’lim muassasalarini umumiy maqsad yo‘lida birlashtirilib, ularning faoliyati muvofiqlashtiriladi;

- Vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiya orqali yetishib kelayotgan yosh avlod orasidan **kreativ** fikrlaydigan, zamonaviy siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga nisbatan o‘zining mustaqil yondashuviga ega, jamiyatning **avangard kuchlari** qatoridan joy olishga loyiq shaxslar aniqlanib, ularni jamiyatdagi buyuk islohotlarga safarbar etish imkoniyati yaratiladi;

- bugungi kundagi murakkab ijtimoiy jarayonlarda uyushgan va uyushmagan yoshlarni Vatanga sadoqat va hurmat ruhida tarbiyalash, uni himoya qilish hislatlarini shakllantirish, yoshlar vaqtini qiziqarli va foydali o‘tkazish, bilim va saviyalarini oshirish, kasblarga yo‘naltirish, o‘zlarini isbotlash, hayotda o‘z o‘rnini topish imkonini beradigan turli o‘quv-tarbiyaviy, kasbiy va dam olish tadbirlarini tashkil etish tizimli yo‘lga qo‘yiladi;

- Yoshlarni vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashda **xorijiy ilg‘or tajribalar**ni o‘rganish, ulardan keng foydalanish maqsadida ilmiy-tadqiqot, ta’lim va madaniy faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar, xorijiy davlatlarning muassasa va uyushmalari, xalqaro aql markazlari va tashabbuslar vakillari bilan har tomonlama hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi;

- Vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonlariga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, **innovasion ta’lim va tarbiya** qo‘llanmalari, **sun’iy intellekt**, targ‘ibotning ilg‘or tajribalarini qo‘llash orqali shaxs kamolotiga erishishda yangi ta’lim-tarbiya, tajriba va ibrat maktabi yaratiladi.

Yoshlar tarbiyasida millatning boy tarixi, ulug‘ ajdodlar merosi, shonli tarix zarvaraqlari, milliy qadriyatlar va an’analar, asrlar davomida shakllanib kelgan urf-odatlar, ilm-fan yutuqlarini o‘rganish, o‘rgatish – vatanparvarlik ruhini singdirishning muhim ma’naviy-ma’rifiy quroli bo‘lishi lozim. Mutafakkir Abdurauf Fitratning “***Bu dunyo – kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog‘lom jismu tan, o‘tkir aql va yaxshi xulqdir***”, degan ibratli so‘zlari bugungi kun voqe’liklariga ham to‘liq mos keladi. Faqatgina axloqan yetuk, psixologik nuqtai nazardan sog‘lom yoshlar bilan baxtli kelajak qurish mumkin bo‘ladi. Tarbiya jarayonlari milliy urf-odatlar, har bir xalqning o‘ziga xos mentaliteti, madaniyati hamda tarixiy xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Milliy an’analar va urf-odatlar millat va elatning tarixi, qadriyatlari, e’tiqodi, xalq og‘zaki ijodi, san’ati, madaniyati, ma’naviyati, adabiyoti, turmush tarzi va boshqa omillar ta’sirida shakllanib, takomillashib boradi. Tarbiya jarayonlarida ana shu omillarga e’tibor qaratish ta’limning ta’sirchanligi, samarasi, yoshlar qalbiga yetib borishi, ongiga singishida muhim o‘rin tutadi.

Tarbiya jarayonlarida millatning boy ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlari, an’analari, e’tiqodi, urf-odatlariga keng murojaat qilish tavsiya etiladi. Urf-odatlar asrlar davomida shakllanib kelingan qadriyatlardan iborat. U millatning an’analari, diniy e’tiqodi tamoyillari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu omillar aholining ma’naviyati, dunyoqarashini shakllantirishda ta’sirchan xarakterga ega bo‘lib, ulardan to‘g‘ri foydalanish, keng istеъfoda etish samarali natijalar beradi. Tarbiya bosqichlarida oila, oila va jamiyat, mahalla, ta’lim maskanlari, davlat va jamiyat munosabatlaridan unumli foydalanish lozim. Farzandning oilada kamol topishi, mahallada ulg‘ayishi, maktabda ta’lim olishi, o‘z Vatanining sodiq farzandi bo‘lib yetishishi turli bosqichlaridan o‘tadi. Ularda yoshlarga vatanparvarlik, millat birdamligi, xalq manfaatlarini himoya qilish g‘oyalarini to‘g‘ri singdirib borish vatanparvarlik

tarbiyasining muhim vazifasi hisoblanadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida davlat miqyosida keng masshtabli ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni “**Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari!**” shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali va tizimli tashkil etilmoqda. “***Biz yoshlarimizda umrimizning ma’no-mazmuni, hayotimizning asosiy mevasi va samarasini ko‘ramiz***”, demoqda Prezidentimiz. Ana shu ma’no-mazmunga jiddiy e’tibor qaratishimiz bizning ertamiz yorug‘, kelajagimiz farovon, jamiyatimiz barqaror bo‘lishini ta’minlaydi.

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR – YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING TA’SIRCHAN OMILI

Rahmon QO‘CHQOROV,
TDYU dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

Insoniyatning bugungi hayoti o‘z shiddati, ta’sir ko‘lami, munosabatlar murakkabligi bilan nafaqat oldingi asrlar, balki bir necha o‘n yilliklar ilgarigi hayotdan ham jiddiy farq qilmoqda. Hamma narsada va barcha yerda kuzatilayotgan globallashuv jarayoni inson atalmish mavjudotning mo‘’jazgina boshi va qolgan butun jismu jonini ham xuddi buzg‘unchi quyundek o‘rab-chirmab olmoqdaki, bu shiddat va kuch qarshisida uncha-muncha odamning dosh berishi – o‘zini, o‘zligini, shaxsi va intellektini saqlashi tobora qiyinlashib boryapti. O‘spirinlik yoxud yoshlikning har qanday kutilmagan shabadaga sezgir jismu joni ne, hatto hayotning achchiq-chuchugini totib ulgurgan, shunga ko‘ra o‘zini har narsaga bardoshli, deb o‘ylaydigan katta yoshdagi kishilar yurish-turishi, dunyoqarashi, axloqi va umumruhiyatida kuzatilayotgan o‘zgarish va evrilishlar inson zoti genofondida tub-kardinal, balki endi hech qachon ortga qaytmas jarayonlar boshlanganidan darak berayotgandek. Insonlararo munosabatlarda shafqatsizlik, riyokorlik, sotqinlik, beburdlik, xiyonat singari illatlarning ilgari ko‘rilmagan ko‘lam va darajada yuzaga chiqayotgani, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ming yillik metin zaminiga bir necha o‘n yil ichidayoq yetkazilgan o‘nglab bo‘lmas darzlar, nafsiy intilishlar qutqusi yuzaga keltirayotgan “o‘lat paytidagi shohona ziyofat”lardan tarqalayotgan oqava komiga odamiy ruh tobora chuqurroq g‘arq bo‘layotgandek. Shunga ko‘ra,

G‘arb insonshunoslik fanlari tilida “inson degradatsiyasi”, “shaxsning yemirilishi”, “insonning qiyofasizlashuvi”, “sivilizatsiya shomi” singari pessimistik iboralar tobora ko‘payayotganini tushunish mumkin. [1]

Ahvolning murakkabligi, bizningcha, odam bolasi taqdiriga bitilgan bir o‘zgarmas qonun bilan ham izohlanadi. Ya’ni, dunyoga kelgan go‘dakning bobo-buvilari, ota-onasi har qancha aqli donish, “olam sirining tubiga yetib qolishgan” bo‘lmasin, o‘z zuryodiga tabiiy-mexanik tarzda nari borsa rangu ro‘yini, tashqi qiyofa va ayrim jismoniy-ruhiy imkoniyat va qusurlarini meros qilib o‘tkazishlari mumkin. Ularning yillar davomida yig‘ib-tergan bilimini, hayotning achchiq suvi burnidan kirib ko‘zidan yosh bo‘lib chiqishi evaziga to‘plagan oltinga teng tajribalarini boyagi go‘dakka mexanik tarzda – tez va soz ko‘chirib o‘tkazishning esa imkoni yo‘q. Zamonaviy til bilan aytganda, yosh odamcha jismu joni kompyuter protsessori emaski, boshqa manbada ishlangan va to‘plangan falon gegabayt materialni ko‘z yumib ochguncha birgina sim vositasida unga o‘tkazib bo‘lsa... Yana ham boshqacha qilib aytsak, rus yozuvchisi A.Belyayevning “Professor Douelning boshi” romanidagi singari voqealar hozircha faqat fantastik asarlar imkoniyatidagi ish bo‘lib qolmoqda. [2]

Demak, dunyoga kelayotgan har bir bola xuddi ajdodlari singari hammasini noldan boshlamog‘i – nima issig‘u nima sovuqligi, nima shirinu nima achchiqligi, nima yaxshi-yu nima yomonligi, nima mumkinu nima uyatliligini... – hamma-hammasini o‘zi o‘rganib-o‘zlashtirib bormog‘i kerak bo‘ladi. Ne-ne aqllar o‘ylab topgan ta’lim-tarbiyaning jamiki usul-vositalari, pedagogika texnologiyalari, millionlab tarbiya o‘choqlari va murabbiylar – barcha-barcha omillar mana shu ishga – odamdan inson yaratish, shaxs tarbiyalashga safarbar qilinadi.

Professor Ozod Sharafiddinov bir maqolasida eslatganidek, tosh davridagi diplomsiz pedagog qo‘lidagi cho‘qmori, qalbidagi pushaymoni bilan qoyaga haftalab darj etgan alamli e’tirofni bugungi soqolsiz oqsoqol ayfon telefoni ekraniga qadoq neligin bilmagan, bargizubning tanasiday nozik barmoqlari bilan yozmoqda: “Yoshlar aynib ketdi...”

Agar bu muammoni yurtimiz yoshlari ko‘lamida oladigan bo‘lsak, ularning chinakam xalqtuzar, yurtsevar, insonparvar qilib voyaga yetkazishda ijtimoiy-gumanitar sohalarning o‘rni va ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur masalaning qanchalar dolzarb ekanini teran anglagan mamlakatimiz Prezidenti soha mutaxassislari bilan o‘tkazgan muloqoti payti bejizga mana bunday demadi: ***“Bu yo‘nalishda har kuni, har soatda, doimiy va tizimli ravishda ish olib borish kerak. Buni ma’naviy hayot, g‘oyaviy-mafkuraviy ish deb qo‘yibdi. Bu bizga g‘alla yoki chigit ekish emas, urug‘ni tuproqqa tashladik, bo‘ldi, endi kutamiz,***

deb qarab o‘tirsak”. [3]

Ba’zan ayrim odamlardan: “Masalan, huquqshunos degani yuridik fanlarni, bo‘lg‘usi do‘xtir anatomiya, ximiyani yaxshi bilsa bo‘ldi-da, amaliyotda ularga shular kerak bo‘ladi, ijtimoiy fanlarni o‘qitib vaqt o‘tkazish, talabalarni chalg‘itishdan nima foyda?” qabilidagi gaplarni ham eshitib qolamiz. Yuzaki qaraganda, ular haqdek tuyuladi ham. Biroq bu qarash nechog‘li to‘g‘ri, shunday qarash bilan uzoqqa borib bo‘ladimi? Gap shundaki, odamning aqlli bo‘lishi, bilimi ko‘pligi hali uning chinakam inson siyoqiga yetishganini mutlaqo anglatmaydi. Dunyo tarixida millionlab insonlar hayotiga zomin bo‘lgan urushlarni, totalitar boshqaruv tizimlarini, qirg‘in qurollarini, terror usullarini, insonni ma’naviy tubanlikka boshlovchi ommaviy madaniyat ko‘rinishlarini o‘ylab topgan kimsalarni aqli noqis, bilimsiz omi odamlar, deb aslo aytib bo‘lmaydi. Ularning har biri nedir aql, bilim kuchiga tayangani, o‘z rejalarini ayni shu kuch yordamida qurgani ham shubhasiz. Biroq bu kimsalar o‘sha aql va bilimdan donish topa oldilarmi, to‘plaganlari aql va bilim quvvatini nimaga yo‘naltirishdi, bir so‘z bilan aytganda, ulardagi aql va bilim gumanizmga bir chimdim xizmat qildimi? degan savolga, afsuski, ijobiy javob topib bo‘lmaydi.

Odamzod yaratilishida uning tabiatiga – genofondiga o‘rnashtirilgan fazilat va qusurlar zamonlar o‘tishi bilan o‘z rangi-yu tusini har qancha tovlab borgan bo‘lmasin, mazmunan hamda mohiyatan katta o‘zgarishga, evrilishga uchragan emas. Ya’ni, ibtidoda inson bolasiga yoqqan narsa hozir ham yoqadi, o‘shanda uning yuragini siqqan narsa uni hozir ham infarktga olib keladi. Yanada jo‘nlashtirib ifoda etadigan bo‘lsak, hozir ham o‘g‘rilik qo‘shni hovlidagi nazoratsiz qolib ketgan tuxumni o‘marishdan, xiyonat esa “qo‘shnining xotini qiz ko‘rinishi”dan boshlanadi...

Miloddan avvalgi zamonlarda hukmfarmonlik qilgan podshohning u yoxud bu mamlakat hududini bosib olib, boyliklari va xalqi taqdiriga egalik qilish istagida yurishlar – qonli urushlar boshlagani bilan XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida jahonning u yoxud bu mintaqasiga “demokratiyaning eksport qilinishi”, yirik davlatlarning “o‘z manfaatlari doirasini himoya qilishi”, “butun dunyoda xalifalik boshqaruvini o‘rnatish” singari da’volar o‘rtasida juda unchalik katta farq yo‘q. Birgina farq: boyagi – minglab yil ilgari yashagan “johil podshoh” asl niyatini ortiqcha yashirib o‘tirmay, hukmni ham o‘z nomidan chiqargan bo‘lsa, zamona zayliga mos tarzda taraqqiy etib ulgurgan yoxud bu haqda umuman o‘ylashni xohlamayotgan davlatlarning yetakchilari o‘sha mazmundagi hukmning “kollegial tarzda” qabul qilinishi, “diniy boshqaruv” yoxud

“demokratiyaga tashna xalqlar” talabi shaklini olishiga ko‘proq diqqat qaratib qo‘yishyapti, xolos...

Faqat bir qismini eslatganimiz mana shu muhim holatlardan kelib chiqsak, milliy va umuminsoniy tarixni, uning o‘zgarmas mantiqi va har jabhada o‘zgaruvchan talqinini chuqur bilmaydigan, anglamaydigan diplomatni, iqtisodchini, senator va vazirni – umuman, mutaxassisman, rahbarman, biri – ustozman, boshqasi – tolibi ilmman deydigan odamni tek qabul qilish, uni... oqlash mumkinmi? Axir uning bu johilligi o‘z oilasi, bir siqim “xeshu aqrobosi” hayotigagina emas, butun millat va mamlakat taqdiriga salbiy daxl etishi mumkin. Yoxud maktab va oliy o‘quv yurtida adabiyot faniga shunchaki vaqt o‘tkazish, bo‘lar-bo‘lmas afsonalarni, kitobiy gaplarni o‘rgatuvchi dars, deb qarab kelgan, bu fanni, bor-yo‘g‘i, test asosida olinadigan kirish imtihonining bir bloki deb bilgan bo‘lg‘usi mutaxassis – shifokor, huquqshunos, haydovchi, bog‘cha mudirasini tasavvur qiling. Insoniy mehr, shafqat, oriyat, odamiy xulq-atvor ta’sirli ifoda topgan adabiyotga yuragini ochmagan, birovlarning – hech qachon ko‘rmagani odamlarning yetim bolasi ko‘nglini silab, jismini yuvib-tarab, og‘zidagini berib yedirib-ichirgani yetmaganday, “Ko‘zim usti minnating boshimga durra!” [4] deya oladigan xalqi qalbini his qilmagan, demakki, bu xalqqa begona nazar bilan qaraydigan bunday “mutaxassis” o‘z qo‘liga tushgan odamni ne ko‘yga solishi ma’lum-ku!

Yoki ming turli bahona-sababni ro‘kach qilib, o‘zga yurtlardan jannat qidirgan, o‘zidek inson bolasini – Allohning bandasini sudsiz-so‘roqsiz otib-yoqish, so‘yish-ko‘mish amalini qilib, shu tuban amal ustida suratlarga tushib yurgan, ayni yo‘l bilan go‘yo muqaddas dinni himoya qilib, uning olam uzra yoyilishiga “hissa qo‘shayotgan” kimsalarga o‘z vaqtida adabiyot muallimi hazrat Navoiyning loaqal quyidagi bayti mazmun-mohiyatini anglatib ulgurganida edi:

Bu korgahda xato kelmadi chu bir sari mo‘y,
Xato mening nazarimdandur, xato ko‘rsam...

Axir o‘sha adabiyot muallimi qo‘lida – ixtiyorida bir-biridan o‘qishli va ta’sirli manbalar – so‘z san’atining mumtoz namunalari bo‘la turib, uning o‘quvchisi oltita “diniy kitob”ni o‘qib qolgan chalamulla da’vat etgan hujraga bosh egib kirib ketayotgani odamga alam qilmaydimi? Bizning ham da’vomiz quruq bo‘lmasligi uchun ayrim asarlarni eslatishimiz mumkin. Bu asarlarga esa, yuqorida gina qilganimiz ayrim adabiyot muallimlariningina emas, yurtimizning istalgan hududidagi ta’lim muassasasi pedagoglari, professor-o‘qituvchilarining qo‘li bemalol yetadi. Masalan, XIX asr rus adabiyotining ulkan hodisasi – Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning “Iblislar” romani odamzod tarixidagi

eng qonli inqilob “ijodkori” – Vladimir Lenin tug‘ilmasidan yozishga boshlanib, uning chaqaloqligida – 1870-1872 yillardayoq insoniyatga ogoh qo‘ng‘irog‘i bo‘lib yangragan edi. [5]

Shunisi hayratlanarliki, Rossiyani ichdan yemirish, odamzodning ming yillik hayot ustunlarini ag‘dar-to‘ntar qilib tashlash yo‘lida g‘irt xudosiz S.T.Verxovenskiyning “otashin tili” bilan “bor-yo‘g‘i yuz million odamning boshini uzish kerak bo‘ladi, xolos!” deya ish boshlagan inqilobchi niqobidagi “jinlar – iblislar”ning yoshlarni yo‘ldan urish uchun qo‘llagan usullaridan bugungi diniy ekstremistik guruhlar ham deyarli o‘zgarishsiz foydalanmoqdalar... Endi o‘zimizga bir savol beraylik: shu va shu singari asarlar (M.Bulgakovning “Usta va Margarita” romani [6], J.Oruelning “1984” romani [7], “Molxona” qissasi [8], E.Sevelaning “To‘xtating samolyotni, tushib qolaman” qissasi [9] va yana boshqa o‘nlab adabiy polotnolar, N.Berdyayev, E.Fromm, Ortega-i-Gasset, I.Bunich kabi ko‘plab faylasuflar, adiblar, muarrixlarning hech qursa o‘zbek tiliga o‘girilgan kitoblari, “Tafakkur”, “Jahon adabiyoti”, “Ma’naviy hayot” jurnallarida paydar-pay e’lon qilinayotgan traktatlari) misolida, ularning ta’sirli va tushunarli tildagi talqinlari yordamida yoshlarimiz qalbi hamda ongiga ma’rifat nurini olib kirish, ularni har jabhada uchrashi mumkin bo‘lgan jaholat xurujidan ogoh etish mumkinmi-yo‘qmi?

Demoqchimizki, chinakam erkin hamda mustaqil insonni, o‘z hayotiy a’moli va ruhiy e’tiqodiga ega bo‘lishi talab qilinayotgan shaxsni bunyod etish – quruqdan-quruq nasihatbozliklar, yuqoridan keladigan komissiya ko‘zi va hisobotlar uchun qilinadigan hashaki tadbirlar, bog‘cha bolalariga o‘rgatiladigan “kelin salom”-u ikki minutlik intervyuni ham TV xodimlari “kashfiyoti”ga ko‘ra joriy etilgan usul – kamera yonboshida ushlab turilgan noutbuk ekrani yoxud qog‘ozga qarab o‘qib berish bilan bo‘ladigan ish emas. Agar biz shaxs tarbiyasi, millat kamoli, mamlakat qudrati masalalarini jiddiy ish deb qabul qiladigan bo‘lsak, bu ishga yondashishimiz ham shu darajada jiddiy, professional hamda uquvli bo‘lishi lozim. Ma’lumki, inson ongu shuuridagi boylik – intellektual daraja bir kunda, bir yilda yig‘ilib qolmaydi. Jumladan, kishi nutqining ravonligi, mazmunga to‘liqligi, tushunarli va qiziqarliligi birovdan, qisqa muddatda o‘rganib olsa bo‘ladigan malaka emas. Bo‘sh qop tik turmaganidek, kishining bilimi, hayotiy tajribasi, ularga asoslanadigan tafakkur darajasi haminqadar bo‘lsa, uning nutqi, gap-so‘zining salmog‘i ham shunga yarasha tus oladi. Binobarin, har qancha ustamon notiq bo‘lmasin, odamlarni yasama chiroyli, dabdabali, jimjimador so‘zlari bilan nari borsa besh-olti daqiqa chalg‘itishi mumkindir, lekin soatlab o‘ziga jalb etishi amri mahol.

Bu gaplar, bor-yo‘g‘i, og‘zaki yoxud yozma nutq shakllanishi bilan bog‘liq mulohazalar, xolos. Holbuki, kitobga tayanish, undan quvvat olishning mamlakat va millat taqdiriga daxldor jihatlari borki, ular xususida jiddiy, o‘sha mamlakat va millat miqyosida fikrlashmoq kerak. Gap shundaki, har qanday davlat va xalqning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy takomili avvalo va aksariyat holda ilmga, tajribaga tayanadi, shulardan quvvatlanadi. Ilm va tajribaning turar joyi, “istiqomat makoni” esa kitob va yana kitobdir. Shu ma’noda, agar u yoxud bu mamlakat kitob do‘konlarida, masalan, “Amaliy matematika”, “Fizika”, “Ximiya”, “Mashinasozlik”, “Stanoksozlik” singari kitoblar, oz nusxada bosilgan bo‘lsa-da, xaridorini topmay yotar ekan, bilingki, o‘sha mamlakatning boshi son-sanoqsiz tashqi qarzlardan, o‘zga yurtlardan yangi texnika va texnologiyalarni muntazam sotib olish g‘avg‘osidan hech qachon chiqmaydi. Zero, amaliy matematikasiz, fizika qonunlari, mashinasozlik ilmlarisiz, biotexnologiyalar rivojisiz iqtisodiyotning – xoh u sanoat, xoh qishloq xo‘jaligi bo‘lsin – biror sohasi takomil topishi, nedir samara berishi aslo mumkin emas. Chunki o‘zini o‘ylagan biror mamlakat yoxud ishlab chiqarish korporatsiyasi eng oxirgi rusumdagi texnika va texnologiyani o‘zi obdon ishlatib, shirasini sidirib olmagunicha boshqalarga berishini, beg‘araz ilinishini o‘ylashning o‘zi borib turgan soddalik, go‘llikdir. Modomiki, izmingizda so‘nggi texnika va texnologiyalar bo‘lmas ekan, hatto xorijdan keltirilgan bo‘lsa-da, moddiy va ma’naviy eskirgan asbob-uskunada ishlab chiqargan tovaringiz bilan aksariyat peshtaxtalari allaqachon egallangan jahon bozoridan chumchuqning uyidek joy topolmasligingiz ham aniq.

Hozirgi paytda mamlakatimiz sanoat korxonalarining yuqori malakali injener-texnik xodimlarga, kompyuter dasturchilariga, hatto professional ko‘tarma kranchi-yu frezerchi singari alohida uquv talab qiladigan kasb egalariga muttasil ehtiyoj sezishining;

qishloq xo‘jaligida yerdan, suvdan, urug‘ va ko‘chatdan, mineral va tabiiy o‘g‘itlardan aksariyat uquvsiz, pala-partish foydalanish hisobiga tayyorlanayotgan mahsulotlar sifati va samaradorligi nihoyatda pastligining;

respublika yalpi ichki mahsuloti hajmida hali hamon xomashyo yetishtirish, valyuta tushumida ham xomashyo eksporti ulushi yuqoriligicha qolishining;

Fanlar akademiyasi va uning qoshida o‘nlab ilmiy-tadqiqot institutlari, markazlari faoliyat olib borishiga qaramay, biror-bir muhim soha rivojiga turtki bergan, “O‘zbekiston texnologiyasi” nomini olgan ilmiy ishlanmalarning hayotga joriy etilmayotganining;

yuzlab oliy o‘quv yurtlarimizning aksariyatiga, hech qursa, yaqin davlatlar fuqarolari bo‘lsa-da, o‘qish istagida, nimanidir o‘rganish ilinjida kelmayotganining... va boshqa ko‘plab muammolarning asl ildizida jamiyat a’zolarining, jumladan, yoshlarning kitobga, demakki, ilmga, ilmiy-amaliy yangiliklarga bo‘lgan befarqligi, behafsala munosabati yotibdi, desak xato qilmaymiz, bizningcha.

Natija esa, hatto o‘sha – go‘yo oliy ma’lumot egalarining ham og‘zaki va yozma nutqi no‘noqligidan tortib, jurnalistlarimiz “tilini ari chaqqani”-yu, televizor qarshisidagi millionlab tomoshabin oldiga chiqib olib, besh minutlik intervyu ichida o‘nlab marta “bilasizmi, nima desam ekan...” deya tantiqlanadigan xalq artistlarining ayanchli ahvolida ham o‘zini namoyon etaveradi.

Xo‘sh, nima demoqchimiz? Demoqchimizki, ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojiga, ulardan ta’lim muassasalarida yosh avlod ta’lim-tarbiyasida samarali foydalanishga chaqiriq, kitobxonlikka da’vat zamonning nedir bir o‘tkinchi talabi ham, kimgadir nimanidir ko‘rsatib qo‘yish istagi ham, yilda bir bo‘ladigan ko‘rik-tanlovlar uchun tayyorgarlik kampaniyasi ham emas. Chunki kitob, ayniqsa, badiiy, falsafiy, san’at va estetikaga, zamonaviy texnika hamda texnologiyalarga oid asarlar mutolaasisiz, ayni kitoblarda jam bo‘lgan ilm va amaliy ko‘nikmalarsiz, ta’sirli his-tuyg‘u va ma’naviyatsiz xalqning xalq, millatning millat bo‘lishi mumkin emas. Agar biz dunyo hamjamiyatidan o‘zimizga munosib joy egallashni xohlasak, biror sohada o‘zgalar yetoviga muhtoj bo‘lishni istamasak, ijtimoiy-gumanitar fanlarning yoshlar intellektual kamolida tutgan o‘rnini yaqindan anglashimiz, ularga e’tiborimiz ham shunga yarasha bo‘lmog‘i darkor.

Ayrim taklif va mulohazalar:

1. Bugungi kun yoshlari, ayniqsa, viloyatlarda istiqomat qiluvchi aksariyat aholining asosiy axborot manbai, ma’naviyati va dunyoqarashiga ta’sir etuvchi omil televideniye ekanini inobatga olib, mazkur soha faoliyatini jiddiy tanqidiy ko‘rib chiqish talab etiladi. Ayniqsa, keyingi yillarda soni keskin ortib borayotgan xususiy telekanallar faoliyati yoshlar orasida nafsparastlikni, “ommaviy madaniyat”ga mukkasidan ketishni, har jihatdan takasaltang, didsiz, madaniyatsiz erkatoylar avlodini shakllantirish yo‘nalishida borayotganini ko‘rmaslik mumkin emas. Shu nuqtai nazardan ayrim takliflarni ilgari surmoqchimiz:

- xususiy telekanallarning Nizomi va olib borayotgan faoliyati bir-biriga qanchalik mos ekanligi aniqlanishi kerak;

- telekanallar rahbar va xodimlarining ma’lumoti, saviyasi, dunyoqarashi, bilimi ayni faoliyatga qanchalik mosligi attestatsiyadan

o‘tkazilishi talab qilinadi;

- telekanallarning moliyaviy ta’minoti, kirim-chiqimi, xo‘jalik ishlari jiddiy o‘rganilishi lozim. Shunda reklamalar, qo‘shiq-kliplar, tijorat ko‘rsatuvlari va boshqalar yuzasidan tuzilayotgan shartnomalar yoxud boshqa shakldagi kelishuvlar asosida topilayotgan mablag‘lar, shuningdek, davlatga to‘lanayotgan soliqlar hajmi telekanallar daromadlarini to‘liq aks ettirishi yoki ettirmasligi ma’lum bo‘ladi.

2. Tumanlarda O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi shafeligida yoshlarni turli fan, kasb, qiziqish, xobbi doirasida o‘ziga qamrab oladigan, har jihatdan qulay shart va sharoitlar asosida faoliyat yuritadigan to‘garaklar, guruhlar, klublar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Kompyuter ustalari”, “Gul ixlosmandlari”, “Avtomobilni o‘rganamiz va sozlaymiz”, “Zamonaviy uy dizaynchilari”, “Qo‘l telefoni ustasi” singari yoshlarning kasbiy, ilmiy-ijodiy qobiliyatini kashf etish, rivojlantirishga yordam beradigan uyushmalar tuzish mumkin.

3. Mahalla fuqarolar yig‘ini raisligiga 25-30 yosh atrofidagi, aktiv ijtimoiy faoliyat pallasidagi, ishlab chiqarish yoxud boshqaruv ishiga qiziquvchi yoshlarni ko‘proq jalb etish yaxshi samara bergan bo‘lur edi. Ular hududda yashovchi barcha uchun birdek (biriga “uka”, biriga “aka” maqomida) ta’sir o‘tkazuvchi rolni bajara oladi. Qolaversa, bu yoshdagi kishilarda hali tashabbus ko‘rsatish, odamlarni biror yumushga jalb etish, mablag‘ undirishning qonuniy yo‘llarini izlashdan erinmaslik, muammolar yechimi uchun turli idoralarga qatnash faolligi susaymagan bo‘ladi.

4. Ommaviy axborot vositalarida, ma’rifiy suhbatlarda ko‘p marotaba ogohlantirilmasin, mamlakatimizda yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar soni ko‘paysa ko‘paymoqdaki, kamaymayapti. Yaqinda telekanallarning birida bir emas, ikkita nogiron farzand dunyoga kelgan oilaning yordam so‘rashiga bag‘ishlangan lavha efirga berildi. Natija bilan – oqibat bilan emas, sabab bilan – asos bilan kurashmoq, uni bartaraf etish haqida ko‘proq o‘ylashimiz kerak.

Shundan kelib chiqib, yaqin qarnindoshlar o‘rtasida na diniy va na dunyoviy nikoh tuzmaslikka qaratilgan keskin choralar ko‘rish vaqti keldiki, bu masala, bizningcha, Bolalar Ombudsmeni hamda joylardagi yoshlar ittifoqi yetakchilari faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi darkor.

5. Albatta, istiqlol yillari bosib o‘tilgan yo‘l davomida barcha sohalarda ham muayyan kamchiliklar, qusurlar va yetishmovchiliklar bo‘lgani bor gap. Ular qancha tez aniqlanib, vaqtida va samarali bartaraf etilsa, ertangi kun uchun shuncha yaxshi ekani ham kunday ravshan. Biroq bu jarayon

omma, ayniqsa, yosh avlod ongida, tushunchasida o‘tgan 1989-2016 yillar oralig‘ida aytarli hech qanday ish qilinmagan, amalga oshirilgan barcha ishlar esa noto‘g‘ri bo‘lgan, degan taassurot uyg‘otmasligi, bu hol, oxir-oqibat, jamiyat a’zolarida ruhiy, milliy kemtiklik kayfiyatini hosil qilmasligi lozim, bizningcha. Zero, bunday kayfiyatga berilgan yoshlarda tushkunlik, o‘z kuchiga ishonmaslik, har qanday harakatdan bezish tuyg‘usi kuchayib ketishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, “O‘zbek xalqi hech kimdan kam bo‘lmagan, hech kimdan kam emas va kam bo‘lmaydi ham!” degan g‘oya yoshlarni olg‘a intiltiruvchi, o‘ziga, xalqi ruhiyatiga ishonchini mustahkamlovchi hayotbaxsh da’vat bo‘lib qolishi to‘g‘ri bo‘ladi, deb hisoblaymiz.

Albatta, bu ezgu istakning “jirraki vatanparvarlik” qutqusiga berilishdek, o‘z mamlakati yutuqlaridan o‘zgani ko‘rmaslikdek milliy narsistik mayllarga mutlaqo aloqasi yo‘qdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тойнби А. Постижение истории. – Москва: Прогресс, 1991; Сумерки богов. – Москва: Политиздат, 1990; Цивилизация перед судом истории. Сборник. – Москва: Рольф, –41 с. 2002; Франкл В. Человек в поисках смысла. – Москва: Прогресс, 1990; Хантингтон С. Столкновение цивилизации. – Москва: АСТ, 2005.

2. Александр Беляев. Профессор Доуэлнинг боши. Фозил Тиловатов таржимаси. Янги аср авлоди. – Т.: 2002.

3. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон”. – Т.: 2017. Б. – 484.

4. Ғафур Ғулом. Танланган асарлар. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Т.: 2012. Б. – 42-46.

5. Ф.М.Достоевский. Иблислар. Роман (икки жилдлик). Таржимон И.Ғафуров. “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи. – Т.: 2018.

6. Михаил Булгаков. Уста ва Маргарита. Роман. “Шарқ” НМАК Бош таҳририяти. – Т.: 2008.

7. Жорж Оруэлл. 1984. Роман. Таржимон К.Баҳриев. “Ниҳол” нашриёти– Т.: 2021.

8. Жорж Оруэлл. Молхона. Қисса. Таржимон К.Баҳриев. “Ниҳол” нашриёти– Т.: 2019.

9. Эфраим Севела. “Тўхтатинг самолётни, тушиб қоламан”. Қисса. “Янги аср авлоди”. – Т.: 2023.

NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MA’NAVIY-MA’RIFIY TADBIRLARNING AHAMIYATI

Abulhasan NURIYMON,
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Bugungi kunda respublikamizda 212 ta faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ulardan 114 tasi davlat, 69 tasi nodavlat hamda 29 tasi xorijiy oliy ta’lim muassasalari hisoblanadi. Yurtimizda faoliyat yuritayotlan oliy ta’lim muassasalarining 32 foizga yaqini nodavlat oliy ta’lim muassasalari va ularning filiallari ekanligini anglatadi. Ayni vaqtda, oliy ta’lim muassasalarida **1 mln 336 ming** nafarga yaqin talaba tahsil olayotgan bo‘lib, shulardan **315 ming** nafarga yaqini (ya’ni 24 foizdan ortiq talabalar) nodavlat oliy ta’lim muassasalarilari hisobiga to‘g‘ri kelmoqda.

№	Mulkchilik shakli		
	Nodavlat	Davlat	Xorijiy
OTM soni	69	114	29
Talaba soni	314 660	987 917	33 253

Professional ta’lim muassasalari

Bugungi kunda respublikamizda 739 ta kasb-hunar maktablari, kollej hamda texnikumlar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, shulardan 715 tasi davlat, 24 tasi nodavlat PTM hisoblanadi.

№	Mulkchilik shakli		
	Nodavlat	Davlat	Jami
PTM soni	24	715	739

Nodavlat maktablar

2023-yil avgust oyi ma’lumotlariga ko‘ra, respublikamiz hududida **10300** ga yaqin umumiy o‘rta ta’lim maktablari mavjud bo‘lib, shulardan, **380** dan ortig‘i nodavlat maktablar hisoblanadi. Shulardan, 250 ga yaqini viloyatlarda joylashgan. Jami o‘quvchilar soni esa, qariyb 6,5 mln nafarni tashkil etmoqda.

№	Mulkchilik shakli		
	Nodavlat	Davlat	Jami
Nodavlat maktablar	380	9920	10300

Nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari

2016-yilda respublikamiz hududida 200 ga yaqin nodavlat MTM mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib ularning soni 2000 ga yaqinlashdi.

Yuqoridagi statistic ma’lumotlarni zikr etilishidan asosiy ko‘zlangan maqsad shundan iboratki, bugungi kunda davlatimiz tomonidan nodavlat ta’lim muassasalariga ham teng sharoitlar yaratib berilmoqda. Ayniqsa, yangilangan Konstitutsiyamizning 50-moddasida ilk marotaba nodavlat ta’lim tilga olinib, **“Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi”** - deb mustahkamlab qoʻyildi. Bu esa, o‘z navbatida, nodavlat ta’lim muassasalarining rivoji uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Davlat ta’lim sifatini oshirish maqsadida nodavlat ta’limga yo‘l ochib birish orqali ta’limni rivojlantirish va sohada sog‘lom raqobatni shakllantirishga e’tiborni qaratmoqda.

Ma’lumki, mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab barcha turdagi ta’lim dargohlarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etilishiga katta ahamiyat qaratildi. Hukumatimiz tomonidan maxsus qarorlar qabul qilindi. Mutasaddi tashkilotlar faoliyati tashkil etildi. Hatto Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raislik qila boshladi. Ma’naviy va ma’rifiy chora-tadbirlarga bu shakldagi yuksak e’tibor qaratilishi natijasida xalqimiz boshiga kelgan qator sinovlardan eson-omon o‘tishimizda o‘z samarasini ko‘rsatdi. Eng ahamiyatlisi shundaki, buzg‘unchi g‘oyalar targ‘iboti bilan yurtimizga egalik qilmoqchi bo‘lgan terrorchilarga qarshi xalqimiz jipslashgan holda og‘izbirlik bilan qarshi tura oldi. Millatchilikni rukach qilib, qardosh qirg‘iz eli bilan urushishga olib boradigan chaqiriqlarga aldanmadi.

Bugungi tahlikali kunlarda ma’naviy va ma’rifiy tadbirlarning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, bu kabi chora tadbirlarning ahamiyati nodavlat ta’lim muassasalarida amalga oshirilishiga katta e’tibor qaratilishi lozim ekanligini davrning o‘zi taqozo etmoqda.

ZJV5401

YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Bo‘ri QODIROV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qadam qo‘yar ekanmiz, bu mas’uliyat ko‘proq yoshlar zimmasiga yuklanishini nazarda tutsak, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani kuchaytirmasdan, yoshlarni shu ulug‘ g‘oya bilan qurollantirmay turib, maqsadga erishib bo‘lmasligi hammamizga yaxshi ma’lum. Mamlakatning kelajagi yosh avlodning komil tarbiyasi va izchil taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq ekan, yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining davomiyligini ta’minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda namoyon bo‘ladi Xususan, keyingi yetti yilda yoshlar siyosati samaradorligiga oid jami 77 ta qonun va qonunosti hujjatlari, jumladan, 2016 yil 14 sentyabrda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikri yoshlarga oid davlat siyosatining bugungi kundagi eng asosiy maqsad muddaolari va ustivor yo‘nalishlarini aniqlash va anglashda nihoyatda muhim nazariy dasturulamal bo‘lib hisoblanadi. “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.[1.14.]

Bugungi kunda O‘zbekiston jami aholisining 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun, O‘zbekistonda yoshlarning hayotiy maqsadlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlar yaratilib, ularning muammolari davlat siyosati darajasida hal etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag‘ishlab 2021 yil 30 iyun kuni o‘tkazilgan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi yo‘nalishida amalga oshirilayotgan katta ishlarni samaradorligini yanada kuchaytirish masalalariga jiddiy e’tibor berishimiz zarurligi masalasi ustuvor vazifa

sifatida belgilangan edi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati esa qadimdan ota-bobolarimiz tomonidan shakllanib kelgan asl milliy va diniy qadriyatlarimizni ahamiyati nechog‘lik muhim ekanini ko‘rsatib bermoqda. Shu bois, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish milliy qadriyatlarimizning yoshlar tarbiyasi, inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy shartlaridan biri deb, bilganlari bejiz bo‘lmagan. Shunday ekan, qadriyatning o‘zi nima ekanligiga to‘xtalishni lozim topdik.

Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi.[2.570.] Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlarini, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim. Tabiat va jamiyat boyliklari, hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritilishning asosiy sababi-kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab asraydilar, chunki, bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini, ma’naviy – ruhiy dunyosini boyitadi, yaratuvchanlik faoliyatiga yo‘llaydi.

Milliy qadriyat – millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati hamda madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Qadriyat – bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo‘ladigan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan moddiy-madaniy, ma’naviy omillar yig‘indisidir. Yurtimiz insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy uchoqlaridan biri bo‘lganligini yaxshi bilamiz. Tarixiy taraqqiyot davomida avlod-ajdodlarimz milliy qadriyatlarimiz bilan bog‘liq boy moddiy-madaniy va ma’naviy meros qoldirgan bo‘lib, bular:

– tarixiy meros va tarixiy xotira;
– madaniy yodgorliklar, osori-atiqalar, qadimiy qo‘lyozmalar;
– ilmu-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari;
– san’at va milliy adabiyot asarlari;
– axloqiy fazilatlar;
– diniy qadriyatlar;
– urf-odat, an’ana va marosimlar;
– ma’rifat, ta’lim-tarbiya va hokazolar.

Xalqimiz, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z tarixini qanchalik

chuqur va haqqoniy bilsa u shunchalik kuchli, bardavom taraqqiyotga daxldor, dunyo xalqlari tamadduniga muayyan o‘ringa ega ekanligini his etadi va g‘urur ila yashaydi. Dunyo xalqlari tarixida o‘z o‘rni borligi bilan faxrlanadi.

Bizning, ya’ni o‘zbek xalqi tarixiga nazar solgan har qanday kishi buyuk bir o‘tmishni ko‘radi va uni e’tirof etadi. Chunki, bu zamin, bu xalq dunyo xalqlari tarixiga o‘zining buyuk ishlarini berdi. Jumladan, ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, milliy ma’naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun eng aziz va eng milliy bayram – sharqona yangi yil bo‘lmish Navro‘z ayyomi, “Avesto” va undagi g‘oyalar, IX –XII asrlarda o‘ziga xos ilmiy tafakkur egalari tomonidan fanning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy g‘oyalar, diniy qarashlar, ona yurtimiz tarixidagi ulug‘ zotlardan biri, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi 11 yil davomida mardonavor kurashgan, Vatan ozodligi yo‘lida jon fido qilgan Jaloliddin Manguberdining qahramonligi, Temur va temuriylar sulolasi bilan bog‘liq davlatchilik san’ati, bunyodkorlik ishlari, Jadid bobolarimiz yurtning yoshlarini ilmli va ma’rifatli qilish uchun olib borgan ulkan ishlari hamda bu borada ko‘rsatgan jasoratlarini aytib o‘tish mumkin.

O‘z yurti, uning kelajagi, elining ma’naviyati, xususan, uning iymon e’tiqodi, ilmiy salohiyatini o‘ylab ish qilgan ajdodlarimizning ko‘pi o‘z faoliyatlarini murakkab mafkuraviy sharoitda amalga oshirganlar va shuning uchun ham ular jasorat ko‘rsatgan insonlar qatorida tilga olinadi. Xalqimizning yengilmas bahodiri–Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, baloqazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimiz – bugungi alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, “Avesto” deb atalgan bebaho ma’naviy obida alohida o‘rin tutadi. “Avesto” o‘zinig ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan, bir necha ming yillik kishilik taraqqiyotida sivilizatsiyaviy ta’sir ko‘rsatgan, butun borliq, mavjudot, jumladan, inson mohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan buyuk qadriyat. U diniy-asotiriy qarashlarga asoslangan bo‘lsa-da, tub mohiyai bilan dunyoviy tafakkurning noyob, o‘ziga xos, barkamol majmuasi fundamental qarashlarga asoslangan, qomusiy ahamiyatga ega bo‘lgan buyuk yodgorlikdir”.[3.19.]

Bizning yurtimizdan yetishib chiqqan ma’naviyatimizning buyuk

siymolaridan biri, asli nasli Movarounnahrlik bo‘lgan, ilm ummonidagi ulkan bir tog‘, hayratga solarli iste’dod, tan berishga majbur etadigan aql, ma’nan yuksaklikda yengilmas qudrat, ulkan ahloqiy go‘zallik egasi bo‘lgan Abu Rahon Beruniy bo‘lib, uning qarashlarida aql va hunar har bir kishining eng yaxshi fazilatlaridan, hatto baland martabalik ham – bilim va hunarga bog‘liq ekanini a’lohida ta’kidlab: “...odamlar ilm tufayli ezgulikka erishadilar. Ular ilm va hunar tufayli yovuzlikdan xalos topadilar. Shuning o‘zi eng aniq foyda, eng katta davlat emasmi, axir”. [4.26.] Tariximizning har bir bosqichida xalqimiz tomonidan yaratilgan buyuk meros milliy qadriyatlarimizda o‘z aksini topishi yoshlarda vatanga bo‘lgan muhabbatini yanada oshiradi. O‘zbek xalqining eng qadimiy davrlaridan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o‘z ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan ajoyib qadriyatlaridan biri ota-onaning farzandlar tomonidan yuksak darajada e’zozlanishi, izzat-ikromini, hurmatini joyiga qo‘yishdan iboratdir.

Farzand uchun dunyoda ota-onadan ko‘ra mehribon, aziz va mo‘‘tabar zot yo‘q. Ota-ona – farzandlarning suyanchig‘i, bitmas-tuganmas boyligidir. Ota-onani qadrlash, ularning beo‘lchov, beminnat xizmatiga bir umr sodiq bo‘lish, duolarini olish–bolalarning farzandlik burchidir. Bu milliy qadriyatlarimizning eng muhim talablaridan biridir. Bosh qomusimizda, shuningdek, davlat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanishiga g‘amxo‘rlik qilishi belgilandi. Bu haqda Konstitutsiyaning 78-moddasi to‘rtinchi bandida shunday deyilgan: **“Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi” [5.44-45.].**

Sharq xalqlarida insonni qadrlash va o‘ning hurmatini joy - joyiga qo‘yish avlod-ajdolarimiz tomonidan meros bo‘lib va sayqal topib kelayotgan milliy qadriyatlarimizda o‘z aksini topib kelmoqda. Muqqaddas islom dinimizda ham inson qadrini hamma vaqt, har yerda ulug‘lashni buyurgan, uning sharafini oliy darajaga ko‘targan. Insonning ruhiy-ma’naviy olami boy bo‘lsa, uning qadr-qimmati shuncha oshadi. Yoshlarni ma’naviy jihatdan komillikka yetishishda ilm – ma’rifat muhim o‘rin egallaydi. Avlod – ajdodlarimiz shu ilm – ma’rifat negizida Birinchi va Ikkinchi Renessansni yaratdilar va shu orqali o‘zlarining ilm ziyosi hamda o‘ziga xos milliy qadriyatlari bilan jahonni lol qoldirdilar. Yurtimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoyoq, ma’naviyatimizning buyuk

siymolari bo‘lgan ulug‘ zotlarining shuningdek, tarixiy shaharlarimizning yubileylarini keng nishonlanishi milliy qadriyatlarimizning xalqaro miqiyosda tiklanganligidan dalolat beradi. Milliy qadriyatlarimizning xalqaro miqiyosda tiklanganligi yoshlarda shu yurtda yashayotganligidan faxr to‘yg‘usi yuksalib, ularni ma’naviy barkamolikka yetaklaydi.

Biron-bir jamiyatning taraqqiyoti, kelajagi, avvalo, uning ma’naviy poydevori qanchalik mustahkamligi bilan belgilanadi. Har bir shaxsning, pirovardida xalq va millatning ma’naviy yuksalishi esa ming yillar mobaynida shakllangan, sayqal topib kelgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, milliy-madaniy merosni e’zozlash, munosabat, o‘zlikni anglash, insoniy komillikka intilish, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini egallash orqali ta’minlanadi. Hozirgi innovatsion texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin. Bugungi kundagi yoshlar ma’naviyatimizning buyuk siymolari tomonidan yozib qoldirilgan ilmiy-ma’naviy merosni qanday egallayotganliklari dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023 yil 22 dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida so‘zlagan nutqida “Biz Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk ajdodlarimiz haqida, deb ko‘p gapiramiz. Ammo bolalarimiz ularning qaysi asarini o‘qiy oladi? Ahmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi deymiz, lekin ularning bolalik davrini kim biladi?”, degan savol bilan majlis qatnashchilariga yuzlandi hamda allomalarimizning yoshligi haqida kitoblar yozish, yozganda ham bolalarbop qilib yozish kerakligini qayd etib o‘tdilar. Darhaqiqat, bugun yurtimizda kelajak avlodni har jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazishga qaratilgan bu kabi ezgu loyihalar juda ko‘p. Shunga monand ravishda mamlakatimiz aholisining aksar qismini tashkil etuvchi yoshlarimiz ham yurt rivoji, mamlakat taraqqiyoti yo‘lida o‘zlarining aqlu zakovati, shijoati bilan kamarbasta bo‘lishayotganligi ham quvonarli, albatta. Bu o‘z navbatida, yoshlarga o‘z iqtidor va salohiyatini yuzaga chiqarish yo‘lida yaratib berilayotgan imkoniyat va shart-sharoitlarning natijasidir.

Inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar ma’naviy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o‘tadi. Kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni ma’naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, allomalarning o‘giti, dono so‘zlari, fikrlarini qadrlash,

o‘rganish, hayotda qo‘llash yoshlarni fikr va dunyoqarashini kengaytiradi. Shunday ekan, ularni har tomonlama yetuk, komil, vatanparvar, yurt tinchligi va ravnaqi yo‘lida fidokor bo‘ladigan farzandlar qilib tarbiyalash zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”[6.486.] – degan fikrlari bugungi davr talabi ekanligini barchamiz qalbdan his etishimiz kerak.

Yuqorida to‘xtalganimizdek, bu yurt insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy uchoqlaridan biri bo‘lishi bilan birga, davlatchiligimiz ham qadimiydir. Qaysi yurtda davlatchilik qadimiy va mustahkam bo‘lsa, bu davlatning qadriyatlari ham qadimiy va yuksalgan bo‘ladi. Bugungi kun yoshlarini shu yuksalgan milliy qadriyatlar asosida ma’naviy barkamol, komil inson qilib, ular ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, el-yurt uchun fidoyilik, iymon-e’tiqod, halollik kabi yuksak ma’naviy sifatlarni shakllantirish, shu yurtning kelajagi uchun daxldor bo‘lgan har birimizning muqaddas burchimiz bo‘lmog‘i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. - B. 14.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.- B. 570.
3. Norzulla Jo‘rayev. “Avesto” mo‘jizasi. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.- B.19.
4. Abu Rahon Beruniy. Tanlangan asarlar.1-jild.-Toshkent: “Fan”,1968.- B. 26.
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: - “O‘zbekiston”, 2023.- B. 44-45.
6. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.-B.486.

TURKISTONNING IJTIMOIY-SIYOSIY VA MADANIY HAYOTIDAGI O‘ZGARISHLARNING ABDURAHMON TOSHKANDIY DUNYOQARASHI VA IJODIGA TA’SIRI

Bekdavlat ALIYEV,
Falsafa fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Ma’rifat tarqatish asosan uch sohada tezkorlik bilan rivojlanib bordi. Bular - maorif (yangicha maktablar ochish, ta’lim shaklini yaxshilash), san’at (ma’naviy adabiyot, teatr) va matbuot. Asosiy maqsad millatni, bir jihatdan, ilm-ma’rifatli qilish bo‘lsa, ikkinchi jihatdan, xalqning axloqiy salohiyatini oshirish va mana shu jihatlarning birlashuvi natijasi o‘laroq o‘zligini, o‘z qadrini tushungan ilmli insonni tarbiyalash edi. Turkiston ma’rifatparvarlari tomonidan mana shu niyatni ro‘yobga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Xususan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ayol-qizlarning bilimli, har tomonlama yetuk axloq-odob namunasi bo‘lishlari uchun ilm-ma’rifat egalari ichida say-harakatlar boshlandi. Holbuki, oiladagi farzand tarbiyasi, ya’ni barkamol avlod tarbiyasi ko‘pincha onalar bilan bog‘liqligi barchaga ma’lum bo‘lib qolgan edi. Aytib o‘tish kerakki, peshqadam, o‘qimishli ayollar qizlar maktablarini ochib maktabdorlik qilib qolmay, balki axloqiy-tarbiyaviy risolalar ham ijod qilish bilan kelgusidagi ma’rifatli onalarni tarbiyalash jarayoniga hissa qo‘shdilar. Shu jihatdan Sankt-Peterburgda 1898-1899-yillarda ketma-ket ikki bora chop qilingan “Muosharat odobi” (“Turmush odobi”) risolasi o‘sha paytda muhim ahamiyatga molik edi. “Agar xotun o‘qigan bo‘lsa, o‘zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak-shubhasiz biladi. Bolalarini esa go‘zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo‘ladi va nihoyat Alloh taoloning amriga muvofiq hayot kechiradi”[1;16], - deyilgandi risolada. Bunda ayol-qizlarning oiladagi o‘rni, oilaviy yumushlari, er-xotin o‘rtasidagi munosabatlar, farzand tarbiyasi, xonadonni yuritish, nikoh va muhabbat haqida mazmunli tushunchalar aytib o‘tiladi. Shu bilan birga uy xizmatchilari bilan munosabatda bo‘lganda insof va adolatga amal qilib, ularning ham xo‘jayinlari kabi inson ekanliklarini unutmagan holda ish olib borishlari kerakligi bildirib o‘tiladi, oilaning farovon hayot kechirishi uchun yordam beradigan oqilona nasihatlar keltiriladi.

Jadid ma’rifatparvar Abdurahmon Sayyoh “Al-Isloh” jurnalida ijtimoiy-siyosiy mazmundagi maqolalarni chop etishida unga qandaydir talab yoki tazyiqlar bo‘lgan albatta. Quyidagi maqola sabab ko‘tarilgan

bahslar bunga aniqlik kiritadi, deb o‘ylaymiz. Jurnalning 1916-yil 4-sonida “Bank xususidagi savollarga javob” nomli maqola chop qilinadi. Bunda ushbu savollar aniqlanadi: Hozirda bir qancha insonlar duch kelgan bank bilan muomala qilish va undan istifoda qilib, pul olib, pul qo‘yishning haromligi aniq isbot bilan sobit bo‘lganmi yoki yo‘q? Bank munosabati sudxo‘rlik bo‘lib, harom bo‘lgan taqdirda, bank bilan munosabatda bo‘lishga va bu holat shariatga yo‘l va joizlik bormi yoki yo‘qmi? Foyda tufayli bank munosabatidan paydo bo‘lgan pullarni shar’iy ishlarga sarflasa joizmi yoki yo‘q? Maqolada savollarga javob aks etib, bank bilan munosabat qilmaslikka musulmonlarni chorlaydi.

Abdurahmon Sayyoh ushbu maqolani 1916-yil 15 fevralda bosib chiqaradi va tilmoch Mamedov maqolani hukumat rahbarlariga tarjima qilib beradi. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxividagi ma’lumotlar yuqoridagi maqola nashr qilingandan keyingi tarixiy voqealarni yoritib beradi”. Ya’ni, 30 mart kuni Abdurahmon Sayyoh qatnaydigan Sebzor dahasining Eski Jo‘va mahallasidagi Beklar Begi madrasasida kechasi soat 1 dan 15 daqiqa o‘tganda Turkiston muhofaza bo‘limining buyrug‘iga asosan politsiya pristavi Ivashkevich tekshiruv o‘tkazadi. Oqibatda Abdurahmon Sodiqov nomiga berilgan pasportni topadi. Bu jarayon Abdurahmon Sayyoh nomiga ish ochilganini bildirib turibdi. Jarayonlar keyinchalik shu tahlitda davom etadi.

1916-yil 2 aprelda Sirdaryo harbiy gubernatori vaqtincha vazifasini bajaruvchisi Turkiston general gubernatoriga ushbu “Bank xususidagi savollarga javob” nomli maqolani chop qilgani uchun jurnalni yopib, uning maxfiy asoschisi va yetakchisi Munavvar qorini Turkistondan surgun qilinishini so‘raydi. Bu hujjatni harbiy gubernator general-mayor Gepperi, gubernator yordamchisi polkovnik Semyonov, maslahatchi polkovnik Dolinskiy, ish yurituvchi yordamchisi Stepanovlar imzolaydilar. “1916-yil 15 apreldagi Volkovning maxfiy hisoboti” da Toshkentlik sartlardan Abdurahmon Sayyoh Sodiqov Munavvar Qori Abdurashidxonovni boshqaruvi ostida 2 haftada 1 bora “Isloh” deb atalgan sart tilidagi diniy-axloqiy jurnalni nashr etilishini ta’minlagan, deb bayon qilingan. Volkov bank haqidagi maqolani sabab qilib, jurnalning keyingi sonida bankning joizligi to‘g‘risida maqola chop qildirib, keyin ularni Turkistondan tashqariga badarg‘a etilishlarini so‘raydi. Bu orqali u Munavvar qorini surgun qilib, jazolamoqchi bo‘ladi. “Al-Isloh”da chop etilgan maqola unga asosli bahona bo‘lgan edi. Biroq Volkov jarayonni biroz chigallashtirish uchun oxrankaning maxsus topshiriqlar bo‘yicha ishchisi Mixail Narishkinni ishga soladi. U rus imperatorining 1881-yil 14 avgustda qabul qilingan “Davlat tartibi va tinchligini saqlash

choralari to‘g‘risida” deb nomlangan ustaviga asosan Munavvar qori Abdurashidxonovni so‘roq qiladi. Munavvar qori “Al-Isloh”da aytilgan fikrlarga aloqasi yo‘qligini bildirar ekan, Qur’oni karimda “sudxo‘rlik qilmanglar” degan oyat bor, deb ichidan maqolada bayon qilingan fikrni ma’qullaydi. Volkov ham, Narishkin ham javobdan ko‘ngli to‘lmagach, Munavvar qoridan ushbu shaklda tilxat yozdirib olishadi: “1916-yil 23 aprel. Turkiston tuman maxfiy bo‘limida ul baland darajalik Turkiston general-gubernatorining buyrug‘iga asosan menga ma’lum qilinadi: “Al-Isloh” jurnalini nashr etishda ishtirok etib, uning sahifalarida Rus imperiyasining manfaatlariga zid, ayniqsa, “Banklar xususidagi savolga javob” kabi maqolalarni kiritsam, men Turkiston o‘lkasidan surgun qilinadurman. Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li”. Volkovning tazyiqi bilan yuqoridagi maqolaga raddiya tarzida jurnalda quyidagi maqola joy oladi.

Jurnalning 1916-yil 15 maydagi 10 sonida “Bank bilan muomala qilish”[2;304] nomli maqola chop etilgan. “Isloh”ning 4-sonida bank to‘g‘risidagi savolga javob berilgan ekan. Unda musulmonlarning bank ishiga aralashishlari shariatga qarama-qarshi ish deb bayon qilingan ekan. Bu shaklda musulmonlarning ijaraga pul olib, pul qo‘yishlari borasinda yaxshi emas deganlari to‘g‘ri bo‘lmay, bank bilan aloqada bo‘lgan bir qancha musulmonlarni gumonga solsa kerak. Zero, shariat bor bo‘lib turgan musulmonobod Turk davlatida ham musulmonlar banki va zaxiralari bor. Hattoki vaqf uchun alohida bank ham bo‘lib, u bank bilan *ha* o‘zi va shayxul-islom boshliq nuroniy ruhoniylar muomala qilib turibdi. “Isloh”ning 4-sonidagi javobga ochiq dalil bo‘lsa kerak. Javob maqolada *ha* (*halif* so‘zining to‘liq yozilmaganligi A.A.) so‘zi takror tekshiruv holatini davom etishiga omil bo‘ldi. Tergov qilinganlar jurnal muharriri Abdurahmon Sodiqov, litografiya ishchilari Mirg‘ani Mirxalilov, Trofim Simonov Kobilkovskiylar o‘zlarining bildirgilarida halif so‘zini *l* va *f* harflari toshbosma uslubi tufayli tushmay qolganligini bildirib o‘tadilar va Abdurahmon Sodiqov jurnalning 12-sonida takror tekshirib chop etishga so‘z beradi. Haqiqatan, jurnalning 1916-yil 15 iyundagi 12-sonida maqolani to‘g‘ri shaklda takror chop ettiradi.

Ammo maqola chop ettirilgunga qadar, “1916-yil 7 iyunda davlat xodimi Narishkin Turkiston rayon muhofazasi bo‘limining buyrug‘iga binoan imperatorning 1881-yil 14 avgustdagi “Davlat tartibi va tinchligini saqlash choralari to‘g‘risida” deb nomlangan nizomiga asosan Munavvar qori Abdurashidxonovni tergov qiladi”. Bizga ochiq bo‘lmagan sabablarga binoan berilgan savollarga Munavvar qori shu shaklda javob beradi:

“Men biror marotaba musulmonlarning jurnali “Al-Isloh”da ishtirok

etmaganman, men oldin ham qabul qilmaganman, hozir ham shunday. Men hech qachon jurnalni o‘qimaganman. Chunki u eski davr musulmon hayotini yoqlab chiqadi. Men yangi usul maktabi muallimi sifatida “Isloh” jurnali borasida shuni ta’kidlashim mumkinki, bu jurnalni chop qilinishiga men ijozat bermaganman va bu jurnal menga maqbul emas. Jurnalda nashr qilingan “Bank haqidagi savollarga javoblar” maqolasi haqida xabarim bor xolos, uni mutolaa qilmaganman ham. Bu maqolani chop etilishiga men noroziman, shuningdek, Qur’onning o‘zida bu borada tahminan “Foizga ko‘paytirishga bermanglar” deyilgan. Qolaversa Qur’onda bank borasida biror bir ko‘rsatma yo‘q. Muhammadning o‘zi aytadi: “hattoki ta’qiqlangan narsalarga ham zaruratda ruxsat beriladi”. Hozirgi savdo dunyosida banksiz va unda musulmonlarni ishtirokisiz anglab bo‘lmaydi. Men musulmonlarni bank jarayonlarida qatnashishi shariatga teskari emas, deb bilaman. Musulmon davlati Turkiyada ham banklar faoliyat yuritib turibdi va musulmonlar unda qatnashib turibdi. Boshqa biror narsa deya olmayman”. Munavvar qorining bu kabi javob berishi, ehtimol, jazodan qutulib qolish uchun bo‘lgandir.

Abdurahmon Sayyoh chop etgan Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotni yoritgan maqolalardan biri “Shavkati va davlati davomli buyuk hukmdor va sevimli imperatorimiz hazratlarining Turkiston o‘lkasidan g‘animga qarshi ko‘ksilarini tutib turgan qahramon askarlarga ko‘mak uchun ishchi so‘rashlari haqinda bir-ikki xayrihohona so‘z”[3;462-469] nomli maqoladir.

Abdurahmon Sayyoh chop etgan bu maqola xalqni ozgina tinchlantirishga va 1916-yil 25 iyundagi mahalliy aholini front orti ishlariga safarbar qilish borasidagi imperator farmoniga itoat etishga qaratilgan edi. Chunki bu maqola Turkiston o‘lkasi xalqining istibdod kishanlariga qarshi eng katta chiqishi 1916-yildagi iyun qo‘zg‘olonidan keyin nashr qilingan edi. Sababi, chor hukumatining 1916-yil 25 iyunda e’lon qilingan “Urush kechayotgan yerlarda mudofaa va harbiy aloqa inshootlarini qurish, shuningdek, davlat mudofaasi uchun kerak bo‘lgan barcha boshqa ishlarni qilish uchun rus bo‘lmagan aholining erkak qismini jalb qilish to‘g‘risida”[4;223] gi farmoni bo‘ldi.

Yuqoridagi farmonga ko‘ra, asosan hozirgi O‘zbekiston hududlarida yashovchi va yoshi 19 dan 31 gacha bo‘lgan 200 mingdan ziyod erkak mana shu ishlarga safarbar qilingan. Kamiga qishloq xo‘jalik ishlari eng “qaynab” turgan vaqtida bunday farmonni e’lon qilinishi xalqni g‘alayonga keltirgan edi. O‘lkada bir zumda front orti ishlariga chaqiriluvchilarning ro‘yxatlari tuzila boshlandi, aholiga front ortidagi ishlarga safarbar qilinganlar 3 oylik muddatda qaytib kelishlari, bu vaqtga qadar ularning

roʻzgʻorlari barcha zarur narsalar bilan taʼminlanishi vaʼda qilindi. Mahalliy hukumat vakillari yuqoridagi safarbarlikni boylik orttirish vositasiga aylantirib yuborishdi. Boylarning farzandi maʼlum pul evaziga qutulib qolar, kambagʻallar esa yakkayu-yagona boquvchisidan ham ayrilar edi. Bunday adolatsiz vaziyat kuchli norozilikni keltirib chiqardi». Mardikorlikka chaqiriq toʻgʻrisidagi farmonning qabul qilinishi aholi orasida qonli voqealarga olib keldi. 1916-yil 4 iyulda dastlab Xoʻjand xalqi qoʻzgʻolon koʻtardi. 1916-yil 10 iyulga kelib esa Eski Margʻilon, Qoʻqon, Namangan, Andijon, Chust va boshqa hududlarda katta norozilikiar boʻlib oʻtdi. 11 iyuldan 15 iyulga qadar Fargʻona viloyatining turli hududlarida chaqiruvga qarshi oshkora talablar bilan chiqishlar boʻlib oʻtdi. 1916-yilning avgustida “Turkiston general-gubernatori Turkiston rayon muhofazasi boʻlimi” maʼlumotlari asosida podshoning mardikorlikka olish borasidagi farmonini ijro etish uchun jadidlarning koʻmagiga tayanish haqidagi xulosaga qoʻshildi. Shu sababli u jadidlar rahnamosi Ubaydullaxoʻjaning talabini qondirib, Andijon tumanboshisi lavozimidan olindi. Mardikorlikka olishda hamma ishlarni jadidlar rahbarlik qiluvchi “tuzem qoʻmitasi” ixtiyoriga topshirildi. Toshkentdagi “Tuzem qoʻmitasi” rahbarligiga Ubaydullaxoʻja Asadullaxoʻjayevni, uning oʻrinbosarligiga esa Munavvar qori Abdurashidxonovni tayinladi.

Abdurahmon Sayyoh tomonidan “Al-Isloh” jurnalida 1916-yil 1 avgustda nashr etilgan ushbu maqolada jurnal tahririyati xalqni imperator farmoniga itoat etishga chorlaganini koʻrishimiz mumkin. Insonlarning tabiati hamisha bir-birlari bilan birlashib yashashni taqozo qilgani sabab qishloqlar vujudga keldi. Xaloyiqlar guruh-guruh boʻlib, bir-birlariga yordam berib, muddaolariga yetmoqdalar. Ularning tabiati va mazhablari adolatli, zulmkor va har xil boʻlgani uchun Alloh taolo oʻrtalarida oʻrtamiyonalikni ushlab turish maqsadida paygʻambarlar va hukmdorlarni yuboradi. Ularning turli qarshiliklardan asraydi. “Ey, imon keltirganlar, Allohga va uning rasuli (s.a.v)ga boʻysuninglar. Oʻzingizdan boʻlgan boshliqlarga boʻysuning”. Imperatorimiz tomonidan ushbu 2-yillik shiddatli urush maydonidagi qora xizmatlar bilan nishonalangan vatan doʻstlarini dushmanga qarshi qahramon askarlarning saflariga chiqarish uchun oʻrinlariga boshqa ishchilar olish borasidagi istaklari rahbarlar tomonidan shahar hokimlari vositasi bilan shayx Xovandi Tohur jomeʼ sahnida amaldor qozilar, mingboshilar, ellikboshilar, mudarrislar, eshonlar va boshqalar jamlandilar. Musulmon va ruslardan barchasi 7000 ishchi olinishi aytilib, barchaga yetkazinglar, bu borada hukumat idorasi hamisha sizlar uchun ochiq, deb aytildi. Yigʻilganlar bu ishni maslahatga qoldirdilar. Bu ish nuroniylar tomonidan tinglaguvchilarning qiyofalari

o‘zgarmasdan ularga zahmat keltirmas darajada tadbir qilishlari iltimos qilindi. Chunki vatanni muhofaza etish hamma fuqaroga lozimdir. Bundan bo‘yin tovlashimizning oqibati kechagi voqeadir. Kechagi voqea bo‘yin tovlashdan emas, balki rahbarlar bilan muomala odobini bilmaslik oqibati bo‘lsa ham, natijasi yaxshi bo‘lmadi. Itoat etishimiz bilan biz bir qator buyruqlarni bajaramiz. Dastavval, Allohning “Rahbarlaringizga itoat eting” degan buyrug‘ini bajaramiz. Ikkinchidan, “O‘zingizni o‘z qo‘lingiz bilan halokatga uloqtirmang” oyatiga xilof etmagan bo‘lamiz. Uchinchidan, podshohimizning farmonlarini qadrlashimizni o‘zgalarga bildiramiz. So‘ngra, 50-yil davlati soyasida yashaganimiz podshohga sadoqatimizni bildiramiz… Endi, podshohga sadoqatli ekanligingizni namoyon eting, tarix zarvaraqlarida qolish uchun bu buyruqqa itoat etishga g‘ayrat qiling. Farzandlaringiz, molingiz va barcha millatdoshlaringizni turmush tarzini barqaror eting. Shu vaqtga qadar, ulamolarimiz tomonidan bu buyruqqa itoat etishga chorlab biror bir maqola kelarkanmi, deb umid bog‘layotgandik. Oxiri, o‘z iqtidorimizga yarasha biroz fikr aytmoqqa jazm qildik.

1916-yilgi qo‘zg‘olon ma’rifatparvarlarning g‘oyaviy qarashlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. U milliy-ozodlik harakatining avj olishi, milliy mustaqillik qarashlarining keng quloch yoyishiga sabab bo‘ldi. Jadidlar bu vaqtda mustamlaka hukumatining beboshligini oshkor etishda o‘ziga xos siyosiy yo‘l tutdilar. Ular “mardikor olish borasida yerli mahalliy qo‘mitalar vositasida qo‘zg‘olonchilarning erkinlikka intilishlarini qo‘llab-quvvatlashdi, kuch va imkoniyatlaridan kelib chiqib, urush ortidagi mardikorlar taqdirini yengillashtirish, hukumatning ta’minot borasidagi beboshlik va zo‘ravonliklarini bekor qilish uchun barcha choralarni ko‘rdilar”[5;242-243.

Abdurahmon Sayyohni ijodini o‘rganish davomida 1917-yil 1 apreldan boshlab, hurriyat haqida ko‘plab maqolalarni nashr etganiga guvoh bo‘lamiz. Shu mazmundagi maqolalardan biri “Yashasin hurriyat”[6;812-817] nomli maqola bo‘lib, unda hurriyatni ikki qismga ajratib izohlanadi. Birinchisi, malakiy hurriyat, ikkinchisi, diniy hurriyat. Bu yerdagi malakiy hurriyat davlat, millat erkinligi ma’nosida bo‘lsa, diniy hurriyat esa, dinni mahkam tutib, uni bid’at va xurofotlardan holi qilib, uni zamon saodatiga xizmat qilishini dalillashdan iborat deb izohlaganlar. Shu nashrdagi Ibrohim Tohiriyning “Hurriyat”[6;818] nomdagi maqolasida “Millatlar haq hurriyatni ilmlar va maorif nuri barakasida toparga musharraf bo‘lurlar”, deb hurriyatni talqin etadi. Shu sabab muallif maqolasida Samarqand, Xo‘jand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi madrasalardagi ta’lim jarayoniga alohida urg‘u berishni

ta’kidlaydi. Shu bilan birga inson huquqi va davlat huquqi qonunlarini hamma tushunishini ta’kidlab o‘tadi. Abdurahmon Sayyoh esa jurnalning bir qator (1916-yil, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 16) sonlarida “Diniy hurriyat” nomli maqolalarni nashr qilgan.

Abdurahmon Sayyoh maqolalarida insonlarning kelajak orzu-umidlari haqidagi qarashlari axloqiy g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq tarzda ma’naviy-falsafiy jihatdan tahlil qilinib, inson o‘z ruhiyatini to‘g‘ri tarbiyalashi orqali jamiyat muammolarini hal qilishi va hayot haqiqatini anglab yetishi mumkin degan xulosalarini ijtimoiy bilish nazariyasi sifatida e’tirof etilgan. Uning ta’limotidagi insoniylik, insonparvarlik masalalarida islom dini bilan uyg‘unlikning umuminsoniy ma’naviy xarakteri alohida ahamiyatga ega deb hisoblangan. Shu bilan bir qatorda, insonni himoya qilishda yoki uning huquq va erkinliklarini kafolatlashda inson irodasi, ongi, ma’naviy yuksakligi axloqni amaliyotda namoyon qiluvchi fazilatlar deb baholanishiga urg‘u berilgan va ularning amaliy hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lganligi asoslangan. Umuman, bu ma’rifatparvar dunyoqarashi shakllanishida: islom dini, tasavvuf va Sharq hurfikrlilik falsafasi ta’siri tahlil qilingan.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi jadid ma’rifatparvarlarining axloq masalalarini ilgari surishda Abdurahmon Sayyoh ham Markaziy Osiyo tarixini mufassal yoritish maqsadida jurnalda bir qator tarixiy maqolalar nashrini tizimga soladi. Islom tarixiga oid maqolalarda ilk Islom davridan to tadqiq etilayotgan vaqtgacha muddatni o‘z ichiga olgan bo‘lib, Abdurahmon Sayyoh bunda islom olamida mashhur shaxslar hayoti va ijodiy faoliyatiga alohida e’tibor qaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Togan Zeki Velidi, 1999: *Hatıralar: Türkistan ve* Diğer *Müslüman Doğu Türklerinin Millî Varlık ve Kültür Mücadeleleri* [Reminiscences: National and Cultural Struggles of Turkestan and other Muslim Eastern Turks], Istanbul: Türkiye Diyanet Vakfi, 3rd. ed. 150 p.

2. Ал-Ислоҳ. – Тошкент, 1916. – № 10. 344. б.

3. Ал-Ислоҳ. – Тошкент, 1916. – № 15. – 480.б.

4. Ўзбекистон халқлари тарихи. 2 – жилд. – Т.: Фан, 1994. – 320 б.

5. Садыков Х.Д. Колониальная политика царизма в Туркестане и борьба за национальную независимость в начале XX века: Автореф. дис. докт. ист. наук. – Т., 1994. –245 с.

6. Ал-Ислоҳ. – Тошкент, 1917. – № 7. – 840 б.

YOSHLAR MUAMMOLARI VA MILLIY O‘ZLIK

Baxtiyor OMONOV,
O‘zbekiston Milliy uniyersiteti professori,
siyosiy fanlar doktori

Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida yoshlar siyosati ustuvorlik kasb etadi. Zero, mamlakatimiz aholisining 18 yoshdagilar soni 40 foizni, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 64 foizni tashkil qiladi. Dunyo siyosiylashuvining avj olishi sharoitida yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishga ehtiyoj ortib boradi, albatta. Ular dunyoda ketayotgan siyosiy jarayonlar haqida bugun har qachongiga qaraganda ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lishmoqda.

Jamiyat hayotining demokratlashuvi, modernizatsiyalash jarayonlari aholining eng katta ijtimoiy qatlamini tashkil etadigan yoshlarning ijtimoiylashuviga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar – jamiyatning tub negizi, aholining ilg‘or qatlami, kelajakning ishonchli egalaridir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, har bir davr yoshlarining bilim darajasi, dunyoqarashi, o‘y-fikri, ma’naviy qiyofasiga qarab o‘sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin. Mustaqillikka erishilgandan keyin 1991 yilning 20 noyabrida “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan mamlakatimizda yoshlarga e’tibor masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi. Davlatning bu jarayondagi asosiy vazifasi – yoshlarning jamiyatga turli xil salbiy oqibatlarsiz kirib kelishini ta’minlash, ularning o‘z huquq va erkinliklarini to‘la amalga oshirishlarini kafolatlashdan iborat.

Bu dolzarb sohadagi faoliyatni takomillashtirish maqsadida 2017 yil 5 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi[5]. Farmonga binoan, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati negizida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30 iyun sanasi mamlakatimizda “Yoshlar kuni” sifatida nishonlanadigan bo‘ldi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi respublikamizda yoshlarga oid davlat

[5] Қаранг.: Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 27-сон, 607-модда.

siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta’minlovchi, “Yoshlar – kelajak bunyodkori” shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylandi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli idoralar faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini tashkil etish, natijasi bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqining huquqiy va amaliy vakolatlari kengaytirildi, tegishli imkoniyat va imtiyozlar berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida Yoshlar siyosati masalalari xizmati tashkil etilib, unga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi – O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi rahbarlik qilishi belgilab qo‘yildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi raisi o‘z lavozimiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan Senat a’zosi bo‘ldi.

Siyosatshunoslarning qayd etishicha, 11 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan bolalarda siyosiy tafakkur paydo bo‘lib, 16 yoshdan 18 yoshgacha u mo‘tadillashish holatiga keladi[6]. Buning ustiga, bugun fan, texnika va texnologiyaning yuksak taraqqiyoti hamda ommaviylashuvi yoshlarning kuchli siyosiy ahloqiy bosim ostida yashashlariga sabab bo‘layotganligini nazardan qochirmaslik kerak. Ayniqsa, internet, mobil telefonlarining yuksak darajada rivojlanayotganligi ular orqali yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan xarakatlarining kuchayayotganligi ayrim yoshlarning ma’naviy-ahloqiy jihatdan zaiflashuviga o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda.

Manbalarda keltirilishicha, bugungi kunga kelib, internet tarmog‘ida ma’naviy-axloqiy tubanlikni targ‘ib etuvchi sahifalarning soni bir necha yuz millionni tashkil etadi. Birgina **AQSH davlati bir yilda 700 ming qo‘shiq, 6 ming klipni suratga olib tarqatmoqda.** Suratga olingan qo‘shiq va kliplarda, asosan, ommaviy madaniyat va hayosiz ko‘rinishdagi illatlar targ‘ib-tashviq qilinmoqda. **Bu davlat 15 mingdan ortiq fahsh jihatlarni namoyon qiluvchi internet saytlarini yaratib qo‘ygan.** Hozirda global tizim tarkibida buzg‘unchilik, qo‘poruvchilik maqsadini ko‘zlaydigan kuchlarning **7000 dan ortiq veb-sahifalari ishlab turibdi.** Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan eng ko‘p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanadi”.[7] Shunday ekan, yoshlar siyosiy madaniyatni izchillik bilan

[6] Қаранг. Шестомоль Е.Б. Личность и политика. – М.: Политика, 1988. – С. 124.

[7] Қаранг.Ўзбекистон Республикасида ёшлар сиёсатини амалга оширишнинг долзарб масалалари // республика илмий-амалий анжумани материаллари. 2013 йил 22-23 январь. –Т.: Маънавият, 2013. – Б. 221-222.

takomillashtirib borishga jamiyatda ehtiyoj oshib boraveradi.

Jamiyatdagi ko‘plab muammolar tahlili milliy o‘zlikni anglash masalasini yana kun tartibiga olib chiqmoqda. Mustaqillik yillarida bu borada birmuncha siljishga erishildi. Urf-odatlar, qadriyat, diniy e’tiqodimiz tiklandi, muqaddas maskanlar, masjid-u madrasalar, tarixiy obidalar qayta ta’mirlanib, xalqimizga qaytarib berildi. Fuqarolarimiz ma’naviy-ruhiy olamida yangilanish, poklanish va yurti uchun g‘ururlanish hissi paydo bo‘ldi. Ta’lim-tarbiya dargohlarida yoshlarning ongiga qadimiy merosimizni bilmasdan turib, o‘zlikni anglash mumkin emasligi tushuntirilmoqda. Zero, milliy o‘zlikni anglash – o‘tmish bilan kelajakni bog‘lovchi ma’naviy ko‘prik ekanligi yoshlar ongiga singdirilmoqda.

Iqtisodiyotimiz chorak asr ichida 5,5 karradan ziyod o‘sdi, aholining real daromadlari jon boshiga 9 marta ko‘paydi. Bugun yurtimiz erishayotgan yutuq va marralar dunyo miqyosida e’tirof etilmoqda. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan e’lon qilingan reytingda iqtisodiyoti eng tez rivojlanayotgan davlatlar orasida mamlakatimiz 5-o‘rinni egallagani, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko‘magida AQSHning Kolumbiya universiteti tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy tadqiqotlar asosida e’lon qilingan “Butunjahon baxt indeksi”da Vatanimiz 158 ta mamlakat o‘rtasida 44-pog‘onani, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari orasida 1-o‘rinni egallagani vatandoshlarimizda iftixor faxr tuyg‘ularini uyg‘otdi.

Ammo shu bilan birga, tahlillar jamiyatimiz qatlamlarida totalitarizmdan meros qolgan illatlar saqlanib qolayotganidan darak beradi. Milliy ongimizda davr bilan hamohanglik masalasida oqsash ko‘zga tashlanadi. Siyosiy fanlar nomzodi U. Muhammadiyev mentalitetimizga xos bo‘lgan ikkita jihatni tahlil etarkan, xalqimizda “birinchidan, bir paytning o‘zida, hokimiyatga hurmat bilan birga, o‘ziga xos “qo‘rquv” hissi mavjud; ikkinchidan, siyosiy hayotga munosabatda qonunga tayanishdan ko‘ra, ko‘proq “an’analar”ga tayanish ruhiyati ustuvorroq[8]”, deb yozadi. Ana shu psixologik to‘siqning mavjudligi modernizatsiyalash jarayonlariga salbiy ta’sir o‘tkazmay qolmaydi.

Bugungi kunda jamiyatning turli qatlamlarida eskicha yashash va eskicha fikrlash, turg‘unlikni saqlash, sodda qilib aytganda, “o‘zbekchilik” alomatlari uchraydi. Professor A. Qodirov masalaning ildiziga chuqurroq kirib borib, o‘z fikrini shunday tushuntiradi: “Unitar davlat tizimi qoldiqlarining saqlanib qolishi, eskicha rahbarlik uslublari; davlat apparatida ma’muriy-buyruqbozlik (byurokratizm), tanish-bilishlik, qarindosh-urug‘chilikning kuchayishi; yuqori lavozimdagi rahbarlarning

[8] Муҳаммадиев У. Ўзбекистонда сиёсий маданият ва миллий маънавиятнинг ўзаро муносабати муаммоси. Сиё. фан. ном. дис. автореф. –Т.: 2002. – Б. 25.

o‘z lavozimini suiiste’mol qilishi; fuqarolar ongi va madaniyati, umumiy saviyasining pastligi; har bir ishni pora berish va olish yordamida bitirishga intilishning mavjudligi; ma’muriy shaxslarning ta’magirligi va boshqalar korrupsiyani yuzaga keltiradi”. Jamiyat taraqqiyotiga xalaqit berayotgan ushbu noxush hodisalar, salbiy illatlar davlat siyosatining samaradorligi va obro‘yiga jiddiy putur yetkazmoqda.

Yuqorida ta’kidlanganidek, modernizatsiyalash va milliy o‘zlikni anglashda hamda mamlakatni rivojlantirishda jamiyat illati bo‘lgan korrupsiya salbiy rol o‘ynaydi. Bu illat huquq-tartibot organlarida, moliya-iqtisod, bank tizimlarida saqlangan. Shunisi diqqatga molikki, 2016 yil dekabrida O‘zbekistonning yangi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunga imzo chekildi. Shu maqsadda 2019 yil 27 mayda “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni qabul qilindi. Bu, albatta, yirik qadamlar deyish mumkin.

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida eng og‘riqli nuqta – korrupsiya. Transparency International Corruption Perceptions Index (CPI) e’lon qilgan ma’lumotda O‘zbekiston 2017 yilda 157 ta o‘rinda e’tirof etildi. Oliy Majlis yuqori palatasi raisi Nig‘matila Yo‘ldoshev 2019 yil 15 iyunda Senatda bo‘lib o‘tgan majlisda quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi: “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan 2019 yilda o‘tkazilgan korrupsiya bo‘yicha so‘rov natijalari xavotirli. Chunki so‘rovda qatnashganlarning 66,5 foizi O‘zbekistonda korrupsiya singari salbiy illat tarqalgan, deydi. Qariyb 17 foiz ishtirokchilar korrupsiya hamma joy va sohalarni qamrab olgan, degan fikrda bo‘lsa, so‘ralganlarning 29 foizi mansabdorlarning har ikkinchisi korrupsioner, deb hisoblaydi”.

Korrupsiya – modernizatsiyalash kushandasi, bu masala yechilmas ekan, jamiyat modernizatsiyasi ham, milliy rivojlanish ham yuz bermaydi.


Masalaning **yechimida** xorijiy tajribasidan foydalanish zarur, deb hisoblaymiz. Masalan, AQSHda reportyor jurnalist korrupsiyaga qarshi kurashda eng samarali jamoat nazorati sanaladi. MDHda, jumladan O‘zbekistonda ham jamiyatdagi jinoyatchilik va korrupsiya holatlari chuqur tahlili haqidagi jurnalist surishtiruvi sayoz holatda bo‘lib, ular davr ehtiyojidan ancha orqada qolmoqda.

Bizningcha, avvalo oilada, bog‘chada, maktabda o‘g‘il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga ta’magirlik, poraxo‘rlik yomon illatgina emas, balki jamiyatimiz tanazzuliga olib boruvchi qudratli kuch ekanligi haqida tarbiyaviy va targ‘ibot ishlarini olib borish darkor. Endilikda siyosiy

hayotimizga “parlament nazorati”, “jamoatchilik nazorati”, degan qoidalar, tartibotlar kirib kelishi, shu nomdagi qonunlar qabul qilinishini ijobiy o‘zgarishlar, deb bilamiz.

Mazkur muammolarning tahlili asosida tadqiqotimiz yakunida “Globallashuv sharoitida O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Konsepsiyada respublika asosiy salohiyatini belgilab beruvchi 10 ta omil, modernizatsiyalashga xalaqit beruvchi ichki va tashqi tahdidlar ochib berilgan (jadvalga qarang).

Quyida jamiyatimizda milliy o‘zlikni anglash borasida to‘plangan ayrim muammolarni keltirib o‘tdik:



Jadval. Globallashuv sharoitida O‘zbekistonda jamiyatni modernizatsiyalash konsepsiyasi.

birinchidan: fuqarolarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayoni faol ishtirokchisiga aylantirish; amalga oshirilayotgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, keng ko'lamli islohotlarning mohiyatini, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining ahamiyatini fuqarolarimizga sharhlab berish va tushuntirish; ijodkor ziyolilar ishtirokida joylarda samarali targ'ibot tizimini amalga oshirish; ma'naviyatning kuch qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish va rivojlantirish;

ikkinchidan: turli qarash va fikrlarga ega bo'lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va xarakatlarning o'ziga xos orzu intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar – Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, milliy rivojlanish barcha uchun muqaddas maqsadga aylanishini anglatish;

uchinchidan: ta'lim-tarbiya tizimini muttasil takomillashtirish, kelajagimiz bilimli, dono va ma'naviy sog'lom, barkamol avlodga bog'liq ekanligini chuqur anglashga erishish;

to'rtinchidan: muqaddas e'tiqod ramzi bo'lmish islom dinining bugungi hayotimizdagi o'rni va ta'sirini, yoshlarimizni ruhan pok, iymoni butun, irodasini baqquvvat etish, odamiylik fazilatlarini uyg'unlashtirishdagi hissasini va mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi tashviqot ishlarini davom ettirish;

beshinchidan: ko'p millatli mamlakatimiz fuqarolari orasida ularning milliy va diniy mansubligidan qat'i nazar, o'zaro hamjihatlik, birdamlik, yurtparvarlik tuyg'ularini va milliy g'ururni singdrish kerak.

MA'NAVIYAT TAKOMILLASHUVINING MA'NAVIY SALOHIYAT YUKSALISHIDAGI AHAMIYATI

Saodat JABBOROVA,
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori,(PhD)
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

O'zbekistonda ma'naviy salohiyatni ijtimoiy taraqqiyot omiliga aylantirish uchun uni yuksaltirish borasidagi davlat siyosatining asosiy vazifalarini, boshqarish mexanizmlarini aniqlab olishning o'zi kifoya emas. Ayni paytda jamiyat ma'naviy salohiyatidan oqilona foydalanish istiqbollarini ham belgilab olish kerak. Ayniqsa Yangi O'zbekistonni barpo etishni maqsad qilgan, ma'rifiy jamiyat qurishga, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan davrda mavjud ma'naviy salohiyatdan

foydalanishning zaruriyati va imkoniyatlarini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.

Ammo amalga oshirilgan ishlarni yanada jonlantirish, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta’siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada emasligi bu sohada muammolarni bartaraf etish, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, ta’lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni talab etardi.

Jahonda g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar va ma’naviy tahdidlar kuchayishi yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlarga bepisandlik, yot g‘oyalar ta’siriga berilish kabi holatlarning uchrab turishi mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning ma’anviy salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tiborni talab qilardi. Shu bilan birga ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 mayda PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[1].

Yuqorida qayd qilingan Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan amaliy ishlar ma’naviy salohiyatni yuksaltirishda muhim rol o‘ynaydi, albatta.

Mamlakatimizda ma’naviy salohiyatdan oqilona foydalanish imkoniyatlari va istiqbollari amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari bilan hamohangdir. Boshqacha aytganda, bugungi islohotlar qaysi maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, davlat tomonidan yuksaltirish choralari ko‘rilgan va oqilona boshqarib borilayotgan ma’naviy salohiyat yaqin kelajakda aynan o‘sha maqsadlarga yetish imkonini beradi. Ma’lumki, O‘zbekistondagi ijtimoiy yangilanishlarning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

• “har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish;

• barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;

• suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

• qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

• “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish” [2].

Birinchidan, ma’naviy salohiyatdan “har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish”da foydalanish mumkin. Bu yo‘nalishdagi tub islohotlar davomida ta’lim tizimi islohotlar, aholi salomatligini ta’minlash bo‘yicha islohotlar, ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha islohotlar, yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar va ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar bilan bog‘liq ahamiyatli maqsadlarga erishish ko‘zda tutilmoqda.

Masalan, ta’lim maskanlarida mehnat qilayotgan mutaxassislarning salohiyatiga, hayotiy tajribasiga, xayrihohligiga tayanmasdan turib, na ta’lim mazmunini, na uning sifatini oshirib bo‘ladi. Amaliyotning guvohlik berishicha, ushbu omillarga asoslanmagan, byurokratik yondashuvlar yordamida tatbiq etilgan har qanday yangilik pirovardida tanazzulga yuz tutadi. Ilm-fanning tom ma’nodagi rivoji ilm ahlini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashdan boshlanadi, uningsiz biror bir ahamiyatli dasturni ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydi. Tibbiyot, sport, pensiya ta’minoti va ijtimoiy himoya tizimini ham jamiyat ma’naviy salohiyati imkon bergan darajaga qadar yuksaltirish mumkin. Ma’naviy salohiyati baland jamiyatda erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash ishlarini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘ladi. Ma’naviy salohiyatning bosh mezoni – sog‘lom ma’naviy-ruhiy muhit samarali ijtimoiy siyosatni yo‘lga qo‘yish, inson kapitalini taraqqiy toptirish imkonini beradi. Shunday ekan, islohotlarning adolatli ijtimoiy siyosat, inson kapitali rivoji bilan bog‘liq maqsadlari jamiyat ma’naviy imkoniyatlari, resurslari, zahiralariga tayanilganidagina voqelikka aylanadi.

O‘zbekistonda har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratishda ma’naviy salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari va istiqbollarini inobatga olgan holda quyidagilarga e’tiborni qaratish lozim, deb hisoblaymiz:

• edu.uz saytida “Ta’lim mazmuni va sifatini oshirishga doir takliflar” nomli bo‘lim tashkil etish va uning orqali mutaxassislar va soha xodimlarining ta’lim mazmuni va sifatini takomillashtirishga doir mulohazalarini jamlash;

• “O‘zbekistonda ilm-fan rivoji” mavzuida muntazam o‘tkaziladigan ilmiy-nazariy konferensiyani yo‘lga qo‘yish va uning yordamida

olimlarning ilm-fanning bugungi ahvoli va uni rivojlantirish imkoniyatlariga doir mulohazalarini o‘rganib borish;

• sohaning malakali mutaxassislari taklif va tavsiyalarini tibbiyot sohasidagi islohotlarda, xususan tibbiy xizmatni takomillashtirishda, hududlardagi sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni va jamoat salomatligini ta’minlashda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish;

• jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda xalqaro miqyosda faoliyat ko‘rsatish tajribasiga ega bo‘lgan sport ustalarining tajribalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;

• respublikadagi yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy mexanizmlar qamrovini kengaytirish, ushbu mexanizmning mamlakatdagi barcha yoshlarni qamrab olishini ta’minlash;

• ijtimoiy himoya tizimi va pensiya ta’minoti sohalaridagi islohotlarni ijtimoiy adolat tamoyillari, aholi ehtiyoj va manfaatlari bilan yanada uyg‘unlashtirish.

Ushbu takliflar O‘zbekistonda adolatli ijtimoiy siyosatni ta’minlashda va inson kapitalini rivojlantirishda jamiyat ma’naviy salohiyatidan kengroq foydalanishda qo‘l keladi. Ma’naviy salohiyatdan ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohotlar davomida jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish, madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish, O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish, milliy kino san’atini rivojlantirish maqsad qilingan. Mazkur maqsadlarni ro‘yobga chiqarishda jamiyat ma’naviy salohiyatiga tayanilishi ularga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907-сон “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори // https://lex.uz/docs/3864155

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.05.2019 йил 3 майда ПҚ-4307-сон “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори // https://lex.uz/docs/4320700

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/-6600413

4. S.S. Jabborova. Jamiyatda ma’naviy salohiyatni rivojlantirish- yurt kelajagini belgilab beruvchi muhim omil. Tafakkur ziyosi ilmiy uslubiy jurnal. 3/2023.B 186

5. Jabborova S.S. O‘zbekistonda jamiyatning ma’naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashdagi roli. FarDU ilmiy xabarlar. 4-2023. B. 67

6. Jabborova S.S. Ma’naviy salohiyatni yuksaltirish va boshqarishda davlatning roli. Current Approaches and new Research in Modern Sciences. 2023 P. 34 https://doi.org/10.5281/zenodo.8385791

MILLIY TARBIYA, MILLIY O‘ZLIKNI YUKSALTIRISHDA QADRIYATLARNING O‘RNI

Gulbahor XADIYEVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Buxoro viloyat Buxoro shahar bo‘linmasi mutaxassisi

Yoshlar tarbiyasiga mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq e’tiborni qaratib, jismonan sog‘lom va ma’nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi va u davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ma’lumki, hozirgi davrda globallashuv jarayoni hayotimizga tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv-bu avvalo hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jarayonida, davlatlar o‘rtasida turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezda tarqalishi, xalqlar o‘rtasidagi muloqotning yangicha sifat kasb etishi, o‘zaro hamkorlik imkoniyatlarining yuzaga kelishi- bu globallashuvning ijobiy ahamiyati, ammo globallashuv jarayonining bugungi yana bir jihati shuki, u yoshlarga mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning quroliga, har xil siyosiy, g‘oyaviy kuchlarning kurash sahnasiga ham aylanib bormoqda.

Shu sabab yoshlar tarbiyasi davlatimizning doimo diqqat markazida bo‘lib, bu jarayon Mustaqillik yillarida uzluksiz davom etmoqda. Umuman mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolligi va ishtirokini ta’minlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yo‘qotgan, ko‘p bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan himoyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash kabi masalalar doimiy

nazorat ostida bo‘lmoqda. Yoshlarning ma’naviy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish uchun ta’lim-tarbiyaga xizmat qiladigan muhim vositalarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish zarur bo‘ladi. Shu bilan birga bu sohalardagi mavjud katta-kichik kamchiliklar va nuqsonlarga tezlikda barham berish va bunday salbiy holatlardan qutulish lozim bo‘ladi.

Mamlakatimizda yoshlar ma’naviy tarbiyasida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy va gumanitar fanlar ahamiyati beqiyos, shu sabab bu fanlar vakillari o‘zlarining o‘ta mas’uliyatli vazifalarini bugungi kun talabi darajasida bajarishlari lozim bo‘ladi. Bu sohadagi darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, adabiyotlarning hamda mutaxassislarning ham saviyasi yuqori bo‘lishi talab etiladi. Hozirgi davrda qo‘lga kiritgan muhim yutuqlarimizdan biri ta’lim-tarbiyada milliy, ma’naviy qadriyatlarimizning ustuvorligiga erishganimizdadir. Bu yosh avlodga boy tarixiy, milliy, ma’naviy merosni singdirish hamda asrlar davomida shakllangan an’analari asosida ta’lim-tarbiya berish demakdir. Zero Abdulla Avloniy aytganidek: “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”. [1]

Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadlari haqida gapirganda, bu so‘zning ta’rifini tushunish ham bir xil darajada muhimdir. Bu, eng avvalo, fuqaroning o‘z ona yurtiga qalbi bilan bog‘langanligini, o‘zi yashayotgan yurtda baxtli ekanini anglatadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, XVIII-asrdan boshlab vatanparvarlik mamlakat fuqarolari shaxsini shakllantirishning eng muhim qismi hisoblangan. Farzandlar yoshligidan vatanparvarlikka o‘rgatilgani tufayli ularda o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi shakllandi, bunda ona Vatan juda katta o‘rin egallaydi. Shubhasiz, bolalik bu global narsalar haqida eng kam o‘ylashni xohlaydigan davr. Bolaning beg‘araz yashashi, albatta, kelajagimiz uchun juda muhim bo‘lgan vatanparvarlik tarbiyasining og‘ir va jiddiy mavzulari soyasida qolmasligi kerak. Ammo shuni unutmasligimiz kerakki, aynan shu vaqtda shaxsning shakllanishi sodir bo‘ladi, shuning uchun biz unga to‘g‘ri fikr va istaklarni qo‘yishimiz kerak. [6]

Yoshlar burchga mas’uliyat (javobgarlik hissi)ni tarbiyalash sir-asrorlarini mukammal egallamog‘i lozim. Ushbu sohada olib borgan izlanishlarning natijalarini ko‘rsatishicha, yoshlarning ma’naviy qiyofasi shakllanishida, asosan, quyidagilarga e’tibor berish kerak ekan:

– oila, mahalla va maktabni muqaddas deb bilish;

– bola hatti-harakatini tahlil qila bilish va rejalashtirilgan ta’lim-tarbiya, bola ongi va tasavvuriga mos qilib, halol va harom, to‘g‘rilik va egrilik, yaxshi va yomon, mardlik va nomardlik, ma’naviyatlilik va vaxshiylik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati;

– yoshlarning erkin, mustaqil va to‘g‘ri, keng ko‘lamli fikrlashi;

– o‘tmish boy milliy-ma’naviy merosimizni hurmat qilish;

– milliy g‘ururni uyg‘otish, davlat ramzlariga hurmat va unga mos g‘ururni shakllantirish, fidoyilikni shakllantirish;

– Yoshlar vatanparvar, baynalminalchi, fuqarolik burchini chuqur his qiluvchi va shuningdek, milliy istiqlol g‘oyalariga sodiq ma’naviyatli kishilar darajasida bo‘lishi va shu kabilar.

Umuminsoniy qadriyatlar o‘zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilinishi, dunyodagi ko‘plab xalqlar (elatlar, millatlar) ning o‘tmishdagi, hozirdagi hamda istiqboldagi (kecha-bugun-ertaga tizimi bo‘yicha) taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o‘zida jahon sivilizasiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Xulosa qilib aytganda, xalqimiz, eng avvalo yoshlarimiz ma’naviy olamini kuchaytirish va daxlsizligini asrash uchun doimo sergak, ogoh va hushyor bo‘lishimiz, tahdidlarga qarshi chuqur o‘ylangan, ilmiy uslubga asoslangan va uzluksiz davom etadigan ma’naviy tarbiyani olib borish lozim bo‘ladi. Bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: -oila - oila, urug‘ va nasl haqidagi g‘oyalarni shakllantirish; -ijtimoiy hayot hodisalari bilan tanishish; davlat tarixi, davlat ramzlari haqidagi bilimlarni shakllantirish; -o‘z xalqining an'analari va madaniyati bilan tanishish; -ona yurt haqidagi bilimlarni shakllantirish. Tizimli vatanparvarlik tarbiyasini boshlash uchun bolaning ijtimoiy dunyoga va ijtimoiy hodisalarga qiziqishi ayniqsa faollashgan o‘rta maktabgacha yosh qulaydir. [5] Ammo vatanparvarlikni faqat ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida ko‘rib chiqish, u yoki bu jamiyatning muayyan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda etarli emas.

Yoshlar o‘rtasida ma’lum darajada yuqoridagi omillardan mustaqil ravishda shakllanadigan va inson ma’naviy hayotining ma’lum qatlamlarini tavsiflovchi vatanparvarlikning "tabiiy" asoslari mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi: o‘z ona yurtiga mehr, o‘z ona yurtiga muhabbat. tili, o‘z xalqi, an'ana va urf-odatlarni hurmat qilish va hokazolar. Vatanparvarlikni tavsiflashda bu omilni hisobga olmaslik ham mumkin emas. “Vatanparvarlik tuyg‘usini, - ta’kidlaydi N. Moiseyuk, - agar siz o‘quvchi e'tiborini uning oilasida, tug‘ilgan qishlog‘ida, shahrida sodir bo‘layotgan haqiqiy o‘zgarishlarga qaratsangiz, uyg‘otish osonroq bo‘ladi. Demak, pedagoglar his-tuyg‘ularini charxlash va ularga tayanish orqaligina o‘quvchini harakatga yetaklaydi”. [4] Faoliyat natijasida takrorlash jarayonida me’yorga aylangan xulq-atvor malakalari va

odatlari shakllanadi. Harakatlar tizimi, xatti-harakatlari asta-sekin xarakter xususiyatiga aylanadi, shaxsning mulkiga aylanadi. [4] Shu tariqa vatanparvarlik e'tiqodlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 592 b.
2. O'zbekiston Prezidentining Milliy g'oya, targ'ibot va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risidagi farmoni // Ta'lim. 2006 yil 26 avgust
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 174 b.
4. Moiseyuk N. E. Pedagogika: darslik. nafaqa. – M.: Granma, 1999. 348 b.
5. Moshnin A. Maktabgacha yoshdagi bolalarning vatanparvarlik tarbiyasi: "G'alaba salyuti" loyihasi // Maktabgacha ta'lim. - 2011. 4-son. 80–82 b.
6. https://uz.babymagazinclub.com/17164564-principles-methods-and-goals-of-patriotic-education-of-children

ZAMONAVIY EKOTURIZM TA'LIM-TARBIYASI SHAKLLANISHINING TARIXIY DAVRLARI

Sardorbek XAMRAYEV,
Termiz davlat pedagogika instituti
Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrasi o'qituvchisi

Zamonaviy dunyo tabiiy resurslardan yanada mas'uliyatli va barqaror foydalanishga intiladi va shu nuqtai nazardan ekoturizm sohasi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ekoturizm sayohat sanoatining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, tabiiy go'zallik va ekotizimlarga bo'lgan qiziqishni tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan birlashtiradi. Insoniyat shaharlarga ko'chib o'tmoqda. Ulkan aglomeratsiyalar tobora ko'proq odamlarni yutib yuboradi va ularning hayotini shov-shuv bilan to'ldiradi. Stress-bu shahar turmush tarzining doimiy hamrohi bo'lib, uning sharoitlari insonning psixologik yoki fiziologik ehtiyojlariga mos kelmaydi. Inson-biologik turlardan biri-alohida yerliklar qanchalik xohlamasin, tabiatdan butunlay

"chiqa olmaydi". Shahar aholisi u bilan yolg‘iz qolish, toza havo olish uchun tabiatga jalb qilinadi. Bunday harakat turini butun dunyoda turizm deb ataladi.

"Ekologiya" va "turizm" asosiy toifalaridan foydalangan holda ekoturizm tushunchasini tahlil qilish uning mohiyati va mazmunini to‘liqroq ochib berishga imkon beradi. Ekoturizm - bu ikkita muhim faoliyat sohasini-atrof-muhitni muhofaza qilish va turizmni birlashtirgan yaxlit tushuncha. Ekoturizmni to‘liq tushunish uchun "ekologiya" va "turizm"atamalarining ma’nosi va tarixini chuqur o‘rganish kerak. Ma’lumki, ekologiya (yunoncha oikos–uy, turar joy va logos - ta’limot) termini ilk bor nemis olimi E.Gekkel tomonidan «Organizmlarning umumiy morfologiyasi» nomli kitobida 1866 yil qo‘llangan bo‘lib, u ushbu tushunchani organizmlarning atrof muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun taklif etadi.

Turizm so‘zi fransuz tilidagi «tour» so‘zidan olingan bo‘lib, sayr va sayohat ma’nolarini anglatadi. “Tor doiradagi «tourizm» – sayohat qilish, dam olish degan ma’noni anglatib, kishilarning turistik obyektlarga sayohatlari”[1] ma’nosida qo‘llaniladi. Yuqoridagi fikrga qo‘shilgan xolda, bu sayohatchilar hashamatli mehmonxonalar va yaxshi ovqatlanish joylarini qidirmaydilar, ular haqiqiy va chuqur tajribaga intilishadi. Ular uchun sayohat nafaqat jismoniy harakat, balki hayot va atrofdagi dunyoga bo‘lgan qarashlarini o‘zgartiradigan ruhiy sayohatdir. Tor doiradagi “turizm” nafaqat sayohat bilan cheklanib qolmaydi - bu hayot tarzi, falsafa, dunyoni ochiq ko‘zlar va yurak bilan ko‘rish usuli. Bu sayohatchilar nafaqat yo‘lni bosib o‘tishadi, balki sarguzasht, boyitish va ilhom bilan to‘ldirilgan o‘z yo‘llarini yaratadilar".

Turizmning sog‘lomlashtirish jihatini ham e'tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Ko‘p odamlar tabiatga qaytish, toza havo olish, jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash imkoniyatlarini izlaydilar. Tog‘da sayr qilish, sog‘lomlashtirish kurortlari, ekologik sayohatlar sog‘liqni saqlash va hayotiy energiyani oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, turizm nafaqat manzarani o‘zgartirish imkoniyatini, balki dam olish, bilish, sog‘liqni saqlash va ma’naviy boyitishga yordam beradigan ko‘p qirrali sarguzashtni ham anglatadi. Zero, “Ekologiya insonni tabiat bilan bog‘lab turadigan ijtimoiy holatdir” [2].

Bugungi kunda ekoturizm tushunchasiga oid ilmiy qarashlarni ko‘plab olimlar o‘z qarashlari bilan talqin qilmoqda. Xususan ilmiy tadqiqotchi olim X.Djurakulovning fikricha “Boshqacha aytganda har qanday tushunchaning mazmun-mohiyatini va funksional ahamiyatini aniqlash, eng avvalo ularning ilmiy-nazariy asoslariga bog‘liq. Shu

jumladan, ekoturizm tushunchasining shakllanish va rivojlanish tarixi, turlari va tasnifini falsafiy asoslash, ayni paytda, insoniyat taraqqiyotining bugungi kundagi ekologik barqarorligini ta'minlashdagi rolini oshirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi" [3] .

18-19 asrlarda ilmiy tadqiqotlar va tabiatga qiziqish paydo bo'lishi bilan ilmiy maqsadlar uchun ekspeditsiyalar va sayohatlar rivojlana boshladi. Ushbu davrdan keyin ekologik ongni shakllantirishning birinchi qadamlarini kuzatish mumkin. "Ekoturizm" atamasining o'zi 20-asrda faol qo'llanila boshlandi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ommaviy turizm davri boshlandi, ammo shu bilan birga uning tabiatga salbiy ta'sirini anglash boshlandi. Bunga javoban tabiat va madaniy merosga hurmatni hisobga oladigan turizmning barqaror shakllarini ishlab chiqish zarurati tug'ildi.

Darhaqiqat, ushbu soha XX asrning 70-yillarida turizmning mustaqil yo'nalishi sifatida ajralib, rivojlangan bo'lsa-da, "ekoturizm" atamasi birinchi marta 1983 yilda meksikalik ekolog-iqtisodchi Gektor Seballos-Laskureyn tomonidan rasman qo'llaniladi. U ushbu tushunchani "tabiatning nisbatan inson qadami yetmagan joylariga tanishish va o'rganish uchun yovvoyi flora va fauna namunalari, shuningdek, ushbu hududlarda joylashgan madaniy diqqatga sazovor joylarga sayohat qilish ma'nosida ishlatadi" [4]. Shundan keyin ekologik turizmning bir qancha ta'riflari paydo bo'ldi. Xususan, Butunjahon turistik tashkiloti (UNWTO) ning ta'rifiga ko'ra: "Ekoturizm - tabiat turizmining barcha shakllarini o'z ichiga oladi, bunda turistlarning asosiy intilishlari tabiatni kuzatish va u bilan muloqotda bo'lish hisoblanadi" [5] .

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarida barqarorlik tushunchasi tobora ustuvor bo'lib bormoqda. Atrof-muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, hozirgi va kelajak avlodlarning farovonligini ta'minlashning ajralmas qismidir. Shu ma'noda, ekoturizm masalalari zamonaviy ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida alohida o'rin tutadi.

Ekoturizm, jamiyatning ma'naviy va axloqiy ongini shakllantirishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi. Bu, kishilarga tabiatni qadrlash, uni asrash va muhofaza qilish, shuningdek, atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatni oshirish kabi qadriyatlarni o'rgatadi. O'zbekiston kabi tarixiy va tabiiy go'zalliklarga boy mamlakatda ekoturizm, mahalliy aholi va mehmonlarni tabiatga bo'lgan hurmat ruhida tarbiyalash uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Ekoturizm orqali tashkil etiladigan tadbirlar, safarlar va loyihalar tabiatni asrash va uni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish maqsadiga xizmat qiladi. Bu kabi faoliyatlar, ayniqsa yoshlarga atrof-muhit muhofazasining muximligini anglab yetishda va amaliy choralar

ko‘rishda yordam beradi. Turizmning ushbu shakli, milliy parklar, qo‘riqxona va boshqa tabiiy yodgorliklarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularni rivojlantirish orqali tabiat bilan yaqinlashish imkonini beradi.

Ekoturizmning rivojlanishi, nafaqat atrof-muhit, balki mahalliy iqtisodiyot uchun ham katta foyda keltiradi. Ushbu sektor turistlar tashrifini rag‘batlantiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishni targ‘ib qiladi. Shunga qaramay, ekoturizmni rivojlantirishda ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni unutmaslik kerak, chunki bu orqali jamiyatning ma’naviy-axloqiy saviyasini oshirish hamda ekologik tarbiyani chuqurlashtirish mumkin. Zamonaviy O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish orqali ma’naviy-axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshirish mumkin. Bunday yondashuv, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni mustahkamlash, shuningdek o‘zbek fuqarolarining ekologik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada, ekoturizm nafaqat barqaror atrof-muhit, balki barqaror ma’naviy va axloqiy tarbiyalanishning ravnaq topishiga ham hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, ekoturizm nafaqat dam olishning bir turi, balki sayyorani kelajak avlodlar uchun saqlab qolishga yordam berish usulidir. Ekoturizm tamoyillariga rioya qilgan holda biz tabiatning go‘zalligidan bahramand bo‘lishimiz, madaniy merosni hurmat qilishimiz va inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni targ‘ib qilishimiz mumkin. Ekoturizmni to‘g‘ri joriy etish va rivojlantirish uning nazariy va uslubiy asoslarini chuqur tushunishni, shuningdek tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhit bilan uyg‘un munosabatda bo‘lishga doimiy intilishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xaitboyev, R. Ekologik turizm / R. Xaitboyev. — Samarkand, 2018. – 248 s.

2. A.Y.Aleksandrova. Международний туризм. Учебник. M.Aspek press, 2002 g, 470 s.

3. Chuykova L.Y., Sigovatova M.V. “Взаимосвязи человека и природи” (o‘rta maktabning 6-sinf o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma). 2-nashr. Astraxan, 2001. - 232 b.

4. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. -Т.: “Чинор”, 2006. -С.18.

5. Xamrayev, S. (2024). Yangi O‘zbekistonda ekologik turizm sohasini rivojlantirishni asosiy jihatlari. Solution of social problems in management and economy, 3(3), 23-27.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BOBUR ILMIY VA MA'NAVIY MEROSINING O'RNI

Umida AHMADJONOVA,
Jizzax politexnika instituti katta o'qituvchisi

Vatanparvarlik - kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat organlari, jamoa tashkilotlari va birlashmalarining yoshlarda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashidagi maqsadli, tizimli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Bundan asosiy maqsad-yoshlar ongida fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy qadriyatlarni va konstitutsion burchlariga nisbatan sadoqat hissini shakllantirishdir. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, xalqimizning ma'naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan, yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, axloqiy-estetik jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishlarining ilmiy asoslangan tarbiyaviy tizimini ishlab chiqishdan iborat [3].

Vatanparvarlik yetuk ma'naviyatdir. Jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ma'naviyatining o'rni va ahamiyati juda ulkandir. Jamiyatda yashovchi har bir inson o'z e'tiqodi, maqsadi va manfaatlari bilan Vatanga hizmat qilishi uning buyuk kelajagi uchun intilishi lozim. Shunday taraqqiyotning muhim omillaridan biri bu insonlardagi Vatanparvarlik tuyg'usidir. Vatanparvarlik go'yasi asarlarida alohida tarannum etilgan mutafakkirlarimizdan biri Zahiriddin Muhammad Bobur hisoblanadi. Uning "Boburnoma" asarida haqiqiy vatanparvarlik faqat yetuk insongagina xos bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan. Zahiriddin Muhammad Boburning o'zga yurtda vatan tuyg'usini chuqur his qilgani uning asarlarida ifodalangan. Erkka intilish, ozod yashashga bo'lgan ehtiyoj insonga xos bo'lgan tuyg'udir. Inson o'z vatanidagina ozod va erkin yashay oladi. Shu bois vatan ozodligi uchun kurashish masalasi qadim-qadimdan allomalarning asarlari hamda ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh mavzusi bo'lib kelgan. "Boburnoma" ulug'

o‘zbek shoiri, jamoat arbobi va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ham ayrim ma’lumotlar keltiriladi. Garchi shoir Hindistondek buyuk mamlakatning podshosi bo‘lsa-da, o‘z vataniga sadoqati va e’tiqodini ko‘rsaddi. U Andijonni bir umr sog‘inib yashadi. O‘zining taqdiridan aziyat chekdi. O‘zga yurtda podshoh bo‘lgandan ko‘ra, ona yurtida gado bo‘lib yashashni afzal ko‘rdi. Biroq achchiq taqdirning bu o‘yinidan hech qachon voz kecha olmadi.

Mamlakatimizning iqtisoqiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy taraqqiyotini yosh avlod hayotisiz, ularni har tamonlama barkamol shakllangan shaxs sifatida tarbiyalamasdan tasavvur etib bo‘lmaydi. Albatta, ularni komil inson sifatida ulg‘ayishi bugundanoq boshlashimiz lozim. Binobarin, muhtaram birinchi prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘- e’tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib, xayotga kirib borishiga bog‘liqdir.Biz bunday haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”[2].

Shunday ekan yoshlarni o‘zbek degan millatining buyuk xalq farzandi ekanligini erta yoshlikdan anglashimiz, uning ong va shuuriga sindirilmog‘i lozim. Ana shundagina u, yoshlikdan buyuk xalqimiz urf-odatlari marosimlari, an’ana va qadriyatlarimizga chuqur ehtirom va e’tiqod ruhida shakllanadi, ulug‘ ajdodlarimiz, ulug‘ bobolarimiz g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalanadi. Ana shunday g‘oya, qarash ruhida tarbiyalash esa pedagoglar oldida juda cheksiz ma’suliyat va pedagogik tajriba hamda izlanishni talab etadi. Bu maqsadni amalga oshirish ajdodlarimiz ilmi, kurash va jasorati hayoti bilan yoshlarni tanishtirish, vatanni sevish, ona-yurtni ardoqlash unga munosib avlod, yetuk farzand bo‘lib, yashash-uzluksiz ta’limda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlari uchun shart-sharoitlarni yaratishga intilish davlatimiz siyosatining asosiy tamoyillaridan hisoblanadi. Bu ishlarning asl mazmun-mohiyati kunday ravshan. Har bir g‘oya va mafkura asosida Vatan yotadi. Chunonchi, Hadisi sharifda vatanni sevish iymondan ekanligi ta’kidlanadi. Vatan har bir o‘zligini anglagan, avlod va ajdodlarini qadrlagan kishining eng muqaddas joyidir. Inson o‘zining ma’naviy kamolotini yuksaltirish uchun yuksak mas’uliyatni his etishi, o‘z manfaatlarini Vatan va xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashi asosida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi.

Vatanparvarlik kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan muhabbatini, munosabatini ifoda etadigan ma’naviy axloqiy fazilatdir. Vatanparvarlik tuyg‘usi xalqning o‘z

tarixini chuqur bilishi va undan g‘ururlanishida, buyuk ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy merosni ko‘z qorachig‘idek asrab, kelgusi avlodlarga yetkazishda, ajdodlar urf-odat, rasmrusum va udumlarni, meroslarni o‘rganib, uning qadriyatiga aylangan qismini davom ettirishda, ayniqsa, davlatimiz kelajagi, istiqlolining barqarorligi, kelajagining buyukligini chin dildan his etish, shunday kelajakni barpo etishga astoydil ko‘maklashish kabi yuzlab fazilatlarda o‘z aksini topadi. Zero, barcha zamonlarda har qanday millatning taqdiri uning kelajagi bo‘lgan yoshlar tarbiyasi bilan belgilanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z hayoti va ijodi bilan mamlakat ijtimoiy taraqqiyotida munosib o‘rin egalladi. Uning hayoti va ijodini o‘rganish, Vatan ravnaqi uchun kurashish, yurtni qalb qo‘ri bilan sevish ulg‘ayib kelayotgan yosh avlod uchun hayot mayog‘i bo‘lib, xizmat qilishi shart va lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 173- b.

2. Ibrohimov A., Sultonov H., Vatan tuyg‘usi.- T.: O‘zbekiston,1996., 443-b.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”. “Yangi asr avlodi”, 2018., 704-bet

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA SADRIDDIN AYNIYNING PEDAGOGIK-AXLOQIY MEROSI

Hilola G‘ulomova,
Buxoro shahar 28-o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Ma’lumki, insoniyat tarixi davomida o‘quvchi yoshlarni axloqiy tarbiyalash eng muhim maqsaddir, chunki axloqiy tarbiya jamiyat me'yorlari va qadriyatlariga ongli ravishda rioya qiladigan shaxsni shakllantirish shartlari, vositalari va usullari tizimi sifatida ishlaydi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, "axloqiy tarbiya - bu o‘quvchilar tomonidan xulq-atvor normalari va qoidalarini o‘zlashtirish va jamiyatda to‘g‘ri xulq-atvor ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Ma’lumki, axloqiy tarbiya o‘quvchilarning barcha xilma-xil faoliyati va hayoti davomida (oilada, sinfida, tengdoshlari, katta va kichik yoshdagilar

bilan muloqotda, mehnat va ijtimoiy faoliyatda) amalga oshiriladi. [1] S.Ayniy mashhur tojik adibi, zamonaviy tojik adabiyotining asoschisi, atoqli olim, Tojikiston SSR Fanlar akademiyasi birinchi prezidenti, SSSR Davlat mukofoti laureati, Tojikiston SSRda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi. Sadriddin Ayniyning butun hayoti xalq hayoti, uning salmoqli tarixiy taqdiri bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniy hamisha xalq orasida yashab, ulg‘aygan, ular bilan bir xil dardni tortgan, butun umri davomida oddiy xalqqa mehr-muhabbat, ularga hayrat va ishonchni ko‘tarib kelgan. Buyuk adib, olim, ustoz Sadriddin Ayniyning pedagogik merosi buyuk mutafakkirning ma’naviy-axloqiy qarashlaridan kelib chiqqani bilan oliy va o‘rta ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar amaliyotida beqiyos o‘rin tutadi. Uning ijodiy merosi, tavsiya va mulohazalari navqiron avlodni olijanoblik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. [2] U insoniyatga xizmat qilishning yorqin namunasi bo‘lib, o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda katta rol o‘ynaydi. Chunki uning asarlari va ijtimoiy faoliyati insoniylik va insoniylikdan kelib chiqadigan yuksak axloqiy qadriyatlarga asoslangan yuksak axloqiy insoniy fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan. Sadriddin Ayniy sovet maktabining birinchi tojik o‘qituvchisi edi. Ayniy yirik adabiyotshunos olim sifatida ham tanilgan. Hozirgi birlashgan tojik adabiy tilining shakllanishida Ayniyning xizmatlari katta.

1905-yilda Ayniy Buxoroda tojik bolalari uchun birinchi maktab tashkil qildi, u yerda ta’lim yangi usullar bilan olib borildi. Tez orada bu maktab taqiqlandi, ammo Ayniy "Bolalarni tarbiyalash" yashirin jamiyatini tuzdi. U birinchilardan bo‘lib tojik bolalarining ilk obrazlarini yaratishga realistik uslub elementlarini kiritgan. U o‘z badiiy asarlarida birinchi bo‘lib yangi shaxsni tarbiyalash muammosini 19-asr oxiri 20-asr boshlari davrining tarixiy sharoitlari bilan bog‘ladi. [3] “U o‘z ona adabiyotiga mehrini S.Ayniyning o‘zi yozganidek, xalqdan olgan”.

Aytish joizki, ustoz Sadriddin Ayniyning yozuvchilik faoliyati 19-asrning 90-yillaridan boshlangan. Uning ilk asarlari tojik zamonaviy she’riyatiga asos solgan she’rlar edi. “Ozodlik marshi” “La Marseillaise” ohangida ijro etildi. S.Ayniy birinchi nasriy asari “Buxoro jallodlari” qissasini 1920-yil noyabrida buxoroliklarning jallod amirini fosh qilib yozadi. S.Ayniy ijodida markaziy o‘rinni “Qullar” (1934-1935) romani egallaydi. Roman tojik xalqining yuz yildan ortiq – 19-asr boshidan Tojikistonda yangi tuzum g‘alabasigacha bo‘lgan hayotini boy badiiy obrazlarda qayta tiklaydi. [5] S.Ayniy ijodi uchun «Doxunda» romani (1930, birinchi tojik romani) ham katta ahamiyatga ega edi. Roman 20-asrning birinchi o‘n yilligi voqealari bilan boshlanadi. S.Ayniyning

eng yirik va eng muhim asarlaridan biri «Xotiralar»dir («Buxoro», 1949-1954). “Xotiralar” tojik xalqining 19-20-asrlar boshidagi hayotini aks ettiradi. Ular uning hayoti haqidagi oddiy haqiqatni tasvirlaydi, yozuvchining fikriga ko‘ra, har qanday romandan ko‘ra ko‘proq ishontiradi.

S.Ayniy pozitsiyasida asosiy narsa mumtoz tilga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish va uni demokratlashtirish, xalq tili va uning yetakchi shevalarining fundamental asoslarini hisobga olish, ayni paytda zamonaviy tilni yangi lug‘at boyligi bilan so‘zsiz boyitish edi. Tojik alifbosi islohoti kabi yirik yangilikda S.Ayniy ko‘plab nufuzli hokimiyatlarning qarashlariga qarshi chiqdi, keng omma manfaatlari bilan o‘z dalillarini mustahkamladi.[5] Ayniy matnlar va birlamchi manbalarni ilmiy tadqiq qilish asosida mumtoz adiblarning sahih adabiy portretlarini yaratadi. Ustoz go‘yo o‘ta yashirin joylarga kirib borar ekan, ular ijodining ichki mazmunini ochib beradi. Har bir insho yorqin tavsifdir. Tasvirlarning ishonarliligi shundaki, ba’zida bular uzoq umr ko‘rgan yozuvchilarga bag‘ishlangan tadqiqotlar emas, balki keksa ustozning tengdoshlari haqidagi xotiralaridek tuyuladi. [4]

Pedagogik g‘oyalar insonning dunyoqarashini shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, axloqiy tarbiya yoshlarni hayotga, mehnatga tayyorlashning asosidir, degan xulosaga kelish kerak. Hozirgi avlod uchun mashhur mutafakkirlar, ustozlar merosi jahon adabiyoti xazinasiga kiritilgan milliy boylikdir. Ustoz Ayniyning yosh avlod tarbiyasiga bag‘ishlangan ko‘plab asarlari, yoshlar tarbiyasidagi faol faoliyati uning bolalar ijodiyotiga o‘tishiga xizmat qilgan va asarlaridagi yosh qahramonlarning ijobiy obrazlarini yaratish ham aynan shu jihat bilan bog‘langan. [6] Ustoz Sadriddin Ayniy hayotini o‘rganish esa o‘quvchilar qalbida do‘stlik va hamjihatlik, o‘z vataniga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishga, har doim yoshlarga, yordam va madadga muhtoj bo‘lgan har bir kishiga yordamga kelishga o‘rgatadi. Ayniqsa, sohibqironning o‘z xalqining ona tiliga, qadimiy madaniyatiga bo‘lgan buyuk mehr-muhabbati e’tiborga molik. Uning serqirra adabiy, ilmiy va ijtimoiy faoliyatida mujassamlangan hayoti yoshlar uchun yorqin ibratdir.

Sadriddin Ayniy tarixshunos olim sifatida “Muqanna isyoni” asarini yozdi. U XX asrning 40-yillarida oq kiyimlilar va uning rahbari Muqanna haqida maxsus risolasini chop ettirdi. SHuningdek, xorijiy mamlakatlarda “Buxoro” nomi bilan mashhur bo‘lgan va keng tarqalgan “Esdaliklar” (1949–1954) kitobi uning ijodida markaziy o‘rin egallaydi. Bu asar qayta-qayta o‘zbek, tojik, rus tillaridan tashqari jahonning o‘nlab tillarida chop etilgan. O‘z ijodi bilan maktab yaratgan Sadriddin Ayniyning ilmiy merosi va ijtimoiy faoliyati

ham dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan munosib e'tirof etilgan. Jumladan, Qohirada bo'lib o'tgan Osiyo va Afrika yozuvchilarining Xalqaro kongressida Sadriddin Ayniy nomi buyuk olimlar va yozuvchilar qatorida tilga olingan. Yevropa olimlari Sadriddin Ayniyni "Sharq madaniyatini puxta o'rgangan buyuk bilimdon" deb baholaganlar. O'z davrida Buxorodagi jadidchilik harakatida faol qatnashish barobarida murakkab tarixiy jarayonlarning ishtirokchisi sifatida faoliyat olib borgan Cadriddin Ayniyning tarix fani taraqqiyoti hamda badiiy adabiyotni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va kelajak avlodlarga o'rnak bo'luvchi xizmatlari inobatga olinib, u 2001 yilda O'zbekistonning "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan. [7]

Xulosa qilib aytganda, Sadriddin Ayniy ijodining asosiy yo'nalishlari tahlil qilinar ekan, u publitsist sifatida dolzarb tarixiy masalalarga oid maqolalar yozgan, tarixchi, sharqshunos, adabiyotshunos va tilshunos olim sifatida fanning ko'plab sohalarida tinimsiz izlanishlar olib borgan. Pedagogik faolitida esa yoshlarni qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'iy nazar to'g'ri va halol mehnat qilishlarini o'qtirgan. Sadriddin Ayniy O'zbekiston va Tojikistonda ilm-fan va madaniyatning rivojlanishida, kadrlar etishtirishda o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sadriddin Ayniy tug'ilib voyaga etgan Buxoro viloyati G'ijduvon tumaniga qarashli Soktare qishlog'idagi Ayniy uy muzeyi materiallari.
2. Ayniy S. Qisqacha tarjimai holim / Asarlar. 8 jildlik. 1-j. – Toshkent: Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti, 1963. – B. 55–87.
3. Xayrullaev M. "Buyuk siymolar", – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1997. – B. 134–136.
4. Ayniy S. Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar. – Moskva: SSSR xalqlari markaziy nashriyoti, 1926. – B. 29–32.
5. Abdulqodir SH. YOsh buxorolilar xitobi // Vaqt. 1917 yil 18 aprel. № 2209.
6. Xolida Ayni. Jizn Sadriddin Ayni (kratkiy xronologicheskiy ocherk). – Dushanbe, 1982. – S. 63.
7. Ayniy S. "Bir xalq taqdiri", "YAngi hayot" (Novoe vremya) jurnali 45-nashr, 1951.yil.
8. Temirov F. Sadriddin Ayniyning Buxorodagi jadidchilik harakatida tutgan o'rni va ijtimoiy faoliyati / tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020. – B. 8–18.

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA BOTIRLAR OBRAZI

Bobur ELMURODOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi mustaqil izlanuvchisi, kapitan

Ota-bobolarimiz farzandlariga qadimiy xalq qahramonlari, ularning yovuz kuchlarga qarshi olib borgan janglari, g‘alabalari, matonat va sadoqat, birodarlik va hamjihatlik fazilatlari g‘oyasi ifodalangan rivoyat va afsonalar, ertak va dostonlar aytib berishgan. Shu tariqa bolalar milliy o‘yinlar va aytimlar ta’sirida rostlik, halollik, haqiqat yo‘lida kurashish kabi tushunchalarni qalblariga tiyran singdirganlar.

«Quvlamachoq», «Podachi», «Soqqa», «Bekinmachoq», «Chaqqonlar va merganlar», «Ko‘kterak», «Lanka», «Yetti tosh», «Chavandoz», «Besh tosh», «Chillik» kabi milliy o‘yinlar o‘sib kelayotgan yoshlarni jangchi ruhida tarbiyalash, ularda kurashuvchanlik hissini oshirishda muhim bosqich sifatida qaralgan. Shuningdek, ko‘pkari, poygalar, qiz quvdi, kim uzoqqa otadi mashqlari, qadimiy milliy an’analarimiz sirasiga kiradi. Masalan, o‘yinlarda mag‘lub bo‘lgan bolalarni masxara qilmaslik, ularning xato va kamchiliklarini birgalikda hal etish orqali jamoada mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlash, ko‘plab insoniy sifatlarni shakllantirishga erishilgan. Yoshlarda ana shunday sof tuyg‘ularni shakllanishida ertak va dostonlarning o‘rni nihoyatda katta. Qadimdan bo‘ri, ilon, ot va boshqa bir qator hayvonlar ertaklarimizning asosiy qahramonlari bo‘lib kelishgan. «Bo‘ri», «Cho‘loq bo‘ri», «Ilon og‘a», «Ayiq polvon» kabi ertaklar shular jumlasidandir.

Biz quyida botirlik va jasorat ruhidagi ayrim ertak va dostonlar kompozisiyasi misolida qahramonlarning ulg‘ayish davriyligi, unga ta’sir etuvchi omillar, qahramonlarning qahramon maqomiga erishishi kabi bosqichlarni tahlilga tortamiz. Avvalo, sevgi-muhabbat, qahramonlik, sarguzasht, jang lavhalari aks etmagan dostonlarning o‘zi yo‘q. Qaysi dostonni eshitmang yoki o‘qimang, albatta, asar qahramoni mardligi, jasorati bilan bizda hurmat qozonadi. Albatta, u kimnidir sevadi va uzoq safarga otlanadi. Masalan, «Cho‘loq bo‘ri» ertagida podshohning kenja o‘g‘li afsonaviy tilla qushni olib kelish uchun safarga chiqadi va cho‘loq bo‘riga duch keladi. Unga non beradi. Bo‘ri ham undan yordamini ayamaydi. Qush uchun safarga chiqqan bola bir qiz va ot bilan uyiga qaytadi. Yo‘lda akalarining holidan xabar oladi. Ammo akalari uning ko‘zlarini o‘yib, chohga tashlaydilar. Ertak oxirida kenja o‘g‘il baribir murod-maqsadiga yetishadi, akalari esa jazolanadilar.

«Kenja botir», «Uch og‘a-ini botirlar», «Ziyod botir», «Qilich botir»,

«Botir mergan va chaqimchi», «Olmos botir», «Bektemir botir», «Bo‘zchi botir», «Xamir Botir», «Qiron botir» kabi ertaklarda mardlik, jasorat, har qanday xatarlarni yengib o‘tish, jangovarlik, saxiylik, to‘g‘rilik elementlari jo‘sh urib tursa, «Pahlavon Rustam», «Erkenja», «Quyosh yerining pahlavoni», «Shamshirboz», «Bunyod polvon», «Ermana mergan», «Qilichqora», «Mayizpolvon» kabi o‘zbek xalq ertaklarida bilagi zo‘r botirlarning sarguzashtlari, to‘siq va dushman hiylalaridan mardonavor o‘tishlari ishonarli tarzda aks ettirilgan. Bir so‘z bilan aytganda, xalq ertaklarida el-yurtni ko‘z qorachig‘iday avaylab-saqlovchi ajoyib qahramonlar ulug‘lanadi; ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi; uzoq masofalar yaqin qilinadi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma’qul illatlar tanqid ostiga olinadi; mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g‘oyalari ulug‘lanadi.

Qahramonlik va botirlik ifoda etilgan ertaklarda botirlar obrazi orqali axloq va odamiylik, donishmandlik, jasurlik, zulm va adolatsizlik qoralanib, haq yo‘ldan ortga qaytmaslik, ezgulikning g‘alabasi kuylanadi («Uch og‘ayni botirlar», «Botir mergan va chaqimchi», «Olmos botir», «Bektemir botir»). Masalan, «Uch og‘ayni botirlar» ertagini olaylik. Ertak syujeti ota nasihati bilan boshlanadi. Bu ko‘pgina ertaklarga xos bo‘lgan xususiyat. Ota o‘z o‘g‘illarini qo‘rqmas, jasur qilib voyaga yetkazadi. Farzandlarini o‘z yo‘lini topish maqsadida safarga otlantirar ekan, jumladan shunday deydi: “Birinchidan, sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim – quvvatli bo‘ldingiz. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtirdim – yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz. Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stirdim – qo‘rqoq bo‘lmay botir bo‘ldingiz, yana uchta narsani aytaman, quloqlaringizga olib, eslaringizdan chiqarmanglar. To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz. Bundan boshqasini o‘zingiz biling. Qora toyni, saman toyni, ko‘k toyni asbob-anjomlari bilan tayyorlab qo‘ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to‘lg‘izdim. Baxtingizni topib olmoq uchun dunyoni ko‘rgani yo‘lga chiqing, dunyoni tanimay dunyo kishisi bo‘lmaysiz. Baxt qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqing. Xayr o‘g‘illarim, – deb turib ketdi...

«Pahlavon Rustam», «Birlashgan uzar», «Uch og‘a-ini botirlar», «Egri bilan To‘g‘ri», «Ona yer farzandi» kabi ertaklarning asosini vatanparvarlik va dovyuraklikdan tashqari Vatan uchun jon fido qilish, yaxshi kasb-kor egasi bo‘lish kabi chorlovlar yetakchilik qiladi. «To‘lg‘onoy» ertagi o‘zining hayotiyligi va kulminasion nuqtalarga boyligi bilan hatto jangnoma dostonlarga ancha yaqin keladi. Ertakning boshlanishi O‘ratepa begi xalqdan oq uylikka qoracherik – odam so‘ragani, ammo hech

ZJV5401

kimsadan darak bo‘lmagani, Nazar degan kambag‘al kimsa bu xabarni eshitib bola-chaqasi bilan bormoqchi bo‘lgani, ammo To‘lg‘onoyning o‘ziga yoshlikda unashtirilgan Pardavoy ismli yigitga vafosi tufayli erkak libosida To‘lg‘on nomi bilan urushga o‘zi yo‘l olgani, qizning bundagi azoblari, qahramonliklari hikoya qilinadi.

Ertakda Barot polvon bilan Ollonazar polvonlarning gladiatorlarga o‘xshab jang qilishi, xususan, «Qilich nayza shirqillashib, Ot qo‘yar maydon ichinda», «Mard o‘g‘illarning bo‘lar nomusi, ori», «Erisin, tog‘larning qori erisin, Yer ostida dushman tani chirisin», kabi misralar «Go‘ro‘g‘li» turkum dostonlari, «Alpomish», «Rustamxon» kabi doston qahramonlarining jang uslubini yodga soladi. Folklor asarlaridagi epik obrazning tug‘ilishi masalasi hamisha mo‘jizaviylik hodisasi bilan aloqador tarzda namoyon bo‘ladi. Bu qadimiy va an’anaviy motiv ertaklar bilan dostonlardagi motivlarni qiyos qilganda ayniqsa yorqin ko‘rinadi. Ma’lumki, ertaklar ibtidoiy inson tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan xayoliy voqealarning dastlabki badiiy namunalari hisoblanadi. Shu sababli ularda bayon etiladigan mo‘jizaviy tug‘ilish motivi o‘ta xayoliy ekanligi bilan dostonlardagi o‘sha motiv tasviridan farq qilib turadi.

Masalan, «Olmos botir» ertagi shunday boshlanadi: «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda bir chol va kampir yashagan ekan. Chol oltmish yoshga kiribdi, kampir ellik yoshga kiribdiyu, lekin bolalari yo‘q ekan. Nihoyat kampir o‘g‘il tug‘ibdi. Bu bolaning og‘irligi bir botmon, bo‘yi ikki gaz emish. Bola soatlab o‘saveribdi». Ertakdagi tug‘ilish motivi bir qaraganda oddiy, lekin mantiqan juda xayoliydir. Bolaning og‘irligi bir botmon deyilishi dastlab ajablanish tug‘dirmaydi.

Shuni eslatish o‘rinliki, sehrli-fantastik ertaklarning mazmun-mundarijasini tashkil etuvchi motivlar g‘oyat ko‘p va behad rang-barangdir. Ular orasida ayniqsa, sayohat motivi, sarguzasht motivi, sinov motivi, tush motivi, evrilish, befarzandlik, tasodifiy homiladorlik, keksalikda farzand ko‘rish, g‘ayrioddiy tug‘ilish va ulg‘ayish, yetimlik, o‘gaylik singari motivlar ko‘p uchraydi. Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan shoir «Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi» haqida fikr yuritar ekan, doston qahramonning dunyoga kelishi, yoshligi, ulg‘ayishi haqida hikoya qilsa, «Bahrom va Gulandom» dostonida oshiqlik maqomi Bahromni ma’naviy jihatdan ulg‘aytirishi, ota-onasi va yurtiga bo‘lgan muhabbatini yanada oshirishi, ertaklardagi kabi ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alabasi doston mazmuniga muvaffaqiyatli singdiriladi.

Ma’lumki, dostonlar asosini harakatlantirib turuvchi asosiy kuch bosh qahramon sanaladi. Ular o‘zlarining ilk jasoratlarini namoyon qilganlaridan keyin ko‘zga tushadi, el-yurt ishonchini qozona boshlaydi.

ZJV5401

Shubhasiz bu ularning rivojlanish dinamikasiga yaqqol misol bo‘la oladi. Alpomish bobosi Alpinbiydan qolgan o‘n to‘rt botmonlik yoyni yetti yoshida ko‘taradi: «…Shunda Hakimbek yetti yoshiga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birichdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘liga ushlab, yetti yashar bola ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi. Asqar tog‘ining katta cho‘qqilarini yulib o‘tdi, ovozasi olamga ketdi».

Qirg‘iz eposi «Manas»da esa voqealar o‘zgacha ruhda kechadi. Bolakay uch yoshga to‘lganda «Jinni» nomini oldi. Ho‘kizni shoxini sindirib, daraxtlarni ildizi bilan qo‘porib tashlaydi. 7 yoshda bir qo‘zining go‘shtiga to‘ymaydi. 8 yoshida savdogarlarning buyumlarini tortib olib, bolalarga bo‘lib beradigan qiliq chiqardi. Manas o‘zining birinchi qahramonligini to‘qqiz yoshida, ya’ni yurtiga bostirib kelgan Dovdur zo‘ravon Jo‘laydov bilan Qobon alpni kurashda yengganida ko‘rsatadi. «Go‘ro‘g‘li»da Go‘ro‘g‘li to‘qqiz yoshida Hakimbek kabi hech kim ko‘tara olmagan yoyni dast ko‘tarib, yetti filga qarab o‘q otadi. Natijada o‘q yetti filni ham teshib o‘tadi. Ergash Jumanbulbul tomonidan kuylagan «Qunduz bilan Yulduz» dostoni «Go‘ro‘g‘li» turkumiga mansub bo‘lib, unda aytilishicha, Go‘ro‘g‘lining o‘n yashar nevarasi bo‘lgan Nurali yetti yashar ukasi Ravshan bilan otasi Avazxonni dushmanlar changalidan qutqarib qolishadi.

Shu narsani ta’kidlash joizki, epik qahramonning ilk jasorati qadimgi eposdan kelayotgan an’anaviy motivdir. Buning dastlabki ko‘rinishlari «Dadam Qo‘rqut» kitobida ham berilgan. Bu qadimiy yodgorlikda tasvirlanishicha, yigitlarga ilk jasorat ko‘rsatib, o‘zini tanitmaguncha hatto ism ham berishmagan. Bu eposdagi qahramon Bamsi o‘n besh yoshida birinchi bor o‘z jasoratini namoyon qiladi. Mo‘g‘ul eposida mashhur bo‘lgan Jang‘ar hatto ikki yoshida otga minib, uch yoshida dushmanni mahv qiladi.

Qadimdan xalq dostonlari bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash tizimining o‘zagi hisoblangan. Yaqin o‘tmishimizga nazar solsak, turkiy xalqlarda bolalarga yangi tug‘ilgan hayvonni biriktirib qo‘yish (buzoq, echki, qo‘y) an’anasi bo‘lib, bunda uy hayvoni to‘liq bolaning nazoratida bo‘ladi. Bola har doim unga g‘amxo‘rlik qilib, u bilan birga unib-o‘sgan. Bu usul bolaga avvalo chorva mollarini parvarish qilish bo‘yicha dastlabki saboqlarni bergan bo‘lsa, keyinchalik uning ot minish, ov qilish, turli qurollardan mohirona foydalanish ko‘nikmalarini ham shakllantirib borgan. Eng asosiysi, bolada o‘ziga tegishli bo‘lgan mulkni asrash, himoya qilish refleksi paydo bo‘lgan.

«Yusuf bilan Ahmad» dostonining ilk syujetidayoq bolaning jangovarligi bilan bog‘liq axloqiy masalalarni ko‘rishimiz mumkin. Asar bosh g‘oyasida harbiy jasorat bolaning hayotida kechiktirib bo‘lmas jarayonlardan biri sifatida qaraladi. Doston maxrajida martabali zotlardan tortib oddiy kishilarning farzandlari ham ilm va harb ishi uyg‘unligida vatanparvarlik hissi bilan shakllanib boradi. Dostonlar syujetini bog‘lab turuvchi umumiy formalardan yana biri – har bir o‘g‘lonning qachondir o‘z qahramonligini namoyon etish fursatlarini kutib yashashida ko‘rinadi. Ayniqsa, jang xabarini eshitgan yigit borki, hech ikkilanmay oldinga chiqib, imkon so‘raydi. Bu esa bolalar va o‘smirlar psixologiyasiga zarur bo‘lgan jasorat va vatanparvarlik tushunchalarini singdirishga xizmat qiladi. Xalq dostonlarida dushman daragini eshitganida yetti yoshdan yetmish yoshgacha yoshu qarining jangga kirishga izn so‘rab turgan lavhalari uchraydi. Bu holatni shunday izohlash mumkinki, ilm va harb ishi doimo yonma-yon o‘rgatilib, biri ikkinchisiga monand olib borilgan. Qahramon o‘zining birinchi jasoratini juda yoshlik davrlaridayoq amalga oshiradi. Qahramonning mo‘jizaviy kuchi va jasorati go‘daklik davrida namoyon bo‘ladi. Beshikdagi qahramon chaqaloq boshqa bolalarga o‘xshamaydi.

«O‘g‘uzxon» dostonida buning yaqqol namunasini ko‘rishimiz mumkin. Qoraxon o‘g‘il ko‘radi va o‘g‘li uch kungacha onasini emmaydi. Onasi esa yig‘lab iltijo qilib, har kuni kechasi tush ko‘rar, tushida o‘g‘li go‘yo unga shunday deyayotganday bo‘lardi: «Ey ona! Agar sen haqiqiy Xudoga ibodat qilib, muhabbat qo‘ysang, men sening sutingni emaman». Ayol yashirincha haqiqiy Xudoga imon keltirib, tavba qildi va komil ishonch bilan qodir Xudoning haqiqatini sevguchi bo‘ldi – u shuhrat topib, hammadan ustun bo‘lsin! Shundan keyin go‘dak onasining ko‘kragini ema boshladi. Bir yoshga yetganda, favqulodda pokiza va chiroyli bola bo‘ldi, manglayida yetuk aqlning va haqiqiy imon yo‘lida rahnamolikning alomatlari yaltirab turardi. Yoki «Rustam» dostonida yangi tug‘ilgan chaqaloq Rustamni o‘n ikki ona zo‘rg‘a emizib to‘ydirar edi. «Sosunlik Dovud» haqidagi arman dostonida ham xuddi shu hol giperbolik shaklda ifodalanadi, ya’ni Dovud shunchalik kuchli ediki, u o‘zi yotgan beshiklarni bo‘laklab tashlaydi. Uni temir zanjir bilan bog‘lab qo‘yishsa ham baribir uning kuchiga dosh berolmaydi.

«Yusuf bilan Ahmad» dostonida esa aka-ukalar butun Isfahon yurtining yigitlarini urush-savash va botirlikka o‘rgatish bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Yusuf dostonda: «Yetti yoshdan beri savash qilarman...» deya bejiz aytmagan edi. «Yusuf bilan Ahmad» va «Alibek bilan Bolibek» bir-birlarini to‘ldirib boruvchi jangovar ikki doston sanalib, Alibek va Bolibek

tom ma’noda otalarining jasoratlarini takrorlaydilar. Hatto ular bilan birga qizilboshlarga qarshi janglarda qatnashib, asar so‘ngida voqealar tizginini o‘z qo‘llariga olishadi. «Go‘ro‘g‘li» dostonida ham Go‘ro‘g‘liga yuqoridagi doston qahramonlari kabi yo‘lbars, sher, ajdaho, ayiq va boshqa qudratli hayvonlarning sifati beriladi. Qahramonning gavdasi tog‘ga, qoyaga, tepalikka; tezligi esa lochin yoki qirg‘iyga qiyoslanadi. Baxshilar bu kabi mubolag‘alardan foydalanib, doston qahramonini xalqning yengilmas himoyachisi, el-ulus orzularining ifodachisi sifatida kuylashadi.

Doston qahramonlarining asosan 13-14 yoshlarida aqliy va jismoniy kamolotga yetib borishiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, «Kuntug‘mish» dostonida Kuntug‘mishning bolaligi shunday tasvirlanadi: “...O‘n to‘rtga kirguncha ish-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, o‘n to‘rtdan o‘tgandan keyin, sipohiylik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik, ko‘pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlariga qo‘shish qilib, qirqta yigitni yoniga olib, goh toqqa, goh ovga shikor qilib yurar edi”. Bu xususiyatlarning har biri qahramonning voqealar rivojidagi o‘rnini mustahkamlaydi, jarayonlar strukturasini bosqichma-bosqich o‘sishiga xizmat qiladi. E’tibor berilsa, doston qahramonlari o‘z-o‘zidan kuchli jangchiga aylanib qolmaydi. Ular og‘ir va sinovli damlar ichida toblanadi, yurtiga, insoniy tuyg‘ularga sodiq qoladi.

Chunonchi Go‘ro‘g‘li doston qahramoni sifatida qo‘rqmas, qat’iyatli bo‘lib, chinakam qahramonga xos barcha ijobiy xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan edi. U yetti yoshidan boshlab bosqinchilarni quvib chiqarish uchun xalqni birlashtirishga chog‘lanadi. Bunga uning hayotida muhim o‘rin tutadigan homiylar Xizr va G‘irot oti ko‘mak beradi. Bu ikki personaj chorasiz vaziyatlarda ham Go‘ro‘g‘liga qayta-qayta kuch bera oladi. Bu o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, albatta. Voqealarning bu tipda rivojlanishi Vatanni yot bosqinchilardan ozod qilish, ijtimoiy adolatsizliklarni parchalash uchun olib borilgan kurashlar zarurati asnosida yuzaga keladi.

ZJV5401

YOSHLARNI VATANPARVARLIK VA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH ASOSIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA YUKSALTIRISH

Saodat RAXMATULLAYEVA,
Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Irodaxon MO'YDINOVA,
Qo'qon Universiteti 1-kurs talabasi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi davrda yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarga davlatimiz siyosatining muhim ustivor masalalaridan biri sifatida qarala boshladi. Yurtimizda mustaqillik shamollari esa boshlagan davrlardanoq, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlarida boshqacha qilib aytganda ma'naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Chunki, mustaqillik erkinlik, milliylik, vatanparvarlik eshiklarini ochib, insonlarni ezgulik sari yetaklay boshladi[3].

Vatanparvarlik vatan so'zi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, vatan, ana shu vatanparvarlikni paydo qiladi. Vatan so'zi arabcha so'zdan olingan bo'lib, "Ona yurt" ma'nosini bildiradi. Bu tushunchani ikki ya'ni keng va tor ma'nolarda tushunish mumkin. Kishining tug'ilib o'sgan maskani, mahallasi, qishlog'i nazarda tutilsa, bu tor ma'noda tushunishdir. Agar, bir xalq vakillari doimiy holda yashagan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, u keng ma'noda tushuniladi[2]. Milliy vatanparvarlik haqida so'z borganda, bu o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o'z eliga nisbatan sadoqat ahloqiy-ma'naviy qadriyatlar, g'oya va qarashlar yig'indisi tushuniladi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konistitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatdir. Bugungi kunda zamonamizdagi yosh avlodni vatanparvarlik ruhda tarbiyalash, ularni vatanga nisbatan muhabbatli tarzda shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot ishini o'rganish va tahlil qilishda, muammoviy-hududiy yondashuv, qiyosiy tahlil, kuzatish kabi usullar qo'llanildi. Turli manba va ma'lumotlarni tahlil qilishda ularga qiyosiy va tanqidiy nuqtai nazardan yondashildi. Bugungi davr xususiyatlarini nazarda tutgan holda ushbu tatqiqotga ilmiy jihatdan yondashuv usullari asosida umumlashtirildi va

tahlil etildi. Jumladan, ushbu tatqiqot Keldiyorov.A, Mutaev, Xasanov, Ubaydullayev, Alinazarov, Mo‘minov, Azimov.A kabi tatqiqotchi va olimlarimizning asarlarida va ilmiy tatqiqotlari asosida o‘rganildi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari quyidagi to‘rt bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich: (3-7 yoshdagilar) atrofdagi olam, vatan haqida dastlabki tasavvurlar paydo bo‘ladigan bosqich hisoblanib, unda oila va maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga vatan haqidagi turli she’rlar, kuy va qo‘shiqlar o‘rgatish, multfilm va turli o‘yinlar namoyish etish, rasmlar chizish orqali dunyoni anglash, davlat ramzlari, bayroq, gerb, madhiya bilan tanishish asosida ularda ona yurtga muhabbatni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu bosqichda quyidagilarga asosiy e’tibor qaratiladi: vatanparvarlik yo‘nalishida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish maqsadida ertak va hikoyalar aytib berish, ona vatanga muhabbat, vatan himoyasi muqaddas burch ekani bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularda she’r va qo‘shiqlarni yod oldirish, bolalarning tasavvurini kengaytirishga doir rasmlar chizdirish va jismoniy qobiliyatini mustahkamlash uchun turli musobaqa va tanlovlar tashkil etish va shu orqali ularni ma’naviy rag‘batlantirish, vatanparvarlik mavzusidagi multfilmlar namoyish etish va turli o‘yinlar o‘tkazish, harbiy muzeylar va vatanparvarlik mavzusi bilan bog‘liq madaniyat va istirohat bog‘lariga ekskursiyalar uyushtirishdan iborat bo‘ladi. Ikkinchi bosqichda (7-16 yoshdagilar) o‘quvchilarning Vatanga muhabbati va sadoqatini mustahkamlash, ona-yurt oldidagi farzandlik burchini yuksak mas’uliyat bilan bajarish, ularda qurolli kuchlarimizga bo‘lgan ijobiy fikrlarni yanada kengaytirish, harbiy xizmat nufuzini ko‘tarish, yoshlarning jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, keng dunyo qarashli, mustaqil fikr yuritadigan barkamol inson sifatida shakllantirish kabi ezgu ishlarga da’vat etiladi. Bu bosqichda zamonamiz qahramonlari haqidagi maqolalar, badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida vatanparvarlik yo‘nalishida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va qo‘shiq tanlovlari tashkil etish, spektakllardan lavhalar namoyish qilish, o‘quvchi yoshlar ishtirokida insholar tanlovini tashkil etish, darslik va o‘quv-metodik qo‘llanmalarga buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlarni kiritish, yoshlarda faol pozitsiya va o‘zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas’uliyatni his etish, qat’iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish bilan ifodalanadi. Vatanparvarlik tarixiy jihatdan kishilarning o‘z vatani taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqi yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va

hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi[1].

Vatanni sevish iymondandir deb ham bejiz aytishmagan. Millatimiz faxri bo‘lgan buyuk ajdodlarimiz, ulug‘ zotlar benihoya ko‘p. Vatanparvarlik, haqida so‘z borganida vatanimizning mustaqilligi va yurt ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz shu jumladan ma’rifatparvar jadidlarni eslab o‘tish o‘rinlidir. Ular qatag‘on yillari paytida yashagan bo‘lsa-da so‘z erkinligi uchun kurashdi, xalqni ma’rifatga chorladi, mustaqillikka intildi. Millat dardini o‘z dardi deb bildi. Xalq ma’rifati, yuksalishi, o‘zligini anglashi uchun 100 dan ortiq maktablar ochib, bolalarga bepul ta’lim-tarbiya berdi. Shu bilan bir qatorda jadidlar o‘tkir she’riyati yuksak tarjimalari, kuchli dramalari, mumtoz romanlari va kuyunchaklik bilan yozilgan publitsistik maqolalari, hamda ijtimoiy faoliyati bilan o‘zbek adabiyoti, madaniyati, va milliy tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo‘shdi[4].

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki yosh avlodni vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash asosida milliy o‘zlikni anglash va yuksaltirishda jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini ham muhim ro‘l o‘ynaydi. Bolalar oilada, bog‘chada va maktabda ta’lim-tarbiya olishi mobaynida ham ta’limiy jihatdan, ham vatanparvarlik va manaviy-axloqiy jihatdan yuksalib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Keldiyorov A. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb masalalari. – “International conference on educational innovations and applied sciences 2022/12”–B.108.109.110.

2. Mutaev. Xasanov. Ubaydullayev. Alinazarov. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari. – “Pedagog” respublika ilmiy jurnali. 4-son/ 2022-yil/15-dekabr.b. 1414.

3. Mo‘minov M. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari.– “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal Volume 3 Issue 2 / June 2022–B.734

4. Saydazimov.A. Jadidchilikning paydo bo‘lishi va vatan ravnaqi uchun jadidlarning say-harakati. – “So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi” respublika ilmiy-uslubiy jurnali.B.156.

O‘ZBEKISTONDA SHAXS BEFARQLIGINI BARTARAF ETISH - MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLARNI YANGI BOSQICHGA KO‘TARISH OMILI

Ulug‘bek KENJAYEV,
Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Jamiyat taraqqiyoti uning a’zolari faolligiga bog‘liqligi, insonning ma’naviy yetukligi esa uning umumijtimoiy manfaatlarga xizmat qilishi bilan belgilanishi, ijtimoiy jarayonlarga loqaydlik jamiyatning ham, shaxsning ham tanazzuliga sabab bo‘lishi haqidagi mulohazalarni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan Markaziy Osiyolik ma’rifatparvarlar Ahmad Donish, Sattorxon Abdulg‘afforov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy asarlarida ham uchratish mumkin. Masalan, “Abdulla Avloniy fikriga muvofiq, jamiyatni insonparvarlashtirish fuqarolarning halol mehnati bilan bog‘liq. Ishyoqmaslik, dangasalik, yalqovlik (*ya’ni befarqlik va loqaydlik oqibatida kelib chiqadigan illatlar - muall.*) jamiyatni xonavayron qiladi. Bunday kishilar bilan yangicha turmush qurib bo‘lmaydi. Yalqov, tanbal kishilar hamisha boshqalar yordamiga muhtoj bo‘lib, xorlikda yashaydilar” [4]. Renessans davrida va Yangi Zamonda rivoj topgan bunday mulohazalar befarqlikni oqillik belgisi emas, ijtimoiy illat sifatida tavsiflash uchun nazariy asos yaratdi.

Befarqlik o‘z-o‘zidan yuzaga kelib qoladigan fenomen emas. U qator ijtimoiy va ruhiy omillar natijasida paydo bo‘ladi va saqlanadi. Qaysi omil natijasida shakllanmasin, jamiyatda befarq kishilarning ko‘payishi ayanchli ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xususan, u:

jiddiy siyosiy oqibatlarga olib keladi. Befarq shaxs siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmay, turfa ijtimoiy muammolarga munosabat bildirmay qo‘yadi. Buning natijasida jamiyat siyosiy tizimining rivoji sekinlashadi, davlat bilan fuqarolar o‘rtasidagi aloqalar zaiflashadi. Geosiyosiy ziddiyatlar kuchayib borayotgan, mafkuraviy kurash ayovsiz tus olayotgan bir sharoitda befarq kishilarning ko‘payishi mamlakat siyosiy xavfsizligiga tahdid darajasiga ko‘tarilishi mumkin;

jiddiy ma’naviy-axloqiy oqibatlarga olib keladi. Befarq shaxs jamiyatda hukm surayotgan ma’naviy muhitga, o‘zgalarning axloqiy qiyofasiga e’tiborsiz bo‘lib qoladi. Buning natijasida jamiyatda nomaqbul xulq-atvor ko‘rinishlari avj olib boraveradi. Befarqlik giyohvandlik, ichkilikbozlik, axloqsizlik, subutsizlik, adolatsizlik, insofsizlik, mutaassiblik, poraxo‘rlik, muttahamlik, firibgarlik kabi ko‘plab ijtimoiy

illatlarning ildiz otishiga ham sabab bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistondagi ma’naviy yangilanishlar milliy madaniyatni, xususan xalqning azaliy qadriyatlari, urf-odatlari va an’analarini tiklash, kishilarning madaniy merosga munosabatlarini o‘zgartirish masalalari davlatning alohida e’tibori ostida bo‘lmoqda. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli ravishda tashkil qilishga alohida e’tibor berilmoqda. Zotan, 2019 yilda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” [1], 2021 yilda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlarining qabul qilinishi shundan dalolat beradi [2]. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning mazkur Qarorlar bilan belgilab berilgan ayrim yo‘nalishlari jamiyat a’zolarining ijtimoiy jarayonlarga qiziqishlarini saqlab turishga, ularni befarqlik illatidan sug‘urta qilishga xizmat etmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatda tizimli ravishda amalga oshirilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar fuqarolarni ijtimoiy jarayonlarga jalb qiluvchi, ularni Vatan taqdiriga befarq bo‘lmaslikka undovchi mustahkam mexanizm vazifasini o‘tab keldi va kelmoqda.

Lekin yangi asrda vujudga kelgan shart-sharoitlarda jahonning barcha mamlakatlarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham kishilarda befarqlik alomatlari paydo bo‘lmoqda. Xususan:

jamiyatning ayrim a’zolari ruhiyatida axborot befarqligi alomatlari yuzaga kelmoqda. Kishilarning muayyan qismida axborot vositalari va texnologiyalaridan maqsadsiz foydalanish yoxud ularni nomaqbul niyatlarda qo‘llash odati paydo bo‘lmoqda. Bu odat ayniqsa yoshlar orasida ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

jamiyatning ayrim a’zolari ruhiyatida mafkuraviy jarayonlarga befarqlik alomatlari yuzaga kelmoqda. Turli mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan mafkuraviy markazlar o‘z targ‘ibotlarini, mafkuraviy tazyiqlarini tobora kuchaytirmoqdalar. Shunday bir vaziyatda O‘zbekistonda mafkuraviy jarayonlarga e’tiborsizlik hollari yuzaga kelmoqda, odamlarda mazkur jarayonlarga beparvo, loqayd qarash kayfiyati ildiz otmoqda.

“Ma’naviyatimiz uchun eng katta xavf, – deb yozgan edi Prezident Sh.M. Mirziyoyev, – bu aksariyat odamlarimizdagi loqaydlik va beparvolik kuchayib borayotganida, desak, bu ham ayni haqiqat bo‘ladi. Siyosatshunoslar o‘rtasida: “Sen uxlaganingda, dushman uyg‘oq bo‘ladi”, degan gap bor. Ayniqsa, hozirgi zamonda, dunyodagi ilg‘or xalqlar katta-katta marralar sari intilayotgan bir paytda ma’naviy jihatdan g‘aflatga botib, “uxlab yotishga”, loqayd bo‘lishga hech kimning haqqi yo‘q.

Barcha fojia va muammolar, Vatanga, millatga, kelajakka xiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi" [3].

Mafkuraviy befarqlikning sabablari keyingi yillarda mafkuraviy ta'limning zaiflashganiga borib taqaladi. Mamlakat ta'lim muassasalari o'quv rejalaridan milliy g'oya turkumiga mansub fanlarning olib tashlanishi yoshlar mafkuraviy savodxonligini tushirdi, mafkuraviy immunitetiga shikast yetkazdi. Mamlakatda tizimli ravishda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tarkibida mafkuraviy targ'ibot tadbirlarining kamaygani, turg'unlashgani va sxolastik xarakter kasb etgani esa nafaqat yoshlar, balki katta avlod vakillari ongi va faoliyatida ham mafkuraviy befarqlik alomatlarini hosil qila boshladi. Shu tariqa mafkuraviy befarqlik mamlakatning ma'naviy-mafkuraviy xavfsizligiga tahdid solayotgan eng katta omillardan biriga aylanmoqda.

Yigirmanchi asr mafkuraviy kurashlar bilan o'tgani bizga yaxshi ma'lum. O'tgan asrning oxirlariga kelib, bu kurashlar bir qadar susaygandek bo'ldi. Lekin XXI asr boshlarida turli mafkuralar o'rtasidagi ziddiyat va ixtiloflar yana avj ola boshladi. "Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga tahdid va xatarlar tobora ortib bormoqda, – deb yozadi davlat rahbari, – Dunyodagi ayrim siyosiy markazlar tomonidan ba'zi hududlarda sun'iy ravishda beqaror vaziyat yuzaga keltirilmoqda, norozilik kayfiyatlari avj oldirilmoqda. Ayniqsa, bugun tobora chuqurlashib borayotgan global iqtisodiy inqiroz turli fitnalar uchun yanada qulay sharoit yaratishini unutmasligimiz lozim. Mana shunday o'ta tahlikali sharoitda hammamiz sezgir va ogoh bo'lishimiz, avvalo, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini, milliy manfaatlarimizni o'ylab yashashimiz kerak. Necha yuz yillar davomida shakllangan asl insoniy qadriyatlarimiz o'rnini buzg'unchi g'oyalar egallab olishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak" [3]. Boshqacha aytganda, jahon mafkuraviy sahnida yuzaga kelgan vaziyatning o'zi mamlakat mafkuraviy xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor berishni taqozo qilmoqda.

O'z navbatida, biz shaxs befarqligiga barham berish imkoniyatlarini ikki yo'l bilan bog'laymiz:

Birinchidan, shaxs befarqligiga barham berish uchun eng avvalo uning jamiyatdagi jarayonlardan xabardorligi darajasini oshirish, shu maqsadga xizmat qiladigan ijtimoiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur, deb o'ylaymiz.

Ikkinchidan, shaxs befarqligiga barham berish uchun undagi vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish, buning uchun esa vatanparvarlik tarbiyasini yangicha mazmun bilan boyitish lozim bo'ladi.

Shaxs befarqligiga barham berish uning mafkuraviy xabardorligi

darajasini oshirish bilan bog‘liq. Mafkuraviy xabardorlik inson tafakkuri, e’tiqodi va faoliyatining asosini tashkil etuvchi mafkuraviy tushunchalar, tamoyillar va qadriyatlardan voqiflikni anglatadi. Mafkuraviy xabardorlik turli mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish va taqqoslash, ularga o‘z yondashuvini shakllantirish imkonini beradi. U shaxsni axborotlarni tanqidiy qabul qilishga, ular asosida o‘z ijtimoiy pozitsiyasini shakllantirishga odatlantiradi.

Shaxs befarqligiga barham berish uchun vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol toptirish, vatanparvarlik g‘oyasi bilan qurollantirish, Vatan manfaatlari yo‘lida faoliyat ko‘rsatishga tayyorlash ham zarur. Chunki Vatan tuyg‘usiga ega bo‘lgan, vatanparvarlik g‘oyasini chuqur o‘zlashtirgan, Vatan manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishga ko‘nikkan shaxsgina yurtda yuz berayotgan voqea va hodisalarga befarq bo‘lmaydi hamda o‘zi o‘zlashtirgan axborotlar, bilimlar va tajribalarni ushbu manfaatlarni qondirish sari yo‘naltiradi. Shaxs vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol toptirish, vatanparvarlik g‘oyasi bilan qurollantirish, Vatan manfaatlari yo‘lida faoliyat ko‘rsatishga tayyorlash uchun esa vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun bilan boyitish taqozo qilinadi. Binobarin, mazmunan boy, aniq vazifalarga yo‘naltirilgan, turli yo‘nalishlarda zamonaviy uslub va shakllarni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirilgan vatanparvarlik tarbiyasi shaxsdagi befarqlik alomatlariga barham beruvchi muhim omillardan biridir. Ushbu mulohazalar jamiyat a’zolarida Vatan tuyg‘usini shakllantirish va yuksaltirishga qaratilgan choralar majmuini aniqlab olish imkonini beradi. Shunday qilib:

kishilarda Vatan tuyg‘usini yuksaltirish uchun ularning O‘zbekiston tarixiga doir bilim va tasavvurlarini kengaytirish ishlariga tizimli tus bermoq darkor;

kishilarda Vatan tuyg‘usini yuksaltirish uchun ularning milliy madaniyatga doir bilim va tasavvurlarini kengaytirish ishlariga tizimli tus bermoq darkor. Bu borada mamlakat Prezidenti tomonidan 2023 yilning 22 dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ilgari surilgan 9 yo‘nalish bo‘yicha tashabbuslarning ro‘yobga chiqarilishi vaziyatni tubdan o‘zgartirgan bo‘lardi;

Ushbu mulohazalar jamiyat a’zolariga vatanparvarlik g‘oyasini singdirishga, shaxs befarqligiga barham berish uchun uning ijtimoiy xabardorligi darajasini oshirish bilan bir qatorda vatanparvarlik tuyg‘ularini kamol toptirish, vatanparvarlik g‘oyasi bilan qurollantirish, Vatan manfaatlari yo‘lida faoliyat ko‘rsatishga tayyorlash ham zarur bo‘ladi. Bu vazifani vatanparvarlik tarbiyasiga yangicha mazmun baxsh

etish orqali amalga oshirish mumkin. Vatanparvarlik tarbiyasini yangi mazmun bilan boyitish, uning imkoniyatlariga tayanib, befarqlikning turli shakllariga barham berish uchun uni uch asosiy yo‘nalishda - vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirish, vatanparvarlik g‘oyasini singdirish, vatanparvarlik faoliyatiga tayyorlash borasida olib bormoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.// lex.uz/docs/4320700

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.// lex.uz/docs/5344692.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - T.:O‘zbekiston, 2021. - B.299

4. Choriyev A. Inson falsafasi. Inson to‘g‘risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. Birinchi kitob.- T.: O‘zb.fayl. milliy jam. nashr., 2007.- B.289-305

YOSHLARNING ONGIGA SALBIY TA’SIR ETUVCHI G‘OYALARGA QARSHI SAMARALI KURASH OLIB BORISHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY USLUBLARI

Shohista NIYOZOVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Buxoro viloyati bo‘limi bosh mutaxassisi

Har bir ota-ona uchun farzand tug‘ilishi eng katta baxt, eng katta ne’matdir.., farzandining munosib inson sifatida kamol topishi esa undanda ortiqroq baxt, buni hech birimiz inkor etolmaymiz, ammo ko‘z nurimiz, qalb qo‘rimiz ila suyib katta qilgan dilbandimiz tarbiyasida adashsak-chi, unda biz bu ne’mat baxtliligini his etmay kuyunamiz….Ha, azizlar, tarbiya masalasi shunday ustivor masalaki, u har bir oila poydevorining mustahkam bandidir. Shuning uchun ta’lim-tarbiya, ma’naviyatga befarqligimiz bu fojeamizdir. Zero, inson zoti tug‘ilibdiki, xato qiladi, tuzatadi, adashadi, ammo shunday xatolar bo‘ladiki, ularni tuzatish mumkin emas, ular badalini to‘lash mushkul. Bu oilamizda berilayotgan noto‘g‘ri tarbiyamiz, yoxud yoshlar kelajagiga befarqligimizdir. Keling,

bir muddat bugungi O‘zbekiston haqida, yoshlarga qaratilayotgan e’tibor haqida to‘xtalsak….

-Men bugungi O‘zbekistonni eng avvalo, jahon shohsupasida o‘z bayrog‘ini munosib ravishda o‘rnata olgan, kelajagi porloq, istiqboli farovon, yoshlari bunyodkor, xalqi sadoqatli bir buyuk davlat sifatida tasavvur qilaman. Albatta, bugun barcha sohalarda ustivor bo‘lib kelayotgan mustaqil yurtimni jahon tan olyapti, o‘zbek yoshlariga bugun dunyo havas qilmoqda.

Darhaqiqat, tarixan qisqa davr mobaynida O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati safidan o‘rin olishi, mamalakatimizda barcha sohalarning, ayniqsa, ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning yangicha tizimda joriy etilishi, Davlat ta’lim standartlari asosida islohotlar olib borilishi, muallim va ustozlar zimmasiga ulkan vazifalarni yukladi. Bu davlat hujjatlarining mazmun-mohiyati, asl maqsadi, har tomonlama yetuk barkamol shaxsni voyaga yetkazish, salohiyatli, dunyoqarashi keng, iqtidorli o‘quvchilarni kamol toptirishdan iborat. So‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya, ma’naviyat sohasiga qaratilgan yuksak e’tibor bu sohani eng ustivor vazifa sifatida qo‘llab-quvvatlab, davlat siyosati darajasiga ko‘tardi.

Haqiqatdan ham, ta’lim sohasiga e’tibor nafaqat maktabda, balki oiladan boshlab shakllantiriladi, bugun zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yilgan talablarning eng asosiysi, mahalla-oila-maktab hamkorligini chuqur anglab, ana shu konseptsiyaga amal qilgan holda ta’lim-tarbiya sohasiga yondashmog‘i lozim, bu har bir pedagog zimmasiga yuklatilgan ulkan mas’uliyatdirki, bu mas’uliyat zamirida xalqning taqdiri, yurtning ertangi kuni, vatan ravnaqi turibdi. 2021-yilning yurtboshimiz tomonidan “Uchinchi Renessans davri” deb e’lon qilinishi O‘zbekistonimizning farovon kelajagiga qo‘yilgan poydevordir, zero, farzandlari ilmli yurtgina kelajakda qudratli bo‘lur, maktabda ham sog‘lom ma’naviy muhit bo‘lsa, unda haqiqiy komil farzandlar ulg‘ayadi, o‘zbek millatining ertasi gullab-yashnaydi, barkamol avlod vatan bayrog‘ini ko‘klarga olib chiqadi.

Bugun har bir o‘qituvchi, har bir rahbar nafaqat bilimli o‘quvchini kamol toptirishga intilishi, balki ma’naviy-axloqiy, jismoniy hamda har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazishni bosh g‘oya deb bilishi lozim, chunki bu davlat ahamiyatidagi eng dolzarb masaladir, bu ezgu maqsad ostidagi vazifani qat’iyat bilan, mas’uliyat bilan davom ettirish har bir pedagog uchun zarur deb o‘ylayman. Xo‘sh, ana shu yurtning ertasi bo‘lmish o‘zbek yoshlariga qanday ta’lim-tarbiya berilyapti…? Prezidentimiz tomonidan yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan qay

darajada foydalanilayapti? Bugun bu savolnafaqat rahbarlarni, balki ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan, shu sharafli kasbni nonini yeyayotgan har bir ustoz-murabbiyni o‘ylantirishi kerak, uning dardiga, maqsadiga, maslagiga aylanishi kerak. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek: “Eng muhim vazifa-yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdir. Ta’lim-tarbiya maktab ostonasidan boshlanadi”

Hozirgi kundagi global o‘zgarishlar, fan - texnika va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi XXI asr o‘qituvchisidan pedagogik mahoratni, o‘tkir irodani, pedagogik - psixologik bilimlarni, o‘z fanini chuqur bilishni va yuksak tafakkurni, siyosiy savodxonlikni, fikrlash doirasi keng va mulohazali bo‘lishni talab qiladi. Ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar o‘qitish shakllarining optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g‘oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Zero, shaxsni har tomonlama barkamol inson darajasida tarbiyalash nihoyatda murakkab jarayon bo‘lib, juda qadim zamonlardan buyon ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi, mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu tajribalar o‘qitish shakllarida foydalaniladigan o‘qitish qonuniyatlari, prinsiplarini ijodiy qo‘llashda, ilmiy bilishga doir g‘oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qadimdan buyuk allomalar vatani bo‘lib kelgan O‘zbekistonda yosh avlod tarbiyasi mutlaqo o‘zgacha ma’no kasb etishi muqarrar. O‘qituvchi - O‘zbekistonning porloq kelajagini barpo etuvchi, dunyoga mashhur mutafakkir va olimlarning davomchisi bo‘lgan yosh avlod ta’lim - tarbiyasi uchun javobgar shaxsdir. Shunday ekan, o‘qituvchining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi, uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota - onalar o‘rtasidagi obro‘ - e’tibori hozirgi zamon talablariga mos bo‘lishi shart. O‘qituvchi barkamol avlod ta’lim - tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo‘lib, nafaqat ma’naviy - axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o‘qituvchi sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mustaqillikning 30 yillik bayrami tantanalarida so‘zlagan nutqida Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilayotganini, ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy 4

davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo ilm - fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlab o‘tdi. “Yangi O‘zbekiston davlatini barpo etish, uni yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan og‘ir va mashaqqatli, shu bilan birga, g‘oyat sharafli mehnatingizni munosib qadrlash uchun Siz ustozlarga davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishga tayyormiz” - deya va’da berdi. Bu o‘qituvchiga e’tibor zamirida ulkan ishonch va ma’suliyat borki, qaysikim o‘qituvchilardan katta mehnat, kasbiy bilimdonlik, jahon standartlari asosida doimiy o‘z - o‘zini rivojlantirib borish, pedagogik mahoratni oshirib borish kabi vazifalarni talab etadi.

Har bir rahbar uchun, jumladan men uchun ham, bugungi yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir etayotgan omillarni shunchaki sanab o‘tish mushkul, ming afsuski bugungi haqiqatlardan ko‘z yumolmaymiz, agar raqamlarga e’tibor qaratsak, jinoyatchilik o‘smirlar orasida, xususan, voyaga yetmagan maktab o‘quvchilari o‘rtasidan kundan kunga o‘sib boryapti….Nega? degan savol siz kabi meni ham o‘ylantiradi, chunki shuncha davlat rahbari tomonidan qaratilayotgan e’tibor, shuncha sharoit negizida ular qachon jinoyat qilishga ulguryapti… Bunday chuqur mulohaza qilsak, hech bir farzand ota-onadan jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmaydi, u farishtadek qalbi toza, beg‘ubor go‘dak timsolida gavdalanadi. Ammo u tarbiya olayotgan muhit, oila, maktab, mahalla-kuy qolaversa, bizning loqaydligimiz tufayli u yot g‘oyalarga beriladi va jinoyat ko‘chasiga kirib ketadi. Qachonki uni qora kursida ko‘rsakkina, biz afsuslanamiz unda kech bo‘lganini tushunib yetamiz….

Bugun yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir qilayotgan illatlar sirasiga biz hech ikkilanmay ijtimoiy tarmoqlar, uyali aloqa vositalari, ommaviy madaniyat niqobi ostidagi turli xil yot g‘oyali oqimlar, g‘arb madaniyatiga taqlid va hokazolarni kiritishimiz mumkin. To‘g‘ri, bizni rivojlanayotgan internet tarmog‘ini to‘xtatishga yoki ta’qiq qo‘yishga haqqimiz yo‘qdir, lekin farzandimizda ma’naviy immunitet hosil qilishga, uni to‘g‘ri yo‘lga solishga aqlimiz ham, salohiyatimiz ham, bilimimiz ham yetadi-ku…?! Bu muammolarga qarshi yakdil bo‘lishimiz kerak, shunchaki bola bilan xo‘ja ko‘rsinga emas, haqiqiy ma’noda uni qalbiga yo‘l topishimiz kerak, bugun qalbi kemtik bolalarimiz talaygina, chunki maktablar hisobotini varaqlab ko‘rganimda deyarli har bir maktabdan 30-40 foiz ota-ona chet elda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish maqsadida ketgan. Bu degani to‘liqsiz oila farzandlari, nazoratsiz qolgan yoshlarimiz juda ko‘p. Ana shu bo‘shliqni biz bilan siz to‘ldiramiz chunki ma’naviyat shiori ostida bayroqni biz ko‘tarib turibmiz ….

Ularni to‘garaklarga jalb etib, ko‘nglimizga yaqin olib, kasbu-hunarni

o‘rgatsak mehr bersak, albatta, samarasini beradi. Men yoshlarimiz ongiga salbiy ta’sir etuvchi g‘oyalarga qarshi samarali kurash olib borishning ma’naviy-ma’rifiy uslublari deganda, eng avvalo, bola psixologiyasini o‘rganish, ular bilan maxsus treyninglar olib borish, “Sinf rahbar-oila-psixolog” uchlik hamkorligini tashkil etishni tavsiya etgan bo‘lardim..

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Maktablarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligi keng ko‘lamda tashkil etish har birimizning oldimizdagi ustivor vazifa sanaladi. Oldimizda turgan maqsadimiz-kelajakda o‘quvchilarimiz ma’naviyatli, ma’rifatli komil inson, harjihatdan yetuk, barkamol shaxs sifatida kamol toptirishdan iborat. Tarbiyaviy yo‘nalishlarning barcha sohasida o‘z hissamizni qo‘shish, ana shu maqsad sari intilish esa - har bir fidoyi o‘qituvchining shioriga aylanmog‘i lozim. Prezidentimiz barkamol shaxsni kamol topishida eng avvalo, uni ma’naviy jihatdan to‘g‘ri tarbiyalash juda muhim ekanligini alohida uqtiradilar.

Prezidentimizning bizga bo‘lgan bunday ishonchlariga javoban men ma’naviy-ma’rifiy sohada yanada ulkan yutuqlarga erishishga, yoshlarimizning har tomonlama ma’nan yetuk barkamol shaxs bo‘lib kamol toptirishda tomchima-tomchi, zarrama-zarra fidoyilik ko‘rsatishni astoydil maqsad qilib qo‘ydim. Men ta’lim muassasalarda ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni faqat raqamlarda yoxud ko‘rsatkichlarda deb bilmayman, qo‘limizda tarbiyalangan har bir o‘quvchi hayotda munosib o‘rnini topib yurt kelajagi, millat ravnaqi yo‘lida xizmat qila olsagina maqsadimga erishgan bo‘laman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy istiqlol g‘oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillar. T.O‘zbekiston. 2000

2. A.Aliyev. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. T. O‘zbekiston. 2003

3. A.A.Axmedov. Ijtimoiy padagogika. Buxoro 2003

YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASI HAMDA VATANPARVARLIK

Nemat TUXTAROV,
Surxondaryo viloyati Muzrabot tuman kasb-hunar maktabi
Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Hozirgi vaqtda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadryatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, shu bilan birgalikda jismonan sog`lom hamda har tomonlama ma’naviy salohiyatini yuqori darajada shakllantirish oldimizdagi birinchi maqsadga aylanishi lozim. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot tizimi shakllandi. Bu jarayonda Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi, uning joylardagi tuzilmalari hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etish lozim.[3] Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.[2]

Davlatimiz rahbarining 2023 yil 16-17 noyabr kunlari viloyatimizga tashrifida bergan topshiriqlariga asosan respublikada birinchi bo‘lib vohamizda “Ma’naviyat sektori”ni tashkil etish bo‘yicha “Surxondaryo tajribasi” misolida “Ma’naviyat sektori”ni tashkil etilishi yoshlarda vatanparvarlik tuyg`ularini yanada shakllantirishga, kitobga bo‘lgan muhabbatlarini yanada oshirishga xizmat qildi. Bundan tashqari barcha ta’lim muassasalarida bo‘lgani kabi kasb-hunar maktablarida ham “Ma’naviyat sektori”tashkil etilgan va ushbu “Ma’naviyat sektori” qoshida kutubxona, milliy qadriyatlarimizni o‘zida mujassam etgan muzey, yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida “Ma’naviyat sektori” xonasida kitobxonlik tadbirlari o‘tkazilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidantining 2021-yil 26-martdagi PQ50-40-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g`risida”gi qarorida ham ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini

yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida bir qancha chora-tadbirlar belgilab olingan.

Hammamizga ma'lumki har qanday kasallikning oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilinadi. SHunday ekan yoshlar ongida ham ona Vatanimizga bo'lgan muhabbatimiz, qadimiy boy tariximizga, ota-bobolarimiz kabi o'z dinimizga sadoqat tuyg'ularini yanada shakillantirishimiz , kelajak avlodlarga yetkazib, kerak bo'lsa ularning ongida va qalbida mafkuraviy, ma'naviy immunitetni kuchaytirishimiz muhim o'rin tutadi. Toki yoshlar milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqurroq anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shundagina johil aqidaparastlarning "Da'vat"i ham odob-axloq tushunchalarini rad etadigan, bizlar uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Yoshlardagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirish uchun ularni turli tajovuzlardan himoya qilish uchun avvalo ularning qalbida Vatanimizga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirish, buyuk tariximizni, milliy urf-odatlarimizni qalblariga singdirish zarurdir. Yana milliy o'zligimizga salbiy ta'sir ko'rsatgan milliy qadriyatlarimizni rivojlanib borishiga to'sqinlik qilgan, o'zligimizdan ayirmoqchi bo'lganlarni, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda hudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, manfaatparastlik va korrupsiya, o'zgalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay halos etish to'g'risida chuqur o'ylashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2021. -B. 211.

2. S.Samadova. Milliy g'oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari (o'quv qo'llanma) "Durdona" nashriyoti Buxoro – 2022 B-141-146

3. M.Dovidxonov. Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalarining roli. "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnal -17

YOSHLAR ONGIDA VATANPARVARLIK HISSINI SHAKLLANTIRISH – DAVR TALABI

To‘xtajon XUDAYBERGANOVA,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
Urganch filiali katta ilmiy xodimi

Barcha davrlarda oilada bola tarbiyasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi, zero shunday ekan, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda oilaning o‘rni benihoya kattadir. Hammamizga ma’lumki, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo‘layotgan tub o‘zgarishlar oilada bola tarbiyasiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Kelajagi buyuk davlatlarning barpo etilishi yoshlarning qanday tarbiya olishlariga bog‘liq. O‘z davrida o‘zbek pedagog adibi A.Avloniy aytganlaridek, “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo falokat, yo saodat, yo halokat masalasidir.” Milliy istiqlol mafkurasining negizida yosh avlodni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash yotadi. Yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy ong va o‘z-o‘zidan vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishni taqazo etadi.

Vatan ostonadan boshlanadi, degan ibora bejiz aytilmagan. Vatanni sevish ota-onani sevishdan boshlanadi. Ota-onaning bolaga bo‘lgan mehr-muhabbati o‘z vaqtida vatanga bo‘lgan muhabbat bilan yo‘g‘rilib ketishi zarur. Vatanga muhabbat esa o‘z navbatida oiladan boshlanadi. Mustaqillik sharoitida oila va oilaviy munosabatlarga yondashish deganda, xuddi shunday tushunchani tushunmoq to‘g‘riroq bo‘ladi. Bunda oilada bolalarga o‘zaro hamjihatlik, kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, el-yurtga muhabbat, ota-onani qadrlash, farzandlik burchini to‘la ado etish, boshqalar g‘amiga sherik bo‘lish, o‘zgalarga yordam berish, vatanga muhabbat tuyg‘usini rivojlantirish, ota-bobolarimizga xos mehnatsevarlik odobiga sodiq qolish, bilim olishga intilish, ma’rifatparvarlarga ehtirom, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, Vatan va xalq tarixiga hurmat bilan qarash milliy odob-axloq normalariga to‘la amal qilish kabi tushunchalarni yoshlar ongiga singdirish, bolalarda vatanga va ona yurtga bo‘lgan muhabbatni o‘stirishga olib keladigan dastlabki saboqlar hisoblanadi. Oilada bolalarning vatanparvarlik e’tiqodini tarbiyalashda ota-onalar ajdodlarimizning ona vatanga mehr-muhabbatini uning yo‘lida qilgan qahramonliklarini misol tariqasida aytish mumkin. Darhaqiqat, Fitrat takidlaganidek, “Vatan qiblagohdir, vatan sajdagohdir”.

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish, albatta, kuchli va yaxlit jamiyat barpo etishda muhim ahamiyatga ega. Vatanparvarlik

insonda o‘z mamlakati, uning tarixi, madaniyati va o‘ziga xosligi bilan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otadi. Bu fuqarolik mas’uliyatini tarbiyalaydi, jamiyat hamjihatligini ta’minlaydi, millat taraqqiyoti va kelajagi yo‘lida faol ishtirok etishga undaydi.[1] Yoshlar ongiga vatanparvarlikni singdirishning turli usullari mavjud. Ta’lim insonning o‘z mamlakatiga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tarix, fuqarolik va demokratiya qadriyatlarini o‘rgatish yoshlarga vatanparvarlik tuyg‘usining ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Qolaversa, milliy ramzlar, bayramlar va an’analarni targ‘ib qilish insonda o‘z vataniga daxldorlik va g‘urur hissini uyg‘otadi.

Yoshlarga vatanparvarlik tuyg‘usining ahamiyatini anglashda ularga ijobiy ibrat va ustozlik qilish zarur. Kattalar millatga, uning institutlariga va xilma-xilligiga hurmat ko‘rsatish orqali yosh avlodni o‘z mamlakatini qadrlash va uni yaxshilashga faol hissa qo‘shishga ilhomlantirishi mumkin. Umuman olganda, yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash oilalar, maktablar, mahallalar va davlat muassasalarining birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. Vatanga muhabbat va hurmat tuyg‘ularini yuksaltirish orqali biz o‘z millatining farovon kelajagini barpo etishga bel bog‘lagan mas’uliyatli fuqarolar avlodini tarbiyalashimiz mumkin.

Milliy Vatanparvarlik haqida so‘z borganda, bu o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan iymon, insof, mehr-muhabbat, oqibat, shavqat, or-nomus, ona yurtiga, o‘z eliga sadoqat axloqiy-ma’naviy qadriyatlar, g‘oyalar, qarashlar yig‘indisi tushuniladi. Bu qarashlar ta’lim tizimida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Ta’lim muassasalarida ham Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish, tarbiyalash ta’limining asosiy mazmunini tashkil etadi. Vatanparvarlik his-tuyg‘ularini shakllantirishda O‘zbekistonning davlat ramzlari bayroq, gerb, madhiya, o‘zbek tili, Konstitutsiya va boshqa shu millatga, shu zaminga xos-u mos bo‘lgan tuyg‘ular, fazilatlar o‘tkazilayotgan madaniy-ma’rifiy faoliyatda o‘z aksini topmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasi davlat darajasidagi masalalardan bo‘lganligi bois, bunday maqsadlarga aniq rejalashtirilgan yo‘l xaritalarida belgilangan vazifalardan iborat ishlarni hayotga tatbiq etish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek xalqi o‘z milliyligi, mehr-oqibati, diniy e’tiqodi, urf-odatlari, mehnatsevarligi, sahiyligu, mehmondo‘stligi va albatta sadoqati bilan boshqa xalqlardan o‘z pedagogik tarbiyasi bilan ajralib turadi. Barkamol avlod tarbiyasi, uning kamolotiga oid barcha masalalarni o‘zida mujassam etgan. Shunga ko‘ra, barkamol shaxs tarbiyasida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ahillik, ilm va kasb-hunarga mehr-muhabbat, adolatlilik, ziyraklik, tashabbuskorlik, e’tiqod

va sadoqatlilik, oqibatlilik, odoblilik kabi fazilatlarga ega bolishi, shu bilan birga chuqur ilm egallashi, vaqtning qadriga yetishi, xalq udumlari va milliy urf-odatlarini yaxshi bilishi va qadrlashi, diniy ta'limotlarni to‘g‘ri tushunishi, muomala odobi va kiyinish madaniyatiga rioya qilishi lozimligi uqtirilgan. Bu fazilatlaring aksi bo‘lgan nodonlik, badxulqlilik, manmanlik, qo‘rqoqlik, yolg‘onchilik, odobsizlik, insofsizlik, sabrsizlik, baxillik, kibru havo, hasadgo‘ylik, farosatsizlik kabi illatlardan xoli bo‘lishi talab etilgan. Ana shu ijobiy fazilatlani yoshlar tarbiyasiga singdirish va illatlardan yiroq tutish yoki xoli qilish bo‘yicha oilada ota-ona va uning o‘rnini bosuvchi vasiylar, kerak bo‘lsa hamkor tashkilotlar bilan xalq pedagogikasida qator tarbiya metodlari, usul va vositalaridan qo‘llanib kelinadi.

Yoshlar tarbiyasi masalasi davlatimiz siyosatining hozirgi kunda eng muhim strategik vazifalaridan biridir.[2] Yoshlar tarbiyasi tarbiyalash va ularning shaxsini har tomonlama kamol toptirish barcha umumta'lim maktablari zimmasiga yuklatilgan. Bu vazifalar o‘quvchilarda barcha qobilyatni o‘sishiga, ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil bo‘lib hisoblanadi. Ilg‘or g‘oyalarni davrimizda roy berayotgan o‘zgarishlarni, shuningdek, tarixiy mavzularni zamonaviy ruhda tushuntirish o‘g‘il va qizlarda g‘oyaviy e'tiqodni ma'naviy dunyoqarashni tarbiyalash uchun boy manba bo‘lib hisoblanadi. Shundagina yosh avlod ruhiga his-hayajonli ta'sir ko‘rsatadigan ularda mardlik, jasurlikni, tashabbuskorlikni tarbiyalaydigan mustahkam milliy tarbiya tizimi tarkib topadi.Vatanparvarlik tushunchasi ko‘pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatiladi. Bir jihatdan olib qaralganda, bu to‘g‘ri. Ammo, biz bu tuyg‘uni faqat harbiylarga nisbatan ishlatsak, biz vatanparvarlikning tor ma'noda qo‘llagan bo‘lamiz. Vatanparvarlikni barcha faoliyat doirasida ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Vatanimiz tarixini mukammal o‘rganish qolaversa keng jamoatchilikka targ‘ib qilish ilm-fan, san'at, ijodning turli sohalarida ham vatanimizga xizmati tegadigan yosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunda keng tarzda amalga oshirib kelinmoqda. Yoshlarni jamiyatimizga foydasi tegadigan qilib tarbiyalashda hayotimizda kundalik turmush tarzida turli xil ijtimoiy hodisalar bilan birgalikda urf-odatlar ijtimoiy marosimlar va bayramlarning ahamiyati kattadir. Yoshlar ongida Vatanga muhabbat, vatanga muhabbat hissi vatannni ardoqlash, vatanga xizmat qilish kabi tuyg‘ularni shakllantirish eng avvalo ota-ona, qolaversa, pedagog va muallimlarning eng asosiy vazifalaridan biri ekanligi anglashiladi. Ma'naviy hayot tarzini shakllantirish yuzasidan shaxs millat va jamiyatning ma'naviy munosabatlarga kirilishi mezonlar odob-

axloq kabi tuyg‘ulari va tushunchalarning shakllanishida kitob va kitob vositalarining aloqasi albatta katta bo‘ladi. Muhtaram prizidentimiz Shavkat Mirziyoyiv Miromonovich boshchiligida yosh kitobxon ijtimoiy doirasida yoshlarni qo‘llab-quvvatlash kitoblariga e’tiborni oshirish yoshlar ongida Vatanarvarlik ruhini yanada rivojlantirish ushbu yo‘lda sa’y-harakatlar qilib kelayotgan yoshlarni qo‘llab quvvatlash bugungi kunning eng asosiy vazifalaridan va quvonarli tomonlaridan biridir.[3]

Bugungi globallashayotgan dunyoda yoshlar ongiga va ma’naviyatiga salbiy ta’sir etayotgan ommaviy madaniyat unsurlarining milliy mafkuramizga suqulib kirishi va axborot texnologiyalari xatarlarining yoshlar ongiga tobora kuchayib borayotgani sababli dunyoda yuz berayotgan salbiy o‘zgarishlarni tanqidiy baholagan holda yoshlarning baxtli kelajakini ko‘zlab, yoshlar siyosatini amalga oshirishda qo‘shimcha chora tadbirlarni qo‘llash muhim masaladir. Shu o‘rinda mamlakatimizda yoshlarning siyosiy–huquqiy madaniyati, ijtimoiy ong darajasining o‘sib borishi, yosh avlodning ilm–fan, sport sohasida erishayotgan yutuqlarini munosib baholash, bu sohadagi islohotlarni yuqori bosqichga ko‘tarish uchun zarur shart – sharoitlarni yuzaga keltirishda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich “Yangi O‘zbekidton taraqqiyot strategiyasi”. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. - Toshkent:. “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022, 254 b

2. V.Qo‘chqorov, O.Mahmudov, Z.Zamonov “Ma’naviyat asoslari|”. O‘rta ta’lim maktablarining 10-11-sinflari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun darslik, 1-nashr. Toshkent:. “Yangiyo‘l poligraf servis”. 2017, 5 b

3. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston Xalqiga Murojaatnomasi”. Toshkent -2022.

YOSHLARDA VATAN TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TA’LIM-TARBIYANING AHAMIYATI

Dilmurodxakim ABDULLAYEV,
TDTrU Xalqaro talim dasturlari fakulteti tyutori

Ibrohimjon XOJAMQULOV,
TDTrU Xalqaro talim dasturlari fakulteti talabasi

Kishilik jamiyati tarixidagi ilmiy-texnikaga oid yutuqlar, birinchidan, insonning farovon hayot kechirishi, jamiyat rivojiga beqiyos hissa qo‘shishi, insoniyat tomonidan mamnuniyat va quvonch bilan kutib olingan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, buning natijasida atrof tabiiy muhitga antropotexnogen ta’sirning salbiy oqibatlari olamshumul ekologik muammolarni keltirib chiqarmokda va kishilik jamiyatini tashvishga solmoqda.

Tabiatga salbiy ta’sir etuvchi omillarga inson tafakkuri mahsuli bo‘lgan minglab kashfiyotlarni ko‘rsatish mumkin. Lekin ularni faqat salbiy baholab bo‘lmaydi, aksincha ulardan kelayotgan ijobiy ko‘rsatkichlarni ham e’tiborga olish kerak. Qolaversa, hozirgi zamon hayotini ularsiz tasavvur qilib bo‘lmasligiga ortiqcha dalil isbot kerak emas. Biroq, asosiy muammo ularni qanday qilib ekologik havfsizlantirishdir.

O‘zbekiston davlatining jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash, xalqning farovonligini oshirish yo‘lida, jamiyatimizning barcha sohalarida erkinlashtirish siyosati olib borilmoqda. Bu o‘z navbatida ichki va tashqi iktisodiy faoliyat jadallashuviga, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jug‘rofiyasini kengaytirishiga, yer osti va yer usti boyliklariga bo‘lgan ehiyojning o‘sishiga, ya’ni tabiatga bo‘lgan antropogen bosimning yanada kuchayishiga olib keladi.

Mamlakatimizda tabiat va jamiyat munosabatlarini uyg‘unlashtirishni, ekologik havfsizlikni ta’minlashning huquqiy asoslarini mustahkamlash va mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish borasida: “Tabiatni muhofaza kilish to‘g‘risida”, ”Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Er to‘g‘risida”, “Suv va suvdan foydalanish haqida”, “Qazilma boyliklar haqida” va boshqa tabiatdan oqilona foydalanishga qaratilgan qonunlar va yuridik hujjatlar qabul qilindi, ular tabiatni muhofaza qilishda muhim huquqiy omil xisoblanib, taqiqlovchi, qo‘riqlovchi, nazorat va jazolovchi, me’yorlovchi xarakterga ega. Eng asosiysi ekologik ta’lim-tarbiyaning qonuniy asoslari vujudga keltirildi. Uning asosida, ta’lim soxasida ekologik ta’lim-tarbiya tizimi shakillanib, takomillashib bormoqda, maqsad fuqarolarimizni yoshlikdan atrof-muhit muhofazasining faol

ishtirokchisi qilib voyaga yetkazishdir. [1]

Bugungi kunda ekologik muammolarga nisbatan “Tabiat-tabiat uchun” (konservatsionalizm), “Tabiat-jamiyat uchun”, “Ekologik pessimizm”, soxta “ekologik optimizm” pozitsiyasida turuvchi ta’limot va nazariyalar mavjud.

Bulardan hech biri, ilmiy cheklanganligi bois muammoni pozitiv hal qila olmaydi. “Tabiat-jamiyat-inson” munosabatlarini uyg‘unlashtirishda, jamiyatning tabiatga bo‘lgan ta’sirini insonparvarlashtirish va ekologiyalashtirish, optimal variantlaridan biridir.

Tabiat jamiyatning moddiy va ma’naviy hayot manbaidir. Tabiiy borliqning tarkibiy elementlari: yer, suv, osmon, hayvonot va o‘simlik dunyosi, ya’ni ekosistema har bir xalqning, millatning moddiy hayotini rivojlanishiga, vatan tuyg‘usini shakllantirishga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Xalqning etnik jihatdan o‘z-o‘zini anglashida, har bir geografik xududning o‘ziga hos ekosistemasini saqlab qolish, shu xalq rivojlanishiga yoki inqirozga yuz tutishiga, insoniyatning ko‘hna tarixi ko‘p marotaba guvoh bo‘lgan. O‘zbek xalqining o‘ziga hos ekologik milliy madaniyati, qadimgi tarixiga ega bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘lib kelgan. Xalqimizning tabiat haqidagi bilimlari, ekologik mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan qarashlar, milliy urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar, san’at va bayramlarida o‘z aksini topgan bo‘lib, millatimiz tarixiy xotirasining tarkibiy qismiga aylangan. Qolaversa mustaqil O‘zbekiston davlat ramzlari (bayroq, gerb va madhiya)da yurtimiz tabiiy muxiti o‘z aksini topgan.

Ekologik ta’lim-tarbiyaning vazifasi - atrof muxitni muxofaza qilish haqidagi nazariy bilimlarni chuqurroq egallashi; xozirgi davr ekologik muammolarining insoniyat taqdiriga ta’sir etishning salbiy oqibatlarini anglab yetishi; O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar ekologik siyosatidan, ekologiyaga doir qonunlardan xabardor bo‘lishi; ekologik jixatdan zararsiz texnologiyalarni hayotga joriy qila olishi; ekologiyaga daxldor bo‘lgan masalalarga ijodiy yondashib yagona maqsadga, talabalarning atrof-muhitni muxofaza qilish soxasida faol ishtirokchisiga aylantirishga xizmat qilishdadir. [2]

Ekologik tarbiyaning samaradorligi mezoni tabiiy atrof muhitni faol muhofaza qilish bilan belgilanadi. Bu shaharlarimizniig ko‘kalamzorligi, ekologik kasalliklar kamayishi, ko‘cha va uylarimizning tozaligi, o‘rtacha yashash yoshining o‘sishi, ishlab chiqarishda ekologik texnologiyalarni qo‘llash darajasiga, eng muhimi, aholining ekologik hayot darajasini yaxshilanishida o‘z ifodasini topishi muqarrardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni (1992-yil 9-dekabr). https://lex.uz/docs/-107115. https://lex.uz/docs/-3174498

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» 2017-yil 21-apreldagi PF-5024-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-3174498

MILLIY TA’LIM VA KASB-HUNAR ISLOHOTLARINING YOSHLAR BILIMI VA DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Xushnudjon Urinov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Kasb-hunar ta’limining ijtimoiy-iqtisodiy roli uning ko‘p qirrali vazifalari va ko‘lami bilan ajralib turadigan iqtisodiy va ijtimoiy soha ekanligi bilan ajralib turadi. Kasb-hunar ta’limining iqtisodiy tizimdagi o‘rni uning aholi va oilalarni malakali kadrlar tayyorlashning turli bosqichlarini qamrab olishi bilan tavsiflanadi. Bu ko‘lam kasb-hunar ta’limining o‘ziga xos soha va sohalararo muammolarini yaratadi. Biz ushbu muammolarni quyidagi yo‘nalishlarda baholaymiz;

- kasb-hunar ta’limi va ilmiy salohiyatning innovatsion iqtisodiyotini shakllantirish
- kasb-hunar ta’limi va iqtisodiy o‘sish va muvozanatli rivojlanishni shakllantirish
- kasb-hunar ta’limi va ijtimoiy rivojlanishni ta’minlash.

Kasb-hunar ta’limining amaliy metodologiyasi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari, istiqbolli yo‘nalishlari va faol prognozlash jihatlaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi va rivojlantiriladi [1].

Kasb-hunar ta’limining bir soha sifatida samaradorligi bir qator makro va sohaviy tadbirlar bo‘yicha baholanadi. Kasb-hunar ta’limining iqtisodiy samaradorligi, kasb-hunar ta’limiga sarflanadigan xarajatlar va yalpi ichki mahsulotning o‘sishi o‘rtasidagi elastiklik yuqori funksiyaga ega bo‘lgan bir tarmoqli model sifatida ifodalanadi. Uning ijtimoiy iqtisodiy roli kasb-hunar ta’limi sifati, uning mahsulotidagi ilmiy salohiyat dinamikasi, kasb-hunar ta’limida xulq-atvor modellarini

shakllantirish dinamikasi bilan o‘lchanadi. Albatta, bu fazilatlar va ularning ta’siri analitik ifodalar va regressiya modellari bilan emas, balki sifat o‘zgarishlari va sinergetik ta’sir bilan o‘lchanadi. Ma’lumki, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi “ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir”[2].

Kasb-hunar ta’limining ijtimoiy-iqtisodiy rolini baholashni iqtisodiy va ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar va dinamikalar bilan tahlil qilish mumkin. Birinchi navbatda innovatsion mehnatga bo‘lgan ehtiyoj va ularning o‘zgarish dinamikasi mehnat jarayonida yuzaga kelishi kerak. Shunday qilib, klassik tarzda kasb-hunar ta’limidagi o‘zgarishlarni fanni talab qiladigan odatlar, sohalar va boshqaruv tizimlari dinamikasining o‘zgarishi bilan solishtirish mumkin. Ba’zan xizmat ko‘rsatish sohasining o‘sishi; Agar maishiy iqtisodiyot va bir qator infratuzilma tarmoqlari rivojlanishning yetakchi bo‘g‘ini rolini o‘ynasa, bilimli kadrlarga bo‘lgan talab mos kelmaydi. Shu sababli, malakali kadrlar bozorining kengayishi va fundamental sohalarning rivojlanishi bilan kasb-hunar ta’limida tarkibiy o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. Zamonaviy sharoitda kasb-hunar ta’limi tizimi tijorat manfaatlariga asoslanadi. Xodimlar tashqi bozorlarga kasb-hunar ta’limi olish uchun talabalarni eksport yoki import qilish tijorat faoliyati sifatida kasb-hunar ta’limining kengayishiga va raqobatbardosh kasb-hunar ta’limi markazlarining yaratilishiga olib keladi. Kasb-hunar ta’limining moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati, ilmiy salohiyat, iqtisodiy o‘sish, kadrlar eksporti va to‘lovlar bilan kasb-hunar ta’limi xizmatlari bozorini kengaytiradi. “Ma’lumki yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”[3].

Zamonaviy kasb-hunar ta’limi sohasidagi murakkab o‘zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni katta hisoblanadi. Kasb-hunar ta’limi falsafasi ijtimoiy hayotning dialektik va sinergetik taraqqiyot yo‘nalishlarini aniqlab olishda ustuvor o‘rinni egallaydi. Shuningdek, kasb-hunar ta’limi instituti o‘zining asosiy ijtimoiy-madaniy maqsadini insonni ijtimoiylashtirish orqali yaqqol namoyon etadi. Kasb-hunar ta’limi nafaqat muayyan fan faoliyatini o‘qitish yoki uni amaliy tomonlarini rivojlantirishda, balki ijtimoiy-madaniy munosabatlar sohasi, umumiy madaniyat va dunyoqarash

to‘g‘risidagi bilimlarni yuksaltirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Kasb-hunar kasb-hunar ta’limii bilan bog‘liq kasb-hunar ta’limi faoliyati ko‘plab kasb-hunar ta’limi elementlarini hisobga olishi va umumiy kasb-hunar ta’limida mavjud bo‘lgan umumiy qonunlar va kasbiy kasb-hunar ta’limining o‘ziga xos individual qonunlari o‘rtasidagi o‘yin asosida tahlil qilish va yangilash kerak. “Kasb-hunar ta’limi – bir qancha bilim sohalari bilan uzviy bog‘langan, katta hajmdagi tushuncha va terminlarni o‘ziga qamrab olgan integrativ hodisa va jarayonlarni tadqiq etuvchi murakkab pedagogik bilim sohasi. Kasb-hunar ta’limi pedagogikasi va metodikasining murakkabligi shundaki, bu fanlar kasbiy ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liqligida ko‘p qirrali, juda murakkab mavjudot bo‘lgan odamni kasbga tayyorlash jarayoni bilan bog‘langan”[5].

Ta’lim va fan har doim jamiyatlar hayotida eng ko‘p muhokama qilinadigan masalalardan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Bu o‘z-o‘zidan juda tabiiy masala. Chunki insoniyat jamiyati o‘zining taraqqiyoti va hayotining farovonligi tafakkurga bog‘liqligini va shu tafakkur natijasida yarata oladigan asbob va asboblarni turli vazifalarni bajarishga, o‘zi mavjud tabiat sirlarini o‘rganishga bog‘liqligini o‘zining vujudga kelganidan anglab yetgan. Shuning uchun ham ilk kishilar tabiatning o‘zini o‘rab turgan narsa va hodisalar dunyosini o‘rganish yoki tushunish bilan bir qatorda musiqa va qo‘shiqlar ham yaratgan. Miloddan avvalgi VI asrda qadimgi Yunonistonda Pifagor maktabiga mansub faylasuflar ijodida buni yaqqol ko‘ramiz. Bir tomondan, ular tabiat va jamiyatning yaxlitligini ta’kidlaydilar (falsafa), ikkinchi tomondan, ana shu yaxlitlikni yaratuvchi miqdoriy o‘lchovlarni (matematikani) o‘rganish bilan, uchinchi tomondan esa tabiat va inson (musiqa) o‘rtasidagi uyg‘unlikni o‘rganish bilan shug‘ullanganlar va shu bilan ular o‘z oldiga jiddiy muammolarni qo‘yganlar. Chunki biz dunyoga uning mavjud yaxlitligida yaqinlashish usulini birinchi marta Pifagor maktabida ko‘ramiz.

Fan va ta’limga bo‘lgan munosabat va umidlardagi farqlar ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu har doim har qanday jamiyat mavjud bo‘lgan ijtimoiy makon (tabiiy-geografik sharoitlar, an’analar, e’tiqodlar, turmush tarzi, faoliyat sohalari va boshqalar) va ijtimoiy vaqt (demografik soni va tarkibi, umumiy ruhiy holat yoki ijtimoiy ong, ishlab chiqarish) bilan bog‘liq. va iste’mol darajasi, salomatlik, fan va texnikaning rivojlanish darajasi, umumiy-madaniy va sivilizatsiya darajasi va boshqalar). Bularning barchasi ta’limni tashkil etish va uning mazmunini birlikda belgilab beruvchi omillardir. Binobarin, ta’limni tashkil etish va

mazmunini belgilashda kimgadir taqlid qilib, kimgadir taqlid qilishdan ko‘ra, mamlakatning real ahvolidan, uning ijtimoiy psixologiyasi va ijtimoiy ong darajasidan kelib chiqib, to‘g‘riroq va foydaliroqdir. Ilg‘or amaliyotga kelsak, bu amaliyotni o‘zlashtirish va qo‘llash doimo bo‘lgan va bo‘lishi kerak. Bu yerda taqlid qilishdan ko‘ra tahlil va sintezdan o‘tish foydaliroqdir.

Darhaqiqat, ta’lim tizimimizning mazmuni boshidanoq yevropa tajribasi va ilm-faniga asoslangan. Chunki tabiiy fanlar va texnika fanlarining mazmuni asosan yevropa olimlarining ilmiy nazariya va g‘oyalariga asoslanadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarga kelsak, ularning asosiy tushunchalari va konstruksiyalari yevropa fanlariga asoslanadi. Ularni qurish, qurish, tizimlashtirish, ma’lum mazmun va shaklda mahalliy materiallarga asoslanadi. Har qanday fan sohasining paydo bo‘lish va rivojlanish tarixini, hozirgi darajasini o‘rganar ekanmiz, yevropaga murojaat qilishimiz bejiz emas. Boshqa yo‘l yo‘q. Ular bu ishni erta boshlashdi va oldinga borishdi. Va biz vaqtni behuda sarflab, velosipedni qayta ixtiro qilishga urinishdan ko‘ra, tayyor bo‘lgan narsadan foydalanishimiz kerak. Ammo biz buni o‘ylashimiz kerak jahon ilm-fanini faqat eruditsiya, bilim uchun bilim, aqidalar tizimi sifatida emas, balki uni hayotimizga, borligimizga tadbiq etishimiz, borligimiz va hayotimizdan kelib chiqadigan masalalarni hal etishimiz kerak. Yevropa fani 16—17-asrlardan boshlab aynan yevropa hayoti va yevropa tafakkuri talablariga javob berib rivojlandi. Bu fan o‘zining rivojlanish talablarini qondirish uchun ilmiy laboratoriyalar bilan birga fanning ichki mantiqiy bazasini, nazariy sohasini yaratdi. Shunday ekan, bugungi kunda fan va ta’limning qaysi sohalariga ustuvor ahamiyat qaratishimiz kerakligi haqida o‘ylashimiz va bu sohadagi ehtiyoj va talablarga javob bera oladigan eng yangi jihozlar bilan jihozlangan ta’lim tizimi va ilmiy markazlarni yaratishimiz kerak. Bu yerda kimgadir taqlid qilish va kimgadir taqlid qilish kutilgan natijalarni berish qiyin. Shuni esda tutish kerakki, ta’lim va fanning rivojlanishi ikki muhim omil bilan bog‘liq: 1) jamiyatning real hayotidan kelib chiqadigan muammolarni hal qilish; 2) fanning ichki mantiqidan kelib chiqadigan muammolarni hal qilish. Shuningdek, bular alohida-alohida mavjud bo‘lmagan, ular yagona birlikdagi masalalar, bu ikki omil jamiyat harakatining og‘irlik markazini, o‘zgarish va rivojlanish tezligini belgilab beradi, hech bo‘lmaganda 16-17-asrlardan boshlangan jahon tajribasi ham buni tasdiqlaydi[6].

Ha, ijtimoiy borliq yoki jamiyat hayoti tafakkur, tafakkur va uni amalga oshirish asosida yaratiladi, quriladi va yashaydi. Ammo tafakkur hech qachon faqat tayyor, tizimlashtirilgan, dasturlashtirilgan bilimlar

doirasida mavjud bo‘lmaydi. Chunki bu bilimlar tafakkurga emas, xotiraga asoslanadi va bunday bilimlar asosida har qanday konkret vaziyatda yuzaga keladigan hayotiy muammoni tahlil qilishda optimal variantni topish mumkin emas. Tayyor bilimlar faqat standart holatlar va funksiyalarga tegishli. Bu yerda fikrlash jarayoni emas, balki berilgan topshiriqning bajarilishi, ijro etuvchi funksiya paydo bo‘ladi. Bunday holda, insonning o‘zi mexanizmga, robotga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda, ko‘pchilik odamlar oz sonli odamlar tomonidan yaratilgan mexanizmga aylanadi. Bunday holda, kognitiv jarayon yoki fikrlash jarayoni, yoki fikrlash qobiliyati o‘zining tabiiy funksiyasini yo‘qota boshlaydi. Bunda miloddan avvalgi V asrda Suqrot tomonidan ta’lim-tarbiya jarayoniga kiritilgan va bugungi kunda ham dolzarbligicha qolayotgan fikrlash qobiliyatini rivojlantirish qonuniyatlari bostiriladi va zaiflashadi.

Bu fikrlar, chunki hozir biz kompyuter davriga kirdik va kompyuter atrofida katta shovqin bor. Hatto boshqa afsonalar kabi “axborotlashgan jamiyat” afsonasi ham dunyoga keldi. Ijtimoiy hayot axborot bilan emas, balki fikr va ishlab chiqarish bilan belgilanishi unutiladi. Bu shov-shuvda kompyuter ham telefon-telegraf, mashina, samolyot va hokazo ekanligi unutiladi. Texnik yangiliklardan biri bo‘lib, bu yangilikning yuki, avvalgilaridan farqli o‘laroq, axborotni tashish va yetkazib berishdir. Biroq, ushbu ma’lumotlarni to‘plash, guruhlash, tekshirish, aniqlashtirish va unga asoslangan biznesni qurish uchun chuqur fikrlash qobiliyati kerak. Kompyuter bu fikrni bera olmaydi. Chunki bu inson miyasiga xos xususiyat bo‘lib, taxminan yuz milliard miya hujayralarining faoliyati natijasida hosil bo‘lgan hodisadir.

Aql tomonidan tayyorlangan har qanday qurilma bilan bu sifatni olish mumkin emas. Miyaning cheksiz salohiyati ochilganda, u yanada murakkab, katta hajmdagi qurilmalar va mexanizmlarni yaratadi. Biroq, o‘zini o‘zi almashtira oladigan qurilma yaratish mumkin emas. Chunki inson miyasi tabiat tomonidan yaratilgan eng noyob, eng nodir modda bo‘lib, uning mehnat faoliyati birinchi bosqichda axborotni qabul qilishdan iborat bo‘lsa, ikkinchi, yuqori bosqichda bu ma’lumotlarni tahlil qilish va o‘ylashdir. O‘ylamasdan qilingan ish ma’lum algoritmlarga asoslangan ishdir. Masalan, telefon yoki kompyuter operatorlarining ishi shunday ishdir. Shuning uchun, albatta, o‘quv ishida kompyuterdan foydalanish nafaqat zarur, balki muhim ahamiyatga ega. Ammo kompyuterga hamma narsani hal qiladigan va u orqali hamma narsani hal qiladigan mo‘jizaviy narsa sifatida qarash bolalarcha soddalikdir.

Kompyuter - bu ajoyib texnik yangilik, ammo bu texnik yangilikni

ZJV5401

tafakkur hodisasi yoki butun jarayon sifatida ko‘rib chiqish mumkin emas. Fikrlash nutq va suhbat bilan bog‘liq bo‘lgan hodisa bo‘lib, u vaziyatga qarab turli yo‘llar bilan berilishi mumkin bo‘lgan savollar bilan bog‘liq bo‘lib, fikrlash qobiliyatini va uning mulohazalarini tekshirishi mumkin. Kompyuter vaziyatga ulanmagan. Makon va vaqtning birligi, ruhiy holat yo‘q. Chunki bu shunchaki mexanizm. Shu sababli, jonli suhbat, tushuntirish va muloqotni kompyuter bilan almashtirish fikrning qashshoqligiga, faktlarda adashib qolishga va o‘zaro o‘tishlarni ko‘ra olmaslik va munosabatlarga ta’sir ko‘rsatishga olib keladi. Bularning barchasi o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonida yetakchi roli bilan bog‘liq masalalar bo‘lib, shuning uchun ham o‘quvchining har qanday masalaga mustaqil yondashish qobiliyati qanchalik mustaqil va ijodiy ekanligini faqat o‘qituvchi to‘liq aniqlay oladi. Bu yerda mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish istalgan natijani bera olmaydi. Chunki bular standart, takroriy ish uchun. Shuning uchun talabalardan imtihon topshirishda kompyuterdan tashqari yana qandaydir usuldan foydalanilgani ma’qul. Ma’lumki, kirish imtihonlarini topshirgan ko‘plab abiturientlar keyinchalik oliy o‘quv yurtlarida yomon o‘qiydi. Chunki ular o‘quv materialini tizimli o‘rganishdan ko‘ra, testlarga tayyorgarlik ko‘rishadi, ko‘p takrorlash natijasida uni parcha-parcha qilib eslab qolishadi. Oliy maktabda fundamental va tizimli ravishda o‘tiladigan darslarni, bu kurslarning ichki mantiqiy bog‘lanishlarini tushunish uchun nafaqat xotira, balki fikrlash qobiliyati ham zarur[7].

Shuni esda tutish kerakki, ta’lim jarayonida o‘rganilganlarning hammasi ham xotirada qolmaydi, ertami-kechmi o‘chiriladi va yo‘qoladi. Ta’limdan olingan yeng muhim boylik bu fikrlash qobiliyatidir. Mashhur nemis fizigi Verner Geyzenberg ta’lim - bu hamma o‘rgangan narsangizni yoki fikrlash qobiliyatini unutganingizda, yerda qoladigan narsadir, dedi. Chunki agar sizda bu qobiliyat mavjud bo‘lsa, ularni osongina tiklash va kerak bo‘lganda foydalanish mumkin. ta’lim jarayonida o‘rganilganlarning hammasi xotirada qolmaydi, ertami-kechmi o‘chiriladi va yo‘qoladi[8].

O‘zbekiston ta’limi milliy mentalitetimizni turli darajalarda shakllantirishi kerak. Bu mentalitetning mazmuni kasbiy va maxsus bilimlarni zamonaviy darajada egallash, zamonaviy texnik va texnologik bilimlarni egallash, biror narsa ishlab chiqarish va shu ishlab chiqarishdan olingan daromad bilan yashash, tashabbuskorlik, erkin fikrlash qobiliyati, iroda sifatlarini o‘z ichiga olishi kerak. Bu mentalitetning o‘zagi faol bo‘lish, boshqalardan ajralib turish, o‘zini isbotlash va halol, qonuniy hayot kechirish, birovlarga xolisona zarar yetkazmaslik, o‘z biznesini qura bilishdan iborat bo‘lishi kerak. Mentalitet tushunchasi G‘arb

intellektual hayotiga ongning aql bilan ma’rifat nuqtai nazaridan aynanlashtirilishiga XX taqozo etgan tuzatish sifatida kiritilgan. Bugungi falsafa, madaniyatshunoslik, publitsistikada bu atama xalqlarning o‘ziga xos milliy xususiyatlari, madaniyatlari xarakteristikasi sifatida qo‘llaniladi… Madaniyat mentaliteti – ongda va ko‘pgina insonlar avlodi xulq - atvorida tarixan shakllangan, o‘zida milliy madaniy rivojlanish azaldan davom etib kelayotgan an’analarini birlashtirgan madaniyatning chuqur tizimi» deb talqin etiladi[11].

Oliy ta’limga kelsak, shuni hisobga olish kerakki, bakalavriat va magistratura bosqichida tahsil olayotganlar ertaga jamiyat tafakkurida, amaliy faoliyatida, boshqaruv tizimida asosiy og‘irlik markazini o‘z zimmasiga oladigan insonlardir. Bu odamlar asosiy ziyolilarni ham tashkil qiladi. Bunday kishilarga keng dunyoqarash, ijtimoiy ongning barcha nozik jihatlari, individual ong va manfaatning ijtimoiy ong va jamoat manfaati bilan birligi va uyg‘unligi kabi masalalarni o‘rgatish, ularning psixologiyasi, tafakkur tarziga singdirilishi kerak. Bu yerda falsafaning almashtirib bo‘lmaydigan roli va vazifasi paydo bo‘ladi.

Ta’lim tizimimizda falsafaning vazifasi va ahamiyati haligacha to‘g‘ri tushunilmaganligini afsus bilan ta’kidlash lozim. Shu bois oliy o‘quv yurtlarida falsafa soatlari qisqartiriladi, ayrimlarida esa butunlay olib tashlanadi. Falsafa va falsafani o‘rgatuvchilarni tenglashtirib bo‘lmaydi. Bu yerda falsafani fan sifatida yo‘qotish emas, balki falsafadan dars beruvchi kadrlarga talabni oshirish kerak. Shuni unutmaslik kerakki, falsafa fanini o‘rgatmasdan turib, ziyolini tarbiyalab bo‘lmaydi. Oliy ta’limning butun mazmun-mohiyati ziyoli bilan birga professional mutaxassis ham tayyorlashdan iborat. Chunki ziyolilar jamiyatning tafakkur va tafakkur qismi, jamiyatni olg‘a siljituvchi kuchdir. Ziyolilarga, aqliy tarbiyaga yetarlicha e’tibor va baho bermagan jamiyat o‘z taraqqiyotini zaiflashtiradi, muammolarini hal qilishni qiyinlashtiradi. Oqibatda esa takabburlik, sayoz fikrlash va soddalik sodir bo‘ladi. Shuning uchun hamisha yuksak ijtimoiy ong, yurt, milliy va davlat darajasida fikrlay oladigan professional mutaxassislarni tayyorlash oliy ta’limning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi. Hozir hamma joyda zamonaviy saviyadagi intellektual yelitani tarbiyalashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bu esa nazariy kurslarni, jumladan, falsafani o‘qitishni taqozo etadi. Bizga zombi, kiborglar emas, balki mustaqil, chuqur va ishbilarmon ijtimoiy ongga ega aqlli yoshlar kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Terhart, E. Berufsbiographie von Lehrerinnen und Lehrer / E. Terhart // Padagogik. – 1997. – Ig. 49, № 4. – S. 6–9.

2. Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” // Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. - Т.: «Шарқ», 1998. – Б. 39.

3. Ш.М.Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 504-505.

4. Oelkers, J. Standarts in der Lehrerbildung / J. Oelkers // Die Deutsche Schule. – 2004. – № 7. – S. 54–70.

5. Ш.Авазов, Н.Муслимов, Ш.Қосимов, У.Ҳодиев, Э.Авазов. Касб-ҳунар коллежларида амалий касбий таълим методикаси ва технологиялари. (чизмалар, жадваллар ва суратларда). Методик қўлланма. ТДПУ, 2014. –Б.4.

6. Nahrstat A. Von der Erlebnispädagogik zur Reisepädagogik. Difizite pädagogischer Tourismusforschung // Bilanz für die Zukunft. Weinheim: Beltz, 1990. S. 331–335.

7. Тагунова И.А. Базовые понятия современных западных теорий обучения и воспитания// Известия Российской академии образования. 2015. № 3. С. 55–71.

8. Dubs R. Konstruktivismus: Einige Überlegungen aus der Sicht der Unterrichtsgestaltung // Zeitschrift für Pädagogik. 1995. № 6. S. 889–903.

9. Фалсафа қомусий луғати. – Тошкент: Шарқ, 2004. 257-б.

10. Hofstede G. The nation-state as a source of common mental programming: Similarity a differences across Eastern a Western Europe// The Future of the nation-state. -N.Y.,1996.—P. 19-49.

11. Кравченко А.И. Культурология: Словарь. –М.: Академический проект, 2000. -С.343.

ZJV5401

II SHO‘BA.

YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI VA TA’SIRCHAN USULLARI

ZJV5401

SO‘NGGI YILLARDA DINIY-MA’RIFIY SOHADA YOSHLAR BILAN BOG‘LIQ AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLARNING XUSUSIYATLARI

Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV,
Toshkent islom instituti rektori, s.f.d, professor

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda fuqarolarning vijdon va diniy erkinligi sohasidagi konstitusiyaviy huquqlarini ta’minlash, jamiyatda diniy bag‘rikenglik va dinlararo do‘stlik-hamkorlik g‘oyalarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Qayd etish lozimki, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning beshinchi yo‘nalishi aynan diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta’minlash masalasiga bag‘ishlandi. Uning mantiqiy davomi sifatida 2022 yil 28 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi dasturi to‘g‘risi”dagi PF-60-sonli Farmoni qabul qilingan bo‘lib, ushbu hujjatda ham yurtimizda istiqomat qilayotgan millatlar o‘rtasidagi tinchlik-totuvlik va diniy bag‘rikenglik masalalari ma’naviy taraqqiyotning muhim omili ekanligi belgilandi.

Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarda bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda vijdon va din erkinligi fuqarolarning eng muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan biri hisoblanishi, inson manfaatlari va erkinliklarining qadrlanishi yanada ustuvorlik kasb etgan. Bugungi kunda, O‘zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. O‘zbekistonda 15 ta diniy ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Shulardan 13 tasi O‘zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufidagi oliy va o‘rta maxsus islom bilim yurtlari. Jumladan, 3 tasi oliy Toshkent islom instituti, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi va 10 ta o‘rta maxsus islom bilim yurtlari hisoblanadi, shundan 2 tasi ayol-qizlar o‘rta maxsus islom ta’lim muassasalaridir. Bular quyidagilar:1.Toshkent islom instituti; 2.“Mir Arab” Oliy madrasasi; 3. Hadis ilmi maktabi; 4.“Ko‘kaldosh” o‘rta maxsus islom bilim yurti; 5.“Sayyid Muhyiddin maxdum” o‘rta maxsus islom bilim yurti; 6.“Hidoya” o‘rta maxsus islom bilim yurti; 7.“Muhammad al-Beruniy” o‘rta maxsus islom bilim yurti; 8.“Faxriddin ar-Roziy” o‘rta maxsus islom bilim yurti; 9.“Xoja Buxoriy” o‘rta maxsus islom bilim yurti; 10.“Mir Arab” o‘rta maxsus islom bilim yurti; 11. “Imom Termizi”

o‘rta maxsus islom bilim yurti; 12.“Xadichai Kubro” o‘rta maxsus islom bilim yurti; 13.“Jo‘ybori Kalon” o‘rta maxsus islom bilim yurti;.

O‘z navbatida, oliy diniy ta’lim muassasalariga kirish uchun dunyoviy fanlar bilan bir qatorda sof diniy fanlardan ham imtihonlar o‘tkaziladi, mazkur bilimlarni fuqarolar madrasalarda olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, O‘zbekistonda barcha din vakillariga bir ko‘z bilan qaraladi, “diniy ozchilik” degan ibora esa o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra o‘zbek tili uchun sun’iy yasama bo‘lib, bizning madaniyatimizga va tilimizga va umuman milliy qonunchiligimizga xos emas. Bu holat diniy ta’lim sohasida ham ko‘zga tashlanadi. Buning isboti o‘laroq, Toshkent pravoslav va Toshkent protestant seminariyalari faoliyat ko‘rsatayotganini ta’kidlash o‘rinli. Toshkent pravoslav seminariyasi 1990-yil 1-oktabrda o‘rta maxsus bilim yurti sifatida tashkil etilgan. 1998-yil 9-apreldan o‘quv yurti seminariyaga aylantirilgan. Rus pravoslav cherkovi qoidalariga asosan seminariyaga yeparxiya rahbari rahbarlik qiladi. Seminariyada O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan tashqari Rossiya, Moldova, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistondan kelgan talabalar ham ta’lim olmoqda.

Toshkent protestant seminariyasi 1992-yildan e’tiboran Samarqand shahrida “Samarqand protestant seminariyasi” sifatida faoliyat olib borgan. 2004-yilda seminariya Toshkent shahriga ko‘chirilib, Toshkent protestant seminariyasi nomi bilan qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Respublikada 2017 yilga qadar oliy diniy ta’lim muassasalari soni 1 tani tashkil qilgan bo‘lsa, so‘nggi to‘rt yilda ularning soni 3 taga yetdi. Bugungi kunda Samarqand shahrida tashkil etilgan Hadis ilmi maktabi eng ilg‘or diniy ta’lim muassasasidir. Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan bu ta’lim muassasasida ta’lim jarayonlari to‘liq raqamlashtirilgan bo‘lib, ta’lim jarayonlariga xorijiy yetuk mutaxassislar ham jalb qilinmoqda.

O‘rta maxsus ma’lumotli imom-xatiblar malakasini oshirish va ularni oliy ma’lumotli qilish maqsadida Toshkent islom institutida 3 yillik modul ta’lim tizimi joriy etildi. Mazkur talim tizimiga 2019-2020 o‘quv yilidan asosiy ish joyidan ajralmagan holda imom-xatiblar o‘qishga qabul qilindi. 2017-yil 15-iyunda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi videoselektorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bir qator takliflarni berib, “Samarqandda – Imom Buxoriy ilmiy markazida hadisshunoslik, Imom Moturidiy markazi qoshida kalom ilmi, Farg‘onada – Marg‘inoniy ilmiy markazida islom huquqi maktabi, Buxoroda – Bahouddin Naqshband markazida tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda – Abu Muin Nasafiy markazida aqida ilmi

maktabini tashkil etsak, o‘ylaymanki, bu juda foydali bo‘ladi. Kelgusida chuqur bilimli imom-xatiblar, islomshunos mutaxassislar, ulamolar tayyorlashda, eng muhimi, farzandlarimizni buyuk ajdodlarimizning bebaho merosi hamda sog‘lom e’tiqod asosida tarbiyalashda bu maktablar tayanch bo‘lib xizmat qiladi”, – degan edilar.

Davlatimiz rahbarining mazkur ko‘rsatmalariga asosan 2017 yil 8 noyabr kuni Samarqand viloyatida «Hadis» va «Kalom» ilmiy maktablari, 10 noyabr kuni Qashqadaryo viloyatida “Abu Mu’in an-Nasafiy” nomidagi aqida ilmi maktabi, 13 noyabr kuni Mir Arab oliy madrasasi huzurida Bahouddin Naqshband tasavvuf ilmiy maktabi va O‘zbekiston musulmonlari idorasi Farg‘ona viloyati vakilligi qoshida Islom huquqi maktablari tashkil etildi. Respublikada faoliyat olib borayotgan turli diniy konfessiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 aprel kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi Konfessiyalar ishlari kengashining yangi tarkibi tasdiqlandi. Uning tarkibiga mamlakatimizdagi barcha konfessiya vakillari kiritildi. Konfessiyalar ishlari kengashi yig‘ilishlarida respublikada mavjud dinlararo bag‘rikenglikning mustahkamlanishi, diniy tashkilotlarning amaldagi qonunchilik normalariga asoslangan holda faoliyat olib borishlari, yuzaga kelayotgan muammo va masalalarning belgilangan tartibda hal etilishi kabi masalalar muhokama qilinadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda fuqarolarning vijdon erkinligi sohasidagi konstitusiyaviy huquqlarini ta’minlash, jamiyatda diniy bag‘rikenglik va dinlararo do‘stlik-hamkorlik g‘oyalarini yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi.

Ma’lumki, 2021-yilning 5-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonuni qabul qilindi. Qonunning qabul qilinishi tarixiy voqea sifatida namayon bo‘ldi. Sababi, mazkur Qonunda tarixan shakllangan an’ana, urf-odat va qadriyatlarni inobatga olgan holda Yevropa Kengashining Venesiya komissiyasi, YeXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar ekspertlari tomonidan berilgan tavsiyalar ham o‘z aksini topgan. Qonun bir nechta muhim yangiliklar va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishni o‘z ichiga oldi. Xususan, mahalliy diniy tashkilotlar, jumladan, masjidlar va boshqa konfessiyalarning ibodatxonalarini tashkil etish bo‘yicha tashabbuskor fuqarolar soni ikki barobar kamaytirilib, 50 nafardan

kam bo‘lmagan holda etib belgilandi. Shuningdek, diniy tashkilotning markaziy boshqaruv organi va diniy ta’lim muassasalarini tuzish uchun ham 100 nafar tashabbuskor bo‘lishi haqidagi talab bekor qilindi. Diniy tashkilotni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bilan bog‘liq xizmatlar to‘liq elektron shaklda, inson omilisiz amalga oshirilishi joriy etildi. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi adliya idoralariga taqdim etiladigan hujjatlar soni keskin qisqardi, ularni ko‘rib chiqishning muddati esa 3 barobarga kamaydi, ya’ni 3 oydan 1 oyga tushirildi. Bu bilan ortiqcha byurokratik to‘siqlar bartaraf etildi.

Qonunning 23-moddasida diniy tashkilotni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish asoslari belgilanib, unda ko‘rsatilmagan asoslarga ko‘ra rad etishga yo‘l qo‘yilmasligi ta’minlandi. Shu bilan birga, diniy tashkilotning faoliyatini to‘xtatib qo‘yish va tugatish faqatgina sud orqali bo‘lishi, ro‘yxatdan o‘tkazadigan va boshqa davlat organlari bunga haqli emasligi, mansabdor shaxslarning muayyan diniy tashkilot qonuniy manfaatlarini buzuvchi xatti-harakatlari ustidan sudga murojaat qilinganda diniy tashkilot davlat bojini to‘lashdan ozod etilishi kabi qo‘shimcha kafolatlar nazarda tutildi. Bundan tashqari, amaldagi qonunchilik hujjatlarida «ibodat libosi» tushunchasining huquqiy ta’rifi mavjud emasligi sababli jamoat joylarida ibodat libosida yurishga taqiq Qonundan chiqarib tashlandi. 2017-2021 yillarda diniy ta’lim tizimi ham tubdan takomillashtirildi, yangidan-yangi ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, yurtimizda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi buyuk allomalarning hayoti va ijodini o‘rganishga mo‘ljallangan xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari ham faoliyat olib bormoqda.

Fuqarolarning Qur’oni karimni o‘rganish yuzasidan hohish-istaklari va ehtiyojlarini qondirish maqsadida respublikada faoliyat olib borayotgan diniy ta’lim muassasalari, ilmiy maktablar hamda O‘zbekiston musulmonlari idorasining ayrim viloyat vakilliklari qoshida, shuningdek, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi hamda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida “Qur’oni karim va tajvid” kurslari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatimizdagi dinlararo bag‘rikenglikni yoritib beruvchi misollardan biri – bu diniy konfessiyalar tomonidan o‘z diniy bayramlarini erkin nishonlashda ko‘rinadi. Yurtimizda diniy konfessiyalar vakillarining bir-birlarini diniy bayramlar bilan tabriklash an’anaga aylangan. Hozirda musulmonlar tomonidan ikki hayit bayrami, xristianlar tomonidan Rojdestvo va Pasxa bayramlari, yahudiylar tomonidan Peysax va Xanuka bayramlari, bahoiylar tomonidan Navro‘z bayrami, shuningdek buddaviylar va krishnachilarga oid diniy

ZJV5401

bayramlarning keng nishonlanishi ta’minlangan. Dindorlarning muqaddas ziyoratgohlar va qadamjolarga borishlari ham doimiy tarzda mutasaddi tashkilotlarning har tomonlama yordami va ko‘magi ostida amalga oshiriladi. Mustaqillik yillarida jami 300 mingdan ziyod yurtdoshlarimiz Haj va Umra ziyoratlariga, shuningdek, deyarli 3 mingga yaqin fuqarolar Isroil, Rossiya, Gruziya, Turkiya kabi davlatlarda joylashgan muqaddas maskanlarni ziyorat qildilar.

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamda Saudiya Arabistoni haj va umra ishlari vaziri Tavfiq bin Favzon ar-Rabiyaning 2022 yil 29 sentiyabrdagi uchrashuvida O‘zbekistonliklar uchun yillik haj kvotasini ikki barobar 24 ming nafargacha, umra kvotasini esa 100 ming nafargacha oshirish yuzasidan kelishuvga erishildi. Shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-avgustdagi 345-sonli qarori qabul qilingani «Umra» tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazishda ziyoratchilarning manfaatlarini samarali himoya qilish, ularning «Umra» amallarini munosib va xavfsiz bajarishlari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, xorijda ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda kafolatlangan xizmatlardan foydalanishlarini ta’minlash erishilgan ulkan yutuqlardan biri bo‘ldi.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan minglab mahkumlarning afv etilishi, fuqarolarning turli ro‘yxatlardan chiqarilishi, shuningdek, “Mehr” operatsiyalari doirasida mojaroli hududlardan ayollar va yosh bolalarning yurtimizga olib kelinishi, diniy tashkilotlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibining soddalashtirilishi yuqori darajadagi islohotlar sifatida ekspertlar tomonidan e’tirof etildi. Qolaversa, O‘zbekiston so‘nggi 20 yilda AQSHning “Alohida tashvish tug‘diradigan davlatlar ro‘yxati”dan chiqarilgan ikkinchi mamlakat bo‘ldi. Shuningdek, O‘zbekistonning ushbu yo‘nalishdagi ilg‘or tashabbuslari xalqaro hamjamiyatning olqishiga sazovor bo‘lmoqda. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifiga ko‘ra, 2018 yil 12 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida, tashkilotga a’zo 193 ta mamlakat tomonidan yakdillik bilan qabul qilingan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasini shular jumlasiga kiritish mumkin. Xalqaro miqyosda diniy bag‘rikenglik tamoyilining joriy qilinishiga yana bir yorqin misol sifatida 2022 yilning 16 - 20 may kunlari Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida o‘tkazilgan “Deklaratsiyalar muloqoti” xalqaro forumini ko‘rsatish mumkin. Ushbu forum Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq, Afrika va AQSHdan taniqli diniy ulamolar, ilohiyotchilar, huquqshunoslar, davlat va jamoat arboblarini bir joyga to‘pladi. O‘zbekiston tomonidan turli konfessiyalar

vakillari, ilohiyotchilar, diniy ulamolar, tegishli vazirlik va idoralarning mutaxassislari ishtirok etdi.

Forum jahon hamjamiyatiga o‘zbek xalqining boy madaniy, tarixiy, ilmiy va ma’naviy merosi, shuningdek, O‘zbekistonning siyosiy-huquqiy, dinlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, jamiyatda do‘stlik va o‘zaro tushunish muhitini qo‘llab-quvvatlash borasidagi tajribasi bilan tanishish imkoniyatini beruvchi muhim platformaga aylandi. Xalqaro forum yakunida “Buxoro deklaratsiyasi” qabul qilindi. Ushbu hujjat avval qabul qilingan Marokash (2016), Jakarta (2017), Potomake (2018), Punto-del-Este (2018) va Makka (2019) deklaratsiyalarning mantiqiy davomi bo‘ldi. 2023 yilning 25 noyabr kuni poytaxtimizda Turkiy davlatlar tashkiloti musulmon diniy idoralari rahbarlari kengashining to‘rtinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Ushbu yig‘ilishda Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev, O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Shayx Nuriddin Xoliqnazar hazratlari, Kavkaz musulmonlari idorasi raisi, Shayxulislom Ollohshukur Poshozoda, Turkiya diyonat ishlari boshqarmasi raisi, doktor Ali Erbosh, Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi raisi, bosh muftiy Navro‘zbay hoji Tag‘anuli, Qirg‘iziston musulmonlari diniy boshqarmasi Ulamolar kengashi raisi Abdimanap Masaliyev hamda Turkmaniston muftiysi Yalkap Xodjaguliyev, shuningdek, turkiy davlatlar ulamolari, diniy soha vakillari ham ishtirok etishdi.

Anjumanda davlatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p tomonlama o‘zaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish, diniy idoralar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, shuning bilan birga, ko‘p asrlik milliy va diniy an’analarimizni keng targ‘ib etish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratildi. Bundan tashqari, diniy idoralar rahbarlari birgalikda zamonaviy fatvolar ishlab chiqish, ularni hayotga tatbiq etish va bugungi kunda musulmon ummati uchun muhim bo‘lgan masalalar yuzasidan o‘zaro fikr va mulohazalar almashdilar. Turkiy davlatlar tashkiloti musulmon diniy idoralari rahbarlari yig‘ilishiga hamohang ravishda Turkiy davlatlar ulamolari birinchi forumi ham o‘tkaziladi. Ma’lumot o‘rnida, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida musulmon diniy idoralari rahbarlari kengashining ilk tarixiy yig‘ilishi 2022-yilning 15-aprel kuni Turkiyaning Istanbul shahrida o‘tkazildi. 2022-yilning 21-oktabr kuni Turkiy davlatlar tashkiloti muftiylar kengashining Ozarbayjonning Baku-Shusha shaharlarida o‘tkazilgan tarixiy yig‘ilishida “Turkiy davlatlar tashkiloti musulmon diniy tashkilotlarining rahbarlari kengashini tashkil qilish to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangandi.

Turkiy davlatlar tashkiloti musulmon diniy idoralari rahbarlari kengashi turkiy dunyoning diniy idoralari o‘rtasidagi aloqalarini mustahkamlash, global muammolarga birgalikda yechim topish va Islom dini sofligini asrash borasidagi imkoniyatlarni birlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiy davlatlar tashkiloti musulmon diniy idoralari rahbarlari kengashining to‘rtinchi yig‘ilishida ta’kidlanganidek, mamlakatimizda so‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganish, ular asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash ishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Eng muhimi, Turkiy davlatlar tashkiloti musulmon diniy idoralari rahbarlari kengashi vazifalari ham yurtimizda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bilan hamohangdir. Mazkur kengash yaqin yillarda tashkil etilganiga qaramay, Islom dini ravnaqi, mo‘min-musulmonlar farovonligi va turkiy xalqlar birdamligi, shuning bilan birga, buyuk bobokalonlarimiz merosini chuqur tadqiq etish hamda xalqaro miqyosda keng targ‘ib etish ishlariga ulkan hissa qo‘shib kelmoqda. Qolaversa, tashkilotga a’zo mamlakatlar hamkorligi natijasida xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik aloqalarini yanada mustahkamlanib boryapti. Mamlakatlarimiz hamda dunyo musulmonlari manfaatlarini himoya qilish borasida dadil qadam tashlamoqda. Bu esa tashkilotning zamon bilan hamnafas bo‘lib, xalqaro maydonda obro‘-e’tibori tobora oshib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, “Moturidiylik va hozirgi zamon” mavzuida turkiy davlatlar ulamolari birinchi forumi bo‘lib o‘tdi. Unda Turkiy davlatlar musulmon idoralari rahbarlari, muftiylari, turkiy dunyoning obro‘-e’tiborli ulamolari hamda islomshunos tadqiqotchilari ishtirok etdi. 2023-yil 26-noyabr kuni Buxoroi sharifda Mir Arab madrasasining 500 yilligiga bag‘ishlangan “Boqiy Buxoroning islom sivilizatsiyasidagi o‘rni” mavzuidagi xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Nufuzli tadbirda Xalqaro musulmon ulamolar kengashi va Abu Dabi Tinchlik forumining ko‘zga ko‘ringan ulamolari, O‘zbekiston, Misr, Ozarbayjon, Rossiya, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston singari mamlakatlar muftiylari, taniqli ulamolar, islomshunos tadqiqotchi va diniy soha vakillari ishtirok etdi. Bunday nufuzli anjuman va forumlarning yurtimizda o‘tkazilishi ham yurtimizda diniy-ma’rifiy sohaga berilayotgan e’tiborning bir namunasi deyish mumkin.

XALQARO MAYDONDA VOLONTYORLIK HARAKATI VA UNI O‘ZBEKISTONDA TATBIQ ETISHDA YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Fozil SULTANOV,
“Yosh volontyorlar Akademiyasi”ning vitse-prezidenti,
TFA akademigi

San’atbek MUZAFFAROV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Volontyor – ixtiyoriy, beg‘arazlik va moddiylikni ko‘zlamaslik maqsadida ezgulik istovchi insonlardir. Ular nogironligi bor shaxslar, yolg‘iz keksalarga, o‘zgalar parvarishiga muhtoj insonlar, jonzotlar, tabiatga va jamiki koinotga yordam qo‘lini cho‘zuvchilardir.

Volontyorlik faoliyati – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab bepul asosda amalga oshiriladigan, erkin xohish-irodaga ko‘ra bajariladigan, ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan, jamoat uchun foydali bo‘lgan ixtiyoriy faoliyatdir [1]. Ayniqsa, xalqaro maydonda yoshlar orasida qiziqishga sabab bo‘lgan: xalqaro dasturlar va volontyorlar sayohatlari, shaxsiy portfolio, yangi do‘stlar, shaxsiy rivojlanish, tajriba va amaliyotlar haqida. Har bir inson o‘zi qiziqqan faoliyat (madaniyat, sport, ekologiya, arxeologiya, qurilish, ta’lim) va ajoyib sayohat (Yaponiyadan Irlandiyaga) bo‘lishni istaydi. Bunday imkoniyatlarni volontyorlik faoliyati berishini volontyorlik faoliyati rivojlangan davlatlarda ko‘rish mumkin.

Odatda bunday dasturlar yoshlarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Barcha sarf-xarajatlar (oziq-ovqat, yo‘l xarajati va boshqa xarajatlar) dastur doirasida to‘lab beriladi. Bunday loyihalar chet davlatlarda juda rivojlanganligini guvohi bo‘lamiz. Bunday loyihalar deyarli barcha sohalarda mavjud. Ayniqsa, sport, xayriya, ekologik, agrar, zoologik va ta’lim loyihalari.

Hozirgi kunda, xalqaro miqyosida 862 million nafar kishi volontyordir, bu dunyo aholining deyarli 15 foizini tashkil etadi. Bu esa, jahondagi yalpi ichki mahsulotining 2,4 foizini tashkil etadi. Butun dunyodagi volontyorlar soni yildan yilga oshib bormoqda. Buyuk Britaniyada volontyorlar tashkilotlari milliy kengashi 2019/20-yilda 20 milliondan ortiq odam o‘z vaqtini volontyor ravishda o‘tkazib, iqtisodiyotga taxminan 18,2 milliard funt sterling hissa qo‘shganini ma’lum qildi.

AQSHda volontyorlik faoliyati bilan ishlaganlar uchun oliy ta’limga o‘qishga kirish imtiyozi, yo‘liq amaliyotlardan ozod etilishi, soliq imtiyozi, ishga joylashishda volontyorlik soatlari mavjudligi tekshiriladi.

Faol volontyorlar uchun moddiy ta’minot va maosh ham beriladi.

Milliy va jamoat xizmati korporatsiyasi ma’lum qilishicha, AQSHda 2019-yilda 77,4 million amerikalik ixtiyoriy ravishda jami 6,9 milliard soat ishlagan, bu esa iqtisodiy jihatdan 167 milliard dollarga teng.

Fransiyada volontyorlar uchun Service Civique dasturi orqali oylik stipendiya va ma’lum xarajatlarni to‘lab beriladi [2].

Rossiyada Dobro.ru (volontyorlik platformasi)dan ro‘yxatdan o‘tgan rossiyalik volontyorlar 6 milliondan ortiqdir va ular 62 million soat vaqtlarini ushbu faoliyatga sarf etishgan. Bu esa, davlatning barcha hududida rivojlanganni ko‘rish mumkin. Har yili 5-dekabr “Xalqaro volontyorlar kuni”da “Biz birgamiz” xalqaro tanlovi bo‘lib o‘tadi, unda 80 dan ortiq davlatdagi volontyorlarni taklif etishadi.

Rasman Qozog‘istonda 2020-yil “Volontyorlar yili” deb e’lon qilingan edi. Ayniqsa, volontyorlik faoliyati bilan ishlaydigan 150 ta tashkilotlarda 3 000 nafardan ortiq volontyor doimiy ishlab kelmoqda. O‘zbekistonda esa, bundan tashkilot bitta yoki ikkita, volontyorlar soni ham aniq emas [3].

Volunteer Match – Xalqaro volontyorlik tashkiloti. Butun dunyoda eng yirik volontyorlik tashkiloti. Birgina, Tashkilot saytiga har oyda tashrif buyuruvchilar 1,3 millionni tashkil etadi. 17 million volontyorlar ro‘yxatdan o‘tgan va 137.3 mingta nodavlat notijorat tashkilotlar bilan ishlaydi. NNTlar uchun volontyorlar topib beruvchi eng yirik volontyorlar tashkiloti deyish mumkin.

Rivojlangan davlatlarda volontyorlikni tashkil etish va samarali rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishgan:

- Volontyorlik bo‘yicha qonunchilikni rivojlantirish;
- Milliy platformalar va onlayn dasturlar;
- Ta’lim va xalqaro dasturlar orqali;
- Iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlar;
- Volontyorlar uchun moddiy ko‘mak va ijtimoiy adolat;
- Davlat grantlari va Fundraisinglar;
- Volontyorlik faoliyati bilan ishlayotgan tashkilotlar uchun subsidiya va qo‘shimcha davlat buyurtmalari ishlab chiqish orqali erishilmoqda [4].

Volontyorlik faoliyatini rivojlanib borishi orqali ijobiy iqtisodiyot va kuchli ijtimoiylikni oshiradi. Bu faoliyatni samarali tashkil etish yo‘llari va qo‘llab-quvvatlash usullarini hayotga tatbiq etilmoqda.

Volontyor bo‘lgan shaxslar uchun esa, yangi tanishlar, yangi professional ko‘nikmalar, bilimlar va hatto yaxshi mavqe bo‘lish imkoniyatidir. Bundan tashqari, zamonaviy maktablarda ixtiyoriy harakat maktab o‘quvchilarining turli ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarda va tadbirlarda, masalan, sog‘lom turmush tarzi, ekologik uchrashuvlarda va

boshqalarda qatnashishini o‘z ichiga oladi. Misol uchun, Biror tashkilot maxsus psixologik kurslar o‘z o‘quvchilaridan giyohvand moddalarni iste’mol qilishning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha ish olib boradigan o‘quvchi-volontyorlarni tayyorlaydi. Maktabdagi ixtiyoriy harakatlar juda katta axloqiy va ta’limiy ahamiyatga ega. Volontyorlarni jalb qilish orqali mahalliy jamoatchilikka yordam berishdir. Bunday yaxshi ishlar rag‘batlantirilishi va mukofotlanishi lozim bo‘ladi. Yana e’tiborli jihati shaxsning ijobiy jihatlarini rivojlantirish va tajribasini boyitib borishdir.

Lekin chet eldagi volontyorlar asosan og‘ir sharoitdagi yoshlar, nogironlar, xatar guruhidagi bolalar va yoshlar bilan ishlashadi. Ko‘rib turganingizdek, chet eldagi volontyorlar dasturlari har qanday sohaga mo‘ljallangan bo‘lib, turli davlat va qit’alarga mo‘ljallangan. Har bir inson chet elga ixtiyoriy ravishda beg‘araz va moddiylikni ko‘zlamagan holatda yordam berishga borishi mumkin, bunday dasturlar uchun deyarli yosh chegarasi yo‘q. Qoida tariqasida, ixtiyoriy dasturlar nafaqat yoshlarga balki, barcha soha egalari qo‘shilishi mumkin. Xayrli ish, xayriya yordami, unutilmas taassurotlar, yangi do‘stlar va sarflangan vaqtdan foydalanib, ko‘ngillilar hayotga yangicha yondashishga imkon beradi va o‘zligini yanada rivojlantiradi deyish mumkin. Ijtimoiy jihatdan qimmatli hisoblangan volontyorlik (ko‘ngilli) faoliyati o‘z-o‘zidan shaxsdagi ijobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi turgan gap [5]. Ko‘pincha bunday dasturlarga qo‘shilganlar depressiyadan chiqish va muammolarini unutish maqsadida qo‘shiladilar.

Shuning uchun bunday harakat, dastur va loyihalarni ko‘paytirish maqsadida xalqaro tashkilotlar juda ko‘plab grantlar ajratmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, UNICEF va boshqa tashkilotlarni misol qilishimiz mumkin.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, Ayrim davlatlarda ko‘plab zamonaviy muammolarga volontyorlarni jalb qilmasdan hal etmaydilar;

Narkomaniya, spirtli ichimliklarga qaramlik va chekishni oldini olish va nazorat qilish;

OIV / OITSni oldini olish;

Keksa fuqarolar, etim, nogironlar va yordamga muhtoj boshqa kishilarga yordam berish;

Atrof – muhitni yaxshilash;

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va yana ko‘p ishlarga jalb etilgan.

O‘zbekistonga 90-yillarning oxirlarida ko‘ngillilar harakati paydo bo‘ldi. Agar tarixga chuqurroq qarasangiz, u oldin ham mavjud bo‘lgan,

faqat volontyorlik emas, balki diniy – ehson ilmiga amal qilgan, ya'ni turli diniy tashkilotlar tomonidan tashkil etilgan xayriya va hashar ishlari orqali namoyon bo'lgan. Bizning milliy an'ana-odatlarimizda qo'ldan kelgancha kuchsiz odamlarga yordam berilgan va ular jamiyatning foydasi uchun harakat qilinadi [6].

Hozirgi kunda O'zbekiston sharoitida yoshlar orasida volontyorlik harakati zerikarli va qiziqishsiz ish kabi ko'rinadi. Chunki, bunday tadbirlarda ishtirok etish uchun taqdim etilayotgan barcha imkoniyatlar, xayrli ishlar va volontyorlik soatlari haqida ko'p narsa bilmaydilar. O'zbekistonda esa, bunday loyihalar juda kam o'tkaziladi va ba'zi muammolar mavjud. Yana quyidagi sabablarni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, volontyorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar davlat va nodavlat tashkilotlarning kamligi yoki samarali ishlamasligidir.

Ikkinchidan, yoshlar orasida volontyorlik haqida ma'lumotlarga ega emaslik yoki ta'lim muassasalarida o'qiyotgan yoshlar uchun bunday dasturlar kam tashkil etish yoki "Volontyorlik markazlari" faoliyati tizimli tashkil etilmagan.

Uchinchidan, volontyorlik bo'yicha yetarli imtiyozlar va qo'shimcha imkoniyatlarning yo'qligi yoki ular uchun moddiy texnik baza yo'qligini ko'rish mumkin.

To'rtinchidan, volontyorlik faoliyati haqida kitoblar, qo'llanmalar, ommaviy axborot vositalari (OAV)da yoritish, ijtimoiy tarmoqlar va turli medialarda yetarli ma'lumotlar mavjud emas.

Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24-yanvar 2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi"ga asoslanib, yoshlar bilan ishlashni takomillashtirish maqsadida, ular bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish, xamda O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi "O'zbekiston Yoshlari-2025" konsepsiyasini ishlab chiqish, unda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishning amaliy chora-tadbirlari belgilanishi zarur deb topildi. "Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda hech kim chetda turmasligi, "O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!",- degan shiorga diqqat qaratilishi, yosh yigit-qizlarning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish — birinchi darajali ahamiyatga egaligi, "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari",- degan g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish-o'ta sharafli vazifadir...

Bu tadbirlardan maqsad volontyorlikni keng ommaga targ'ib va tatbiq

etish, xalqaro tajribani o‘rganish, imkoniyat va imtiyozlarni yanada kengay-tirishga qaratilgan. Hozirgi vaqt uchun muhim ahamiyatga ega Shanxay Hamkorlik (SHHT) Tashkiloti (ayniqsa bu yil unga raislik qilish davlatimiz rahbariga topshirilishini e’tiborga olsak) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) volontyorlik dasturi doirasida “Yosh volontyorlar” xalqaro konferensiyasini tashkil etish, davlat ijtimoiy loyihalarini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirishga qaratilganligi e’tiborga sazovordir. Bu borada endi yangi yaratilayotgan "Davlat va fuqarolik jamiyati"ni boshqaruvi tizimini uyg‘unlashtirish borasida qator vazifalar turmoqda. Jumladan, hozirda Yoshlar ittifoqining oliy ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich tashkiloti (Yoshlar kengashi)ning tashkiliy tuzilmasi 13 kishidan iborat tarkibda shakllantirilib, faoliyat yuritmoqda. Fikrimizcha, albatta bu hozirgi zamon talablariga yetarli javob bermaydi. Shuning uchun talaba yoshlarning o‘z-o‘zini boshqarish tizimini yanada kengroq yo‘lga qo‘yish maqsadida:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi yoshlar ittifoqi qoshida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT) “Yosh olimlar kengashi”, respublika volontyorlar "Ilmiy-ma’rifiy jamoat Kengashi" “O‘zbekiston yosh fermerlar kengashi”, “Yosh ijodkorlar kengashi”, “Imkoniyati cheklangan bolalar va yoshlar markazi”, “Yosh volontyorlar akademiyasi” (NTM) kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda respublika miqyosida bir qancha yirik loyiha va ommaviy tadbir, uchrashuv, sayohat va grantlar tashkil etish yanada kuchaytirish lozim (bugungi kunda bor-yo‘g‘i10-15 ming nafarga yaqin talaba yoshlar qamrab olingan)

Ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, “Yosh volontyorlar Akademiyasi” (NTM) bilan (Akademiyaning har bir viloyatdagi bo‘linmalarini e’tiborga olgan holda) hamkorlikda “Zakovat”, “Munozara”, “Yil talabasi”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Talabalar teatr studiyasi”, “Tafakkur sinovlari”, “Soliq bilimdonlari”, “Yosh kitobxonlar”, “Shunqorlar” kabi ko‘rik-tanlovlarda ko‘proq iqtidorli, faol va intellektual salohiyatli talaba-yoshlarning jalb etish lozim (bugungi kunda respublika bo‘yicha 100 ming nafarga yaqin talaba-yoshlarning o‘z vaqtlarini mazmunli va samarali o‘tkazmoqdalar).

Uchinchidan, oliy ta’lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashki-lotlarini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida xorijiy oliy ta’lim muassasalari tajribasini o‘rganib, tahlil etilgan holda talaba-yoshlarning tashabbusi bilan oliy ta’lim muassasalarida “Talaba-volontyorlar kengashi”ni tuzish taklifi ilgari surilmoqda. Ushbu tuzilmaning tarkibiy a’zolariga Bosh menejer, prezident va vitse-prezidentlik maqomlari beriladi.

To‘rtinchidan, talaba-yoshlar tashabbusi bilan o‘tkazib kelinayotgan

ommaviy, ilmiy, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ("StudFestival", "Xalqaro talabalar kuni", "Xalqaro volontyorlar kuni", "International youth forum", "TEDxTSUL", "C7-World Economy and Business", Union X, Union V xalqaro konferensiya)ni tashkil etishda boshlang'ich tashkilot " Talaba-volontyorlar Kengashi" va respublika volontyorlar "Ilmiy-ma'rifiy jamoat Kengashi" kabi tashkilotlar zarur amaliy yordam va ko'maklar berishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, yangi tizimni shakllantirish omillari mavjud. Faqat uning ishlashi uchun "Fuqarolik jamiyati"ni boshqarish salohiyatiga ega yetuk olim, mutaxassislarni va iqtidorli, faol yoshlarni jalb eta olish lozim. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni jalb etish orqali mustaqil amaliyot dasturlarini tashkil etish lozim. Demak, yuqoridagilarni amalga oshirish orqali O'zbekistonda volontyorlik harakatini keng samarali rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Volontyorlik faoliyati to'g'risida" qonuni (2019-yil 2-dekabr, O'RQ-585-son) 3-moddasi.

2. Internattional Labour Organization "Manual on the Measurement of Volunteer Work" Final approved pre-publication version March 2011, 12-bet.

3. https://tadqiqot.uz/index.php/soci/article/view/9051

4. http://www.perspektivy.ru/c/c_n/socyearde/c_p/volonter.

5. http://moeobrazovanie.ru/kto_takoi_volonter.

6. Ezgulik urug'i – ma'naviyat mevasi. Sultonova E.S.,Sultonov F.X., Oyina.uz. https://telegra.ph/ehzgulik-urugi-manaviyat-mevasi-10-06-2021

ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSIDA IJTIMOIY FAOLLIKKA OID QARASHLAR

Marhabo PARDAYEVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Buxoro viloyati bo'limi rahbari,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Temuriylar davri ijtimoiy-falsafiy fikrining muhim xususiyati shundaki, unda inson va uning fazilatlarini tasvirlash markaziy o'rinni egalladi. Inson zotini ulug'lash, uni boshqa tirik mavjudotlar ichida eng a'losi, deb bilish insonga xos bo'lgan xislatlarni, "insonparvarlik, bag'rikenglik, ezgulik, halollik, mehr-shafqat, o'zaro yordam,

adolatparvarlik, komil insonni tarbiyalash, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, mehnatsevarlik, sevgi-muhabbat, donolik, aqllilik, jasurlik, saxiylik, iffat, nafsni tiyish, tinchliksevarlik va qadriyatlarni tahlil qilish XIV-XV asr mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy, axloqiy hamda badiiy qarashlarida o‘z in’ikosini topdi”(1). Alisher Navoiy uchun tasavvuf komillik yo‘lidir. Tasavvuf g‘oyalari Navoiy asarlarida goh oshkora, goh yashirin tarzda talqin etiladi. Alisher Navoiy o‘zining qit’alari, ruboiy va g‘azallarida tasavvuf va naqshbandiya g‘oyalarini asos bilib, o‘z asarlarida mazkur falsafiy oqimning mag‘zini, ya’ni adolat, insonparvarlik, halol rizq topish, faol hayot tarzini, kasb hunar egallashni insoniy fazilatlarning eng muhimlari sifatida e’tirof qiladi. Mutafakkir naqshbandiya sulukiga kirib, umri davomida “Diling Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin” degan tamoyilga amal qiladi va boshqalarni ham shunga chaqiradi, ilm-u amali bilan naqshbandiya tariqati, uning g‘oyalarini targ‘ib qiladi, asarlarida “tariqati oliya”, “qanoat tariqi”, “faqr yo‘li” deganda naqshbandiya tariqatini nazarda tutadi.

Temuriylar davrini o‘rgangan taniqli rus sharqshunosi Y.Bertels o‘zining “Navoiy va Jomiy” asarida Navoiyning Jomiy taklifi bilan naqshbandiylik sulukiga kirganligini aytar ekan, bu sulukning, asosan, amaliyotga qaratilganligini, u ixtiyoriy faqirlikka, ya’ni halol mehnat evaziga kun kechirishga, Alloh irodasiga bo‘ysunishga, “Qalbing Xudoda, qo‘ling mehnatda” degan qoidaga asoslanganini aytadi(2). Navoiy ham naqshbandiya g‘oyalariga ergashib insonning barkamolligi uning moddiy va ma’naviy muvozanatiga ham bog‘liq ekanligiga ishonadi. Naqshbandiya ta’limotining bag‘rikenglik, murosasozlik, ilm va ma’rifatga undovchi g‘oyalari, inson va jamiyatning osoyishtaligi, barqarorligi aynan yakdillik, o‘zaro hamjihatlik, xayr-saxovat, halollikka bog‘liqligi xususidagi qarashlari Navoiy ma’naviy merosining markazidan o‘rin egallagan. Darhaqiqat, naqshbandiylik ta’limotining ahamiyatli jihatlaridan biri ta’limot izdoshi albatta, biron kasb-hunar egasi bo‘lmog‘i lozimligidir. Zero, tasavvufda tanani inkor etib, chilla, uzlatda o‘tirish, tarkidunyo qilishni tavsiya etgan ta’limotlar bor. Biroq ta’kidlash joizki, tana va ruhga me’yorda munosabatni talab etganlar ham bor. Shulardan tana va ruh masalasini me’yorda turib, hal qilgan ta’limot naqshbandiyadir. Chunki bu ta’limotdagi “Dil ba Yor” (Qalb Yorda) – talabi Alloh bilan ruhning muhimligini bildirsa, “Dast ba kor” (Qo‘l ishda) – talabi tananing zarurligini anglatadi. “Dil ba Yor-u, dast ba kor” ruh va tanani o‘zaro aloqadorlikda ekanligini, tana kamoloti uchun ruh, ruh yuksalishi uchun tana yuksalishining zarurligini ko‘rsatadi. Demakki, inson kamoloti uchun faqat tana yoki faqat ruh emas, ikkoviga ham

maxsus e’tibor berish zarur.

Aynan shuning uchun mutafakkir Navoiy ijodida Allohga bo‘lgan muhabbat va halol mehnat masalasi juda katta o‘ringa egadir. “Nazm ul-javohir” asarida qalb nuri – halol taomdan paydo bo’ladi, foniy va boqiydagi eng halol luqma – halol mehnat ila topilgan luqma ekanligi ta’kidlanadi (3). Taqvo yo‘lidagi inson uchun kimningdir himmati yoki minnati bilan berilgan ziyofatdan ko‘ra, o‘z kasbi, mehnati orqali qo‘lga kiritilgan bir parcha non quyoshdan ham a’lodir. Halol luqma bilan umrguzaronlik qilgan kishining himmati shunga muvofiq baland bo‘ladi. Tasavvuf ta’limoti xususan naqshbandiylik insonlarni faol hayot tarziga, mehat qilishga, sof e’tiqodli bo’lishga chaqirgan. Tarixan ma’lumki, tasavvuf namoyandalari, yirik valiylari ham muayyan bir kasb-hunar bilan shug‘ullanganlar. Navoiyning ma’lumot berishicha, mashoyixlardan Xoja Abdulloh Ansoriy etikdo‘z, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchi, Shayx Abu-Hafs Haddod temirchi, Shayx Abulabbos Omiliy qassob, Shayx Abulhasan muzayyin, Shayx Banon hammol, hazrati Bahouddin Naqshband esa, matolarga naqsh soluvchi bo‘lganlar(4). Mutafakkir avliyolar amal qiladigan ba’zi xislatlarga maxsus to‘xtab o‘tadi. Xususan, u halol luqma deganda, valiyning o‘z mehnati bilan kun ko‘rishini, biror kasb bilan mashg‘ul bo‘lib, uning orqasidan bir burda nonini topib yeyishini tushunadi. Mashoyix va avliyolar mehnat qilib topgan daromadiga hayot kechirganlar, ortib qolganini esa beva-bechora va muhtojlarga tarqatganlar, xayr-ehson qilganlar.

Filologiya fanlari doktori Sultonmurod Olim “Naqshband va Navoiy” asarida ta’kidlab o‘tganidek, “Naqshbandiya tariqati jahonning ana shunday eng muhim ijtimoiy muammosi — mehnatga va uning natijasida erishiladigan boylikka munosabat masalasiga nihoyatda jiddiy e’tibor berdi. “Dil ba Yor-u, dast ba kor!” shiori soliklarning mehnat qilib turib ham tasavvuf bilan mashg‘ul bo‘lishi mumkinligini isbotlaydi va shunga undaydigina emas, hatto, so‘fiyni o‘z mehnati, ya’ni qo‘l kuchi bilan tirikchilik qilishga ham da’vat etadi. Agar har kim o‘z mehnatining ketidan tirikchilik o‘tkazsa, boyliklarga faqat mehnati darajasida ega bo‘lishga intilsa, bu dunyoda nohaqlik yuz bermaydi, ijtimoiy adolat tantana qiladi. Bu naqshbandiya yo‘liga kirganlar uchun shunchaki bir g‘oyagina emas edi. Ular shu aqidalariga qat’iy amal qilib yashar edilar. Bu tariqat jahonning ana shu eng asosiy deyayotganimiz ijtimoiy muammosini har kimning o‘zi adolat bilan hal etishiga chorlar edi”(5).

Naqshbandiya tariqati o‘zidan oldingi tariqatlardan hayotga bevosita yaqinligi bilan ajralib turadi. Chunki ta’limotdagi qoidalarning hammasi ana shu bosh g‘oyadan kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda,

ZJV5401

ta’limotdagi o‘n bir qoidaning mazmunini mazkur bosh g‘oya tashkil qiladi. So‘fiylar nafaqat zikrda, balki butun umri davomida shu g‘oyaga asoslanishi lozim.

Ingliz olimi Trimingem “naqshbandiya bevosita kasb-kor kishilariga – shaharliklar, hunarmandlar, ziyolilar, o‘troq holda kun kechirayotgan dehqonlarga mo‘ljallangan edi(6)”, – deya ta’kidlaydi. Bu soliklar, faqat zikr bilan mashg‘ul bo‘la olmaydilar, albatta, o‘z tirikliklari, yaqinlari ta’minoti - umrguzaronligi uchun faollk ko‘rsatishlari, mehnat qilishlari kerak, degani edi. Demak, Allohga intilish ko‘ngil bilan, qalb bilan bo‘lishi lozim. Inson tashqi tarafdan mehnat bilan, ichki tomondan Alloh ishqida bo‘ladi.

Alisher Navoiy ijodini Naqshbandsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. “Nasoyim ul-muhabbat”da Bahouddin Naqshbandning birovning mehnatidan foydalanmaganligi aytiladi: “Derlarki, alarg‘a (Bahouddin Naqshbandga) hargiz qul va dadak (cho‘ri) bo‘lmas ermish. Alardan bu ma’nida so‘rubturlar. Alar debturlarki: “Qachon bu bandalig‘ xojalig‘ bila rost kelur?!”(7). Ushbu fikr hozirgi kunda ham ahamiyatlidir. Jahonda insonning inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishi nafaqat og‘ir jinoyat, balki o‘ta manqurtlik hisoblanadi. “Banda” – Allohga qul degan ma’noni bildiradi. Bu fikrdan anglash mumkinki, inson Allohning quli bo‘lsa, qanday qilib birovni o‘ziga qul qilib olishi mumkin? Insonning insonga nisbatan hukmronlik, xojalik qilishi bu bandalik aqidasiga to‘g‘ri kelmasligi ta’kidlanadi. Insonning inson tomonidan ekspluatatsiya qilinmasligi, hozirgi ibora bilan aytganda, majburiy mehnatga yo‘l qo‘yilmasligi aytib o‘tiladi. Bahouddin Naqshbandning “Qachon bu bandalig‘ xojalig‘ bila rost kelur?!” degan fikri barchaning Alloh oldida teng ekanligiga ishoradir. Naqshbandning tariqat yo‘lida ekanligi, dovrug‘i yoyilganda uning tarbiyasini olishga intilganlar ko‘p bo‘lgan, lekin u muridlikka qabul qilishni so‘rab kelganlardan biror bir hunarni egallashni talab qilgan. Shuningdek, Navoiy ham bu dunyoda kasb o‘rganish zarurligini targ‘ib etadi. Kamolotni kasb etishni, ya’ni barkamol bo‘lishga intilmay umrguzaronlik qilgan odamni olam uyidan g‘amgin bo‘lib, maqsadiga erishmay chiqayotgan kishiga, pishib yetilmagan chala narsaga o‘xshatadi. Dunyodan notavon o‘tish hammomga kirib, chala yuvinib chiqqan odamdan farq qilmasligini ta’kidlaydi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq (8).

“Kamol et kasb” so‘zlarini “komilikka yetishni kasb qil” ma’nosini

bildirib, bu “dast ba kor”ning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Buni “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhodning garchi boyligi ko’p bo’lsada kasb-kor va ilm egallashga bo‘lgan intilishlaridan ilg‘ab olish qiyin emas. “Farhod va Shirin” dostonining “Mehnatnoma” deya nomlanishi ham o‘ziga xos ramziy ma’no kasb etadi. Chunki asarda asosan, mehnat – mashaqqat haqida fikr boradi. Navoiy dostonidagi qo‘l tasvirlari naqshbandiya ta’limoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Qo‘l insoniyat uchun, dunyo uchun juda katta ishlarni qilishga qodir. U bu dunyodan hech narsa olib ketolmaydi, lekin yaratguvchi xususiyatiga ega bo‘ladi. Navoiy bu fikrni Farhod misolida ifodalaydi. Inson qo‘lidan kelmaydigan ishni bajarib, mo‘jiza ko‘rsatishga qodir, deya ta’riflaydi:

Bo‘lur erduk husuli ichra ojiz,
Hunar ermas, qo‘lung ko‘rguzdi mo‘jiz (9).

Navoiy ko‘ngil bilan qo‘lni bog‘lash orqali mo‘jiza yaratilishini ta’kidlaydi. Inson qanchalik Allohni zikr qilsa, unga tavakkal qilsa, mehnati ila yangilik yarata oladi. Ta’kidlash joizki, “Dil ba Yor-u, dast ba kor” shiori allaqachon tasavvufiy ma’no doirasidan chiqib, juda katta, olamshumul mazmun kasb etgan. Tasavvufda nafs – insonning eng katta dushmani hisoblanadi. Nafsning nafsi ammora, nafsi lavvoma va nafsi mutmainna degan turlari mavjud. Nafsi ammora va nafsi lavvoma insonni haq yo‘lidan chalg‘itadi. Uni zikr qilishdan uzoqlashtiradi. Dostonda Farhod nafsning bu ikki turidan voz kechib nafsi mutmainna, ya’ni xotirjam nafs maqomiga ko‘tarilganini to‘rt ravzada tashkil etilgan rohat va lazzatlarni tark etishidan ham bilish mumkin. Bu bilan Navoiy naqshbandiya tariqatining asl mazmunini ko‘rsatishga harakat qiladi.

Ta’kidlash joizki, Navoiy o‘zining boshqa dostonlarida ham insonning yaratuvchilik salohiyatiga kata e’tibor beradi. Jumladan, mutafakkir “Badoe ul bidoya” asarida dehqonning bunyodkorlikka qaratilgan mehnati mamlakatni odil boshqaruvchi podshoga qiyoslaydi. Tinimsiz jangu jadallar qilib, mamlakatni, ekinzor dalalarni xarob qiluvchi podsholardan ularni afzal biladi. Uningcha, dehqon yerga tig‘ suqishi natijasida olam bog‘-u bo‘stonga aylanib, u tufayli zafar durlari sochiladi. Navoiy inson mehnati bilan bunyodkorlikka, farovonlikka erisha olishini ta’kidlagan holda, tabiatdagi juda ko‘p voqea hodisalarni insonlarga o‘rnak qilib ko‘rsatadi. Jumladan, “Badoe’ ul-bidoya”da mutafakkir lolaning piyozi zamin ostidan o‘sib chiqib yashashga intiladi, insonlarning ko‘zini quvontirib, zavq bag‘ishlaydi, deydi. Yana bir o‘xshatmada ipak qurtining tinmay mehnat qilishi va nihoyat o‘zi nobud bo‘lib, insonlarga foyda qoldirishini quyidagicha tasvirlaydi:

Tuxm yerga kirib chechak bo‘ldi,

Qurt jondin kechib ipak bo‘ldi.
Lola tuxmicha g‘ayrating yo‘qmu?
Ipak qurtichalik himmating yo‘qmu?(10)

Yuqoridagi misralar g‘ayrat, shijoat, faollik, halollik g‘oyalarining O‘rta asrlar ijtimoiy hayotida ham dolzarb masala bo‘lganligidai dalolat beradi. Zero, mutafakkir asarlarida mehnatga bo‘lgan munosabat, faollik zamirida tasavvufning qoidalari ustunlikka ega ekanligi yaqqol seziladi. Chunki inson Alloh zikri bilan qo‘li mehnatda bo‘lib, faoliyat ko‘rsatgandagina birinchidan, boshqalarga naf keltiradi, ikkinchidan halol luqmaga ega bo‘ladi, uchinchidan ko‘ngil xotirjamligiga, to‘rtinchidan Allohning roziligiga erishadi.

Alisher Navoiy boshqa bir misralarda inson mehnatining xosiyatini ilohiy qismatning xohish irodasi deb biladi. So‘z mulkining sultoni Navoiyning birgina “mehnat” so‘zi bugun biz talqin qilayotgan mehnat tushunchasiga nisbatan juda ko‘p ma’nolidir.

Tengri ehsonig‘a shod o‘lg‘on – qilur
O‘zni shodu mehnatidin elni ham (11).

Bu misralar orqali insonning olijanob va oliyhimmat sifatlari ifodalangan. Birinchidan, “Tengri ehsoni” mazmunida har bir kishining o‘zligini tanishi, shuningdek, nima sabab bilan bu dunyoga kelganini anglashi; ikkinchidan, bunday ulug‘ nasiba – toledan “shod o‘lmoq” mazmunida insoniylik burchlarini chuqur idrok eta olishi; uchinchidan, “mehnatidin”, ya’ni o‘z maqsadiga erishish yo‘lida tinimsiz harakat qilishi, g‘ayrat-shijoat ko‘rsatishdan avval, “o‘zni shod” qilish mazmunida har bir kishining insoniy kamolot kasb etishi, bu dunyodan armonda o‘tmaslik; to‘rtinchidan, “mehnatidin elni ham” rozi qilish, rahmatga ega bo‘lish masalasi o‘z aksini topgan. “Tengri ehsoni”ni idrok qilish – Alloh qalbda ma’nosiga hamohangdir. Bu insonga berilgan sharafli xislatdir. “Mehnati” bilan odamlarga quvonch, najot baxsh etish – qo‘l mehnatda mazmunini ifodalaydi.

Mutafakkir o‘zining “Majolis un-nafois” asarida hunarmandlarning shahar go‘zalligi, xalq farovonligida roli beqiyos ekanligini, ular mehnatining bunyodkorlikka qaratilganligini e’tirof etadi. Shuningdek, xuddi shunday fazilatlarga ega bo‘lgan Hirot shahri hunarmandlarini birma bir tilga oladi: kosagarlar Mashriqiy, Saidiy, Hamdamiy, jomabof Najmiy, kalvogar Ofatiy, kuftagar (metallga zarb chekuvchi) Mir Hoshimiy, kamongar Baqoiy, kordgar (pichoqchi) Ustod Muhammad Ubahiy, kafshdo‘z Tohiriy, kissado‘z Zayn, haymado‘z (chodir tikuvchi) Arg‘un, darzilik qiluvchi (tikuvchi) Xonariy, xishtmollik (g‘isht quyish) san’atiga mansub Darvesh Dehaqiylar shular jumlasidandir. Navoiy

o‘rta asr shaharlari taraqqiyotida boshqa kasb egalarining mehnatini ham yuksak qadrlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda har bir fuqaroning halol mehnat qilib, farovonlikda yashashi, orzu-havaslarni amalga oshirishi uchun imkoniyatlar yaratilgan. Biroq, hayotdan noliydigan, ro‘zg‘or tashvishlarini ro‘kach qilib, o‘zini to‘rt tomonga uradiganlar ham uchrab turadi. Aslida esa harom yo‘l bilan bo‘lsa-da, yengil-yelpi yashash, shohona hayot kechirish ilinjida bo‘lgan shunday kimsalar, ta’bir joiz bo‘lsa, nafs bandalaridir. Undaylar nafsi uchun har qanday qabihlikka qo‘l urishdan qaytmaydilar. Natijada mamlakatda odam savdosi, giyohvandlik, o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish, poraxo‘rlikdek mudhish jinoyatlar sodir etiladi. Yuqorida keltirilgan o‘gitlar Alisher Navoiyning insonparvarlik, mehnatsevarlik, ijtimoiy faollik, adolat g‘oyalari namunasidir. Ular ulug‘ mutafakkir Navoiy mansub bo‘lgan naqshbandiylik ta’limotining mohiyatidan kelib chiqadi. Uningcha, mehnat qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, u birinchi navbatda, inson, xalq manfaatlariga xizmat qilmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, XIV-XV asrlarda Bahouddin Naqshbandning “Dil ba yor-u, dast ba kor” nazariyasi ta’sirchan g‘oya bo‘lib, Sharq Renessansining taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Alisher Navoiyning naqshbandiya tariqatiga ixlosining sababi bu ta’limot inson va jamiyatni yaxlit organizm sifatida qarab, uning yashovchanligini ta’minlovchi asosiy omil “halollik” ekanligiga urg‘u berishi bo‘ldi desak, xato bo‘lmaydi. Alisher Navoiy mutafakkir va davlat arbobi sifatida fikr yuritganda, albatta, insonning sobit e’tiqodli, halol va haromni farqlaydigan, Allohni tanigan bo‘lishini istaydi, asarlarida shunday insonlar obrazini yaratib temuriylar saltanatining mafkurachisi sifatida davlat ravnaqi, jamiyatni yaxshilanishiga hissa qo‘shadigan, illatlardan yiroq, ezgu fazilatlarni o‘ziga kasb qilgan insonlarni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. – Т.:: Фан, 1994. – Б. 10.

2. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. Избранные труды. – М.: Наука, 1965. – С. 112-113.

3. Алишер Навоий. Назм-ул жавоҳир. МАТ. – Т.: Фан, 1999. – Б. 196-197.

4. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. –Тошкент: Фан, 2001. – Б. 10.

5. Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 34.

6. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – Москва. 1988. – С. 83.

7. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. Т. 17. – Тошкент. Фан, 2001. – Б. 261.

8. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. Т. 3. Т.: Фан, 1988. – Б. 545.

9. Алишер Навоий. Хамса. Фарҳод ва Ширин. МАТ. Т. 8. – Тошкент: Фан. 1991. – Б. 265.

10. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ. 20 томлик. Т. 1. – Т.: Фан. 1987. – Б. 18.

11. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. TAT. J 4. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU. 2013. – B. 722.

YOSHLAR MIGRATSIYASI VA MULTIKULTURALIZM SIYOSATI

Sobirjon YAKUBOV,
RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Keyingi o‘n yilliklarda aholining o‘zi tug‘ilgan va yashab turgan mamlakatdan boshqasiga ko‘chishi – migratsiya jarayoni misli ko‘rilmagan darajada kuchaydi. Odamlar turli maqsad-muddaoni ko‘zlab: kimdir to‘kin va to‘kis hayot ilinjida, kimdir risoladagidek ta’lim olish umidida, yana kimdir shaxsiy istak-mayllar yetovida o‘zga mamlakatga bosh olib ketadi. Siyosiy beqarorlik, diskriminatsiya va haq-huquqlarning poymol etilishi, urush, qurolli ixtiloflardan jon saqlash uchun o‘z vatanini tark etadiganlar salmog‘i ham kam emas. Ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar sabab muhojirlik yo‘lini tanlayotganlar ham ko‘paymoqda. Sirasini aytganda, ayrimlar ixtiyoriy ravishda, yana ayrimlar majburiyat taqozosi, hayot-mamot masalalari vajidan migratsiyani afzal ko‘radi. Diqqatga molik jihati shundaki, ko‘p millionli migrantlar orasida har qanday jamiyatning asosiy tayanch kuchi, taraqqiyot dvigateli bo‘lgan yoshlar ulushi katta.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga qaraganda, jahonda xalqaro migrantlar soni 281 million kishini tashkil etadi. Bu sayyoramiz aholisining 3,5 foizi demakdir. O‘n yilliklar mobaynida bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshib bormoqda: 1980-yilda jahon nufusining 2,3 foizi

migrantlardan tashkil topgan bo‘lsa, 2000-yilda bu raqam 2,8 foizga yetgan [1]. Migrantlar safida an’anaviy ravishda yoshlar ulushi salmoqli bo‘lib kelgan. 2020-yil holatiga ko‘ra, har to‘rt migrantdan uch nafari 20 yoshdan 64 yoshga qadar bo‘lganlardir. 20 gacha bo‘lgan yosh guruhi vakillari esa 41 million kishini tashkil etadi.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra esa, rivojlanayotgan davlatlardan mutaraqqiy o‘lkalarga yo‘l olgan muhojirlarning chorak qismi 12 yoshdan 24 yoshgachaga bo‘lgan o‘smirlar va yoshlardan iborat. Millionlab yoshlar mustaqil holda yoxud ota-onasi hamrohligida muvaqqat yoki doimiy muhojirlikka yo‘l oladi. Avvalo, muxtasar tarzda yoshlar migratsiyasining ijobiy aspektlariga to‘xtalib o‘tsak. Migratsiya birinchi navbatda yoshlarning kasbiy o‘sishi, ijtimoiy-iqtisodiy maqomi ortishiga xizmat qiladi. Sidqidildan mehnat qilgan, puxta bilim olgan yoshlar ajnabiy o‘lkalarda ham ulkan yutuqlarga erishishi amaliyotda ko‘p isbotlangan. Shu tariqa muhojirlar shaxsiy hayotini o‘nglab qolmay, ham ko‘chib kelgan mamlakati, ham kindik qoni to‘kilgan vatani taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Bu borada birgina migrantlar tomonidan yuborilgan pul o‘tkazmalari statistikasini keltirish kifoya. Xalqaro migratsiya tashkiloti tayyorlagan “Jahon migratsiyasi haqida hisobot–2024”da qayd etilishicha, 2000-yildan 2022-yilgacha bo‘lgan muddatda migrantlar o‘z vataniga yuborgan pul o‘tkazmalari miqdori 650 foizga ortib, 128 milliard dollardan 831 milliard dollarga yetdi. Bu rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritilgan to‘g‘ridan to‘g‘ri sarmoyalardan ham kattaroq ko‘rsatkichdir. Tahlilchilarning COVID-19 pandemiyasi sabab pul o‘tkazmalari miqdori kamayadi degan bashoratiga qaramay, o‘sish davom etgan [2].

Tanganing ikki tomoni bo‘lgani kabi yoshlar migratsiyasining muammoli jihatlari ham mavjud. Tug‘ilib o‘sgan vatanini tark etgan yoshlarning xorijiy mamlakatlarda tup qo‘yib palak yozishi, yangi manzil-makonda o‘z o‘rnini topib ketishi xamirdan qil sug‘urgandek oson kechmaydi.

Birinchidan, muhojirlikni ixtiyor qilgan yoshlarda ruhiy beqarorliklar kuzatiladi. Kindik qoni to‘kilgan maskan, yaqinlar davrasini tark etib, butkul yangi muhitga moslashish, depressiyaga olib kelishi mumkin. Ish, o‘qish yoki turarjoy qidirish, til bilan bog‘liq to‘siqlar mashaqqatlarni ikki karra kuchaytiradi.

Ikkinchidan, yoshlar odam savdosi, majburiy mehnat, zo‘ravonlik qurboni bo‘lishi mumkin. O‘z davrida BMT Bosh kotibining bolalar zo‘ravonligiga qarshi kurash bo‘yicha maxsus vakili lavozimida faoliyat yuritgan Marta Santush Paishning yozishicha, muhojirotdagi yoshlar ko‘p hollarda ish beruvchilarning g‘irromligi va noinsoniy munosabatlarga

duchor bo‘ladi, jismoniy va ruhiy tazyiq, hibs kabi holatlarni boshdan kechiradi. Bu borada ilmiy tadqiqotlar kamligiga e’tibor qaratgan BMT vakili yosh migrantlarning haq-huquqlarini himoya qilish xalqaro huquq talabini ekanini urg‘ulaydi: “Ularning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan siyosiy choralar nisbiy xarakterga ega va ko‘p hollarda ularning haq-huquqlari himoyasini ta’minlamaydi, rivojlanishi uchun real imkoniyatlar taqdim etmaydi. Yoshlar guruhiga mansub migrantlarni himoya qilish axloqiy va huquqiy talabdir. Bu ezgu tilak ham emas, bil’aks qonuniy majburiyat sanaladi” [3].

Uchinchidan, yangi mamlakatga kelgan yoshlar ijtimoiy qo‘llovning yo‘qligi ortidan gohida turli ekstremistik guruhlar, terror tashkilotlari ta’siriga tushib holati ehtimoli mavjud.

To‘rtinchidan, navqiron avlodga mansub muhojirlar o‘zi ko‘chib kelgan yangi mamlakatda mutlaqo farqli madaniyat, an’ana, qadriyatlar va til muhitiga duch kelishi sir emas. Bu esa ko‘pincha “madaniy shok” holatini keltirib chiqaradi. Ya’ni bu vaziyatda madaniyatlar, ta’bir joiz bo‘lsa, tamaddunlar bilan bog‘liq o‘ziga xos ziddiyat yuzaga kelishi mumkin.

Yoshlar migratsiyasiga doir salbiy jihatlarga yana ko‘plab misollar keltirish mumkin. Bularning bari turli omillarga ko‘ra o‘z vatanini tark etib, yangi jamiyatga moslashishga harakat qilayotgan migrantlarni qo‘llab-quvvatlashga oid izchil siyosatni taqozo etadi. Ko‘p millatli davlatlarda madaniy-mafkuraviy jabhada konsensusga erishish hamisha dolzarb muammo bo‘lib kelgan. O‘tgan asr o‘rtalarida G‘arb mutafakkirlari tomonidan taklif etilgan hamda amaliyotga tatbiq qilingan multikulturalizm siyosati ham aynan millatlararo munosabatlarda “oltin o‘rtaliq”ni topishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Multikulturalizm – keng qamrovli tushuncha. U o‘z dialektikasi, rivojlanib borish dinamikasiga ega. Multikulturalizm serqirra konsepsiya sifatida siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, madaniyatshunoslik kabi gumanitar fanlarning tadqiqot doirasiga kiradi. Multikulturalizm ta’limoti yaxlit bir davlatda yashayotgan turli millat va madaniyat mansublari o‘rtasida totuvlikka erishish, etnik ozchiliklarning o‘zligiga daxl etmagan holda, ularning jamiyatga integratsiyasini ta’minlashni ko‘zda tutadi. Mohiyat e’tiboriga ko‘ra u etnik va madaniy plyuralizm g‘oyasini ifodalaydi. Ushbu bag‘rikenglik ta’limotiga muvofiq, etnik ozchiliklar va migrantlar dominant mavqedagi siyosiy madaniyat muhitida o‘z madaniyati, tili va qadriyatlarini saqlab qolishga haqlidir [4].

“Katta yettilik” (G7) guruhiga mansub Kanada aholisining qariyb chorak qismi muhojirlardan iborat. Multikulturalizm yalovbardorlaridan

biri sifatida Kanada ushbu siyosat ustuvorligini mamlakat konstitutsiyaviy qonunida rasman e'tirof etgan. Migrantlarning yangi jamiyatlarga ijtimoiy larzalarsiz moslashib ketishi, o'z tili va madaniyatini saqlab qolgan holda mezbon mamlakat tili va madaniyatini o'zlashtirishida multikulturalizm siyosati katta ahamiyat kasb etadi.

Avstraliya ham muhojirlar soni shiddat bilan o'sib borayotgan mamlakatlar sirasiga kiradi. Aholisining 8,2 million nafari yoki 30,7 foizi chet mamlakatlarda tug'ilgan. Dikin universiteti professori Anita Harris "Yoshlar va kundalik multikulturalizm" deb nomlangan kitobida turli til, e'tiqod va madaniyatga mansub yoshlarning Avstraliya jamiyatiga moslashuvi bilan bog'liq muammoli jihatlarni tadqiq qilgan. Olima muhojirlarning muvaffaqiyatli tarzda oyoqqa turishi va jamiyatda mustahkam o'rin egallashida inklyuzivlik tamoyili alohida o'rin tutishini ta'kidlaydi [5]. Tadqiqotda qayd etilishicha, Avstraliyadagi mahalliy hokimiyatlar muhojirlar, xususan, yoshlarga ko'mak uchun turli dasturlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, Yangi Janubiy Uels shtati hukumati Yoshlarning ko'p madaniyatli tarmog'ini (Multicultural Youth Network) tashkil qilgan. Ushbu tizim yosh muhojirlarning jamiyatga adaptatsiyasiga ko'mak berish bilan birga, ularning turli masalalar yuzasidan fikr-qarashlarini hukumatga yetkazishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda G'arb mamlakatlarida o'ng qanot siyosiy partiyalar hamda millatchi harakatlarning ta'siri oshmoqda. Bu yo'nalishga mansub siyosiy harakatlar migratsiyaga murosasiz munosabatda ekani ma'lum. Ular ishsizlikdan tortib xavfsizlikka qadar – G'arb jamiyatlaridagi aksar muammolarga muhojirlarni aybdor o'laroq ko'rsatadi. Ammo migratsiya kabi serqirra fenomenga bir tomonlama baho berish to'g'ri emas. Asl reallik shuki, rivojlanayotgan mamlakatlar fuqarolari ko'chib borish uchun tinch va farovon davlatlarga qanchalik muhtoj bo'lsa, mezbon mamlakatlar ham migrantlarga shunchalik muhtojdir. Negaki, aksar G'arb davlatlarida tug'ilish ko'rsatkichi xatarli tarzda kamayib bormoqda. Amerikalik taniqli faylasuf va siyosiy sharhlovchi Patrik Byukenen ta'biri bilan aytganda, ayni paytda Yevropada "belanchakdan ko'ra tobutga ehtiyoj ko'proq"dir [6].

Bu borada Yevropa Komissiyasi vitse-prezidenti, Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha oliy vakili Jozep Borrelning mulohazalari diqqatga sazovor. Yevropa bosh diplomati fikricha, migratsiyaga tahdid emas, balki imkoniyat deb qarash to'g'riroq bo'ladi. "Migratsiya xuddi insoniyat kabi qadim tarixga ega. Madaniyatlarimiz, iqtisodiyotimiz va jamiyatimiz hamisha migratsiya vositasida taraqqiy etgan. Aholi soni iqtisodiy taraqqiyot va imkoniyatlarga nomutanosib

ravishda o‘sgan davrda millionlab yevropaliklar qashshoqlik va ochlikdan qochib ummon ortiga yo‘l olgan edi. Oilaviy shajaraga qaralsa, biz barchamiz u yoki bu darajada muhojirlarmiz”, deb yozadi J.Borrel [7]. Demak, hozirgi vaziyatda migratsiya bo‘yicha vazminlik, donishmandlikka asoslangan, muvozanat va o‘zaro manfaat tamoyillari hisobga olingan oqilona yondashuv har qachongidan ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.un.org/en/global-issues/migration
2. “Jahon migratsiyasi haqida hisobot–2024” (World Migration Report 2024). https://worldmigrationreport.iom.int
3. Marta Santos Pais. Migration and youth: Harnessing opportunities for development. https://violenceagainstchildren.un.org/migration_and_youth
4. “Britannica” qomusi. https://www.britannica.com/topic/multiculturalism
5. Anita Harris. Young People and Everyday Multiculturalism. NY: Routledge, 2013.
6. Patrik Byukenen. G‘arbning o‘limi. – Toshkent: “Ilm-Ziyo-Zakovat”. 2021.
7. Josep Borrell. Migration is a key element of our foreign policy. https://www.eeas.europa.eu/eeas/migration-key-element-our-foreign-policy_en

O‘QUVCHI-YOSHLARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH YANGI TAMOYIL MEZONI

Aziza MUXSIYEVA,
Nizomiy nomidagi TDPU professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

Yangi taraqqiyot davrida hozirgi holati shu qadar ko‘p qirrali va noaniqki, u shaxsdan yuqori malaka va ko‘nikmalarni talab qiladi, ularsiz inson jamiyatda yashay olmaydi. Shu munosabat bilan, shaxslararo o‘zaro muloqot va ijtimoiy makonda birgalikda yashash traektoriyasini yaratish muammosi dolzarbdir. Shaxsning muvaffaqiyati bevosita uning ijtimoiy muammolardan xabardorligi, muammoni ko‘rish va uni hal qilish qobiliyatiga bog‘liq. Shu sababli shaxs muvaffaqiyatining asosiy jihati - istalgan maqsadlarga erishish va kerakli natijaga erishishga

imkon beradigan ijtimoiy kompetentlikning shakllanishi va taqdim etilganlik darajasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2022-yil 28-yanvar kuni “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni imzolandi. Mazkur Farmon bilan “Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida ishlab chiqilgan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni 2022-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi. Farmonda O‘zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida 100 ta maqsadlarga erishishga qaratilgan va 2022-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan 398 ta chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari xalqimizning yuksak ishonch va yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari eng oliy qadriyat etib belgilanmoqda va u milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi. Bunga yaqqol misol Taraqqiyot strategiyasi “Inson – jamiyat – davlat” degan yangi tamoyil asosida ishlab chiqilgan.

Prezidentimizning 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori 4-bandiga ko‘ra “Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim o‘quv dasturlari va fanlarning uzluksizligini ta’minlash” vazifasi belgilandi[9]. Mazkur qarorning bajarilishi maktablarda joriy o‘quv yilida kiritilgan Tarbiya fani ham nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda zamonaviy ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida shaxsni aynan tarbiya olayotgan muhitida uning subyektiv o‘z-o‘zini anglashi jarayonida uning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish vazifasi yetakchi vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday masalani hal qilish zaruriyati rasmiy organlar tomonidan ta’lim muassasalariga yuklatilgan asosiy vazifa va jamiyatning taxminlari bilan belgilanadi, bu esa fuqarolarning ta’lim olish jarayonida ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojlarini belgilaydi.

Ijtimoiy kompetentlikni shaxsning ijtimoiy makonda takomillashuvi deb hisoblasak, xususan, ta’lim muassasasining tarbiyaviy muhiti insonning ijtimoiy xatti-harakatlarini modellashtirib, unga sub’ektiv o‘zini o‘zi anglash tajribasini olish, ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Tarbiya muhiti orqali ijtimoiy vakolatlarni shakllantirish

[9] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Таълим-тарбия тизимини янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4884-сонли қарори.

jarayonida aynan shu pozitsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonining natijasi, ya'ni maktab va atrof-muhitning haqiqiy o'zaro ta'siri natijasi o'laroq uning yangi darajadagi ijtimoiy vakolatlari yuzaga keladi. Shunda ijtimoiy kompetenlikni shakllantirish bugungi kunda zamonaviy maktab uchun muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanadi.

Sotsiolog olimlar yoshlarga mansublikni 16 yoshdan 29 gacha, deb belgilashadi. S.I.Ikonnikova va T.S.Lisovskiylar yosh avlodning yosh jihatini tahlil etib, bunda faqat yosh alohida ahamiyat kasb etmasdan, balki ularning hayotga munosabatlari, qarashlari va maqsadlari o'xshashligining muhimligini ta'kidlashadi. Yosh avlod o'zi yashayotgan ijtimoiy makonda ijtimoiy xususiyatini yo'qotmaydi. Yoshlardagi qarashlar, qiziqishlar, qadriyatlar, harakatlar va xohishlarning umumiyligi ularning jamiyatga nisbatan shakllanadigan hayotiy pozitsiyasining asosiy ko'rsatkichidir. V.Chuprovning ta'kidlashicha, «...yoshlarning o'ziga xos alohida ijtimoiy muhim jihati ... yosh avlod vakillarining ijtimoiy munosabatlar tizimini... meros qilib olishi va uni qayta ishlab chiqib, hayotga moslashtirish qobiliyatlari bilan belgilanadi»[10].

E.G'oziev "Ilk o'spirinlik davrida o'quvchilar o'zlarida eng qimmatli fazilatlarni, o'quv va malakalarini ongli, rejali, tartibli, izchil va muntazam tarkib toptirishga ehtiyoj sezadi. Ma'lumki , mazkur toifadagi ta'lim muassasasi o'quvchilari ma'naviy-psixologik qiyofaga ega bo'lish uchun oqilona o'lcham, mezon, vazifalarini barjaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini qidiradilar"[11] - deb ta'kidlab o'tadilar. Shu bois mazkur davrda o'quvchi-yoshlar bilan olib borilgan har qanday tadbir samarali ta'sir etadi.

Yoshlar deganda hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ hujjatiga muvofiq 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar[12] va o'zining manfaatlarini ta'minlashni amalga oshirishga intiluvchi istiqbolli fuqarolar, ya'ni aholining ijtimoiy faol qismi tushuniladi. Buning uchun ushbu ijtimoiy guruhga jismonan ulg'ayish, shaxs sifatida shakllanish, jamiyat hayotining asosiy sohalari (iqtisod, huquq, siyosat va oilaviy munosabatlar)da huquqiy muomalaga kirishish kabi xususiyatlar xosdir.

Ayni paytda o'spirinlik davrining shaxsda ijtimoiy kompetentligini

[10] Чупров В.И., Зубок Ю.А., Уильямс К. Молодежь в обществе риска. – М.: Наука, 2003. – С. 3.

[11] Ғозиев Э. Онтогенез психологияси: назарий-эксперментал таҳлил –Т.: Noshir, 2010.217 б.

[12] Ўзбекистон Республикасининг «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги 2016 йил 14 сентябрь, ЎРҚ-406-сон қонуни.

rivojlantirish muammosi o‘ta dolzarb bo‘lib ko‘rinish mumkin, buni yaqinda O‘zbekistonda va undan tashqarida olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar tasdiqlaydi. Mazkur muammoning mutlaq murakkabligi va uning amaliyot uchun ahamiyati ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish masalasini ko‘rib chiqish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ko‘plab asarlarni yozishga turtki berdi. Shu bilan birga, hozirgi kunda mavjud bo‘lgan ijtimoiy kompetentlikni oshirish usullari (ma’ruzalar, o‘quv mashg‘ulotlari, bosma materiallar, turli ta’lim va ma’rifiy dasturlar va boshqalar) har doim ham o‘spirinning qiziqishlari va moyilligini, ayniqsa ularning yoshini yetarlicha hisobga olmaydi. Bundan tashqari, ular har doim ham zamonaviy jamiyatdagi vaziyatning murakkabligini aks ettiravermaydi. Ko‘pincha ular qismlarga bo‘lingan bo‘lib, birinchi navbatda ijtimoiy kompetentlikning ayrim jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan, hamma uchun ochiq emas va ularni amalga oshirish uchun katta vaqt va mablag‘ talab etiladi.

O‘quvchi-yoshlarga ta’sir ko‘rsatadigan mikroomillarga oila, tengdoshlar, mikrojamiyat, turli ta’lim va tarbiya tashkilotlari kiradi. Maktab o‘rta maktab o‘quvchilarining ijtimoiylashuv jarayonida faol ishtirok etishi, ro‘yxatdagi mikroomillar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi, ularning o‘quvchi shaxsiyatini shakllantirishga bevosita ta’sirini hisobga olgan holda faol ishtirok etishi zarur. Maktab ta’lim muassasasi sifatida jamiyatning tartibini - ma’lum bir jamiyat, davr talablariga mos keladigan shaxsni shakllantirish, yosh avlodni ular yashashi va ishlashi uchun ijtimoiy sharoitlarni maksimal darajada hisobga olgan holda tarbiyalash, o‘qitish va tarbiyalashni amalga oshiradi.

Bugungi kunda ta’lim muassasasi oldida turgan maqsadlardan biri kelib chiqadi: yuqori darajadagi ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, pedagogika, ijtimoiy psixologiya metodlari va usullarini tanlash. Bunday sharoitlar butun e’tiborni bolalarga emas, balki ularning atrof-muhiti, bolalar o‘zaro ta’sir qiladigan hayot muhitiga yo‘naltirib, ta’lim muassasasi tarbiyaviy muhitining imkoniyatlaridan foydalangan holda yaratilishi mumkin.

Yevropa Kengashi tomonidan asosiy besh komtepetentlik guruhi aniqlanib, UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, ularni o‘rta maktab bitiruvchilari egallashi kerak. Birinchi guruhga ijtimoiy mas’uliyatlar kiradi, ularning o‘zlashtirilishi maktab bitiruvchilariga mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, qo‘shma yechimlar ishlab chiqishda faol ishtirok etish, ziddiyatli vaziyatlarni ijobiy hal qilish va turli demokratik institutlar faoliyatida samarali ishtirok etish imkonini beradi.

Chet el mualliflari tomonidan ijtimoiy vakolatlarni o‘rganishga katta

e’tibor qaratiladi. Shunday qilib, nemis psixologlari U.Pfingsten va R. Xintch ijtimoiy kompetentlikni ma’lum vaziyatlarda ijobiy va salbiy oqibatlarning uzoq muddatli ijobiy korrelyatsiyasiga olib keladigan bilim, hissiy va harakatlanish xatti-harakatlarini o‘zlashtirish deb izohlaydilar. X.Shreder va M.Forvergning fikricha, ijtimoiy kompetentlikka shaxsning to‘rtta xususiyati kiradi: muloqot qobiliyatlari, qat’iyatlilik, ta’sirchanlik va o‘zini o‘zi qadrlash.

XX asrning 90-yillaridan keyin ijtimoiy kompetentlik insonning shaxs sifatida hayotning barcha ijtimoiy sohalarida talabga aylanadi, fanlararo sub’ekt sifatida qaraladi va murakkab, ko‘p komponentli va ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida tahlil qilinadi. Ushbu tendensiya haqiqiy olimlarning izlanishlarida davom etadi.

Shunday qilib, “ijtimoiy kompetentlik” ta’rifiga mavjud bo‘lgan yondashuvlarni tahlil qilish ijtimoiy kompetentlikni shaxsning integrativ sifati o‘laroq belgilashga asos yaratadi, bu ijtimoiylashuv natijasida vujudga kelgan va insonga jamiyatda yetarlicha moslashish va jamiyatda samarali o‘zaro ta’sir o‘tkazishga imkon beradigan zarur bilim, tajriba, qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy kompetentlik ijtimoiy muhitdagi muammolarni yetarlicha hal qilishga imkon beradi.

O‘tkazilgan tahlillar ijtimoiy kompetentlik mohiyatini anglashda turli xil yondashuvlar mavjud degan xulosaga kelishimizga imkon beradi: ijtimoiy kompetentlik yoki shaxsning integral sifati, yoki ijtimoiy o‘zaro ta’sir sifatida taqdim etiladi; ijtimoiy kompetentlik qaysidir faoliyat natijasi yoki shaxsning ma’lum bir faoliyat turiga erishish ko‘rsatkichi sifatida tavsiflanadi; ijtimoiy vakolatni shakllantirishning mazmun komponenti insonning yoshiga bog‘liq. Turli yoshdagi ijtimoiy kompetentlikning shakllanish va rivojlanish jarayoni ham umumiy, ham o‘ziga xos xususiyatlarga, shu jumladan turli va o‘xshash tarkibiy qismlarga ega.

Ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish uni o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini puxta aniqlashni talab qiladi. Shaxsning rivojlanishi nuqtai nazaridan eng qiyin va muhim davr o‘spirinlikdir. O‘spirin shaxsiyatining umumiy o‘sishi, uning qiziqishlari doirasining kengayishi, o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi, tengdoshlari bilan muloqot qilishning yangi tajribasi - bularning barchasi ijtimoiy motivlar qadriyatlari va tajribalarning jadal o‘sishiga olib keladi, masalan, birovning qayg‘usiga hamdard bo‘lish, fidoyilik qobiliyati va boshqalar.

Xulova o‘rnida, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish quyidagi hollarda muvaffaqiyatli bo‘ladi: Birinchidan, yoshga bog‘liq rivojlanish va yetakchi ijtimoiy ahamiyatga

ega bo‘lgan faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan shartlangan yangi shakllar asosida o‘quvchilarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik vazifalari yoritilsa;

- o‘quv jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy malakasini rivojlantirishning namunaviy guruhi tomonidan olib boriladigan o‘quv ishlari, dialogik o‘rganish, munozaralar, bahs-munozaralar, kommunikativ ta’lim texnologiyalari orqali ishlab chiqilgan va maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirilsa;

- o‘quvchilarda amaliy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, sinfdan tashqari ishlarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish insholar tanlovlari, loyihalar va sinfdan tashqari ishlarning boshqa turlari orqali amalga oshirilsa o‘quvchi-shaxsining ijtimoiy kompetentligi shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi 2016 yil 14 sentyabr, O‘RQ-406-son qonuni.

3. G‘oziev E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy-ekspermental tahlil –T.: Nos’hir, 2010.217 b.

4. Chuprov V.I., Zubok Yu.A., Uilyams K. Molodej v обществe riska. – M.: Nauka, 2003. – S. 3.

5. Veselkova N., Pryamikova Ye. Sotsialnaya kompetentnost vzrosleniya. - Yekaterinburg, 2005.

6. Nagaychenko N. N. Sotsialnaya kompetentnost starsheklassnikov: soderjanie i struktura ponyatiya. - Yaroslavskiy pedagogicheskiy vestnik - 2012 - № 3 - Tom II (Psixologo-pedagogicheskie nauki)

ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLAR TARBIYASINING MA'NAVIY-AXLOQIY JIHATLARI

Alisher MADRAXIMOV,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi, mustaqil tadqiqotchi

Zamonaviy jamiyat rivojining bugungi tahliklali va murakkab xususiyatlari ta'siri natijasida yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash nihoyatda mashaqqatli va mushkul, ayni damda, dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan, Markaziy Osiyo davlatlarida oxirgi yillarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar xususan, yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Qozog'istonda 2022-yilning dastlabki oylarida yuz bergan voqealar hukumat tomonidan aholining barcha qatlamlari ayniqsa, yoshlar qatlamiga jiddiy e'tibor qaratishga undadi. Qozog'istonda xalqni yot g'oyalarga, tashqi mafkuralar ta'siriga tushib qolmasligi uchun milliy g'oya va mafkura, qozoq millatchiligi va ma'naviyati qadriyatlarini targ'ib qilish ishlarini rivojlantirish harakatlari faollashdi.

Qirg'izistonda oxirgi o'n yilliklarda yuz bergan voqealarda, rangli inqiloblarning tez va shiddatli tus olishi holati hukumat uchun jiddiy signal bo'ldi. Aholining noroziligiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday omillarni bartaraf etish hukmron siyosiy doiralarning asosiy vazifasi bo'lib qoldi. Shu jihatdan, bugungi kunda qirg'iz xalqining adolatsizlikka, nohaqlikka toqatsizligini qayta tekshirishga hojat qoldirmaslikka urinilmoqda. Qirg'iz yoshlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash hukumat darajasidagi ishga aylangan.

Turkmaniston ham aktual vazifa sifatida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ota-bobolari merosini asrab-avaylash va ularning o'gitlariga amal qilishni belgilab olgan. Shu boisdan yosh avlodga milliy g'urur g'oyalarini singdirish ma'naviyat sohasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Mamlakatda ma'naviy tarbiya yoshlarga bolalik davridan, o'rta ta'lim bosqichlaridan boshlab o'qitiladi.

Tojikiston ma'naviy soha rivojiga katta e'tibor qaratadigan davlatlar sirasiga kiradi. Mamlakatda milliy urf-odatlar, qadriyatlar, kiyinish odoblari islom dini tamoyillari bilan chambarchas bog'langanligini ko'rish mumkin. Tojikistonda din siyosatdan ajratilgan bo'lsada, islom xalqning milliy qadriyatlari, ma'naviy hayotida markaziy o'rin egallab keladi [3. B.92-94].

Yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining barcha davrlar va jamiyatlarda bo'lgani kabi yurtimizda ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Doimiy

ravishda xalqimizning ma’naviy dunyosini boyitish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni ulug‘lash, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda odob-axloq masalalari va ma’nan yuksalishiga jiddiy e’tibor qaratildi. Shunga qaramay yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash murakkab va mushkul, binobarin, dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Shunday ekan, yoshlar tarbiyasi oila va maorif doirasidan chiqib, davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasining 79-moddasida [1] davlat yoshlarning axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi borasidagi vazifani o‘z zimmasiga olmoqda.

Davlatimiz rahbarining “Yoshlar, xususan, o‘smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo‘lyapti? Ba’zi yigit-qizlar uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, mas’uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani – achchiq bo‘lsa-da, haqiqat” [2. B.486], – degan fikrlarni bejizga ta’kidlagani yo‘q.

Ta’lim-tarbiya barqaror taraqqiyot yo‘lini tanlagan davlatning poydevori mustahkamligini ta’minlaydigan omillardan. Bu borada mintaqadan yetishib chiqqan buyuk allomalarimizdan ko‘plab asarlar yetib kelganki, ulardan samarali foydalangan holda yoshlar tarbiyasida qo‘llash lozim. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-xaqoyiq” asarlari, Kaykovusning “Qobusnoma”, Burhoniddin Marg‘inoniyning yetti kitobdan iborat “Hidoya” [4. B.326], Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy” [5] nomli odob-axloq me’yorlarini batafsil yoritib bergan asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini, dolzarbligini yo‘qotmagan. Husayn Voiz Koshifiy axloqiy qarashlarida: 1) insonparvarlik, 2) xalqlar do‘stligi, 3) vatanparvarlik, 4) mehnatga ongli munosabat, 5) jamoatchilik tamoyillari o‘z ifodasini topganini ko‘rish mumkin. Biroq, Koshifiy bularni g‘oya emas, balki axloqiylikning asosiy belgilari, deb biladi. Uning nuqtai nazari bo‘yicha har bir halol va rok inson boshqalarga yorug‘ yuz bilan qaraydigan vatanparvar, avvalo, bir-biriga juda g‘amxo‘r, hurmatli, ya’ni insonparvar bo‘lishi kerak [6. B.45].

Yoshlarni ma’nan va axloqan yetuk qilib tarbiyalash borasida O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabr “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni [7] ham qabul qilingan bo‘lib, ushbu qonunga ko‘ra, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

– yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;

– yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash;

– yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;

– yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash;

– yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

– yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

– yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;

– yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

– iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;

– yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

– yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

– yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Bugun G‘arb mamlakatlaridagi yoshlar turli sabablarga ko‘ra farzand ko‘rishni yoqtirmaydilar. Bu g‘arblik yoshlarning shaxsiy tanlovi bo‘lib, ular farzand ko‘rishdan oldin hayotlaridan zavqlanishni xohlashadi [8]. Shu ma’noda Patrik Byukenin shunday deydi: “Yevropa sivilizatsiyasi tugadi. Endi u boshqa hududga ko‘chadi. Buning sababi axloqsizlikdir” [9]. G‘arbona yashashga intilish achinarli holdir.

Zamonaviy yoshlar o‘tgan asr avlodidan sezilarli darajada farq qiladi. U paytda dunyo zamonaviy gadjetlar, kompyuterlar va ijtimoiy tarmoqlarsiz mavjud edi. Ijtimoiy tarmoq vositalari davr bolalari va yoshlarining hayotiy mazmuniga aylandi. Shuningdek, bugungi yoshlarning televidenie, radio va bosma axborot vositalariga ehtiyoji yo‘q. Ular barcha harakat va maqsadlarini ijtimoiy tarmoqlarga qaratgan va ular orqali amalga oshiradi.

E.Omelchenko yangi avlodni “digital native”, raqamli odamlar avlodi, ya’ni obrazli qilib aytganda “Internetda tug‘ilgan odamlar” [10. B.262] deb ta’kidlaydi. Sotsiologning so‘zlariga ko‘ra, hozirda 25-30 yoshli yoshlar raqamli ijtimoiylashuv bo‘yicha yangi ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi. O‘smir ijtimoiylashuvni onlayn tarzda qabul qiladi, uni oflayn rejimga o‘tkazadi yoki aksincha [11].

Ijtimoiy-tarmoqlar ta’siridagi bugungi yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, muammosini o‘rganishning dolzarbligi quyidagi holatlar bilan izohlanadi. **Birinchidan,** jamiyatda axloqiy qadriyatlar tizimining deformatsiyasi, madaniy xulq-atvor qoidalarining e’tiborsizligi, beparvolikning mavjudligi. Jamiyat tomonidan ma’naviy qadriyatlar va me’yorlar, xatti-harakatlarning axloqiy mezonlarining yo‘qolishi yoshlarni ma’naviy va axloqiy tarbiyalash ustuvorligini anglash zarurligini taqozo etmoqda.

Ikkinchidan, yurtimizda zamonaviy ta’lim tizimini yangilash jarayonida ijtimoiy fanlarni o‘qitilish darajasining pastligi. Ta’limda moddiylikni yaratishga qaratilgan fanlar soni va soatlarni ko‘paytirish orqali ijtimoiy fanlar inqiroziga olib kelindi. Bu o‘z navbatida, yoshlarda vatanparvarlik, insoniylik, axloq, odob, mehr va vijdon kabi xislatlarni rivojlanmasligiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, oilalarda farzand tarbiyasi bilan bog‘liq bilimlarni yetishmasligi va ularga befarqlik. Jamiyatdagi barcha oilalar turli g‘oya va mafkuralar uchun obyekt hisoblanadi. Oilalarga kirib bora olgan mafkuralar uchun oila o‘z a’zolariga ana shu mafkura g‘oyalarini singdiruvchi mafkuraviy muassasa rolini o‘taydi.

To‘rtinchidan, axborot va aloqa vositalarining salbiy ta’siri. Yangi axborot imkoniyatlari ko‘pincha yoshlarni mavhumliklar dunyosi bilan bog‘laydi, bu ularga axloqiy xatti-harakatlarning haqiqiy xususiyatlarini o‘zlashtirishga, atrofdagi odamlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga va shaxsiy va jamoat manfaatlarining uyg‘unligiga erishishga to‘sqinlik qiladi.

Shu nuqtai nazardan yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasi har doimgidan ham muhim sanaladi. Tadqiqotchi G.G.Absalomova va G.S.Baygulovalar ma’naviyatning quyidagi xususiyatlarini alohida belgilab ko‘rsatadi [12. B.104-107]:

- o‘z-o‘zini tarbiyalash – shaxsning vaziyatdan qat’iy nazar o‘z maqsadi va qarorlariga amal qilish qobiliyati;
- xabardorlik – o‘zini, tabiatini tushunish qobiliyati;
- donolik – o‘z tajribasi orqali hayotni idrok etish, o‘ziga, boshqalarga, hayotga muhabbat orqali;
- sevgi – yuqori insoniy fazilatlarning namoyon bo‘lishi: altruizm, saxiylik, insonparvarlik;

- o‘z-o‘zini takomillashtirish – insonning hayot tajribasini mustaqil idrok etishga olib keladigan maqsadli va ongli harakati;

- o‘z-o‘zini nazorat qilish – shaxsning ixtiyoriy namoyon bo‘lishi, o‘z harakatlari va harakatlaridan xabardor bo‘lishga olib keladi;

- vijdon – harakatni odob-axloq va axloqiy me’yorlariga muvofiq baholovchi obyektiv ichki ovoz – vijdon ovoziga ergashib, inson har safar o‘ziga tobora ko‘proq ma’naviyatni ochib beradi.

V.I.Garbuzov, tarbiyaviy ta’sir bolaning xarakter xususiyatlari shakllanishidagi hal qiluvchi rolini ta’kidlagan holda noto‘g‘ri tarbiyaning uchta turini ajratib ko‘rsatadi:

A turi bo‘yicha tarbiyalash (bolani qabul qilmaslik, emotsional taxqirlash) bolaning individual xususiyatlarini hisobga olmaslik, qattiq nazorat va bolaga yagona to‘g‘ri bo‘lgan xulq-atvorni buyruq bilan hamda majburan qabul qildirish. Bu turdagi tarbiya yetarli darajada bo‘lmagan nazorat hamda har narsaga butunlay beparvo bo‘lish kabi holatlar bilan ham boshqarilishi mumkin.

B turi asosida tarbiyalash (giper ijtimoiylashtiruvchi) ota-onalarning bola sog‘ligi, uning tengdosh do‘stlari orasidagi mavqei haqida, ayniqsa, maktab bilan bog‘liq, o‘qishdagi va kelgusi kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyati bilan bog‘lik orzu-umid borasidagi xavotirlanuvchanligida namoyon bo‘ladi.

S turi bo‘yicha tarbiyalash (egotsentrik) – oila a’zolarining bolaga e’tiborini haddan ziyod ortib ketishi. Bu ba’zan boshqa bolalar yoki oila a’zolarining zarari hisobiga ham bo‘lishi mumkin [13. B.184].

Shaxsni oilada noto‘g‘ri tarbiyalanishi unga ta’sir etuvchi ma’naviy-psixologik salbiy omillarni keltirib chiqaradi va bu davlat taraqqiyotiga, uning ravnaqiga ta’sir qiluvchi salbiy omillardan biriga aylanadi. Tarbiyaning noto‘g‘ri shaklda tanlangan uslublarini E.Eydemiller, V.Yustiskiy, N.Lengardlar o‘rganib, uning oqibatida shaxsda salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro‘li shaxslarning tazyiqini noto‘g‘ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar [14. B.142]. Kelajagi buyuk va ertangi kuni porloq yurtga, millatga har tomonlama sog‘lom, ma’nan yetuk yoshlar zarur. Shu bois, bugungi kunda yosh avlod tarbiyasiga bo‘lgan e’tibor bizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Birinchi Prezidentimizning: “Bugun yoshlarimiz hal qiluvchi kuch bo‘lib hayotga kirayapti. Men bu yoshlarga o‘zimga ishongandek ishonaman” [15], degan so‘zlari zamirida ham ana shu haqiqat mujassam. Shunday ekan, yoshlarimiz ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga raxna solishga, ma’naviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni bo‘lgan tarixiy xotiramizni buzishga

urinayotgan g‘arazli kuchlarga qarshi doimo ogoh turishimiz darkor. Ana shundagina yoshlarimizning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi mustahkam bo‘ladi va biz ko‘zlagan ulug‘vor maqsadlarimiz bo‘lmish uchinchi Renessansni yaratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 79-modda. 2023-yil 30-aprel. https://lex.uz/docs/-6445145

2. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. – Б.486

3. G‘afurov S. Markaziy Osiyo: mintaqaviy tahdidlar, integratsiya, zamonaviy siyosiy jarayonlar. – Toshkent: Merit print, 2023. – B.92-94.

4. Марғиноний Б. “Ал-Ҳидоя”, 1-жилд. – Т; 2001; Яна қаранг “Ҳидоя”, ЎзМЭ, 11-жилд. – Т; 2005. – Б. 326

5. Кошифий В.Ҳ. Ахлоқи Муҳсиний. – Тошкент: ЎзМЭ, 2010.

6. Маврулова М. Миллий қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт. – Тошкент: Зарварақ, 2022. – Б.45.

7. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрь “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги ЎРҚ-406-сон қонуни. https://lex.uz/acts/3026246

8. Dr. Sulaiman Lebbe and Rifai, Dr. Sulaiman Lebbe, Patrick Buchanan on the Decline of the Western Civilization: Some Critical Evaluations and Reflections (May 10, 2022). Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=4105477

9. Buchanan, Patrick J. The death of the West : how dying populations and immigrant invasions imperil our country and civilization. – N.Y.: Martin's Griffin Edition: October 2002.

10. Омелченко Е. Молодежные культуры и субкультуры / Ин-т социологии RAH, Ульян. гос. ун-т. Н.-И. центг «Регион». – М.: Ин-т социологии RAH, 2000. – 262 с.

11. Абсалямов Г.Г., Байгулова Г.С. О сущности и структуре духовности личности / Вестник Череповецкого государственного университета. 2012. № 2 (37). С. 104-107. https://cyberleninka.ru/article/n/o-suschnosti-i-strukture-duhovnosti-lichnosti

12. Таджиева С.Х. Ота-она муносабати бола шахси ривожланишининг белгиловчи омил сифатида. Психол.ф.н... дис. – Тошкент: ТДПУ, 2009. – 184 б.

13. Каримова В. Оилавий ҳаёт психологияси: Ўқув қўлланма. – Тошкент. 2006. – Б.142.

YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Axror ERGASHEV,
RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

Zamonaviy dunyoda yoshlarning ijtimoiy faolligi juda katta xilma-xillikka ega. Xususan, yoshlarning ijtimoiy faoliyatini miting, namoyish va turli flesh-moblarda ishtirok etish, volonterlik – texnogen, tabiiy va ekologik halokatlarda jabr chekkanlarga yordam berish, bolalar uylari, qariyalar uylarida beminnat ishlash, egasiz va qarovsiz hayvonlarga yordam ko‘rsatish, parklar, plyajlar va boshqa jamoat joylarini tozalash bo‘yicha shanbaliklar va boshqa ko‘plab jamoat tadbirlarida ishtirok etish kabilar tashkil qiladi. Bularning barchasi yoshlar ijtimoiy faolligi masalalarini ob’ektiv va sub’ektiv o‘lchamlarda tadqiq etishning dolzarbligini belgilab beradi. Ayniqsa O‘zbekiston singari aholisining katta qismini yoshlar tashkil qilgan mamlakatlarda ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash jamiyat istiqbolini belgilab beragan strategik masalaga aylangan.

So‘nggi yillarda ijimoiy sohada respublikamiz erishayotgan yutuqlar yoshlarning bilim olishi, mehnat qilishi, shaxs sifatida rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. 2023 yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va haq-huquqlari belgilab berildi. Jumladan, Konstitutsiyaning 79-moddasida «Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi» [5], deyilgan.

Zotan, zamonaviy jamiyat ijtimoiy rivojlanishining muammolari ko‘p jihatdan yoshlarning ijtimoiy jarayonlarga qamrab olinishiga va ularning ijtimoiy loyihalardagi ishtirokiga bog‘liq. Ayniqsa paydo bo‘lgan zamonaviy «ijtimoiy tengsizlik va ijtimoiy-hududiy nomutanosiblik sharoitida.., ijtimoiy faollik yoki ijtimoiy yaratuvchanlik, konstruktiv mazmun kasb etishi yoki ijtimoiy negatsiya (rad etish – A.E.), ijtimoiy norozilik holatiga olib kelishi mumkin» [4].

Shunday holatda yoshlar amaliy faoliyati va shaxs ichki dunyosidagi o‘zgarishlar, barcha jihatlarning mukammallashuvi uning shaxsiy maqsadlari, faoliyat motivlari va hayotining mazmunini tubdan o‘zgartiradi. Buning mohiyati shundaki, yoshlarning ijtimoiy faollashuvi

natijasida avvalgi «tashqi», «begona» tuyulgan voqeliklar endi «o‘ziniki»ga aylanib, ijtimoiy manfaat tushunchasi shaxsning o‘z e’tiqodi asosida shakllanadi. Shunday xulq-atvor zarurligining mantiqiy va axloqiy anglanishi va uning tabiiy ravishda ijtimoiy manfaatlar tizimida yuz berishi jamiyat va shaxs o‘rtasidagi ziddiyatlarni amalda bartararf etadi. Afsuski, mehnat va uning muammolariga nisbatan nigilistik munosabat, iste’molchilik psixologiyasi, boylik kulti – bugungi yoshlarning bir qismi o‘rtasida tarqalgan axloqiy relyativizmning asosi bo‘lib qolmoqda.

Bunga qarshi kurashning vositalaridan biri bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy faolligi ularda vatanparvarlik, yaratuvchanlik, mehnatsevarlik kabi yuqori axloqiy sifatlarni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Albatta, yoshlarning ijtimoiy faolligi pozitiv yoki ba’zan negativ, umummamlakat yoki lokal xarakter kasb etishi mumkin. Ammo, shunisi ayonki, o‘zbek yoshlari mustaqillikning dastlabki chorak asrida shakllangan ijtimoiy apatiya holatidan uyg‘onmoqda, va bu tom ma’nodagi yangi ijtimoiy vaziyat uni ilmiy anglashni taqazo etadi. Aynan sotsiologik tadqiqotlar joriy voqealarning talqinini va yoshlarning ijtimoiy faolligi masalasidagi muammolar yechimini taklif etishi lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizning bir qator ilmiy-tadqiqot institutlari, jumladan, RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutida ham yoshlar muammolari bilan bog‘liq sotsiologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo yoshlar ijtimoiy faolligini o‘rganish uchun biz, avvalo, yoshlar ijtimoiy faolligi va ijtimoiy qadriyatlari tushunchalarining ilmiy ta’rifini aniq belgilab olishimiz lozim. Fuqarolik jamiyatini ko‘ngilli o‘zini-o‘zi boshqaruvchi tashkilotlar va assotsiatsiyalar mavjudligi bilan xarakterlanishi haqidagi ilmiy talqinidan kelib chiqib, yoshlarning ijtimoiy faolligini ularning turli xil notijorat tizimlardagi ko‘ngilli ishtiroki, fuqarolik faolligini – jamiyat farovonligi bilan bog‘liq dunyoqarash orientirlarining umumiyligi sifatida belgilash mumkin [2].

Bugun O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy faolligini belgilovchi omillardan biri jamiyatda ularning bilim olishi va mehnat qilishi, o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etish uchun yaratilgan shart-sharoitlardir. Respublikamizda mustaqillik yillarida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida» qonunlar uzluksiz ta’lim tizimini yaratishning asosi bo‘lib xizmat qildi. Ammo mustaьillikning dastlabki 25 yilida oliy ta’limni rivojlantirish davr talab va mavjud ehtiyolardan keskin ortda qolib ketdi. Respublikamizda faqat 58 ta oliy o‘quv yurtlari va bir nechta chet el oliy o‘quv yurtlarining filiallari bo‘lib, ulardagi mavjud kvotalar bitiruvchi yoshlarning faqat 9 foizini qamrab olardi, xolos. Oqibatda XXI asr boshiga kelib, O‘zbekistonda malakasiz

ishsiz yoshlar soni keskin ortib, ularning katta qismi ish izlab Rossiya va boshqa mamlakatlarga chiqib ketdi. Ish qidruvchilar sonining eng yuqorisi Farg‘ona vodiysi va Samarqand viloyatiga to‘g‘ri keldi [3]. Bunday holat yoshlarda ijtmioy faollikka bo‘lgan qiziqishni susaytirdi, jamiyat muammolariga nisbatan befarqlik psixologiyasini shakllantirdi.

So‘nggi yillarda yoshlarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqlarini ta’minlash maqsadida oliy ta’lim tizimida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining ma’lumotiga ko‘ra, 2023 yilga kelib O‘zbekistonda 210 ta oliy o‘quv yurtlari, jumladan, 36 ta universitet, 48 ta institut, 4 ta akademiya, 26 ta O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarining filiallari, 1 ta konservatoriya, 30 ta chet el oliy o‘quv yurtlarining filialari, 65 ta nodavlat oliy o‘quv yurtlari faoliyat yuritmoqda [6]. Aslida zamonaviy jamiyatda bilim juda ulkan ahamiyat kasb etadi. Zotan, oliy ta’lim yoshlarga faqat kasbiy kvalifikatsiya bermasdan, ularning umumiy dunyoqarashini rivojlantirishda, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hissini, ideallarni shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ideallar esa, o‘z navbatida, yoshlar ijtimoiy faolligining asosini tashkil etadi.

Ideallar ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha jabhalarida shakllantiriladi. Ammo faqat ijtimoiy ideal shaxs va jamiyat hayotida ulkan ahamiyat kasb etadi. Zotan, ijtimoiy ideal mazmuni bo‘yicha keng, yoki moddiy va ma’naviy boyliklarning mo‘l-ko‘lligi, jamiyat barcha a’zolarining ijtimoiy tengligi, shaxs kamolati uchun imkoniyatlarning mavjudligiga asoslangan zamonaviy jamiyat tuzilishi haqidagi tasavvurlarning ilmiy asoslangan shaklidir. Ijtimoiy ideal tushunchasining tarkibiy qismlariga siyosiy, estetik va axloqiy ideallar kiradi. Hozir yoshlarda axloqiy ideallarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim, zero, ular odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatda insoniy xulq-atvor namunasi, umumiy normalar bo‘lib, hayotning maqsadi haqida tarixan shakllangan tasavvurlarni aks ettiradi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida shakllangan munosabatlar ko‘pincha shaxsning ijtimoiy faoliyati bilan uning ichki dunyosi, ideallari o‘rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Ayniqsa globallashuv davri axborot texnologiyalari va targ‘ibot mashinasi odamlarga, ayniqsa yoshlarga ideallar standarti, xulq-atvor stereotipi, mazmunsiz axloqiy qadriyatlar, shtamplangan fikrlar, bir xil moda va didni singdirishga xizmat qilmoqda. Moddiy ta’minlanganlik darajasining yuksalishi ko‘pincha ushbu targ‘ibot ta’siri ostida ideallarning ibtidoiylashuvi va hayotiy qadriyatlarning silliqlashuviga olib kelishi mumkin. Bu esa jamiyatda ijtimoiy faollik darajasining past

bo‘lishligini belgilab beradi.

Zamonaviy ilmiy paradigmalar doirasida yoshlar ijtimoiy faolligini bir nechta jabhalarda, jumladan, erishilgan ijtimoiy pozitsiyani mustahkamlash yoki yanada yuksaltirishga yo‘naltirilgan faoliyat va ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirish yoki ijtimoiy munosabatlarni konservatsiyalash maqsadida yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarga ta’sir o‘tkazish qobiliyati bilan bog‘liq faoliyat sifatida qarash mumkin [1]. Yoshlar ijtimoiy faolligini o‘rganishdagi sifat yondoshuvi o‘zining samaradorligi tufayli bugun keng tarqalgan, zero u ushbu ijtimoiy fenomenni har tomonlama tavsiflash va unda yuz berayotgan o‘zgarishlarni kuzatib borish va baholash imkonini beradi. Chunki O‘zbekistonda mustaqillikning o‘tgan davri mobaynida shakllangan ijtimoiy faol yoshlar qatlami hali juda mustahkam emas, respublika doirasidagi yirik o‘zgarishlar ko‘zga tashlansa-da, lokal o‘zgarishlarni kuzatish ancha murakkab.

Albatta, zamonaviy jamiyatda manfaatlar va qadriyatlar poyuralizmi shakllanganligi va u ko‘pincha avlodlar o‘rtasidagi zaddiyatlarni o‘zida aks ettirishini inobatga olib, yoshlar ijtimoiy faolligi haqidagi tushuncha va qoidalarni bitta maxrajga keltirish mumkin emas. Masalan, ayrim hollarda yoshlar ijtimoiy faolligi katta yoshli aholi tomonidan (ba’zan hatto davlat idoralari tomnidan ham) ijtimoiy tavakkalchilik bilan bog‘liq hodisa sifatida qaralib, ba’zan ma’qullanmaydi. Aslida, rivojlangan mamlakatlar tajribasi yoshlarning ijtimoiy faolligi jamiyatda siyosiy barqarorlikni va iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda juda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Yuqoridagilardan xulosa qiladigan bo‘lsak, birinchidan, yoshlar ijtimoiy faolligining darajasi zaruriy, ammo ba’zan og‘ir ijtimoiy o‘zgarishlarga jamiyatning tayyorlik darajasi bilan bog‘liq. Ikkinchidan, aholi turli qatlamlarining keng ijtimoiy faolligi bo‘lmagan hollarda alohida guruhlarning o‘z tor mahalliy, umummilliy manfaatlarga zid bo‘lgan qarashlarini ilgari surgan «faolligi» boshlanadi. Uchinchidan, O‘zbekistonda so‘nggi yillardagi o‘zgarishlar tajribasidan kelib chiqib, katta asos bilan aytish mumkinki, mamlakatda yuz berayotgan jarayonlarga barchaning, ayniqsa yoshlarning faol munosabati, ijtimoiy faolligi bu jarayonlarga ta’sir qilish, ijtimoiy inqirozlar xavfidan saqlanish imkonini beradi. Shu tariqa, yoshlar ijtimoiy faolligi – bu ijtimoiy faoliyat turi bo‘lib, u shaxs passiv ijrochi emas faol yaratuvchi bo‘lgan, orttirilgan tajriba asosida sotsiumni o‘zgartirishga, keng qamrovli jarayonlarga ta’sir qilishga intilgan paytda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Даренская И.В. Форум учащейся молодежи как технология повышения социальной активности в контексте формирования профессиональных компетенций студентов: опыт практической реализации. http://elar.uspu.ru/bitstream/uspu/16913/1/vvi-2015-17-01-09.pdf

2. Савельева Е.А. Гражданская активность молодежи: варианты концептуализации понятия. – Вестник РУДН, серия Социология, 2013, № 2. С. 21 – 22.

3. Статистик тўплам. 1990 – 2011 йй. – Тошкент, «Ўзбекистон», 2013. Б. 86.

4. Страдзе А.Э. Социальная активность в российском обществе: структурно-деятельностное измерение: Автореферат диссертации доктора социологических наук: 22.00.04 / ФГАООУ ВПО «Южный федеральный университет». – Ростов-на-Дону, 2013. С. 4.

5. https://constitution.uz/uz

6. https://kadrovik.uz/publish/doc/text189692_esli_rabotnik_podal_zayavlenie_o_prekrashchenii_uzbekskogo_grajdanstva

YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA MILLIY G‘OYANING O‘RNI

Dusmurat NARKULOV,
falsafa fanlari doktori, professor,
Toshkent tibbiyot akademiyasi professori

Suxrob NARKULOV,
falsafa fanlari doktori, professor,
Toshkent tibbiyot akademiyasi kafedra mudiri

Yoshlarning ijtimoiy faolligi – bu ularning ta’limiy va kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish orqali barcha sohalarda ijodiy faolligi hamda qiziqarli, mazmunli tashabbus ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlariga intilishidir. Shuningdek, “Jahon falsafasi qomusi”da “Ijtimoiy faollik – subektning jamiyat hayotida ongli holda mustaqil ishtirok etishi, uning ma’lum ijtimoiy-ma’naviy sohada vujudga keladigan muammolarni hal etishga qaratilgan harakati” [1. – 451 b.] ekanligi ta’kidlanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilmoqda, xususan ta’lim sohasini modernizatsiya

qilish jarayonida ta’limning barcha bosqichlarini - maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limni yangi bosqichga olib chiqildi.

Ta’lim sohasini rivojlatirish orqali yoshlarda globallashuv davrida milliy qadriyatlarga sodiqlik, turli yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini shaklllantirish va rivojlantirish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish pirovard maqsaddir. “Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz.” [2. – 230 b.]

Jamiyat taraqqiyotida, mamlakat oldida turgan davlat va jamiyat qurilishi vazifalarini bajarish inson va uning qanday g‘oyaga ishonishi, e'tiqodga ega ekanligi muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli asarida “Ta’lim tizimining ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish, yoshlarda mustaqillik g‘oyalariga, milliy an'analarga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkuraga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ish olib borish ...” [3. – 301 b.] zarurligi ta’kidlangan.

Bu masalaga mamlakatimiz miqiyosida alohida ahamiyat berilmoqda. Yoshlar ijtimoiy faolligida milliy g‘oyaning o‘rni quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

Birinchidan, O‘zbekistonda belgilangan davlat va jamiyat qurilishi vazifalarini amalga oshirish yuksak malakali mutaxassis kadrlarning o‘z faoliyatlarida qanday g‘oya bilan qurollanganligi, ya’ni milliy g‘oyaga bo‘lgan ishonch va e'tiqodi bilan bog‘liq;

Ikkinchidan, yoshlar milliy g‘oya va mafkura, uning ma’no-mohiyatini jamiyat rivojidagi o‘rnini aniq tasavvur etish hamda o‘z faoliyatida unga amal qilishida, ayrim muammolar mavjudligi bilan belgilanadi;

Uchinchidan, milliy g‘oya va mafkurani to‘g‘ri tushunish, hayotga tatbiq etish, uning asosiy mazmunini har bir inson tomonidan qanday anglab yetilayotganligi bilan izohlash mumkin;

To‘rtinchidan, milliy g‘oya va mafkura talablari bilan ijtimoiy faollik o‘rtasidagi munosabatlar, uning ko‘rinishlari, muammolari, yutuq va tajribalarini inson, ayniqsa yoshlar ongi va tafakkuri doirasi, fikrlash tarzi orqali tahlil etish zarur.

Milliy g‘oya jamiyat a’zolari, xususan yoshlar ijtimoiy faolligini ta’minlashda muhim omil ekanligini, ularning ta’sirlashuv mexanizmi va tamoyillarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o‘rganish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda. Bu vazifani xal etish uchun quyidagilarga

e'tiborni qaratish zarur:

- ijtimoiy faollik, milliy g‘oya va mafkura mohiyati, mazmuni aloqadorligini falsafiy tahlil etish;
- milliy g‘oya va mafkura yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish dasturi ekanligini hisobga olish;
- milliy mafkuraning asosiy g‘oyalarini hayotga tatbiq etish;
- milliy mafkurada milliy va umuminsoniy negizlar uyg‘unligiga erishish yo‘llarini izlab topish va ro‘yobga chiqarish.

Ijtimoiy faollik, milliy g‘oya, milliy mafkura tushunchalarining mohiyati, mazmuni, aloqadorligi, farqlarini aniq tasavvur qilish zarur. Garchi bu tushunchalar o‘zaro muloqotda ishlatilayotgan bo‘lsada, ularni yetarli darajada tushunmaslik, xattoki, aynanlashtirib qo‘yish xollari ham uchrab turibdi.

Ijtimoiy faollik azal-azaldan o‘rganib kelinadigan muammolardan sanaladi. Bu masalaning milliy g‘oya bilan aloqadorlikda o‘rganilishi jamiyat taraqqiyotida amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy g‘oya, mafkura odamlar qalbi va ongiga jo bo‘lgach, moddiy kuchga aylanadi. G‘oya va mafkuraning hayotga tatbiq qilinishi ijtimoiy faollikda o‘z ifodasini topadi.

Ijtimoiy faollikni oshirishda milliy g‘oya rolini oshirish halqning o‘z milliy qobig‘iga o‘ralib qolishini aks ettirmaydi, aksincha mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyasini ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, jamiyat a’zolari, ayniqsa yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda milliy va umuminsoniy negizlar uyg‘unligiga erishish muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish va rivojlantirish nazarda tutiladi. G‘oyaviy-mafkuraviy immunitet milliy g‘oya va mafkura bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish va baholash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash, ularning turli oqim va qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan g‘oyalar va mafkuraviy hurujlar mohiyatini bilish hamda qarshi kurashni taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2022. – 451 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 230 b.
3. O‘sha asar. – 301 b.

ZJV5401

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA HUQUQIY MADANIYATNING O‘RNI

Faxriddin SATVOLDIYEV,
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

Jamiyatning huquqiy madaniyati qonun va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni haqida odamlarning qarashlari, qadriyatlari va e’tiqodlarini o‘z ichiga oladi. U shaxslarning o‘z huquq va majburiyatlarini tushunishi, yuridik institutlar bilan o‘zaro munosabati va fuqarolik hayotida qanday ishtirok etishini shakllantiradi. Yoshlar uchun kuchli huquqiy madaniyatni shakllantirish, ayniqsa, ularning ijtimoiy faolligiga, demokratik jarayonlarga jalb qilinishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada huquqiy madaniyatning yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishdagi o‘rni o‘rganilib, faol va bilimli yoshlarni tarbiyalashda mustahkam huquqiy madaniyatni shakllantirish muhimligi ta’kidlangan.

Avvalo huquqiy madaniyat tushunchasiga e’tibor qaratish lozim. Huquqiy madaniyat xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslangan holda insof va iymon, adolat va qonuniylik, insonga yuksak hurmat va e’tibor, sabr-toqat kabi ma’rifat va haqiqat tuyg‘ularini ongimizga singdirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham kishilarning fikrini, dunyoqarashini mustaqilligimiz yo‘lida fidokorona mehnat qilishga yo‘naltirilgan huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy zaruriyatdir. Aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar tartibotini tubdan yaxshilash, inson huquq va erkinlariga chuqur hurmat va ehtiromga asoslangan munosabatni, odamlarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usini, qonunlarni bilish va unga qat’iy amal qilish saodatmandligini qaror toptirish bugungi kunning zaruriy talabi bo‘lib kelmoqda. Huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida, avvalo, har bir fuqaroning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirib borish asosiy va muhim vazifa hisoblanadi.[1]

Huquqiy madaniyat deganda jamiyat huquqiy hayotining butun ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy tizim tomonidan shartlangan, huquqiy faoliyat, huquqiy hujjatlar, huquqiy ongning erishilgan rivojlanish darajasi, sub'ektning (shaxs, turli guruhlar, butun aholi) huquqiy rivojlanish darajasi, shuningdek, davlat va fuqarolik jamiyati tomonidan inson erkinliklari va huquqlari kafolatlanganlik darajasida va umuman olganda ifodalangan sifat holati tushuniladi.[2]

Huquqiy madaniyat deganda jamiyatning qonunlarni idrok etish va unga munosabatda bo‘lishning jamoaviy usuli tushuniladi. U qonuniy huquq va majburiyatlar, yuridik institutlarga bo‘lgan ishonch va shaxslarning adolatni izlash va sud jarayonlarida ishtirok etish huquqini qay darajada his qilishlari haqidagi bilimlarni o‘z ichiga oladi. Ijobiy huquqiy madaniyat keng tarqalgan huquqiy savodxonlik, qonun ustuvorligini hurmat qilish, fuqarolik va huquqiy ishlarda faol ishtirok etish bilan tavsiflanadi. Yoshlar uchun huquqiy madaniyatni anglash faol va mas’uliyatli fuqaro bo‘lib yetishish yo‘lidagi birinchi qadamdir.[3]

Huquqiy bilimlar orqali imkoniyatlarni kengaytirish: Kuchli huquqiy madaniyat yoshlarga huquq tizimini samarali yo‘lga qo‘yish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni berib, ularga imkoniyat yaratadi. O‘z huquq va majburiyatlarini anglash yoshlarga o‘zlari va boshqalarning manfaatlarini himoya qilish, jamiyat muammolari bilan shug‘ullanish va adolatsizlikka qarshi kurashish imkonini beradi. Maktab va mahallalarda o‘tkazilayotgan huquqiy savodxonlik dasturlari bu bilimlarni yetkazish, yoshlar o‘rtasida kuch va ishonch hissini uyg‘otishda muhim o‘rin tutadi.[4]

Fuqarolar ishtirokini rag‘batlantirish: Huquqiy madaniyat yoshlarning ovoz berish, jamoat ishlari va faollik kabi fuqarolik faoliyatida ishtirok etish istagiga ta’sir qiladi. Yoshlar huquqiy institutlarga ishonsa va ularning ishtiroki o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligiga ishonsa, ular o‘z jamoalarini yaxshilashga qaratilgan sa’y-harakatlarda qatnashish ehtimoli ko‘proq. Qonun ustuvorligi va demokratik ishtirokning muhimligini ta’kidlaydigan fuqarolik ta’limi dasturlari yoshlarni fuqarolik hayotida faolroq ishtirok etishga undashi mumkin.

Ijtimoiy mas’uliyatni oshirish: Barkamol huquqiy madaniyat yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantiradi. Qonun va me’yoriy-huquqiy hujjatlarning jamiyatga ta’sirini tushunib, yoshlar umumiy farovonlikka hissa qo‘shish muhimligini anglaydilar. Ko‘ngillilik, jamoatchilik ishtiroki va ijtimoiy tadbirkorlikni rag‘batlantiradigan dasturlar yoshlarga huquqiy bilimlarini butun jamiyatga foyda keltiradigan yo‘llar bilan qo‘llashga yordam beradi.

Yuridik institutlarga ishonchni mustahkamlash: Yuridik institutlarga ishonch huquqiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismidir. Yoshlar huquqiy tizimning adolatli va samarali ekanligiga ishonch hosil qilsalar, ular bilan konstruktiv tarzda shug‘ullanishlari mumkin. Huquqiy institutlarning shaffofligi, hisobdorligi va ochiqligini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar ushbu ishonchni oshirishi, yoshlarni shikoyatlarni hal qilish va o‘zgarishlarga ta’sir qilish uchun huquqiy kanallardan foydalanishga undashi mumkin.

ZJV5401

Tanqidiy fikrlash va targ‘ibotni rivojlantirish: Huquqiy madaniyat yoshlarni qonunlar va siyosatlarni so‘roq qilish va tahlil qilishga undash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Bu tanqidiy nuqtai nazar samarali targ‘ibot va islohotlar uchun zarur. Huquqiy bilim va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yoshlar adolat va adolatni ta’minlovchi o‘zgarishlarni ilgari surishi mumkin, bu esa yanada jonli va sezgir huquqiy tizimga hissa qo‘shishi mumkin.

Muammolar va yechimlar: Yoshlar o‘rtasida mustahkam huquqiy madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, bu maqsadni amalga oshirishda muammolar ham bor. Huquqiy ta’limning yetarli emasligi, huquqiy resurslardan foydalanishning cheklanganligi, huquqiy institutlarga ishonchsizlik kabi to‘siqlar huquqiy madaniyatning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun keng qamrovli strategiyalar zarur:

Huquqiy ta’limni kuchaytirish: Huquqiy ta’limni maktab o‘quv dasturlariga kiritish va huquqiy bilim olish uchun maktabdan tashqari imkoniyatlar yaratish yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga yordam beradi.[5]

Huquqiy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash: Yoshlarning huquqiy ma’lumotlar, maslahatlar va qo‘llab-quvvatlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta’minlash ularga huquqiy masalalarni samarali hal qilishga yordam beradi.[6]

Yuridik institutlarda ishonchni mustahkamlash: Yuridik institutlar tomonidan shaffoflik, hisobdorlik va jamoatchilik ishtirokini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar ishonchni mustahkamlashi va huquq tizimi bilan ijobiy o‘zaro hamkorlikni rag‘batlantirishi mumkin.

Xulosa. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda huquqiy madaniyatning o‘rni beqiyos. Kuchli huquqiy madaniyat yoshlarni huquqiy bilimlar bilan mustahkamlash, fuqarolik faolligini rag‘batlantirish, ijtimoiy mas’uliyatni oshirish, huquqiy institutlarga ishonchni mustahkamlash, tanqidiy fikrlash va targ‘ibot-tashviqotni rivojlantirish orqali yoshlarni faol, bilimli va mas’uliyatli fuqarolarga aylantirishi mumkin. Jamiyatlar rivojlanishda davom etar ekan, yoshlarning huquqiy madaniyatiga sarmoya kiritish adolat va adolat tarafdorlarining kelajak avlodini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidov A. Tojinonov U. Huquq nazariyasi. T. Adolat. 2001 y. 22-bet.

2. Русинов Р.К., Семитко А.П. Правосознание и правовая культура // Теория государства и права: Учебник для юридических вузов и

факультетов / Под ред. В.М. Корельского и В.Д. Перевалова. М., 1997. С.331

3. Сальников В. П., Сальников М. В. Правовая культура и правовая традиция в их категориальном соотношении и понимании //Правовое государство: теория и практика. – 2014. – №. 3 (37). – С. 13-19.

4. Осипов М. Ю. Правовая культура и механизм ее формирования //Журнал российского права. – 2012. – №. 1 (181). – С. 75-81.

5. Akbarali O‘g‘li, Satvoldiyev Fakhriddin. "Organization of experimental work and analysis of results on the improvement of technologies for improving the effectiveness of legal education and training of schoolchildren." Frontline Social Sciences and History Journal 3.04 (2023): 54-61.

6. Akbarali o‘g‘li S.F. Maktab o‘quvchilari huquqiy ta’lim va tarbiyasini shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari //innovative developments and research in education. – 2023. – T. 2. – №. 24. – С. 28-30.

OMMAVIY MADANIY TADBIRLARNING YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI

Anvar TO‘YCHIYEV,
Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Shaxsning fundamental motivatsion munosabatlari yoshlarni ijtimoiylashtirish jarayonida shakllanadi. Ammo sotsializatsiyaning o‘zi ijtimoiy rollarni taqlid qilish uchun emas, balki “odamning faol faoliyati, atrof-muhitga faol qo‘shilishi tufayli ijtimoiy aloqalar tizimini faol ko‘paytirish jarayoni”ni o‘z ichiga oladi. Shu sababli, kognitiv va transformatsion xususiyat ijtimoiy bosqichlar sifatida ajralib turadi.

Ijtimoiylashtirish jarayonida yoshlar nafaqat jamiyatning ijtimoiy me’yorlari va madaniy qadriyatlarini o‘rganadi va o‘zlashtiradi, balki ularni o‘z qadriyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga aylantiradi. Agar taqlid ijtimoiylashuvning kognitiv bosqichi uchun dominant faoliyat uslubi bo‘lsa, unda innovatsiya transformatsion bosqichdir. Shunga ko‘ra, ijtimoiylashuv natijasi ong va xatti-harakatlarning stereotipik ravishda shaxsiy (konservativ) yoki faol-shaxsiy (ishlab chiqarish) bosqichi bo‘lishi mumkin.

Shaxsning ijtimoiylashuvi, bir nechta omillar bilan ta’sir qiladi. Quyidagi omillar shaxsning ijtimoiylashuvi bo‘yicha ta’sir qiladigan muhim faktorlardan ba’zilaridir:

Oilaviy tarbiya – shaxsning oilaviy tarbiyasi va uning o‘zining oilaviy aloqalari, ijtimoiylashuvi ustida katta ta’sir qiladi. Oilada o‘zaro muloqot, qarindoshlar bilan munosabatlar, oilaviy qarashlar va siyosiy maslahatlar shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi va qarorlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘qish va ta’lim muhit – shaxsning o‘zining o‘qish va ta’lim muhitida o‘rgangan bilimlari, fikrlar va tajriba ijtimoiylashuvi ustida katta ta’sir qiladi. O‘quv muassasalari, o‘qituvchilar, maktab yoki universitetdagi o‘quv darslari, tarixiy va siyosiy ma’lumotlar, fikrlar va tajribalar shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi va dunyoqarashi niyatini shakllantirishga olib keladi.

Media va axborot vositalari – yoshlarning ijtimoiylashuvi, media va axborot vositalari tomonidan ta’sir qiladi. Media orqali o‘zgaruvchan yangiliklar, tahlillar, fikrlar va ma’lumotlar shaxsning fikrlarini, qarorlarini va qabul qilingan ma’lumotlarni shakllantirishga ta’sir qiladi. Media kanallari, ijtimoiy tarmoqlar, internet va televideniye shaxsning ijtimoiylashuvi ustida katta o‘rin egallaydi.

Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa kommunikatsiya vositalari zamonaviy jamiyatda ijtimoiylashuvning katta ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy vositalar bo‘lib chiqdi. Yoshlar o‘z fikrlarini ifoda qilish, qarashlarni ta’sir etish va jamiyat bilan o‘zaro bog‘lanishni o‘rganganlar internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali mazkur faoliyatni amalga oshirishadi.

Iqtisodiy holat va faoliyat – yoshlarning iqtisodiy holati va faoliyati (ish, biznes, maishiy muammolar) ijtimoiylashuvi ustida muhim ta’sirga ega. Iqtisodiy muammolar, kuchli iqtisodiy tizimlar, ishga kirish imkoniyatlari, daromad darajasi va yordamga muhtoj bo‘lishi shaxsning ijtimoiylashuvi va dunyoqarashi niyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

Bu omillar shaxsning ijtimoiylashuvi va dunyoqarashi bilan bog‘liqdir. Shaxsning o‘ziga xos hayoti, tajriba va mantiqiy qabiliyatlari, o‘rniga tashrif buyurgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muhitlar, ma’lumotlardan ham bog‘liq omillar shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi va fikrlarini shakllantirishga o‘z ta’sirini qo‘yadi.

Arxeolog, tarixchi, etnograflar, san’atshunoslar bergan ma’lumotlarga qaraganda, madaniy-ma’rifiy faoliyat eng qadimgi davrlardayoq paydo bo‘lgan va ibtidoiy odamlar hayotida muhim rol o‘ynagan. Masalan, olimlarning qayd qilishlaricha “...bayramlarning, chuqur ildizlari insoniyatning go‘daklik davriga borib taqaladi” yoki “bayram-insoniyat madaniyatining boshlang‘ich shaklidir”[1. – B. 60], deb ta’kidlaganlar.

Professor U.Qoraboev “O‘zbek xalqi bayramlari” kitobida

quyidagi fikrni bildirgan - “Bayramning o‘ziga xos xususiyati unda keng ommaning ishtirok etishidir. Bayram avvalo ko‘pchilik uchun uyushtiriladi va u bevosita odamlarning ishtirokida o‘tadi. Teatrlar, konsert zallari, televideniye ko‘rsatuvlari, radio eshittirishlarida omma faqat tomoshabin, tinglovchi rolini bajarsa, bayramlarda odamlar faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bayramlarda hamma o‘z qobiliyatini namoyish qilishi mumkin. Kishilar bayram tadbirlarini ishtirokchi sifatida kuzatadi va bo‘lgan voqelarga o‘z munosabatini bildira oladi[2. – B. 15.]. Bayramlarning o‘ziga xos yana bir xususiyati ularning bir necha (kompleks) tadbirlar sintezidan tashkil topishidir. Har bir bayram ko‘plab tadbirlar asosida uyushtiriladi. Bayramning tashkil qilinishi - uning mavzusi, g‘oya, yo‘nalishi maxsus shakl, tadbir va marosimlar orqali namoyon etishdir. Odatda har bir ommaviy (ayniqsa, ochiq joylardagi) bayramning ochilish marosim-tadbiri bo‘ladi. Undan so‘ng, bir joyda - bayram ko‘rgazmalari, ko‘rik-tanlovlari; ikkinchi joyda - dor o‘yini, polvonlar chiqishlari; uchinchi joyda - askiya va qiziqchilar chiqishlari, qo‘g‘irchoq teatri tomoshalari; to‘rtinchi joyda - badiiy havoskorlik jamoalari, folklor etnografik ansambllari konsertlari; beshinchi joyda - sport musobaqalari kabilar tashkil qilinadi. An’analar, marosimlar, teatrlashtirilgan konsert va tomoshalar, karnavallar, namoyishlar, xalq o‘yinlari bayramlarning asosiy tarkibiy qismi sanaladi. Ommaviy bayramlar shu kabi tadbirlar asosida o‘tkaziladi”.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan yoshlarning ma’naviy va madaniy yuksalishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beruvchi bo‘sh vaqtdan samarali foydalanish masalalariga jiddiy e’tibor berib kelinmoqda. Bugun demokratik jamiyat qurish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, xalqning turmush madaniyatini yuksaltirish jarayoni amalga oshirilayotgan davrda yoshlarning bo‘sh vaqti va madaniy dam olishini samarali tashkil etish va mazmunli o‘tkazish, ularni ma’naviy va jismonan rivojlantirib, ijtimoiy faolligini oshirish ustuvor vazifalardan biridir. Odatda, kishilarning vaqti ikkiga – ish vaqti va bo‘sh vaqtga ajratiladi.

Ayni vaziyatda jamiyatning bir ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy ma’rifiy, axloqiy mafkuraviy holatidan boshqasiga o‘tish davrida tarbiya masalasi oldingi o‘ringa o‘tadi. Tarbiya masalasi o‘zbek xalqining eng ustuvor tavsifga ega bo‘lgan faoliyat turidir. Tarbiya ayni paytda jamiyat holatining mezoni, ma’naviy axloqiy, mafkuraviy ishlarning ko‘rsatkichi, pirovard natijada millat va xalqning yetuklik darajasi hamdir [3. – B. 84.].

Ommaviy madaniy tadbirlar yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, ta’sir doirasi quyidagilarda belgilanadi:

- Yaratuvchanlik

- Kreativlik
- Ijtimoiy aloqalar va hamkorlikni rivojlantirish
- O‘z-o‘zini ifoda qilish va o‘ziga ishonchni oshirish
- Madaniyat, san'at va sportga oid bilimlari o‘rgatish
- Sotsial muhitda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish

Ommaviy madaniy tadbirlar yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular yoshlarning yaratuvchanlik, ijtimoiy aloqalar, o‘ziga ishonch, madaniyat va san'at bilimlari o‘rgatish, hamda sotsial muhitda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni rivojlantirishga yordam beradi. Bu tadbirlar yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga qo‘shimcha omonlik keltiradi va ularni ijtimoiy madaniyatning muhim ahamiyatga ega a’zolariga aylanishga imkon beradi.

Talaba va o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini unumli band etish maqsadida ommaviy ravishda sport bilan shug‘ullanishga, ularda soglom turmush tarzini shakllantirish uchun «Universiada», «Barkamol avlod», «Umid nihollari» an’anaviy sport musobaqalari o‘tkazilmoqda. Kelajakda ushbu tadbirlarga xorijiy davlatlarning sporti talabalarning ham taklif etish hamda sport turlarini ko‘paytirish ustida jiddiy tashkiliy ish – tadbirlar belgilandi.

Ijtimoiy faollik ijtimoiy soglomlashuvga olib keladi. Millatimiz o‘tmishining muayyan davridagi ijtimoiy shart-sharoitlar oqavasi hisoblangan “axloqiy” manzaralarni saqlanib, hatto tahdid solib ketayotganligi, ya’ni lokaydlik, begamlik, befarqlik, e’tiborsizlik, yolg‘onchilik, g‘iybat, hasad, o‘girlik, ichkilikbozlik, fohishabozlik kabi illatlar, shu bilan bir qatorda giyoxvandlik, ijtimoiy xavfli kasalliklarga chalinish ehtimoli (tanosil, OITS, sil va boshqa yuqumli kasalliklar), diniy ekstremizm hamda terrorizm global muammo bo‘lib, asr vabosiga aylanib borayotgan bir sharoitda, ijtimoiy faol shaxs tarbiyasi alohida dolzarb muammo sanaladi[4. – B .3.].

Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish esa ularning ijtimoiy taraqqiy etishlari uchun zarur shart sharoitni yaratib berdi. Ommaviy madaniy tadbirlar o‘tkazish uchun zamonaviy turli usullar va tashkil etish joylari mavjud.

Onlayn tadbir teknologik rivojlanish bilan birga, ommaviy madaniy tadbirlar onlayn formatda o‘tkazilishi ko‘plab o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Onlayn konsertlar, zamonaviy marosimlar, adabiyot va san'at festivali, vebinarlar, onlayn darslar va o‘qishlar kabi tadbirlar o‘tkazilishi mumkin. Bu usul orqali geografik chegara muhim emas, global ommaviy hamkorlik va aloqalar o‘rnatishga imkon beradi.

Gbrid tadbirlar onlayn va an’anaviy formatlarda tashkil etiladi Bu

usulda tadbirning bir qismi oldindan belgilangan maydonlar, ko‘chalarda o‘tkaziladi, boshqa qismi esa onlayn tarzda amalga oshiriladi. Misol uchun, bir festivalning asosiy konsert dasturi belgilangan joyda o‘tkazilsa, tashkiliy masalalar, tadbir doirasidagi turli tanlovlar online tarzda tashki etilishi mumkin. Pandemiya davrida bunday ommabiy madaniy tadbirlar tashkil etildi.

Mahalla va jamoat maydonlarida madaniy meros, etnografik tadbirlar va milliy bayramlar tashkil etilib, madaniy identitetni saqlashga yordam beradi.

Xalqaro festival va tanlovlarda turli millatlar, etnik guruhlar, madaniyatlar o‘rtasida hamkorlik va aloqalar rivojlantiriladi. Bu tadbirlar global madaniyatga qo‘shilish, turli mamlakatlarning madaniyat va san'atini ta’riflash, o‘zaro tanishish va almashtirish imkoniyatini beradi.

Madaniyat markazlari va institutlari ommaviy madaniy tadbirlarini o‘tkazishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Bu markazlar va institutlar, adabiyot tahlil majlislari, san'at kurslari, muzey va galeriyalar, o‘quv dasturlari, jamoatchilik meroslari, san'at festivallari kabi tadbirlarni tashkil etishda asosiy rol o‘ynaydi.

Ommaviy madaniy tadbirlari o‘tkazish usullari va joylari o‘zgarishi mumkin, bu o‘zgarishlar madaniyatning rivojlanishi, tez-tez o‘zgaruvchilar bilan bog‘liqlikka ega bo‘lishi va yangi kommunikatsiya texnologiyalari va ko‘rsatkichlardan foydalanishi bilan bog‘liq. Bu tadbirlar insonlarni birgalikda qo‘shish, o‘zaro munosabat va hamkorlikni rivojlantirish, madaniyat va san'at sohalarini o‘rgatish, rivojlantirish va tarqatish imkoniyatlarini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qoraboev.U “Madaniyat masalalari” -T.: “O‘zbekiston milliy enisklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2010 y. - B. 60.

2. Qoraboev.U “O‘zbek xalqi bayramlari” -T.: “Sharq” 2002 y., -B. 15.

3. Маврулов А. Маданият ва тафаккурдаги ўзгаришлар. Тошкент: адолат, 2004. Б. 84.

4. Жумаев А.Ш. Ижтимоий фаол ўкитувчи шахсини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. Педагогика фанлари номзоди илмий ..... автореферати. –Т., 2009. 3- бет.

YOSHLAR VA INTELLEKTUAL KAPITAL: YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA KITOBXONLIK VA MA'RIFATNING O'RNI

Nuriddin SAIDKULOV,
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan, "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"[1] gi farmoyishi xalqimiz ma'naviy-ma'rifiy hamda siyosiy qiyofasini yanada boyitishda xizmat qiladigan huquqiy hujjat bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bu farmoyishni qabul qilinishi keng jamoatchilik uchun birdek daxldor va zarur edi. Shu bois bu huquqiy hujjat bir so'z bilan aytganda hayotiy ehtiyoj yuzasidan qabul qilindi. Biroz vaqt o'tib, ya'ni 2017 yil 13 sentyabr "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi [2] Prezident qarori qabul qilingani bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada jadallashishiga sabab bo'ldi. Shundan so'ng, jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an'analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov yoshlarga ishonch bildirib: "Bizning eng katta ishonchimiz, madad-tayanchimiz - bu o'sib kelayotgan yosh avlodimizdir. Takroran aytamanki, men o'zimning taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdiri va kelajagini ham ana shu yoshlar qiyofasida, ularning pok qalbi, erkin tafakkuri, mustahkam irodasi va dunyoqarashida ko'raman" [3] - degan yedilar.

Darhaqiqat, har qaysi mamlakat o'sib kelayotgan yosh avlodlari qiyofasida ertangi kunini, kelajakdagi kuch-qudratini va kerak bo'lsa, dunyo hamjamiyatidagi o'z o'rnini ko'radi. Bugun mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Bu tom ma'noda O'zbekiston-yoshlar mamlakati ekanligidan dalolat beradi. Mamlakatimiz

taqdirini o‘zining taqdiri bilian uyg‘un holda ko‘radigan yoshlarga suyanamiz va ularning qiyofasida yorqin kelajagimizni ko‘ramiz. Avvalo, ularga suyanishimiz uchun biz ularning ruhiyatini sog‘lom, irodasi mustahkam, keng dunyoqarashli, har tamonlama barkamol va ma’naviy saviyasini yetuk qilib tarbiyalashimiz dastlabki bajaradigan vazifamizdir. Mamlakatning ertangi kunini yoshlarning timsolida ko‘rish, bu faqatgina yoshlarning miqdorida emas, balki ularning jamiyatga qanday inson bo‘lib kirib kelayotganligidadir. Shunday ekan, yoshlarni go‘zal xulqli qilib tarbiyalashdek, muqaddas vazifani har birimiz to‘g‘ri tushunmog‘imiz va kerak bo‘lsa, hayotiy burchimizga aylantirishimiz shart.

Yoshlarda ijtimoiy faollikni shakllantirish va rivojlantirishning bir qancha omillari mavjud bo‘lib, ulardan kitobxonlikning o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Kitobxonlik – insoniyat uchun xizmat qiladigan barcha ma’lumot va bilimlarni o‘zida mujassam etgan kitob, jurnal, gazeta va boshqa yozma turdagi OAV o‘qish va o‘rganish san’ati. Albatta, kitobxonlikni ham san’at desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, kitobxonlikni o‘ziga xos qiyinchiliklari va mashaqqatlari bor. U mashaqqatlarni yengib o‘tgan kishigina “kitobxon” darajasiga erishadi. Kitobxonlik so‘zi ko‘p hollarda “mutolaa” so‘zi bilan ham yonma-yon keladi. Har ikkala so‘z ham umumiy ma’noda ma’lumot olish, ilm o‘rganish va bilim egallashni anglatadi.

Kitobxonlik bilan ma’rifatga erishish, ma’naviyatli bo‘lish insoniyat tarixidan va tajribasidan ma’lumki, avvaldan har bir xalq o‘zi va boshqa xalqlarning obro‘-e’tiborini, nufuzini o‘sha xalqning ma’rifati bilan, madaniyati hamda olimlarining xizmati bilan belgilagan bo‘lsa, ne ajab. Xalqlarning ma’rifati, ma’naviyati hamda ilmga bo‘lgan munosabati haqida so‘z ketganda, avvalo, o‘sha xalqlar yashayotgan muhitga, hayot tarziga xususan, ularning iymon-e’tiqodiga ham bevosita bo‘gliqdir.

Ma’lumot uchun shularni aytish joyizki, mustaqillikkacha bo‘lgan yillarning sarhisobini qiladigan bo‘lsak, hech bir davrda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini oshirish, ularning ma’naviy-ma’rifiy sohadagi bilimlarni mukammal egallash uchun bu darajadagi imkoniyatlar yaratilmagan. Shu kungacha ommaviy axborot sohasida tegishli huquqiy asos yaratilgan bo‘lib, 10 dan ortiq qonun va 30 dan ortiq qonunosti hujjatlari qabul qilingan. 1.677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro‘yxatiga olingan. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta’lim muassasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazi tomonidan aholiga

axborot-kutubxona xizmatlari hamda “Kitob olami”, “Sharq ziyokori” va “O‘zdavkitobsavdota’minoti” majmualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu ishlarning barchasi fuqarolarning xususan yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy hamda siyosiy madaniyatini yuksaltirishdan iboratdir.

Darhaqiqat, tarixdan ma’lumki, kitobxonlik, ma’rifatparvarlik va ilm-u irfon rivojiga o‘zining samarali hissasini qo‘shgan Abu Nasr Farobiy ta’limotida ham ilm-u ma’rifatga, ta’limga hamda kitobxonlikka bo‘lgan e’tiborni ko‘rish mumkin. Uning ta’limotiga ko‘ra, inson ta’lim yordamida barcha fanlarni puxta o‘zlashtirish bilan birga ma’naviy-axloqiy fazilatlarga, odob me’yorlari va kasb-hunarga oid malakalarga ham ega bo‘lishi aytib o‘tiladi. Farobiy “Ta’lim-tarbiyada rag‘batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surdi. Bu usullar esa, o‘z navbatida, uning “Fozil insonlar jamiyati”da axloqan pok, barkamol avlodning tarbiyasi uchun xizmat qilish kerak edi. Farobiyning ta’limotidan ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish masalasi bugungi kunimizda ham qo‘l keladi.

Shu maqsadda har bir davlat o‘z aholisini, ayniqsa bilim va yangilikka chanqoq yoshlarini ilmiy bilimlar, ma’rifiy-ma’naviy ozuq bo‘ladigan axborotlar bilan ta’minlanishidan manfaatdordir. O‘zbekistonda ham o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual ehtiyojlarini qondirishga, madaniy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishga yo‘naltirilgan, prinsipial “axborot madaniyati” shakllantirildi va hayotga joriy etilmoqda.

Haqiqatdan, yoshlar mamlakat ertasining davomchilari sifatida yaxshi tarbiya ko‘rgan bo‘lishlari, har tomonlama chuqur bilim va ko‘nikmaga ega, atrofda bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil va to‘g‘ri baho bera oladigan qilib tarbiyalash hayotiy zaruriyatimizdir. Yoshlarni kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bu davlat va jamiyatda bo‘layotgan o‘zgarishlarga o‘zining mustaqil fikrini bildira olish imkoniyatini beradi. Hozir mamlakatimizning barcha hududlarida, xususan, shahar va tumanlarida ma’lum bir maxsulot, buyum va shunga o‘xshash narsalarni reklama qilishda, ma’lum bir binoni qanday vazifani bajarishni anglatuvchi plakatlar, hikmatli iboralar, shiorlar osilgan lozinglarga xato yozilgan so‘zlarni ko‘rib qolamiz. Bunga kimdir e’tibor beradi, kimgadir bu narsalarni umuman qizig‘i yo‘q. Bu esa insondagi qanchalik kuzatuvchanlik va daxldorlik tuyg‘usi borligiga bog‘liqdir. Ko‘rib turib indamasdan o‘tib ketish esa jamiyatda, davlatda amalga oshirilayogan islohotga va tilga bo‘lgan befarqlikdir. Shuning uchun, avvallo insonlarni o‘rtasida shu yurtga nisbatan, Vatanga nisbatan daxldorlik tuyg‘usini yanada yuksaltirish zarur. Bu uchun esa yuqorida aytganimizdek, ilm

o‘rganish, kitobxonlik madaniyatini ahamiyati katta.

Bundan tashqari, plakatlar, lozinglarni nashr etish joylarida qatiiy nazoratni o‘rnatish maqsadga muofiq bo‘ladi. Nazorat qiluvchu muassasalarni javobgarligini yanada oshirish kerak. Chunki, bu o‘rinda davlat tiliga bo‘lgan munosabat yotibdi. Shuning uchun mas’uliyatni oshirish vaqti yetib keldi. Sababi bu orqali jamiyat a’zolarining, yoshlarning savodxonligi masalasiga salbiy ta’sir ko‘rasatishi mumkin. Shuning uchun mazkur kamchiliklarning bartaraf etish yo‘lidan biri sifatida yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan muxabbatini oshirishimiz, davlat va jamiyat faoliyatiga daxldorlik tuyg‘usini yanada shakllantirishimiz shart.

Buning uchun esa ta’lim-tarbiya tizimini kitobxonlik madaniyatini muntazam takomillashtirib, milliy modelning hayotiyligini, uning milliy g‘oya tamoyillari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlantirishni ta’minlay olishimiz zarur. Ana shundagina biz kutilgan natijalarga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi // “Xalq so‘zi” gazetasi.- Toshkent, 2017 yil 13 yanvar

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3271-sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori// “Xalq so‘zi” gazetasi.- Toshkent, 2017 yil 14 sentyabr, № 184 (6878)

3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild, Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin. -T.: O‘zbekiston, 1999. -B. 246.

ZJV5401

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR MA’NAVIY QIYOFASI

Ilxom FAYZULLAYEV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Inson tabiatda individ sifatida dunyoga keladi va jamiyatda shaxs sifatida shakllanadi. Shaxs sifatida kamol topar ekan, o‘z ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqib, turmush tarzini yo‘lga qo‘yadi, o‘zi-o‘zini boshqarishni o‘rganadi, jamiyat bilan aloqada bo‘ladi. O‘y-xayollari, orzu-umidlari va maqsadlarini ro‘yobga chiqarish jarayonlari orqali mavhum holatlarni real voqelikka aylantiradi.

Uning jamiyatda tutgan o‘rni ma’naviy qiyofasining shakllanganligiga bog‘liq. Xo‘sh, shaxs ma’naviy qiyoqasi nima? Bizningcha, shaxs ma’naviy qiyofasi – uning ongida kechadigan ijobiy g‘oyalar, o‘ylar, orzu-umidlar va ta’limotlarni amalga oshirishdagi ruhiy jarayondan iborat. Chunki uning ongida doimo ijobiy fikrlar, fazilatlar bo‘lsa, ma’naviy qiyofasi ham go‘zal bo‘ladi. Bunda insonga axloq yordamga keladi. “Axloq hayotning barcha sohalarida – oilada, mahallada, mehnatda, ishlab chiqarishda, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo va h.k aloqalarda odamlarning o‘zaro munosabatini va qarashlarini tartibga soladi”[1].

Yaxshilik va yomonlik, to‘g‘rilik va o‘g‘rilik, saxiylik va baxillik, shijoat va qo‘rqoqlik, hayolilik va uyatsizlik, vafo va xiyonatkorlik, rostgo‘ylik va yolg‘onchilik, kamtarlik va manmanlik, muhabbat va nafrat, dangasalik va ishyoqmaslik va boshqa shu kabi fazilatlar va nuqsonlar inson olamining butun mohiyatini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, inson o‘zini-o‘zi boshqaradigan, himoya qiladigan, o‘zini-o‘zi yo‘lga soladigan va hatto shakllantiradigan murakkab, oliy darajadagi xilqatdir. Ana shu holatning o‘zi har bir insondan ma’naviy barkamollikka intilib, ruhiy poklik va axloqiy yetukligini doimiy ravishda oshirib borishini taqoza etadi.

Bundan bir necha yil avval mashhur yozuvchi Lev Tolstoy o‘zining “Iqrornoma” asarida shunday degan edi: “Butun insoniyat ma’naviy ibtidolar va ularga rahnamolik qiluvchi ideallar asosida yashaydi va rivojlanadi. Bu ideallar dinlarda, fanlarda, san’atda, davlatchilik shakllarida o‘z ifodasini topadi. Bu ideallar yuksalgandan yuksala boradi va insoniyat eng oliy ne’matlar sari boradi. Men insoniyatning bir bo‘lagiman, shuning uchun ham mening vazifam insoniyat ideallarini anglash va amalga oshirishga ko‘maklashishdir”[2]. Bu bilan Lev Tolstoy

insoniyatni o‘zini anglashiga, bu holatni inobatga olgan holda faoliyat yo‘nalishini belgilashi zarurligiga e’tiborni qaratgan edi. Faoliyat yo‘nalishi esa inson vujudidagi ma’naviy yetuklik yoki ma’naviy tubanlik bilan bog‘liq. Ma’naviy yetuklik insoniy fazilatlarni egallash bilan bog‘liq bo‘lsa, ma’naviy tubanlik esa illat va kamchiliklar, nuqsonlar bilan belgilanadi.

Demak, “fazilat” va “illat” tushunchalari bir-biri bilan yonma-yon keladigan tushunchalar hisoblanadi. Illatlar ayrim holatlarda “nuqson” deb ham yuritiladi. Ushbu tushunchalar har bir inson hayotida kundalik turmushida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, kishining jamiyat bilan aloqasini belgilab beradi. Fazilatli inson atrofdagilarda go‘zal, ijobiy insoniylik xususiyatlari bilan tassurot qoldirsa, yomon xulq-odatlari bo‘lgan, nuqsonli kishilar aksincha, salbiy tassurot qoldirishadi. Bundan tashqari inson o‘zida fazilatlarni qanchalik ko‘paytirib borsa, uning ma’naviy dunyosi ham boyib boradi. Bu esa albatta, jamiyat taraqqiyoti va rivoji uchun muhim hisoblanadi. Fazilat va illatlar qadimdan ham ajdodlarimizni befarq qoldirmagan. Ular kelajak avlodning barkamollikka erishishi, komillikka intilishida hamda jamiyat boshqaruvida ularning o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlab o‘tishgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy:

“Insoniy xislatlar to‘rt qismga bo‘linadi: nazariy fazilatlar, tafakkur fazilatlari, yaralma(hayot jarayonida vujudga keluvchi) fazilatlar va amaliy san’at(kasb) fazilatlari.

Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi»[3] ”, – deydi.

Abu Rayhon Beruniy inson tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi illatlar haqida fikr yurita turib, ular ko‘p hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd etadi. “Haddan ortiq g‘azab vahshiylik keltiradi va bevaqt qilingan lutf obro‘ni ketgizadi”[4], – deydi. Ibn Sino esa “Inson toki o‘zini mayda gap, o‘chakish, janjal, shikoyat, norozilik, ohu vohlardan ozod qilolmas ekan, u iflos va pastlik tabiatidan xalos bo‘lolmaydi”, – deydi va bunday illatlarni bartaraf etishda tarbiya omiliga tayanishni ta’kidlaydi[5].

Xo‘sh, insoniy fazilatlar nimalarda aks qiladi? Dastavval insonning odob-axloqida ko‘rinadi. Bilamizki, falsafiy nuqtai nazardan odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo‘lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli hatti-harakatlardan iborat.

Odoblilik vazminlikda ham ko‘rinadi. Odobli bo‘lish – o‘zgalarning kayfiyatini seza bilish, uning xarakterini tushunmoq va har bir kishining individual xususiyatlariga qarab uning o‘ziga yarasha muomala qila bilmoq demakdir.

Odoblilik kishining o‘z-o‘zini nazorat qila olishida namoyon bo‘ladi. Qo‘rs va jahldor kishigina o‘zini ham, tevarak-atrofdagi kishilarning ham kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki, bunday odobsiz kishi har narsaga g‘azablanadi, jahl ustida boshqalarni koyiydi, odamlarning dilini xufton qiladi.

Haqiqiy odoblilik samimiylik va minnatdorlikni his qilish, to‘g‘rilik va haqiqatgo‘ylik, bir so‘zlilik, aniq va puxtalik, intizomlik va saranjom-sarishtalik, ozodalik va vazminlikni qanchalik tushunishda emas, balki ana shu xislatlarni tabiiy ehtiyoj, kundalik odat qilib xarakterga singdirib yuborishlikda aniq va yaqqol namoyon bo‘ladi.

Samimiylik inson xarakteridagi eng go‘zal tomonlardan biri bo‘lib, u insonning beg‘uborligini, beg‘arazligini ifodalaydi. Samimiy odam ochiq ko‘ngil, bag‘rikeng bo‘lishi bilan birga, o‘zgalar mehnatini qadrlaydigan, o‘ziga qilingan hurmat-e’tiborga minnatdorchilik bildira oladigan kishidir. Birovga yaxshilik qilib, minnatdorchilik talab etish bu minnat qilish, boshqacharoq aytganda, ta’ma qilish bo‘ladi.

Yaxshilik qilish, samimiylik shunday yuksak, olijanob fazilatki, unga ko‘rolmaslik, g‘araz, ta’magirlik, nafs ustunligi kabilar aralashmasligi zarur. Birovga yaxshilik qilaman deydigan odam uning iltimosini kutib o‘tirmaydi. Yordamga muhtoj bo‘lganlarni ko‘rsa, uning hojatini chiqarishga harakat qiladi, hattoki, o‘ziga bildirmaslik yo‘llarini izlaydi. Bunday yaxshilik samimiylik deyiladi. Samimiylik tuyg‘usi to‘g‘rilik va xaqiqatgo‘ylik bilan uzviy bog‘liq.

To‘g‘rilik odoblilik belgisi bo‘lib, halol va samimiy odamlargina ana shu fazilatga ega bo‘la oladi. Halollik esa ezgulik tomon qo‘yilgan qadam hisoblanadi. Mahmud Zamaxshariy halollik haqida shunday ta’kidlaydi: “Halol-pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qilgan kishi esa halokatga giriftordir”[6]. Haqiqatga intilgan kishi kamolotga erishadi. Sofdil, to‘g‘ri odamning so‘zi bilan ishi bir bo‘lib, uning hayot yo‘li har doim to‘g‘ri va ravondir. Bunday kishi uchun haqiqat qanchalik achchiq bo‘lsa ham, uni hamma narsadan yuqori qo‘yadi.

Uddaburon, puxta, saranjom-sarishta bo‘lgan kishi intizomli bo‘ladi. Kishining intizomliligi mehnat jarayonidagina bo‘lmasdan, kishilar bilan bo‘lgan munosabatda ham namoyon bo‘ladi. Har bir ishda intizomlilik, saranjomlik – odoblilik bo‘lib, tartibsizlik, beburdlik esa odobsizlik hisoblanadi.

Mashhur faylasuf Demokrit (mil.avv. 460-370)ning fikricha, na jismoniy kuch va na moddiy boylik individlarni baxtli qila oladi. Haqiqiy va ko‘p qirrali donolik odamlarni haqiqiy baxtga olib boradi. Dono bo‘lish

uchun yaxshi fikrlash, yaxshi so‘zlash va yaxshi harakat qilish darkor. Birinchisi ruhiy tetiklikni ta’minlaydi. Yaxshi fikrlash, demak, narsalar haqida to‘g‘ri hukm chiqarishdir. Ikkinchisi samimiylik, haqqoniylikdan iborat. Uchinchisi, donishmandlik bo‘lib, u amaliy ezgulikni hosil qiladi. “Inson ezgulik to‘g‘risida chiroyli gapirish o‘rniga, ezgulikka intilishi kerak”[7].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, inson ma’naviy yetuk bo‘lishi uchun o‘z oldiga bir necha savollarni qo‘ya olishi kerak:

Birinchidan, insonning hayotda yashashdan maqsadi nima? Baxt-saodat nima?

Ikkinchidan, inson baxt-saodatga erishishga qodirmi yoki yo‘qmi?

Uchinchidan, baxt-saodatga erishish uchun qaysi yo‘lni tanlagani ma’qul? (Yaxshilik muammosi, tarbiya mohiyati va imkoniyatini ko‘rib chiqishi kerak).

To‘rtinchidan, inson intilishlarining eng buyuk maqsadi baxt-saodat ekanligi bilish lozim.

Inson atrofida yuz berayotgan har bir holat va voqea-hodisaga turli xil his-hayajon(emotsiya) bilan javob beradi. Ushbu his-hayajon ayni paytda real holatlardan va ularning ongda aks etishidan kelib chiqadi. Chunki, ushbu hodisalar ma’lum dunyoqarash va bilish jarayonlari orqali inson ongida o‘zini namoyon qiladi. Bu esa aqliy ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalar bilan inson o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda ijtimoiy hayotda munosib o‘rin egallashga imkon yaratadi. Shaxs ma’naviy qiyofasini shakllantirishda axloqiy fazilatlardan foydalanish masalasi shuning uchun ham dolzarblik kasb etadi. Bu esa har qanday targ‘ibotchi va pedagogdan mas’uliyat va daxldorlik talab qiladi.

Ijtimoiy hayotda munosib o‘rin egallash, chin inson bo‘lib yashash uchun har bir odam o‘z-o‘zini tarbiya qila olishi, yaxshilikka intilishi, hayotda faqatgina ezgulikni izlashi shart va lozim. Shundagina, jamiyatda ma’naviy yetuk, barkamol insonlar ko‘payib, mamlakat farovonlikka erishadi, kelajak ishonchli shaxslar qo‘liga o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 2019. –B. 349.

2. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. – T.: “Ma’naviyat” 2018. – B.134.

3. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – T.: Yozuvchi, 2001. – B. 38.

4. Abu Rayhon Beruniy. “Tarvihalar. “Javohirot kitobi”dan. – T.: Meros, 1991. – B. 68.
5. Abu Ali Ibn Sino. Tibbiy o‘gitlar. – T.: Mehnat, 1991. – B. 43.
6. 111 vatandosh allomalarimiz. – T.: Yangi asr avlodi. 2016y.–B.239.
7. V.Asmus. Istoriya antichnoy filosofii, 121-bet
8. Lev Tolstoy.Iqrornoma. Ozod Sharafiddinov tarjimasi. –T.: Ma’naviyat. 1998. – B -16

YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING SAMARALI VA TA’SIRCHAN USULLARI

Mashhura YOQUBJONOVA,
Buxoro viloyati Osiyo xalqaro universiteti talabasi

Tamaddunlar tarixidan ma’lumki, davlatning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bevosita bog‘liqdir. .shu yo‘nalishda ularni ijtimoiy faolligi oshirish oliy darajadagi masalalardan biri hisoblanadi.

Jamiyatimizning deyarli barcha Bo‘g‘inlarida, ya’ni yosh-u qari o‘rtasida “Faol” degan jumlani ko‘p ishlatilishiga guvoh bo‘lamiz. Faol tushunchasi har qanday soha bo‘lishidan qat’iy nazar ishdan qochmay bor kuchini sarflashga harakat qiladigan kishilarga nisbatan qo‘llaniladi. Biroq, ana shu faollikni kengroq ma’noda tasvirlab beruvchi tushuncha bu “Ijtimoiy faollikdir .

Ijtimoiy faollik keng tushuncha bo‘lib u har bir kishining xayotidagi tutgan o‘rni, ijtimoiy voqiylik unda yuz beradigan o‘zgarish yangiliklarga munosabati shuningdek uning yaratuvchanlik qobiliyati borasidagi faollikni anglatadi.Ijtimoiy faollik uning asoslari bo‘lgan o‘zlikni anglash va o‘z- o‘zini boshqarish shaxsning yoshlik davrlaridan yaqqol namoyon bo‘ladi.Yoshlarni ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Shu bois mehnat va muloqot jarayonida faollik ko‘rsatishga doir layoqatlarni rivojlantirish va rag‘batlantirish, ijtimoiy voqelikda yuz beradigan voqea hodisa yangilik va o‘zgarishlarni to‘g‘ri anglash, tushunish mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatish, o‘ziga berilgan har bir topshiriqni mas’ulyat, deb bilgan holda uni sidqidildan bajarishga intilishni shakillantirish zarur.

Manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, demokratik jamiyatda yoshlar ijtimoiy faolligi o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida

shakllantiriladi. O‘quvchi yoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ijtimoiy faollik ko‘nikma va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o‘ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi.

Ijtimoiy faollikni amalga oshishi bevosita ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq. “Ijtimoiy faoliyat” tushunchasi bugungi kunda keng ma’noda talqin qilinmoqda. Keng ma’noda ijtimoiy faollik deganda shaxsning ijtimoiy faollik darajasini aks ettiruvchi sifatlar tushuniladi, ya’ni uning ijtimoiy butunlik bilan aloqalari, jamiyat manfaatlari yo‘lida harakat qilishga tayyorligi, jamoat manfaatlarini qabul qilishi.

Ijtimoiy faoliyatning har bir soxasida yoshlarning ijtimoiy faolligi o‘ziga xos xususiyatga ega. Shundan kelib chiqib, uni bir necha yo‘nalishlarda: iqtisodiy ta’lim, ijtimoiy himoya ma’naviy-axloqiy hayot sohalarida o‘rganish lozim. Ijtimoiy faollik deganda kishi qaysi kasbning egasi bo‘lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat’iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga, zamondan ortda qolmaslikka bo‘lgan harakatini tushunish mumkin. Mana shu jarayonda u o‘zini shaxs va fuqaro sifatida namoyon qiladi.

Yoshlar faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lishi xususiyatlariga aytiladi. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir. Yoshlar faolligi deb, uning hayotini boshqarish bilan, bog‘liq bo‘lgan va qadriyatlarining nomoyon bo‘lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxsi sifati darajasining asosiy ifodasi bo‘lib, uning yuksak qadriyatidagi ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko‘rsatkichidir.

Zotan, oliy ma’lumotli, yuksak malakaga ijtimoiy faollikga ega yoshlar soni ortishi jamiyat rivojlanish sur’atlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining dasturiy ma’ruzasida oliy ta’lim sohaning rivojlanishiga turtki beruvchi quyidagi prinsipial yangi g‘oya va tashabbuslar ilgari surildi:

- oliy o‘quv yurtlari hamda nodavlat ta’lim maskanlari salohiyati oshirish orqali ular o‘rtasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha raqobat muhitini kuchaytirish;

- yoshlarga bir vaqtning o‘zida bir nechta oliy o‘quv yurtiga hujjat topshirish imkoniyatini berish;

- oliy ta’lim muassasalariga real imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, qabul kvotalarini mustaqil belgilash tizimini joriy etish;

- bakalavriat yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijda o‘qishni davom ettirish imkoniyatlarini yanada kengaytish.

Bu imkoniyatlarni yaratilishi bevosita yoshlarni ijtimoiy faolligini

ZJV5401

oshirish shu bilan birga kelajakdagi yetuk mutahasis bo‘lib yetishishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, hozirgi davrda o‘sib kelayotgan avlodning qiziqish va ehtiyojlarini tahlil qilish va shu asosda mavjud muammolarni chuqur o‘rganish hamda ularning yechimini topish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat barpo etish strategik maqsadi qilib belgilagan. Ushbu maqsadga erishishning asosiy omillari yoshlarning manan yetukligi, yoshlarning huquqiy ongi, madaniyati va ijtimoiy faolligini yuksaltirishdir. Shu bilan birga yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish davr talabi. Biz yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunni yangi tahrirda qabul qilindi. Shu asosda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda.

Xulosa: Ijtimoiy faollik Oliy ta’lim talabalarining faoliyatining muhim tomonlaridan biridir. U talabaning jamiyat va jamoa ishlaridagi faol ishtirokida namoyon bo‘ladi; ma’lum darajada uning dunyoqarashi va kreativligiga asoslanadi. Ijtimoiy faollikni o‘rganish va shakllantirish bu nafaqat jamoat ishlarida faollik ko‘rsatish, balki yangilik qilish,kreativ fikrlash, sifatli ta’lim olish va amaliyotga tadbiq etishdir. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi yoshlarning ijtimoiy faolligisiz amalga oshmaydi. Shu bois, “Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, yangi innavatsiyalar asosda rivojlantirish,

ko‘p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas’ulyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan g‘ayrat-shijoatli, inntelektual salohiyatli ,yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirilganligi, biz yoshlar uchun ulkan imkoniyat .

Bularning barchasi bo‘lg‘usi mutaxassislarda faollikni shakllanishi yoshlarimizda Vatanga muhabbat, o‘zi tanlagan kasbni ardoqlash, sidqidildan va halol mehnat qilish ruhida tarbiyalanganlik samarasi hisoblanadi va Yangi O‘zbekiston yoshlarining bugungi kunda bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari hamda imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanib kamol topishlariga turtki bo‘ladi.

ZJV5401

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK IMKONIYATLARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Shaxlo ABUBAKIROVA,
Nizomiy nomidagi TDPU pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Inson bioijtimoiy mavjudot bo‘lib, uning ijtimoiy mohiyatini bilim tashkil qilar ekan, kishi bilimlar turini o‘z maqsadidan va tanlangan kasbidan kelib chiqib, kuchi etgan hajmda jamlaydi. Umri davomida yig‘gan bilimlarining majmui uning ijtimoiy mohiyati deyiladi. Insonning ijtimoiy mohiyati jamiyat talablariga mos ravishda shakllantiruvchi soha ta’limi tizimi bo‘lib, uni amalga oshiruvchi shaxs o‘qituvchi yoki muallim deyiladi. O‘z oldiga yosh avlodni tarbiyalashni maqsad qilib olgan kishining ijtimoiy mohiyati, ya’ni o‘qituvchi-muallimlarning ijtimoiy sifatlari qanday bo‘ladi? degan savolga quyidagicha javob qaytarish mumkin.

O‘qituvchi-muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga a’zal-a’zaldan e’tibor qaratilib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo‘yiladigan talablar takomillashib murakkablashib boravergan. Biz g‘aroyib davrda yashayapmiz: atrofimizdagi olam juda tez sur'atlarda, tanib bo‘lmas darajada o‘zgaryapti. Shuning uchun o‘sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o‘qituvchi quyidagilarga tayyor bo‘lishi kerak:[1,79]

O‘zgarish. Bu eng qiyini, biroq, to‘laqonli shaxs sifatida ta’lim jarayonida o‘zini namayon qilish uchun zarur bo‘lgan shart.

O‘z xatolarini tan olish. Hech narsa qilmagan kishigina xato qilmaydi. O‘qituvchi esa bundaylar toifasiga kirmasligi aniq. Shu sababli qilgan xatosini tan olish ham mardlik hisoblanadi.

Rivojlanish. Agar jahon sur’ati bir necha avlodlar davomida o‘zgarmagan bo‘lsa, hozirda u shu qadar tez sur’atlarda rivojlanyaptiki, o‘z joyida qotib qolmaslik uchun “oyoqni qo‘lga olib yugurish kerak”. Bu holatdagina faqat bir narsani aniq aytish lozim o‘z ustida tinimsiz ishlash shart.

O‘qituvchi zamonaviy o‘quvchilar nima bilan yashayotganini ham tushunishi kerak. Bundan tashqari, o‘qituvchi zamonaviy o‘quvchilar boshqacha ekanini yodda tutishi lozim. Ular internetda yashashmoqda, ularda katta odam madaniyati yo‘q. Foyda keltirish va o‘z mehnati mahsulidan bahra olish uchun zamonaviy muallim va o‘qituvchilar

quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi kerak.[3,63]

1. Bolalarga hurmat

Odatda “O‘qituvchi bolalarni yaxshi ko‘rishi kerak” deyishadi. Biroq bu fikr juda mavhum va turli talqinlarga sabab bo‘lishi mumkin. Axir yaxshi ko‘rish tushunchasi juda ko‘p qirrali. Hurmat tushunchasi bilan bari oddiy. O‘quvchini hurmat qilish – demak, unda oppoq qog‘ozni emas, shaxsni ko‘rish demakdir. Siz bola shaxsni ko‘rib, ushbu shaxs etuk inson bo‘lishiga o‘zingizni hamda bolani ham ishontira olishingiz lozim.

2. Tolerantlik

Insonlarning hammasi turlicha. Hamma turicha tarzda fikrlaydi. Hech kim bir biriga o‘xshamaydi. Ba’zida esa bu holat bizga yoqmaydi: o‘zgacha qarashlar, o‘zgacha fikrlar, o‘zgacha dunyoqarash har bir bolada turlicha tavsiflanadi.

Kutilmagan va original takliflarga tayyor turish lozim. Agarda o‘quvchi guruhda yagona to‘g‘ri javob berish mumkin bo‘lmagan holda antiqa javobini bersa, uni darhol seni fikring noto‘g‘ri deb tavsiflash yaramaydi. Ular standart javoblarga qaraganda ko‘proq mos keladigan bo‘lishi mumkin. Hozirgi zamon yoshlari kattalar kabi “qolipga tushib qolgan fikrlar” bilan o‘ylashmaydi, shuning uchun erkin fikrlashadi.

O‘quvchining o‘zgacha bo‘lish huquqini tan oling. Balki siz yangi Eynshteynni kamol toptirayotgandirsiz. Uning ilm-fanga bo‘lgan salohiyatini olshiring.

3. O‘qituvchi o‘zining bilim berish jaroyonini ota-ona nigohida xizmat ko‘rsatayotganligini tushunishi. Ko‘pchilik ota-ona nigohda o‘qituvchi bilim berishga majbur bu uning ishi sifatida qarashi aniq holat. Lekin “O‘qituvchi” so‘zi iftixor bilan jaranglaydi. U shunchaki bilim berish uchun majbur shaxs sifatida qaramasligini balki u farandining kelajagi uchun poydevor quruvchi obro‘li timsolni ko‘rish lozim. Balki gap obro‘dadir..

4. Haqiqiy narsalar bilan hurmatga ega bo‘lishga tayyor turish

Balandparvoz so‘zlar, buyruq ohangi bilan zamonaviy bolada taassurot uyg‘ota olmaysiz. Bari “gamburg”cha hisob-kitob bilan bo‘lishi kerak: yaxshi o‘qituvchi o‘z fanini yaxshi biladi, uning foydasini tushuntira oladi va materialni qiziq qilib etkazadi. Qo‘rqitish – befoyda. Hozirgi bolalar avvalgi odamlar qo‘rqqan narsalardan hadiksirashmaydi.

5. Chegarani his qilish

Bu ruhiy chegaralarga (“ko‘ngilga tegmaslik”) ham, shaxsiy bilimlarga ham tegishli. Axir bolalar ba’zi jihatlarda o‘qituvchilarga nisbatan ko‘proq narsalardan boxabar.

6. O‘z vazifasini tushunish

O‘qituvchi “Google” qidiruv tizimida topish mumkin bo‘lmagan foydali bilimlarni berishi kerak (agar aksi bo‘lsa, u vaqtini bekorga sarflayapti).

7. O‘z-o‘zini tanqid qilish

Agar o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qilib, uni qanday rivojlantirish haqida o‘ylasa, u ko‘p narsaga erishadi. Hamma ham adashishi mumkin. Katta amaki va xolalar ham bundan mustasno emas. O‘qituvchi buni qancha tez anglasa, shuncha yaxshi.

O‘qituvchi qanday ajib so‘z bu, har bir bola o‘qib, ta’limga katta e’tibor beriladigan bizning yurtimizda o‘qituvchi eng buyuk odam. Bolalarimizning, xalqimizning kelajagi o‘qituvchining qo‘lida, uning bebaxo qalbidadir. Ushbu yuqorida o‘qituvchilarga qo‘yilgan talablar asosida ijtimoiy faol o‘qituvchi shaxsini shakllantirib va rivojlantira olamiz.

Bizning mustaqil demokratik jamiyatimiz o‘qituvchiga eng aziz, eng qimmatli bo‘lgan bolalarni, o‘z umidini, o‘z kelajagini ishonib topshiradi. Bu g‘oyat oliyjanob va juda qiyin kasb, astoydil o‘z umrini shu kasbga bag‘ishlagan kishidan doimiy ijodkorlikni, tinimsiz fikrlashni, zo‘r qalb saxovatini, bolalarga mehr muhabbatini, ishga astoydil sadoqatni talab qiladi. O‘qituvchi o‘zining yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi fidokorona, ma’rifatparvarlik mehnati bilan xalqning chuqur minnatdorchiligi va hurmatini qozonadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гоноболин Ф.Н. Книга об учителе. М. 1965.
2. «Xorijda ta’lim». J. Yo‘ldoshev. T-1996 yil.
3. Yunusov T. Yosh o‘qituvchilar bilan ishlashni takomillashtirish yo‘llari.
4. Toshkent-o‘qituvchi 1990-yil.
5. Митина Л. М. Психология личностно-профессионального развития субъектов образования. — М.; СПб.: Нестор-История, 2014. – 376 с.
6. Николаева А.Г. Развитие социальном активности старших дошкольников в образовательном пространстве дошкольного учреждения, автореферат, 2018
7. R.Mavlonova, O.Turayeva .Pedagogika. T., “O‘qituvchi”, 2006.
8. A.Munavvarov. Pedagogika. T., “O‘qituvchi”, 1996 y, 187 b.

YOSHLARNING ODAM SAVDOSI QURBONIGA AYLANIB QOLISHLARINING IJTIMOIY SABABLARI VA BARTARAF ETISH OMILLARI

Nodirbek UMAROV,
Navoiy davlat pedagogika instituti
yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari

Gulzora MURODOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti doktoranti

Noshukur ayolning orzu-havasi. Bir necha yillik osuda turmush, nabiralar hali kichkina bo‘lganligi uchun uyni tutgan shodon qiyqiriqlar. Erni maoshi yaxshi, ro‘zg‘orni tebratishga bemalol yetadi. Qaysidir bir ayollar “gapi”da yaqinda chet eldan qimmatbaho taqinchoqlarga burkanib kelgan dugonasini ko‘rgan xotinni ichida havasmi, hasadmi uyg‘onadi. Er ishdan kelganda esa xotinning noshukurlik qilishi boshlanadi: “Necha yildan buyon oddiy ishchisiz. Maoshiz ro‘zg‘ordan ortmaydi. O‘g‘limizni o‘qitdik, ishga qo‘ydik, ammo juda kam pul topadi. Uning tengdoshlari pul ustida “o‘ynaydi”. O‘g‘limiz bo‘lsa… To‘yimda qilingan uzuk-ziragimdan boshqa taqinchog‘im yo‘q. Axir mening dugonalarimdan qayerim kam? Dugonam chet elda ishlaydi, aytishicha u yerda ko‘p pul topish oson ekan. Gap tamom, o‘g‘limizni chet elga ishlagani yuboramiz, dugonam unga ish topib berar ekan. Biz tezda boyib ketamiz”.

Osuda va halovatda o‘tayotgan fayzli ro‘zg‘origa noshukurlik qiladigan bunday ayollar, hom-hayol bilan mol-dunyo tashvishiga tushib, o‘z turmush o‘rtog‘i, o‘g‘illariga nomaqbul diydiyolar qilishi ortida ularni odam savdosi bilan shug‘ullanadigan manfur shaxslar changaliga tushib qolishiga sabab bo‘layotganliklarini hech o‘ylab ko‘rarmikan. Albatta, o‘ylab ko‘radi faqat unda kech bo‘ladi. Chet ellarda odam savdosi qurboniga aylanib, sarson sargardon, ming bir azob uqubatda o‘z yurtiga hech vaqosiz va hatto yarim jon holatda qaytib kelgan o‘g‘il onasiga taqinchoq olib berish tugul endi avvalgidek o‘z ro‘zg‘orini tebratishga ham yaramaydi. Qaytmaganlarchi? Ya’ni tazyiqlarni ko‘torolomay yoki og‘ir ish sharoitida, antisanitariya holatidagi joylarda yashashga majbur bo‘lib turli bedavo kasalliklarga chalinishi natijasida o‘zga elda vafot etganlar qancha. So‘ngi pushaymon o‘ziga dushman bo‘lmasidan oldin yurt onalari bu haqida chuqur o‘ylashlari kerak. Axir, halovatdan halokatga yo‘l noshukurlikdan boshlanadi.

G‘o‘r yoshlarning orzu havasi. Odam savdosi yosh va jins tanlamaydi.

ZJV5401

Biroq bugungi hisob kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki asosan yoshlar va ayollar bu illat qurboniga aylanib qolishmoqda. Odam savdosi qurbonlari ko‘pincha jinsiy ekspulatatsiya, majburiy mehnat, ko‘chalarda tilanchilik qilish, tana a’zolarinini transplantatsiya qilinishi kabi zamonaviy qullik holatlariga uchramoqda. Bu esa har qanday davlatni qashshoqlashuvi, inson huquq va manfaatlarining poymol etilishiga olib keladi. Odatda, yoshlardagi ma’naviy qashshoqlik, fikrlash pozitsiyasining zaifligi, ular psixologiyasidagi eng zararli komplekslardan biri bo‘lgan oson va tez boyishga bo‘lgan ulardagi intilish kabi jihatlar odam savdosi qurboniga aylanib qolishlariga sabab bo‘lmoqda. Odam savdosi bilan shug‘ullanadigan nobakorlardan tezda mashinali, dang‘illama uy-joyli bo‘lishing mumkin, chet elda ishlab bir zumda boyib ketasan degan quloqqa yoqadigan gaplarni eshitgan yoshlarning hammasi ham “Har yerni qilma orzu, har yerda bor tosh-tarozu” degan naqlga amal qilavermaydi. “Odamfurush” manfurlarning gapiga ishonib adashganlari ham bor.

Shu o‘rinda bir masal yodga tushadi: “Bir kuni o‘rgimchak kapalakka xitob qilibdi, yur inimga seni mehmon qilaman. Tekin mehmondorchilikka o‘rgangan kapalak o‘rgimchakning iniga kiribdiyu u yerdan qaytib chiqmapti”. Javobi oldindan ma’lum savol tug‘iladi, qanday qilib o‘rgimchak kapalakka do‘st bo‘lishi, uni mehmon qilishi mumkin? “Odamfurushlar” ham xuddi shunday odam ko‘rinishidagi o‘rgimchaklardir. Bu tuban kimsalar kuch quvvatda sobit ammo keng dunyoqarashga ega bo‘lmagan yoshlarni hayotiga go‘yo qutqaruvchi rolida kirib kelib, turli sovg‘alar berishi, savob yo‘lida beg‘araz yordam niqobi ostida pul in’om etishi orqali ular ishonchiga kiradi. Bu esa ular tomonidan yoshlarni o‘z changaliga ildirish uchun qo‘yilgan birinchi qadamdir. Xalqimizda bir ajoyib maqol bor: “Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur?”. Keyingi qadamda hatto ishlab boyib ketganda qaytarishi sharti bilan xorijga chiqish uchun o‘z cho‘ntaklaridan chiptaga qarz ham berishadi. Zero, Aleksandr Fyurstenberg ta’kidlaganidek: “Agar timsoh dushmaningni yeb qo‘ysa, bu hali uning senga do‘st bo‘ldi degani emas”. Odam savdosi bilan shug‘ullanadiganlar tomonidan serdaromad ish topib berish niqobi ostida aldab, kerak bo‘lsa qo‘shni davlatlar orqali viza olib, tranzit usulda ayrim yoshlarni uzoq xorijiy davlatlarga olib chiqib ketish holatlari, taassufki, hali-hanuz uchrab turibdi. Yana bir ayanchli tomoni shundaki g‘arb davlatlarida mardikorlik qilayotganlar orasida aroqxo‘rlik, qimor o‘ynash, pichoqbozlik, foxishabozlik kabi illatlar tobora ular uchun “odob-axloq” tusiga kirib boryapti. Bu esa yaxshi axloq va tarbiya ko‘rib o‘sgan yoshlarning ijtimoiy muhit ta’sirida vatanga bezori, piyonista,

axloqsiz bo‘lib qaytishlarini kafolatlaydi.

Odam savdosiga qarshi ommaviy kurash. Shukurki hukumatimiz tomonidan Mamlakatimizda odam savdosiga qarshi kurashish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada qonunchiligimizning o‘rni va ahamiyati juda katta. Jumladan, 2008-yil 17-aprelda qabul qilingan “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni, 2019-yil 30-iyuldagi “Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning PF-5775-son farmoni odam savdosiga qarshi kurashishning huquqiy asosini va mutasaddi tashkilot va idoralarning faoliyatini belgilab bermoqda. Odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish masalalariga oid milliy qonunchiligimizda juda katta o‘zgarishlar qilindi. Xususan, 2019-2020 yillarda mazkur yo‘nalishlardagi faoliyatni tartibga solish maqsadida 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bundan tashqari, XMT va Xalqaro migratsiya tashkilotining 6 ta Konventsiya hamda protokollari ratifikatsiya qilindi. Bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo‘l qo‘yilganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi hamda Jinoyat kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritildi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.

Shuningdek, “Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanishga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konventsiya (1949 yil), “Qullik va qul savdosini, qullikka o‘xshash institutlar va odatlarni bekor qilish to‘g‘risida”gi qo‘shimcha Konventsiya (1956 yil), “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash haqida”gi Konventsiyani to‘ldiruvchi “Odamlar, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosini to‘xtatish, oldini olish va uning uchun jazo to‘g‘risida”gi bayonnoma (2000 yil) kabi xalqaro huquqiy hujjatlar ham mavjud bo‘lib, ularning ham asosiy vazifasi odam savdosiga qarshi kurashishdir.

Shu bilan bir qatorda xalqimizda va fuqorolarimizda ham doimiy bu illatga nisbatan hozirgidek ommaviy kurashish ruhi bo‘lishi kerak. Ayniqsa, yoshlar bu safda oldingi qatorda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun yoshlar bir narsani hech qachon yodidan chiqarmasligi kerak: “Bizning hayotga bo‘lgan nazarimiz teatr durbiniga o‘xshaydi, narsalarning katta yoki kichik bo‘lib ko‘rinishi uning qaysi tarafidan qarashimizga bog‘liq”. Har xil yolg‘onlarga ishonmaslik, axir u yerni ariqlarida “pullar oqadi”, boylik, mol-dunyoga “cho‘milasan” degan

aqlga sig‘mas, mantiqsiz gaplarga uchmasliklari lozim. Konfutsiydan ham shogirdlari: “Agar sizni qo‘shinga qo‘mondon qilib yuborsalar, o‘zingiz bilan kimlarni olar edingiz?” – deb so‘rashganida Konfutsiy: “Men yo‘lbarsga quruq qo‘l bilan tashlanadigan yoki daryo ko‘rsa, suvga kirib ketaveradigan, hech o‘ylab-netib turmasdan o‘zini qurbon qiladiganlarni aslo yonimga yaqinlashtirmasdim. Harakat qilish paytida o‘ta ehtiyotkor, yetti o‘lchab bir kesadigan, muvaffaqiyat qozonish yo‘lini o‘ylab topishga qodir bo‘lganlarnigina o‘zim bilan olgan bo‘lardim” – deya javob bergan ekan. Keng dunyoqarash, ilm-u adab, mehnatsevarlik, yuksak tafakkur, izlanuvchanlik va kreativ fikrlash kabi hislatlarga ega har bir yosh o‘z ona diyori, o‘z mustaqil jamiyatida albatta o‘z o‘rnini topadi. Bunday xislatlarning kimdadir mavjud emasligi ayb emas, aksincha ularni o‘zida shakllantirish uchun harakat qilmaslik ayb, aslida. Zero, donolar aytganidek “Eng aqlli odamlar va eng axmoqlargina o‘zgarmaydilar”. Aqllilar o‘z istiqbolini o‘ylab xato qilmaslik, noto‘g‘ri qaror qabul qilib qo‘ymaslikni maqbul ko‘rib o‘z pozitsiyalaridan o‘zgarmaydi, axmoqlar esa mulohaza qilib ko‘rmasdan sabrsizlik boshini tutib, har xil aldovlarga ishonadi va hayotini doimiy izdan chiqarib, barbod qilib borishda davom etadi xullas u ham o‘zgarmaydi.

Yurtimiz tinch, halol mehnat qilib yaxshi yashayman, degan odam uchun hamma imkoniyat bor. Kishini hayron qoldiradigan jihati, o‘z yurtida ishlab pul topishga eringan odam o‘zga elda nimani qoyillatar ekan.

Xulosa qilib aytganda, o‘z vatani va oilasini qadrlaydigan aziz yurtdoshlar, farzandlari ta’lim-tarbiyasini muhim deb biladigan ota-onalar, o‘z kelajagi va salomatligiga befarq bo‘lmagan navqiron yoshlar, kimlarnidir xorijdan sizga ish topib beraman, tezda boyib ketasiz degan takliflarini chuqur mulohaza bilan o‘ylab ko‘ring, har bir gaplarini aql tarozingiz bilan o‘lchang, soxta yolg‘onlariga ishonmang, shunda odam savdosi qurboniga aylanib qolmaysiz.

RAQAMLASHGAN JAMIYATDA VA YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGI

Kimyoxon KAMOLOVA,
TDPU "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

Keyingi paytlarda raqamlashgan jamiyat, raqamlashgan iqtisodiyot, raqamlashtirilgan ta'lim kabi iboralar ko'p ishlatilmoqda. Xo'sh, raqamlashgan jamiyatning qanday afzallik tomonlari bor? Raqamlashgan jamiyatda insonning o'rni va ahamiyati nimalardan iborat? Raqamlashtirish bugungi yangi taraqqiy qilayotgan O'zbekiston uchun qanday zaruriyatga ega? Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda uning o'rni qanday? O'tgan asrlardan boshlab insoniyatning postindustrial jamiyatga o'tishi globallashuvning keskin darajada oshishiga, inson faoliyatining barcha sohalarida axborotning rolini oshirish bilan bog'liq jarayonlarda namoyon bo'ldi. Axborot texnologiyalarining keskin rivojlanishi nafaqat ishlab chiqarishda, balki insonning kundalik hayotida ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Raqamli texnologiyalari kishilar hayotining ko'p jabhalarida axborot mahsulotlari va kommunikatsiyalar sohasiga o'tishga imkon yaratib berdi. O'zbekistonda shu munosabat bilan jamiyat nafaqat axborotlashgan, balki raqamli jamiyat bo'lib qoldi. Jamiyatni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish borasida raqamli transformatsiya alohida ahamiyatga ega. Buni anglab yetgan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev raqamlashtirish siyosatiga e'tibor qaratib, amalga oshirilayotgan islohotlarda haqiqiy axborotlashgan jamiyatni barpo etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ni rivojlantirish va raqamlashtirishga 2000 yillarning boshlaridanoq ahamiyat berila boshlandi. Bu borada hukumat qarorlari va Farmonlar, chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqildi. Jumladan, "2013-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi", "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" va "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" kabi normativ hujjatlar qabul qilinib, ularda milliy iqtisodiyot, sanoat, ijtimoiy soha, ta'lim va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Jamiyatni raqamlashtirish fuqarolarga qanday yengilliklar olib keladi? Birinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayonlarni tezlashtiradi; fuqarolarning hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlar bilan uchrashuvlari va murojaatlarida yengilliklar yaratadi; uchinchidan, hayot sifatini yaxshilaydi; to‘rtinchidan, ish unumdorligini oshirish va mehnat sharoitlarini yengillashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Raqamlashgan jamiyatning yana eng muhim xususiyatlaridan biri shuki, bu korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali usulidir. Chunki, raqamlar hamma narsani aniq ko‘rsatadi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma’lumotlarni taqdim eta oladi. Bunday sharoitda biron ma’lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish(kelishish), u yoki bu faoliyat haqida to‘liq axborot bermaslik(kamchiliklarni yashirish)ning iloji yo‘q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo‘yadi. Ma’lumotlarning tizimliligi yolg‘on va qing‘ir ishlarga yo‘l bermaydi, chunki tizimni aldashning imkoni yo‘q. Natijada poraxo‘rlik, mablag‘larni samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko‘rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa jamiyatning barcha sohasida shaffoflik bo‘lishiga olib keladi, misol uchun, ijtimoiy sohaga yo‘naltirilgan mablag‘lar o‘g‘irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo‘llarga ajratilgan pullar to‘liq yetib boradi va hokazo.

Bundan tashqari, raqamlashtirilgan jamiyat odamlarni bilim olishga undaydi. Chunki, global axborot makonida odamlarning axborot bilan o‘zaro ta’siri kuchayadi; ularning jahon axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengayadi; axborot mahsulotlari va xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlari qondiriladi, elektron hukumat, raqamli bozorlar, elektron ijtimoiy va iqtisodiy tarmoqlar rivojlanadi, ta’lim sohasidagi yangiliklar shiddat bilan yoyiladi.

Hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan global o‘zgarishlar, axborot texnologiyalarning jadallashuvi kelgusida mexanik hamda jismoniy mehnat o‘rnini robototexnika egallashi mumkinligidan darak bermoqda. Shuning uchun raqamli texnologiya bo‘yicha strategiya ishlab chiqish, raqamli ko‘nikmalarni ommaviy shakllantirishni ta’minlash dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Yoshlar yangi kasblar, turli texnologiyalardan foydalanish, kompyuterlar, internet, katta miqdordagi raqamli ma’lumotlarga ishlov berishga tayyor turishi kerak. Odamlar o‘z faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga tayyor turishlari lozim, bularning barchasi esa bilimni talab etadi.

Xo‘sh, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotan, axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta’lim tizimida o‘qitish jarayoni qanday tashkil qilinmoqda? Oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish

ZJV5401

va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Chunki, o‘qitish jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish va keng dunyoqarash va yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish borasida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullardan foydalanish bugungi kun talabidir.

2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonda aynan shu raqamli texnologiyani rivojlantirish va masofaviy ta’limni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim samaradorligi imkoniyatlarini rivojlantirish, mehnat bozorida yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish vazifalari ilgari surildi. Bu borada bir qancha amaliy islohotlar olib borildi va bugungi kunga qadar olib borilmoqda.

Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

Raqamli ta’limni tushunadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish va bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha shart-sharoit hamda imkoniyatlar yaratish;

Oliy ta’lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik (PhD, ScD) dissertatsiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma’lumotlar elektron bazasini yaratish;

masofaviy o‘qitishning didaktik imkoniyatlarini nazariy-metodik asoslash;

Zamonaviy axborot-kommuniksiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash;

Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

Tinglovchilar ham kamida kompyuter va internet bilimlaridan xabardor bo‘lishini ta’minlash.

Ta’lim tizimiga raqamlashtirish jarayonining kirib kelishi ya’ni, noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining kengayishi ta’lim jarayonining samarali bo‘lishiga olib kelmoqda. Ta’lim oluvchining bilimlarni o‘zlashtirishi an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash,

shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar orqali talabaga ta’lim berilganda ta’lim oluvchiga ham, o‘qituvchiga ham darsni tashkil qilish usullari osonlashadi. Bunda esa ta’lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, proyektorlar, telefon liniyalar, smart doska, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, bajarib beradi. O‘qituvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg‘ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi.

Agarda raqamli ta’limda samarali foydalanilganda qanday yutuqlarni qo‘lga kiritish mumkin:

talaba xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi;

vaqt va mablag‘ sarfini keskin kamaytiradi;

internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;

ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi;

o‘qituvchilarga internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish imkoniyati tug‘iladi;

ta’lim beruvchilarni o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi va boshqalar;

Raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo‘lmoqda: masalan, ta’lim sohasida virtual o‘quv muhiti va masofaviy ta’limning ta’minlanishi talabalarga boshqa imkoniyatga ega bo‘lmagan dasturlarda qatnashish imkonini berdi.

Raqamlashtirish yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratib, ma’lumotlar yig‘ish va tahlil qilish, o‘zaro hamkorlik va muloqot qilishni osonlashtirdi. Raqamlashtirishning afzalliklari samaradorlikni oshirish, yoshlar faolligini oshirish, shaxsga qaratilgan ta’lim va yangi o‘qitish usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Onlayn ta’lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar kabi raqamli vositalardan foydalangan holda universitetlar o‘quvchilarni motivatsiya va yo‘lda ushlab turadigan interaktiv hamda qiziqarli ta’lim tajribalarini yaratishi mumkin. Bu esa yoshlarning ta’lim borasida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini ko‘tarish, ularda zarur kompetensiyalarni shakllantirish ijtimoiy faolligini oshirishga ham sabab bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta’lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga, zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi, bu birinchidan.

Ikkinchidan, raqamli ta’lim ta’lim samaradorligini oshirishga, onlayn ta’lim orqali mavjud vaqt va byudjetning tejalishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ta’lim muassasalarida o‘quv faoliyatini boshqarishda shaffoflikka erishishga, interfaol kontentlar yaratishga olib keladi.

To‘rtinchidan, o‘quvchi va talabalarda o‘qishga, izlanishga bo‘lgan motivatsiyaning oshishiga sabab bo‘ladi.

Beshinchidan, yoshlarni jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarga o‘z fikrini bildirish, dunyoqarashining kengayishiga olib keladi.

Umuman olganda, uchinchi Renessans ostonasida turgan Yangi O‘zbekiston uchun, unda faoliyat olib borayotgan fuqarolari uchun raqamli jamiyat judayam zarur. Faqatgina buning uchun barcha korxona va tashkilotlarda Internet tezligini oshirish, uning narxini pasaytirish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash masalalarini ham tahlil qilib ko‘rish lozim. Aksincha esa mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan islohotlar katta samara bermasligi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi qarori loyihasi, ID-9413-son, O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi, 24.02.2020 y.

2. Belokrilova O.S., Alexin V.V., Ipatova A.V., Kiryakov A.G., Mirgorodskaya Ye.O., Svoyevolin V.Yu. Teoriya innovasionnoy ekonomiki (uchebnik). Mejdunarodnыy jurnal eksperimentalnogo obrazovaniya, 2010 god, № 3.

3. Ismailova N. Raqamli iqtisodiyot ta’rifi, konsepsiyasi va uning ko‘lamini o‘lchash // BIZNES-EKSPERT №11 (143)-2019

YOSHLARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI OSHIRISHDA DAVLAT VA NODAVLAT TUZILMALARINING ROLI VA O‘RNI

Farhod HOJIYEV,
O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi,
O‘zMTRK “O‘zbekiston 24” telekanali bosh muharriri

Yoshlar – mamlakatning taraqqiyoti, uning kelajagini belgilab beruvchi asosiy inson resursi, muhim ijtimoiy qatlam. An'anaviy va zamonaviy jamiyatdagi transformatsiyalarning muhim ishtirokchisi. Jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi, jarayonlarga daxldorlik hissini oshirish orqali ko‘zlangan natijalarga erishiladi. Buning uchun ushbu yo‘nalishdagi davlatning aniq siyosatini belgilab olishi lozim. Ma’lumki, 2016 - yil 14 - sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi[1] . Mazkur qonunda yoshlar huquq va manfaatlari himoya qiluvchi, ijtimoiy faolligini ta’minlovchi, yoshlar bilan bevosita ishlovchi tuzilmalar faoliyatini belgilab beruvchi normalar, shuningdek davlatning tegishli majburiyatlar aniq belgilab berildi. Ushbu qonunda belgilangan maqsad va vazifalarni hayotga izchil tatbiq etadigan kuchli ijroiya organni tashkil etishga zarurat bor edi.

Prezident Sh.Mirziyoyev 2017- yil 30- iyun kungi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatiga quyidagicha baho bergandi[2]: “bundan 16 yil oldin, ya’ni 2001-yilda tashkil etilgan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati o‘tgan davr mobaynida yoshlar hayotiga kirib borib, ularning ma’lum bir qismini o‘z atrofida birlashtirishga, o‘z Dasturi va Ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni imkon darajasida bajarishga harakat qilib kelmoqda. Mohiyat e'tibori bilan yoshlarning haqiqiy tayanchi va suyanchi bo‘lishi zarur bo‘lgan «Kamolot» harakati faoliyatida jiddiy kamchilik va nuqsonlar ko‘zga tashlanmoqda.

Birinchidan, «Kamolot» butun O‘zbekiston yoshlarini birlashtirgan, tom ma’nodagi ommaviy harakatga aylana olmadi. U asosan o‘z atrofida Harakat faoliyatiga xayrixoh bo‘lgan yoshlarni uyushtirib, faqat ularni qiziqtirgan masalalar yuzasidangina ish olib bordi. Natijada yoshlarning keng qatlamlariga taalluqli bo‘lgan dolzarb masalalar, avvalo, yoshlarning bandligini ta’minlash, ularni katta maqsadlar sari safarbar etish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, qisqacha aytganda, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘zini haqiqiy yoshlar tashkiloti sifatida ko‘rsata olmadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi vaqtda

«Kamolot"ning 4 millionga yaqin a’zosi bor. Bu mamlakatimizdagi 10 milliondan ziyod yigit-qizlarning 40 foizini tashkil etadi.

Bir qarashda, 4 million - salmoqli raqam bo‘lib ko‘rinadi. Lekin xolisona aytganda, tashkilotga a’zolik ko‘p hollarda faqat qog‘ozda mavjud, amalda esa aksariyat a’zolar «Kamolot» to‘g‘risida aniq tasavvurga ega emas, uning maqsad va vazifalarini bilmaydi, o‘z yetakchilarini tanimaydi, Harakat faoliyatida ishtirok etmaydi. Natijada yurtimizdagi minglab yoshlar, ayniqsa, qishloq joylarda nafaqat «Kamolot"ning, ayni vaqtda davlat va jamiyatning e'tiboridan chetda qolmoqda. Ular bilan hech kim deyarli shug‘ullanmayapti, ular o‘z holiga tashlab qo‘yilgan, desak, achchiq haqiqatni tan olgan bo‘lamiz. Buning oqibatida uyushmagan, ya’ni, ishlamaydigan, o‘qimaydigan, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmagan, salbiy ta’sirlarga beriluvchi yoshlar soni ortib bormoqda. Yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etish, diniy ekstremistik oqimlarga, terrorchi guruhlarga qo‘shilib qolish holatlari ko‘payib borayotgani kuzatilmoqda. 2016- yilda yoshlar ishtirokida 1 million 740 mingga yaqin huquqbuzarlik, 23 ming 440 ta jinoyat sodir etilgani, yosh oilalar o‘rtasida 8 mingdan ortiq ajralish holati qayd etilgani barchamizni jiddiy tashvishga solishi kerak".

2017-yilda Davlatimiz yetakchisining tashabbusi bilan mamlakatimizda yoshlarning chinakam suyanchi va tayanchi bo‘la oladigan mutlaqo yangi tashkilot - O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi[3] .

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi rahbari o‘sha paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati bo‘yicha davlat maslahatchisi lavozimida faoliyat olib borishini huquqiy asosda belgilab qo‘yildi. Shu bilan birga, u Prezident farmoniga binoan Oliy Majlis Senati a’zosi etib tayinlandi.

Tashkilotning Qoraqalpog‘istondagi kengashi raisi Respublika Jo‘qorg‘i Kengesi raisining, viloyat, tuman va shahar bo‘linmalarining rahbarlari esa tegishli hokimlarning yoshlar siyosati bo‘yicha maslahatchilari etib tayinlandi.

Xullas, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining rahbarlariga katta maqom va vakolat berildi. Umumta’lim maktablaridagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlash uchun «Kamalak» bolalar tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, yosh tadbirkor va fermerlar bilan ish olib boradigan Yoshlar tadbirkorligi va fermerlikni qo‘llab-quvvatlash markazi, iste'dodli va ijodkor yoshlar bilan ishlash uchun Yoshlar tashabbuslari markazi kabi tuzilmalar ham tashkil etilgan.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyat yuritayotgan va kelajakda

tuziladigan yoshlar tashkilotlarining barchasini birlashtirib, ularga nafaqat moliyaviy, moddiy-texnik nuqtai nazardan, avvalo, g‘oyaviy-uslubiy, ma’naviy jihatdan amaliy yordam ko‘rsatadigan, ularning ishini muvofiqlashtiradigan asosiy tashkilot sifatida faoliyat olib borishi belgilab qo‘yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish nainki Prezident devoni, balki barcha bo‘g‘indagi davlat organlari rahbarlarining doimiy ishiga aylanishi belgilandi. Qonunchilik palatasi Spikeri va Senat Raisidan tortib, Bosh vazir va uning o‘rinbosarlari, Bosh prokuror, vazirlik va idoralar, kompaniya va xo‘jalik birlashmalarining rahbarlarigacha markazda va joylarda har bir soha bo‘yicha yoshlar bilan uchrashib, doimiy muloqot olib borish tartibi joriy etildi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining joylardagi kengashlari raislari va faollari albatta saylovlarda ishtirok etib, xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanishi belgilandi. Bundan tashqari, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi davlat va jamiyat uchun rahbar kadrlarni tayyorlab beradigan o‘ziga xos markaz bo‘lishi, yoshlar uchun «sotsial lift» vazifasini bajarishi va bilimli, tashabbuskor va tashkilotchi, fidoyi yosh rahbarlarning kadrlar zaxirasini yaratish tizim shakllantirildi. Shu maqsadda Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tashkil etildi[4] .

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkilotlarida o‘zini ijobiy jihatdan ko‘rsatgan xodimlar Davlat boshqaruvi akademiyasida bilim va malakasini oshirib, hokimlik va vazirliklar tizimida rahbarlik lavozimlari uchun asosiy nomzodlar qilib tayyorlanishi belgilandi.

Hamma hududlarda tashkil etilayotgan iqtisodiy zonalarda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining a’zosi bo‘lgan yosh tadbirkorlardan ijara haqi olinmaydigan tartib joriy etilgan. Shuningdek, tegishli iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobidan O‘zbekiston yoshlar ittifoqining byudjet mablag‘larini ikki barobar ko‘paytirilgan.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari maktablar 11 yillik majburiy o‘rta ta’lim tizimiga o‘tish munosabati bilan bo‘shab qolgan kollej ustaxonalari negizida yoshlarni, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni 6 oygacha bo‘lgan muddatda kasb-hunarga bepul o‘qitish markazlari tashkil etildi.

Yoshlar ittifoqining faol a’zosi bo‘lgan, bakalavriat va magistratura talabalariga o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 86 foiz va undan yuqori bo‘lgan taqdirda ta’lim bo‘yicha shartnoma to‘lovi miqdorining 35–40

ZJV5401

foizini tashkilot hisobidan to‘lab berish yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tizimida 3−5 yil va undan ko‘proq faol ishlab kelayotgan, ipoteka krediti asosida uy-joy sotib olish istagini bildirgan xodimlarning har yili 140 nafariga 25-30 foiz miqdoridagi boshlang‘ich to‘lov tashkilot mablag‘lari hisobidan to‘lanishi belgilandi.

Viloyat va tuman hokimlarining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlanish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari, tuman ichki ishlar bo‘limi boshliqlarining yoshlar bo‘yicha o‘rinbosarlari O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tavsiyasi bilan lavozimga tayinlanishi tartibi belgilandi.

O‘zMTRK «Yoshlar» teleradiokanalining 50 foiz aktsiyasi O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga berildi. Uning direktori mazkur tashkilot Markaziy kengashi tomonidan lavozimga tasdiqlanishi qayd etildi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida yoshlar press klubi ochildi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Internet tizimi orqali ma’naviy targ‘ibot ishlarini, jumladan, elektron kitobxonlikni kuchaytirishi choralari ko‘rildi.

Yoshlar o‘rtasida kitobxonlik saviyasini oshirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida har yili «Eng kitobxon maktab», «Eng kitobxon mahalla», «Eng kitobxon oila» kabi yo‘nalishlarda tanlovlar o‘tkazilib, yakuniy bosqich g‘oliblarini taqdirlash uchun qimmatbaho sovg‘alar, jumladan, yurtimizda ishlab chiqarilgan avtomobillarni mukofot yo‘lga qo‘yildi.

Yurtimizda yoshlarga harbiy ta’lim-tarbiya beradigan «Temurbeklar» maktabi shakllantirildi.

Ilm-fan, ta’lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat, adabiyot va san'at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalarida jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan yoshlarimiz uchun «Mard o‘g‘lonlar» Davlat mukofoti ta’sis etildi. Shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda, o‘qishda, mehnatda, jamoat ishlarida har tomonlama faol bo‘lgan yigit-qizlarimizni taqdirlash maqsadida «Kelajak bunyodkori» medali ham ta’sis etildi.

Bundan tashqari O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgan kun 30 iyunь – mamlakatimizda “Yoshlar kuni” deb e'lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 5 - iyulda “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoniga[5] muvofiq, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asosi belgilab berildi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqiga 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish

bilan bog‘liq bir qator yangi va muhim vazifalar qo‘yildi.

Bandlik masalasida 2016- 2020 - yillarda 30 yoshgacha bo‘lgan tadbirkorlar soni 5 barobar ko‘payib, ular 500 mingdan oshdi. Alohida “yoshlar daftari” tashkil etilib, unga kiritilgan 430 ming nafar yigit-qizning muammolarini hal etish uchun 300 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. 2017-yilda 92 mingdan ziyod o‘g‘il-qizlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2 trillion 300 milliard so‘m imtiyozli kreditlar ajratildi. Hududlarda tashkil etilgan 186 ta yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi 3 mingta loyiha doirasida 50 mingta yangi ish o‘rni yaratildi.

Yosh olimlar, Yosh tadbirkorlar assotsiatsiyalari, Ijodkor yoshlar uyushmasi tuzildi. Shunga o‘xshash tuzilmalar soni 30 ga yetdi. Har birining faoliyatini tashkil etish va yuritish to‘liq yoshlar ixtiyoriga berildi.

Prezident Sh.Mirziyoyev yoshlarga bunyodkor kuch sifatida qarab, ularning imkoniyatlariga katta ishonch bildirdi. Barcha yoshlarni bir maqsad, bir g‘oyaga birlashtirdi.

Ta’kidlash lozim, mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab to 2020 - yilga qadar yoshlar tashkilotlari Nodavlat tuzilma sifatida faoliyat yuritib kelgandi. 2020 - yilda davlat tuzilmasi - Yoshlar ishlari agentligi tashkil qilindi. Agentligi rahbari Alisher Sa’dullayev bu borada quyidagi fikrlarini bildiradi: “Davlat siyosatini nodavlat tashkilot yuritishi to‘g‘ri yo‘l emas. Yoshlarga oid davlat siyosati bu juda keng qamrovli tushuncha. Ko‘pchilik yoshlar nima uchun yoshlar tashkilotlari o‘zgaraveradi, buni bizga nima ta’siri bor, degan savolni beradi. Biz buni o‘rganib boramiz. Lekin bizni eng ko‘p qiynaydigan muammo bu yoshlarning ishsizligi. Juda ko‘p yoshlarni qiynaydigan masala bu. Nodavlat notijorat tashkiloti buni qanchalik hal qila oladi va davlat tashkiloti qanchalik hal qila oladi? Bularning o‘rtasida katta farq bor. Agentlik bo‘yicha Prezident farmonida esa yoshlar ishlari bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan yoki shu sohada loyihalarni amalga oshirmoqchi bo‘lgan tashkilotlarga aynan agentlik grantlar ajratishi belgilangan.

Endi NNTlar ko‘payadi. Ular bitta bo‘lmaydi. Har bir hudud va har bir tumanni ichiga kirib, o‘sha hududlar ixtisoslashuvidan kelib chiqib ishlanadi”[6] .

Yevropa mamlakatlarida yoshlar siyosatiga doir ikki xil strategiya mavjud bo‘lib, sohaga davlat(Germaniya, Frantsiya, va boshqa) va nodavlat – fuqarolik institutlari(Buyuk Britaniya, Shvetsiya va boshqa.) sektorlari doirasidagi munosabat ko‘zga tashlanadi. A.Nikitenko ta’biri bilan aytganda “evropalik yoshlar oldingi avloddan farqli o‘laroq “asosiy

yevropaliklar” hisoblanishadi”[7] Shunga ko‘ra ularga yevrointegratsiya jarayoni yangi bosqichining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaraladi.

Bugun O‘zbekistonda ham yoshlarga oid siyosatga har ikkala – davlat va nodavlat sektorlaridagi e'tibor darajasi ko‘zga tashlanadi. Ko‘pchilik hollarda mamlakat siyosati yo‘nalishida belgilab berilgan vazifalar davlat ko‘magi asosida nodavlat sektorlarida amalga oshiriladi. Nodavlat notijorat tashkilotlar, jamg‘arma va o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatining o‘zaro mutanosibligi g‘arb amaliyotidagi kabi umumilliy, hududiy va mahalliy sharoitlarda yaxlit mexanizm asosidagi faoliyati yo‘lga qo‘yilishi yoshlarning jamiyatning hal qiluvi kuchi sifatida tarbiyalashga zamin hozirlaydi.

Xorij tajribasiga e'tibor qilinsa, Turkiyada Yoshlar va sport vazirligi, Singapurda Mahalla va yoshlar vazirligi, Ozarboyjonda sport va yoshlar vazirligi, Rossiyada Federal yoshlar agentligi va Birlashgan Arab amirliklarida ham alohida yoshlar vazirligi bor. Xuddi shunday 60 foiz aholisini yoshlar tashkil etuvchi O‘zbekiston uchun bu organ juda muhim. Bu eng birinchi navbatda ularni manfaatini himoya qilish uchun ham zarur.

Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosatida yoshlar bilan tizimli ishlash bo‘yicha yangi o‘ziga xos tartib va mexanizmlar joriy etildi. Shu paytgacha faoliyat yuritgan nodavlat yoshlar tashkiloti davlat tuzilmasi - ijroiya hokimiyat organiga aylandi.

Agentlik chin ma’noda yoshlarning manfaatlarini ifodalab kelmoqda. Yoshlarni ijtimoiy-huquqiy manfaatlarini himoya qiluvchi, ijtimoiy faolligini ta’minlovchi muhim davlat tuzilmasi sifatida shakllandi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtaiy nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[8] vazifasi belgilandi.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi ishlab chiqilgan. Kontseptsiyada belgilangan ustuvor vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida 62 ta banddan iborat bo‘lgan O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 - yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini 2021-2022 - yillarda amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» tasdiqlanib, uning ijrosiga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini qabul qilish to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonida[9] “Harakatlar strategiyasidan - taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat “2022-2026 - yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat Dasturida keltirilgan 70-maqsadda “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”, jumladan, “Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash, yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish” kabi masalalar vazifa etib belgilangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”[10] , deb ta’kidlagani ham bejiz emas. O‘zbekiston yoshlar masalasida tashqi va ichki siyosatni izchillik bilan davom ettirmoqda. Yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligiga erishish bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy asosi yaratildi.

O‘zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib, globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ja’dal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning “Yoshlar huquqlari to‘g‘risida”gi xalqaro konventsiyasini ishlab chiqishni taklif etdi. O‘zbekistonning mazkur xalqaro tashabbusi o‘z vaqtida bildirilgan muhim voqelik edi. Chunki, yoshlar ta’limi, ma’naviyati, huquqlari, kamoloti kabi masalalar bugun har kungidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus ham respublika yoshlarini bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom, vatanparvar hamda fidoyi etib tarbiyalash bilan bir qatorda hududlar bo‘ylab iqtidorli yosh avlod vakillarini aniqlab faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2021- yil mamlakatimizda «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» deb e'lon qilindi. 2021-yil 3-fevral kuni “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmon qabul qilindi. Farmonga ilovada yoshlar manfaatiga mos bir qator ustuvor vazifalar va uning ijrochilari aniq belgilanib qo‘yildi. Prezident Sh.Mirziyoyevning siyosiy irodasi va tashabbusi bilan mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining g‘oyaviy-huquqiy asosiga poydevor qo‘yildi va takomillashtirib borilayapti.

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ham yoshlar, yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog‘liq strategik maqsad va vazifalar belgilab qo‘yildi. Mazkur strategiyadan kelib chiqib qabul qilingan “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshshirishga oid davlat dasturi da qayd etilgan vazifalar ijrosiga ta’minlanmoqda. Bugun yoshlar jamiyatda katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Buning uchun ularga zarur sharoit va imkoniyatlar maydoni yaratildi. Yoshlar bilan ishlovchi davlat va nodavlat tuzilmalar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikka erishilib, erkin faoliyat yuritmoqda.

Darvoqe, yoshlar, yoshlarning ijtimoiy faolligi masalasi mamlakatimiz tarixining barcha bosqichlarida dolzarb o‘rin tutgan. Va bu masala bugun yangi bosqichdagi qarash va yondashuvlar asosida turli metodologiyalarni qo‘llab, ularning yutuq va kamchiliklarini inobatga olgan holda majmuaviy tartibda chuqur o‘rganishni, ilmiy tadqiq etishni taqqozo etayapti.

Shundan kelib chiqib quyidagi takliflar va tavsiyalarni keltirib o‘tamiz:

birinchidan, yoshlarni alohida ijtimoiy qatlam sifatida o‘rganib, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy o‘zgarishlar tizimida ularning o‘tmishimizga real munosabati, milliy qadriyat va an'analarimizga bo‘lgan hurmat va ularni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish mexanizmlarining ilmiy asosini yaratish lozim;

ikkinchidan, yoshlarga oid siyosat sohasidagi tadqiqotlarni amalga oshirishda xalqaro miqyosdagi jarayonlar va faktik holatlar hamda tendentsiyalarga e'tibor qaratish kerak. Bu esa tadqiqotning umumbashariy masalalar bilan uyg‘unlashuviga zamin yaratadi va uning ahamiyatini oshiradi;

uchinchidan, yoshlar bandligi, tashqi mehnat migratsiyasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirishni monitoring qilish mexanizmini joriy qilish, shu jumladan tanlanma ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazish orqali tegishli strategik maqsad va vazifalarni oldindan belgilab olish, yoshlar bandligi va mehnat migrantlarining statistikasini va hisobga olishning yangi tizimini joriy etish va jarayonlarni maxsus usul va metodlarini o‘rganish, ishonchli ma’lumot to‘plash uchun to‘la huquqli

tizimni joriy qilish choralarini ko‘rish zarur;

to‘rtinchidan, yoshlar ijtimoiy faolligini baholovchi, uni tahlil qilib yo‘naltirib boradigan alohida aql markazlarini shakllantirishni taqqozo etmoqda;

beshinchidan, yoshlarning g‘oya va tashabbuslarni ilgari suradigan ochiq platformani shakllantirish va uni amalda joriy etish tizimini ishlab chiqishga ehtiyoj bor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonun 1991- yil 20- noyabrь. // Xalq so‘zi, 1992-yil, 8-yanvar.
2. https://president.uz
3. https://strategy.uz
4. https://lex.uz
5. https://lex.uz
6. Sa’dullayev A. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2019- yil 20- noyabr.– B. 3-4.
7. Nikitenko A.I. Molodejnaya politika v Yevropeyskom Soyuze: sovremennoye sostoyaniye. Politbok. 2013; 3;113-121.
8. https://strategy.uz
9. https://president.uz
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.
11. https://president.uz

ZJV5401

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINI MA’NAVIY TARBIYALASH VA HAYOTDA O‘Z O‘RNILARINI TOPISHLARI UCHUN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR

Abbos ABDILXAMEDOV,
Toshkent viloyati IIBB JXX Probatsiya boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, podpolkovnik

ZJV5401

Mamlakatimizda oila instituti faoliyatini rivojlantirish, ma’naviy qadriyatlar targ‘iboti va ahamiyatini oshirish, me’yoriy-huquqiy ta’minotni takomillashtirish va moddiy-texnik sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan islohotlar fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining oilalardagi ishtiroki va o‘rnini mustahkamlash, ta’lim-tarbiya jarayonlari oldiga qo‘yilgan ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalash maqsadini amalga oshirish imkoniyatini kengaytirdi. Shuningdek, oilada globallashuv sharoitida yoshlarning ma’naviy kamolotini o‘zaro hamkorlik asosida tarbiyalash tizimi samaradorligini oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yoshlarni katta hayotga qadam qo‘yish bilan bog‘liq asosiy ijtimoiy muammolari, ta’lim olish, oila qurish, mehnat faoliyatini boshlash, kasbiy mahorat va ilgarilash, qat’iy ijtimoiy-siyosiy nuqtai-nazarga ega bo‘lishga intilishdan iborat. Ushbu muammolar o‘z ichiga zaruriy ravishda yoshlarning jamiyatga qo‘shilishi, ularning ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarga moslashuvi hamda ijtimoiy taraqqiyot bunyodkorlariga aylanishi kabi masalalarni qamrab oladi. yoshlarning ijtimoiylashuvi bir tomondan ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi, ikkinchi tomondan esa, yoshlar ana shu munosabatlarga kirib borar ekan, ularning ta’siri ostida o‘zgara boradi. Ana shu ikki tomon oilada voyaga yetmagan va yoshlar kamolotida hayotining barcha davrlarida muhim o‘rin egallaydi. Bir qator adabiyotlar tahlili asosida aytishimiz mumkinki, oila, uning jamiyatdagi o‘rni, oila ichidagi serqirra munosabatlar tizimi, oilada tarbiya masalalari turli aspektlarda o‘rganilgan. Qardosh tojik pedagogi Ebrahimi Tagizadex Xosro Moradali [1] oilaning ijtimoiy tarbiya maskani ekanligini aytib, har qanday oilaning asosiy maqsadini yuksak rivojlangan, dunyoviy va diniy bilimlarga ega bo‘lgan ruhan sog‘lom va jismonan baquvvat bola tarbiyasiga qaratish zarurligini aytadi. Ota-onalar farzand tarbiyasi masalasi buyuk ish ekanligini his etib, javobgarlikni o‘z zimmalariga olishlari lozim deya o‘qtiradi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni

tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada oiladan yoshlarni mehnatga, ma'naviy, g'oyaviy, madaniy boyliklarga munosabatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda ma'naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Ilmu-ma'rifatga, ta'lim-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Shu sababli maktab, yoshlarning ta'lim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan.

Jumladan, Konstitutsiyamizning 50-moddasida, "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi"[2]-deb belgilab o'tilgan.

Prezidentimizning ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalari davlat siyosati darajasida e'tiborga olindi.

Bu borada, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan beshta muhim tashabbus doirasida yoshlar o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib etish, ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlashga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning tavalludning 579 yilligi, buyuk davlat arbobi va sarkarda, adib va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 537, Abdulla Qodiriy tavalludining 126 yilligi munosabati bilan ijodiy kechalar tashkil etib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida 2021 yilning O'zbekistonda "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"-deb e'lon qilinishi hamda 2021 yil 30 iyun Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzalari [3]- mamlakat rahbariyatining sog'lom avlodning barkamol voyaga yetishini ta'minlashga, yoshlarni qo'llab-quvvatlashga va ularning o'zini anglashiga, sharoit yaratishga bo'lgan

munosabatini yaqqol namoyish etadi. Bugungi kunda mamalakatimiz yoshlariga hayotda o‘z o‘rnilarini topishda, jinoyat va huquqbuzarlar sodir etishlarini oldini olish, yoshlarni huquqiy ong va madaniyatini yuksaltirishda, o‘qish va bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda barcha shart-sharoiyatlar yaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 19.01.2022 yildagi “Mahallalarda Yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori bilan “Yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish kabi usuvor vazifalar belgilandi. [4]

Yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni sport to‘garaklariga ommaviy jalb etish orqali yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmsh tarzini targ‘ib qilish borasida 11.04.2022 yildagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-201-son qaror bilan mahallalarda yoshlarning ommaviy sport bilan shug‘ullanishlari uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash va sport inshootlarini zamonaviy sport jihozlari bilan ta’minlash, shuningdek, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun tegishli sport infratuzilmasini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli amaliy ishlar olib borilmoqda. [5] Prezidentimiz raisligida 11 aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. Mehnat bozoriga har yili 600 ming yoshlar kirib kelayotgan bo‘lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi. Shu bois yoshlarga sifatli ta’lim berish, kasb-hunarga o‘qitish va bandligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu ishlarni mahallada tashkil etish bo‘yicha vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. 9 ming 500 ta mahallaga fidoyi va tashabbuskor yoshlar yetakchilari tayinlandi. Bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi, ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yildi.

Misol uchun, o‘tgan yilning o‘zida yoshlar tadbirkorligi uchun 4 trillion so‘m kredit berilib, 150 mingta loyiha ishga tushirilgan, 325 mingta ish o‘rni yaratilgan. 43 ming gektar ekin maydoni ajratilib, 435 ming yoshlar bandligi ta’minlangan. 32 mingdan ziyod yoshlarga subsidiya orqali asbob-uskuna, mehnat qurollari va kompyuter olib berilgan.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham ko‘p ishlar qilinmoqda. Jumladan, o‘tgan yili 130 ming talabaga 1 trillion 700 milliard so‘m

ta’lim krediti berildi, xotin-qizlarning magistraturada o‘qishi bepul bo‘ldi. 53 ming nafar ehtiyojmand talabaga kontrakt pullari, 15 mingdan ziyod yoshlarga harbiy xizmat va 13 ming nafariga chet tillari bo‘yicha imtihon xarajatlari to‘lab berildi. 81 ming talabaga uy-joy ijarasi to‘lovi ajratildi. “Yoshlar daftari” orqali 300 ming yoshlarga qariyb 600 milliard so‘mlik yordam ko‘rsatildi.

Lekin bu borada dolzarb masalalar hali ham ko‘p. Bugungi kunda yurtimizda 722 ming nafar rasman ishsiz yoshlar bor. Bu sohadagi ishlarni yanada aniq va manzilli tashkil etish maqsadida 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan 9 million nafar o‘g‘il-qiz alohida e’tiborga olindi. Bunda birinchi marta 25 ta vazirlik va idora ma’lumotlari o‘zaro uyg‘unlashgan elektron bazaga jamlandi. Barcha yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o‘rganilib, “mahalladan vazirlikkacha” tizimida ishlash choralari belgilab olingan [6]. Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar asosida, otaliqqa olingan yoshlar bilan amalga oshirilayotgan ishlarni 2024 yilning 3 oylik holatini, Toshkent viloyati misolida tahlil etadigan bo‘lsak, Mudofaa boshqarmasiga sektor hududidagi 283 ta mahallalardan 81 ming 532 nafar, prokuraturaga 3-sektor hududidagi 130 ta mahallalardan 38 ming 350 nafar, Favqulotda vaziyatlar boshqarmasiga 128 ta mahallalardan 38 ming 48 nafar, ichki ishlar bosh boshqarmasiga 3-sektor hududidagi 252 ta mahallalardan 76 ming 175 nafar, Adliya boshqarmasiga 4-sektor hududidagi 115 ta mahallalardan 31 ming 055 nafar, Milliy gvardiya boshqarmasiga 117 ta mahallalardan 31 ming 82 nafar yoshlar biriktirildi.

Biriktirilgan yoshlar bilan suxbatlashish, muammolarini o‘rganish va hayotda o‘z o‘rnilarini topishlarida ko‘maklashish, ular tomonidan jinoyat va huquqbuzarlik sodir etishlarini oldin olish borasida bir qator profilaktik ishlar amalga oshirildi. Joriy yilda "Yoshlar daftari"ga jami 5 ming 723 nafar yoshlar kiritilgan bo‘lib, shundan 1039 nafar yoshlarga ijtimoiy yordamlar ko‘rsatildi. “Yoshlar daftari"dan amaliy yordam ko‘rsatilgan yoshlar yo‘nalishlar kesimida tahlil qilinganda 92 nafari doimiy ish o‘rinlariga joylashtirilgan, 5 nafariga imtiyozli kreditlar va 4 nafariga dehqonchilik uchun yer maydonlari ajratildi. Shuningdek, 52 nafariga mehnat qurollarini xarid qilish uchun (407 mln. so‘m) subsidiya 100 nafariga to‘lov-kontraktlari xarajatlariga (1 mrd. 700 mln. so‘m), 67 nafariga bir martalik moddiy yordam uchun (150 mln. so‘m), 6 nafariga tadbirkorlik va kasb-hunarga o‘qitish uchun (9 mln. so‘m), 6 nafariga haydovchilikka o‘qitish uchun (8 mln. so‘m), 46 nafariga "Kelajak kasblari" loyihasi doirasida o‘quv kurslari xarajatlariga (790 mln. so‘m), 93 nafariga tibbiy xizmat xarajatlari uchun (33 mln. so‘m),

30 nafariga safarbarlik chaqiruv rezerevi badali uchun 204 mln so‘m), 7 nafariga olimpiyada, tanlov va musobaqalarda qatnashish xarajatlarini uchun (70 mln. so‘m), 3 nafariga maktab formasi hamda o‘quv qurollari xarajatlarini qoplash uchun (2 mln. so‘m), 7 nafariga turar joy ijarasi kompensatsiyasi uchun (36 mln, so‘m), 11 nafariga psixologik xizmat uchun (13 mln. so‘m) miqdorda mablag‘lar ajratildi. [7]

Mamlakatimizda 2024 yil–Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili, deb e’lon qilindi. Bu yurtimiz yoshlarining mamlakatimiz ravnaqi va yuksalishi, fuqarolarning farovon turmush, munosib hayotga ega bo‘lishi, jahondagi ilg‘or jamiyatlar safidan o‘rin olishi kabi maqsadlarni hayotga tatbiq etishdagi o‘rni va roli zalvorli ekanligining e’tirofi bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Joriy yilning – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili, deb e’lon qilinishi ham mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarning uzviy va mantiqiy davomi bo‘ldi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yoshlarga va tadbirkorlikka oid maqsadlariga aynan uyg‘undir. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minlash uchun har bir viloyatda bittadan “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish, har yili 500 nafar iste’dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborish, maktab bitiruvchilarining kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta’minlash, kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazish, “Top-500” ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish kabi maqsadlar o‘rin olgan. [8]

Xulosa qilib aytganda, yoshlarimizning qalbi va ongi, sog‘lom tafakkuri uchun kurashmoqlik bugungi ijtimoiy hayotimizning asosiga aylanmoqda. Bu borada jamiyatimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Muhimi milliy qadriyat va an’nalarimiz asosida yoshlarni tarbiyalash tizimini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuning bilan bir qatorda yoshlar tarbiyasida jamiyatning har bir a’zosi o‘z mas’uliyatini oshirishga zaruriyat ham bor. Chunki, yoshlarning qalbi, ongi, tafakkuri sog‘lom g‘oyalar asosida shakllanishi uchun har bir shaxs mas’uldir. Yoshlarning bo‘sh vaqtlarini qanday o‘tkazayotganligi har bir ota-ona, mahalla ahli, o‘qituvchi-pedagogning e’tiborida bo‘lishi zarurligini barchamiz yaxshi tushunamiz. Bundan tashqari yoshlar tomonidan sodir etiladigan jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishda ta’lim, tarbiya, yakka tartibdagi profilaktik tarbiyaviy ishlarni yuritishda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olib tashkillashtirilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ebrayimi Tagizadex Xosro Moradali, “O‘smirlarda ijtimoiy mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari” (Eron Islom Respublikasi maktablari materiali bo‘yicha) dissertatsiya muallifi, t.f.n. Dushanbe-2014 -5 bet.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 50-moddasi. Toshkent sh-2023 y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 20.12.2022 yildagi Oliy Majlis va O‘zbekiston halqiga murojaatnomasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.01.2022 yildagi “Mahallalarda Yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.04.2022 yildagi “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-201-son qaror.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzayoev raisligida 11.04.2023 yil kuni Yoshlar masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilish ma’ruzasi.

7. O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi Toshkent viloyati Bosh boshqarmasining 2024 yil 3 oylik hisoboti.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzayoevning ma’ruzasi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-92-son qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 yanvardagi “Zakovat» intellektual o‘yinini aholi o‘rtasida ommaviy-ma’rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o‘yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-96-son qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 iyundagi “Yoshlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-son qaror.

FUQAROLIK POZITSIYASINING GENEZISI

Mahmudjon SULAYMONOV,
Andijon davlat pedagogika instituti erkin izlanuvchisi

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi jahonga yuz tutdi va qisqa vaqt mobaynida asrga tatigulik ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘tkazilayotgan keng ko‘lamli islohotlar “inson huquqlari eng oliy qadriyat” shiori ostida amalga oshirilmoqda, biroq ushbu o‘tkazilayotgan keng ko‘lamdagi islohotlarga hozirgi yoshlarimiz tayyormi, yoshlarimizning fuqarolik pozitsiyalari mavjudmi, agarda mavjud bo‘lsa qay tarzda amalga oshirilmoqda, qanday muammo va kamchiliklar bor, degan masalalar nafaqat amaliyotchilarning balki nazariy muammolar bilan shug‘ulllanadigan olimlarning ham diqqat-e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda.

Fuqarolik – fuqaro ekanlik, fuqaroga oidlik, fuqaroning huquqiy holati degan ma’nolarni beradi. “Fuqarolik — shaxsning muayyan davlat bilan doimiy siyosiy-huqukiy aloqasi; bu aloqa shaxs va davlatning o‘zaro huquq va majburiyatlarida ifodalanadi. Shaxs fuqarolikka ega bo‘lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e’tirof etadi, ularning amalga oshirilishini ta’minlash choralarini ko‘radi. Fuqarolarning manfaatlarini davlat, fuqarolar boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi, ularga homiylik ko‘rsatadi.” [1] O‘zbekistonda fuqarolarning tinchligi va farovonligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir. Shuning uchun, fuqarolar doimo davlat himoyasida ekanligini his qilib turishi zarur. Fuqarolarning davlat hayotiga nisbatan javobgarligi hamda qabul qilinayotgan qarorlardagi ishtiroki masalasi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunday munosabatlar shakli fanda fuqarolik pozitsiyasi deb ataladi. Bu o‘rinda pozitsiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan:“1) Har qanday kimsa yoki narsaning tutgan o‘rni, ishg‘ol qilib turgan joyi, mavqei holati vaziyati;

2) qo‘shinning mudofaa yoki xujum qilish maqsadida egallab turgan va muhandislik nuqtai nazaridan jixozlangan yer maydoni;

3) shaxmat va shashka o‘yinida donalarning joylashish holati;

4) biror masalada tutilgan yo‘l, nuqtai nazar, voqea hodisaning muayyan bahosi,”[2] degan ma’nolarda keladi.

Falsafiy nuqtai nazardan pozitsiya ma’lum bir fikrda turg‘un holatda qolish, ya’ni tashqi ta’sirlar, bosim va munosabatlardan qat’iy nazar o‘z fikrlarini himoya qilishga nisbatan ishlatiladi. Fuqarolik pozitsiyasi esa o‘z yurti va davlatining manfaatlarini ajrata bilish, boshqalardan ustunligini ko‘ra olish hamda ularni himoya qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Faylasuf olim I.F.Yarullin ta’kidlaganidek: “...halq pedagogikasining asosiy qoidalari – Vatanga muhabbat tarbiyasi, onaga, mehnatga, ma’naviy va jismoniy salomatlikka, keyinchalik fuqarolik asosiga aylangan ta’limga g‘amxo‘rlik qilish shakllangan. Bunday ahloqiy fazilatlar bolalarda rag‘batlantiriladi va mehr oqibat, halollik, keksa avlodga hurmat, adolat, erkaklik, vijdonlilik, vatanparvarlik kabi fazilatlardir.”[3] Jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, hususan yosh avlodni Vatanga bo‘lgan mehr muhabbatini oshirish bilan bir qatorda, o‘ziga ishongan, o‘zining shaxsiy fikr va mulohazalari bor faol yoshlar qilib tarbiyalash va ularning ongiga ushbu tushunchalarni singdirish kun tartibidagi asosiy vazifa hisoblanadi. Ushbu tushuncha davlatchilik tarixi bilan teng bo‘lib, quldorlik davrida ham faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish ustuvor vazifa hisoblangan.

Arastu o‘zining “Siyosat” asarida kimki qonunchilik kengashi va sud hokimiyati faoliyatida ishtirok etgan bo‘lsa, biz uni fuqaro ekanligi tasdiqlaymiz,[4] deb ta’kidlagan. Arastuning fikricha fuqaro ijtimoiy-siyosiy faolligini ko‘rsatmas ekan, u fuqaro sifatidagi imtiyozlarga da’vogar bo‘lishi mumkin emas. Fuqarolik pozitsiyasi shakllanmagan shaxslarning pasporti bo‘lsa ham, ular ma’naviy jihatdan O‘zbekistonga tegishli bo‘la olmaydi. Bunday shaxslar kosmopolit bo‘ladimi, yoki o‘zini boshqa bir davlatning madaniyatiga tegishli deb hisoblaydimi, bundan qat’iy nazar davlat va jamiyat hayotidan o‘zini chetga olishi shaxs ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va jamiyatdagi munosabatlardan chetga chiqib qoladi. Bundan 2,5 ming yil oldin bildirilgan yuqoridagi fikrlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Fuqarolarning faolligi ortib, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy huquqlarini ta’minlash jarayoni ham takomillashmoqda. Fuqarolarning uyg‘onish jarayoni yangi o‘zbekistonda shiddat bilan kechmoqda. Masalaning Arastu nigohi bilan tahlil qiladigan asosiy jihati shundan iboratki, aksariyat hollarda fuqarolar o‘z shaxsiy-huquq manfaatlari uchun dadillik bilan pozitsiyalarini namoyon qilgan holda, umumiy – jamotchilik manfaatlariga tegishli bo‘lgan masalalarda be’tiborligini ko‘rsatmoqdalar. Shu sababli bo‘lsa kerak, atrof-muhitni muxofaza qilish, qonun ustuvorligi, jamiyatda adolatni ta’minlash va jamoatchilik nzorati kabi masalalarda juda katta muammolar turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalariga to‘xtalib: “...yosh avlodimizning grajdanlik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib

tarbiyalash bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.”[5] O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va tarbiya jarayonida yuksak ahloqiy sifatlar, vatanparvarlik, o‘z ishiga sadoqat va ijtimoiy faollikni rag‘batlantirish orqali fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish istiqbollari vujudga keladi. Hozirgi vaqtda jamiyatimizda yoshlarning fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi va o‘z navbatida fuqarolik pozitsiyalarining kelib chiqishi tarixiga nazar solish talab etiladi.

Fuqarolik pozitsiyasi genezesini o‘rganish davomida tarixga e’tibor qaratadigan bo‘lsak qadimgi “Sparta va afinada fuqarolar shaxsiy (er, uy) vasiyosiy (milliy yig‘ilishda ishtirok etish) huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi, ular qonunlarga rioya qilishlari va vatanni himoya qilishlari shart edi. Aholining salmoqli qismini tashkil etuvchi qullar va ayollar fuqarolik huquqlariga, jumladan Vatanni himoya qilish huquqiga ega emas edilar. “Afinada mamlakatning bo‘lajak fuqarolarining shaxsiga yuqori talablar qo‘yildi, chunki ularning har biri keyinchalik davlat raxbari bo‘lishi mumkin edi. Qadimgi Yunoniston davlatlariga davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirok etuvchi, siyosat manfaatlarini ham so‘zda ham qurolda ximoya qilishni biladigan kuchli fuqarolar kerak bo‘lgan”.[6] Demak hozirgi demokratik jarayonlar, xalq xokimiyatining mavjudligi sharoitida o‘zining erkin fikr va mulohazalariga, davlatimiz olib borayotgan siyosatni to‘g‘ri tushunib, faol harakatlanadigan yoshlarimizning bo‘lishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Quldorlik davrida o‘zini erkin fuqaro deb hisoblagan fuqarolar o‘zining shaxsiy fikriga va so‘z erkinligiga ega bo‘lganligi, qullarning esa o‘zining fikr va mulohazalarini erkin bayon qilish fikri yo‘qligi shuni ko‘rsatmoqdaki erkin fikri yo‘q shaxslar “qullarga” tenglashtirilgan.

Qadimgi faylasuflardan biri “Aflotun (miloddan avvalgi 427-347) “Qonunlar”, “Davlat” va “Siyosat” risolalarida ideal davlatni tashkil etish va fuqarolarni tarbiyalash haqidagi nazariyasini asoslashga harakat qilgan. Qalbdagi ustunlik: aql, iroda, his-tuyg‘ularga ko‘ra u odamlarni uchta sinfga mos ravishda hukmdorlar, jangchilar va hunarmandlarga bo‘lishni taklif qildi va moyilligidan kelib chiqib, bolalarni ma’lum bir ijtimoiy rolga tayyorlashni, har bir fuqaroni shunga mos ravishda tarbiyalashni taklif qildi. Chinakam fuqarolar davlat manfaatlarini, quvonch va qayg‘ularini o‘z manfaati sifatida qabul qiladilar deb o‘ylagan.”[7] Fuqarolik mas’uliyati fuqarolik tarbiyasini asosiy tavsiflovchi sifatida, uning fikricha donolik, jasorat, ehtiyotkorlik, adolatda, shuningdek davlatdagi ijtimoiy roli bilan yuklangan fuqarolik burchlarini vijdonan bajarishda namoyon bo‘ladi. Aflotun afsonalarni, adabiyotni va albatta o‘yinlarni ta’limning muhim muhim vositasi, deb hisoblagan, shu

bilan birga, u bolalarning qoidalarga rioya qilishlari aniqligiga e'tibor bergan. "aks holda ular keyinchalik qonunlarga o'zgartirishlar kiritishni hoxlashadi deb hisoblashgan."[8] Ezgu fikrlayotgan odam butun jamiyatda o'zining pozitiv fikri va jamiyatni rivojlantirish g'oyasi bilan oldinda vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Aflotun ezgulik, yaxshiliklarni ikki turga bo'ladi va ularing qaysi birlari insoniy, qaysi birlari ilohiy ekanligini tushuntiradi. Ilohiy yaxshilik insoniy yaxshiliklarga ta'sir o'tkazadi. Agar ilohiy ezguliklar, yaxshiliklar o'zlashtirilsa, u holda insoniy yaxshiliklar ham o'zlashtiriladi, faqat insoniylari o'zlashtirilganda esa ilohiylarini boy berib qo'yish mumkin. Insoniy ezguliklar, hayrli narsalarga kuch, go'zallik, boylik, bilim va boshqalar kiradi, bularni Aflotun o'zining axloq haqidagi kitoblarida tahlil qiladi. U haqiqiy sohibi qonun ilohiy ezguliklarga etishish uchun bu ezguliklarni yaxshi bir tartibga soluvchi zot ekanligini tushuntiradi. Chunki u foydalangan ezguliklar qonun talab qilganday ilohiy ezguliklardir.

Aflotun aytadiki, balog'atga yetganidan so'ng va bu ish nasib etganda, qonunlar yaratuvchisining maqsadi xudo yo'lida jasurlik, buyuklikka erishishi, narigi dunyoda yaxshi mukofot olishga intilish bo'lishi zarur. Buning uchun to'rt tug'ma fazilatdan buyukroq fazilatga erishish zarur. Aflotun insonlar orasida shundan sohibi qonunlar uchrab qolish mumkinligini va ular o'z oldilariga turli maqsadlar qo'yishlarini, ammo qonunlar tuzishda shoshma-shosharlik natijasida yomon natijalariga erishishlari mumkinligini tushuntiradi.[9] Demak erkin va farovon jamiyat qurish ishlarida sog'lom fikrlaydigan, qonunlar qabul qilinishi va ijro etilishida faol ishtirok etadigan, eng avvalo qoidali, jasur fuqarolar borligi davlatning hamisha g'olib bo'lishini tushuntirib o'tadi.

Qonun – yunonlar akl zakovatini buyuk kashfiyoti edi, bu xamma tomonidan qabul kilingan va hammaning bajarishi zarur bo'lgan oqilona ijtimoiy tartib-qoidalar, ko'pchilik tomonidan muhokama kilinadigan faol qatnashish bilan birga uni ijro etish mas'uliyatini xam o'zlariga olishni taqozo etgan.

Qadimgi Afina davlatida erkin fuqaro bo'lish juda mushkul ish bo'lgan, erkin fukarolar katoriga kirish juda qattiq tekshiruv asosida amalga oshirilgan. Ota-onasi Afina fuqarosi bo'zgan kishigina erkin fuqaro bo'la olgan. Maxsus guruh hay'at da'vogarning ota-onasi kimligi, ularning Afinaga munosabatini sinchiklab o'rganishgach, uni erkin fukarolikka tavsiya etishgan. Da'vogar 18 yoshga tulgan bo'lishi shart edi, Maxsus hay'at tavsiya etgach tayinlangan besh ayblovchilar uni erkin fukaro bo'lishiga noloyiq deb topishga xarakat kilganlar, da'vogar esa ularning

oldida o‘zining sha’nini va kimligini isbotlab qo‘yishi shart edi. So‘ngra da’vogar sudga murojaat kilishi, agar sud uning talabini asosli deb topsa, da’vogar uning ismini ro‘yxatga kiritib, besh yuzlar kengashiga taqdim etgan. Besh yuzlar kengashi xam da’vogarni, uning talabini qanchalik asosli ekanligini sinchiklab o‘rganib chiqqan, agar kengash ijobiy qaror qabul kilsa, da’vogar xalkq yig‘ini oldida Afinani himoya kilish, har qanday sharoitda xam vatan ravnaqiga xizmat qilish, mavjud qonunlarga, xalqk yangi qonunlar qabul qilsa, ularga itoat qilish, kimdur qonunlarni bekor kilsa yoki ularga bo‘ysunmaslikka intilsa, unga qarshi chikish, g‘ayrikonuniy harakatlar bo‘lishiga yo‘l ko‘ymaslikka qasam ichadi. Suqrot xam erkin fukarolarga qabul qilinganida shunday qasam ichgan va umrining oxirigacha unga amal kilgan. Davlat ishlarida faol qatnashish har bir erkin fuqaro uchun sharaf, shu bilan birga burch xam edi. Afina qonunlari agora – xalk yig‘ini o‘tkaziladigan joy, maydonda toshga o‘yib, yozib kuyilgan.[11]

Fuqarolik pozitsiyasini shakllanishida g‘oyalarning o‘rni beqiyos, sababi pozitsiya bo‘lishi uchun g‘oya va fikr bo‘lishi kerak, qadimgi antik davri olimlari bir qator ilmiy falsafiy xulosalar yozganlar. G‘oya falsafaning mag‘zini tashkil etgan. Platon talqiniga ko‘ra, borliq hissiy idrok etiladigan, mudom o‘zgarib turadigan, real narsalardan va ulardan tashqari turadigan narsalardan o‘zgarmaydigan, abadiy borliqdan, ya’ni g‘oyadan iboratdir.

El yurtni boshqarishga qodir, iymon-e’tiqodli, insofli, kuchli, ziyoli fuqarolarni tarbiyalash muammosi azaldan dolzarb bo‘lib kelgan. Shu bilan birga, har bir mamlakat tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, etnik, madaniy va boshqa sharoitlarbilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning fuqarolik fazilatlari jamiyat va davlat taraqqiyotida ma’lum bir tarixiy davrdaqabul qilingan qadriyatlar bilan belgilanadi. Har bir yirik davrning o‘ziga xos asosiy qadriyatlar mavjud bo‘lib, ularning mazmuni hukmron dunyoqarashidan kelib chiqadi hamda yoshlarning fuqarolik tarbiyasi xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, antik davr kosmotserntrizm tamoyiliga asoslangan qadriyatlar tizimi bilan tavsiflangan.[12] Qadimgi Rimda uning o‘ziga xos xususiyatlari bor edi. Taxminan III asrgacha bu yerda qabilaviy tuzum davridan meros bo‘lib qolgan oilaviy tarbiya xukmronlik qilgan. Ota o‘g‘liga uy xo‘jaligini boshqarish, qurol-yaroqqa ega bo‘lishni o‘rgatgan, unda Rimda yuksak qadrlangan Vatanga sadoqat kabi ahloqiy fazilatlarni shakllantirishga g‘amxo‘rlik qilgan. Rim Respublikasida (miloddan avvalgi VI asrdan milodiy I asrgacha) xususiy elita maktablari savodxonlik bilan bir qatorda bolalarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalagan.[13] Faol fuqarolik pozitsiyasi shakllanishida o‘z tug‘ilib o‘sgan yurtini sevish va undagi xar

bir o‘zgarishlarni o‘zining taqdiri deb bilish asosiy o‘rin egallaydi. Bu kabi yondashuvlar keyinchalik Yevropada shakllangan demokratik qadriyatlarga asos bo‘lib xizmat qildi. Chunki, har qanday deomkrtik davlat va fuqarolik jamiyatining asosida ijtimoiy shartnoma tamoyillari – davlat fuqarolarning o‘zaro huquq-erkinlarga va majburiyatlarga rioya qilishi yotadi.

Ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi bilan kishilarning uncha uyushmagan alohida qatlamlari ajralib chiqa boshlagan, natijada inson shaxsining rivojlanishi va uning qadrlanishi uchun qulay shart-sharoit vujudga kelgan. Holbuki ilgari inson jamoaga to‘laligicha karam bulgan, shaxs mustakilligi tan olinmas edi, mustakil shaxsning shakllanishi bilan mustakil falsafiy tafakkur xam vujudga keldi va mifalogik tafakkur xam vujudga keldi va mifalogik tafakkur xukmronligi barxam berdi.[14] Ana shunday umumiy tafakkur egalari – grajdanlar (fukarolar) bir-birlari bilan uzviy boglik bulib, yaxlit bir butunlikni tashkil kilardi. Agar ular dastlab mujazgina yunon polisiga birlashgan bulsalar, keyinchalik kudratli Rim imperiyasini tashkil etgan edilar.[15]

Fuqarolik pozitsiyasi davlatchilik an’analari bilan bog‘liq ravishda rivojlanib keldi. Davlatchilikning sivilizatsiyaning eng muhim yutug‘i deb bilar ekanmiz, uning qadri va qiymati fuqarolik pozitsiyasi shakllangani bilan o‘lchanadi. Fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lmagan shaxslardan iborat jamiyat tuzgan davlat nihoyatda omonat va har qanday xavf-xatarning oldida ojizdir. Bunday mustahkam asosga ega bo‘lmagan tuzilma esa muqarrar ravishda tashqi kuchlar ta’siriga tushib qoladi yoki uzoq yillik ichki qarama-qarshiliklar girdobiga bo‘ladi. Shuning uchun ham 3 ming yildan buyon fuqarolarning davlatga munosabati va uni asrab-avaylashi bilan bog‘liq masalalar allomalarning diqqat-e’tibor markazida bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://qomus.info/encyclopedia/cat-f/fuqarolik-uz/ - Мурожаат этилган сана: 14.08.2022 й.

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент, “Ўзбекистон миллий энцклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2007 йил. – Б. 325.

3. Формирование гражданской ответственности студентов педагогических вузов. И.Ф.Ярулин, Казань, Татарское идательство “Хэтер”. 2011. – С. 6.

4. Аристотель. Политика: соч. в 4-х т. Т.4 / Аристотель. – Москва.: Мысль, 1999. - 320 с.

5. Формирование гражданской ответственности студентов

педагогических вузов. И.Ф.Ярулин, Казань, Татарское идательство “Хэтер”. 2011. – С. 6.

6. Platon. Shtat: op. V.3, 1-qism / Platon. – 1975. C. 380

7. Platon. Shtat: op. V.3, 1-qism / Platon. – 1975. C. 380

8. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993 йил. Б 29

9. Ғарб фалсафаси: «Шарк» Нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти Тошкент-2004, 8-бет

10. Ғарб фалсафаси: «Шарк» Нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти Тошкент-2004, 60-бет

11. Формирование гражданской ответственности студентов педагогических вузов. И.Ф.Ярулин, Казань, Татарское идательство “Хэтер”. 2011. – С. 6.

12. Формирование гражданской ответственности студентов педагогических вузов. И.Ф.Ярулин, Казань, Татарское идательство “Хэтер”. 2011. – С. 9.

13. Ғарб фалсафаси: «Шарк» Нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти Тошкент-2004, 8-бет

14. Ғарб фалсафаси: «Шарк» Нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти Тошкент-2004, 8-бет

15. Авесто Яшт китоби “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти Тошкент 2001. – Б.8.

16. https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=982.

17. Формирование гражданской ответственности студентов педагогических вузов. И.Ф.Ярулин, Казань, Татарское идательство “Хэтер”. 2011. – С. 11.

18. Каримов И.А. Иносон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият. 14-жилд.- Т: “Ўзбекитон”, 2006.-100-б

19. Формирование гражданской ответственности студентов педагогических вузов. И.Ф.Ярулин, Казань, Татарское идательство “Хэтер”. 2011. – С. 13-14.

20. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993 йил. Б 28

21. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993 йил. – Б. 24

22. Темур тузуклари. Тошкент Ғур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси 1991 йил. 14-15 Б

23. Темур тузуклари. Тошкент Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси 1991 йил. – Б. 16.

FARZAND TARBIYASIDA MA'NAVIY ODATLARNI SHAKLLANTIRISH

Oygul KAJANOVA,
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining mustaqil tadqiqotchisi

Yoshlar tarbiyasi millat ertasi ekanligi doimo dolzarb masala ekanligi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini zarracha yo'qotmagan. Ma'naviyatni shakllantiradigan muhim omil bu ta'lim-tarbiya tizimi ekanligi ayni haqiqat. Kelajagimiz poydevori bo'lmish farzandlarimizni jismonan sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlod qilib tarbiyalash zamona zayli ila ustuvor vazifa etib belgilandi va u davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu islohotlar zamirida mustaqil fikrlaydigan, ilmiy-zamonaviy dunyoqarashga, chuqur bilimga, vatanparvarlik, millatparvarlik hissiga egalik qiladigan barkamol avlodni shakllantirish vazifalari belgilandi[1].

Bugungi shiddatkor zamon va globallashuv davri insoniyatni shoshirib qo'ymoqda. Kishilik hayotimizga axborotlashuv tez va chuqur kirib kelmoqda. Beqiyos darajada tezlashuv jarayoni, nafaqat insonlar, hattoki, davlatlar o'rtasida ham turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi yoki aks holatlariga, inchunin, yoshlarga esa mafkuraviy ta'sir o'tkazishning quroliga, har xil siyosiy, g'oyaviy kuchlarning kurash sahnasiga ham aylanib bormoqda. Shu sabab yoshlar tarbiyasi davlatimizning doimo diqqat markazida bo'lib, yosh avlod ongida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash barobarida shaxsning kamolotga yetishishida muhim o'rin tutishini unutmaslik darkor.

Asosiy qism. Ma'naviy tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisidir. Endi bu jarayonda ma'naviy tarbiyaning uzviylikni ta'minlash uchun esa o'quvchilar ongi, hissiyotlari va maqsadlariga tizimli ta'sir etish samarador sanaladi. Ya'ni, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish, his-tuyg'ularini tarbiyalash va maqsadli yo'naltirish, shuningdek, xulq-atvor ko'nikmasi va odatlarni tarkib toptirish zarurdir. Sababi, odatlar o'z ustida ishlash jarayonida ortib boruvchi foizlardir. Xuddi omonatga qo'yilgan pul foiz qo'shilishi tufayli o'sib borganidek, odatlarning samarasi ham har bir takrorlashdan so'ng ortib boradi, deb yozadi Jeyms Klir "Atom odatlar" kitobida[2]. Muallifning yozishicha, bir-ikki kun ichida hech qanday natija kuzatilmasligi mumkin, ammo

oylar va yillar o‘tgan sayin ularning ta’siri bag‘oyat darajada o‘sadi. Yaxshi odatlarning naqadar qimmatli yoki yomon odatning naqadar zararli ekani, ikki, besh yoki o‘n yil o‘tib ortga qaraganimizda yaqqol ko‘rinadi.

Agar biz bu fikrlarga qo‘shilib, maktab o‘quvchilari, umuman, farzandlar tarbiyasida qo‘llaydigan bo‘lsak, o‘z navbatida o‘quvchi ongida kundalik odatlarga rioya etish natijasida mas’uliyatni his etish, ongli tarzda intizomga rioya etish — takrorlanuvchi o‘zlik, odatlar ko‘nikmasi yaratiladi. Aniqroq qilib aytganda, odat bora-bora shaxsiyatning fe’l-atvoriga aylanib boradi. Bu usul salbiy va ijobiy bo‘lishi mumkin. Misol uchun, bola har kuni kechqurun ma’lum bir vaqtda darsga kech qolaversa yoki uyqudan uyg‘onishi bilan telefon o‘ynash bilan kunini boshlasa, bu salbiylik takrorlanaversa illatga aylanib ketadi. Agar tarbiyaviy tadbirlar rejasi to‘g‘ri ishlab chiqilib, kuniga 3 bet kitob o‘qish, sport bilan shug‘ullanish, til o‘rganish yoki tozalik bilan shug‘ullanish kabi odatlarni kunlik me’yorga aylantirib borsa, o‘quvchi ma’naviy-axloqiy jihatdan fikrlashga, tahlil qilishga, o‘z hayoti uchun befarq bo‘lmaslik nuqtai nazaridan vaziyatni baholay olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Demoqchimanki, bir kun kitob o‘qib, g‘oyani o‘rganib, kishi daho bo‘lib qolmaydi. Doimiy tarzda o‘qib-o‘rganish insonni yangitdan shakllantiradi. O‘qilgan har kitob eski g‘oyalarga yangicha qarashni o‘rgatadi. Uorren Baffett aytganidek, “bilim xuddi ko‘payib boradigan foiz singari ishlaydi.” Ma’naviy jihatdan chinakam o‘sish jarayoni sekinlik bilan, ammo mustahkam amaliyot bilan amalga oshadi. Bu qonuniyat. Misol uchun, bambuk daraxti qiyosida tushuntiradigan bo‘lsak, dastlabki besh yil ichida bambuk bo‘y ko‘rsatmaydi. Shu vaqt mobaynida esa u ildizlarini zo‘r berib rivojlantirayotgan bo‘ladi. Oltinchi yilda esa ko‘kka bo‘y cho‘zib, olti hafta ichida o‘ttiz metrga o‘sadi. Xuddi shundek ma’naviy odatlar, oddiy tilda aytadigan bo‘lsak, yaxshi odatlar, avvaliga hech qanday o‘zgarish yasamagandek tuyuladi. Inson tabiati besabrlikka moyilligi sababli, darrov natija kutamiz. Farzand tarbiyasida ko‘zga ko‘rinarli samarani, ya’ni yuqoriga chiziqli o‘sishni ko‘rmagach, hafsala pir bo‘lishni boshlaydi. Aslida esa uzoq davom etadigan odatlarni hosil qilishdagi asosiy qiyinchiliklar pog‘onasi shu bo‘ladi. Boshlang‘ich ma’naviy progressiya pog‘onasi desak ham bo‘ladi.

Ma’lumki, farzand tarbiyasi buyuk ish sanalib, avlodlar tarbiyalanadi. Barcha buyuk ishlar kichik qadamlardan boshlanadi. Har bir odat jajji qarordan kelib chiqadi. Bu qarorlar kuniga takrorlangani sayin ildiz otib, kuchayib boradi. Bu odatlar zamirida esa maqsad yotadi. Hayotda istagan narsaga erishishning eng yaxshi yo‘li bu aniq maqsad sari intilishdir. Endi

yosh avlod ongida aniq maqsadni shakllantirish uchun esa, avvalo, uning kun tartibini, kunini qanday o‘tkazishini bilish lozim. Bu borada akademik liseyda o‘quvchilar orasida “Mening kun tartibim” asosida so‘rovnoma tadqiqoti o‘tkazildi. So‘rovnomada 22 nafar bola qatnashdi. Yakuniy xulosaga ko‘ra ijtimoiy ahvol shunday: Kitob o‘qishni qayd etganlar soni 3 nafar, dars qilishni yozganlar, (ammo badiiy asar o‘qiyman degan emas) 9 nafar. Bundan ko‘rinib turibdiki, yoshlarimizni havoyi gaplar bilan kitobxonlikka da’vat eta olmaymiz. Kitob o‘qish, uning zavqi, mazasini tuyish hissini bera olmayapmiz. Sababini bir misol bilan tushuntiraman. Bu odat aynan shu xalqning ichi-ichiga, hayotiy zaruratiga aylangan ekanki, tongda ko‘z ochishi, uyg‘onishi bilan, albatta, U bo‘lmasa xafa bo‘lishar ekan. Nonushta bo‘lmasligi ularni umuman qiziqtirmas ekan. Bu qaysi odat deysizmi? Ya’ni yaponiyaliklar kunni mutolaa bilan boshlar ekan. Har tong bir finjon qahva bilan, albatta, gazeta, jurnal o‘qishi odat tusiga kirgan ekan. Agar nonushta dasturxonida yangi keltirilgan gazeta yoki jurnal bo‘lmasa ular o‘zlarini xo‘rlangan his qilishar ekan. Qarang, ma’naviy nonushtaning zaruriyatini his etish nechog‘lig‘ muhim-a? Endi do‘ppini bir boshdan olib mushohada qilsak, shap-shap degan bilan shaftoli daraxtdan tushmaydi. Kitob o‘qi, kitob, ma’naviyatni boyit degan bilan bola ma’naviyati yetuk avlod bo‘lib qolmaydi. Zamonaning zayli, texnika asri bilan birga yo‘rg‘alab, yoshlarga turtki beruvchi, o‘z hoxish-istagi ila kitobni qo‘liga oluvchi bir tizimlar yaratishimiz lozim. Yangicha o‘ziga xos yondashuv zarur.

Tarbiyaviy ta’sir oiladan boshlanadi. Dalil uchun, o‘tkazilgan tadqiqot natijasiga ko‘ra o‘quvchilarda yomon odatlar: bo‘sh vaqtini bekorchi ishlarga sarflash ko‘rsatkichi yuqori darajada. Bir savol tug‘iladi. Nima sababdan yomon odatlarni takrorlash shunchalik oson va aksincha yaxshilarini shakllantirish shu qadar qiyin? Javobi bitta. Odatlarni o‘zgartirish ikki sababga ko‘ra qiyin kechadi: birinchidan, noto‘g‘ri usulda narsalarni o‘zgartirishga urinish, ikkinchidan xulq-atvorga ta’sir etuvchi omillarni hisobga olmasligimiz. Unga quyidagi omillar ta’sir qiladi.

Birinchi omil — oila.

Bu maskanda farzand uchun e’tibor talab etiladi. Ma’naviy odat shakllanishining o‘choq negizi ham aynan shu yer, ya’ni atomi oila sanaladi. Dastlabki richag ota-ona qo‘lida bo‘lib, uni boshqarish mas’uliyatiga javobgardir. Bolani yaxshi yo yomon bo‘lishi, ota-ona tomonidan tuzilgan ma’naviy-tarbiyaviy tadbirlar rejasiga bog‘liq. Ochiq aytish kerakki, ota-ona farzandining tarbiyasiga o‘ta mas’uliyat bilan yondashishi talab etiladi. Shuni tushunishimiz kerakki, tabiatdagi, inson

fe'l-atvoridagi o'zgarishlar ham o'z-o'zidan bo'lmaydi. Yaxshi odam birdaniga yomon, odobli bola o'z-o'zidan badxulq bo'lib qolmaydi. Demak, qayerdadir tarbiya zanjiri, uzluksiz ta'lim, me'yor, muvozanat buzilgan. Nimagadir e'tibor susaygan yoki ortiqcha ruju kuchaygan. Tarbiyada tanaffus bo'lgan...

Farzandlar, yoshlar kichikligidanoq aqlli, odobli, iqtidorli bo'lishini istashlari uchun katta avlod, ya'ni ota-onalar ayni damda o'rnak bo'lmog'i darkor. O'z shaxsida odob-axloq, boy ma'naviy tafakkur va keng fikrlashni shakllantirar ekan, farzandlarda inson qadri va muomala, kattaga hurmat, kichikka izzat xislatlari ota-ona ibratidan namuna oladi. Asta-sekin bu holat, qarabsizki, odat tarziga aylanib boradi. Yoshlarimizni ma'naviy komil inson bo'lishi, go'zal fazilat egasiga aylanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi. Donishmandlar deganidek: "Bolaga odob va mehrni har vaqt qoshiqlab tinmay quyasiz..." Shu nuqtai nazardan ma'rifatli jamiyatning ma'naviy tarbiyasi millatning umummilliy g'oyasiga aylanmog'i lozim.

Talab va takliflar. Bugungi kunda Ma'naviyat sektori yangi islohotlar ichra eng samaralisi bo'lib rejalashtirilmoqda. Aynan shu maqsad asosida yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda ikkinchi omil — ta'lim tizimi, ya'ni maktab alohida o'ringa ega.

Bolaga ta'lim berish, o'zlashtirishini nazorat qilish, uyga vazifalarni qoniqarli tarzda bajarish va hokazo. Ta'lim sifatining qoniqarli yoki qoniqarsiz ijobiy va salbiy sabablari ota-ona va o'qituvchi bilan birgalikda o'rganiladi. Bu borada YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasining ta'lim bo'limi boshlig'i Dipa Shankar ta'kidlaganidek, "Uy qurishga kirishishdan oldin maqsadingiz nima ekanini yaxshi bilishingiz kerak. Buning uchun aniq reja va chizmalar bo'lishi lozim. Agar rejangiz bo'lmasa, xatoga yo'l qo'yasiz: ortiqcha resurslar, mablag' va vaqt sarflaganingiz qoladi. Buni ta'lim sohasida ham qo'llasa bo'ladi"[3]. Demak, ma'naviy tarbiya bevosita pedagogik faoliyat sanaladi. Shunday ekan maktab ta'lim dargohlarida ma'naviy sektor tizimi ishga tushirilsa, agar bor bo'lsa uni faollashtirish nur ustiga nur bo'ladi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 16-17 noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida Ma'naviyat va ma'rifat Kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida hududlardagi mahallalarda to'rtta sektorga qo'shimcha beshinchi – "Ma'naviyat sektori"ni tashkil qilish bo'yicha taklif bildirgan edi[4]. Bugun shu borada fikrimcha, Ma'naviyat sektori maktablarda ham bo'lmog'i lozim. Shu o'rinda "Ma'naviyat sektori"ning vazifalariga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu sektorga maktab va hududiga tegishli mahallalarning mas'ul rahbarlari, ziyolilar biriktirilib,

maktablarda ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha ijtimoiy-ma’naviy xarita ishlab chiqilib, bevosita “Tarbiya” fani darsida amaliy pedagogik natijasini ko‘rsatsa. Sababi, mahalla bilan birgalikda deyishimga asos bor.

Qadimdan qolgan naqlda aytilishicha, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” deyilgan. Mahalla milliy-ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylashda, el-yurt tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashda, yoshlarning ma’naviy tarbiyasi va ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Hayotning achchiq-chuchugini tortgan, ko‘pni ko‘rgan, dunyoning pastu balandini bilgan mahalla oqsoqollari, kayvoni onaxonlar o‘zlarining hayot tajribasi bilan yoshlarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib, xalqimizning milliy an’analarining davomiyligini asrab-avaylab kelayotgani maqsadga muvofiqdir. Bu borada mahallaga xos hayot tarzi va turmush madaniyati, qo‘ni-qo‘shni va mahalla-ko‘y o‘rtasidagi munosabatlarning ta’siri katta. Sektor maktabdagi ijtimoiy-ma’naviy mavjud muammolarga tizimli yondashib, amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtiradi hamda mazkur sohadagi vazifalar bo‘yicha javobgar hisoblanadi. Mahallalar hamkorligida ma’naviyat sektorini tashkil qilish, maktablarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni tashkil etish bilan bir qatorda uni barqarorlashtirish, tarbiyaning yaxlitligi va uzviyligini ta’minlashda o‘quvchi yoshlarning keng qatlamini kitobxonlikka jalb etish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, madaniyat va san’atga oshno qilish, unutilib ketilayotgan milliy qadriyatlarimiz va an’analarimizni ommalashtirish hamda xalqimiz orasida mehr-oqibat tuyg‘ularini kuchaytirish kabi bir qator muhim vazifalarni maqsadga aylantiradi. Bu borada umumta’lim maktablarida ta’limning mazmuni bilim berish bo‘lsa, ma’naviy tarbiyaning ta’lim bilan uyg‘unligining mohiyati esa me’yorlar, qoidalar, qadriyatlar, ma’naviy boyliklarni asrab-avaylash kabi ustunliklarga suyaniladi[5]. O‘qitish asosan aql-idrokka ta’sir ko‘rsatsa, ma’naviy tarbiya esa shaxsning shaxsiyati shakllanishiga turtki beradi. Biroq ikkala jarayon ham shaxsning ongi va xulq-atvoriga birday ta’sir ko‘rsatadi va ma’naviy mahallaviy progressiyaga olib keladi.

Shu o‘rinda “Progressiya” so‘ziga izoh berib o‘tsam. “Progressiya” tushunchasi lotinchadan kelib chiqqan bo‘lib, progression – oldinga harakat ma’nosini bildiradi. Bu tushuncha VI asrda yashab o‘tgan rimlik olim Boesii tomonidan kiritilgan.

Ta’lim muassasalarida ijtimoiy-muhitni tashkil etish va ma’naviy tarbiyani shakllantirishda muhim pedagogik imkoniyat sifatida o‘zaro bir-biriga ta’sir ko‘rsatuvchi kuchga ega tarbiyaviy jarayonlarni to‘g‘ri ham tizimli tashkil etish lozim. Ya’ni maqsadi aniq va mazmuni milliylik bilan boyitilgan tarbiyaviy metodlar, uzluksiz, ibratli tarbiyaviy jarayon

va uning natijalari.

Farzand tarbiyasida tashqi ta’sir, biz ilg‘amagan haqiqatlarning, ya’ni uchinchi omil — atrof-muhit katta o‘ringa ega. Bolaning dunyoqarashi, o‘ziga beradigan bahosi, o‘zgalar haqidagi fikri bilan bog‘liq. Ya’ni sinfda o‘zlashtirishni istamaydigan 15 nafar bola bo‘lsa, qolgan o‘qishni istovchi bolalarda ham o‘z-o‘zidan sekin-astalik bilan o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi so‘na boshlaydi. Zero, inson miyasi xuddiki bashoratlovchi mashina. U to‘xtovsiz ravishda atrof-muhitni kuzatib olgan ma’lumotlarini tahlil qilib boradi.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, Yangi O‘zbekistonda ma’rifatli jamiyat qurishning asosi — yangi ma’naviy ehtiyojlarning qay darajada ma’naviy-axloqiy mazmun bilan boyiganlik darajasiga bog‘liq. Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu — ilm-fan, axloqiy-ma’naviy tarbiya ekanligi ayni haqiqat. Bu borada esa yangi ma’naviy odatlarni samarali yaratishdan oldin eskilarini tizginlab olishimiz darkor. Maktab ta’limi tizimida ma’naviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlash uchun ma’naviy progressiya jarayonidan o‘tiladi. Bu esa uch omil: oila – maktab atrof-muhit uzviyligidagi ma’naviy odatlarga tayanadi. Kishilik jamiyati oldida talab qilinadigan ma’naviy-odatiy mezonlar vaqt o‘tib, Uchinchi Renessansga zamin bo‘ladi, agar biz uni ijtimoiy ahamiyatini o‘tkir zaruratga aylantira olsak.

ZJV5401

ZJV5401

III SHO‘BA.

YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MEDIAOLAM, MILLIY KONTENTNI YARATISH HAMDA IJTIMOIY TARMOQLARNING AHAMIYATI

ZJV5401

AXBOROT TARBIYAVIY-PROFILAKTIK ISHLARNING UZVIYLIGINI TA'MINLASH ZARURIYATI

Ilhom SUVANOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti Ilmiy kotibi, falsafa fanlari doktori(DSc)

Bugungi kunda jiddiy axborot tarbiyasini olib borishni zaruratga aylantirayotgan axborot sohasidagi kurashlar, bu jabhadagi xurujlar va tahdidlar o'zining boy tarixiga ega. Ayniqsa, XXI asrga kelib, axborot kommunikatsiyalari orqali turli yot g'oyalar va mafkuralarni tarqatish ma'naviy kurash quroli sifatida yanada takomillashdi. Bu usul ilgarilari ham mafkuraviy kurash quroli sifatida qo'llanilgan edi. Hozir ham jahon mafkuraviy kurash taktikasida turli yolg'onlarni tarqatish (dezinformatsiya) usuli radio, TV, gazeta-jurnallar orqali targ'ibot va tashviqot qilish bilan bir darajaga qo'yilishi bejiz emas. Bunday harakatlar natijasida jamiyatni ma'nan buzish, davlat siyosatini obro'sizlantirish, yoshlarimizda o'ziga, oilasiga, kelajakka ishonchsizlik, befarqlik tuyg'ularini uyg'otish, ularda o'z Vatani, millati himoyasiga nisbatan loqaydlikni tarbiyalashga erishishga harakat qilinmoqda.

Shuningdek, bu borada xususiy faktlarni umumlashtirish (ekstropolyatsiya), yolg'onni haqiqatga o'xshatish, kichik muammodan katta yolg'on yasash, xis-hayajon va tuyg'uni aqldan ustun qo'yish kabi usullar ham qo'llaniladi. Afsuski, targ'ibot-tashviqot ishlaridagi rasmiyatchilik, ma'naviyat va mafkura borasida qanchalik muhim ishlarni amalga oshirayotganimizga qaramay, ba'zi o'rinlarda, afsuski kech qolayotganimiz bu ishda pand bermoqda. Darhaqiqat, ko'p hollarda axborot sohasidagi tahdidlar, uning o'ziga xos sababi va manbalarining oldini olish o'rniga, aksincha, oqibati bilan kurashishga to'g'ri kelmoqda. Ba'zida, bu sohada ham nihoyatda zarur bo'lgan xushyorlik, tezkorlik, ogohlik yetishmaydi. Vaholanki, axborot ta'limi va tarbiyasi bizni bu boradagi yaqinlashib kelayotgan ichki va tashqi tahdidlardan ogohlantirishi, ularning asl sabablarini ko'rsatishi, g'oyasizlik va salbiy xatti-harakatlarga qarshi kurashishga o'rgatishi kerakligi bugungi davrning talabiga aylangani shubhasiz. Bu esa, ta'lim muassasalarida o'quvchilar va yoshlar orasida olib boriluvchi ma'rifiy ishlarning ularda axborot xavfsizligi bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishga nisbatan o'ta dolzarb ijtimoiy buyurtmani ifodalaydi. Ayni paytda bu, o'quvchi va yoshlarda ommaviy axborot vositalari orqali

olinayotgan xabarlar, bilimlar asosida jamiyatimizning siyosiy, ma'naviy-axloqiy muhitida yuz berayotgan voqea-hodisalarga oqilona munosabatni qaror toptirish, ularda ilmiy mushohada, ma'rifiy tafakkurni shakllantirish mumkinligini anglatadi.

Ma'lumki, OAV orqali kelayotgan salbiy tashqi ta'sirlar va yot g'oyalarga berilish – bu jamiyatning ma'naviy-axloqiy me'yorlariga zid bo'lgan ayrim xatti-harakat yoki harakatlar tizimi sifatida baholanadi. Bu jihatdan axborot ta'limi va tarbiyasi yoshlarni bu soha bilan bog'liq buzilish, aynishdan asrashga qaratilgan ma'rifiy yo'nalishni ifodalaydi. Bobolarimiz yaratgan eng qadimgi manbalarda, allomalarimizning asarlarida bu boradagi tamoyillarning tamal toshlari qo'yilgan, desak yanglishmaymiz. "Buning namunalarini XI asrda yashagan alloma Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi "G'ofil odam ko'z yumib g'aflat uyqusiga botadi, ey irodali mard, g'ofil bo'lma, hushyor bo'l", XII asr oxiri – XIII asr boshida yashagan Ahmad Yugnakiyning "Hibbat–ul haqoyiq asaridagi "Yomonga yaqin yurma, yomonning suhbati tezlik bilan oni yaramas qiliqqa o'rgatadi" kabi purhikmat fikrlari ana shundan dalolat beradi. Alloma bobomiz Alisher Navoiyning "Agar ogoh sen, shohsen" degan o'giti ham ayni shu ma'noni anglatadi"[13].

Ma'lumki, jamiyat rivoji, ilm-fan va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotning yangi bosqichi boshlanganida u yoki bu atama yoki tushunchalar mazmun-mohiyatiga aniqliklar kiritilib, boyitib boriladi.

Axborot tarbiyasi ayrim yoshlarning ba'zi kattalar, ota-onalar va tarbiyachilarning noto'g'ri xulqiga ko'r-ko'rona ergashishini ham oldini oladi. Bu borada yosh shaxsning har qanday tashqi munosabatni ochiq, tahlilsiz qabul qilishi, haqqoniyatga nisbatan ishonchsizlik hissini tuyishi, xafaqonlik, o'ch olishga intilishi kabilar muqarrar ravishda hisobga olinadi. Bunday holatda axborot tarbiyasi har bir o'quvchi va yoshlarni buzg'unchi g'oyalarga asoslangan ijtimoiy xavfli xulqdan asrash, ularni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish – ezgu g'oyalarga sadoqat ruhini shakllantirish asosida yaxshi xulqni guruhiy shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Yoshlarning axborot tarbiyasida hisobga olish lozim bo'lgan va buzg'unchi g'oyalarga moyillikni shakllantiruvchi xususiyatlarning quyidagi shakllari mavjud:

- boshqa kishilar bilan o'zaro muloqotda agressiv qilmishlarga moyillik; muammolarni zo'ravonlik yo'li bilan hal etishga intilish, o'zining kimligini ko'rsatib qo'yish maqsadida sherigini kamsitishga intilish;

- o'z-o'ziga zarar keltiruvchi buzg'unchi xulqqa moyillik, ya'ni, o'z hayotining qadrini pastga urish, qaltis ishlarga moyillik, chegarasiz

[13] Жураев Н. "Агар огоҳ сен... Портретга чизгилар. Сиёсий эссе". – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 271 б.

ZJV5401

hislarga berilish va shu kabilar;

- adolatli haqqoniylikdan chekinishga intilish, shaxsiy muammolarni xayoliy – kompensatorlik usuli bilan hal etishga moyillik, hayotning faqat hissiy tomoniga e'tibor berish, sensor turli gedonistik me'yor va qadriyatlarni ustivor bilish;

- jamoaviylikka zid xulqqa moyilllik, ya'ni, mahalla, qo'ni–qo'shni, sinfdoshlar va kursdoshlar uchun xos bo'lgan hayot tarzi va axloqiy me'yorlar bilan kelishmaslik, bunga qarshi salbiy xulq orqali amaliy faoliyat olib borish.

Ana shularning barchasi yoshlar orasidagi axborot tarbiyasining metodologik jihatdan muayyan yo'naltirilgan xususiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi va yoshlar bilan ishlashning ta'siri samarasini oshiradi. Yoshlar bilan alohida axborot tarbiya ishlarini olib borish maxsus tarbiya yo'nalishi sifatida talqin etilishi ham mumkin. Bunda axborot tarbiyasining quyidagi asosiy vazifalarini belgilab olinishi mumkin:

• yoshlar orasida irodasi bo'sh, huquqbuzarlikka moyil yosh shaxslarni, shuningdek, ularga salbiy ta'sir etayotgan ota-onalar va boshqalarni o'z vaqtida aniqlash;

• yoshlarning yot g'oyalarga berilishlariga sabab bo'ladigan sabab va muhitni bartaraf etish, yoshlarning an'anaviy milliy qadriyatlardan uzoqlashishdan himoya qilish.

Axborot tarbiya sub'ektlarining tarbiyaviy-profilaktik ishlarining o'zaro aloqasi va uzviyligini ta'minlash, yomon xulqli yoshlarning kundalik hayot faoliyatini kuzatish, axborot profilaktika tadbirlarini to'g'ri tanlash nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda har bir yoshlarga alohida profilaktik ta'sir ko'rsatish o'smir ongiga milliy axloq me'yorlariga doimiy rioya qilish zarurligini singdirish hamda ularga tarbiyaviy va nazoratli ta'sir o'tkazish metod va usullari, ijobiy xislatlarni shakllantirish va salbiy jihatlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ayni paytda, o'quvchi va yoshlarga salbiy ta'sir etadigan ma'naviy buzg'unchi omillarni bartaraf etish va ularning munosabatlarni o'zgartirish tizimini o'rnatish maqsadida axborot muhitiga ta'sir etish shakllarini belgilash zarur bo'ladi. Bu esa, har bir yoshga samarali ta'sir eta oladigan ijobiy axborotlarga tayanadigan ta'sir vositalarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ijobiy axborot asosida o'quvchi yoshlarni dasturini amalga oshirishda quyidagi talablarga rioya qilish zarur:

- axborot tarbiyasi jarayonining mazmunliligi, yo'naltirilganligi, uzviyligi; bir tomondan o'quvchi yoshlarga ma'naviy-ma'rifiy talablarni o'rgatish, boshqa tomondan, ular shaxsining xususiy jihatlari va umumiy taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganish;

- yoshlarning ichki, ko‘pincha tashqi jihatdan namoyon bo‘lmagan ijtimoiy foydali manfaatlari va qobiliyatini qo‘llash va rivojlantirishda ularni tarbiyalashda majburlashga yo‘l qo‘ymaslik;

- o‘smirning faolligi, unga ijobiy ta’sir o‘tkazilayotganligini sezishi, bunda tashabbuskorlik va irodani namoyon etishi.

Alohida axborot tarbiyasi profilaktik ta’sir dasturini ishlab chiqishda yetakchi maqsad qilib o‘smirning barcha uchun qabul qilingan me’yor, qoida va boshqa ijtimoiy qadriyatlarga rioya qilishiga erishish belgilab olinadi. Qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib, vazifalar doirasi aniqlanadi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- yoshlarning axborot tarbiya asosidagi ijobiy ma’naviy jihatlarini mustahkamlash va rivojlantirish;

- yoshlarda muloqot madaniyati, ijtimoiy mas’ullik va faollik hissini uyg‘otadigan axborot tarqatish.

Axborot tarbiyasi yoshlar faolligini hisobga olishni talab qiladi, uning maqsadi salbiy ta’sir xususiyatini bartaraf etishga qaratilgan tegishli tadbirlarni amalga oshirishga imkon berishdir. U o‘z–o‘zini idora qilishning ijobiy tamoyillarini o‘rnatadi yosh shaxsning umumiy ijobiy yo‘nalishining shakllanish jarayonini tezlashtiradi. Alohida ta’kidlash joizki, turli buzilishlar, rasmiy bo‘rttirish va qo‘shib yozishlar “foiz ketidan quvish” kabilar ta’lim muassasasining axloqiy nufuzini pasaytiradi yoshlar va o‘quvchilarning tayyorgarlik sifatiga salbiy ta’sir etadi. Sobiq ittifoq davriga xos bunday illatlar keyingi yillarda turli mutaxassislar, jamoatchilik tomonidan keskin tanqidga uchradi va xalq ta’limini jiddiy ravishda isloh qilishni taqazo eta boshladi. Shu bois, milliy mustaqillikning boshidanoq, iqtisodiy-siyosiy va ma’naviy hayotni isloh qilish jarayonida davlat va o‘sib kelayotgan avlod tarbiyasidagi zarur masalalarni hal etishga alohida e’tibor qaratila boshlandi.

Bugungi kunda yoshlar axborot xurujlari orasida xalqaro terrorizm, yovuzlikni targ‘ib qiluvchi filmlar, G‘arb axloqsizlik falsafasi, prozelitizm, diniy ekstremizm kabi tahdidlar ta’siriga qarshi axborot tarbiyasining nazariy va uslubiy jihatlari, shakl va vositalarini ishlab chiqish va joriy etish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu jihatdan “yoshlarning axborot tarbiyasida jamiyat hayotida yuz beradigan o‘zgarishlar insonlar hayoti va turmush tarziga ham o‘zgarishlar kiritishi, bunday jarayonlarning stixiyali tarzda amalga oshmasligi, balki, jamiyatning ma’naviy-axloqiy darajasi, umummilliy g‘oyasi vositasida shakllanib borishini nazarda tutish lozim. O‘z navbatida bu, yurtimizda umumiy tinchlik va barqarorlikning ta’minlanishi jarayonida barpo etilayotgan demokratik

jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi”[14]. Yoshlarning axborot tarbiyasi bu muayyan hudud yoki ta’lim muassasasida shaxs, guruh, jamiyatdagi mavjud bunyodkor g‘oyalarni saqlashga, buzg‘unchi g‘oyalar tarqalishining oldini olishga yo‘naltirilgan, aholi, ayniqsa, yoshlarni turli axborot xurujlardan himoya qilish manfaatlarga milliy g‘oyaga sadoqatni mustahkamlash maqsadlariga qaratilgan ma’rifiy tadbirlar majmuini ko‘zda tutadi. Bu ma’noda, yoshlar axborot tarbiyasining ilmiy-falsafiy tahlili va zamonaviy jihatlarini o‘rganish natijasida quyidagilarni amalga oshirish lozimligi haqida fikr yuritish joiz, deb hisoblaymiz:

- ota-onalar va jamoatchilik yordamida ota-bobolarimiz e’tiqod qilgan milliy ma’rifat tamoyillarini amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha qatnashchilari orasida milliy qadriyalarga sodiqlik g‘oyalarini targ‘ib qilish, terrorchilik, aqidaparastlik va davlatimiz intilishiga zid buzg‘unchi g‘oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashish tuyg‘ularini hosil qilishga intilish;

- yoshlar orasida zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilish, o‘smirlarni dunyoviy bilimga bo‘lgan intilishlarini shakllantirish, ularning turli norasmiy axborot ta’limi olishini qat’iyan oldini olish choralarini ko‘rish;

- har bir ta’lim muassasasida huquqiy, psixologik, ma’naviy va ma’rifiy bilim beruvchi institutsional tizim faoliyatini tashkil qilish;

- axborot tarbiyasida yaxshi natijalarga erishgan o‘qituvchi, murabbiy va ota-onalarning tajribalarini ommalashtirish, bu borada OAVning barcha yo‘nalishlaridan unumli foydalanish;

- yoshlarning darsdan bo‘sh faoliyatining axborot bilan ta’minlanganlik samaradorligini oshirish va bunda turli to‘garaklar, klublar, tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar tashkil qilishga e’tibor qaratish;

- yoshlar ta’tili va kundalik bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha turli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish jarayonida ota-onalar, professor-o‘qituvchilarning taklif-mulohazalarini o‘rganib harakat qilish, bu boradagi takliflarni hisobga olish kutilgan natijaga erishish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жураев Н. “Агар огоҳ сен... Портретга чизгилар. Сиёсий эссе”. – Тошкент: Ёзувчи, 1998. – 271 б.

2. Бутаев У. Ўзбекистонда демократик жамият ривожида тинчлик ва барқарорликнинг ўрни. Фалсафа фан. докт. (PhD)дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2018.

[14] Бутаев У. Ўзбекистонда демократик жамият ривожида тинчлик ва барқарорликнинг ўрни. Фалсафа фан. докт. (PhD)дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2018.

ZJV5401

GLOBALLASHUV SHAROITIDA DINIY E'TIQOD KONTINGENTIDAGI PADIKAL O'ZGAPISHLAP VA MISSIONEPLIK TAHDIDINING RIVOJLANISH DINAMIKASI

Mansur MUSAEV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlari doktori (DSc)

Jahon tarixida diniy radikalizmning ko'rinishlari ma'lum bir din bilan shegaralanib qolmaydi. Diniy ksenofobiya sabab urushlar ham ko'payib bormoqda. Unga VI-VIII asrlardagi arablar bosqinlari, qasos olish maqsadidagi rekonkistalar, XI-XIII asrlardagi mashhur salib yurishlari, so'nggi o'rta asrlarda Evroradagi katoliklar va rpotestantlar o'rtasidagi son-sanoqsiz to'qnashuvlar, Hindiston va Pokiston o'rtasidagi ziddiyat, XX asrda avj olgan va hozirgi kungasha davom etayotgan Falastin va Isroil o'rtasidagi Yaqin Sharqdagi qurolli mojaro, Isroil va Eron o'rtasidagi tafovut va xilma-xillik va qurolli to'qnashuvlar, Islomdagi shialar va sunniylar bunga yaqqol dalildir.

Ma'lumki, O'zbekistonda etnik o'zbeklar ko'p bo'lishiga qaramay, boshqa millatlar ham ko'p. Ularning ham o'ziga xos tarixiy diniy e'tiqodlari bor. Mustaqillik yillarida diniy radikalizmning ko'rinishlari, buzg'unshi diniy oqimlarning salbiy ta'sipi O'zbekistonni ham shetlab o'tgani yo'q. Tarixdan bilamizki, asrlar davomida xalqimizning an'anaviy qadriyatlari va islom qonunlari o'zapo uyg'unlashib, bugungi kungasha saqlanib qolgan. Ammo mana shunday shukuronalik kunda oliy ne'mat hisoblanmish tinshlikni qadriga yetmasdan "o'zga yurtdan" baxtini izlayotgan dunyoda turli millatlar va dinlar o'rtasida tinshlik va hamjihatlik maskani sifatida tan olingan O'zbekistonni tark etib, urush davom etayotgan Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada «Islomiy davlat» jangarilarining «xalifaligi»ga intilayotgan "ayrim" insonlar soni ko'payotganligi tashvishlidir. Ayniqsa, so'nggi o'n yilda «dinni himoya qilamiz» bahonasi bilan olis Suriyaga borib, nafaqat o'zini, balki oilasi, farzandlarini ham xorijga olib ketgan vatandoshlarimiz soni ko'paydi. Bu salbiy siyosiy xarakterdagi diniy mafkura bilan zaharlangan ongning yaqqol namoyonidir. Ularning ko'pshiligi davlat idoralari tomonidan qayta-qayta uyushtirilgan Mehr operasiyasi orqali mamlakatga qaytarildi. «O'tgan davp mobaynida «qaynoq nuqtalar»dan qaytarilgan yurtdoshlarimiz davlat va jamoatshilik tashkilotlari, mehr-oqibatli fuqarolarimiz yordamida jamiyatimizda o'z o'rnilarini topib ketganlarini

alohida ta’kidlash lozim»[1]. Shu bilan bir qatorda, hozirgi kunda din sohasidagi amalga oshirilayotgan islohatlar mazmun mohiyatini to‘g‘ri anglamasdan qonunshilikka zid harakatlarni olib borayotgan ko‘plab ziddiyatli tashkilotlar, jumladan xristianlikning protestant yo‘nalishilari ham mavjud. Bu mamlakatda, ayniqsa, mustaqillikdan keyin paydo bo‘ldi va etnik o‘zbeklarni turli yo‘llar bilan o‘ziga jalb qilgan tashkilotlar orasida kuzatildi. «Respublikada diniy sohada qonun va me’yoriy hujjatlarning talablarini buzish aksariyat hollarda «Iegova guvohlari», «To‘liq injilshi xpistianlari», «Ettinshi kun xpistian adventistlari», «Evangel xpistian baptistlar sherkovi», «Golos Bojiy» sherkovlari, Koreys-protestant sherkovlari, shuningdek, Bahoiy diniy jamoalari va Krishnani anglash jamiyatining ayrim rasmiy va norasmiy jamoalari vakillari tomonidan amalga oshirilmoqda»[2]. Natijada, mazkur holat, o‘zbek xalqining tarixan shakllangan dunyoqarashiga zid bo‘lganligi sababli oilalarning buzilishi, jamoatshilikning salbiy fikrlarini shakllantirishi ko‘p kuzatiladi.

O‘rganilgan axborot tahlilliy natijalarga ko‘ra, o‘z dinidan voz keshib o‘zga dinni qabul qilgan shaxslar (prozelit)larning aksariyati afsuski, diniy ongi shakllanmaganligi va din to‘g‘risida holisona fikrga ega emasligi tufayli missionerlar tomonidan «puxta» qo‘llanilgan usul, kushli targ‘ibot ta’siri ostida o‘zlarini e’tiqodini o‘zgartirmoqda.

Bugungi kunda dunyoda ro‘y berayotgan qurolli to‘qnashuvlarning mutlaq ko‘pshiligining asosiy sabablaridan biri diniy oqimlar to‘qnashuvi ekanini inobatga olsak, bu barshamizdan jiddiy fikrlashni taqoza etadi. Mamlakatimizda ham xorijlik missionerlar o‘z dinini faol targ‘ib etayotganligini kuzatish mumkin.Turli diniy kitob va risolalarni tarqatib, yosh avlod ongini shalg‘itib, zaharlamoqda. Bu jirkansh xatti-harakat natijasida o‘zga dinga o‘tib, e’tiqod qiluvshi, da’vatshi bo‘lib qolgan kishilar soni kundan-kunga ortib bormorda. Missionerlarning asosiy maqsadi yoshlarimizni milliy zaminimizdan, boqiy qadriyatlarimizdan, ma’naviyatimizdan mahrum qilib, manruptga aylantirishdir. «Huquqiy demokratik fuqarolik jamiyatini barpo etishda buyuk ma’naviyatimiz bo‘lgan muqaddas dinimizni, avvalambor, demokratik tamoyillarga asoslangan turli buzg‘unshi g‘oyalardan asrash muhim ahamiyatga ega»[3]. Shu o‘rinda, bugungi kunda inson qalbi va ongiga salbiy ta’sir o‘tkazishga intilayotgan internet va ijtimoiy tarmoqlar ham sergaklikka undaydi.

Diniy saytlarda ma’lumotlar va kontentning ko‘pligi va mavjudligi diniy ekstremistik g‘oyalarning tarqalishiga zamin yaratmoqda. «Ijtimoiy tapmoqlar bugungi kunda oila, maktab, madrasa, sherkov, sinagoga, budda

ibodatxonalarining o‘rnini egalladi va kushli tashkiliy omilga aylandi»[4]. Zero, bunday diniy saytlarga muayyan sheklovlar qo‘yish, ular nima bilan shug‘ullanayotgani, qaysi yo‘nalishda faoliyat yuritayotgani va qanday materiallar shop etayotganini aniqlash, mamlakatda yovuz g‘oyalarning tarqalishini qat’iy taqiqlash zarur.

Sir emaski, ayrim xorijiy davlat idoralari, xayriya jamg‘armalari, nodavlat notijorat tashkilotlari, moliyaviy guruhlar missionerlik tashkilotlarini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlab, hamkorlik qilib kelmoqda. Ertaga xorijlik moliyaviy va missionerlik guruhlari va kushlari boshqa din va sektalarga kirib ketgan vatandoshlarimizdan bizga qarshi foydalanmasligiga kim kafolat bepa oladi?! Bu tahlikali hodisa bir kun kelib millatimiz, yurtimiz ildizlariga zarba berishi mumkin. Yurtimiz, millatimiz, yosh avlod taqdirini o‘ylasak, bu masalaga befarq bo‘lmasligimiz kerak.

Davlat fuqarolarning diniy e’tiqod qilish erkinligini tan oladi va ayrim diniy masalalarni qonun bilan tartibga solishga harakat qiladi. Bir so‘z bilan aytganda, davlat va din o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni «ho‘kizni o‘ldirmasdan, apavani sindirmasdan» saqlab qolish hap ikki tomondan ham katta mas’uliyat talab qiladi. Shuning ushun qonunlarda ushraydigan «dunyoviy jamiyat» tushunshasiga aniq va har tomonlama izoh berib, dinning davlatdagi o‘rni va davlat huquqlarini belgilab berish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Ko‘pgina davlatlar dunyoviy davlatlar deb atalsa-da, u yerdagi tarixiy sharoitga qarab, o‘sha davlatning «asosiy din» yoki «davlat dini» mavqei ham o‘rin oladi. Masalan, Gruziya Konstitutsiyasida «Pravoslav sherkovining alohida roli e’tirof etilgan» deb ta’kidlangan bo‘lsa, Bolgariya Konstitutsiyasida «Sharqiy pravoslavlik an’anaviy din hisoblanadi» degan so‘zlar mavjud. Nemis ishshilari ish haqining ma’lum foizi sherkovga davlat darajasida soliqqa toptiladi. 60 foiz musulmon bo‘lsa-da, Malayziyada din erkinligi mavjud, davlat dini Islomdir. Hatto dunyoviy davlat hisoblangan Italiyada ham katolik dini davlat dini sifatida tan olingan.

Insoniyat hayotida din alohida o‘rin tutadi. Dunyoda ko‘plab dinlar, konfessiyalar, an’anaviy va jahon dinlari mavjud. Ularning paydo bo‘lishi, jamiyatga ta’siri, ishki qonunlari, munosabatlari, dunyo va mahalliy siyosatga ta’siri, boshqalar tomonidan tan olinishi yoki tan olinmasligi har xil va sezilarli farqlarga ega. Dinning insonlarni ezgulikka, birodarlikka tarbiyalovshi jihatlari ko‘p. Bipoq din qonun-qoidalaridan o‘z salbiy maqsadlarida foydalanib, ongni manipulyasiya qilib, mamlakat va jamiyatni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirmoqshi bo‘layotgan, aslida katta zo‘ravonlikka olib keladigan guruhlar yoki shaxslar ham bor.

Insoniyat asrlar davomida diniy radikalizmdan aziyat shekdi. Dinning radikal tabiati dinning turi yoki nomiga bog‘liq emas. Bu dindan o‘z siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarida foydalanish niyatida bo‘lgan ayrim guruhlar va shaxslarga bog‘liq. Dunyodagi vaziyat diniy g‘oyalar va shart-shapoitlardan radikal maqsadlarda foydalanishga barham berish ekstremizm va terrorizmga olib kelishini ko‘rsatmoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: «Xalqaro miqyosda dindan «yumshoq kush» vositasi sifatida foydalanib, siyosiy, madaniy va gumanitar ta’sir zonalarini kengaytirishga urinishlar kuzatilmoqda»[5]. Umuman olganda, jahon sivilizasiyalari azaliy qadriyatlar va tarixiy voqealar kontekstida shakllanadi. Asrlar davomida shakllangan ma’naviy qadriyatlar, urf-odatlar, qarashlar osonliksha o‘zgarmasligi, o‘zgargan taqdirda ham ma’lum darajada ma’naviy va qurolli to‘qnashuvlarga olib kelishi aniq. Hesh kimga sip emaski, o‘rganilgan qadriyatlar inson ongi va jamiyat hayotidan osonliksha ajratilmaydi.

XX asr o‘rtalariga kelib dunyoda mustamlaka tuzumlarini inqirozi global missionerlikka bo‘lgan ehtiyojni tugatishga zamin yaratdi. Ammo, bugungi kunda G‘arb madaniyatining o‘z ustunligidan mahrum bo‘lganiga ko‘nikish hosil qila olmaydigan ayrim radikal guruxlar missionerlikdan voz keshmayotganligi namoyon bo‘lmoqda. Xususan, missionerlik tarafdorlari o‘zga sivilizasiya resurlarini eskpulatasiya qilish hisobiga iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarning ko‘pgina jihatlarida yorqin muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Shu o‘rinda, missionerlik tashkilotlarining stpategiyasiga e’tibor qaratilsa, odatda ular o‘z maqsadlarini rasman oshkor etishmaydi. Tashkilot a’zolari go‘yoki, o‘z g‘oyalarini niqoblash maqsadida «bizning maqsadimiz – kambag‘allikni umuman yo‘q qilish» degan so‘zlar ortida aslida esa «hamma ekkanini o‘radi», «bo‘lib tashla va hukmponlik qil» deya shiroyli niqoblangan shiorlar ostida faoliyat ko‘rsatishi namoyon bo‘lmoqda. Aynan, bugungi kunda dunyoda global miqyosda demokratiya o‘rnatilishi, insonlarning huquqlarini ta’minlanishi bahonasida missionerlik oqibatida Shimoliy Afrikada, Yaqin Sharqda va Sharqiy Evropa hususan, Ukrainada yuz minglab begunoh insonlarni bevaqt vafot etishiga sabab bo‘lganligini ta’kidlash o‘rinlidir.

Xristianlik missionerlik faoliyatining ilohiy asoslari va baholanishi bilan shug‘ullanuvshi ilmiy fan «missionerlik ilohiyoti», umuman olganda missionerlik faoliyati bilan bog‘liq barsha faoliyat bilan shug‘ullanuvshi fan esa «missiologiya» deb ataladi. Hozirgi kunda dunyo hamjamiyatining tinshligiga rahna solayotgan missionerlik tashkilotlari o‘zlarining asl maqsadlarini din manfaatlari bilan niqoblashga urinadi. Shu bois bunday missionerlik guruhlarining va’zlarida Xudo ko‘p tilga

olinadi. Natijada, xristianlik dini va xususan G‘arb loyihasi xalqaro axborot tarmog‘ida dunyodagi eng ilg‘op, taqlid qilsa arziydigan mafkura sifatida targ‘ib qilinadi. Aynan, mazkur omillar, missionerlik jabhasidagi hujum keng miqyosda, shinakam global darajada olib borilmoqda.

Bu haqda Rus tadqiqotshisi A.Panarin bundan 15 –20 yil muqaddam missionerlarni «dengiz qaroqshilari» deya atab, ularning faoliyatini obrazli tarzda zabt etish jarayoni sifatida tasvirlagan edi: «quruqlikdagi bosh istehkom, dunyoning asosiga qarshi... Bugun Dengiz qit’ani nafaqat jismonan zabt etishni, u qit’a etosini – ming yillar davomida ishlab shiqilgan va qit’a antropologik qiyofasi ushun javobgar bo‘lgan ruhiy-psixologik strukturasini vayron etishni reja qildi. Shu maqsadda qit’a aholisini avtoxtonlar va beshinshi kolonnaga bo‘lish operasiyasi olib borilmoqda, beshinshi kolonnadan ko‘zlangan maqsad esa dengiz kelgindilariga qit’a qal’asining darvozalarini oshib berishdir. Ko‘z oldimizda «elita» (madaniy, siyosiy, xo‘jalik yurituvshi) tushunshasining o‘zi misli ko‘rilmagan darajada o‘zgaptirib yuborilmoqda... G‘arbcha kun keshirish imtiyozini, bu imtiyoz ko‘pshilikka yoriq ekanligiga qaramay, o‘zlashtirayotganlar o‘zlarini elita so‘zi bilan atay boshlamoqda. Elita bugungi kunda dengiz qaroqshilapiga sadoqatliligi, ularning kemasiga o‘tib olishga tayyorligi bilan xarakterlanmoqda»,– deya alohida e’tibor qaratib o‘tgan edi. Missionerlikda bu o‘ziga xos «zabt etish» japayonining eng ta’sirshan jihatlaridan biri sifatida manfaatlar qadriyatlar ko‘rinishida namoyon etiladi. Aynan, globallashuv shiddatining tobora avj olishi dunyo miqyosida geosiyosiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, mazkur holat dunyo qiyofasini tubdan o‘zgartirish orqali muayyan mintaqa va hudud miqyosida geosiyosiy ta’sir doiralarini qayta taqsimlashga bo‘lgan harakatlar misolida namoyon bo‘lmoqda. Missionerlik go‘yoki, dinni targ‘ib etish orqali amalga oshirilayotgan targ‘ibot aslida siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan ekspansiya etishni o‘zida aks etadi.

Xorijiy OAVda missionerlik faoliyati o‘rganilganda, «ayrim» siyosiy markazlar, maxsus xizmatlar manfaatlari ushun ishlayotganligi haqidagi ma’lumotlar paydo bo‘lmoqda. Jumladan, «rosssiyalik ekspertlar protestantlikka mansub mormonlap sherkovi AQSh maxsus xizmatlari ushun josuslik faoliyati bilan shug‘ulanadi, deb hisoblaydilar»[6].

Globallashuv jarayonida iqtisodiy inqiroz davrida dunyoda gegemonlik qilishga intilish tobora kushaymoqda. Bir nesha asr oldin koloniyalashtirish xpistianlikning shioriga aylangan bo‘lsa, hozirda «jahonga kipib borish»[7], aynan missonerlik hapakatlari oqibatida tobora kushayotganligi namoyon bo‘lmoqda. Axborot-

tahliliy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, diniy sohaga bevosita daxldor ushbu global hodisalarning tobora shuqurlashib va keng qamrov kasb etib borayotganini ko‘rsatadi. Zepo, bugungi kunda dunyoda vujudga kelayotgan tahlikali vaziyatga baho berar ekanmiz, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlarning ko‘lami kengayib, geosiyosiy raqobatning oshib borayotgani, g‘oyaviy-mafkuraviy ekspansiyaning faollashuvini namoyon etmoqda. Mana shunday murakkab sharoitida mamlakat xavfsizligi va jamiyat barqarorligiga, uning manfaatlariga, millat kelajagiga raxna soladigan har qanday kushga qarshi kurashda biz faqat xalqimizning aql-zakovati, bukilmas irodasi va salohiyatiga, o‘z kush va imkoniyatlarimizga tayanib mafkuraviy tarbiya vositasida doimo ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish mas’uliyatli muqaddas vazifamiz ekanligini anglash bugungi davr va bugungi zamon taqoza etmoqda.

Missionerlar nasroniy ta’limotini boshqa insonlarga etkazishda ushta muhim unsurga katta ahamiyat berishadi: a) vaziyatni yaxshi aniqlash; b) nozik yondashuv; v) maqsadlar tayinli bo‘lishi. Mazkur unsurlarning amalga oshishi ushun faoliyat yo‘naltirilgan xalqlar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatilishi muhimdir. Buning ushun avvalo o‘rtoqlik va do‘stlik muhiti yuzaga keltiriladi. «O‘rtoqlik evangelizmi» deb nomlangan uslub «yangi muhitni shakllantirish»ga asoslangan. O‘rtoqlik evangelizmidan maqsad – odamlarga avvalo asl maqsadni oshiq-oydin bildirmay, ulap bilan uyg‘un do‘stlik zaminlarini yuzaga keltipish, ularni sho‘shitmay, yaxshi suhbatdosh sifatida tinglash, madaniy saviyalari bilan sosial va madaniy ildizlarini, ishonsh va madaniy qadriyatlarga bog‘liqlik saviyalari hamda muammolarini aniqlash, shundan keyingina qulay sharoitda ularga xpistian ta’limotini etkazishdir»[8]. Masalan, bu borada kafelarda, yoshlar davralarida, tungi klublarda, savdo va sport markazlarida, madaniyat va ijtimoiy yordam jamg‘armalari singari joylarda kishilar bilan do‘stlik o‘rnatishga, do‘stlar orttirishga harakat qilinadi. Shunday qilib, Britaniya missionerlik jamiyati har yili o‘rta maktab o‘quvshilari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazib, eng iqtidorlilarini tanlab oladi va ularni kelajakdagi maqsadlari ushun turli mamlakatlarda o‘qitadi. Missionerlik tashkilotlari o‘z faoliyati ushun odatda kambag‘al, davlatshiligini to‘liq mustahkamlamagan yoki inqirozni boshidan keshirayotgan mamlakatlarni tanladilar. Shunki u holda o‘sha davlat qarshilik ko‘rsata olmasdi. Missioner oldida turgan eng katta vazifa o‘zi a’zo bo‘lgan millatni ildizidan siqib shiqarish, uni milliy-axloqiy qadriyatlaridan uzoqlashtirish, bu millatning ong ostiga yangi (oldindan belgilangan) o‘zlikni joriy etish edi.

Dunyoning turli burshaklarida missioner tashkilotlar tashkil etgan

lager va sayohatlarda oldindan aniqlanib, tanlangan kishilar faol ish yuritadilar. «O‘rtoqlik evangelizmidan maqsad - odamlarga boshda asl maqsadni oshiq bildirmay, ular bilan uyg‘un do‘stlik asoslarini yuzaga keltirish, ularni sho‘shitmay, yaxshi suhbatdosh sifatida tinglash, madaniy saviyalari bilan ijtimoiy va madaniy ildizlarini, ishonshi va madaniy qadriyatlarga hurmat saviyalariyu muammolarini aniqlash, shundan keyingina qulay sharoitda ularga nasroniy ta’limotini etkazishdir»[9].

Shuni aytish mumkinki, radikal diniy g‘oyalar jamiyat tinshligini buzayotgani azaldan isbotlangan. Ilm-fan va ta’lim ravnaq torayotgan XXI asrda dinga oqilona, jiddiy, zamonaviy shart-shapoitlarga mos ravishda amal qilinmasa, radikallashuvi aniq.

Xullas, birinchidan, missionerlik faoliyati jarayonida shaxsning ijodiy qobiliyatlari teatr, muallif qo‘shiqlari, adabiy uyushmalar va kino klublari ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Missionerlar yoshlar ushun jozibador bo‘lgan sport faoliyati sohalaridan foydalanishlari mumkin. Ijodkorlik har bir insonning shaxsiy salohiyatini rivojlantipib, hamma manfaati ushun jamoat hayotiga aylanadi. Kino va televidenie ham pravoslav dinining manbalari hisoblanadi. Shunki zamonaviy jamiyatda kino va televideniya inson ongida qudratli kushdir. Shuning ushun pravoslav sherkovi o‘z faoliyati davomida ma’naviy-axloqiy, madaniy-ma’rifiy dasturlar orqali odamlarga, jumladan, yoshlarga yaxshi va yomonni ajratishga o‘rgatadi. Ikkinshidan, missioner o‘zi boradigan davlatning tili, madaniyati, tarixi va kamshiliklarini mukammal o‘zlashtirganida bu ishga tayyor hisoblangan. Shundan so‘ng, undan harakat rejasi so‘raldi va missionerlik faoliyatini o‘sha mamlakatning zaif nuqtalarida qurishga e’tibor berildi. Missionerlik tashkilotida o‘sgan ingliz missioneri o‘z xotiralarida shunday yozadi: Missionerlar bolalikdan mashg‘ulotlarga jalb qilinadilar, ularning kelajakdagi faoliyati belgilab olinadi va shunga ko‘ra tarbiyalanadi. Xulosa qilib aytganda Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “O‘zingiz ko‘ryapsiz, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali asosan shetdan, ba’zan hatto mamlakatimizning o‘zida ham Konstitusiya va qonunlarimizga zid pozisiyalar ilgari surilmoqda. Ba’zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitusiya va qonunlarimizga qarshi va ulardan ustun qo‘yish holatlari kushaymoqda. Diniy e’tiqod niqobi ostida yoshlarni ma’rifatga emas, jaholatga undayotgan kishilar paydo bo‘lmoqda”[10]. Zero, mazkur holatlar oqibatida dunyo miqyosida missionerlik harakatlari natijasida diniy adovat kushayib millatlar o‘rtasida ziddiyatlar avj olishga zamin yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ғойибназаров Ш. Ислом терроризмга қарши. Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – Б.204.

2. Хасанбоев Ў. Ўзбекистонда даавлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. Тошкент ислом университети. – Тошкент.: 2014. – Б. 119.

3. Танимов Ш. Миссионерство и прозелитизм как новая форма идеологической интервенции. Демократизация и права человека. 1/2022. – С.145.

4. Ғойибназаров Ш. Ислом терроризмга қарши. Тошкент: «O‘zbekiston» нашриёти, 2021. – Б.228-229.

5. Шавкат Мирзаёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Учинчи нашри. –Тошкент. O‘zbekiston. 2021.Б- 328.

6. Смирнов А. Великая миссия американских мормонов: код Ромни. Сайт «Радио голос России». 10.10.2012. URL: http://rus.ruvr.ru/2012_10_10/ Velikaja-missja-amerikanskih- mormonov-kod-Romni/.

7. «Азбука преподавания прав человека» (подготовлена ООН в качестве средства образования в области прав человека. – http://www.un.org/russian/hr/abc/ch3_12.html.

8. Гундуз Шиносий. Миссионерлик. Анқара. ТДВ. 2007.Б-77-78.

9. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

AXBOROT TARQALISHINING GORIZONTAL VA VERTIKAL YO‘NALISHI

Azizbek EGAMBERDIEV,
Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti dekani, falsafa fanlari doktori, professor

Globallashuv va raqamlashtirish jarayoni qanchalik ommaviy va universal xarakterga ega bo‘lmasin, har bir madaniyat va har bir jamiyatga unikal ta’sir ko‘rsatishi namoyon bo‘lmoqda. Misol uchun, mineral o‘g‘itlar madaniy o‘simliklarning rivojiga hissa qo‘shish bilan birga, yovvoyi o‘tlarning ham ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Ayrim hollarda esa yovvoyi o‘tlar mineral o‘g‘itlar hisobiga madaniy o‘simliklarni butkul yo‘qotib yuborishi ham mumkin. Shunga o‘xshash holatni axborotlashuv

jarayonida ham kuzatish mumkin. Axborotlashuv jarayonida ijtimoiy qadriyatlarning o‘ziga xosligi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday muammolarning eng asosiysi esa bilim va ma’rifatning qadriyat darajasiga yetmaganidir. Bu boradagi jarayonlarni quyidagicha tahlil qilish mumkin. Ma’lumki, raqamlashtirish jarayonida axborot gorizontal, ya’ni ma’lum bir jamiyat a’zolarini, boshqacha aytganda, axborot iste’molchilarini tanlab o‘tirmay tarqalaveradi, iste’mol qilishga majburlanadi. Soddaroq qilib tushuntiradigan bo‘lsak, O‘zbekistondagi faylasuflardan biri sifatida siz ijtimoiy tarmoqdagi “Falsafiy asarlar”, “Faylasuf ustozlar” yoki “O‘zbekiston faylasuflari” guruhiga a’zo bo‘lasiz. Bu bilan siz o‘rtacha saviyadagi falsafa domlasini qiziqtirishi mumkin bo‘lgan barcha ma’lumotlar bilan tanishishga majbur bo‘lasiz. Bu o‘rinda saviyaning ortishi qanchalik real degan savolga aniq javob berish qiyin. Lekin eng asosiysi ma’lumotlarning gorizontal tarqalishi natijasida inson kapitaliga putur yetadi, uning qimmatli vaqti va boshqa resurslari o‘rtamiyona odamning qiziqishlari uchun sarflanadi. Agar bu modelni kafedra, fakultet yoki har qanday katta-kichik jamoalarning ijtimoiy tarmoqdagi guruhlariga nisbatan tatbiq qilinsa, masala yanada oydinlashadi. Albatta, bunday guruhlar aksari o‘rtamiyona odamlardan iborat emas. Kasbiy va boshqa ijtimoiy mansublikka oid internet guruhlarining qator ijobiy tomonlari ham mavjud. Jumladan, jonli o‘zaro ijtimoiy muloqotning o‘rnini kompensatsiya qiladi, axborot almashinuvini ta’minlaydi, guruh yangi a’zolarining ijtimoiylashuviga ko‘maklashadi. Muammo shundaki, butun jamiyat a’zolari ichida bilim darajasi ancha past bo‘lganlar ko‘proq. Ularga axborot tarqatish imkoniyatining berilishi natijasida jamiyatimiz shu davrga qadar to‘qnash kelmagan salbiy holatlar – ommaviy behayolik, tovlamachilik va muttahamlik trend darajasiga chiqib bormoqda. Chunki shu kabi destruktiv kontentning qiziquvchilari ko‘proq va bunday ma’lumotga talab yuqoriroqdir.

Ma’lumotning gorizontal tarqalishi – dunyoqarashi va saviyasidan qat’i nazar, iste’molchilarga ma’lumotlarni ulashish va ko‘rishga majbur qiluvchi manbalar orqali tarqatishdir. Bu axborotlashtirishning eng salbiy tomoni va jamiyatda qadriyatlar transformatsiyasiga olib kelayotgan juda muammoli vaziyatlardan biridir. Bu holatni yanada yaxshiroq tushunish uchun bir qator misollarga murojaat qilamiz. Aytaylik, sovet davrida biror bir ijtimoiy muammo, masalan, ilm-fanning taraqqiyotdagi o‘rnini jamiyat a’zolariga tushuntirish, yetkazish uchun ma’lum bir tayyorgarlikka ega bo‘lgan kishilardan iborat lektorlar guruhi tuzilgan va ularga ma’lum hududdagi aholi punktlarida mavzudan kelib chiqqan holda tushuncha va ma’lumotlar berish, targ‘ibot ishlarini olib borish topshirilgan. O‘z

navbatida, joylardagi insonlar lektorlarni tinglagan va o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olganlar. Shu o‘rinda qiyoslashimiz yanada tushunarli bo‘lishi uchun ana shu lektorning o‘rniga mavzu bo‘yicha umuman ma’lumotga, bilimga ega bo‘lmagan, biroq jamoatchilik oldida yolg‘on gapirishdan toymaydigan insonni ko‘z oldimizga keltiraylik. Hammaning o‘z sub’ektiv dunyoqarashidan kelib chiqib aldashi tabiiy hol, ammo bunday targ‘ibotchilar ijtimoiy ongga salbiy ta’sir ko‘rsatishadi. Hozirgi kunda esa axborot makonida faol bo‘lgan, yetarli bilimga ega bo‘lmagan ayrim kishilarning turli hayotiy holatlarni talqin etishga urinishlarini, xatti-harakatlarini aynan ana shunday savodsiz, o‘zi bilmaydigan narsalar haqida boshqalarga tushuncha berishga urinayotgan odamga o‘xshatish mumkin. Ikkinchi misol, pandemiya sharoitida infodemiya deb nomlangan ijtimoiy hodisa yuz berdi va yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishi ortidan odamlarning halok bo‘lishi kuzatildi. Kasallik haqidagi miflar, kasallanganlarga qarshi nafrat va davolash bilan bog‘liq ijtimoiy tarmoqda tarqalgan xabarlar ortidan xalqaro miqyosda choralar ko‘rishga to‘g‘ri keladi[1]. O‘zbekistonda ham pandemiya davrida kasallikning yuqishi va davolanish bilan bog‘lik minglab asossiz axborotlar tarqatildi. Ushbu ma’lumotlarga ishonish oqibatida esa qancha odam halok bo‘lgani haqida aniq ma’lumot yo‘q.

Axborotning gorizontal tarqalishiga qarshi kurashilmasa, butun jamiyatning saviyasi tushib boraverishi va oqibatda insoniyat taraqqiyot yo‘lidan emas, tanazzul yo‘lidan borishi mumkin. Hozirgi kunda ijtimoiy axborotning gorizontal tarqalishiga qarshi kurash mexanizmlari mavjud emas. Insonning majburiy axborot manbalari – kasbiy va boshqa jamoa guruhlari orqali tarqalayotgan saviyasiz ma’lumotlardan himoyalanish usullari mavjud emas. Lekin kelgusida jamiyat a’zolari o‘zini keraksiz ma’lumotlardan asrashning ancha oqilona yo‘llarini o‘ylab topishi mumkin va bu hayotiy zaruratga aylanib bormoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida axborot ummonida cho‘kib ketmaslik uchun ma’lumotlardan vertikal foydalanish amaliyotiga o‘tish kerak. Bu qanday yuz beradi? Vertikal xususiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlar ommaviy emas, xususiy xarakterga ega bo‘ladi. Aytaylik, qaysidir san’atkorning farzand ko‘rgani yoki qaysidir mashhurning o‘limi haqidagi xabarni o‘nlab manbalardan takror-takror o‘qimasdan, faqat shaxsga oid ma’lumotlar bilan tanishish jarayoni axborotdan vertikal foydalanish deb ataladi. Misol uchun, shaxs raqamlashtirish jarayonida ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa ijtimoiy zaruriy xizmatlarni raqamli texnologiyalar orqali olishi mumkin. Jumladan, poliklinikaga elektron navbatga turish, elektron tizimlar orqali soliq to‘lash va h.k. Bundan

tashqari shaxsning axborotdan vertikal foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur bo‘ladi. Hozirgi kunda ancha ommabopligini yo‘qotgan internet saytlari ma’lumotlardan maqsadli foydalanishning muhim manbasidir. Odatda ma’lum bir saytga murojaat qilgan foydalanuvchi u yerdagi kontentga jamoatchilikning munosabatini bilavermaydi va shu orqali o‘zining shaxsiy munosabatini shakllantirish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, kutubxonalar va boshqa ilmiy bazalar ham axborotdan vertikal foydalanish manbalaridir. Ushbu kontentlar ham o‘zining mohiyatiga ko‘ra ancha saviyali va maishiy muhokamalardan yuqori turadigan darajadagi ma’lumotlar tizimidir. Qisqacha aytganda, shaxsga ma’lumotlarni tiqishtirish o‘rniga undan erkin, tanlov asosida foydalanish imkoniyatini yaratib berish zarur. Axborotdan vertikal foydalanish mexanizmlarini joriy qilish esa aynan ana shu katta muammoni hal qilish yo‘llaridan biridir. So‘nggi vaqtlarda urf bo‘lgan turli davlat tashkilotlari va jamoat birlashmalarining internetdagi guruhlari odatda uning a’zolarini safarbar qilish o‘rniga maishiy va mayda mavzular orasida o‘ralashib qolish hollari ko‘zga tashlanmoqda. Chunki ko‘pincha ana shu guruhlarda asosiy kontentni bilimli va mulohazali a’zolar emas, balki tajribasiz va ancha saviyasi past bo‘lgan ishtirokchilar yaratadi. Chunki ularda yozganlari uchun mas’uliyatdan ko‘ra, fikrini, hissiyotlarini, munosabatini bildirish istagi yuqoriroq bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilgan ijtimoiy jarayonlarni milliy manfaatlar o‘zaniga burib yuborish uchun quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, raqamli texnologiyalarning ijtimoiy hayotga ta’siri bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va uning natijalarini amaliyotda qo‘llab borish zarur. Jumladan, global ijtimoiy tarmoqlarning milliy kontingentga ta’sirini xavfsizlik va barqaror taraqqiyot kontekstida o‘rganishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Ikkinchidan, milliy talab va ehtiyojlardan kelib chiqib keng qamrovli kontent yaratishga alohida urg‘u berish va bu maqsadlarga davlat byudjetidan mablag‘lar ajratish zarur. Ayniqsa, turli destruktiv g‘oya va mafkuralarga qarshi muqobil sifatida ilmiy kontentni ko‘paytirish va ommalashtirish zarur. Dastlabki bosqichda raqamli televidenie va internet tarmog‘ida “Discovery Science” va “National Geographic” kabi telekanallarning o‘zbekcha franshizingini tashkil qilish lozim.

Uchinchidan, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan, ma’rifiy kontentmeykerlarning zamonaviy avlodini yaratish uchun ilmiy bloger va art-bloger kabi kasb-hunar va bakalavriat yo‘nalishlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ob’ektiv va haqqoniy

ZJV5401

ravishda jamoatchilikka yetkazib berish uchun ma’lum bir tayyorgarlikdan o‘tgan jurnalistlar va boshqa axborot tayyorlovchi mutaxassislar kontingentini shakllantirish kerak. Konspirologik va mutaassiblikka yo‘g‘rilgan axborot manbalariga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantiruvchi axborot vositalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish zarur.

Yuqoridagi takliflarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jamiyatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qilishini ta’minlaydi hamda uning vayronkor ta’siridan himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

VIRTUAL REALLIKNING BOLALAR ONGIGA TA’SIRI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Ilhom RIZAYEV,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Samarqand filiali dotsenti

Rushana RAXMANOVA,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Samarqand filiali magistranti

Hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyalari va boshqa sun’iy texnik qurilmalar, shuningdek, Internet orqali turli virtual jarayonlar va ob’ektlarni yaratish va ular bilan ishlash bolalar faoliyatiga yangi mazmun qo‘shmoqda, ularning turmush tarzini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan turli xil ehtiyojlarni yaratadi va qondiradi. Lekin kompyuter va internetdagi virtual olam bolalarga ijobiy imkoniyat berish bilan birga o‘zining salbiy oqibatlarini ham ko‘rsatmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, falsafiy tahlilni talab qiluvchi ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiradi.

Xususan, bolalar internetdagi onlayn rolli o‘yinlarga to‘liq qaram bo‘lib qolgani, geymerlar esa virtual dunyoda soatlab, kunlab o‘tkazayotgani pedagoglar, psixologlar va sotsiologlarni tashvishga solmoqda. Internet bilan do‘st bo‘lgan bolalar o‘z-o‘zidan tevarak-atrofdagilar bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi, ruhiyati o‘zgaradi.

Mana shunday masalalarni hal qilishda maktab ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni chuqur o‘rgatib bolalarning g‘oyaviy jahatdan tarbiyalab internet va kompyuterdan unimli foydalanish malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fanlar bolalar e’tiqodi va dunyoqarashini shakllantiradigan fanlar sohasidir. Shu bois, ijtimoiy-gumanitar fanlardan ta’lim beradigan o‘qituvchidan zarur umumkasbiy

sifatlardan tashqari, fanning mazmuni, an'analari hamda hozirgi yangi ijtimoiy va gnoseologik funksiyalariga to‘g‘ri keladigan (tolerantlik, hurfikrlilik, hamkorlik pedagogikasi, informatsion va innovatsion texnologiyalar tavsiyalariga tayanish va boshqa) fazilatlarga ega bo‘lish talab qilinadi.

Kompyuter va internet olamidagi virtual reallikning bolalar ongiga ta'siri ijobiy tamonga shakllantirishda maktab ta'lim dusturiga ijtimoiy fanlarni o‘quv predmet sifatida o‘qitish metodikasi kiritilgan. Ijtimoiy-gumanitar fanlar bolalarni ma'naviy va g‘oyaviy jihatdan qurollantirish imkoniyatini beradigan muhim nazariy-uslubiy ta'lim sohasidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev xam bejizga "Iste'dodli yoshlarni izlab topish va ularni maqsadli tarbiyalash borasidagi ishlarni kuchaytirish kerak. Ilmni, tarbiyani to‘g‘ri qilsak, hamma sohalarni malakali mutaxassislar o‘zlari rivojlantiradi,"– deb ta'kidlamagan edi [5].

Hozirgi axborot texnologiyalari asrida bolalar tarbiyasiga virtual reallik kuchli ta'sir o‘tkazmoqda. Shu yerda virtuallikning qisqacha tarixiga nazar tashlab o‘tsak. Virtuallik tushunchasi lotinchadan olingan bo‘lib, «virtus» - «faraziy», «xayoliy» degan ma'nolarni anglatadi. G‘arbiy Rim madaniyatida «virtus» so‘zi to‘rt ma'noda tushunishgan: birinchidan, bu axloqiy qadriyat, yaxshilik, (masalan, ingliz tilida «virtus» - yaxshi fazilat degani); ikkinchidan, bu qandaydir aktual, mavjud, hamda ta'sir etuvchi reallik; uchinchidan qandaydir artefakt; to‘rtinchidan, virtuallik ko‘proq xayoliy, faraziy, potensiallik, noreallik kabilarga sinonim [1].

Umuman olganda virtual reallikni quyidagicha ta'riflash mumkin: virtual reallik – bu reallikning bir turi bo‘lib, real hodisalar, jarayonlar va voqealar asosida hosil bo‘lgan yoki vujudga keltirilgan noborliqdan borliqqa o‘tishni belgilaydigan, moyillik, oraliq holat, potetsiallik, imkoniyat, model kabi xossalarda namoyon bo‘ladigan, oldingi va keyingi konstant realliklarni bog‘lovchi holatni bildiradi. Virtual reallik tushunchasi hozirda ko‘plab sohalarda qullanilmoqda. Biz asosan kompyuter va internet olamidagi virtual reallikning bolalar ongiga salbiy va ijobiy ta'siri masalasiga ijtimoiy-falsafiy jihatdan yondashib yoritamiz.

Internetdagi virtual reallikni hosil qilish monitor, multimediya, modem va boshqa artefaktlardan tashkil topgan kompyuter texnologiyasi orqali amalga oshiriladi. Bu virtual reallikning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u inson tamonidan yaratilgan sun'iy makon va muhitdir, turli modellar va obrazlar fazosidir. Internetdagi virtual reallik muhitida ishlash yengil tarzda sodir bo‘lib, o‘yinga o‘xshab ketadi, kompyuter va undan foydalanuvchining bir butunligi his etiladi. Natijada virtual obyektlarning ta'siri bolalar tomonidan xuddi "odatdagi" reallik kabi qabul qilinadi.

Aynan virtual reallikning mana shunday interaktiv imkoniyatlari o‘quvchi-bolalar uchun o‘ta darajada ahamiyatli bo‘lib borishiga olib kelmoqda. Internet tizimdan foydalanish bir qator ijtimoiy-ma’naviy xarakterdagi muammolarni keltirib chiqardi.

Ayniqsa, pedagog, psixolog va sotsiologlar bolalarni internetdagi onlayn roli o‘yinlariga butunlay bog‘lanib qolishlaridan, ludomanlarning soatlab, kunlab virtual dunyoda qolib ketishayotganidan tashvishga tushmoqdalar.

Individni internetga mukkasidan ketishning dastlabki belgilari quyidagilar:

- uzoq vaqt tarmoq ichida bo‘lish;
- internetdan hech qanday maqsadsiz foydalanish;
- virtual olam tufayli boshqa qiziqishlardan voz kechish;
- internetdan foydalana olmaganda kayfiyatning tushishi, jahldorlik kabi holatlarning kuzatilishida ko‘rishimiz mumkin.

Internet orqali suhbatlasharkansiz, muloqot shunchaki bir o‘yin ko‘rinishida bo‘ladi. Internet bilan do‘st tutingan bolalarda o‘z-o‘zidan atrofidagi kishilar bilan muloqot qilishga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi, ruhiyatida o‘zgarish sodir bo‘ladi. U o‘zini kuchli va go‘zal, hamma narsaga qodirdek his qiladi. Virtual olam devorlari ortida hech kim uni nojuya ishlari uchun urishmaydi, buzilgan jo‘mrakni tuzatishga majbur qilmaydi. Internet go‘yoki uni tashqi dunyodan himoya etuvchi qobiq vazifasini bajaradi [6].

Masalaning yana bir jihati bor. Ma’lumki, bolalarda ota-onasiga taqlid qilish yoki birdan katta bo‘lib qolish istagi kuchli. Kompyuterdagi virtual olam bolalarga ana shu imkoniyatni, virtual tarzda bo‘lsa ham, hadya qiladi. Hozir urfga kirayotgan, virtual reallikning bir ko‘rinishi bo‘lgan onlayn o‘yinlar ma’naviy-ruhiy tahdid darajasini yanada oshiradi. Bunda bolalar internet tizimiga kirib, virtual olamda o‘zaro jang qilishadi, otishmalarda qatnashadi.

Vaqt o‘tgani sayin bolalarga internet olamining ta’siri muammosi tobora chuqurlashib borayotgan bir paytda, global tarmoqning yashirin yoki nooshkora xavflariga faqatgina ta’siriga tushib qolishni emas, balki ekstremistik xarakterdagi sekta va turli xil uyushmalar saytlarining foydalanishga ochiqligi, virtual firibgarlikka keng yo‘l qo‘yilganlikni ham ko‘rsatish mumkin . Bolalarning qiziquvchan tabiati ularni yuqorida tilga olingan turdagi saytlarga yetaklashi, bu veb-sahifalarda ularning ruhiy yoki jismoniy sog‘lig‘iga xavf soluvchi ma’lumotlarni ko‘rishiga olib kelishi mumkin. Elektron pochta manzillari orqali olingan xabarlar kuchli ruhiy ta’sir o‘tkazib, bolalarni internet doirasida va undan tashqarida

ham jinoyatga undashi hech gap emas. Bank yoki kredit kartochkasidagi hisob raqamlarni bilgan bolalar onlayn savdolarda qatnashish imkoni bilan birga oddiy o‘yinchoqdan tortib to eng so‘nggi rusumdagi mashina sotib olish imkonyatiga ega degani. Bu narsa ularni virtual firibgarlarning nishoniga aylantiradi.

Internet va multimediya texnolgiyalari inson hayoti tarziga kuchli va qisqa vaqt mobaynida ta’sir o‘tkazib ma’naviy hayot xilma-xilligini kiskin oshirmoqda “Bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqea bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi” [2]. Hozirda bunday muammolarni oldini olish va hal qilish bo‘yicha bir qancha e’tiborga loyiq tavsiyalari berilmoqda:

1) ota-onalar farzandlarini internet saytlarda qidiruvni amalga oshirayotganda, axborotni qabul qilishda yoki elektron pochta manzilidan foydalanayotganda ularni ma’lum darajada nazorat qila olishi kerak. Grifing (internet orqali ta’qib etish) bilan kurashishning eng oddiy usuli – kompyuterga maxsus taqiqlov dasturlari (eng mashhurlari kiberpatrul yoki kidskontrol)ni o‘rnatish. Shunda o‘sha foydalanuvchidan keladigan barcha xabarlar avtomatik tarzda filtrlanadi yoki dasturga ota-onalar tomonidan kiritilgan cheklov tufayli bolaning o‘zi qiziqib nojo‘ya axborotni olmoqchi bo‘lganda, avtomatik taqiq ishga tushadi. Ayni paytda, mazkur dasturlar ham to‘liq xafvsizlikni kafolatlay olmaydi, chunki ba’zida ular foydali axborotni cheklab qo‘yishi yoki keraksizini o‘tkazib yuborishi mumkin

2) dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda, ya’ni bolalarni internet manbalardan foydalanishga yo‘naltirishdan oldin faktlarni fikrlardan farqlashga, to‘g‘riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalanishga o‘rgatish lozim.

3) internetdan foydalanish darslari fakultativ kurs sifatida maktab ta’lim tizimiga kiritish.

4) «Internetsiz bir kun» va shunga uxshash boshqa mazularda Yoshlar ittifoqi, nodavlat tashkilotlari tashabbus va tadbirlarni olib borishi ham ma’lum ahamiyatga ega.

5) hozirgi kompyuter va internet mutaxassislarning vazifasi oilada internetdan foydalanish madaniyatini joriy etadigan, hamda bolalarga psixologik, ma’naviy va jismoniy zarar yetkazmaydigan ochiq va xavfsiz

axborot makonini yaratishdan iborat.

6) maktab ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni chuqur o‘rgatish bolalarning g‘oyaviy jahatdan tarbiyalab internet va kompyuterdan unimli foydalanish malakasini oshirishda muhim rol uynaydi.

Pedagog va ruhshunoslarning ta’kidlashicha, ta’lim jarayonida hissiy-konkret obrazlar (virtual obraz), virtual modellar va tasavvurlar bo‘lmasa tafakkurda harakat bo‘lmaydi. Ta’limda ko‘rgazmalilik mavhum fikrlash qobiliyatini o‘stirishga olib keladigan konkret va abstraktlik o‘rtasidagi aloqani taminlaydi. Bu esa o‘quvchi ongida virtuallik va reallik o‘rtasida o‘zaro bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatib beradi.

Pedagogikada ko‘rgazmalilik tamoyili yangi narsa emas. Unda bu narsa azaldan qo‘llanilib kelingan. Yangiligi shundaki, ko‘rgazmali usulda ta’lim berishning o‘zi murakkablashmoqda, eng yangi texnika vositalari bilan qurollantirilmoqda. Xususan, hozirda plakat va suratlarning o‘rnini kompyuterlar va internetlar egallamoqda. Predmetni in’ikos etish xarakteriga qarab ko‘rgazmali qurollarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1.tabiiy; 2. tasviriy; 3. simvolik [3]; 4. virtual

Virtual ko‘rgazmali jarayonlarni ifodalashda asosan kompyuter va internet tarmog‘idan foydalaniladi. Bularning talim jarayoniga kirib kelishi ta’limga oid yangicha tushuchalarni shakllantirdi. Xususan, “virtual ta’lim”, “virtual laboratoriya”, “virtual kutubxona”, “elektron darslik” va boshqalar shular jumlasidandir.

Kompyuterdagi grafikli-virtuallar tufayli har xil vaqt va makonda tug‘ilgan g‘oyalarni bir-biri bilan taqqoslash, asosiy mazmunga urg‘u berish, so‘z va tasvirni organik, ya’ni oqilona bog‘lanish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bunda turli virtual model va sxemalardan foydalanib yangi g‘oya va nazariyalar yaratish hodisasini amalga oshirish mumkin. Internetni tadbiq qilish esa masofaviy ta’lim texnologiyasi-virtual ta’limni keltirib chiqaradi. Bu tizim orqali turli umumta’lim maktablari o‘rtasida virtual fikr va g‘oyalar almashinuvi yuqori bosqichga ko‘tariladi. Virtual ta’lim jarayonida qatnashchilar o‘rtasida virtual makonning shakllanishiga olib keladi.

Auditoriyada turli virtual ko‘rgazmalar asosida dars o‘tishning asosiy maqsadi o‘quvchida virtual oqimni tasavvur shaklida ko‘rishni shakllantirish emas, balki bir vaqtda bo‘ladigan har xil voqealar, tovush shakllarini emotsional his qilishni shakllantirib nazariy tahlil darajasini kuchaytirishdir. Bu doim insonning ichki ekraniga – o‘quvchining keng qamrovli ongiga kelayotgan har xil informatsion jarayonlarni obrazli sentizlab yangi fikrlarni tug‘diradi.

Virtual ko‘rgazmali vostalar yordamida biron bir ijtimoiy-hayotiy muammoni tahlil qilib analiz qilish o‘quvchida shu masala yuzasidan bashorat qilish imkoniyatlari yaratilmoqda. Chunki virtual ko‘rgazmali vositalar insonning oldin bo‘lgan, hozir ko‘rib o‘tgan va kelajakda bo‘ladigan xar xil aniq vaziyatlarni virtual esga olib sentizlash jarayonigacha olib boradi. Bu yerda o‘quvchi predmetlar haqidagi yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan obrazlarni mujassamlashtirib qolmasdan, balki obrazlarning ifodalanishi, vujudga kelishi, oldin uchratmagan yangi reallikni, yangi pedagogik sistemani, yangi qiyofalarni umumlashtirib ijodiy fikrini shakllantiradi

Umuman olganda, virtual ko‘rgazmalar o‘quvchida ijod haqida tassavvur qilish imkonini beradi. Ijod bilan shug‘ullanish o‘quvchida yo‘naltirilgan sohaviy innovatsion tafakkurning shakllanishiga olib keladi. Yo‘naltirilgan sohaviylashgan innovatsion tafakkurning shakllanishi zaminida yangilikni ishlab chiqish, tadbiq qilish va tarqatishga qaratilgan innovatsion korxonalarning yaratilishi va shu orqali real mehnat jarayonining vujudga kelishi yotadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Zamonaviy texnologiyalarning tez sur’atlarda o‘sishiga qaramay, ba’zan odamlar ulardan oqilona foydalanish qanday kechishi kerakligini to‘liq anglab yetmaydi. Kompyuter va internetgacha bo‘lgan davrda o‘sib-ulg‘aygan ko‘plab ota-onalar va muallimlarning katta qismi, agar bola internetdan foydalana boshlasa, buning, albatta, foydasidan zarari ko‘proq deb o‘ylaydi. Bolani kompyuter yoki internetdan chalg‘itish harakati zamirida, aslida, boshqa bir muammo, ya’ni kattalarning bu masalada nisbatan savodsiz ekani aniqlandi. Biroq agar ular o‘zlari avval texnologiyalar savodsizligi masalasiga jiddiyroq yondashib, buni bartaraf etishsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Negaki savodsizlik masalasidan qochish orqali bolani texnologiyalardan ajratib qo‘yish to‘g‘ri emas. Boz ustiga, yana bir jihat e’tiborga loyiq: aynan kattalarning tutgan yo‘lidan kelib chiqqan holda bolalarda kibernetik do‘stiga nisbatan munosabat shakllanadi. Shubhasiz, internet bilim va kerakli axborotni olish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi, biroq tarmoqqa joylashtiriladigan katta hajmdagi axborotning barchasini ham ishonchli va foydali deb bo‘lmaydi. Foydalanuvchilar ma’lumotlarning to‘g‘riligini aniq ajrata bilishi uchun tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etilarkan, bu jihat «Internetda bo‘lsa, demak, to‘g‘ri», – deya fikrlaydigan bolalarga ham tegishlidir. Bu borada ularga internetda xohlagan inson o‘z sahifasini yaratishi, unga har qanday ma’lumotni joylashtirishi va bunda unga hech kim to‘siqlik qilolmasligini vaqtida tushuntirish zarur. Bolalarga keng doiradagi manbalardan

foydalanishga yo‘naltirish natijasida faktlarni fikrlardan farqlashga, to‘g‘riligi tasdiqlanmagan axborotdan himoyalanishga o‘rgatish mumkin.

Umuman olganda, bolalarni kompyuter texnologiyalari va virtual olamdigi turli jarayonlar va begona yot g‘oyalarga berilmaslik, ularni oldini olish oldimizda turgan muhim ijtimoiy-ma’naviy muammolardan biri bo‘lib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergasheva X. M. Systematic Analysis of Education //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2021. – T. 3. – C. 31-35.

2. Kubayeva S. Language Games in cognitive processes: constructive-semantic approach //Conferencea. – 2023. – C. 156-159.

3. Salievich K. S. Digital Economy: Concepts And Reality //Thematics Journal of Social Sciences. – 2022. – T. 8. – №. 2.

4. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008. – Б. 112.

5. Мирзиёев Ш. Илм-фан намояндалари билан мулоқот. 24.05.2019. https://president.uz/uz/lists/view/2592

6. Alikulov S. A., Rizaev I. I. Methodological problems of research of social systems //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – C. 717-720.

YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MEDIAOLAM O‘RNI VA AHAMIYATI

Shuhrat XUDAYBERGANOV,
Urganch davlat pedagogika instituti magistratura bo‘limi boshlig‘i, “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mahliyo RO‘ZMATOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti, Ta’lim va tarbiyanazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Hozirgi davrga kelib biz ijtimoiy tarmoqning o‘rni va qadri juda baland, ikkinchi oilamiz, do‘stimiz va hatto o‘zimizga aylanib borayotgan isbot talab qilmaydigan davrda yashayotganimizni inkor qila olmaymiz. Bu borada gap ketganda mediaolam, kontent, milliy kontent, mediasavodxonlik, kabi atamalarga duch kelamiz. Xo‘sh, bu atamalar

qanday ma’nona anglatadi hozir o‘rganamiz.

Mediasavodxonlik bu-ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko‘nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilyapti, o‘zida kimning manfaatlarini aks ettiryapti degan tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiladigan vositadir.

Kontent-Kontent o‘z-o‘zini ifoda etish, tarqatish, marketing va yoki nashr etish uchun nutq, yozuv yoki har xil san’at turlari kabi biror-bir vosita orqali ifodalanishi kerak bo‘lgan axborot vositasi sanaladi. Bu borada bir necha jihatni farqlay bilishimiz lozim. Kontent siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy, ta’limga oid yoki ko‘ngilochar mavzularda bo‘lishi mumkin.

Milliy kontent- o‘z-o‘zini ifoda etish, tarqatish, marketing va yoki nashr etish uchun nutq, yozuv yoki har xil san’at turlari kabi biron-bir vosita orqali ifodalanishi kerak bo‘lgan milliy axborot vositasi sanaladi.

Mediaolam-insonni o‘rab turgan axbortli dunyo haqidagi keng qamrovli tushuncha, ma’lum ma’noda voqelikning ifodasi sanaladi.

Ushbu atamalarni tahlil qilib o‘rganib chiqdik, o‘rganishlarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki yuqoridagi atamalarning barchasi ijtimoiy tarmoq bilan chambarchas bog‘liq ajralmas bir sohasi deyaolamiz.

Material va metodlar

Bugungi kunda Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda mediaolam, milliy kontentni yaratish hamda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada zamonaviy didaktik ta’minot vositasida yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirishda mediaolam, milliy kontent yaratishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari o’rganib chiqildi. Shuningdek, yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati ko‘rib chiqildi. Muammoni o‘rganishda mamlakatimiz va xorijiy oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan ijtimoiy tarmoqlar, ularning tarbiyaviy ahamiyati tushunchalari, ularni qo’llash usullari, yondashuvlari, me’zonlari va bosqichlari tayanch konsepsiya vazifasini bajardi.

Natijalar va ularning tahlili

Media va axborot savodxonligi kabi tushunchalar tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ushbu atamalar hayotimizga yaqin tarixda kirib kelgan bo‘lib, 2007-yilda UNESCO tomonidan taklif etilgan keng qamrovli tushuncha ekanligi bizga ma’lum. U axborot savodxonligi va mediasavodxonlik bilan bog‘liq barcha kompetensiyalarni, shu jumladan raqamli yoki

ZJV5401

texnologik savodxonlikni ham qamrab oladi.

Hozirgi davrga kelib esa, axborot asrida zamonaviy texnologiyalar hayotimizga tobora ko‘proq kirib kelmoqda. Bugun hatto maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchisi ham mobil telefondan, undagi ilovalar va internetdan foydalanishni oz fursatda o‘rganib olyapti. Jamiyatimizning kattayu kichik a’zolari orasida internetdan foydalanuvchilar, vaqtini ko‘proq u bilan o‘tkazuvchilar ortyapti. Bu natijalar esa, kelajak hayotni internet va hali kashf etilmagan yuqori texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmasligini tasdig‘idir. Bilamizki, ular ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega. Biroq, yuksak texnolgiyalardan unumli foydalanmaslik yoki kelajagimiz ertasi bo‘lgan yoshlarga olabo‘ji qilib ko‘rsatish faqat va faqat zarar keltiradi, xolos. Shu bilan birga har bir jarayonning oltin qoidasi bo‘lmish *“me’yor” belgilashni o‘rgatmasak ham biz uchun juda ham foyda keltirmaydi* Yuqoridagi fikrlar ijtimoiy tarmoqlarga ham tegishli. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ham oltin qoidaga-me’yorni unutmaslik shartiga amal qilish zarur. Keling, ularning ijobiy jihatlari haqida mushohada yuritamiz.

1. **Izlash va muloqotdagi qulaylik –** mediaolamidan foydalanishni asosini tashkil qiladi desak mubolg‘a bo‘lmaydi.

2. **Axborot topish va almashishdagi yengillik –** hozirgi davrga kelib hayotimizda mavjud bo‘lgan har bir faoliyat hamda ehtiyojlarimizni qondirishning manbayidir.

3. **Shaxsiy tarbiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish vositasi –** bu jihat haqida juda ko‘p garishimiz mumkin. Masalan, Ijtimoiy tarmoqlar umuman olganda mediadunyosining eng maqtovli, ahamiyatli jihatlaridan biri bu-ilm olish, kasb-hunar o‘rganishdagi beqiyos yordamidir. Shuningdek, kundalik turmushda duch kelinadigan turli yumushlarni bajarishni ham internet, xususan ijtimoiy tarmoqlar yordamida oson o‘zlashtirish mumkin. Oddiy misol, ayollar bichish-tikish yoki pazandalik sirlarini “Youtube” tarmog‘idagi kanallardan bemalol o‘zlashtirib olish orqali qo‘shimcha pazandachilik kursiga bo‘lgan ehtiyojini qondiraolishadi. Bundan tashqari, zamonaviy matematika, dasturlash, iqtisodiyot asoslari, psixologiya, chet tillar kabi bugungi kunning eng dolzarb, talab yuqori bo‘lgan fan yo‘nalishlari bo‘yicha ham istalgancha videodarslar, qo‘llanmalar topish mumkin. Virtual auditoriya uchun tashkil etiladigan onlayn darslarda qatnashish imkoniyati mavjud. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, ijtimoiy tarmoqlar har bir foydalanuvchi uchun arzon va bepul ta’lim olish uchun imkoniyat eshiklarini lang ochgan.

Bu nafaqat ilm olish, balki ilm tarqatishda ham qo‘l keladi. Turli soha mutaxassislari o‘z pedagogik mahoratlarini namoyish etishi, virtual

o‘quvchilar yig‘ishi imkoniyatini beradi. Ular kun kelib bu mutaxassisning hayotdagi real talabalariga aylanishi ehtimoli ham yuqori. Bundan tashqari, obunachilari ko‘p va videolari namoyishi yuqori kanal egalari reklama orqali qo‘shimcha daromadga ega bo‘la oladi. *Jahonda ayni shu yo‘nalishda millionerga aylangan bloger va vlogerlar juda ko‘p.*

4. **Biznes yuritishda beminnat yordamchi-**Ayni paytda, elektron tijorat rivojlangan dunyoda keng tarqalgan. Bugun birgina ijtimoiy tarmoq turi orqali ishbilarmonlik faoliyatini misli ko‘rilmagan darajada yuksaltirib yuborayotgan insonlar talaygina.

5. ***Ijodkorlar va boshqa soha vakillari uchun keng maydon-***Ijod ahli, ulardan tashqari barcha foydalanuvchilar uchun o‘z qobilyatlarini namoyon qilish hamda yangi iste’dodlarni kash qilish kalitidir.

Yuqorida foydali jihatlarni sanab o‘tganimiz kabi virtual olamning salbiy jihatlari ham talaygina. Asosiylaridan birini aytadigan bo‘lsak, ijtimoiy tarmoqdan me’yorga amal qilmagan holda ko‘p foydalanishdan kelib chiquvchi *bo‘sh vaqtni o‘g‘irlab olishi*dir. Shu birganagina jihat bilan foydalanuvchi har tamonlama zarar ko‘rishi mumkin, bular yuqorida ta’kidlaganimizdek vaqtni sarflash, sog‘likga putur yetish hamda ma’nan kemtiklikni olib kelishi mumkin. Bu borada bizda Milliy kontent va uni yaratishga bo‘lgan talab tug‘iladi.

Ana shu vaziyatda savol tug‘ulishi mumkin, *“Milliy kontent” nima o‘zi?.* Buni hozir ko‘rib chiqamiz.

Milliy kontent deganda O‘zbekistonning milliy manfaatlarini ko‘zlagan tarzda milliylik qadriyat va a’nanalarimiz bilan yo‘g‘rilgan holda dunyo va mamlakat ichidagi voqea-hodisalarga xolis baho bera oladigan axborot maydoni nazarda tutilishi mumkin deya olamiz. Demak, milliy kontent, bu -O‘zbekiston ichidagi sifatli mediamakon, deyish mumkin. Unga ehtiyoj har doim bo‘lgan.

Agar biz milliy kontent yaratmasak, odamlarimiz chetdan axborot olishga majbur bo‘ladi. Vaholanki, tashqaridan turib yoritilgan axborot har doim to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Shuning uchun hozir milliy kontent yaratish yanada dolzarblashdi. Chunki biz erkin axborotlashgan jamiyat quryapmiz. Oldingi davrlardagidek, mana bu oq, mana bu qora, deydigan davrdan allaqachon o‘tib bo‘ldik.

Hozirgi davrda mediadunyosi shakllanishi bir soniya ham to‘xtamayotgan davrda insonlar ijtimoiy tarmoqlar orqali orqali axborot iste’moli ortayotgan paytda biz mediasavodxonlikni shakllantirishga muhtojmiz.

Media va axborot savodxonligi-bu ijodiy faoliyatda barcha zarur vositalardan foydalangan holda axborot va media mahsulotlarini samarali

olish, tahlil qilish, tanqidiy baholash, talqin qilish, foydalanish, yaratish va tarqatish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma, munosabat, malaka va amaliyotlar majmui hisoblanadi.

So‘ngigi paytlardan boshlab mediasavodxonlik ommolashdi va turli xil hamda 2016-yildan beri UNESCO har yili o‘tkaziladigan Media va axborot savodxonligi haftaligida yoshlarga bag‘ishlangan platformani, ya’ni Yoshlar kun tartibi forumini taqdim etib kelinadi. Forumni o‘tkazishdan ko‘zlangan maqsad yoshlarning media va axborot savodxonligini oshirish dasturlari, tashabbus va tadbirlarida ishtirokini ta’minlash muhimligini ta’kidlash, media va axborot savodxonligi bo‘yicha bilim va resurslarni yaratish va tarqatishda yoshlarni jalb etishdan iborat.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlay olamizki, bugungi kunda media olamining ta’siri har bir inson va jamiyat uchun mavjud. Dunyo aholisining har biri kabi bizning mamlakatimizning fuqarolarining ham Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish qamrovi kengaymoqda. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining axborotga bo‘lgan va intellektual talablarini qondirish, voyaga yetmaganlar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘sib kelayotgan avlodda axborot-mafkuraviy sohadagi da’vat va tahdidlarga nisbatan immunitetni shakllantirish, jamiyatda boy milliy tarixiy-madaniy meros va ma’naviy qadriyatlar haqidagi bilimlarni oshirishga qaratilgan zamonaviy veb-resurslar yaratishni rag‘batlantirish, shuningdek kontentni monetizatsiya qilishning samarali mexanizmlarini joriy etish maqsadida ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Kundan-kunga bu ortib borilayotgan talabga javoban milliy qadryatlarni chetlab o‘tmaydigan, yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalaydigan kontentlar tayyorlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta’minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.06.2019 yildagi PQ-4366-son.

2. Sh.M.Mirziyoyev “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni” bayram tabrigidagi nutqi.T.:- 2019.

3. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. -T.: Ma’naviyat. 2010 (Ikkinchi nashri).

YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MEDIAOLAMNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Fozil SULTONOV,
Jamoat arbobi, Turon FA akademigi

Farhod HOJIYEV,
O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi,
O‘zMTRK “O‘zbekiston 24” telekanali bosh muharriri

Axborot asrida yashayapmiz. Zamonaviy axborot texnologiyalari ma’lumotlar almashishini tezlashtirib, ko‘z ochib yumguncha dunyoning bir chekkasidagi ma’lumotlar soniyalarda narigi burchagiga yetib berayapti. Axborotni olish ham, tarqatish ham qulaylashdi. Media materiallari shu darajada ko‘pki izlagan mavzuda, xohlagancha axborotlar bor. Bu bevosita axborotlarning raqamlashishi va internet tarmog‘ining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Axborotning ko‘p bo‘lgani yaxshi ammo, ularning ichida g‘ayriinsoniy, yoshlar ta’lim tarbiyasini buzadigan, buzg‘unchilikni targ‘ib qiladiganlari ko‘payib borayotganligi kishida tashvish uyg‘otadi.

Ta’kidlash kerak, ayni paytda xalqaro internet tarmog‘ida trillionlab gigabayt hajmdagi axborotlar turli tillarda mavjud. Ulardan dunyoning istalgan nuqtasidan turib foydalanish mumkin.

OAVlarida e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, Facebook ijtimoiy tarmog‘i, jahonda eng ko‘p abonentlar va foydalanuvchilarga ega. Axborot tarqatuvchilar orasida yetakchi o‘rinda bormoqda. Axborot tarqatish va undan foydalanish imkoniyatlarining kun sayin taraqqiy etib borishi natijasida, Twitter, Instagram, YouTube, Telegram dasturlari aholi orasida ommalashayapti.

Axborot texnologiyalarining yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, Yangi O‘zbekistonda qo‘lga kiritayotgan yutuqlarni targ‘ib qilishda, yurtimizning jahon mediamaydonida immijini yaratishda rol va o‘rni beqiyos. Shunday bo‘lsada, undan foydalanish madaniyatining yetarli emasligi, milliy media vositalarining faoliyatida yo‘l qo‘yilayotgan kamchilik va xatolar, axborotni boshqarish va uning nazoratidagi samarali mexanizning mavjud emasligi bir qator muammolarni vujudga keltirmoqda.

Tabiatan yangilik, yangi texnologiyalarga o‘ch yosh avlodning asosiy vaqti smartfon, gajet, noutbuk orqali internet tarmog‘idagi axborotlarga chalg‘ib qolayapti. Bilamizki, bugun internet tarmog‘i mafkuraviy ta’sir quroliga aylanib bormoqda. Milliy birlik va qadriyatlarga rahna soluvchi

ZJV5401

turli tendentsiyalar, tahdidlar kuchayotgan sharoitda axborot xavfsizligi masalalari, axborot makonida ongi va tafakkuri uchun kurash dolzarblik kasb etmoqda.

Bugun dunyoda mafkuraviy kurashlar avjiga chiqayapti. Turli g‘oyaviy kuchlar o‘z ta’sir doirasini kengaytirish uchun tinimsiz ish olib borayapti. Bu qaltis jarayon ta’sirini mamlakatimizda ham sezayapmiz. Har xil g‘oya va mafkuralar kirib kelmoqda. Xo‘sh, bundan himoyalanish uchun nima qila olayapmiz? Yoshlarda mafkuraviy immunitet yetarlimi?

Ma’lumki, xalqimiz azaldan oilani muqaddas qadriyat sifatida e’zozlab keladi. Aksincha, G‘arb davlatlarida oilaviy masala har kimning shaxsiy ishi. Turmushga chiqadimi yoki yo‘qmi, uylanib, oila qurib farzand ko‘radimi, yo‘qmi har kim o‘zi hal qiladi. Bir-birini yoqtirib qolgan yigit va qiz birgalikda yashayverishadi. Hech qanday nikohsiz, rasmiylashtirishsiz. Va xohlagan paytda yana ajralishib, alohida yashayverishadi. Hech kimga hech qanday mas’uliyat yuklatilmaydi. Yoki, insoniy qadriyatlar tannazulga yuz tutgan yevropada o‘zbekona ta’bir bilan aytganda behayolik, fahsh ishlari yoki bir jinslik nikoh avj olib, uning elementlari ijtimoiy tarmoqdagi milliy kontentda ildiz olayapti. Tashvishlisi, sharm-hayodan uzoq axloqiy buzuqlik, parnografik videolarni tasvirga olib yuzsizlarcha uyalmasdan joylashtirayotganlar ko‘payib bormoqda. Bu bevosita g‘arbliklarga xos turmush tutimning hayotimizga kirib kelib, ommalashayotganidan dalolat.

2024-yil 15-may kuni soat 20.22da YouTube tarmog‘i «Ibratli dunyo» kanalida to‘ydagi «Men bizga ko‘z tikib turgan Xitoydan ham Rossiyadan qo‘rqmayman. Men ilmsiz va axloqsiz yoshlardan qo‘rqaman. Chunki dushman bir marta o‘ldiradi, axloqsiz yoshlar har kuni har soat...» izohi bilan to‘y sahnasida yevropaga xos ohangdagi bir nechta xorijiy so‘z takroridan iborat tutiriqsiz qo‘shiqqa bir to‘da yoshlarning yalong‘och o‘ynayotgan videosini namoyish qilgan[1]. Aynan shu kanalda 17-aprel kuni «Erlar qolmagan jamiyatda ayollar bosar tusarini yo‘qotib qo‘yar ekan ...» izohi bilan video joylangan. Unda ham to‘yning katta sahnasida yosh juvonlarning omma ko‘z oldida sho‘x, o‘ynoqi qo‘shiqqa jinsiy a’zolarini ko‘z-ko‘z qilib beo‘xshov, sharmsiz harakatdagi raqsi namoyish qilingan.

YouTube tarmog‘ida Yulduz TV kanali orqali to‘ydagi raqqosaning yalang‘och chiqishi va to‘yga kelgan mehmonlarning u bilan rasmga tushayotgan videosi joylangan[2]. Xuddi shunday, 2022- yil 11- dekabr kuni Chotki Tv kanalida «Ko‘krak ko‘rmagan ochlar, men lezbiyanka emasman, fohishalar yaxshi ba’zi bir hijoblilardan» sarlovhada Luiza Rasulova bilan suhbat tashkil qilgan[3]. Suhbatdagi gap so‘zlar, kontent

milliy g‘oya, milliy mentalitetimizga mutlaqo zid. Mashhur san’at vakili bilan milliy qadriyatlarimizni oyoq osti qilib, jinsiy, shahvoniy hayot tarziga moyil mavzuda suhbatni ommaga namoyish qilishdan mudao nima?

2023- yil 12- sentyabrda POKER UZ kanalida ham jinsiy aloqa haqidagi suhbatlar, parnografik videolar joylangan[4]. Mamino TM Dior kanali 2021 - yil 18 - yanvarda «Qizlar kayfda sharmanda» izohi bilan bir guruh yosh juvonlarning xonadondagi behayo raqsini namoyish qilgan[5]. Zamonaviy Tik Tokerlar kanalida ham jinsiy buzuqlik, fahsh, behayolik bilan bog‘liq ochiq ma’lumotlarni berish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu kanalda yosh qizning bunga video izoh ham joylangan. Bundan tashqari, 2022 - yil 13 - mayda Elyor MEDEA kanalida «Sharmanda. Bu videoni ko‘rmasangiz afsus qilasiz» ruknida fohisha ayolning yosh yigit bilan behayo videomuloqoti ochiq namoyish qilingan.

2023-yilda UZVOV TV kanalida 4-5 yoshlardagi bola yosh juvonning bo‘ynidan quchoqlab o‘payotgan video joylashtirilgan. Unda yosh juvon bolaning onasiga “bola barvaqt jinsiy hissiyotlari uyg‘onganligi, ertaga qizlarni orqasiga kamar bilan urib dodini berishini» gapirib erkalagan[6]. Oilaviy munosabatlar, voyaga yetmagan 5 yoshli bola harakatlarini ommaga chiqarishdan mudao nima?

2023-yil 16-mart kuni QILICHBEK G`AFFOROV kanalida «13 yosh qiz 7 kishidan homilador. Tug‘ilgan farzand kimdan. Sharmanda. 13 yosh qiz tug‘ib qo‘ydi» sarlovhasida video va uni izohini joylashtirgan. Voqea Surxonaryoning Sherobod tumanida yuz bergan. Kanal muxbiri zo‘rlangan qiz va onasidan, shuningdek zo‘rlagan maktab o‘quvchilar uyiga borib intervьyular olgan. Zo‘rlagan bolaga «jinsiy aloqada bo‘lganmisiz» savolini bergan, u ham «ikkilanmasdan bo‘laganman» deb javob berayapti. Kanal boshlovchisi voqeani shov-shuv qilishga urinib, videolar to‘liq namoyish qilinishi va tomoshabinlardan izoh so‘ragan hamda bildirilgan fikrlar muhimligini ta’kidlagan. Shuningdek, tomoshabinlardan layk bosishini va boshqa tarmoqlarga ham yoyishni so‘ragan»[7](muxbirning xatti-harakatlari qonunga zid. Voyaga yetmaganni omma oldiga yuzini ko‘rsatib olib chiqishni qonun man etadi).

SX kanalida Samarqandda 8 sinfda o‘qiydigan voyaga yetmagan qiz voyaga yetmagan o‘quvchi bola bilan ishqiy munosabatda bo‘lib, 2024 - yil 6 - may kuni chaqaloq dunyoga keltirganligi ovoza qilindi[8].

Mana ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar ma’naviyati, tarbiyasini buzadigan milliy kontentdagi axborotlarning oqibatlariga ham guvoh bo‘layapmiz. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tarqatgan ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekistonda 2023 - yil 6 oyida 6 ta voyaga yetmagan maktab

o‘quvchisida homiladorlik aniqlangan.

Internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda yuqoridagi singari behayolik, fahshni, uning oqibatida yuz berayotgan noxush voqealarni targ‘ib qilib, shu orqali abonentlar sonini ko‘paytirib, uni tirikchilik manbai qilib olayotganlar oshib bormoqda. Aslida, bu noxush, ma’naviyatni yemirishga sabab bo‘layotgan sharmandali voqealarning yuzaga kelishi ijtimoiy tarmoqlardagi fahsh, buzuqlikni targ‘ib qilayotgan axborotlarning yoshlar ongiga chuqur o‘rnashib, manipulyatsiya qilish oqibati bilan bog‘liq.

Ҳozirgi vaqtda turli shaklda tarqalayotgan materiallar zamiridagi ma’naviy, axloqiy buzuqliklar asta-sekin ijtimoiy ҳayotga ham kirib kelmoqda. Uning yoshlar orasida ommalashishi, ayrim oilalardagi notinchliklarga, oilaviy qadriyatlarni, shaxs tarbiyasining milliy tizimini, axloqiy muhitni yemirayapti.

Darvoqe, Prezident Sh.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida, “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”[9], deya bejizga ta’kidlamagandi. Real vaziyatni sezish va uni oldini olish yuzasidan ta’lim muassasalari, ota-onalar, aql markazlariga tezlikda masalaning mohiyatini chuqur anglagan holda zarur choralarni ko‘rishga da’vat edi bu.

Real hayotdan olinganday qilib tayyorlangan, aslida esa axloqsizlikni targ‘ib etayotgan materiallarning tarqalishiga nisbatan loqayd bo‘lish o‘z navbatida, oiladagi sog‘lom axloqiy muҳit, sog‘lom dunyoqarash, milliy qadriyatlar kabi xalqning o‘zligini saqlab qoladigan ko‘plab narsalardan maҳrum bo‘lish, fahshga oddiy ҳolat yoki voqea kabi ko‘nikma ҳosil qilishga olib kelayapti.

Statistika agentligi ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2020 - yilda FHDYO organlari 28 ming 200 ta, 2021 - yilda 39 ming 300 ta, 2022 - yilda 48 ming 700 ta hamda 2023 - yilda 49 ming 200 ta nikohdan ajrashish holatlarini qayd qilgan. 2024 - yilning birinchi choragida esa nikohdan ajrashganlar soni 11 ming 500 taga yetkan[10]. Bu juda tashvishli holat, albatta.

Bugun milliy g‘urur, o‘zbekona or-nomusni ortga surib qo‘yib «Internetda shovqin ko‘tarayotgan” ma’naviyati qashshoq kimsalarning ijtimoiy tarmoqlarda tarqatayotgan jinsiy buziqliq, fahsh, sharmsizlikni targ‘ib qiluvchi axborotlari jamiyatga, xalqimizga yetkazayotgan zararini, uning oqibatlarini hisob-kitob qiladigan palla keldi.

Rivojlangan va rivojlanishda bo‘lgan mamlakatlarda virtual olamning ta’siri bir-biridan farq qiladi. Rivojlanmagan mamlakatlar virtual fazodan ko‘proq ta’sirlanib, unga kam ta’sir ko‘rsata olishadi. Shu sababli bundan ular ko‘proq zarar ko‘rishadi. Bugungi kunda telegram kanallarida auditoriyasi 121 262 tani tashkil qiluvchi «Massajistki» Tashkenta guruhida qizlar o‘z tanalarini ochiqdan-ochiq reklama qilmoqda. Ularning manzillari, bo‘yi, og‘irligi, jinsiy organlarining o‘lchami ish vaqti va ish haqi bo‘yicha ma’lumotlar aniq ko‘rsatilgan. Bunday behayolar o‘z tanalarini sotish orqali jamiyatda turli xil kasalliklar avj olishiga sababchi bo‘ladi. Tinchgina oilalarning tinchligiga rahna soladi. Nahotki bir go‘zal xonadonning bekasi bo‘lish o‘rniga mana shunday iflos ishlarni qilishni o‘zlariga ep ko‘rsa. Bunday “ayollar” kanali yo‘q qilinmasa, tegishli tashkilotlar tomonidan tartibga solinmasa jamiyatimiz tanazzul tomon ketaveradi.

Bugungi kunda mana shu sohadagi xato, kamchiliklarimizni isloh qilishga juda muhtojmiz. Chunki jamiyat, din, oila va shaxsga bo‘layotgan aksariyat tahdidlar mana shu virtual aloqalar orqali ro‘y bermoqda.

Afsuski, ijtimoiy tarmoqlarda bir-birini haqorat qilish, tuhmat, bo‘hton, g‘iybat va fitna urug‘ini sochish holatlari kuzatilmoqda. Eng yomoni, bunday kishilarda xolislik yetishmayapti. Ular “tirnoq ichidan kir qidirish”ga tushmoqdalar. Lekin ko‘z o‘nglarida ro‘y berayotgan yaxshi ishlar, islohotlar va ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rishmayapti. Gohida o‘zlari nima istashayotganini ham anglamay qolishmoqda.

Insonning ongi va qalbi egallangach, u manqurt sifatida o‘zligidan ajraladi. O‘zligidan ayrilgan inson g‘ayriixtiyoriy ravishda har qanday tuban topshiriqning ham ijrochisiga aylanib boraveradi. Ijtimoiy tarmoqlar va virtual olam kirib borayotgan dunyoda oila a’zolarini yangi qadriyatlar bilan tanishtirib, o‘zga madaniyat va turmush tarzini tashviq qilayotganligi, uning salbiy ta’siri natijasida yo‘qotayotgan o‘zligimiz, asta-sekinlik ila bo‘hronlarga uchrayotgan, yoinki boshqasiga almashtirayotgan qadriyatlarimiz qarshisida, «ertaga ne deb javob beramiz?», degan haqli savol tug‘iladi.

Buyuk Britaniyaning Televideniye va aloqa, radio ishlari bo‘yicha boshqarmasi e’lon qilgan hisobotiga ko‘ra, 2014- yilda 3-4 yoshdagi bolalarning 37% foizi, internet saytlariga kirishadi, televizor ko‘rishadi yoki haftasiga 15,5 soat компьyuter o‘yinlarini o‘ynab, asosiy vaqtini ekran oldida o‘tkazishadi.

Boston universiteti olimi Jenn Radeskiy Ongning muvozanatda ushlovchi mexanizmlarining erta yoshdan bolalarda negativ holda namoyon bo‘lishi bevosita OAVlari ta’siri bilan chambarchas bog‘liqligi»

ZJV5401

to‘g‘risidagi tadqiqotlari natijasini e’lon qoldi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, jismoniy faollik va insonlararo o‘zaro harakatlardan cheklanish hamda mobil qurilmalardan muntazam foydalanish bolalar uchun zararlidir.

Yana bir masala. Xalqimizda kechqurunlari oilaviy bo‘lib, teleseriallar ko‘rish – bu oddiy turmush tarziga aylangan. Ammo, teleseriallarni namoyishi – aholining ma’naviy ehtiyojini qamrab olayaptimi? Keyingi vaqtlarda O‘zbekiston televideniyesida efirga uzatilayotgan ba’zi seriallar keng jamoatchilik tomonidan jiddiy muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Kimdir telekanallarimizni chet el seriallari egallab olgan desa, kimdir ma’naviy-axloqiy tomondan mutloqa to‘g‘ri kelmaydi demoqda, yana kimdir esa mahalliy seriallarimiz bachkana, sifati va saviyasi pastligi, xorij teleseriallariga ko‘r-ko‘rona taqlidi haqida e’tirof etmoqda. Hozirgi kunlarda, davlat va nodavlat telekanallari tomonlaridan 30 dan ortiq turli teleseriallar namoyish etilmoqda, shulardan 10 taga yaqinini mahalliy teleseriallar tashkil qiladi. Xo‘sh, namoyish qilinayotgan seriallarning badiiy-estetik sifati qaysi darajada? Milliy seriallar bugungi kun talab darajasidami?

“Sevimli TV” da turk kino ijodkorlarining “Ichkarida” seriali namoyishi davom etmoqda. Mazkur serial g‘arb davlatlarining jangari, josuslik tarzidagi kinolariga xos ravishda suratga olingan. Mazkur serialda mentalitemizga xos bo‘lmagan jangarilik, otishmalar, odamlarni azoblash va o‘ldirish kabi noodatiy holatlar juda ko‘p. Serial davomida bir-biriga telefon orqali tahdid qilgan kino qahramonlari Jalol ota bilan Dovud va Sarp bilan Yusuf mudir birin-ketin aytgan ishlarini qilishni boshlashadi. Jalol ota Sarpning onasi hayotiga tahdid qilib, o‘sha vaqtning o‘zida oshxonasiga qotillarni yuboradi. Jalol ota avvaliga yosh bolalardan foydalanadi. Mahallaning yosh bolalari qo‘liga tosh bilan oshxonada ishlayotgan Sarpning onasi, Barish va Erinni tosh bo‘ron qilishadi. So‘ngra notanish kimsalar mototsiklda o‘tib oshxonani portlatib, o‘t qo‘yib ketishadi. Serial qahramonlari bo‘lgan erkaklarning kiyinishlari, ko‘cha-kuyda yurishlari, soqol o‘stirib yurishlari yoshlarimizning tarbiyasiga salbiy ta’sir etuvchi omillardir. Bu holatni serialning deyarli barcha qismida kuzatish mumkin. Serialdagi jinoiy ishlarni uyushtirish, odam o‘g‘irlash, portlatish, turli xil fitnalar yoshlar ongida salbiy ta’sir uyg‘otadi.

“Zo‘r” TVda turk seriali “Sevgi iztiroblari” namoyish qilingan. Serialning boshlanishining o‘ziyoq “Ommaviy madaniyat” targ‘ibotidan boshlanadi, unda ikki oila mojarolari aks etgan. Oilalar o‘rtasida doimiy nizolar davom etadi. Amir Nixonni majburlab o‘ylagani, er-xotin o‘rtasidagi sovuqqonlik munosabati har bir qismda tasvirlanadi: aka-

uka yoqalashib ketishi, so‘ng aka ukasiga qurol o‘qtalshi, bir-biri bilan begonaligini ta’kidladi. Serialda Amir bilan otasining munosabatlari achinarligi tasvirlanadi. Ota o‘g‘il begonadek murojaat qilishi, unga dag‘dag‘asi esa, hali ongi shakllanib ulgurmagan yoshlarda nojo‘ya tushuncha shakllantiradi.

O‘zbekiston kino sanoatida ham oz bo‘lsada, seriallar yaratilmoqda. Lekin ularning mazmun-mohiyati, soni-sifati ham xalqimizning ma’naviy eҳtiyoji va talabini qondira olgani yo‘q.

Syujet va personajlar voqealarni mantiqsiz davom ettirishdan nariga o‘tmayapti. Voqealar ketma-ketligi manzilsiz estafetaga o‘xshaydi:

- birinchidan, asar stsenariyasi sayoz yozilgan;
- ikkinchidan, stsenariy asosiga urf-odat, qadriyatlar singdirilmagan;
- uchinchidan, syujet voqealari - real ҳayotiylikdan uzoqda;
- to‘rtinchidan, ma’naviy-axloqiy tomondan yoshlarni ibratli yo‘lga yetaklay olmaydi.

Milliy seriallarda aktyorlarni tanlashda ham xatoliklar yo‘l qo‘yilgani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayrim teleseriallarda rol ijro etayotgan aktyorlarning aksariyatida ijro qobiliyati va aktyorlik iste’dodi yo‘qligini, voqealar davomiyligining nomutanosib kelishini, dialoglar mujmal so‘zlardan iboratligini, bachkana va mantiqsiz ҳatti-xarakat mavjudligi, axloqsiz mazmundagi yengil-elpi qochirim gaplarning ishlatilishi, salbiy qahramonlarning psixologik portretining bo‘rttirib ko‘rsatilishi kabi xato-kamchiliklarni kuzatish mumkin. Teleseriallarni tasvirga olgan rejissyorlarning mahorati yetishmasligi, kartina sifatini ta’minlay olmasligi, stsenariylarning “xom”ligicha qabul qilishi, syujet ustida yutuqqa olib keladigan mehnat qila olmasligi milliy kinomatografiyadagi tajribalarga suyanmasligi - o‘z navbatida sifatsiz kino maҳsulot ishlab chiqarishga olib kelmoqda. Bu ҳam yetmaganidek, telekanallar orqali uzatilayotgan ba’zi xorijiy va mahalliy teleseriallarini, kinolarni oila davrasida tomosha qilishning ma’naviy imkoniyati deyarli yo‘q. Ota-onalar oila davrasida, o‘g‘il-qizlar ishtirokida tomosha qilishdan, o‘zini bilgan oila a’zolari uyalishadi. Odatda, seriallarning salbiy ta’siri haqida gap ketganda, ayrim insonlar: “Tarbiyani ota-ona beradi, tarbiya yaxshi bo‘lsa, serial insonga hech qanday ta’sir qilmaydi” degan fikrni aytishadi.

Bu fikr aslida noto‘g‘ri fikrdir, chunki ҳozirgi kino mahsulotlarga tarkibiga inson onggiga ta’sir qiluvchi - psixologik, ritorik, audio-vizual texnologiyalari singdirilmoqda. Teleseriallarning psixologik va g‘oyaviy ta’sir kuchi, yoshlarga birdan sezilmasligi mumkin. Bir oz vaqt o‘tgandan keyin, filьm epizodlaridagi ta’sirlar inson onggiga ko‘chib bo‘lgach, serialning salbiy ta’sir kuchi o‘zini ko‘rsata boshlaydi. Oila a’zolari

orasida o‘zaro tushunmovchiliklar, bir-birini mensimasliklar, dilxiraliklar yuzaga kelishi mumkin. Teleseriallar qaχramonlariga taqlid qilib yengil-elpi kiyinish, noto‘g‘ri fikrlashlar, yengil munosabatlarga berilishlar ayrim χolatlarda esa, axloqiy muvozanatlarning χam buzilishiga olib kelishi mumkin. Olimlar tomonidan, kinomatografiyaning inson onggiga, uning shaxsiy rivojlanishiga ko‘rsatuvchi ta’sirlari o‘rganish maqsadida, 50-60 yillardan beri turli ilmiy markaz va laboratoriyada olib borilayotgan ilmiy izlanishlar natijasida, ko‘plab ilmiy xulosalar olingan. Unga ko‘ra, turli janrlardagi, ta’sirchan ishlangan teleseriallar tomoshabinni to‘liq qamrab, o‘ziga bog‘lab oladi. Uning g‘oyaviy manipulyatsiya qilish ta’siri juda katta. Xabaringiz bor, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining joriy yil davlat dasturi 44-maqsadi 114-bandda «Milliy kinemotagrafiyani keng targ‘ib qilish hamda dunyodagi eng ommabop Internet platformalariga milliy filьmlarni joylashtirish», shuningdek 115-band «Milliy qahramonlar haqida multiplikatsion filьm va seriallar ishlab chiqarish» belgilandi[10].

Prezident Sh.Mirziyoyev 2024-yilning 16-may kuni san’at va madaniyat sohalaridagi yangi loyihalar va sohani rivojlantirish masalasida bevosita jarayonlar taqdimoti bilan tanishdi. Mazkur tadbirda so‘ngi yillarda kino asarlarini yaratishning mavjud ahvoli tahliliy ko‘rib chiqilib, navbatdagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, endilikda tarixiy filьmlar sur’atga olinadi. Mazkur yig‘ilishda uning tashkiliy, moliyaviy jihatlari ham yechib berildi. Ta’kidlash kerak, OAVlarida tarqatilayotgan kino-media mahsulotlari, boshqa turdagi axborotlar bevosita keng iste’molchilar auditoriyasiga ta’sir qilishga qaratilgan. Media materiallaridan foydalanuvchilar o‘z navbatida, qanday vizual materialni(kinofilьmlar, teleseriallar, videofil’m va roliklar)ni tomosha qilishayotganda epizodlarni tahlil qilish ko‘nikma hamda malakalariga ega bo‘lishi kerak. Qolaversa, televediyeniye, ijtimoiy tarmoqlar orqali ko‘rsatilayotgan kino-media mahsulotning inson onggiga ta’sirini doimiy tahlil qilib boradigan tahlil markazlari faoliyatiga ehtiyoj bor.

Ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek tilida fikr bildiruvchi ayrim noma’lum shaxslar paydo bo‘lgan. Bu shaxslarning profili yolg‘on ism va familiya nomiga ochilgan bo‘lib, o‘zlarini ko‘zga ko‘rinmas, masofasi bilinmas ijtimoiy tarmoqlarda o‘zlarini “zo‘r” va “kuchli qonunshunos”, “buyuk siyosatchi», “kuchli iqtisodchi” qiyofasida namoyish qilishadi. Internet tarmog‘ida faoliyat olib borayotgan yovuz niyatli mazkur kimsalar tomonidan feysbukda “feyk” (yolg‘on) profillar va “soxta” ijtimoiy saχifalar, “soxta” telegram kanallar tashkil etilib, g‘arb madaniyatining «so‘z erkinligi» niqobi ostida, davlat va jamiyatga qarshi ig‘vo-fasod, nizo qo‘zg‘ashga qaratilgan materiallar ko‘plab tarqatilmoqda.

Xo‘sh, mamlakatimizda internetdan foydalanish madaniyati qanday shakllanmoqda? Internet - milliy qadriyatlar tizimiga qanday ta’sir o‘tkazayapti? Ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan materiallar shaxsning fikrlashiga qanday ta’sir ko‘rsatayapti?

2020-yilda Ilmiy ekspertiza bo‘limi tadqiqotchilari 5700 ta yaqin profillar, ijtimoiy kanallar, ko‘ngilochar sahifalarda tarqatilayotgan materiallar mazmuni o‘rganib quyidagi xulosalarga kelgan:

- ma’naviy-ma’rifiy, madaniy mazmundagi materiallar – 30% ;
- odobsizlikka oid materiallar – 27%;
- axloqsizlikka oid materiallar – 17%;
- ig‘vo-fasod, nizo tarqatishga oid – 13%;
-shavqatsizlikni targ‘ib etuvchi materiallar – 13%;

Fikr bildiruvchilar tarkibi:

- ig‘vo-fasod, nizo tarqatuvchi feyk profillar – 51%;
- haqiqiy foydalanuvchilar – 49%

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘layaptiki, ijtimoiy tarmoqda tarqatilayotgan materiallarning 70% ni salbiy ta’sirga ega materiallar, foydalanuvchi va fikr bildiruvchilar ichida 51% buzg‘unchi g‘oyalarga berilgan.

Xulosa va takliflar:

1. Ijtimoiy tarmoqlar orqali «so‘z erkinligi» niqobi ostida tarqatilayotgan axloqsizlikni targ‘ib etuvchi videomateriallarni yoshlarimiz ongini zaharlashga qaratilgan tahdid sifatida qabul qilib, unga qat’iy choralar ko‘rish lozim (Ibratli hikoya, Oq va qora Uz, Qora Marvarid, Sabosh 177 Oficiall, Xumaraxon UZ, Yangi kun, Zamin Uz TV, Yangiliklar Uz, Dollar Uz, Erkaklar makoni, Ko‘zgu TV, Dengiz TV, Ikki yosh, Hammasidan bor, Mr Aziko, Shirin hayot, Ehtiros TV, Ratuz, Bunisi nima?.., Aldama meni, Ehtirosli hikoyalar, Ehtiros TV, Qo‘ziboy TV, UzBoom TV, Munira Xuliganka, Qitmircha TV, Yangi kun, Believer Uz, Davr Uz, Uzclobal TV kanallar va boshqa saytlar faoliyatini ko‘rib chiqish kerak);

- saviyasiz, yengil-yelpi, real hayotdan yiroq, faqat maishiy masalalar atrofida o‘ralashib qolgan milliy «serial»larni suratga olishni to‘xtatib, raqobatda xorijiy seriallarga bas kela oladigan milliy va axloqiy qadriyatlarimiz, shuningdek, tarixiy qahramonlarimiz hayoti haqida o‘tkir syujetli seriallar va filmlarni yaratishni tezlashtirish kerak;

- ijtimoiy tarmoqlarda noyob va ibratli milliy qadriyatlarimizni targ‘ib etuvchi ta’sirchan, yuqori saviyada ishlagan milliy media materiallar sonini keskin oshirish mexanizmini ishlab chiqish zarur;

- Respublika idoralararo komissiya a’zolari bilan hamkorlikda ushbu

masalada davlat dasturini va chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish davr talabidir.

- “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 1-yo‘nalishi 16-maqsad 7-bandida «Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish chorlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha normativ huquqiy hujjat loyihasi», ya’ni O‘zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha qonun loyihasini ishlab chiqish. Loyihada bolalarning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoyalashga oid qonunchilik hujjatlarini xatlovdan o‘tkazish orqali mazkur Qonunga Internet tarmog‘iga joylashtiriladigan zararli axborotlardan bolalarni himoya qilish bo‘yicha aniq normalar kiritish nazarda tutilgan. Mazkur maqsad va vazifalar ijrosini sifatli ta’minlash doirasida alohida dastur va ijtimoiy-ma’naviy tadbirlarning «yo‘l xaritasi»ni ishlab chiqish lozim. Unda, OAVning bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni ta’minlashdagi ishtiroki, bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi, bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi Axborot ommaviy kommunikatsiyalari agentligi (AOKA) hamda ushbu faoliyatda ishtirok etuvchi organlar va tashkilotlar hamkorligini yanada jadallashtirish chora-tadbirlarini ko‘rish;

- OAV (TV, radio, ijtimoiy tarmoq, gazeta, jurnallar v.x.k.) axborot mahsulotlarini monitoringi va tahlilini muntazam yuritish va nazoratini ta’minlash;

- axborot mahsulotining muayyan yosh toifasidagi bolalarga mosligini yoki mos emasligini aniqlash uchun uni ekspertizasini doimiy o‘tkazish;

- bolalarni, ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborot mavjud bo‘lsa, undan himoya qilish uchun, bunday axborot mahsulotini Qonun darajasida cheklash choralarini ko‘rish;

- axborot mahsulotining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maҳkamasining 2019 - yil, 31 - dekabrda qabul qilingan №-1059 sonli “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorning mazmun-moҳiyatiga mosligini aniqlash va OAV lariga tavsiyanomalar tayyorlash va ularni tizimli yo‘naltirish lozim.

YOSHLAR O‘RTASIDAGI KIBERBULLING OQIBATLARINI BARTARAF ETISH TEXNOLOGIYALARI

Kamoliddin TO‘RAYEV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

So‘nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda o‘smirlarning tajovuzkor xatti-harakatlari, shu jumladan kiberbulling holatlari bo‘yicha yuz berayotgan keyslar soni ortib bormoqda. Biroq, bu hodisaning turli tomonlarini va uning ijtimoiy tarmoqlarda har xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishini tavsiflovchi tadqiqotlar hali ko‘p emas. Maqolamizning maqsadi – ijtimoiy tarmoqlarning yosh foydalanuvchilari orasida virtual tajovuz bo‘yicha xorijiy tadqiqotlarni ko‘rib chiqish. Ommabop ijtimoiy tarmoqlarda internet bezoriligining xususiyatlarini va uning salbiy psixologik oqibatlarini ochib beradigan tadqiqotlarni kuzatdik. Bir qator mamlakatlarda o‘smirlar o‘rtasida kiberbullingning tarqalishi bo‘yicha alohida statistik ma’lumotlar keltirilgan. Kibertajovuzning asosiy sabablari, shuningdek, yoshlarning kiberbullingga jalb etilishiga yordam beradigan xavf omillari va uning yosh foydalanuvchilarning psixologik to‘kisligiga ta’sirini kamaytiradigan omillar tahlil qilingan.

Ijtimoiy tarmoqlar va Internetda ijtimoiy munosabatlarni qurish, aks ettirish va hayotiy faoliyatni yoritish mumkin. Uning imkoniyatlari virtual va real dunyoni bog‘lashga imkon beradi. So‘nggi paytlarda messenjerlar ham individual, ham guruhli muloqotda tezkor muloqot qilish imkonini beruvchi ijtimoiy tarmoqlar sifatida tasniflangan. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning tarqalishi bilan virtual tajovuzni amalga oshirish uchun maydon ham kengaydi. Kiberbulling bugungi real dunyodagi xavf-xatardan ko‘ra ayanchliroq oqibatlar bilan yakunlanishi mumkin.

D.Ayzenkot tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot yoshlar orasida tobora ommalashib borayotgan WhatsApp messenjerida kiberbullingning tarqalishini o‘rganishga qaratilgan edi. WhatsApp tizimi uchun Ayzenkotning so‘zlariga ko‘ra, virtual tajovuzning turli variantlari mavjud. Bularga, xususan, “og‘zaki zo‘ravonlik”, do‘q-po‘pisa, kamsitish yoki boshqa foydalanuvchiga nisbatan masxara, haqorat yoki tahdidlar kiradi. Bir guruh odamlar tomonidan yozishmalar orqali shaxsni qabul qilmaslik, rad etish va u bilan muloqot qilishni istamaslik esa guruh zo‘ravonligi hisoblanadi. Buning kichik turi guruhni tanlash yoki ishtirokchini boshqalar bilan birga muloqotga qo‘shilish istagiga qaramay, umumiy suhbatdan majburan chetlatib yuborishdir. Boshqa

shaxslarning foto va videomateriallarini ijtimoiy tarmoqqa joylashtirish va tarqatish maqsadida ruxsatsiz foydalanish “vizual zo‘ravonlik” deb ataladi. WhatsApp foydalanishning qulay va ochiq xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli, kiberbulling qurbonlari doimo tajovuzkorlardan aziyat chekishi mumkin.

Bugungi kunda eng mashhur ijtimoiy tarmoqlardan biri bu butun dunyo bo‘ylab tarqalgan Twitter, ya’ni X platformasidir. Uning o‘ziga xos xususiyati – foydalanuvchi hisobida ko‘rsatiladigan qisqa xabarlar – tvitlar almashish imkoniyati hisoblanadi. Ularni qabul qilish uchun ro‘yxatdan o‘tgan har bir shaxsga bir zumda yetkazilishi mumkin. Olimlar ushbu ijtimoiy tarmoqdagi o‘smirlarning kibertajovuzkorligini tahlil qildilar. Ular tajovuzkorlarni tavsiflash va aniqlash qiyinroq degan xulosaga kelishdi, chunki ular oddiy foydalanuvchilar kabi e’tiborni jalb qilmasdan o‘zlarini juda sipo tutishlari mumkin, lekin ayni paytda ular kiberbullingdan foydalanishga qodir. Ko‘chadagi byezorilar bilan bir xil darajada bo‘lishlari mumkin. Bunday holda, agressiya kiberbullingdan tizimli emasligi bilan farq qiladi, shuning uchun u ko‘pincha jiddiy zarar keltiruvchi sabab sifatida qaralmaydi. Biroq, bu jabrlanuvchining psixologik to‘kisligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va takroriy onlayn ta’qiblar bilan bir xil oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Kiberbulling yoki bolalar va o‘smirlarning Internetdagi virtual tajovuzlari xorijdagi tadqiqotchilarning e’tiborini tortmoqda. Bulling tushunchasining o‘zi 1990 yillarda paydo bo‘lgan. Bu jarayon maktab guruhlarida tajovuzkorlik bilan bog‘liq holda ro‘y bergan. Bulling ijtimoiy kuch yoki jismoniy kuchning tengsizligini o‘z ichiga olgan qasddan, muntazam ravishda takrorlanadigan tajovuzkor xatti-harakatlar sifatida tavsiflanadi. Biroq, so‘nggi yillarda bulling doirasi sezilarli darajada kengaydi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi virtual makon zamonaviy o‘smirlar hayotining muhim qismiga aylanishiga yordam berdi, shu jumladan uning ijobiy va salbiy tomonlari, tajovuzkorlik va onlayn bezorilik yoki kiberbulling kuchayishiga yo‘l ochdi.

Kiberbullingning o‘ziga xosligi va ortib borayotgan xavfi shundaki, anonimlik, ya’ni shaxsini yashirgani tufayli tajovuzkor jazosiz qolishi va o‘z harakatlari uchun o‘zini aybdor his qilmasligi mumkin, jabrlanuvchi esa muntazam ravishda tashvish va qo‘rquvni his qiladi. Kiberbullingning keng tarqalgan shakllariga qo‘rqitish yoki muntazam ravishda yuborilgan haqoratli xabarlar kiradi; boshqa birovning shaxsiy ma’lumotlarini shaxsning roziligisiz oshkor qilish; boshqa foydalanuvchining obro‘siga putur yetkazish maqsadida uni kamsituvchi ma’lumotlarni tarqatish

ZJV5401

(qo‘rqitish) yoki chop etish; ko‘pincha boshqa foydalanuvchiga qaratilgan tahdidlar bilan birga keladigan doimiy kiruvchi aloqada ifodalangan kiberta’qib qilish; trolling, yoki masxara qilish, haqorat qilish va odobsiz so‘zlarni ishlatish orqali bulling qurboniga ta’sir ko‘rsatadi.

Bir qator mamlakatlarda olib borilgan so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘smirlar o‘rtasida tajovuzkor xatti-harakatlar, xususan, kiberbulling ko‘paygan. Shunday qilib, Vodafone tarmoq kompaniyasining xalqaro tadqiqotiga ko‘ra Irlandiyadagi bolalar va o‘smirlarning 60 foizi va Buyuk Britaniyada 35 foizi kiberbullingni boshdan kechirish oddiy bezorilikdan ko‘ra xavfliroq deb hisoblaydi. So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, maktab o‘quvchilarining 41 foizi kiberhujum qurboni bo‘lganidan keyin tushkunlikka tushib qolgan, 26 foizi yolg‘izlik va nochorlikni his qilgan, 18 foizi o‘z joniga qasd qilish haqida o‘ylagan, 21 foizi maktabga borish fikridan qo‘rqib qolgan va 25 foizi ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlarini butunlay yopib tashlagan. Kiber ta’qib qilish natijasida tarmoqlardagi faolligini to‘xtatib qo‘ygan. Kiberbullingning asosiy oqibatlari sirasiga o‘z joniga qasd qilish, depressiyaga tushish holatlarining rivojlanishi, o‘z-o‘ziga zarar yetkazish xatti-harakati, psixofaol moddalardan foydalanish va psixosomatik alomatlar kiradi. E. Staksrud ta’qibchilarning o‘zlari uchun xavf, virtual voqelikda vaqt o‘tkazishni afzal ko‘rish ehtimoli ikki baravar yuqori ekanligiga e’tibor qaratadi. Shuni yodda tutish kerakki, aksariyat hollarda xulq-atvori tajovuzkor bo‘lgan o‘smirlar kiberhujum qurbonlaridan kam bo‘lmagan yordamga muhtojdirlar. Rossiyalik tadqiqotchilar har xil darajadagi kiberbulling xavfi ostida bo‘lgan o‘smirlarning turli darajalarini aniqladilar va ularning aksariyati uchun tashqi yordam so‘rash odatiy hol emas va paydo bo‘ladigan xavflarni mustaqil ravishda yengish qobiliyati intensiv foydalanish bilan bog‘liq degan xulosaga kelishdi. Virtual dunyo va Internet faoliyati turlarining kengayishi bu xavfni tobora ulkanlashtirib bormoqda.

Amerikalik o‘smirlar orasida onlayn bezorilikning tarqalishini tizimli ko‘rib chiqish maqsadida olib borilgan 32 ta tadqiqot natijasida shu ma’lum bo‘ldiki, Qo‘shma Shtatlarda kiberbullingning tarqalishi 1 dan 41 foizgacha o‘zgarib turadi. Shu bilan birga, qurbon bo‘lish xavfi 72 foizgacha, tajovuzkor pozisiyasini egallash esa 16,7 foizgacha yetishi mumkin. 2019-yilda Rossiyada yosh foydalanuvchilarning qariyb 70 foizi kiberbullingdan aziyat chekayotgani, 44,3 foizi esa boshqa odamlarga nisbatan kiberbullingdan foydalanishi qayd etilgan. O‘smirlar o‘rtasida virtual hujumlar uchun asosiy joy asosan ijtimoiy tarmoqlardir.

Tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarni qiziqtiradigan muhim

savol: bu o‘smirlarni kiberbullingga ta’qibchilar sifatida jalb qilishga nima undaydi? E.Piblis, G.Steffgen va boshqalar maktab o‘quvchilari o‘rtasida tajovuzkor onlayn xatti-harakatlarning sabablarini tahlil qilib, ularning asosiy turlarini o‘rgandilar. O‘smirning o‘tmishda tahqirlangan va vaziyatni yanada konstruktiv tarzda hal qilish o‘rniga qasos olish yo‘llarini izlayotgan hollarda umumiy sabablardan biri “qasos olish motivatsiyasi”dir. “Munosib muomala” turidagi motivatsiya, kiberbuzg‘unchilarning fikriga ko‘ra, yomon obro‘ga ega bo‘lgan foydalanuvchilarni ta’qib qilishda namoyon bo‘ladi. Ba’zi tajovuzkorlar o‘zlarining sevimli mashg‘ulotlari va qiziqishlari yo‘qligida bo‘sh vaqtlarini diversifikatsiya qilish istagiga asoslangan holda harakat qilishadi. Bu holat “zerikish va o‘yin-kulgi qidirish” motivatsiyasidir. Tengdoshlarning bosimi o‘quvchilarni onlayn bezorilik qilishga undashi mumkin, chunki ular o‘zlari uchun obro‘li shaxs sifatida harakat qiladigan do‘stlar guruhiga moslashishga intiladi. O‘smirlarning har bir kishi kamida bir marta boshqalarni haqorat qilgani haqidagi fikriga asoslangan motivatsiya (“hammaning ishtiroki”) va “xavfsizlik tuyg‘usi” kiberbuzg‘unchilarga ularning harakatlari maqbul va jazosiz qolishiga ishonch beradi. Jabrlanuvchiga yetkazilgan og‘riqni ko‘ra olmaslik boshqalarning his-tuyg‘ulariga befarq munosabatda bo‘lishga olib keladi; bu sabab “motivatsiya yetishmasligi” deb ataladi. “Hokimiyatga bo‘lgan ishtiyoq” real hayotda zaiflik ko‘rsatadigan, qo‘llab-quvvatlamaydigan va o‘zini yakka holda tutadiganlarga qarshi onlayn bezorilikdan foydalanish orqali ifodalanadi.

Kiberbullingda tajovuzkor roliga qo‘shilish omillarini baholashda tadqiqotchilar jins, virtual resurslardan foydalanish intensivligi, Internetda xavfli xatti-harakatlar tendensiyasi, an’anaviy maktab bezoriligida ishtirok etish omillari haqida gapirishadi. Ota-onalarning bolaning Internetdan foydalanishdagi ishtiroki, shuningdek, bola o‘qiyotgan ta’lim tashkilotining maktab muhitini salbiy sub’yektiv baholash ham bu holatlarni rivojlantiradi. Ba’zi tadqiqotlarga ko‘ra, kiberbulling qurboni bo‘lish ehtimoli ayollar orasida yuqoriroq, Internetda ko‘p vaqt o‘tkazadigan va onlayn xavfli xatti-harakatlarga jalb qilingan, shuningdek, an’anaviy maktab bezoriligi qurboni bo‘lganlar aksariyat hollarda qizlardir.

C.Barlett va S.Koyn tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘smir bolalar kiberbullingga ko‘proq moyil bo‘lishadi. Qizlardan farqli o‘laroq, ular o‘smirlik davrida tajovuzkor zo‘ravonlikni boshdan kechirishadi va bu haqida ota-onalarga yoki o‘qituvchilarga kamroq xabar berishadi. Shunday qilib, gender farqlarini tahlil qilishda muhim omil

nafaqat jins, balki yosh ham bo‘lib, bu bolalar va o‘smirlarning onlayn bezorilikka nisbatan zaifligini belgilaydi. Bu, shuningdek, o‘smirning jabrlanuvchi yoki tajovuzkor sifatida kiberbullingdagi pozisiyasiga ta’sir qiladi.

Kiberbulling bolalar va o‘smirlarning psixologik to‘kisligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatsa-da, bu ta’sirni kamaytiradigan bir qator omillar mavjud. Birinchi navbatda, oilaviy munosabatlardan qoniqish, kiberbulling qurbonlarida o‘z joniga qasd qilish fikrlari va niyatlari ehtimolini kamaytiradi. Kiberbulling qurbonlarining o‘z joniga qasd qilish harakati xavfini kamaytiradigan yana bir omil bu maktabdagi muhitni nazorat qilish va tartibrga solishdir. Bolalar va o‘smirlar o‘rtasida kiberbullingning tarqalishining an’anaviy, yuzma-yuz tajovuz shakllariga nisbati kontekstga qarab farq qilishi mumkin. D.Olveys tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, Internetda bulling mustaqil hodisa emas, u maktab bezoriligining davomi sifatida ishlaydi: kiberhujumga uchragan o‘quvchilarning 88 foizi tengdoshlari va sinfdoshlari yordamida an’anaviy bezorilik bilan shug‘ullanadi. Shunday qilib, biz asosli ishonch bilan aytishimiz mumkinki, an’anaviy bezorilik hali ham keng tarqalgan bo‘lib, kiberbulling o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra uning virtual, ammo yanada zararli shakli sifatida ishlaydi.

Kiberbullingning oldini olishning asosiy yo‘nalishlari sifatida Internet platformalarining xavfsizlik darajasini oshirish, bolalar va ularning ota-onalarini Internetda adekvat xatti-harakatlarga o‘rgatish kabi kriteriylar tilga olinadi. Ba’zi ijtimoiy tarmoqlar o‘z akkauntlarida maxfiylik sozlamalarini o‘rnatish imkoniyatiga ega, bu esa foydalanuvchilarga salbiy sharhlardan xalos bo‘lish va huquqbuzarlarni bloklash imkonini beradi. Shuningdek, siz tarmoq ma’muriyatiga yozishingiz yoki qo‘llab-quvvatlashingiz, zo‘ravonlik holatlari haqida xabar berishingiz mumkin.

Bu holat internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlangani sayin bizning jamiyatimizga ham xavf solib bormoqda. Maktablarda o‘smirlarning tajovuzkor xatti-harakatlarining oldini olish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi lozim, pedagogik xodimlarning psixologik kompetensiya darajasini oshirish va voyaga yetmaganlarning tengdoshlari bilan munosabatlarida psixologik muammolarni bartaraf etish zarur. Virtual zo‘ravonlikdan aziyat chekkanlar bilan individual va guruhli psixoterapiya usullari orqali shug‘ullanish tavsiya etiladi. Biroq, bu tadbirlarni o‘tkazish talabalarning shaxsiy xususiyatlariga e’tibor berishlari kerak bo‘lgan mutaxassislarni puxta tayyorlashni talab qiladi.

Alohida-alohida, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan turli saytlarda va yaqinda yaratilgan ijtimoiy tarmoqlarda o‘smirlarning Internetdagi

muloqotini o‘rganish lozim. Ayniqsa, Tik-tok ijtimoiy tarmog‘i o‘smirlar eng faol kiradigan platforma hisoblanadi. Virtual bulling qurbonlari statistikasi bizda yuritilmasligi ham muammoning eng katta jihatlaridan biridir. Kiberbulling va an’anaviy maktab zo‘ravonligining o‘zaro bog‘liqligi va kombinatsiyasi muammosi dolzarb hisoblanadi. Bezorilikning bu turlarining tipik ketma-ketligi va rivojlanishi qanday ekanligini, muloqotning qanday shakllaridan foydalanilishini va ularni bezorilik jarayoni ishtirokchilari qanday qabul qilishini aniqlash virtual va real tajovuzning tuzilishi va dinamikasini aniqlashga yordam beradi. Kiberbullingning paydo bo‘lishiga yordam beruvchi omillar va uning oldini olish sohasidagi izlanishlarni davom ettirish bizga ushbu hodisaning psixologik va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini va uni keltirib chiqaradigan muhitni yaxshiroq yo‘naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday tadqiqotlar raqamli va ta’lim makonida maktab o‘quvchilari uchun xavfsizlik sharoitlarini yaxshilash uchun kiberbullingga qarshi kurashning mavjud usullarini takomillashtirishga hissa qo‘shishi mumkin.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA YOSHLAR MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Xurshid SEROBOV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalarining faol joriy etilishi yoshlarning dunyoqarashi va yoshlar madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Turli elektron qurilmalar yordamida yoshlar bir-biri bilan faol muloqot qiladi, dunyoni kashf etadi, ko‘plab axborotga ega bo‘ladi. Axborot texnologiyalari tufayli yoshlar o‘rtasida o‘ziga xos madaniyat shakllana boshladi. Bir tomondan, yoshlar internetdan oladigan ma’lumotlarning iste’molchisidir. Ammo boshqa tomondan, yoshlarning o‘zlari axborot manbai bo‘lib, axborot texnologiyalari sohasida madaniyatni shakllantiradi va rivojlantiradi.

Bu jarayonning bir nechta asosiy yo‘nalishlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

- Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot
- Kibersport
- Blog yuritish
- Virtual muzeylarni yaratish.

Internet tufayli har bir kishi nafaqat ish yoki o‘qish uchun kerakli

ma’lumotlarni topishi, balki bo‘sh vaqtlarini turli ko‘ngilochar tadbirlar bilan diversifikatsiya qilishi mumkin, ularning asosiysi ijtimoiy tarmoqlardagi faol muloqotdir. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanganini hamma biladi. Axborot makoniga bo‘lgan ehtiyoj ular tomonidan insonning asosiy ehtiyojlaridan biri sifatida qabul qilinadi.

Har bir ijtimoiy tarmoq muayyan funksiyalar uchun mo‘ljallangan. Masalan, Facebook muloqot qilish, ko‘ngil ochish va yangi ma’lumotlarni olish uchun mo‘ljallangan; X (Twitter) – har qanday yoshdagi Internet foydalanuvchilari uchun veb-interfeys, tezkor xabar almashish vositalari yoki uchinchi tomon mijoz dasturlari yordamida ommaviy xabarlar uchun; Instagram – fotosuratlar va videolarni almashish uchun. Ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklari bilan bir qatorda muayyan kamchiliklari ham mavjud.

Afzalliklari:

– Birinchidan, bu masofadagi qulay aloqa.

– Ikkinchidan, suhbatdoshni tanlash qobiliyati.

– Uchinchidan, voqealar va yangiliklar markazida bo‘lish.

Kamchiliklari:

– Haqiqiy aloqani virtual aloqa bilan almashtirish.

– Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining aksariyati ularga shunchalik ko‘nikib qolganki, ularsiz o‘z hayotini tasavvur qila olmaydi.

– Ijtimoiy tarmoqlar ko‘p vaqt oladi.

– Shaxsiy ma’lumotlarning xavfsizligi.

Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot mavzusi bo‘yicha 30 kishi ishtirokida kichik so‘rov o‘tkazildi. So‘rov quyidagi natijalarni berdi:

– 27 nafar respondent ijtimoiy tarmoqlarga kuniga 3 martadan ortiq kirishadi;

– 4 nafari ijtimoiy tarmoqdan faqat muloqot uchun foydalanish;

– 23 nafari o‘yin-kulgi uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish;

– 5 nafari har kuni internetga kirish zarurligini his qilishlarini tan olishdi.

Bu so‘rovnoma orqali yoshlar uchun muloqot juda muhim degan xulosaga kelishimiz mumkin, lekin agar ular o‘zlarini cheklamasa, bu narkotikaga aylanishi mumkin. Yoshlar o‘rtasida kibersportga bo‘lgan qiziqish ham juda yuqori. 2001 yildan kibersport rasmiy sport turi sifatida tan olingan. Bu sport turi o‘ziga yoqqan narsadan daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lgan yoshlar orasida katta talabga ega. Maxsus turnirlar uchun g‘oliblar sport toifalari va mukofotlarini olishadi, bu qo‘shimcha rag‘batdir. Odatda kibersportni ham ikki tomoni bor tangaga

qiyoslashadi. Ya’ni uning ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Ijobiy tomonlari:

– Inson o‘zi sevgan ish bilan shug‘ullanadi, jarayondan zavq oladi;

– Natijalarga erishgandan so‘ng, ma’lum doiralarda shon-shuhrat qozoniladi va karyerasining o‘sishiga imkoniyat paydo bo‘ladi;

– dunyoni ko‘rish, qiziqish doirasidagi odamlar bilan yangi tanishuvlar qilish imkoniyati;

– Uyda mashq qilish.

Kamchiliklari:

– Professional darajada o‘ynash va o‘yinning barcha nayranglari va nozik tomonlarini bilish uchun unga ko‘p vaqt ajratish kerak bo‘ladi.

Elektrosportning asosiy kamchiligi uning inson salomatligiga salbiy ta’siridir. O‘tirgan turmush tarzi jismoniy salomatlikka salbiy ta’sir qiladi. Ko‘rish va eshitish organlari ham zararlanadi, chunki o‘yinchi deyarli butun vaqtini kompyuter monitori oldida o‘tkazadi. Ba’zida insonning ruhiy salomatligi ham xavf ostida qoladi. Kompyuter o‘yinlariga qiziqqan odam uchun virtual va real dunyo o‘rtasidagi chegara juda qisqarib borishi ayni paytdagi eng dolzarb muammo sifatida qaraladi.

Virtual madaniyatning eng ommabop yo‘nalishi bu blogerlik sohasidir. Blogerlik – yoshlar orasida mashhur bo‘lgan yangi kasb. Blog yaratish oson, shuning uchun ko‘plab yoshlar bloger bo‘lishadi. Siz o‘zingizning qiziqishlaringiz asosida blog mavzusini tanlashingiz mumkin, uni mohirona boshqarish mashhurlik va yaxshi daromad keltirishi mumkin. Bugungi kunda videobloglar juda mashhur. Turli mavzular bo‘yicha sharhlar, oshpazlik reseptlari va maslahatlar, tadqiqotlar va tajribalar – bunday bloglar yuz mingdan ortiq ko‘riladi. Biroq, bloggerning kasbi ko‘rinadigan darajada oddiy emas. Blog ochishni rejalashtirayotgan har bir kishi tomoshabinlarni qiziqtirishi, tushunarli va qiziqarli tarzda yuritishi kerak. Statistikaga ko‘ra, yuzta blogdan faqat o‘ntasi ko‘proq yoki kamroq mashhur bo‘lishi va faqat bittasi haqiqiy mashhurlikka erishishi. Vlogging ham ijobiy va salbiy xususiyatlarga ega.

Ijobiy jihatlari:

– Ijodkorlik. YouTube yoki Instagramda video yaratish ijodiy o‘zini o‘zi anglash uchun ajoyib imkoniyatdir. Aynan nima qilishingiz muhim emas, puxta o‘ylangan shou yaratish, layfstayl blokini boshqarish yoki tarjimalar qilish, har qanday shaklda ijodkorlik hayotni yangi ranglar bilan to‘ldiradi.

– Tan olinish. Odamlar sizning videolaringizni kutishlari, fikringizni tinglashlari va sizni qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini bilish kishiga o‘zgacha energiya bag‘ishlaydi. Bu esa o‘z ishidan qoniqish

hissini olib keladi. Hatto kichik auditoriya ham o‘zingizga ishonch uyg‘otishi va o‘zingiz yoqtirgan narsani qilishga undashi mumkin.

– Aloqa. O‘z blogingizni yuritish sizga ham auditoriyangiz, ham hamkasblaringiz bilan muloqot qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. O‘nlab, yuzlab yoki minglab odamlar siz bilan suhbatlashishdan xursand bo‘lishadi. Shuningdek, boshqa blogerlar bilan muloqot qilish orqali siz nafaqat yangi tanishlar, balki do‘stlar ham topishingiz mumkin.

Salbiy tomonlari:

– Negativlik. Fikr qoldirish qobiliyati har kimga sizning ishingiz haqida o‘z fikrini bildirish imkonini beradi. Afsuski, bu juda ko‘p nazoratsiz nafratni qo‘zg‘atadi. Ayniqsa, blogerning fikri ko‘pchilikdan farq qilganda. Muallifning fikriga qo‘shilmaslik odatiy holdir. Muayyan bosqichda negativlik endigina boshlanayotgan loyihaning ruhiyatini jiddiy ravishda buzishi mumkin. Xeyt, ya’ni nafrat blog yurituvchi o‘smirning ruhiyatiga jiddiy zarba berishi, bu esa undagi qobiliyatlarni yuzaga chiqishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

– O‘z fikringizni o‘tkazish. Yuqoriga qarab blogerlar, ko‘pchilik o‘zlarining ideallari kabi bo‘lishni xohlashadi, ularning ta’siriga tushib qolishadi. O‘smirlar orasida blogerning obro‘si birinchi o‘rinda turadi, ba’zan esa yaqinlarining obro‘sidan ustun turadi. Blogerlar o‘z fikrlarini o‘tkazishlari va boshqalarning fikrini boshqarishga urinishlari mumkin. Bu esa muloqotda bag‘rikenglik va rang-baranglikni kamaytirib qo‘yadi.

Postindustrial (axborot) jamiyatining asosiy tendensiyalaridan biri globallashuv bo‘lib, uning sur’atlarini oshirishda axborot texnologiyalari muhim rol o‘ynaydi. Bu tendensiya ko‘pincha madaniyatlarning birlashishiga olib keladi. Zamonaviy jamiyatda an’anaviy madaniy qadriyatlarni unutish xavfi mavjud.

Binobarin, bizning oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri turli xalqlarning madaniy merosini asrab-avaylashdir. Shu ehtiyoj bilan bog‘liq holda axborot texnologiyalaridan foydalanish nihoyatda muhim bo‘lib, buning natijasida madaniy meros (madaniy yodgorliklar, turli artefaktlar) raqamlashtirish orqali kelajak avlodlar uchun hamon saqlanib qolishiga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

Shuning uchun virtual muzeylar yaratish Internetda madaniyatni rivojlantirishning dolzarb va istiqbolli yo‘nalishi hisoblanadi. Bu g‘oya yaqinda paydo bo‘ldi va umumiy ma’qullandi. Ushbu texnologiya tufayli siz uyingizdan chiqmasdan turli madaniy joylarga tashrif buyurishingiz mumkin.

Albatta, ko‘pchiligimiz sayohatlar yoki diqqatga sazovor joylar haqida boshqa dasturni ko‘rganimizdan so‘ng, bu joylarga tashrif buyurishni

xohlaymiz, lekin bunga vaqt va imkon yetmasligi bizni tushkun qilib qo‘yadi. Kundalik muammolar ko‘pincha orzularimizni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Virtual ekskursiyalar, albatta, kerakli ob’yektlarga haqiqiy tashrifni anglatmaydi, ammo bu ba’zilar uchun orzu qilingan va juda uzoq bo‘lgan joylar bilan tanishishning ajoyib usuli. 3D texnologiyasi sizga to‘liq mavjudlik hissini beradi. Siz o‘zingizning yutuqlaringizni muzeylar va galereyalar orqali o‘zingizga mos tezlikda boshqarishingiz mumkin. Siz har qanday ob’yektni yaqindan tekshirishingiz, xonadan xonaga o‘tishingiz, istalgan vaqtda turni tark etishingiz va o‘zingiz uchun qulay bo‘lgan istalgan vaqtda davom ettirishingiz mumkin. Bular – virtual sayohatlarning afzalliklari.

Virtual ekskursiyalarning yana bir ijobiy jihati yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni san’at orqali go‘zallik bilan tanishtirish, estetik tafakkurini oshirishdir.

Yagona kamchiligi shundaki, virtual muzeyning eng rang-barang, sifatli va qiziqarli ko‘rgazmasi ham haqiqiy muzeyga tashrif buyurishda paydo bo‘ladigan tuyg‘uni bizga to‘liq yetkaza olmaydi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, axborot texnologiyalarining hayotimizga joriy etilishi yoshlarga o‘zi sevgan ish bilan shug‘ullanish imkoniyatini bermoqda, shu bilan birga dunyoqarash kengayishi, moddiy farovonlikka erishish istagini ham qanoatlantirmoqda.

Shuni yodda tutish kerakki, Internet nafaqat madaniy ma’lumotlarni tarqatish usulidir, balki uni yaratuvchi ijodkorlikni ham rag‘batlantiruvchi imkoniyatdir. Biz internet tarmog‘ining demokratlashuvini kuzatishimiz mumkin, bu esa foydalanuvchilar, jumladan, yoshlarning zarur axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Shuning uchun biz internetda bepul foydalanish mumkin bo‘lgan ma’lumotlarning sifati haqida o‘ylashimiz kerak. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning o‘zbek segmentidagi kontentlarning saviyasi masalasida jiddiy o‘zgarishlarni kechiktirmasligimiz lozim. Chunki yoshlar real olamdan ko‘ra virtual dunyoga ko‘proq o‘rganib qolmoqda. Bu esa bizni yangi yondashuvlarni o‘ylashga majbur qiladi.

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI AXBOROTLARNING JAMIYAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

Zoirxo'ja O'LMASXO'JAYEV,
Tashkent International University mas'ul xodimi,
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Bugun avj olayotgan globallashuv esa milliy ma'naviyatlarga qarshi xavf-xatarni emas, balki to'g'ridan-to'g'ri katta kuchga ega bo'lgan tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Ularning oldini olish imkoniyatlarini izlab topish va ilmiy asoslash dolzarb vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Chunki bugungi tahdidlar real kuch sifatida milliy ma'naviyatlarning yemirilishini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda mamlakatimizda yashayotgan barcha insonlarning o'zaro jipsligi, turli tahdidlarga qarshi yagona kuch sifatida harakat qilishga erishilishi bilan bog'liq imkoniyatlarimizdan samarali foydalanishimiz lozim. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Yanada ogoh va sergak bo'lish eng asosiy boyligimiz bo'lgan va biz haqli ravishda faxrlanadigan ko'p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir". Ana shunday tuyg'ularning mustahkam bo'lishi milliy ma'naviyatlarga nicbatan yuzaga keladigan tahdidlarning oldini olishda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Dunyo ijtimoiy tarmoqlar davriga o'tdi. Endilikda uning jamiyatga ta'sirini sarhisob qilmaslik mumkin emas. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylandi, uning dinamikasi va o'zaro ta'sirini tubdan o'zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga ta'siri ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkinligini kundalik misollarda ko'rishimiz mumkin. Ijobiy jihatlar qatoriga axborotni osonlik bilan yetkazish va tarqatish imkoniyati, yangi aloqa tarmoqlarini yaratish, aholining barcha qatlamlari uchun axborot va onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash kiradi. Biroq, salbiy oqibatlar ham bor: ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, ma'lumotlarning maxfiyligi bilan bog'liq muammolar, soxta yangiliklarning paydo bo'lishi va kiberbulling. Ushbu maqolada biz ushbu mavzuni to'liqroq tushunish uchun ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga ta'sirining asosiy ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rib chiqamiz.

Ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklari: yaxshilangan aloqa va ma'lumotlarga kirish haqida so'z yuritsak, ijtimoiy tarmoqlar jamiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va uning asosiy afzalliklaridan biri aloqani

yaxshilashdir. Ijtimoiy tarmoqlar tufayli odamlar uzoqdan do‘stlari va qarindoshlari bilan osongina aloqada bo‘lishlari, shuningdek, butun dunyo bo‘ylab yangi tanishlar topishlari mumkin. Ular real vaqt rejimida muloqot qilish, fotosuratlar, videolar va boshqa ma’lumotlarni almashish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar ajoyib ma’lumot manbai. Foydalanuvchilar dolzarb yangiliklarni olishlari, hayotning turli sohalaridagi so‘nggi tendensiyalarni kuzatishlari, tajriba almashishlari va yangi voqealar haqida bilishlari mumkin. Bu, ayniqsa, o‘rganish va kasbiy rivojlanish uchun

Texnika taraqqiyotining rivoji insoniyatni jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshirmoqda va biroz mushohada qilishga undamoqda. Biz ba’zan o‘zimiz yaratgan narsalarni foydali taraflaridan ko‘ra zararli jihatlaridan ko‘proq foydalanamiz, ya’ni hayot haqiqatini unutamiz nafsimizning quliga aylanamiz. ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi mumkin bo‘lgan talabalar va mutaxassislar uchun foydalidir.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlarning barcha afzalliklariga qaramay, ba’zi kamchiliklar mavjud. Anonimlik imkoniyati kiberbulling, yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishi va shaxsiy hayotning buzilishi kabi bir qator muammolarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardan tez-tez foydalanish doimiy qaramlikka olib kelishi va odamlarni haqiqiy dunyodan chalg‘itishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga ta’sir qiladigan bir qator kamchiliklari bor. Ulardan biri shaxsiy daxlsizlik masalasidir. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari ko‘pincha ular joylashtirgan ma’lumotlar keng jamoatchilikka ochiq bo‘lishi mumkinligini anglamaydilar. Bu shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishiga va maxfiylikning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish doimiy qaramlikka olib kelishi mumkin. Ko‘p odamlar haqiqiy aloqalarni rad etib, virtual dunyoda ko‘p vaqt sarflashadi. Bu ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga, shuningdek, haqiqiy hayotdagi munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik, shuningdek, konsentratsiyani yo‘qotish va samaradorlikni pasayishiga olib kelishi mumkin. Odamlar mazmunliroq ishlarni qilish o‘rniga, yangiliklarni aylanib chiqish yoki postlarga izoh berish kabi foydasiz ishlarga ko‘proq vaqt sarflashlari mumkin. Natijada odamlar vaqtni qadrlamay qo‘yadilar. Bu esa insonni dunyoni absurdlashgan holda ko‘rishga o‘rgatadi. Ma’nosizlik ijtimoiy hayotda depressiyani ko‘paytiradi. Odamlar hayotdagi faol pozisiyalarini boy bera boshlaydilar.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlarning kamchiliklari maxfiylik muammolari va doimiy qaramlik bilan bog‘liq. Insonlar hayotiga va umuman jamiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslik uchun ushbu xavflardan xabardor bo‘lish va ijtimoiy tarmoqlardan mohirona foydalanish yo‘l-yo‘riqlarini ommaga singdirib borish lozim.

Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga yana bir ta’siri ijtimoiy normalar va qadriyatlarning o‘zgarishi bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy tarmoqlar va mediaolam jamiyatga katta ta’sir ko‘rsatadi, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarga o‘zgarishlar kiritadi. Ushbu hodisaning afzalliklaridan biri odamlar o‘rtasidagi aloqani yaxshilash imkoniyatidir, ular bir-birlari uchun ochiq va qulayroq bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar ham ma’lumotlarning tarqalishiga yordam beradi, bu esa fuqarolarning xabardorligiga va ijtimoiy sharoitlarning yaxshilanishiga olib keladi.

Biroq, salbiy tomoni ham bor ekaniini unutmaslik lozim: ijtimoiy tarmoqlar haqiqiy muloqot o‘rnini bosadigan yuzaki munosabatlarning shakllanishiga hissa qo‘shishi mumkin. Odamlar smartfonlar oldida ko‘proq vaqt o‘tkazmoqda, yuzma-yuz uchrashuvlar va suhbatlar soni kamaymoqda. Bu yolg‘izlik va depressiya holatiga olib kelishi mumkin.

Merriam-Webster lug‘atida ijtimoiy tarmoqlarni “elektron aloqa shakllari (ijtimoiy tarmoqlar va mikro-bloglar uchun veb-saytlar kabi)” [1] deb ta’riflaydi, ular orqali foydalanuvchilar ma’lumot, g‘oyalar, shaxsiy xabarlar va boshqa kontentni (masalan, videolar) almashish uchun onlayn hamjamiyatlarni yaratadilar. Hozirgi kunda ma’lumot almashish uchun hech qanday xat yoki telegramma kerak emas. Bu tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan dunyoda global miqyosda fikr almashish uchun tezkor vosita hisoblanadi.

Tahlillarga qaraganda, yoshlarning 90 foizi asosiy axborot manbai sifatida internetga, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga salbiy ta’siri bevosita yoshlarning o‘zidan bilish va ularning bu boradagi qarashlarini o‘rganish maqsadida oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida onlayn so‘rovnoma tashkil qildik. Ijtimoiy tarmoqlardagi bunyodkorlikka qaratilgan g‘oyalar va harakatlarni ko‘plab keltirish mumkin. Lekin, unda sodir bo‘layotgan vayronkor g‘oyalarning targ‘ib etishga qaratilgan harakatlarni anglab olish mushkul sanaladi.

Bunday keng imkoniyalardan unumli foydalanishga intilayotgan g‘arazli kuchlar o‘zlarining vayronkor g‘oyalarni ayni ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib etishga intilmoqdalar. Vayronkor g‘oyalar – bunyodkor g‘oyalarga zid bo‘lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g‘oyalar majmuasini ifoda etadigan tushuncha. Jamiyatni tubanlikka

yetaklab, odamlarni g‘arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g‘oyalar (o‘zining shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlarini o‘zgalar hisobiga qondirish, bosqinchilik, talonchilik va boshqalar). Aqidaparastlik va jangari irqchilik (rasizm). Buyuk davlatchilik shovunizmi va ashaddiy millatchilik, fashizm, bolshevizm, terrorizm kabi mafkuralar vayronkor g‘oyalar jumlasiga kiradi [2]. Dunyoda yuz berayotgan voqealar Arab dunyosida bo‘layotgan hodisalarni tarmoqlar oraqli kuzatgan arab ayollari Facebook tarmog‘ida o‘z sotsial uyushmasini tuzishadi. Bu uyushmada ularni bir g‘oya birlashtirdi, ya’ni ayollarni avtomobil boshqarish va bu boradagi barcha ta’qiqlarni yo‘q qilish edi. Harakat natijasida 2017-yili Saudiya Arabistoni podshohi Salmon ibn Abdulaziz as-Saud ayollarga haydovchilik guvohnomasini olish va avtomobil boshqarishga ruxsat beruvchi farmonni imzoladi. Unga ko‘ra, ayollar 2018-yil iyunidan boshlab haydovchilik guvohnomalarini olishi mumkin bo‘ldi [3].

Axloqsizlikni targ‘ib etuvchi axborotlar. Albatta bugungi davr axborot asri davri. Kim axborotga egalik qilsa, dunyoga egalik qiladi. Bu borada ijtimoiy tarmoqlarda ustunlikka ega bo‘lgan siyosiy kuchlarning qo‘li baland kelmoqda. Tarmoqlardagi hattoki kattalarning ham aqlini shoshirib qo‘yadigan pornografik video kontentlar, “LGBT” g‘oyalarini ilgari suruvchi g‘oyalar chinakam tahdidga aylandi.

UNICEF ma’lumotiga ko‘ra, internet foydalanuvchilarining uchdan bir qismi 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlardir. Ana shunday bir holatda, global tarmoqda o‘z joniga qasd qilishning oson yo‘llarini targ‘ib qiluvchi 9 ming, shahvoniy mazmundagi 4 mingdan ziyod sayt mavjudligi aniqlangan. Shuningdek, UNICEF o‘tkazgan so‘rovlar internetdan foydalanadigan o‘smirlarning 90 foizi axloqsiz surat va videolarga duch kelishi, 60 foizi esa bu turdagi axborotni izlaganini ma’lum qilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, O‘zbekistonda internet foydalanuvchilarining 35 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilari va ularning aksariyati aynan yoshlar, shuningdek, bolalar ham hisoblanadi [4].

O‘z isbotini topmagan, tekshirilmagan, biz uchun neytral bo‘lgan axborotlar. Bugun tarmoqlarda asosli yoki asossiz, teshirilgan yoki tekshirilmagan axborotlar juda ko‘p sanaladi. Ma’lum bir kuchlar o‘zlarining g‘oyaviy maqsadlarini amalga oshirish borasida o‘z isbotini topmagan, tekshirilmagan, biz uchun ba’zida neytral bo‘lgan axborotlarni tarqatmoqda. Shu ma’noda, mafkurada “mafkuraviy vahima” degan tushuncha mavjud. Mafkuraviy vahima (ingl, Moral panic, moral – “mafkura, axloq”, panic – “vahima, qo‘rquv”). Mafkuraviy vahima bu jamiyatdagi mavjud tinchlik holatiga rahna solish xavfi bilan aholini

qo‘rqitish maqsadida muammolarni taqdim etishdir. “Folklor (mahalliy) iblislar va mafkuraviy (ma’naviy va axloqiy) vahima” asari muallifi Stenli Kohenga fikriga ko‘ra: “Mafkuraviy vahima – jamiyat qadriyatlari va qiziqishlariga xavf va qo‘rquv soladigan vaziyat, voqea, kishi yoki kishilardan iborat guruhlarning paydo bo‘lishi natijasida sodir bo‘ladi. Jamiyatga, madaniy qadriyatlarga xavf keltirib turuvchi shaxslar “folklor iblislar” deb atala boshlandi. Mafkuraviy vahima tortishuv va ijtimoiy tanglikni o‘z ichiga qamrab olgan qarama-qarshilikdir, bunda murosasozlik qiyindir” – deydi [5].

Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash mumkinki, ijtimoiy tarmoqlar qanchalik tez ommalashib borishi natijasida, vayronkor g‘oyalarning ham tez va ko‘lamining kengroq tarqalishiga olib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Social network. https://www.merriam-webster.com/dictionary/social%20network

2. Қуронов М., Даминов И. ва бошқалар. Дунёнинг мафкуравий манзараси. – 178 Тошкент: Муҳаррир, 2017. – Б.8-9.

3. https://www.fac.gov.sa/web/upload_dir/content/1614589525.pdf

4. Мирўктамова Ф. Виртуал оламдаги болалар. Ҳуқуқ ва бурч. №1/2020.

5. Маврулов А. Тўраев Ш. Маънавият тарғиботчисининг ёрдамчи китоби. – Тошкент: Муҳаррир. 2017. – Б.183-184.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING MA’NAVIY-MA’RIFIY OMILLARI

Berdimurod XOLBEKOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mas’ul xodimi

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv shiddati tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash masalasini dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Mamlakat xavfsizligi va barqorligini ta’minlash, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurashda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu borada mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish va uni takomillashtirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”[1]. Zero, jahon geosiyosiy maydonida kuzatilayotgan global o‘zgarishlar ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichiga o‘tishni taqozo qilmoqda. Binobarin, mazkur holatlar bugungi globallashuv sharoitida voyaga yetib kelayotgan yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga bo‘lgan zaruratni tobora kuchaytirmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning davlat rahbari sifatida amalga oshirayotgan siyosiy islohatlarida yoshlarga e’tibor, ularni Vatanga sodiq etib tarbiyalash masalasi asosiy o‘rinni egallaydi. Zero, “tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, degan hikmatli so‘z zamirida ham tarbiya masalasiga berilgan alohida e’tirof mujassamligini teran anglash mumkin. Tarbiyada tanaffusga o‘rin qoldirish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu alohida ta’kidlash lozimki, ma’naviyat insonlar o‘rtasida mehr-oqibat, insof, diyonat, adolat, ma’rifat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Yoshlar vatanimizning kelajagi ekanligini teran anglagan holda Vatanimiz taqdirini ularga ishonib topshirar ekanmiz, avvalo ularni zimmalariga yurtni sevish va mehr-muhabbatni singdirish orqali mamlakatimiz ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan bunyodkorlik ishlariga muntazam da’vat etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Zero, vatandan g‘ururlanishi, uning porloq kelajagiga ishonch har bir insoning yuksak fazilati sanaladi. O‘z xalqi va millatini urf-odati, an’ana hamda qadriyatlarini e’zozlashi, o‘z yurtini himoya qilishi, moddiy va ma’naviy meroslariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi vatnaparvarlikning oliy belgisi hisoblanadi.

Vatan - muqaddas qadriyat. Vatan mehrini, Vatan sehrini uning ulug‘vorligini ta’riflashga so‘z ojizdir. **Vatanparvarlik –** Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadi[2].

Vatanparvarlik – Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo‘lishga undaydigan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy fazilatdir. O‘tmishdan ma’lumki, vatan ozodligi uchun kurashish masalasi allomalar asarlari hamda ezgu

g‘oyalarni ifoda etuvchi ta’limotlarning bosh g‘oyasi bo‘lib kelgan. Muqaddas manbalarda “Vatanni sevish iymondandir”, deb ta’kidlanadi. Jonajon vatanimizga fidoyi bo‘lib xizmat qilish bu har bir insondan doimo xushyor, sergak, ogoh bo‘lishni taqoza etadi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun fidoiylik tuyg‘usi ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan buyuk meros, axloqiy qadriyatdir. Vatanga muhabbat, imonga sadoqat Temur Malik, buyuk sarkarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi ulug‘ yurtparvarlar, Vatan ozodligi yo‘lida qo‘lida tig‘ va tug‘ ila jon bergan Shayx Najmiddin Kubro, Vatan hajri va dog‘ida yonib o‘tgan Bobur Mirzolar ibrati bizga yurt mustaqilligi va xalq ozodligi yo‘lida aziz jonini, muborak qonini fido qilgan vatanparvar, xalqparvar insonlarning muhabbati naqadar ulug‘, imonlari qanchalik mustahkam ekanini yana bir bor namoyon etadi. Xalqimizning tarixi, azaliy qadriyatlari zamirida vatanparvarlik tuyg‘usining naqadar ulug‘vorlik kasb etishini anglash mumkin. Buyuk sohibkiron Amir Temur o‘z saltanatini tashqi dushmanlardan himoya qilish orqali mamlakat yaxlitligi va xalqning osoyishtaligini ta’minlagan edi. Ulug‘ alloma Najmiddin Kubro o‘z mamlakatini dushmanlardan himoya qilishda shahid bo‘lib, yuksak vatanparvarlik namunasini ko‘rsatgan edi. Vatan tarixini bilgan, ulug‘ ajdodlar merosini chuqur o‘rgangan har bir inson qalbida milliy g‘urur va milliy iftihor tuyg‘ulari yanada jo‘sh urib, el-yurtga, Vatanga bo‘lgan sadoqati ortib boraveradi Tarix kishilarni vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g‘urur va iftixor yo‘lida tarbiyalab, ularda Vatanni sevib, unga sadoqat bilan xizmat qilish fazilatlarni ruyobga chiqaradi. Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg‘ular qanchalik chuqur joy olgan bo‘lsa, milliy mahdudlik o‘rniga milliylik g‘oyalari vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega bo‘lgan insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘zini anglash, millat, Vatan sha’ni va manfaatlarini himoya qilishdek muqaddas tuyg‘ular shakllanadi. Vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr, muhabbatni e’tiqod va iymon darajasiga ko‘tarish, ona - yurt tarixi, milliy meros va qadriyatlarini bilish va e’zozlash har bir insonning muqaddas va sharafli burchi hisoblanadi. Bugungi inson uchun ma’naviyat naqadar najotkor kuch ekanligini namoyon etmoqda. Zero, axloqsizlik, odobsizlik, ma’naviy qashshoqlik insonni ma’naviy tubanlikka girdobiga giriftor etib, keng miqyosda esa jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarib, parokandalikni yuzaga keltir etmoqda. Shu o‘rinda, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlar tarbiyasiga e’tibor davlatimiz siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. Bu borada, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning “...mamlakatimizda ma’naviy tarbiya tizimining yangi strategiyasini yaratib, halqimiz, ayniqsa,

yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishimiz kerak”[3]. Zero, Prezidentimizning fikrlariga tayangan holda bugungi kunda yoshlarning ongi va shuuriga vatanparvarlik g‘oyalarini singdirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Milliy an’analarimizga sodiq, qadriyatlarimizni hurmat qiladigan, Vatan manfaatini har narsadan ustun qo‘yadigan, boy ma’naviy merosimiz va dunyo ilm-fanining eng ilg‘or tajribalarini o‘zlashtirgan avlodni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor maqsadi hisoblanadi. Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, yosh avlod qalbi va ongiga yurtimizga bo‘lgan muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi murakkab globallashuv shiddati ma’naviy - ma’rifiy sohasida vujudga kelayotgan muammolar xalqimiz ma’naviyatini asrab avaylash va uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oyaviy mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilish borasida kechiktirib bo‘lmas vazifalarini amalga oshirini taqoza etmoqda.

Bu haqda Yurtboshimiz o‘z nutqida tarix sahifalariga nazar tashlar ekan: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari - uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanligini hamda xalqimizni ozodlik va ilm-ma’rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslab o‘tadi. Shu o‘rinda, ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi ularning g‘oya va dasturlari Yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang ekanligi Prezidentimiz tomonidan alohida ta’kidlandi. Shu bilan bir qatorda Davlatimiz rahbari yig‘ilish ishtirokchilariga “O‘zimizga bir savol berib ko‘raylik: biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turganligi bular odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar ekanligini agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugundan boshlashimiz shartligini va ertaga kech bo‘lishini aytib o‘tgan edi. Zero, yoshlarimiz qalbi va ongiga Vatanga sadoqat, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho ma’naviy merosga yuksak hurmat tuyg‘ularini shakllantirish, bor kuch

va salohiyatini mamlakatimiz mustaqilligini yanada mustahkamlashga muntazam da’vat etish lozim.

Taniqli jadid allomasi Abdulla Avloniyning ta’kidlashicha, “Vatan tuyg‘usi eng insoniy, eng mo‘tabar tuyg‘ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanish kerak. Vatan onadek muqaddas”[4]. Zero, vatan shunchalar aziz va muqaddaski, vatan uchun jonni fido qilish, uni har qanday tahdid va xatarlardan asrash, buyuk ma’naviy jasorat hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvar, xalqimizning urf-odat, qadriyat va an’anlariga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatimiz tinchligi va istiqboli uchun dahldorlikni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, tashabbuskor, adolatli, halol, halq manfaati yo‘lida bor kuch va imkoniyat hamda salohiyatini safarbar qilishga, yoshlarni intellektual va ijodiy salohiyatini ruyobga chiqarish uchun mustahkam poydevor yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq”[5]. Binobarin, buyuk ajdodlarimizning boy merosini yoshlarimiz chuqur o‘rganish orqali yurtimizda “Uchinchi Renessans poydevorini yaratish”ga qaratilgan keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishda bugungi jadal islohotlar biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi // www.prezident.uz 13.01.2017

2. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati.–Toshkent: G‘afur G‘ulom NNMIU. 2010.–105-b.

3. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 278-b.

4. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq”. –T.: “O‘qituvchi”, 1993.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020

AXBOROT MADANIYATINING JAMIYATDAGI AHAMIYATI

Azizabonu SHAMSIDDINOVA,
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

“Axborot madaniyati” atamasi ikkita asosiy tushunchaga asoslanadi: madaniyat va axborot. Shunga ko‘ra, ko‘plab tadqiqotchilar ushbu atamani talqin qilishda axborot va madaniy yondashuvlarni aniqlaydilar. Madaniyatshunoslik yondashuvi nuqtai nazaridan axborot madaniyati axborot jamiyatida insonning yashash usulidir. U insoniyat madaniyati taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bundan kelib chiqib, bu tushunchani talqin qilishning “madaniyat” va “axborot” yondashuvlariga ajratib qarashlar mavjud. Madaniyat yondashuvi doirasida axborot madaniyatini axborotlashgan jamiyatda insonning yashash faoliyati usuli sifatida, insoniyat madaniyati shakllanishi jarayonining tashkil etuvchisi sifatida qaraladi. Axborot yondashuvi doirasida esa unga axborot talabini qondirishga qaratilgan barcha axborot faoliyati bilimlari majmuasi sifatida qaraladi.

So‘nggi vaqtlarda esa axborot madaniyati tushunchasini shaxsning axborot va madaniyat komponentlarining integratsiyalashuvi vaziyatida yaxlit qarash tendentsiyasi kuchaymoqda. Buning natijasida esa axborot madaniyati umuminsoniy madaniyatning bir qirrasi sifatida qaralmoqda. Aynan ana shu qarash axborot madaniyatining asl mohiyatini ochib berishga imkon beradi. Axborot madaniyati shaxsning o‘quv, ilmiy-bilish, mustaqil ta’lim olish, dam olish va boshqa ko‘rinishli faoliyati jarayonida paydo bo‘ladigan axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan, shaxsiy axborot faoliyatini samarali tashkil qilishni ta’minlaydigan bilimlar, malaka va ko‘nikmalarning tizimlashtirilgan majmuasidir. Umuman olganda, axborot madaniyati axborotdan samarali foydalanish bilim va ko‘nikmalari bo‘lib, kerakli axborotni axborot resurslaridan axborot texnologiyalarining barcha ko‘rinishlari (kompyuter va Internet tarmog‘i texnologiyalari) orqali qidirishning turli xil bilimlaridan iborat. Azaliy tushunchalar ma’no qatlami benihoya kengayib borayotgan zamonda yashayapmiz. “Madaniyat” atamasi ham ana shunday kengayuv, chuqurlashuv, rang-baranglashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. Shaxsiy madaniyat, muomala madaniyati, kiyinish madaniyati singari birmuncha tor bo‘lgan mavzular bilan cheklanish davri ortda qoldi. Endilikda iqtisodiyot, ishlab chiqarish, bozor munosabatlari, dehqonchilik, tibbiyot, rahbarlik, siyosat va xalqaro munosabatlarning o‘z madaniyati bor, ya’ni “madaniyat” tushunchasidan xoli soha, tarmoq,

jabha yo‘q. Hatto, har qanday jamiyat o‘zagini, demak, taraqqiyot yo‘sinlari umurtqasini madaniyat tashkil etishi isbot talab qilinmaydigan haqiqatga aylanib ulgurdi. Buni qarangki, axborotlashgan jamiyat, jamoatchilik bilan aloqalar (ommaviy kommunikatsiya) asr muammosi sifatida sertarmoq fan maqomiga ega bo‘la borayotgan hozirgi vaqtda axborot madaniyati hayot-mamot masalasi darajasiga ko‘tarildi.[1] Ongli inson borki, hayotining har lahzasida yo axborot oladi, yo uni idrok etadi va yoki uzatadi. Ushbu uch jarayonning to‘rtinchisi — keraksiz axborotdan xalos bo‘lish. Biz axborot erkinligi haqida juda ko‘p gapirdik, endi esa keraksiz axborotdan qutulish muammosi yo‘limizda ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Afsuski, ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda mulkingizga aylangan axborot yig‘indisi xonadoningizda hosil bo‘lgan chiqindi emaski, undan osongina kechsangiz. Axborot madaniyati mazkur to‘rt bosqichli jarayon ichida eson-omon yashash hamda faoliyat yuritishga zamin yaratadi, doimiy yordamchiga aylanadi. Murakkabdan-murakkab, serqatlam axborot almashinuv jarayoni sohalar, jamiyatlar, mamlakatlar, mintaqalar va dunyo miqyosida keng ko‘lamlarda kechayotganini tasavvur qilib ko‘rsak, so‘z yuritilayotgan mavzuning ham ilmiy, ham amaliy ahamiyati naqadar ulkanligi ayonlashadi. Biroq mazkur haqiqatni to‘la anglashga tasavvurimiz hamda aql-idrokimiz imkoniyatlari qodirmikan.[2]. Bugungi kunda xayotimizning turli sohalarida axborot kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelishi va jadal rivojlanish yo‘liga o‘tishi jamiyatimizga ijobiy ta’sir qilmoqda. Natijada insoniyat axborotlashish sohasida inkilobiy o‘zgarishlar davrini boshidan kechirmokda. Dunyoda umumiy axborotlashgan hamjamiyat shakllanmoqda. Bu o‘zgarishlar asosini axborotlashtirish, telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari konferentsiyasi negizida axborotni uzatish va iste’molchiga etkazib berishning eng zamonaviy va samarali vositalari dunyoga kelayotganini tashkil etadi. Oqibatda XXI asr –axborotlashgan jamiyat asri deb e’tirof etilmoqda. Shunga ko‘ra biz ushbu bobda axborot, axborotlashuv tushunchalarini taxlil qilib, axborotlashgan jamiyatning mazmun va moxiyatini va O‘zbekistonda axborotlashuv jarayonining hozirgi holati vva uning rivojlanish ustivor yo‘nalishlarini yoritib berishga harakat qilamiz. Hozirgi kunda jamiyatni axborotlashtirish jarayoni ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy va boshqa jihatlarini qamrab olmoqda. Binobarin, axborotlashtirish ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda texnik-texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy va madaniy jihatlar uyg‘unlikda olib boriladi. Bunday jamiyatning nafaqat ishlab chiqarish va texnologiyalar sohasida, balki ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy hayotida ham tub

o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ma’lumki, har qanday faoliyat sohasi ekstensiv va intensiv yo‘l bilan rivojlanadi. Axborotlashtirish jarayoni ham bundan mustasno emas. Uning dastlabki bosqichlarida ekstensiv rivojlanish ustun bo‘lsa, keyin intensiv rivojlanish bilan almashadi.

Ekstensiv usul - kompyuter paydo bo‘lishi bilan boshlangan. Unda quyidagi muammolar hal etilgan: jamiyatni axborotlashtirishning ilmiy bazasini ta’minlash; hisoblash texnikasini ommaviy ishlab chiqarish uchun texnologik baza yaratiladi; turli ijtimoiy, kasbiy va yosh guruhlarining axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash; dasturiy vositalarini ishlab chiqish, hujjatlashtirish, tarqatish va reklama qilish bo‘yicha tuzilmalarni yo‘lga qo‘yish; hisoblash texnikasi bilan ishlashda ommaviy o‘qitishlarni ta’minlash uchun asos yaratish; ta’lim tizimiga yangi texnologiyalarning joriy qilinishi munosabati bilan mutaxassislarni uzluksiz o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish; axborot xizmatlarini ta’minlash uchun aloqa vositalari infratuzilmasi tayyorlanadi. Ushbu ilmiy-metodologik muammolarning tabiiy ravishda hal etilishi natijasida ekstensiv yo‘l amalda inson faoliyatining barcha sohalari, jumladan, fan, mehnat, loyihalashtirish, o‘qitish va iste’mol jabhalarini qamrab oldi. Shunday qilib, axborotlashtirishning intensiv yo‘liga o‘tish imkoniyati юzaga keldi, uning maqsadi jamiyat va insonlarning axborotga bo‘lgan talablarini qondirishdan iborat.[3] Zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan, internet jamiyatning barcha sohalariga shiddat bilan kirib kelayapti. Internet tarmog‘ining imkoniyatlari naqadar keng va cheksizligi bugun barchaga ayon, u gazeta, radio va hatto televideniedan ham kuchliroq ta’sirga ega, axborot oqimi juda keng. Lekin uning o‘ziga yarasha boshqa jihatlari ham mavjud, ya’ni, internetning ijtimoiy tarkibi turfa xil ekanligi qator salbiy holatlarni o‘zida namoyon etib, bu o‘z o‘rnida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Kishilik jamiyatida ijtimoiy-siyosiy, madaniy, milliy, etnik va boshqa omillarning muvozanati muayyan darajada mavjud bo‘lsa hamki, internet tarmog‘ida bunday tenglikni ko‘rib bo‘lmaydi. Bunday holat ma’naviy va milliy an’analarga to‘g‘ri kelmaydigan, vertual olamning o‘zigagina xos bo‘lgan internet “madaniyat”ni yuzaga keltirib chiqardi. Tarmoq ichida insoniyatga qarshi, yoshlarga qarshi tajovuzlarni ko‘rish mumkin. Internet nazoratsizlik tufayli giyohvand moddalarini targ‘ib etib, axloqsizlik, zo‘ravonlik, qotillik va terrorchilikka da’vat etuvchi g‘oyalar bilan sug‘orilgan resurslar to‘lib-toshgan tajovuzkor axborot makoniga aylanib bormoqda. Tabiiyki, hali axborotga “o‘ch bo‘lgan” aholi kirib kelayotgan axborotni saralamay turib, “iste’mol” qila boshlaydi. Ular hali yaxshi va yomon, kerakli va keraksiz axborotning farqiga bormasdan, bir so‘z bilan aytganda, aholida

xolis axborot oqimidan noxolisini ajratib olish uchun idrok shakllanib ulgurmagan edi. Shuning asorati hozirgi kunda,ayniqsa, sezilmoqda. Bu ba'zan yoshlarimizda har qanday axborotni mutloq haqiqat sifatida qabul qilinishini keltirib chiqarmoqda. Internetning ta'siri:

– Yot, buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishi (diniy ekstremizm, millatchilik, irqchilik, sadizm misolida);

– G'arb yashash tarziga xos, lekin o'zbek mentalitetiga zid g'oyalar, qarashlarning yoshlarga ta'siri (kiyinish, chekish, pirsing, tatirovkalar va hokazo);

– pornografik axborotlarning yoshlar tarbiyasiga ta'siri;

– tekshirilmagan axborotlar (bo'xtonlar).

Internetning ulkan imkoniyatlari, unda axborot oqimining tezkorligi, auditoriyaning cheklanmaganligi, o'z maqsadlarini terroristik yo'l bilan amalga oshirishni odat qilib olgan –yovuz kuchlarning manfaatlariga ham xizmat qiladi. Endilikda Internet tizimida yuzlab terroristic saytlarning manzillari aniqlangan. Terrorizm – Internetda o'ta izchil voqelik: saytlar to'satdan paydo bo'ladi va tez-tez formatini o'zgartirib turadi. Kutilmaganda esa, o'z mundarijasini saqlagan holda, ammo manzilini o'zgartirish yo'li bilan ko'zdan g'oyib bo'ladi. Terroristik saytlar asosan uchta auditoriyaga yo'naltirilgan:

1. Avvaldan mavjud va potensial tarafdorlar
2. Xalqaro jamoatchilik fikri
3. Muayyan mamlakat jamoatchiligi.

Ko'pgina mutaxassislar kiberterrorizmning xavfi haqida bot-bot gapirishsada, terroristlar tomonidan Internetdan shunchaki foydalanishni nazardan chetda qoldirar ekanlar. Zamonaviy terroristik guruhlar Internetdan asosan quyidagi besh usul orqali foydalanadilar:

- Psixologik urush
- Reklama va targ'ibot
- Qo'lga tushirish va safarbar etish
- Tizimlar tashkil etish
- Axborot ta'minoti

Aholini (jamiyatimizni) kiberterrorizm va Internetdagi terroristik saytlardagi harakatlardan himoya qilish bilan birga, bir qator antiterroristik harakatlar majmuini ishlab chiqish talab etilmoqda. Internetdagi faoliyatning ijobiy tomonlari quyidagilar bo'lishi mumkin:

– dunyo qarashning kengayishi;

– obyektiv va negativ axborotlarni qabul qilib, ularni tahlil qilish imkoniyati;

– masofaviy o'qishlarda ishtirok etish imkoniyati;

– axborotlarni tanlash imkoniyati borligi. [4]

Bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Lekin ularda axborot immuniteti shakllanmagan mish-mishlar dunyosi bo‘lmish “Internet” orqali ma’naviyatga salbiy ta’sir vujudga kelishi mumkin. Nega ta’sir qiladi? Balkiyoshlar ma’naviyatining yetarli darajada shakllanmaganligi emasmikan? Bugungi kunda yoshlarimiz – turli xil G‘arb seriallari ta’sirida, milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabaro‘sayotganligi sababli ma’naviyatga chuqur e’tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o‘tkir,dunyo bilimlarini egallagan bo‘lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo‘lida xizmat qilishlariga,begona g‘oyalarga berilmasligiga kafolat ham berolmaymiz. Ularni eng avvalo Vatanga e’tiqodni, urf-odat va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalasakkina, istalgan buzg‘unchi axborotlarga nisbatan mafkuraviy immuniteti shakllanadi, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalari tahririyati davlat unitar korxonasi. Bosh muharrir: Rahmatov O‘tkir Rahmatovich. Yozuvchi: Xurshid Do‘stmuhammad,yozuvchi, filologiya fanlari doktori.

2. Xamidovna, N. S. (2021). On The Influence of The Phonetic Laws of The Uzbek Language in The Teaching of German. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 3, 46-48.

3. Pirmatovich, R. R. (2022). IX-XII asrlarda dunyoviy ilm-fan sohasida ijod qilgan olimlar va ularning ilmiy merosi. Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 450-452.

4. Алимжонова, М. (2022). Глобаллашувнинг маданиятлараро мулоқотга таъсири ва уни тадқиқ этишнинг илмий педагогик асослари. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 3(3), 323-328.

ZJV5401

SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI JAMIYAT RIVOJINI BELGILOVCHI MUIM KUCH SIFATIDA

Avazbek SHERMATOV,
RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi, magistr

Bugun biz yashayotgan zamon o‘zining shiddatliligi, kun sayin o‘zgarayotganligi va umuman olganda, inqilobiy xususiyatlarga egaligi bilan sifatlanadi. Kundan kunga ko‘payib, keng tarqalayotgan zamonaviy texnologiyalar kundalik turmushimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Zamonaviy innovatsiyalarni tezlik bilan qabul qilish, ularni ildamlik bilan o‘zlashtirib borish bugun har qanday jamiyatning ertangi rivojlanish darajasi qanday bo‘lishini belgilamoqda. Texnologik taraqqiyotning ilg‘or yutuqlarini yaratayotgan, ularni jamiyat hayotiga keng integratsiya qilayotgan mamlakatlar bugun rivojlanishning eng yuqori cho‘qqisini zabt etib turibdi. Dunyoga mashhur olimlar ham texnologik evrilishlarga tayyor bo‘lish, zamonaviy innovatsiyalardan o‘z vaqtida va oqilona foydalanish muhim ekanligini ko‘p ta’kidlamoqda. Jumladan, Jahon iqtisodiy forumi asoschisi Klaus Shvab bu borada shunday deydi:

“Birinchi sanoat inqilobidan olingan xulosa haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q: jamiyatning texnologik innovatsiyani qabul qilish darajasi uning taraqqiyotida hal qiluvchi omildir. Davlat va jamoat tashkilotlari, xususiy sektor o‘z zimmalaridagi vazifalarni bajarishi zarur, ammo oddiy fuqarolar ham texnologiyalarning uzoq muddatli afzalligini tushunishi juda muhim[1]”.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bilan bo‘liq yana bir muammo shundaki, kimni kontent yaratuvchisi deb tan olish kerak: ishlab chiquvchi, operator yoki SIning o‘zi ? Sun’iy idrok dasturlari avval oddiyroq, faqat ijodiy vositalar sifatida ishlatilgan davrda mualliflik masalasida hech qanday qiyinchiliklar bo‘lmagan, ammo DALL-E va Midjourney kabi SI larning paydo bo‘lishi bilan huquqiy sohada rosmanasiga muammoli holatlar ko‘paydi.

Butunjahon intellektual mulk tashkiloti ekspertlari fikricha, mumkin bo‘lgan yechimlardan biri sun’iy idrok ijodini mualliflik huquqisiz, kopiraytingdan holi asarlar sifatida belgilash sanaladi [2]. Ko‘plab mamlakatlarning qonunchiligi shunday yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlaydi. Darhaqiqat, sun’iy idrokning imkoniyatlari yashin tezligida kengayayotgan bugungi kunda uning yordamida yaratilgan kontentlarning har birini

mualliflik huquqi bo‘yicha javobgarlikka tortish deyarli imkonsiz vazifa. Bunda jiddiy huquq buzilishi holatlarining oldini olish uchun tartibga soluvchi asosiy normativ me’yorlar ishlab chiqilishi muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda SI texnologiyalarini jamiyatning turli sohalariga joriy qilish ishlari davom etmoqda. Bu borada ayniqsa, yoshlarning ertangi kunini belgilovchi ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratilgan. SIni bu sohada qo‘llash o‘zining salbiy va ijobiy jihatlariga ega. Turli ehtimoliy ta’sirlarini baholash orqali sun’iy intellektni ta’lim jarayonlarida samarali qo‘llash maqsadiga erishish mumkin. Ta’lim jarayoni yoshlarda sog‘lom dunyoqarash, yuksak axloqiy mezonlar shakllanishida asosiy o‘rin tutishini inobatga olgan holda sun’iy intellektni ta’lim jarayonlariga muvaffaqiyatli integratsiya qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Bugungi kunda sun’iy ongni ta’limda qo‘llash bilan bog‘liq bir qancha kamchiliklar bo‘lib, ular quyidagilardir:

- Ta’lim muassasalarining SI texnologiyalariga yetarli imkoniyati yo‘qligi ularning turli darajada rivojlanishiga, ayrimlarining o‘quvchilari darajasi keskin farqalanishga olib keladi;

- Ko‘plab ta’lim subyektlari faoliyatining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatayotgan “jonli muloqot”ning mavjud emasligi;

- Ta’lim sohasida SIni qo‘llashda axloqiy jihatlar yuzasidan kelishuvning yo‘qligi(konfidensiallik, ta’lim subyektlari ma’lumotlaridan foydalanish va ularning himoyasi, SIni qo‘llashda nazorat va shaffoflikning mavjud emasligi kabi masalalar).

Ayni paytda, ta’lim sohasida SIning yangi imkoniyatlari va istiqbollari, xususan, moslashtirilgan va shaxsiylashtirilgan o‘qitish formatlari bilan e’tiborga molik.

SIning moslashuvchan ta’lim texnologiyalari o‘quv natijalarini o‘z vaqtida nazorat qilish va o‘quv fanlarining o‘quvchi qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib tanlash imkonini beradi.

Moslashuvchan ta’lim shaxsiylashtirilgan ta’lim usullari nazariyasi va amaliyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning ahamiyatini ta’lim mutaxassislarining aksariyati tan oladi. Shaxsiylashtirilgan ta’lim barcha ishtirokchilarni ta’lim jarayonlariga jalb qilish va muloqot qilishning samarali vositasi bo‘lib, ularning faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu formatlar ta’limning maqsadlari va sur’atlarini, o‘qitish usullari va yondashuvlarini muayyan ta’lim subyektlarining ehtiyojlari, qobiliyatlari va malakalariga qarab maksimal darajada optimallashtirish va farqlash imkonini beradi[3].

Sun’iy idrokning inson hayotiga yana ko‘plab ijobiy ta’sirlari mavjud.

ZJV5401

Zerikarli, ko‘p diqqat va vaqt talab qiluvchi yumushlarni bajarishda beminnat ko‘makchi bo‘lishi kutilayotgan SI ayni paytda barcha narsani oson va bir zumda bajara olishi bilan insonlarni, ayniqsa, yoshlarni yengillikka o‘rgatib qo‘yishi ehtimoli baland. O‘quv materialini vaqt sarflab, mustaqil o‘zlashtirishdan ko‘ra sun’iy idrokka “dars tayyorlatib”, tayyor ishni o‘ziniki deb ko‘rsatish bugun talabalar orasida ko‘p ko‘zga tashlanmoqda. Eng elementar ko‘rinishdagi sun’iy ong ishlanmalari ham bugun bir zumda elektron ko‘rinishdagi taqdimotlarni tayyorlay oladi. Buning uchun 4-5 dona so‘z bilan mavzu aniqlashtirilsa bas. Misol uchun, Microsoft kompaniyasining Office dasturiga obuna sotib olgan foydalanuvchiga dasturda keng imkoniyatlar taqdim etish bilan birga, ChatGPT sun’iy intellektidan foydalanib, bir zumda Powerpoint tadqimotlarini tayyorlash imkoniyati beriladi. SIning bunday imkoniyatlari kishini quvontirish bilan birga tashvishga ham soladi. Bunda insonning ijodkorlik qobiliyati, kognitiv fikrlash darajasi haddan tashqari sun’iy intellektga bog‘lanib qolish natijasida pasayib boradi. Kishi uchun eng oliy maqomlardan biri bo‘lgan, oxirgi paytlarda iste’molchilik madaniyati ortgani sari qadrsizlanib borayotgan yaratuvchanlik hislatining pasayib ketishiga esa jim qarab turib bo‘lmaydi.

So‘nggi paytlarda SI texnologiyalari “ijod” qilayotgan vizual kontent mahsulotlari aholi orasida keng ommalashib, hayratlarga sabab bo‘lmoqda. Midjourney SI chizgan suratlar ko‘p hollarda tarmoqlarning bosh mavzusiga aylanmoqda. Tarixiy voqealar, mashxur tarixiy shaxslarni tasavvur vositasida ishonchli tasvirlarga, videolavhalarga aylantira oluvchi bunday SI ishlanmalari hozirda yurtimizda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. “Boburnoma”da tasvirlangan geografik manzillar, tarixiy voqealar; mashxur tarixiy shaxslarimizning portretlari sun’iy idrok chizgan dastlabki ijod mahsullari bo‘lib tariximizga kirdi. Tasvirlar sifati, aniqligi, rang-barangligi hayron qolarli darajada ishonarli chiqqan. Bir qarashda uni haqiqiysidan ajratish qiyin. Lekin ko‘p hollarda tarixiy shaxslarimiz portretiga murojaat qilgan SI texnologiyalari tasvirni yuqori aniqlikda chizsada, yuz tuzilishini baribir “o‘xshata olmayapti”. Akariyat hollarda shaxslarning ko‘rinishi yevropoid irqiga mansub insonlarga o‘xshab qolmoqda. Mintaqaga xos bo‘lgan yevroosiyocha ko‘rinish esa ko‘zga tashlanmaydi. Buning asosiy sababi sun’iy idrok dasturlarini yaratuvchilar yevropalik yo amerikalik ekanligi va sun’iy idrok ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun kerak bo‘lgan ma’lumotlar o‘zbek segmentida yetarli emasligi deyishimiz mumkin. Bunda chuqur o‘rganish (ingliz. *deep learning)* davomida SI O‘zbekistonga tegishli ma’lumotlar tanqisligiga duch keladi va o‘zbek tiliga yaxshi

moslashmaganligi sababli yetarli bilimlar bazasini shakllantira olmaydi. Shu sababli ham ko‘p hollarda allomalarimiz, tarixiy shaxslarimizning sun’iy idrok chizgan suratlari kutilgan ko‘rinishda yaratilmay qolmoqda.

Mazkur masala yechimi bugun faqat o‘z qo‘limizda. Sun’iy idrok sohasida yangi innovatsiyalar va texnologiyalar yaratish, o‘zbek tili segmentidagi sun’iy ong ishlanmalari yaratishga katta e’tibor va moliyaviy resurslar yo‘naltirish bugungi kunning zamon talabidir. Bu borada ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, xalqaro ilmiy hamkorlikni yanada kuchaytirish, sun’iy ong ishlanmalariga oid ilmiy yo‘nalishdagi grantlar ajratishni ko‘paytirish kabi ishlarni kechiktirmasdan bajarish lozim.

Hozirda O‘zbekistonda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish, jamiyatning tulri sohalariga kirib borishini ta’minlash bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda. Sohaga mas’ullar sun’iy ongni joriy qilish, uning afzalliklaridan foydalanish nafaqat davlat, balki har bir faol fuqaroning burchi ekanlgini ta’kidlamoqda. Xususan, Raqamli texnologiyalar vazirligi sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i Aziz Otabekov shunday deydi:

“Yaqin yillarda O‘zbekiston raqamli savodxon jamiyatga aylanish salohiyatiga ega, sun’iy intellekt turli sohalarda, jumladan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, boshqaruv va sanoatda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu transformatsiya raqamli infratuzilmaga doimiy sarmoya kiritishni hamda ta’lim va malaka oshirishga e’tibor qaratishni talab qiladi.

Har birimiz, ayniqsa, davlat boshqaruvida xizmat qilayotgan mutaxassislar, ilm-fan va ta’lim tizimi vakillari mamlakatimiz uchun raqamli savodxonlik va sun’iy intellektga tayyorlikni oshirishda faol bo‘lishimiz juda muhim. Ushbu faol pozitsiya nafaqat yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishni, balki raqamli sohada innovatsiyalarni, tanqidiy fikrlashni va axloqiy mulohazani qadrlaydigan madaniyatni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi”[4].

Aziz Otabekovning ta’kidlashicha, “raqamli savodxonlik va sun’iy intellektga tayyorlikning hozirgi holatini jahon tendensiyalari bilan solishtirganda, mamlakatimizning raqamli poydevorida to‘ldirilishi kerak bo‘lgan bo‘shliqlar borligi ayon bo‘ladi. Oxirgi yillarda raqamli texnologiyalar sohasida infratuzilma masalalarida muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsak-da, sun’iy intellektni tushunish va qabul qilish tezligi global standartlar bilan solishtirganda hali ham yetarli emas”[4].

Bundan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bo‘lsada, sun’iy intellektni tushunish, uni qo‘llash bilan bog‘liq kamchiliklar yetarlicha. Ayniqsa, katta avlod vakillari ko‘p hollarda bunday texnologiyalardan bexabar

va qiyinchliklarga duch keladi. Muammoni hal qilish uchun raqamli madaniyat darajasini kuchaytirish bo‘yicha aniq belgilangan dasturlar ishlab chiqish, tizimli tadbirlar uyushtirish kerak bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalarini tezlik bilan o‘rganish va o‘zlashtirish, uni hayotning turli sohalariga keng joriy qilish bugun mamlakatimiz taraqqiyotida favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugun biz bu borada qilinadigan qarorlar va harakatlar davlatimiz kelajagiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan hal qiluvchi palladamiz. Raqamli savodxonlik, sun’iy intellektdan foydalana olish nafaqat texnologik taraqqiyot balki barqaror rivojlanish, xavfsizlik va global raqobatbardoshlik uchun jiddiy zarurat sanaladi. Sun’iy ong zerikarli va ko‘p diqqat talab qiluvchi vazifalarni osonlik bilan bajara olishi, 4 kunlik ish haftasiga o‘tish kabi masalalarda ulkan imkoniyatlar taqdim etishi bilan ahamiyatga ega. Biroq, intellektual mulk va mualliflik huquqi, maxfiylik va ma’lumotlar xavfsizligi, kreativlikning pasayib borishi, kiberjinoyat va boshqa masalalarda jiddiy xavflar tug‘dirishi bilan jiddiy e’tibor berishni talab qiladi. Asosiysi, ehtimoliy imkoniyat va tahdidlar o‘rtasidagi oltin me’yorni topish va sun’iy idrok ustidan global nazoratni qo‘ldan chiqarmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Клаус Шваб, Тўртинчи саноат инқилоби, - Тошкент: NIHOL, 2022. – 20 б.

2. https://www.wipo.int/wipo_magazine/en/2017/05/article_0003.html#:~:text=The%20copyright%20lies%20with%20the,machine%20can%20do%20its%20thing.

3. Коровникова Наталья Александровна Искусственный интеллект в современном образовательном пространстве: проблемы и перспективы // Социальные новации и социальные науки. 2021. №2 (4). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/iskusstvennyy-intellekt-v-sovremennom-obrazovatelnom-prostranstve-problemy-i-perspektivy

4. Сунъий интеллект таҳдидларга қарши курашда тафаккурни ривожлантиришга хизмат қилиши керак, “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2024 йил 28 феврал, 42 (1103) сон, - 6 бет.

MILLIY KONTENT ZARURATMI?

Nigora XUSANOVA,
RMMM huzuridagiIjtimoiy ma'naviy-tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

Asrlar davomida shakllanib, avloddan-avlodga o'tib kelgan kishilar o'rtasidagi milliy, umuminsoniy qadriyatlar tanazzulga yuz tutish arafasida. Kishilar o'rtasida bugun jamiyatdan begonalashuv, virtuallashuv, e'tiqodlar to'qnashuvi, vatansizlik, deviant xulq-atvor, LGBT singari zamonaviy tahdidlarni singdirishning yangi usul va mexanizmlari ishlab chiqilib, iste'mol uchun yer yuzidagi kishilar ongiga singdirish yo'lida kecha-yu kunduz g'oya va mafkura markazlari to'xtovsiz faoliyat olib bormoqda.

Endi bu harakatlar kishilarning ijtimoiy hayotiga aylanib ulgurgan **"virtual makon"** yohud **"media makon propagandasi"** amaliyoti bugunning talabiga aylandi. Ayni paytda, g'oya va mafkura mashinalarining e'tibori qaratilgan inson ongi va qalbi uchun kurash maydoniga aylangan virtual makonda axborot quroli orqali amalga oshirilmoqda.

Yer yuzida inson yaralganidan to bugungi kunga qadar mavjud bo'lgan oila qurish to'g'risidagi tasavvurlar shakllanib borishi, kishilik jamiyati uchun qadriyat darajasigacha ko'tarilgan oila maqomi ham tahdid ostida qolishi mumkin. Jamiyatning kichik bo'g'ini hisoblangan oila har qanday davlatning, balki jamiyatlarning barqarorlik kafolati bo'lib, uning inqirozi o'sha jamiyatning inqirozi bilan yakunlanishi mumkinligini bugungi insoniyat anglashni istamayapti nazarimda.

Tarixiy rivojlanishlar silsilasidan o'tib kelgan va muqaddas hisoblangan erkak va ayol o'rtasida bo'ladigan nikoh bugun o'z maqomini o'zgartirmoqda. Insoniyat uchun ma'lum bo'lgan nikoh o'rniga globallashuv jarayonlarining ta'siri sabab uning yangi turlari yuzaga kelmoqda. Jumladan, hayvonlar bilan nikoh qurish, erkak – erkak bilan, ayol – ayol bilan yoki bir shaxsning o'zi bilan nikoh qurishi bugun nafaqat G'arb mamlakatlari balki, ayrim qo'shni Osiyo davlatlarida ham uchrab turibdi.

Ayni paytda, ushbu yangi "oilaviy nikoh" turlari rivojlanishi hamda ularning huquqiy, moddiy ta'minoti ayni paytda kuchli himoya ostida. Ushbu insonlar o'rtasidagi nikohlar globallashuv jarayonlarining salbiy jihatlari hamda "ommaviy madaniyat"ning dunyo xalqlariga yetkazayotgan zararlaridan eng fojialisi desak adashmagan bo'lamiz.

Boisi, butun tiriklik olamida insonlarni yagona eng oliy qadriyat hisoblangan va barcha jamiyatlar uchun muhim sanalgan qadriyat bu - oila qadriyatidir. Hozirda, aynan shu qadriyat omma madaniyati tahdidi ostida qolishi nafaqat Sharq jamiyatlari balki, G‘arb jamiyatlarini ham tashvishga solmoqda.

“Omma madaniyati” unsurlarining shiddatli tus olishi tufayli yer yuzida mavjud bo‘lgan millatlarning tarixiy ildizlari, o‘zligi hamda qadriyatlariga putur yetkazishdan tashqari umuminsoniyat kelajagi uchun ham katta tahdid sifatida yuzaga chiqmoqda. G‘arb jamiyati tomonidan tish-tirnog‘i bilan himoya qilinayotgan g‘oya vakillari LGBT nomi ostida birlashib harakatlanmoqda. Bu atamaning ma’nosi chuqurroq o‘rganadigan bo‘lsak, LGBT ingliz tilidan olingan bo‘lib LGBT ijtimoiy harakati, Gey huquqlari harakati - LGBT odamlarining *(lesbiyanlar – jinsiy moyilligi ayollarga qaratilgan ayol, geylar – gey yoki besoqol atamalari jinsiy moyilligi erkaklarga qaratilgan erkak, biseksuallar – bir vaqtning o‘zida bir necha ayollar yoki erkaklar bilan jinsiy moyilligi istalgan jins vakiliga qaratilgan shaxs, transgenderlar – jins o‘zgartirish amaliyotini boshidan kechirgan yoki “transvistizm”ga moyil shaxslar nomlanadi. Transseksual odamlar tug‘ilgan paytdagi jinslari o‘zlariga mos emasligini his etuvchi kishi)* ijtimoiy-siyosiy harakatiga aytiladi [2].

Bu harakatning asosiy maqsadi fuqarolar huquq-erkinliklari, inson huquqlarini hurmat qilish, kamsitish va ksenofobiyaga barham berish, jinsiy erkinlik va bag‘rikenglikni himoya qilishga qaratilgan. Ular shuningdek, LGBT odamlarining ijtimoiy ozchilik, alohida jamoa, madaniyat sifatida o‘zini-o‘zi anglashi va boshqa tomondan, LGBT odamlarining jamiyatga integratsiyalashuvi uchun harakat sifatidagi g‘oyalarni ilgari surib, jamiyatni ijtimoiy tashkil etishning muayyan tamoyillarini va ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarni ilgari suradi. Bu harakat tarafdorlari asosan ***“sevgi beozor va hech kimga ziyon yetkazmaydi”*** kabi niqobi ostida birlashmoqdalardilar.

Yuqorida aytib o‘tgan qarashlarning tobora oddiy holga aylanib borishi nafaqat Sharq jamiyati balki, G‘arb jamiyati vakillarini ham tashvishga solmoqda. Bu borada Amerika sobiq Prezidenti **Donald Tramp** Florida yoshlariga murojaatida: ***Bizning harakatimiz va biz kurashayotgan kuchlar o‘rtasidagi farq aniqroq bo‘lishi mumkin emas edi. Ular chap gender mafkurasiga va toksik tanqidiy irq nazariyasiga ishonishadi. Biz ikki jins mavjudligiga ishonamiz: erkaklar va ayollar bor, deydi va*** *Respublikachilar* ***“juda tez orada mamlakatni Globalistlardan qaytarib olish”i****ni* ta’kidlaydi [3].

Bu kabi qarama-qarshi g‘oyalarning avj olayotgani sari, uni qo‘llab

chiquvchi dunyo mamlakatlari soni ham kun sayin ortib bormoqda. Buning tasdig‘i sifatida Yevropaning eng gullagan mamlakatlaridan biri bo‘lgan Niderlandiya davlati pozitsiyasini bilish uchun, brauzer ilovalari – **(Google)** ilovasiga **“Miss Niderlandiya-2023”** tanlovi g‘olibi izlash buyrug‘ini bersak, Niderlandiyalik 22 yoshli transgender Rikki Kole g‘alaba qozongani to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lamiz [4]. Shu o‘rinda, o‘zini ayol deb e’lon qilgan yoki jinsini o‘zgartirgan erkak jins vakillari tomonidan ularga ham qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayollardek huquq va erkinliklar berilishi yohud sport musobaqalari, turli xil tanlovlarda ayol sifatida ayollar bilan bir qatorda ishtirok etishni talab etmoqdalar.

Tasavvur qiling, erkak jinsiga mansub bo‘lgan erkak – o‘zini ayol deb e’lon qilish yohud jarrohlik amaliyotini amalga oshirish orqali ayol maqomiga erishsa-yu ayollar uchun tashkil etilgan sport musobaqalarida haqiqiy ayol jins vakillari bilan bahslarga kirishsa?... Axir ularda yaratgan tomonidan berilgan kuch qudrat o‘z jinsi yoki maqomini o‘zgartirgan taqdirda ham erkaklik fitrati saqlanib qoladi-ku? Unda vaziyat qanday tusni olishi kishini dahshatga soladi...

Hozirgi paytda G‘arb davlatlari singari Markaziy Osiyo davlatlari qatorida O‘zbekistonda ham turli harakatlar amalga oshirishga urinishlar bo‘lib, ular maxsus davlat organlari tomonidan o‘z vaqtida aniqlanib, vaziyatga huquqiy baho berilishi mamlakatda faoliyat olib boruvchi LGBT tarafdori bo‘lgan ECOM tashkiloti tomonidan qattiq e’tirozlarga sabab bo‘ldi. Ushbu harakat tarafdorlari O‘zbekiston JKning 120-moddasiga jiddiy e’tiroz bildirilib, jinoiy javobgarlikga oid bu modda butun LGBT hamjamiyatiga nisbatan dushmanlik va kamsitish muhitiga hissa qo‘shayotgani haqida murojaatlar bilan bot-bot chiqishmoqda.

Insonning fazilatlari va hislatlari azal-azaldan insoniy qadriyat sifatida ko‘rilgan bo‘lib “Ommaviy madaniyat” ta’sirida ***milliyatning tanazulli*** davri kelganini, bugun siz-u biz guvohiga aylanib turibmiz. G‘arbda paydo bo‘lgan “Ommaviy madaniyat” g‘arbni o‘z domiga tortib ketdi, ammo keyingi navbat Sharq mamlakatlari ekanligini hamma birdek anglab yetmaydi. Atoqli olim N.Jo‘rayev “G‘arb targ‘ib qilayotgan g‘oyalar g‘arbning tanazzuliga sabab bo‘ldi va endigi navbat Sharq”. Haqiqatdan ham g‘arbda paydo bo‘lgan ommaviy madaniyat ya’ni “olamon madaniyati” faqatgina kiyinish madaniyatini targ‘ib etish bilan cheklanib qolmay, oila, farzand, e’tiqod, or-nomus, shaxsning o‘zligini anglash masalalariga yangicha yondashuv – inson o‘z tanasi uniki yoki uniki emasligi to‘g‘risidagi muammolar, “Men konsepsiyasi”, deviant xulq-atvor, kiberjinoyatchilik, foxishabozlar, giyohvandlik

vabosi, odam savdosi, qurollanish poygasi, LGBT, suisid, rohatlanish sanoati, virtuallashuv kabi muammolaridan tashqari eng og‘riqli nuqtasi insonlar o‘rtasidagi mehr-muruvvat, shafqat, rahmdillik, kabi ma’naviy qadriyatlar yo‘qolishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali yosh avlodga singdirilayotgan olamon madaniyati yosh-u qarining favoritiga aylangan ***Instayulduzlar, yutuber va tiktokerlar*** tomonidan tarmoqqa joylangan va bugungi kunda kishilar o‘rtasida **trend, “MEM”** ***hamda chellendj*****larga** aylanayotgan **kontentlar** soni kun sayin ortib bormoqda. Shu o‘rinda kontent nima degan savol tug‘iladi?.

Kontent - o‘z-o‘zini ifoda etish, tarqatish, marketing va yoki nashr etish uchun nutq, yozuv yoki har xil san’at turlari kabi biror-bir vosita orqali ifodalanishi kerak bo‘lgan axborot mahsuloti vositasi ya’ni ***matn, audio, vedio, sur’at, xabar, lavha*** boshqa har qanday o‘zida biror g‘oya yoki fikrni ifoda etuvchi ma’terialga aytiladi.

Kontent faoliyat turiga qarab, ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim tarbiyaga oid yohud turli xil ko‘ngil ochar mavzularda bo‘lishi mumkin. Shu tufayli kontent orqali inson ongi va dunyoqarashiga yot g‘oyalar turli axborotlar orqali singdirish amaliyotida yumshoq kuchga aylanadi. Shu sababli, Milliy kontent masalasi Prezident raisligida 2024 yilning 12 yanvar kuni o‘tkazilgan Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida davlat rahbari tomonidan “zamonaviy tahdidlarga qarshi munosib kurash olib borish uchun, avvalo, axborot makonida milliy kontent yaratish zarurati, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan baho berish lozimligi, aks holda, tashqaridan turli axborot xurujlari kirib kelishiga imkon yaratib qo‘yilishi, yangilik va axborotga ehtiyojlarning boshqalar tomonidan to‘ldirilishiga sabab bo‘ladigan nohush oqibatlardan ogoh bo‘lish” [1] o‘zbek media maydonida milliy kontent yaratish va uning zarurati masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Bugungi zamon talabiga aylanayotgan milliy kontentlar yaratilishi masalasiga alohida urg‘u berganlaridan tushunishimiz mumkinki, bugungi kurashlar real hayotdan virtual hayotga o‘tish tezligi shiddatlashayotgani boisidir. Endi Zed va Alfa raqamli avlod bolalari dofomin qaramligi tufayli virtual makonning ashaddiy mijozlariga aylanib boraveradi.

Bu esa hozirgi vaqtda xorijiy ommaviy axborot vositasilari orqali ko‘ngilochar mavzularda berilgan kontentlar mazmunan yot g‘oyalarni targ‘ib etuvchi media makonda harakatlanayotgan aql markazlari nazorati ostida amalga oshirilmoqda. Xuddi shunday yo‘nalishdagi kontentlar ortida ko‘zlangan olamon madaniyati qiyofasida harakatlanuvchi kontentlarga nisbatan javob sifatida milliy kontent yaratish bugunning

dolzarb masalalariga aylandi.

Jumladan: axborot asrida kamol topayotgan yosh avlod o‘rtasida keng tarqalgan tushuncha **“MEM”** zamonamiz yoshlari o‘rtasidagi tez-tez ishlatiladigan ibora bir qarashda milliy meros va millatning qadriyatiga hech qanday zarari yo‘qdek ko‘rinsada, o‘sha jamiyatning millatning tili, dini, e’tiqodi, qadriyat va an’analarini asta sekinlik bilan yo‘q qilib boradi. Boisi, yoshlar o‘rtasidagi ma’lum bir yoshlar guruhi tomonidan o‘ylab topilgan biror bir “qiliq” yoki “harakat” uning mazmun mohiyatini anglab-anglamay turib yer yuzidagi yoshlarning o‘rtasida ommaviy taqlid vositasiga aylantiriladi.

Shu kecha kunduzda yoshlar orasida dunyo bo‘yicha ommalashib ulgurgan tavallud ayyomlarida tort bilan qutlov vaqtida tortni tavallud kun egasining yuziga urush holatlari nafaqat tengdoshlar, balki dunyoga kelishiga sababchi bo‘lgan ota-onalarga nisbatan qo‘llanilish holatlarinng **mem** darajasiga ko‘tarilishi bizni yana bir bor sergak tortishga undaydi. Shu o‘rinda, aql marqazlari orqali media makon kontentlari egalaridan biri bo‘lgan AQShning sobiq Prezidenti J.Karter “Targ‘ibot uchun sarflangan 1 dollar qurollanishga sarflangan 10 dollardan samaraliroq” ta’biri hamda axborot xujumlari hech qachon chegarani tan olmaydi degan amerika olimlari fikrlari hozirgi kunda o‘z isbotini topmoqda.

Darhaqiqat, Amerikalik siyosatshunos olim Der Derian ta’kidlaganidek “Zo‘ravonlikni uzoq masofalarda minimal yuqotishlarsiz amalga oshirish imkoniyati zamonaviy dunyoning manzarasini o‘zgartirmoqda”. Shunday ekan, biz uchun oddiy va keraksiz ko‘ringan tushunchalar sifatida namoyon etishga urinilayotgan, jamiyat hayoti va insoniyatning ongidan sug‘irib olishdan manfaatdor kimsalar uchun g‘oya, mafkura, ma’naviyat, oila, vatan, e’tiqod kabi qadriyatlar bugun insonlar tomonidan himoyaga muhtoj bo‘lib qolmoqda. Bu himoya esa albatta ma’naviy idrok, tahlil, saralash, va vaqtida munosib javob berish funksiyasi orqali amalga oshiriladi. Buni bir so‘z bilan aytganda “ma’naviyat ekspertizasi” deb ataladi bu jarayonda esa albatta bizga suv va havodek zarur bo‘lgan media maydondagi milliy kontentlar qalqon vazifasini o‘taydi.

Shuni unutmaslik lozim, qalqonning zarbalarga bardoshliligi uni olovda qanchalik toblanganiga bog‘liq bo‘ladi. Temir yoki po‘lat naqadar sifatli bo‘lmasin unga berilgan ishlov uning mustahkamligini belgilab beradi. Shunday ekan davlat tomonidan yaratilayotgan kontentlar o‘rnini o‘zida hayotiylik, soddalik, tushunarlilik hamda xalqchillik elimentlarini mujassam etgan oddiy xalq uchun tushunarli bo‘lgan kontentlar yaratish orqali media makonga kirib borish amaliyotini joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

ZJV5401

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev raisligida 2024 yilning 12 yanvar kuni o‘tkazilgan Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi

2. Parent, Mike C.; DeBlaere, Cirleen; Moradi, Bonnie (June 2013). "Approaches to Research on Intersectionality: Perspectives on Gender, LGBT, and Racial/Ethnic Identities". *Sex Roles* 68 (11–12): 639–645. doi:10.1007/s11199-013-0283-2

3. VASHINGTON, 2022 yil 24 iyul - RIA Novosti. Floridadagi talabalar konferensiyasidagi chiqishi https://aussiedlerbote.de/2022/07/24/skolko-genderov-sushhestvuet

4. https://www.mk.ru/social/2023/07/09/miss-niderlandy2023-stala-byvshiy-muzhchina.html

TA’LIM VA MA’NAVIYATNI YUKSALTIRISHDA MEDIAOLAM, MILLIY KONTENTNI YARATISH HAMDA IJTIMOIY TARMOQLARNING AHAMIYATI

Barkamol ERNAZAROV,
O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi
“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasi
“Ziyorat turizmi menejmenti” mutaxassisligi 1-kurs magistranti

ZJV5401

Bugungi jadal rivojlanayotgan raqamli dunyoda media olami kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib, yoshlarning intellektual va ma’naviy rivojlanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Televideniye va radio, raqamli manbalar va ijtimoiy tarmoqlar kabi platformalarni o‘z ichiga olgan ommaviy axborot vositalari axborot tarqatish va qabul qilish uchun kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu kengaygan media dunyosida milliy kontentni yaratish va targ‘ib qilish mahalliy an’analar, qadriyatlar va tarixni saqlab qolish va yosh avlodlarga yetkazishni ta’minlovchi muhim komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar muloqot usullarini tubdan o‘zgartirib, jamiyatni qurish va ta’lim sohasida ishtirok etish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni taqdim etdi. Biroq, ushbu media platformalarning imkoniyatlari jiddiy muammolarni keltirib chiqarib, jumladan, noto‘g‘ri ma’lumotlarning tarqalishi va o‘zaro salbiy ta’sirlar uchun potentsial vositachi bo‘lib xizmat qilishi ham mumkin. Shunday qilib, yuqori sifatli, ta’lim kontentini ishlab chiqarishga urg‘u berib, ommaviy axborot

vositalaridan ma’suliyat bilan foydalanish va ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur degan fikrga kelishimiz zarur. Turli media platformalarining ijobiy tomonlaridan foydalanish va media savodxonligini oshirish orqali jamiyat o‘z yoshlarining bilimi va ma’naviy farovonligini yuksaltirishi, bilimli va madaniyatli avlodni tarbiyalashi mumkin.

Ta’limni isloh qilishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni: Ommaviy axborot vositalari boy ma’lumotlardan foydalanishni ta’minlash orqali yoshlar tarbiyasida ajralmas rol o‘ynaydi. Televidenie dasturlari, hujjatli filmlar va ta’lim kanallari fan, tarix va dunyodagi dolzarb voqealar kabi turli mavzular haqida tushuncha beradi. Masalan, National Geographic yoki Discovery kabi xalqaro kanallar tomoshabinlarning tabiiy dunyo va insoniyat tarixi haqidagi tushunchalarini kengaytiradigan yuqori sifatli kontentni taqdim etadi. Raqamli ommaviy axborot vositalari, jumladan, elektron kitoblar, onlayn maqolalar va ta’lim veb-saytlari bu imkoniyatlarni yanada kengaytirmoqda. Khan Academy va Coursera kabi platformalar yosh o‘quvchilarga dunyoning istalgan nuqtasidan kurslar va ta’lim resurslaridan foydalanish imkonini beradi, bu esa ko‘proq bilimli va yuqori saviyali avlodni tarbiyalaydi.

Milliy kontent: Madaniy-ma’naviy tarbiya: Milliy kontent millatning madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlarini asrab-avaylash va targ‘ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Millatning urf-odatlari, xalq og‘zaki ijodi va tarixini aks ettiruvchi kontent yoshlarda o‘zlikni anglash va daxldorlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Masalan, mahalliy ishlab chiqarilgan filmlar, adabiyotlar va ta’lim dasturlari madaniy urf-odatlar va axloqiy qadriyatlar haqida tushuncha berishi mumkin. Bu meroslar bilan bog‘liqlik nafaqat qadriyatlarni mustahkamlaydi, balki yoshlarning o‘z ildizlari va an’analariga bog‘lab, ularning ma’naviy yuksalishiga ham xizmat qiladi. Milliy kontent yoshlarning ma’naviy barkamolligi uchun muhim bo‘lgan umumiy tarix va qadriyatlarni eslatuvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy ta’lim kontenti tarix, geografiya, tillar va san’at kabi fanlarni keng qamrovli o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etish orqali yoshlarning bilim darajasini oshiradi. U milliy tarix va bugungi kun yutuqlarni umumlashtiradi, g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi va jamiyatning ijobiy taraflarini olib chiqadi.

Mahalliy tillarda kontent ishlab chiqarish lingvistik ko‘nikmalar va samarali muloqotni rivojlantiradi, til xilma-xilligini saqlaydi va madaniy o‘ziga xoslik bilan chuqurroq aloqani rivojlantiradi. Bundan tashqari, milliy kontent ijodkorlik va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, yoshlarni o‘z ommaviy axborot vositalarini yaratishga ilhomlantiradi, mahalliy

iste'dodlarni namoyish etadi.

Ijtimoiy tarmoqlar: ijtimoiy va ta'lim platformalari: Yosh avlod foydalanadigan asosiy bilim manbalaridan biri bu internet, xususan, ijtimoiy tarmoqlardir. 2022-yil yanvarida Yer yuzida yashovchi 7,91 milliard kishining 4,95 milliardi (69,5 foizi) internetdan foydalangan. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar soni 4,62 milliard kishiga yetgan, bu butun dunyo bo'ylab internet foydalanuvchilarining deyarli 94 foizini tashkil etadi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining eng ko'p soni 20–29 yoshdagi yoshlardir (32,2%) [1].

Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning muloqot qilish, o'rganish va axborot almashish usullarini o'zgartirdi. Facebook, Twitter, Instagram va TikTok kabi platformalar nafaqat ijtimoiylashuv vositalari, balki yangiliklar, ta'lim kontenti va ma'naviy ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy kontentning muhim manbalaridir. Ushbu tarmoqlar jamiyatni qurish va yoshlar uchun tengdoshlari bilan o'zaro sog'lom raqobatda bo'lish va turli sohalardagi mutaxassislar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Masalan, YouTube va Courseradagi ta'limga oid o'quv qo'llanmalari va onlayn darslar, motivatsion suhbatlar va ilmiy dasturlar bilan millionlab yosh kuzatuvchilarni qamrab olishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning afzalliklari va muammolari: Ijtimoiy tarmoqlar real vaqt holatida ma'lumot almashish va global hamjamiyatga kirish kabi ko'plab afzalliklarni taklif qilsa-da, ular ham turli xil muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Noto'g'ri ma'lumotlarning tarqalishi, kiberjinoyatlar va jamiyatdan ajralib, yolg'izlanish kabi holatlar yoshlarning ruhiy va ma'naviy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, media savodxonligini oshirish, yoshlarga ishonchli manbalarni chalg'ituvchi manbalardan ajratishga yordam berish va mazmunli onlayn faollikni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy media talabalar uchun bir qator afzalliklarga ega, jumladan, global dunyoda faol bo'lish va turli xil sharoitlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy brend identifikatorlari va shaxsiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy media, shuningdek, o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarga real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beruvchi muloqot usuli bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ba'zi talabalarni ijtimoiy tarmoqlar chalg'itishi va o'ziga qaramlikni oshirishi mumkin. Ushbu kamchiliklarga qaramay, ijtimoiy media o'quvchilarga o'zlarining ijtimoiy doiralari, akademik tengdoshlari, oila a'zolari va o'qituvchilari bilan aloqada bo'lish imkonini beradi, bu esa faol o'rganishga yordam beradi.[2]

Ta'limdagi ijtimoiy media ishonchli va obro'li akademik internet

manbalariga tez va samarali kirishni osonlashtiradi, talabalar va o‘qituvchilarga Twitter, Facebook, Instagram va YouTube kabi platformalarda o‘z sohalarini tadqiq qilish imkonini beradi. Bu, shuningdek, talabalarga uydan turib, ayniqsa masofaviy ta’limda, Skype va Zoom kabi platformalarda real vaqt rejimida darslarni o‘tkazish imkonini beruvchi xizmatlar bilan o‘rganish imkonini beradi.

Talabalar ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlardan akademik maqsadlarda emas, balki o‘zaro muloqot qilish va kundalik vazifalardan chalg‘ish uchun foydalanish holatlari ham kuzatiladi, ko‘pchilik bu holat akademik faoliyatga salbiy ta’sir qilishini sezishmaydi ham. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan talabalar o‘qishga kamroq vaqt sarflashadi va shu sabab fanlardan pastroq baho olishadi. Sampasa-Kanyinga va Lyuis (2015)[3] ijtimoiy mediadan foydalanish va psixologik tanglik o‘rtasidagi munosabatni o‘rganib chiqdi. Ushbu tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoqlardan kuniga 2 soatdan ko‘proq foydalanish psixologik stressning yuqori intensivligi bilan bog‘liqligini aniqladilar. Banjanin (2015)[4] ijtimoiy tarmoqdan haddan tashqari ko‘p foydalanish va depressiya o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilib ko‘rdi, va katta bog‘liqlik borligini aniqladi. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik o‘zaro jonli muloqotga to‘sqinlik qiladi va insonlar orasidagi masofani uzoqlashishiga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarni ta’lim sohasidagi yoshlar orasida faollashuvining eng muhim kamchiliklari uning akademik chalg‘itishi, o‘quvchilar e’tiborini bo‘lishi va o‘quv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishidir. Ijtimoiy va ilmiy faoliyatni muvozanatlash uchun intizom talab qilinadi.

OAVning ijobiy ta’sirini kuchaytirish strategiyalari: Ommaviy axborot vositalarining yoshlar bilimi va ma’naviyatiga ijobiy ta’sirini maksimal darajada oshirish uchun bir qancha strategiyalardan foydalanish mumkin:

Yuqori sifatli milliy kontentni targ‘ib qilish: Milliy qadriyatlar va merosni aks ettiruvchi ta’lim va madaniy axborot vositalarini ishlab chiqarishga sarmoya kiritish juda muhim. Hukumat va xususiy tashkilotlar ta’lim beruvchi va ma’naviyatni aks ettiruvchi kontent yaratishni qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Media savodxonligi bo‘yicha ta’lim: Yoshlarga media kontentini tanqidiy baholash va unga mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatish dasturlarini amalga oshirish juda muhim. Maktablar va jamoat tashkilotlari yoshlarga raqamli dunyoda samarali harakat qilishda yordam beradigan mediasavodxonlik bo‘yicha seminarlar va kurslarni taklif qilishlari mumkin.

Kontentni tartibga solish: Kontent mazmunan tarbiyaviy normalarga mos va yosh auditoriyaning intellektual va ma'naviy o'sishi uchun qulay bo'lishi kerak. Media vakillari va kontent yaratuvchilari sifat va dolzarblikning yuqori standartlarini saqlab qolish uchun hamkorlik qilishlari kerak.

Media olami, jumladan, platformalar, milliy kontent, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning intellektual va ma'naviy rivojlanishini sezilarli darajada shakllantirishdagi o'tkir qilichdir. Milliy kontentni yaratish va tarqatish madaniy merosni asrab-avaylash, o'zlikni anglash va ma'naviy yuksalishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu kontent yoshlarga o'z ajdodlari merosi bilan bog'lanib qolishga yordam beradi, g'urur va shahsiyatni shakllantiradi, shu bilan birga ta'lim sifatining yuksalishiga sababchi bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar noto'g'ri ma'lumotlar va kiberjinoyatlar kabi muammolarga qaramay, o'rganish va jamiyat qurish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni taqdim etadi. Media savodxonligini oshirish yoshlarga ushbu platformalardan mas'uliyat bilan foydalanish va ishonchli ma'lumotlarni olishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu muvoznatni saqlash uchun hukumat, ta'lim muassasalari, madaniyat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari ijodkorlari o'rtasidagi hamkorlik milliy media olamini yaratish uchun juda muhimdir.

Ta'lim, madaniy meros va ma'naviy rivojlanishni qadrlash orqali jamiyat yanada bilimli va yuksak ma'naviyatli yoshlarga yo'l ochishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Polewko, A. (2022, February 24). Social media w Polsce i na świecie. Raport Digital 2022. Grupa Infomax. https://grupainfomax.com/social-media/social-media-w-polsce-i-na-swiecie-raport-digital-2022/ (15.05.2023).

2. (2023, May 23). The Benefits and Challenges of Social Media in Higher Education (F. Alhassan, M. Abdul-Basit Fuseinii, & A.-M. Khalid, Eds.) [Review of The Benefits and Challenges of Social Media in Higher Education]. Https://Www.researchgate.net/. https://www.researchgate.net/publication/371145234_The_Benefits_and_Challenges_of_Social_Media_in_Higher_Education (15.05.2023).

3. Sampasa-Kanyinga, H., and Lewis, R. F. (2015). Frequent use of social networking sites is associated with poor psychological functioning among children and adolescents. Cyberpsychol. Behav. Soc. Network. 18, 380–385. doi: 10.1089/cyber.2015.0055 (15.05.2023).

4. Banjanin, N., Banjanin, N., Dimitrijevic, I., and Pantic, I. (2015). Relationship between internet use and depression: Focus on physiological mood oscillations, social networking and online addictive behavior. Comp. Hum. Behav. 43, 308–312. doi: 10.1016/j.chb.2014.11.013 (15.05.2023).

INTERNETDAGI DESTRUKTIV HARAKATLARNING IQTISODIY-IJTIMOIY OQIBATLARI

Ulug‘bek KARIMOV,
Andijon davlat pedagogika instituti erkin tadqiqotchisi

Zamonaviy olamda Internet kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib, biz muloqot qilish, ishlash va ma’lumotlarga kirish usullarini o‘zgartirmoqda. Biroq, bu raqamli inqilob virtual sohada yashiringan ko‘plab xavf-xatarlar bilan birga keladi. Biz internet-xavflarning ko‘p qirrali manzarasini o‘rganamiz, kibermakonning ulkan kengliklarida shaxslar va tashkilotlar duch keladigan turli xil tahdidlarni tahlil qilamiz.

Internetdan keng foydalanish dunyo bilan o‘zaro munosabatimizni o‘zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlarda do‘stlar bilan bog‘lanishdan tortib onlayn moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishgacha, raqamli davr tomonidan taqdim etilgan qulayliklar shubhasizdir. Biroq, bu qulaylikning o‘z to‘lovi bo‘lib raqamli landshaft kiberxavfsizlik tahdidlaridan psixologik ta’sirigacha bo‘lgan xavf-xatarlarga to‘la ekanligi kundan kunga namoyon bo‘lmoqda

Kiberxavfsizlik tahdidlari: Raqamli asrdagi asosiy muammolardan biri bu kiberxavfsizlik tahdidlarining tobora ortib borayotgani. Zararli aktyorlar maxfiy ma’lumotlarni buzish uchun zararli dasturlar, fishing va xakerlik kabi turli xil taktikalardan foydalanadilar. Zararli dastur, «zararli dasturiy ta’minot» to‘plami, ma’lumotlarning buzilishi va moliyaviy yo‘qotishlarga olib keladigan tizimlarga kirish uchun mo‘ljallangan viruslar va josuslik dasturlarini o‘z ichiga oladi. Boshqa tomondan, fishing, ko‘pincha soxta elektron pochta yoki veb-saytlar orqali nozik ma’lumotlarni olish uchun aldamchi urinishlarni o‘z ichiga oladi. Buzg‘unchilik, kompyuter tizimlariga ruxsatsiz kirish, jismoniy shaxslar va tashkilotlar uchun katta xavf tug‘diradi.

Tadqiqotchilarning fikricha kiberjinoyatchilikka o‘tgan asrning 70-yillarida asoslar paydo bo‘la boshlagan – zamonaviy qadriyatlar a’nanaviy munosabatlarni bir chekkaga surib chiqara boshlagan.[1] Ma’lumki kibertahdidlar va internet tarmog‘idagi destruktiv hatti-

harakatlar uchun ma’lum bir ijtimoiy va texnologik muhit kerak. Internetning asosiy ijtimoiy mo‘ljallardan biri jamiyat a’zolari o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri ijtimoiy munosabatlarni kamaytirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni virtual formatga yo‘nalishtirishga qartilgandir. Interent texnologiya sifatida ma’lum bir biznes guruhlarning manfaatlarini ifoydalaydi va uning lobbistlari imkon qadar insonlarni internetdan foydalanishi ta’minlashga urinadi. Aytaylik, ma’lum bir ijtimoiy yoki davlat xizmati onlayn formatga o‘tar ekan, uning ortidan qator yo‘ldosh dastur va iloqalarni ishlatish zarurati tug‘iladi. Misol uchun kinoteatr uchun onlayn bilet olishga mo‘ljallangan ilovani yoki veb-sahifani ishga tushirish va undan foydalanishni olib ko‘raylik. Avvalambor, internet tarmog‘ini qo‘llab quvvatlaydigan texnik vositaga ega bo‘lish, internetga ulanish uchun ma’lum bir mablag‘ sarflash, interent tarmog‘iga ulanadigan ilovani yuklab olish, biletni xarid qilish uchun platformaga o‘tish va ana undan keyingiga pul mablag‘larni boshqarishga mo‘ljallangan ilova orqali biletni xarid qilish mumkin bo‘ladi. Hozirgi kundagi interentning asosiy ijtimoiy mo‘ljallaridan biri ham foydalanuvchilarning pul mablag‘larini toboro ko‘proq tasarruf qilishga qaratilgandir. Bu kabi keng ko‘lamli muhitda o‘z o‘zidan kibertahdidlarning vujudga kelishi tabiiy jarayondir.

Kibertahdidlarning uchun paydo bo‘lgan muhit esa keng ko‘lamli jinoyatchilik uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Jamiyat a’zolari o‘rtaisda hozirgi kunda raqamlashtirish mutlaq avfzalliklari xususida ko‘p gapiriladi. Yetakchi ommaviy axborot vositalari va boshqa axborot manbalarida katta zavq-shavq bilan bu borada erishilgan yutuqlar haqida spririladi. Amalda esa erishilgan natijalar bilan birga kibertahdidlar haqida keng yoritilmaydi. Butun tizim kibertahdilar qurboniga aylanishi mumkinmi? Insonlar tomonidan butkul virtuallashish oqibatlari nima bilan tugaydi, degan savollarga hozircha javob yo‘q. Misol uchun, 2023 yilning glyabr oyida o‘zbekistonliklarning bank kartalaridan ommaviy pul o‘g‘irlash holati kuzatildi.[2] Hozirgi kunda aksariyat moliyaviy va iqtisodiy aloqalar internet tarmog‘iga ko‘chib ulgurdi. Xodimlarning ish haqidan tortib turli xil xizmatlar – kommunal to‘lovlar, bank, transport uchun to‘lovlar, shuningdek, davlat xizmatlari fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari internet tarmog‘iga joylashtirildi. Bu esa ularning o‘g‘irlanish ehtimolini vujudga keltirdi va hozirgi kunda uni himoya qilishning samarali usullari o‘ylab topilmagan. Kelgusida chuqurlashish kuzatilayotgan geosiyosiy qarama qarshiliklar fonida o‘zaro to‘qnashuvlari kiberhujumlar tarzida amalga oshirilishi ehtimoli yuqori. Hozirgi kunda Rossiya-Ukriana urushida yuz minglab kiberjangchilar ishtirok etayotgani haqida ma’lumotlar mavjud.[3] Kiberjangchilar yuqorida qayd etilgan

katta axborot tizimlariga, teleraidio efirlarga hujumlar uyutirib ularning normal faoliyatini ishdan chiqarishga harakat qiladi. Bu boradagi qarama qarshilikning yaqqol namunasi Ukriana prezidenti V.Zleneskiyni taslim bo‘lish haqidagi dipfeyki bo‘ldi.[4] Dipfeyk ma’lum bir shaxsni ovozi, tashqi ko‘rini va mimikasini dasturiy ta’minoti vositasida yaratib, unga berilgan matnni o‘qishiga erishishdir. Odatda bunday dipfeyklarning siyosiy jihatdangina obyektiv baholash mumkin bo‘lib, ayrim hollarda ularni soxta ekanini texnik jihatdan aniqlashning imkoni yo‘qdir.

O‘zbekiston kabi aholining informatsion madaniyati yuqori bo‘lmagan jamiyatlarga ega davlatlarda bu kabi dipfeylarning ommalashuvi ehtimoli juda yuqoridir. Shu sababli ham jamiyat a’zolarini bu kabi internetdagi destruktiv hatti-harakatlardan asrash g‘oyatda dolzarb vazifadir. O‘zbekistonning geosiyosiy poizitsiyasiga qarshi hujumlar aynan kibertahdidlar ko‘rinishida namoyon bo‘lish ehtimoli yuqoridir. «Ilgari o‘z maqsad va manfaatlarini asosan diplomatiya va siyosat bilan himoya qilib kelgan dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish, qarama-qarshilik va to‘qnashuvlar yo‘liga o‘tganiga hammamiz guvohmiz. Afsuski, bunday keng ko‘lamli va o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri Markaziy Osiyo mintaqasi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan mamlakatimizni ham chetlab o‘tmayapti», — dedi davlat rahbari.[5] Shunday ekan jamoatchilik orasida internet tarmog‘idagi destruktiv hatti-xarakatlar xususida keng qamrovli tushuntirish ishlarini o‘tkazish, internet tarmog‘ijagi iqtisodiy resurslarni talon taroj qilishga qarshi qaratilgan loyihalarni amalga oshirish zarur. Shu bilan birgalikda raqamlashtirish ko‘lamini uning xavfsizligini ta’minlash sur’atida o‘zib ketmasligini ta’minlash zarur. Bu boradagi xavfsizlik paradigmasi – har bir samarali himoyalanmagan ma’lumot muqarrar o‘g‘irlanadi, degan g‘oyadan iborat bo‘lishi zarur.

Viktimologik yondashuv – har bir subyektning o‘z huquq va erkinliklarini ta’minlash uchun shaxsiy mas’liyatini oshirishga qaratilgan chora tadbirlardir. Hozirgi ijtimoiy transformatsiya nihoyatda shiddat bilan kechayotgan bir sharoitda ijtimoiy munosabatlarda shaxsning javobgarligi kuchayib bormoqda. O‘zaro munosabatlarda internetdagi destruktiv tajovuzlarni qurboni bo‘lmaslik uchun qanday harakatlanish haqida ma’lumot olish zarur bo‘ladi. Hoh yolg‘on ma’lumotlarga asoslangan feyk xabarlar bo‘lsin, hoh moliyaviy firibgarliklar bo‘lsin, hoh tovlamachilik bo‘lsin insonlar ana shunday g‘ayriahloqiy yoinki g‘ayrihuquqiy tajovuzlardan o‘zini asrash yo‘llarini ham bilish zarur bo‘lib qolmoqda. Olimlarning qayd etishicha internet texnologiyalari yordamida o‘z mol-mulkini talon taroj bo‘lishiga yo‘l qo‘ygan shaxslarni

aybdor qurbon deb atash mumkin.[6] Chunki bunday hollarda internetdagi destruktiv harakatlarning qurbonlari informatsion texnik foydalanish shartlaridan bexabar bo‘ladilar va buning oqibatida ma’lum bir jinoyatning qurboniga aylanishadi. Umumi olib qaraganda jamiyatning bu boradagi madaniyatidan farqli ravishda internet sohadagi bilimi va foydalanish madaniyati yo‘qligi natijasida bu holatga tushib qolganlar. Shu o‘rinda qator falsafiy mulohazalar vujudga kelishi tabiiy holdir. Birinchidan, jamiyat a’zolarining bir tekisda taraqqiyot bilan hamnafas holda bilim olishini ta’minlash imkoniyati mavjudmi? Ikkinchidan, jamiyatning yoshi katta a’zolari mana shunday ilg‘or texnologiyalarni muntazam ravishda o‘zlashtirib olishga qodirmi? Yoinki, agar bunday imkoniyat mavjud emas ekan jamiyat texnologik tomonga qarab ketayotgan bir sharoitda uning sur’atlaridan chetda qolgan a’zolarining taqdiri nima bo‘ladi? Bu kelgusida iqtisodiy kambag‘allik kabi axborotlashtirish sur’atlaridan chetda qolgan qatlamning vujudga kelishiga olib kelmaydimi? Albatta, bu kabi saollarga hozir mukammal javob berish qiyin va bu prognozlashtirish ilmining tadqiqot obyekti hisoblanadi. Savollar tug‘ilishining o‘ziyoq taraqqiyot yo‘nalishini gumanizm nuqtai nazaridan muvofiqlashtirish zaruratini tushuntirib beradi.

Elektron tijorat va onlayn moliyaviy operatsiyalarning o‘sishi onlayn firibgarlikning turli shakllariga turtki berdi. Firibgarlik qilish uchun shaxsiy ma’lumotlar o‘g‘irlangan shaxsni o‘g‘irlash keng tarqalgan muammodir. Firibgar investitsiya sxemalaridan tortib aldamchi onlayn bozorlargacha bo‘lgan moliyaviy firibgarliklar raqamli bozorda ehtiyotkor bo‘lish zarurligini anglatib turadi.

Raqamli o‘zaro bog‘liqlik asrida ushbu tadqiqot Internet xavflarining murakkab gobelenini ochishga, rivojlanayotgan tahdidlarga va ularning shaxslar va jamiyatga ta’siriga oydinlik kiritishga harakat qildi. Miqdoriy so‘rov ma’lumotlari va intervyulardan olingan sifatli tushunchalarning sintezi raqamli landshaftning ko‘p qirrali muammolarini har tomonlama tushunish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bavsun Maksim Viktorovich (2019). Kiberprestupnost kak zakonomerniy produkt sovremennogo obshestva. Kriminologicheskiy jurnal, (2), 15-17.

2. https://www.gazeta.uz/uz/2023/11/14/cards/?utm_source=push&utm_medium=telegram - «O‘sha paytda uxlayotgan edim». «Gazeta.uz» o‘quvchilari o‘z kartalaridan katta miqdorda pul

yechib olingani haqida xabar berdi

3. https://www.bbc.com/russian/features-65289878 -Nevidimiy front: kak xakeri prinimayut uchastiye v voyne Rossii s Ukrainoy - s obeix storon.

4. https://voxukraine.org/ru/vydeofejk-zelenskyj-prykazal-pokynut-avdeevku VIDEOFEYK: Zelenskiy prikazal pokinut Avdeyevku.

5. https://www.gazeta.uz/uz/2023/12/22/president/- Dunyodagi qudratli markazlar endi ochiqchasiga bosim o‘tkazish yo‘liga o‘tmoqda — Shavkat Mirziyoyev.

6. Starostenko Oleg Aleksandrovich (2022). Viktimologicheskiye problemi obespecheniya bezopasnosti lichnosti v seti internet. Vestnik Sibirskogo yuridicheskogo instituta MVD Rossii, 2 , 157-161

YOSHLAR SOTSIOLOGIYASI: MEDIAMAKON TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Sitora RAYIMJONOVA,
Namangan davlat unversiteti magistranti

Xurshid MIRZAXMEDOV,
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Namangan davlat universiteti

Kirish. Texnologiyaning rivojlanishi bilan ommaviy axborot vositalari hayotimizning deyarli ajralmas qismiga aylandi. Ommaviy axborot vositalarining doimiy ta’siri o‘smirning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi.O‘smirlar ongini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni katta. Bugungi kunda o‘smirlar ko‘plab ommaviy axborot vositalari, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar, televidenie, filmlar va video o‘yinlar bilan tanishadilar. Ommaviy axborot vositalari o‘yin-kulgi va ma’lumot manbai bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, u o‘smirlarning ruhiy salomatligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Deyarli barcha inson yoshligidan kasb tanlashida yoki hunar organishga qiziqishi ortishida ommaviy axborot vositalari tasiri koproq bo‘ladi. Hozirga kelib ommaviy axborot vositalari (OAV) va ijtimoiy tarmoqlar orqali olinadigan axborotlar har bir inson hayotida doimiy ehtiyojga aylandi. Bu esa OAVlarning yagona maqsadi axborot tarqatish degan fikrni anglatmaydi. Ko‘plab yoshlar ommaviy axborot vositalari orqali koplab faoliyatlar haqida tasavvurga ega bo‘lishadi. Bu esa ularga kelajakdagi kasblarini tanlashda yordam bera oladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ommaviy axborot vositalarining

yoshlar hayotiga ta’siri haqida gapirganda, taniqli qo‘shiqchi va lirik Jim Morrisonning «Kimki ommaviy axborot vositalarini boshqarsa, ongni ham boshqaradi» degan to‘g‘ri so‘zlaridan iqtibos keltirishimiz mumkin. Bugungi kunda shunga o‘xshash yana bir fikr bor “Ommaviy axborot vositalari kimga tegishli bo‘lsa, u jamoatchilik fikrini boshqaradi” **Ommaviy axborot vositalari nafaqat yoshlarning balki butun boshli bir xalqning qabul qiluvchi miyasining g‘oyalari va e’tiqodlarini shakllantirish qobiliyatiga ega. [1]**

Shu nuqtai nazardan, 22 yoshli britaniyalik yozuvchi va muharrir Zahra Ali o‘smirlik davridagi ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy tajribasini qayd etadi. Uning so‘zlariga ko‘ra, «Ijtimoiy tarmoqlar bizning uchinchi o‘rinimiz, maktab va uydan uzoqda joylashgan jamoat maydoni edi va endi hammasi o‘z-o‘zidan qulab tushdi. Bu esa mening ruhiy salomatligimga ta’siri kuchli edi. Mening va do‘stlarimning shaxsiy hayoti buzilgan va biz qizlar maktabida edik, u erda mushuk bo‘lish odatiy holga o‘xshardi. Men hech qachon internetga kirmagan holatimni orzu qilardim”. U yana ulg‘aygan sari ijtimoiy tarmoqlarning zararli ta’sirini qanday tushunganini eslatib o‘tdi. U qo‘shimcha qiladi: “Men ekran oldidagi vaqtimni boshqarishda va internetdan meni tushkunlikka soladigan narsalar emas, balki ilhomlantiruvchi kontent manbai sifatida foydalanishni yaxshilayapman. Men ko‘rgan hamma narsaga ishonmaslikni va tanqidiy fikrlashni bilaman. Men Internet abadiy ekanligini bilaman va ba’zi shaxsiy vaziyatlarni oflayn rejimda saqlash yaxshiroqdir. Lekin men 12 yoshimda internetga kirdim. Qani edi, kimdir menga bu yaxshi odatlarni o‘rgatgan bo‘lsa.” [2]

Natijalar. 1960-yillarning boshlarida ingliz professori Marshall Maklyuhan media tadqiqotlari tarixiga katta ta’sir ko‘rsatgan ikkita kitob yozdi. 1962 va 1964 yillarda nashr etilgan *Gutenberg Galaxy* va *Understanding Media nashrlari* media-texnologiyalar tarixini kuzatdi va bu innovatsiyalar individual xatti-harakatlarni va kengroq madaniyatni qanday o‘zgartirganini ko‘rsatdi. *»Ommaviy axborot vositalarini tushunish»* McLuhan mashhur bo‘lgan iborani taqdim etdi: «Vosita - bu xabar.» Bu tushuncha ommaviy axborot vositalariga nisbatan yangi munosabatni ifodalaydi - ommaviy axborot vositalarining o‘zi insoniy va madaniy tajribani shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Uning ommaviy axborot vositalari haqidagi dadil bayonotlari MakLuhanga katta e’tibor qaratilishiga sabab bo‘ldi, chunki uning tarafdorlari ham, tanqidchilari ham uning ommaviy axborot vositalarining 20-asr hayotini o‘zgartirishi haqidagi utopik qarashlariga javob berishdi. Sovuq urush paranoyyasi avjiga chiqqan va Vetnam urushi

qizg‘in muhokama qilinadigan mavzu bo‘lgan bir paytda MakLuhan ommaviy axborot vositalaridan ilhomlangan «global qishloq» haqida gapirdi. 1960-yillar davri utopiklari bu bayonotlarni ijobiy qabul qilgan bo‘lsalar-da, sotsial realistlar ularni nafratlanishga sabab bo‘ldi. *Ushbu qarama-qarshiliklarga qaramay yoki ehtimol tufayli, Maklyuhan «Kulgi»* telekomediya komediya dasturida tez-tez tilga olinadigan va Vudi Allenning « *Enni Xoll»* filmida o‘zi sifatida paydo bo‘lgan pop madaniyat belgisiga aylandi .

Ilmiy tirishqoqlik yo‘qligiga qaramay, McLuhan media tadqiqotlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Fordham universiteti professorlari Maklyuhan ta’sirida bo‘lgan olimlar uyushmasini tuzdilar. Maklyuhanning yana bir katta yutug‘i - bu media tadqiqotlari kontseptsiyasini ommalashtirishdir. Uning ishi ommaviy axborot vositalarining ta’siri g‘oyasini jamoatchilik maydoniga olib keldi va jamoatchilik uchun ommaviy axborot vositalarining madaniyatga ta’sirini ko‘rib chiqishning yangi usulini yaratdi (Stille, 2000). [3]

Ruhshunoslar virtual muloqotlar real muloqotlar jarayonini cheklab qo‘yayotgani, yoshlar orasida “baxtsizlik epidemiyasi”ni keltirib chiqargani haqida bong urishmoqda. San-Diyego universiteti olimlari ijtimoiy tarmoqlarda kuniga 5 soatdan ko‘p vaqt o‘tkazadigan bolalar internetga 2 soatdan ko‘p vaqt sarflamaydigan bolalarga nisbatan o‘zlarini baxtsizroq his qilishlarini aniqlashgan.

2017-yilda Kremniy vodiysida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, aksariyat ota-onalar farzandlarini gadjetlarsiz voyaga yetkazishni istashadi, buning uchun ularning ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkaziladigan vaqtini cheklashga harakat qilishadi.

O‘z vaqtida Stiv Jobs ham farzandlariga gadjetlardan foydalanish masalasida cheklovlar qo‘ygan. “Apple“ning ayni vaqtdagi rahbari Tim Kuk esa 2018-yilda jiyanlariga ijtimoiy tarmoqlarda ro‘yxatga o‘tishga ruxsat bermasligini aytib o‘tgandi.[4]

Muhokama. Ommaviy axborot vositalaridagi hamma materyallar ham bir xilda ta’sirga ega emas. Eng ta’sir doirasi keng bo‘lgani bu reklamadir. Yoshlar hayotini shakllantirishida, hayotidan qanchalik qoniqishida reklamaning orni bor. Reklama bacha media platformalarida turli ko‘rinishda olib boriladi. OAV da shakllangan irtual haqiqat to‘g‘ridan to‘g‘ri inson faoliyatining ma’naviy tarkibiy qismiga asoslanadi, bu esa xayolotni, hayotiy haqiqatdan uzoqlashishini kuchaytiradi. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlardan ilhomlanishadi, ularga taqlid qilishadi, ulardek kiyinishga ulardek bo‘lishga harakat qilishadi. Shu subabli ham OAV lardagi, yoki ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarning yoshlarga

ta’sirining ahamiyati juda kata. Yoshlarni axborotlarni to‘g‘ri tahlil qila oladigan to‘g‘ri xulosa chiqara oladigan, kerakli va keraksiz axborotlarni ajrata oladigan vatanparvar yoshlarni tarbiyalashning ahamiyati hozirga kelib yana ham oshib oshib bormoqda. Chunki insonning axborot bazasi uning psixologiyasi, aqliy va amaliy faoliyatining asosoidir.

Ommaviy axborot vositalari o‘smirlarning ruhiy salomatligiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ba’zi usullar quyida keltirilgan:

- Filmlar, teleko‘rsatuvlar va video o‘yinlardagi zo‘ravonlik mazmuniga duchor bo‘lgan o‘smirlar tajovuzkor xatti-harakatlarni namoyon qiladi va zo‘ravonlikka nisbatan sezgir bo‘lmagan munosabatda bo‘ladi.
- OAVda haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan go‘zallik standartlariga duchor bo‘lgan o‘spirinlarda tana qiyofasi bilan bog‘liq muammolar va ovqatlanishning buzilishi ehtimoli ko‘proq.
- Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt sarflaydigan o‘smirlar o‘zlarini boshqalar bilan solishtirishga moyil bo‘lib, o‘z-o‘zini hurmat qilishning pasayishiga va xavotirning kuchayishiga olib keladi.
- Video o‘yinlarni o‘ynashga ko‘p vaqt sarflaydigan o‘smirlar giyohvandlikni rivojlantiradi va yomon akademik natijalar va ijtimoiy izolyatsiya kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.
- Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan o‘smirlar kiberbullingni boshdan kechirish xavfi ostida bo‘lib, bu tashvish, ruhiy tushkunlik va o‘z joniga qasd qilish g‘oyalarini kuchaytirishi mumkin.[5]

Ushbu holatlar yoshlarning nafaqat o‘smirlik hayotini balki, kelajagini ham barbod qila oladi.

Xulosa. Ommaviy axborot vositalarining yoshlar ga salbiy va ijobiy ta’siri ommaviy axborot vositalariga sarflangan vaqt miqdoriga va ota-onalar bolaning unga ta’sirini qanchalik yaxshi tartibga solishiga bog‘liq. Shifokorlar ota-onalari bilan farzandlarining ommaviy axborot vositalariga ta’sirini muhokama qilishlari va barcha ommaviy axborot vositalaridan, jumladan televidenie, radio, musiqa, video o‘yinlar va Internetdan yoshiga mos ravishda foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishlari muhimdir.

Onlayn hujjatli filmlar, filmlar, internetdagi ilhomlantiruvchi hikoyalar, bosma nashrlar va radioeshittirishlar yoshlar uchun ilhom manbai bo‘lishi mumkin. Masalan, ota-onalar va yoshlar hayotdan ilhom olish uchun Stiv Jobs va *Chaplin* kabi real hayotga asoslangan filmlarni tomosha qilishlari mumkin. [6]

Ota-onalar farzandlariga ijtimoiy media va boshqa ommaviy axborot

vositalarining ta’sirini boshqarishga yordam berishning eng yaxshi usuli bu media xabarlar haqida gapirishdir. Misol uchun, agar farzand YouTube’da go‘zallik kanallarini tomosha qilishni yaxshi ko‘rsa, mahsulot reklamasi va homiylik haqida gapirishlari mumkin. Yoki agar farzand Grand Theft Auto kabi kompyuter o‘yiniga qiziqsa, zo‘ravonlik, ayollarni ekspluatatsiya qilish va jinoiy faoliyat haqida gapirishingiz mumkin. Farzandingiz ushbu vaziyatlarni haqiqiy hayotda qanday hal qilishi haqida ham gapirishingiz mumkin.[6]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/
2. https://www.cliffsnotes.com/study-guides/sociology/contemporary-mass-media
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/
4. https://yoshlarkelajagimiz.uz/
5. Karakulova, U., Berdiyorova, S., & Rejepbayeva, A. (2023). O‘smirlik davrida nomoyon bo ‘ladigan deviant xulq-atvor. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2), 157-192
6. https://www.momjunction.com/kid/development/
7. Mirzakhmedov Khurshid, New ideological dangers in the spiritual Life of Youth. Journal of social studies. vol.6, 2019, 69 p.
8. Хуршид Мирзаҳмедов, Гендер социологияси: Ғайрижинслилик. Оила барқарорлиги давлат ва жамият тараққиёти кафолатидир мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари, Наманган - 2019 Б. 178

TALABALARDA ESTETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI, VOSITA VA SHAKLLARI

Dildora CHORIYEVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Yakkasaroy tumani bo‘linmasi bosh mutaxassisi

Talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishda tarbiyaning ahamiyati muhim rol o‘ynaydi. Estetik madaniyatni oshirish uchun tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo‘lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo‘ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi. Talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirish jarayonida talabalarda jamiyatga naf keltiradigan, shaxsga

qo‘yiladigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va ko‘nikma hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga, dunyoqarashi va irodasiga tizimli, muntazam ta’sir etib boriladi.

Ma’lumki, oila nafaqat tarbiyaning dastlabki o‘chog‘i, balki go‘zallikning dastlabki maktabi hamdir. Bunda oila a’zolarining o‘zaro munosabatlaridagi go‘zal va mazmunli muloqot, uy jihozlarining tartibli, mazmuni chiroyli qilib joylashtirilishi, oiladagi saranjom-sarishtalik va uyning barcha narsalarining estetik did bilan joylashtirilishi estetik tarbiyalashga asosiy vositalari hamdir. Bunday vositalar o‘quvchining maktabdagi va keyingi boshqa o‘quv muassasalaridagi estetik tarbiyalanishida asosiy poydevordir. Bu jarayon ta’lim muassasalarida sinf xonalari, dahlizlar, fan kabinetlari, to‘garak xonalarini jihozlashda yana davom ettirilib, ular asosida yodgorlik va a’lochilar burchaklarini tashkil etish davomida yanada rivojlantiriladi. Bularning barchasi talaba-yoshlarning estetik didini yuksaltirishga ijobiy ta’sir etadi. Bular yana oliy o‘quv yurtlarida davom ettiriladi. Bu borada turmush tarzimizdagi estetika ham muhimdir.

Oliy o‘quv yurtlarining pedagogik ta’lim tizimida talabalarning badiiy va estetik madaniyatini rivojlantirish murakkab va serqirra jarayondir. Bu jarayon asta- sekinlik bilan orttirilgan hayotiy tajribalar, bilim va ko‘nikmalar orqali shakllanib boradi. Badiiy va estetik tayyorgarlikni rivojlantirish muammosi oliy pedagogika maktablarida talabalarni kasbiy va pedagogik tayyorlashning eng dolzarb muammolaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga bog‘liq bo‘lgan ko‘plab muammolar yechimi ko‘zda tutilgan. Ular orasida O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi ta’lim reytingi talabalar o‘rtasida estetik boy dunyoqarashni, yuksak ma’naviyatni, madaniyatni va ijodiy fikrlashni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Estetik qadriyatlar va badiiy manfaatlar tizimida ma’lum bir guruh odamlar qabul qilingan va jamoada ishlaydigan tegishli ko‘nikmalarni egallashni, tegishli munosabatlarni va muayyan tajribani shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Estetik madaniyat hamma uchun ochiqdir. Shubhasiz, har bir kishi ma’lum darajada ma’lum darajada estetik madaniyatning har xil turlari va darajalarini tushunishi mumkin, bu inson o‘zi qo‘yadigan vazifalardan biridir.

Badiiy va estetik madaniyat qator omillarni o‘z ichiga oladi, ulardan biri insonning qobiliyatiga, ikkinchisi uning qobiliyati va bilimiga bog‘liq va uch yuztasi faqat keng madaniy kontekstda ajralib turadi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat: 1) hissiy, badiiy tuzilmalarga

sezgirlik va badiiy va estetik qadriyatlarga sezgirlikka bo‘lingan estetik sezuvchanlik: tajriba, ya’ni san’at asarlari bilan bevosita aloqa, reproduktsiyalar orqali bilvosita aloqa va boshqalar, o‘z havaskorlik san’ati; 2) san’atning ayrim turlarining tarixi, ma’lum san’at turlarining nazariyasi, estetika sohasidagi bilimlar va san’at bilan shug‘ullanadigan boshqa fanlar; 3) san’at bilan bog‘liq tajribani hayot davomida tarqatish qobiliyati; san’atning ichki tuzilishi va estetik shaxsiyatning tizimli rivojlanishi, umumiy shaxsiyat o‘zgarishlarini boshqarish; 4) imitatsion bo‘lmagan faoliyat, badiiy tajribadan foydalanish qobiliyatidan iborat estetik zukkolik. O‘qituvchi kasbiga ijobiy munosabat, badiiy, shaxsiy va estetik qadriyatlarga yo‘naltirish asosan shaxsning rivojlanishini belgilab beradi. Malaka oshirish jarayoni ta’limning har qanday bosqichida kasbiy rolni bajaradigan va o‘zini o‘zi takomillashtirish motivatsiyasini kuchaytiradigan o‘quv sharoitlarini yaratish sharoitida yangilanadi. San’atning mazmunli idrok etilishi uchun o‘qitilgan mutaxassis sifatida o‘qituvchining shaxsini rivojlantirish yo‘llari shaxsiy xususiyatlarning nazariy va uslubiy asoslarini tushunishnig didaktik prinsiplarida ajralib turmaydi. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, didaktik fikr doirasidagi ilmiy-nazariy va ijtimoiy-madaniy masofadan ancha katta. Badiiy-estetik rivojlanish yo‘llari va shartlarini o‘rganish, maktab o‘qituvchisi faoliyati tarbiyachi va kasbiy tarbiyachi faoliyatini birlashtirganligiga bizni ishontiradi. Bunday tayyorgarlikni professional o‘qituvchini tayyorlash va kelajakdagi o‘qituvchining ma’naviy olamini shakllantirish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak, uning maqsadi professional o‘qitiladigan fan o‘qituvchisi va estetik ta’limning organik qotishmasidir.

Talabalar san’ati, mehnat estetikasi, xulq-atvori, munosabat, odob-axloq qoidalari, aqliy operatsiyalar madaniyati, so‘z san’ati, intonatsiyalar, istak va intilishlar bilan qurollangan holda o‘quvchilarni rivojlantirish yo‘llari va vositalarini izlash - jiddiy hal etilishini talab qiladigan vazifalar.

Pedagogik universitetning o‘quv jarayonini takomillashtirish amaliy mashg‘ulotning keng qamrovli shaklini badiiy va estetik madaniyatni o‘quv, mustaqil va maktabdan tashqari mashg‘ulotlar birligida birlashtirishda, kelajakda o‘qituvchining amaliy ishini universitetda o‘qishni boshidanoq, amaliy mashg‘ulot uchun tashkil etishda qo‘llanilishida aks etadi. Talabalarning san’at bilan faol aloqasi, badiiy adabiyot bilan ko‘rish va eshitish madaniyatini rivojlantirish, turli xil san’at turlari bo‘yicha mashg‘ulotlar bir vaqtning o‘zida majmuada o‘tkaziladi. O‘qitishning barcha bosqichlarida “sinxronizatsiya yo‘llari” (mavzuning birligida san’atning o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan) turli xil san’at turlari o‘quvchilariga ta’sir ko‘rsatishda juda samarali: vaqti-vaqti

bilan bir xil mavzudagi darslarni turli xil san’at turlari bilan birlashtirish; - asar mazmuni bilan bog‘liq vizualizatsiya va ekspressivlik vositalarini bir vaqtning o‘zida o‘rganish, san’atning yozilmagan ishtiyoq doirasidan musiqaning ta’sirini ongli ravishda qiziqish darajasiga o‘tkazishga erishish.

Texnologiyada shaxsiy-faoliyat va differensiatsiyalangan yondashuvlarni amalga oshirish, har birining ijtimoiy-madaniy omillari (tashqi) va psixofiziologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘quvchilarning individual farqlarini hisobga olish shartdir.

Quyida talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirish usullaridan foydalanish haqida namunalar keltiramiz: Quvnoqlar va zukkolar tanlovlarini o‘tkazish: bu tanlov orqali talabalarning san’at, teatr va rassomchilikka bo‘lgan qiziqishi orttiriladi va zukkolik mahorati baholanadi. Ustoz-shogird ishlarini takomillashtirish: bu usulni amalga oshirish uchun eng yaxshi ish olib borayotgan shogirdlari undan juda mamnun va minnatdor bo‘lgan pedagog- ustozning ishlarini ommalashtiriladi.

Talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishning samarali shakllaridan yana biri - oliy ta’lim muassasalarida badiiy to‘garaklar faoliyatini izchil tashkil etishdan iborat. To‘garakning maqsadi: — Yosh ijodkorlar badiiy to‘garagi talabalarda estetik madaniyatni rivojlantirishga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning ijrosini ta’minlash bilan uyg‘unlashgan. Badiiy to‘garak talabalarda estetik madaniyatni rivojlantirish asosida ularni g‘oyaviy, estetik faoliyatni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. To‘garakning vazifalari: - talabalarni amaliy san’atning turlari bilan yaqindan tanishtirish; - talabalarda estetik faoliyatga nisbatan faol moyillikni qaror toptirish; - talabalarda ommaviy madaniyatga qarshi kurashuvchanlik ko‘nikmasini shakllantirish; - talabalarda tabiatni har tomonlama asrash tuyg‘ularini shakllantirish; - talabalarni sharq san’ati asarlariga bo‘lgan qiziqishini orttirish va badiiy asarlarni estetik jihatdan tahlil qilishga o‘rgatish.

Talabalarning estetik madaniyatini rivojlantirishda quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi: muzeylar, teatrlar, kutubxonalar, klublar, kinoteatrlar, galereyalar, tarixiy me’morchilik yodgorliklari, san’at asarlari va tarixiy madaniy joylar va hayot tarzimizdagi borlig‘imiz hamda ulardagi go‘zalliklar talaba yoshlarni estetik ruhda tarbiyalashga asos bo‘ladi. Estetik madaniyatni rivojlantirish vositalari - talaba-yoshlarni estetik tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdagi tanlab olingan turmush, tabiat, san’at estetikasi va yoshlarning badiiy

ijodiy namunalari hamda yuqorida qayd etilgan vositalar majmuasidan iboratdir. Bunda san'at asarlari va turlari, xususan, musiqa faoliyatiga doir ijrochilik, qo'shiq, boshqa musiqaviy harakatlar, tasviriy san'at asarlari, musiqa va rasm darslarida pedagogika o'qituvchilarda mustaqil izlanish, ijod qilishga doir ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. http://uz.infocom.uz/2014/02/17/virtual-muzey-yaratish-texnologiyasi-vaamaliyotda-qollash-tajribasidan.

2. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). The Pedagogical Basics Of Training Students For Professional, Moral And Educational Function. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.

3. Maksudov, U. K. (2020). Issues Of National Values And Social Activity Of Students In The Development Of Positive Psychology. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 394-396).

4. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 23442348.

5. Ахмедов, Б. А. (2020). Сиддиков Бахтиёр Саидкулович, Джалалов Бахромжон Бегмурзаевич. Модернизация образования-основной фактор в формировании инновационной компетенции будущих учителей. Academy, 9, 60

IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIRI

Sirojbek HAYITOV,
Buxoro viloyati Osiyo xalqaro universiteti talabasi

Bugungi kunimizni internet tarmog'isiz tasavvur etishimiz qiyin. Bilamizki 21-asr axborot tehnologiyalari asri, shunday ekan zamonaviy taraqqiyot bilan hamnafas bo'lishimiz kerakligi hech kimga sir emas. Bizni texnologiyalar makonidagi bilimimizning qanchalik keng ekanligi jamiyat taraqqiyotidagi o'rnimizni belgilab berayotgani ham yangilik emas. Har bir sohada yangi texnologiyalarni hayotga keng targ'ib qilinayotgani ham ijtimoiy hayotimizga bir qator yengilliklar berayotgani juda ham quvonarli holat. Lekin tan olish kerakki bunday qulayliklardan

noto‘g‘ri maqsadda foydalanayotganlar talaygina. Bu haqda Chingiz Aytmatov shunday yozadi: “Tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo‘ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko‘p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojiadir”[1]. Hozirgi paytda internet tarmog‘idan foydalanish juda keng suratda rivojlanib bormoqda. Bu insonlarga juda keng imkoniyatlar eshiklarini ochib berayotgani hech kimga sir emas. Ma’lumotlarni uzatish, ta’lim olish, ko‘ngil ochar tarmoqlar va h.k.

Internet tizimining ijtimoiy tarmog`idan olingan narsa to‘g`ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan har qanday ma`lumot-xabarlarni haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga solmoqda. Ular g`arazli maqsadlari yo‘lida yoshlarda buzg`unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to‘kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan yoshlar vaqt, umr g`animat ekanini doimo yodda saqlamog`i lozim. Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo‘lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o‘tkazib yuborish bilan birga yoshlarimiz o‘jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi”[2].

Umuman Internetning paydo bo‘lishi bilan hayotning juda ko‘p aspektlari, jumladan, kundalik maishiy xizmatlardan tortib, biznes va menejment, yuridik va konsullik xizmatlari va hatto davlat boshqaruvigacha birin-ketin virtual dunyoga ko‘cha boshladi. Eng muhimi, u yoshlarning an’anaviy muloqot shaklini tubdan o‘zgartirib yubordi. Olis masofadan turib nafaqat eshitish, balki ko‘rish imkoniyatining yuzaga kelishi virtual suhbatlarni keskin ommalashtirdi. Keyingi 15-20 yil davomida dunyo mamlakatlari aholisi, shu jumladan, O‘zbekistonlik yoshlar hayotida mobil aloqa urf tusini olgan bo‘lsa, hozirgi davrga kelib mobil uskunalardagi WhatsApp, ICQ, MSN Messenger va Telegram orqali matnli muloqot (ing. text messaging) ommaviylik kasb etmoqda. Qayd etish kerak, bugungi kunda dunyo aholisining qariyb yarmi – ya’ni 3 mlrd.ga yaqin kishi turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda. Darhaqiqat, bugun axborot ko‘p va tez kirib kelayaptiki ularni “hazm” qilish uchun teran tafakkur va keng dunyoqarash talab etiladi. Ayniqsa internet tizimining ijtimoiy tarmoq olami farzandlarimiz e`tibori va qiziqishini tortib borayotgan bugungi davrda ayrim kompyuter o‘yinlari haqida ham shunday misollarni ketirish mumkin. Bugun dunyo aholisining 90 % dan ortig`ida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Foydalanayotganlar soni

ham yildan-yilga ortib bormoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra insonlarning ijtimoiy tarmoqda sarflaydigan minimal vaqti 3 soatni tashkil etadi. Bir qarashda kishini xavotirga soladigan hech narsa yo‘qdek[3]. Inson bu 3 soat mobaynida turli hududlarda yashaydigan yaqinlari, tanishlari, qarindoshlari bilan muloqot qilmoqda, bunda nima notabiylik bor deb o‘ylash mumkin. Albatta, ushbu muloqot jarayonlarining ijobiy tomonlarini inkor etib bo‘lmaydi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda faqat ezgu niyatni ko‘zlagan insonlar o‘tirmasligini o‘nlab misollar bilan asoslash mumkin. Ayniqsa, yoshlarda bunday holat ko‘proq yolg`iz qolish istagining kuchayishida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda mashhur bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlarda o‘z sahifasiga ega bo‘lmagan insonni topish qiyin. Ayniqsa, bu holatning yuqori darajasini yoshlar orasida ko‘rish mumkin. Ma`lumotlarga qaraganda, dunyo yoshlari, jumladan mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlod asosiy vaqtining taxminan 50% foizi virtual muloqotga sarflanmoqda. Gap shundaki, ko‘pchilik yoshlar o‘z hayotlarini ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaydilar.

Manbalarda ijtimoiy tarmoq – odamlarning muloqot qilish, o‘xshash qiziqishlari yuzasidan boshqa odamlar bilan ijtimoiy munosabatlarni yaratish uchun foydalanadigan onlayn platforma deb ta`rif berilgan. Ilk bor odamlar o‘rtasidagi muloqot vositasi sifatida ijtimoiy tarmoqning elektron pochta ko‘rinishi paydo bo‘ldi. Bu kompyuter tarmoqlari orqali bog`lanishning ilk ko‘rinishi edi. Dastlab ikki kishi o‘rtasida ma`lumot almashish uchun yaratilgan elektron ma`lumot almashuv keyinchalik guruhlar o‘rtasidagi muloqot vositasiga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar haqida ilk bora o‘z tasavvurlarini bayon qilgan olimlar R.Solomonoff va A.Rapoport o‘tgan asr o‘rtalarida muloqotning virtual ko‘rinishi haqida o‘z fikrlarini bayon qilishgan. Vengriyalik mutaxassislar P.Erdos va A.Renilar ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish borasidagi tasavvurlarini aytib o‘tishgan. Ijtimoiy tarmoq atamasini alohida tushuncha sifatida 1954 yil Manchester maktabi namoyondalaridan biri J.Barns ilmiy manbalarga kiritgan. Internet tarmog`ida insonlar o‘rtasidagi muloqotning avj olishi, rivojlanib ketishini olimlar ijtimoiy tarmoqlarning tezkor faoliyati bilash bog`lashadi[4]. Aslida ham shunday. Siz virtual olamda tez va qulay muloqotni kunning yoki tunning istalgan vaqtida o‘rnatishingiz mumkin. Suhbatdoshingiz bilan yozishib, gaplashib, uni ko‘rishingiz ham mumkin. Buning uchun kompyuter yoki telefon va internet bo‘lsa kifoya.

Virtual muloqotning avj olishi jonli muloqotga bo‘lgan ehtiyojning pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda jamiyatimizda o‘zining doimiy ko‘rishib turadigan yaqinlari

bilan ham ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiluvchi insonlar ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Bunday muloqot esa real voqelikdan ayri holda kechadi va inson o‘zining hissiy kechinmalarini tasvirlab bera olmaydi. Bu esa insoniy tuyg`ularning yo‘qolib borishiga zamin yaratadi. Yaqin o‘tmishimizda insonlar o‘rtasida “uyga keling” deb taklif qilingan bo‘lsa, endilikda “telegram kanalim”ga tashrif buyuring, “Facebookdagi sahifam”ga kiring degan takliflardan ajablanmay qo‘ydik. Shu nuqtai nazardan qaraganda, shiddatli global o‘zgarishlar davrida yoshlar ong-u shurini internet tizimining ijtimoiy tarmog`i orqali kirib kelayotgan zararli g`oya va ta`sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘qituvchilar, ma`naviyat targ`ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo‘lishni, yosh avlodning g`oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko‘lamini yanada kengaytirishni talab qiladi. Sotsial tarmoqlar g‘arazgo‘y odamlarning yovuz maqsadlariga xizmat qilishlari mumkin. Masalan, tarmoqqa qo‘yilgan axborot va xabarlar boshqalar tomonidan o‘g‘irlanishi, buzilishi va boshqa tarmoq a’zolariga yuborilishi mumkin. Yoki firibgarlar qalbaki rasmlar va yolg‘on ma’lumotlar bilan o‘z maqsadlariga erishishlari mumkin. Hatto sotsial tarmoqlar butun boshli qotilliklar, isyonlar, urushlarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, zamonaviy fanda “informatsion urush” degan atama mavjud. Informatsion urush sotsial tarmoqlarda juda qo‘l kelishi mumkin. Ana endi hozirgi vaqtdagi voqyealar bilan sotsial tarmoqlarin bog‘laylik. Ma’lumki, 2011 – yilning boshi butun jahonning diqqat – e’tiboriga sazovor bo‘lgan “arab inqiloblari” yoki “arab bahori” nomli voqyealar bilan boshlandi. Tunisda boshlangan davlat to‘ntarishi zanjirli reaktsiya bo‘ylab Misr, Liviya, Suriya, Iordaniya, Yaman va boshqa arab davlatlariga tarqaldi. Bu to‘ntarishlarga ahamiyat beradigan bo‘lsak, harakatlarni boshlaganlar 18 – 35 yoshlardagi fuqarolar edi. Ya’ni, ular ham sotsial tarmoqlar ta’siri ostida bo‘lib qolib, ularning boshqa o‘lkalardagi do‘stlari qanday yashayotganligini ko‘rib o‘z hayotlarini tubdan o‘zgartirishga ahd qilishdi. Masalan, Misrdagi tartibsizliklar “Tvitter inqilobi” degan nomni oldi. Qarangki, sotsial tarmoq qanchalik jamiyat hayotiga va davlat siyosatiga o‘z ta’sirini o‘tkaza oldi. O‘ylashimizcha, bu dalil sotsial tarmoq ta’siriga tushgan yangi fuqarolik jamiyati shakllanishinig boshlanishidir.

Ma`lumki, dunyoda g`oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma`naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog`lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir. Bunday murakkab va tahlikali davrda ma`naviy – ma`rifiy ishlarni zamon talablari asosida

tashkil etish yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon – atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, zo‘rlik bilan joriy etish oqibatida xalqaro maydondagi ziddiyat va qarama – qarshiliklar kuchayib borayotgan bir vaziyatda o‘zimizning kelajak strategiyamizni aniq belgilab olish, g`animlarning g`arazli urinishlari nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab olish va keng jamoatchilikka yetkazish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug`dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g`oya targ`iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobiy natijalarini yoshlarga tushuntira bilish, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Ma’naviyat va ma‟rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi”[5] ekanligi to‘grisidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur.

Shu bilan birgalikda jamiyat hayotining modernizatsiyalashish sharoitida jamiyatda ma`naviy sohada quyidagi vazifalarni ham bajarishimiz maqsadga muvofiqdir: - yoshlarimizni ma`naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish; - turli qarash va fikrga ega bo‘lgan yoshlarning o‘ziga xos orzu-intilishlarini uyg`unlashtiruvchi g`oyalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, yagona Vatan tuyg`usi, adolat - qonun ustuvorligida, xalq roziligi, jaholatga qarshi ma`rifat, innovatsion taraqqiyotni ta`minlash barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga erishish, milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash; - ota-bobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish. Buning uchun, avvalo: - ommaviy axborot vositalarida milliy ma`naviyatimiz aks etgan ko‘rsatuvlar, seriallar, kino va badiiy filmlar namoyishini omma e`tiboriga taqdim qilish; - internet tizimidan foydalangan holda milliy saytlar ko‘paytirish hamda yoshlarbop ruknlarni ochish va ular orqali milliy g`oyalarni singdirib borishni ta`minlash; - jamiyatda ma`naviyatni takomillashtirish mavzuida ilmiy loyihalar joriy etish hamda qonun ustuvorligini ta`minlash zarurdir

Umuman, bugungi kunda internet tizimining ijtimoiy tarmoqlari salbiy ta`sirining oldini olish uchun yoshlarning ma`naviy salohiyatini oshirish, iqtidorli va iste`dodli bolalarning o‘z ijodlarini erkin namoyon etish va axborot almashish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari orqali maxsus internet dasturlarini ko‘proq tuzib, yoshlarga mo‘ljallangan turli mavzular bo‘yicha maqsadli

loyiha va sohaviy tizimli dasturlarni tayyorlash va ularni doimiy tarzda yangilab borish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o‘rnida aytmoqchimizki, hozirgi kunda jamiyatimiz hayoti fantexnologiyalar rivoji bilan tobora uyg`unlashib borayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Shunday ekan, har birimiz ijtimoy tarmoqlardan foydalanish madaniyatiga amal qilishimiz, o‘z navbatida, uni atrofdagilarga ham o‘rgatish foydadan xoli bo‘lmaydi. Binobarin, yoshlarning ruhiy-ma`naviy olamini zararli unsurlardan, turli xil buzg`unchi, yod va zararli g`oyalardan himoya qilish orqali taraqqiyot poydevori yaratiladi. Zero, ma`naviy barkamol, intellektual salohiyati yuqori avlod tarbiyasi nafaqat O‘zbekistonda, balki butun jahonda eng muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Aynan ma`naviy barkamol avlod mamlakat ertasini belgilab beradi. Ma`naviy barkamollik esa jamiyat taraqqiyotining muhim omili.

Ushbu maqolani yozar ekanman qalbimda juda ko‘plab savollar uyg‘ondi: Jamiyatimizga, yurtimizga kerakli kadr bo‘lib yetishishim uchun yetarlicha harakat qilayapmanmi? Mendan nihoyatda umidlari katta bo‘lgan ota-onam mendan faxrlanishi uchun nimalar qilayapman? “Men o‘z vaqtimdan unumli foydalanyapmanmi? Ushbu fikrlarimni o‘qishingiz davomida sizda ham ushbu savollar paydo bo‘lgan bo‘lsa meni vaqtim, mehnatim besamar ketmabdi deb hisoblayman. Barchangizga qimmatli vaqtingizni ayamasdan maqolani o‘qib chiqganingiz uchun minnatdorman!!!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Beruniy Alimov “Yoshlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali mamlakat imijini oshirishdagi roli” maqolasidan//https://beruniyalimov.uz/archives/705//

2. I.A.Karimovning Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch.-T.: “Ma’naviyat”. 2008.

3. P.Taranov. Yuqori ong ensiklopediyasi, 1999.

4. Tashmetov, T. X. (2021). Global yutuqlardan foydalanishda milliy g‘oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari. "Academic Research In Educational Sciences" jurnali.

5. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: “Movaraunnahr”, 2016

YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY URF-ODATLAR, AN'ANALAR, MAROSIM VA BAYRAMLARNING O'RNI

Mahfuza MAHMUDOVA,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar fakulteti tyutori

Oilaviy marosim, shaxsiy va bayramlar yoshlarning ruhiy-axloqiy tarbiyasida katta rol o'ynadi. Kup yillik ilmiy kuzatish va u yerda shuni saqlab qolishadiki, inson o'z umri davomida bo'ladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshga birlashgan davrida ular ekan. Bolaning o'n davrgi 5-7 yoshda shakllanganini inobatga oladigan bo'lsak , aynan ana shu narsada qalbida oiladagi mUhit ustida ma'naviyatning birinchi kurtaklari ko'rinishi bo'la boshlaydi. Xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini", degan dono maqoli, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi. Odamzot uchun bir umr zarur bo'ladigan tabiiy ko'nikma va xususiyatlar, masalan, har qaysi bolaning o'ziga xos va o'ziga mos qobiliyati, atrofidagi odamlar bilan muomalasi, tengdoshlari orasida o'zini qanday his qilishi, yetakchilik xislatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi, kerak bo'lsa, dunyoqarashi – bularning barchasi, avvalo uning tug'ma tabiati, shu bilan birga oilada oladigan tarbiyasiga uzviy bog'liq ekanini hayot tajribasi ko'p misollarda tasdiqlab berishini, Birinchi Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch" asarida keltirib o'tgan. Oila insonni shakllantiradigan, uni ulg'aytirib, kelajakda kim bo'lishini ta'minlab beradigan ana shunday bebaho tarbiya maskani, ijtimoiy institutdir.

O'zbek xalqining o'ziga xos urf-odat, an'ana, marosim va bayramlari borki, ular kishilarning ijtimoiy hayotida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etib kelgan. Garchi, urf-odat, an'ana, marosim va bayramlar bir xildek, tuyulsada, biroq ular ma'lum jihatlari bilan farqlanadi. Bu an'analarning umumiy o'xshash jihati shundaki, ularning har biri insonni jamoavilikka, insnoparvarlikka, mehr-oqibatlilikka, ezgulikka chorlaydi. Urf-odat – kishilarning turmushiga singib ketgan. Ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikmasidir. Masalan, kichiklarning kattalarga

salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida keksa, qariyalar, kasal, ojiz, qiynalgan kishilar holidan xabar olish qo'ni-qo'shnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar

hisoblanadi.

“Odat” deganda muayyan bir jamoaning turmush tarzi, xatti-harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo’ladi.

Marosim – inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko’tarinkilik vaziyatda o’tadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi. Masalan, ism qo’yish, nikohdan o’tish, dafn qilish, xotirlash, ekishga kirishish (urug’ qadash), o’rishga kirishish marosimlaridir. Odat kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo’lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni tug‘ilish, uylanish, o‘lim kabilarini qayd etadi, rasmiylashtiradi. Marosimlarni o‘tkazishda avloddan-avlodga o‘tadigan, ramziy va rasmiy an’analar, qoidalarga amal qilinadi. Marosimga, bo‘layotgan voqeaga “guvoh” sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g‘ami yoki quvonchiga sherik bo‘lishadi, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o‘ziga xos umum qabul qilingan tuzilishi (boshlanishi, o‘rtasi, oxiri) bo‘ladi. Inson hayotida bo‘lib o‘tayotgan muhim voqyeani nishonlash jarayonida an’ana ham, odat ham marosim ham mujassamlashadi. Buni quyidagi misolda ko‘rish mumkin. Yoshlar voyaga yetganida –yigitlar uylanadi, qizlar turmushga chiqadi. Bu avloddan-avlodga o‘tib keladigan an’ana sanaladi. Yigit-qizning oila qurishi uchun nikoh to‘yi o‘tkaziladi. Nikoh to‘yi o‘tkazish esa insoniyat hayotiga singgan, muayyan qoidaga, ma’lum tartibga ega bo‘lgan urf-odat hisoblanadi.

Nikoh to‘ylarining asosiy shartlaridan biri kuyov va kelinning nikohdan o‘tishidir. Har bir davrda bu to‘y bilan bog‘liq o‘ziga xos odatlar vujudga keladi. Masalan, hozirgi payta maxsus bezatilgan mashinalarda ko‘chalarda yurish, guvohlar bilan “Baxt uyi”ga borish, nikohdan o‘tayotganda davlat madhiyasining yangrashi, “Baxt uyi” xodimlarining savollariga javob berish, kerakli xujjatlarga imzo chekish, nikoh uzuklarini almashish kabi odatlarga amal qilinadi. Bu rasmiy va tantanali ravishda o‘tadigan marosimdir. Bu rasmiy nikoh to‘yidagi odatlarning ado etilishi kelin-kuyov, ularning shodiyona kunida qarindosh-urug‘i, yoru-o‘stlari uchun haqiqiy shodiyona sanaladi. “An’ana”, “odat”, “marosim” bir-biri bilan bevosita bog‘liq hodisa hisoblanadi. Shu bois an’analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo‘lishi mumkin. Ba’zi xolatlarda “an’ana”, “odat” va “marosim” tushunchalari alohida ishlatilsa, ular mavhum ma’noni anglatishi ham mumkin. Bunday paytda ularga aniqlovchi so‘zlar qo‘shilib, masalan, “an’anaviy bayram”, “an’anaviy festival”, “an’anaviy kecha” yoki “mukofotlash marosimi”,

“to‘y marosimi”,“nafaqaga kuzatish marosimi” tarzida qo‘llaniladi.

“Marosim” so‘zi jamoatchilik ishtirokida o‘tkaziladigan katta tadbir ma’nosini bildiradi. Oilaviy urf-odatlar oila paydo bo‘lishi bilan vujudga kelgan. Shubilan birga o‘zgargan, rivoj topgan. Taraqqiyot, zamon talabiga javob berganurf-odat yanada kuchayib zamonga qarab rivojlanib bormoqda. O‘zbek xalqining oilaviy marosimlari ham tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig‘iriqlaridan o‘tib, muhim ma’naviy qadriyatsifatida ravnaq topgan. Urf-odatlarimizga aylanib qolgan chaqaloqni beshikka solish kabi urflarimiz mavjud. Urflarimizga aylanib qolgan beshik to‘yini yoritar ekanmiz, beshik to‘yi qadim zamonlardan har bir oilada o‘tkazilib kelingani tufayli, bu marosim xalq madaniy hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Beshik go‘dakni ovutish, erkalash, allalash, uxlatish uchun o‘ta qulay tuzilishga ega. Chaqaloq tug‘ilishidan keyingi muhim urf-odatlarimizdan biri –bolani beshikka solish marosimi va beshik to‘yidir. Mazkur to‘y ayrimjoylarda kichik oilaviy bir marosim shaklida o‘tkaziladi. Mana shunday urf-odatlarimiz hozirga qadar saqlanib kelmoqda. Hozirga kelib o‘zbek xalqi hayotida ham yaqin yoshlar ichida avvallari mavjud bo‘lgan ko‘plab ijtimoiy va shaxsiy-oilaviy an’ana, urf marosim va bayramlarga yana yangiliklar kiritilib borilmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng xalqimizning unutilayozgan an’analari, marosimlari va urf-odatlari yana hayotga qaytarildi. Ular xalqimiz turmushidagi unutilmas hodisalarni o‘z negizida mujassamlashtirdi. Shuning uchun Respublikamiz hukumati xalqimizning hayotga tarixan singib kelayotgan an’ana, marosim va urf-odatlarini qaytadan qaror toptirishga doimo ahamiyat bermoqda. Urf-odat va marosimlar barqaror bo‘lishiga qaramay, yangi davr, yangi tuzum ehtiyojlariga muvofiq o‘zgarib boradi. Mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do‘stlik. Jasorat, mehmondo‘stlik, bolajonlik singari an’analar mamlakatimiz hududida azaldan mavjud. Ammo bu an’analar mustaqillikka erishganimizdan keyin yangi ma’no kasb etmoqda. An’analar, urf-odat va marosimlar shaklida namoyon bo‘ladi.

Urf-odat nisbatan o‘xshash, ma’lum darajada takrorlanib turadigan holatlarda muayyan xatti-harakatlarning aynan takrorlanishi, unga so‘zsiz amal qilinishini bildiradi. Kishilarimizning shaxsiy va oilaviy hayotida sodir bo‘ladigan unutilmas voqyealarni, yaxshi kunlarni xursandchilik nishonlashga bo‘lgan intilishlari yangi-yangi an’ana va marosimlarni yuzaga keltirmoqda. Chunonchi, kishi hayotida eng muhim davrlar – tug‘ilgan kun, maktabga borish,balog‘atga yetish, nikohdan o‘tish va shu kabilar fuqarolik marosimlari saqlanib, ularning har biri kishi oldiga

yangi talablar qo‘yadi, yangi huquqlar beradi va nihoyat uning jismoniy va aqliy kamolotiga yetishida muhim bosqich bo‘lib hizmat qiladi. Barcha marosim va bayramlarning ana shu tomonlariga alohida e’tibor berish ijtimoiy taraqqiyotda tarixiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Urf-odatlar ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos amaliy negizidir. Ular turg‘un va barqaror xarakterga ega bo‘lib, ayrim yoki yakka shaxslar tomonidan emas, balki ko‘pchilik tomonidan ro‘yobga chiqariladi. Masalan, ota-onaga hurmat, keksalarga ehtirom, mehmondo‘stlik kabilar xalqimizning asosiy urf-odatlaridan bo‘lib, bularga xalq an’analarining bir ko‘rinishi sifatida amal qilinadi. Oilada bu kabi an’analarni ko‘rib ulg‘aygan farzandlar o‘zlarida ham bu kabi fazilatlarni shakllantira boradi. Mehmonga hurmat ko‘rsatish, kattalar oldida odob saqlash, tozalikka rioya qilish, tansiq taomlarini mehmon bilan bo‘lishish, mehmon kelganda qovoq solmaslik, xushmuomalalik kabi bir qator fazilatlar anashu odat tufayli bolalarda kamol topib boradi. Odatda o‘zbek oilalarida oilaviy janjallar yuz bergan vaqtda uyga mehmon kelsa, bu xafagarchilik darhol unutiladi. Oila a’zolarining e’tibori mehmonga qaratiladi. Anashunday vaziyatdagi mehmonlar oila a’zolarining yarashishiga sabab bo‘lib ketishadi.

Marosim tushunchasi muayyan so‘z va harakatlarning qaytarilishini bildiradi, lekin bunda so‘z va harakatlar shartli ramziylik kasb etadi. Urf-odatlarda so‘z va harakatlar moddiylashgan bo‘lsa, marosimlarda moddiy olamning, predmetlarning o‘rnini shartli – harakatlar, so‘zlar, tasvirlar egallashi mumkin bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, marosimlar, urf-odatlarning barqarorlashgan shaklidir. Marosimlar ichki yaxlitlilik, kompozitsion birlilik, shaklan bejirimlikka ega bo‘ladi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri nazokat va latofatligidir. Masalan, hosil bayramlarini, paxta bayramini, gul va bahor bayramlarini, uzum, qovun sayllarini, nikoh to‘ylari marosimlarini olaylik. Bu sayl va bayramlar shodlik, to‘kin-sochinlik, nafosat tantanasi sifatida amalga oshiriladi. Bir butun marosim bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir qancha kichik marosimlarni, urf-odatlarni o‘z ichiga oladi. Bular marosimchilik deb ataladi.

Hashar, mehmondo‘stlik, mardlik, jasorat, halollik, do‘stlik, mehnatsevarlik, san’atsevarlik, turli millatlarga hurmat va qardoshlik kabi an’ana, odatlar qadimiy va ijtimoiy taraqqiyotda ular haqidagi bo‘lgani uchun tarixiy ahamiyatga egadir va doimo saqlanib boraveradi. Gul va bahor bayrami, paxta bayrami, hosil bayrami, hashar, uzum sayli, uloq chopish kabi urf-odatlar esa milliy xarakter kasb etadi. Azaldan davom etib kelayotgan urf-odatlar, chunonchi, hashar, nikoh marosimlari,

navro‘z, bahor bayramlari, uzum-qovun sayllari va hokazolar yangicha mazmun kashf etmoqda. Hozirgi kunda chaqaloqlarni tantanali ravishda ro‘yxatga olish, yosh go‘dakka nom qo‘yish, 16 yoshga yetgan o‘smirlarga pasport topshirish, mehnat faxriylarini tantana bilan nafaqaga kuzatish yangi an’analardandir. Xalqimizning eng yaxshi, ajoyib milliy an’analari qadimdan davom etib, avlodan-avlodga o‘tib, mustaqil yurtimizdagi ijtimoiy munosabatlar shakllanayotgan jamiyatda yangi mazmun kasb etmoqda, boyimoqda, mustaqilligimizni mustahkamlashda yosh avlodni tarbiyalashda hayot maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Zamonlar va avlodlar o‘rtasidagi aloqa, ang‘analar orqali amalga oshiriladi. Qimmatli urf-odatlar shu an’analardan o‘zining to‘la ifodasini topadi. Ota-bobolarimizning donishmandligini aks ettirgan va azaldan oddiy mehnatkashlarga xos bo‘lgan olijanob tuyg‘ularni e’zozlaydigan xalq urf-odatlari bu an’analar orasida eng faxrli va muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun xalq an’analarini rivojlantirishga obektiv yordam beradigan eng yaxshi, eng qimmatli milliy urf-odat va marosimlarni tanlab olish kerak. Keksalarni, xotin-qizlarni izzat-hurmat qilish,mehmondo‘stlik, o‘zaro yordam va bolalarga mehr-muhabbat tuyg‘ularini ifodaetuvchi an’analar barcha xalqlar hayotida uzoq zamonlardan beri davom etibkelyapti. Insonning kamol topishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadiganan’analardan kishilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda muntazamfoydalanish zarur. Xalqimizning ijobiy an’analaridan biri – keksalarni hurmat qilish juda katta tarbiyaviy hamda ijobiy ahamiyatga ega. Hukumatimiz keksa avlodning xizmatlarini qadrlab kelmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan pensiyalar, juda ko‘p imtiyozlar, unvonlar, davolanish, dam olishuchun sanatoriylar, shifoxonalar va boshqa imtiyozlar mustaqil yurtimizning keksalar to‘g‘risidagi beqiyos g‘amxo‘rligining guvohidir.

An’analarimizning ijtimoiy taraqqiyotdagi ahamiyatiga e’tibor beradigan bo‘lsak, xalqimizning “Mehmon otangdek ulug‘”, “Mehmondan ulug‘ kishi yo‘q”, “Mehmon kelsa mushugingni ham pisht! dema” degan hikmatlari mehmondo‘stlikka undaydi. “Mehmon kirsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan” degan iborasi esa har qanday sharoitda ham mehmonni beminnat, samimiy kutib olish kerakligini anglatadi. Yana bir yaxshi odat – insonparvarlikdir. Chin inson pok qalbli, sofdil, diyonatli, vijdonli, chuqur irodali, oqil kishi bo‘lishi bilan birgayurt, Vatan, jamiyat manfaati, tashvishi yo‘lida jon fido qiladigan,kishilar osoyishtaligi, tinchligi va baxt-saodati yo‘lida doimo qayg‘uradigan bo‘lmog‘i kerak. Shundagina uning haqiqiy insonparvarligi, insoniyligi, boy ma’naviy go‘zalligi to‘laligi bilan namoyon bo‘ladi. Insonparvarlik – jamiyatimizda qaror topgan, tobora yangi mazmunkasb etayotgan

milliy an’analarning yuksak ko‘rinishlaridan biridir. Inson mustaqil O‘zbekistonda shu zaminda qadr topdi va izzat-urmat ko‘rdi. Respublikamiz hukumatining olib borayotgan siyosatida “Hamma narsa insonuchun, insonning baxt-saodati uchun” degan g‘oya amalga oshirilmoqda. Insonning oliyjanobligi, odamiyligi uning tanishga ham, notanishga ham beg‘araz yordam qo‘lini cho‘zishi bilan belgilanadi. Millatimizning turmush tarzi odamlarning bir-biriga do‘st, mehribon, g‘amxo‘r, jonkuyar va hamdard bo‘lishidir. Ana shu insoniy fazilatlar bilan jamiyatimiz yanada jipslashmoqda, kamolot yo‘lidan bormoqda.

Mustaqil yurtimiz fuqarolari qaysi millat yoki xalqqa mansub bo‘lmasin, hammasining Vatani bir, maqsadlari, manfaatlari bir. Xalqimizning do‘stlashishi – jamiyatimizning ulug‘vor kuchidir, bizning juda kattaboyligimizdir. Bu do‘stlik asosan ikkinchi jahon urushi yillari chiniqdi. O‘zbekiston xalqi bir burda nonini boshqalar bilan baham ko‘rdi. Xalqimizda “Do‘stlik barcha boyliklardan afzal”, “Arpa, bug‘doy bir kuningga yaraydi, sodiq do‘sting o‘lguningcha yaraydi”, “Do‘st achitib gapirar, dushman - kuldirib”, “Do‘st – do‘stning tayanchi”, “Do‘st – do‘stini kulfatda sinar”, “Do‘st yomon kunda bilinadi”, “Do‘stdan molini ayamagan, eldan jonini ayamas” kabi ko‘pgina maqollar borki, bularda do‘stlikni qadrlash masalasi ifodalangan. Eng yaxshi o‘lmas urf-odatlar bora-bora an’anaga aylanadi. Urf-odatlar odamlar turmushidagi ijtimoiy munosabatlarning barqaror bir turi sifatida namoyon bo‘ladi. Salomlashuv burchigasodiqlikbizdayaxshian’anagaaylanibqolgan.“Assalomualaykum – ham qarz, ham farz” maqoli zamirida burchga sodiqlik an’anasi yotadi. Salomlashuvda mehr-muhabbat, qadr-qimmat, oqibat kabi insoniy xislat aks etib turadi. Salom beruvchi va alik oluvchining qiyofasi shu an’anaviy odat orqali namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, an’analar, marosimlar va milliyurf-odatlar xalq xayotining tarkibiy bo‘lagidir. Ular o‘z mazmuni va shaklibilan zamonaga ham moslashib boraveradi. Urf-odatlarning ijtimoiyhayotda, yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda o‘rni beqiyosdir. Urf-odatlar,an’ana va marosimlarga o‘tmish avlodlarimiz va millatimiz ruhisingdirilgan bo‘ladi.

Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta’minlovchi shaxs shakllanadi. Etnik madaniyat, axloqiy-ma’naviy qadriyatlarimiz, urfodatlarimiz saqlanadi. Bilamizki, oila tarbiya o‘chog‘i bo‘lib, ma’naviy yetuk bo‘lsagina jamiyat tayanchiga aylanadi. O‘zbek oilalarida bolalarga yoshligidanoq milliy urf-odatlar, an’analar singdiriladi va shu omillar asnosida tarbiyalanadi. Yangi tavallud topgan bolaning qulog‘iga ota-obolarimiz avval mulla chaqirib azon ayttirganlar. Azon aytilganda

bolaning qulog‘i ochilgan, ismi ilk bor chaqaloqning o‘z qulog‘iga singdirilgan. So‘ng ularning chillasi – kichik chilla va katta chilla o‘tkaziladi. Qirq kunlik katta chillasichiqqandan so‘ng beshikka belash marosimi o‘tkaziladi. Tavallud topgan bosh farzand bo‘lsa, bozordan beshik sotib olishadi. Beshik ajdodlarimiz kashfiyotlari orasida alohida san’at darajasiga ko‘tarilgan. Bola bor joyda alla aytilishi tabiiy hol. Onalar qadimdan o‘z bolalari tepasida kecha kunduz alla aytib kelishgan. Alla insonda, ong qatlamlarida bir umr mungli, xazin, nurli qo‘shiq bo‘lib saqlanib qoladi. Qadimdan ota-bobolarimiz boshqa odatlar qatori ism qo‘yish odatini ham asrab-avaylab kelishgan. Ota-onalarning islomiy farzi o‘zfarzandlariga munosib ism topib qo‘yishdan iboratdir. Udumga ko‘raavvallari ism tug‘ilgan bolani qaysi urug‘dan, qanday sulolaning nechanchi avlodi ekanligi, uning tavallud topgan vaqti, joyi, bola tanasidagi alohida belgilarga qarab “kitob ko‘rib” qo‘yilgan. Qishloq yoki mahallaning keksa, o‘qimishli kishilari ism qo‘yish huquqiga ega bo‘lganlar.

Oila urf-odat, rasm-rusum hamda an’analarni saqlaydigan, shu bilan birga komil shaxs tarbiyalab jamiyatga qo‘shadigan makon. Oilada farzand katta bo‘lgani sayin jamiyatga qo‘shilib boradi. Shu bilan birga bir vaqtning o‘zida, farzandni ota-ona oldidagi burchini bajarish jamiyatga kerakli shaxs bo‘lish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning uchun ota-ona oila sharoitida milliy an’ana va rasm-rusumlarga tayangan holda voyaga yetayotgan bolaga va uning ongiga insoniy, tarbiyaviy, axloqiy fazilatlarni singdirib boradi. Ota-onalar bola tarbiyasida nihoyatda ehtiyot bo‘lishligi talab etiladi. Farzandlar tarbiyasida oilada milliylikni, milliy urf-odatlarni shakllantirish zarur. Biz bola tarbiyasida nihoyatda ehtiyot bo‘lishimiz darkor. Buning uchun biz asrlar davomida sayqallangan urf-odatlarimizga murojaat qilsak farzandlarimiz jahondagi eng noyob tarbiyali, ilmli farzandlardan bo‘lib yetishadi.

Bilamizki bizda hayo, ibo singari milliy an’analarimiz bor. Bunda biz oila muhitida otaga tik boqmaslikni, oila boshlig‘i kelmasdan oldin taom yeyilmasligi bundan tashqari bizning ko‘plab milliy urf-odatlarimizni jahon ahli xavas qilgudek qadriyatlarimiz mavjud. Shuning uchun biz oilada bola tarbiyalashda ana shunday urf-odatlarni chetlab o‘tmasligimiz zarur.

Farzand tarbiyasida ota-ona muhim ahamiyat kasb etadi. Agar oilada ona bosh maqomga ega bo‘lsa, bu oila milliylikdan umuman yiroq. Bizning odatlarimizga ko‘ra bosh maqom faqat otaga tegishli bo‘ladi. Modomiki oilada kattalarga hurmat kichiklarga izzatda bo‘linsa, bu oilada kamol topayotgan farzand ham hushxulqli, tarbiyali bo‘ladi. Oilaning jamiyatda tutgan o‘rni, tarbiyaviy axloqiy ahamiyati, qadr

qimmatini anglab yetmasdan mafkura yarata olmaymiz. Darhaqiqat, o‘zbek oilalarining barkamol avlodni tarbiyalashda o‘rni benihoya katta. Bu yerda asrlar davomida shakllanib kelgan milliy an’analar urf-odatlar, ota-onalar va bolalarning o‘zaro hamkorligi va hurmati qarindosh o‘zaro hamkorligi va hurmati qarindoshlarni bir-biriga yordam qo‘lini cho‘zishi, bolalar haqida g‘amxo‘rlik qilishda yoshlar uchun mustahkam ishonchli muhitni yaratilishi, oilaviy pokizalik talablarini saqlanishi kabi urf-odatlar o‘sib kelayotgan yosh avlod ma’naviyati va axloqi uchun negiziga aylandi, maishiy-madaniy turmushning asosiy tushunchalari va qoidalari xalqimizning urf-odatlari marosimlari va rasm-rusumlari mustahkam qo‘rg‘ondek saqlanib qoladi va avlodan-avlodga yetkazib beriladi.

“Kattaga hurmatda bo‘lish, kichikka izzatda bo‘lish” kabi an’anamizga aylanib ketgan milliy qadriyatimizda ham farzandlarga iborat bo‘ladigan ma’no yashirin. Ushbi ibratning amaliy ifodasini biz ota bobolarimiz, momolarimiz o‘zlaridan kichiklarga ham, hatto jajji bolakaylarga ham sen deb emas, ciz deb murojaat qilishganlarida, farzandlarga nisbatan alohida izzat-e’tibor namunalarini ko‘rsatishganlaridan bilamiz. O‘sib-unib kelayotgan jajji farzandlarga nisbatan bunday izzat-ikrom ajdodlarimizning oila ma’naviyatiga, bolalar tarbiyasiga qanchalik katta e’tibor qaratganligidan dalolat beradi.

Hammamizga yaxshi ma’lumki, farzand tarbiyasi masalasi azal-azaldan dolzarb ahamiyatga molik ish bo‘lib kelgan. Negaki, farzand – avlod davomchisi, ayni paytda, ota-onaning quvonch-u tashvishi, agarda yaxshi bo‘lsa, faxri va baxtidir. Agarda yomon bo‘lsa, ota-onaning ko‘rguligi va fojeasidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, farzand tarbiyasi har bir ota-onaga muhim va hal qiluvchi vazifalar yuklaydi. Demak, ota-ona farzandni moddiy ta’minlabgina qolmay, uni har tomonlama yetuk, sog‘lom,aqlli va barkamol qilib tarbiyalashi ham kerak. Buning uchun ota-onalardan nafaqat tug‘ma pedagog bo‘lish, balki xalq an’analarini ham yaxshi bilishi taqazo etiladi.

Oilada yoshlar tarbiyasini shakllantirishda diniy marosimlar ham o‘ziga xos o‘rnga ega. Marosim inson hayotida muhim hodisalar sodir bo‘lganida vujudga keladi va kishilar hayotidagi eng muhim voqyealarni (masalan, tug‘ilish, uylanish, o‘lim) qayd etadi, rasmiylashtiradi. O‘zbek oilalarida yosh oilalarni tarbiyalash uchun o‘ziga xos ma’naviy «zina» sifatida xizmat etadigan, chaqaloq tug‘ilgandan, to ulg‘ayib, yangi oila qurgungacha bo‘lgan hayotiy muhim voqyealarni qayd qiladigan marosimlar tizimi («Chaqaloq dunyoga kelishi», «Ism berish», «Chaqaloq chilla», «Beshik to‘y», «Soch to‘y», «Tish to‘y», Birinchi qadam», «Sunnat to‘y», «Muchal yosh», «Nikoh to‘y» kabilar) vujudga kelgan.

Bayramlar eng qadimiy davrlardan boshlab inson xayotining eng muxim va tarkibiy qismiga aylangan. Ularsiz insoniyat xayotini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bayramlar xalq xayotining eng yaxshi va go‘zal tomonlarini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Bayramlar insoniyat xayotida shu qadar muxim o‘rin egallaganki, ularni nishonlamaydigan xech bir shaxs, oila, jamoa topilmaydi. Shuningdek, har bir millat va elat, xalqning o‘z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlar mavjud. O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqining ham eng qadimiy davrdan shakllana boshlagan, asrlar bo‘yi avloddan avlodga o‘tib, kamol topib, bebaxo merosga aylangan bayramlari ko‘p.

Islom dinida asosan ikkita rasmiy diniy bayramlar mavjud. Katta bayram “Qurbon xayiti” (arabcha nomi- iyd al kabir”, “iyd al-adqo”) yetti kun, xozir uch kun nishonlanadi. Ushbu bayram xijriy zulxijja oyining 10-13 kunlarida va kichik bayram “гщza xayiti” (arabcha nomi “iyd as-saqir”, “iyd al –fitr”) ham uch kun –shavval oyning 1-3 kunlarida nishonlangan. Bu bayramning asosiy diniy yo‘nalishida –namozga qadar o‘qiladi. Nomoz o‘qish o‘lganlarni yod etib xudoyi, duo-i fotixa qilishlardan iborat. Islom dinida arafa kuni qo‘shnilarga osh ulashish, hayitlik berish, yaxshi maxsus liboslar kiyish, yaqinlar, kasallar, qariyalar va nochorlardan xabar olish islom dinining tarkibiy qismiga aylanib ketgan. Masjidlari O‘rta Osiyoda bayramlar nishonlash va o‘tkzishda markaz xisoblanadi. Ularning asosiy maqsadi – xalqni musulmon dini asosida birlashtirish bo‘lib, bu joylarda majlis, nomoz va qurbonlik kabi diniy anjumanlar uyushtirilgan. Ushbu diniy bayram kunlari o‘tkaziladigan tadbirlar orqali ota ona farzandlariga pokizalik, jamoaviylik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, shirinsuxonlik, o‘zaro hurmatkabi axloqiy fazilatlarni kamol toptiradi.

XXI asrdan boshlab, dunyo makonida jahon dinlari va konfessiyalarining mamlakatlararo ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida, shaxs va jamiyat aloqalarining rivojlanishida, shu jumladan, oila munosabatlarida jonlanish kuzatilmoqda. Xususan, islom dinining oila, shaxs va jamiyatda tutgan o‘rni va bajaradigan funksiyalari barchani qiziqtirmoqda. ―Bugungi kunda, - dedi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, - islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib borayotgani hyech kimga sir emas[15]. Haqiqatan ham, oilaning ijtimoiy guruh sifatida barqarorligini ta’minlash, islom ta’limoti va qadriyatlari asosida qurilgan oilalar nisbatan mustahkam bo‘lgani uchun ham unga qiziqish ortmoqda.

Oila qadriyatlari cheksiz bo‘lib, uning bosh mezoni yuksak ma’naviyatdir. Qadriyat o‘zbekona oilaning urf-odatlari, imon-e’tiqodi,

[15] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2006. – B. 36.

ishonchi, odob-axloqi, rasm-rusumlari maqomiga ega. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ma'naviy qadriyatlarning qudratli manbai oila va qarindoshlik munosabatlari odobida namoyon bo'lishiga e'tibor qaratib, oila muhitida paydo bo'ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash, har qaysi insonga xos bo'lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma'naviy olamini tashkil etadi[16], degan edi. Afsuski, bu qadriyatlarga sovet imperiyasi davrida jiddiy putur yetdi. Bundan tashqari xususiy tadbirkorlik ta'qiqlanishi: «Oilalar va urug'larning an'anaviy, kasbiy va iqtisodiy «o'rni» yo'qolishiga sababchi bo'ldi»[17].

O'zbek oilasiga asos bo'lgan sharqona milliy qadriyatlarning boshqa millatlar hayotida amal qilanayotgan qadriyatlarga o'xshash va farqli tomonlari mavjud. O'zbek xalqi ma'naviyatida ota-onaga hurmat, ehtirom, qarindoshlik, e'tiqodiga sodiqlik, millatiga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, mehribonlik kabi fazilatlar katta o'rin tutadi. Oilada bunday qadriyatlar ta'sirida tarbiya olgan yoshlar milliy mintalitetimizga xos an'analarni, nafaqat, davom ettiradilar, balki ularni yanada umuminsoniy qadriyatlar asosida boyitadilar.

Islomda milliy qadriyatlarning oila munosabatlarining rivojlanishiga hissa qo'shib kelayotgan tomonlari «mahr», «odat», «qalin», «aqiqa», «ijtimoiy himoya», «meros» kabi tushunchalarning mazmuni atroflicha tahlil qilish kerak. Jumladan, ayrim xalqlarda oila qurish va uning mustahkamligini ta'minlashda «mahr» va «qalin» belgilash holatlari mavjuddir. Islom ta'limotida mahr ayolning mulkidir, undan foydalanish faqat ayolning roziligi bilan bo'ladi. Er-xotin rishtalarini mustahkamlash maqsadida hozirgi davrning ba'zi yoshlari oila qurishda shartnomali nikoh shaklidan ham foydalanmoqdalar. O'zbek oilalarida oila qurishda qiz tomonga qalin berish odati bor. Bu odat islomdan oldin ham bo'lgan. Hozirgacha saqlanib kelingan qalin aslida turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan odatlardan[18] hisoblanadi. Ammo bu odat ba'zi tadqiqotlarda: «sut haqi», «kuyov sovg'asi», aksariyat hollarda esa, kelin liboslari va to'y xarajatlari uchun sarflanadi, deb asoslanmoqda. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): "Farzandlaringizga ta'lim bering, chunki ular sizniki bo'lmagan vaqt uchun tug'ilganlar", deb har bir ota-onani bolaning o'z zamonasi ilm-fani, ta'limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar. Oila munosabatlarida muomala madaniyati alohida o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, oiladagi ta'lim-tarbiyada shirinso'zlikning ahamiyati ham

[16] Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 52-53.

[17] Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б. 532.

[18] Jabborov I. O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – T.: O'qituvchi, 2003. – B. 90.

kattadir. Bu xususda Husayn Voiz Koshifiy: «Bilingki, odamzotning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir. So‘z hamma vaqt sabab uchun ishlatilishi to‘g‘ri va haqqoniy bo‘lishi kerak. Agar shunday bo‘lmasa, jim turgan ma’qul»[19], degan edi.

Oila munosabatlari va ma’naviyatini oshirishda ota-onalar go‘zal, shirin so‘zlar bilan o‘z madaniyatini, o‘z qadr-qimmatini namoyon qiladi. Oilada farzand nutqi qanchalik go‘zal bo‘lsa, bilimi qanchalik ortsa, ma’naviy saviyasi ham shunchalik yuksalib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 avgustdagi “Yoshlarning ma’naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori.

2. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent “O‘zbekiston” 2017-y. 1-tom asar.

3.Shoumarov G‘.B. tahriri ostida “Oila psixologiyasi” –T.: “Sharq”,. 2000 y.

4.Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. – T.: Oltin meros,1994. – B. 58.

O‘ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINING MA’NAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Dilmurod SHARIFOV,
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Tarixdan ma’lumki, axborotning maxfiylik darajasi juda muhim hisoblanadi va axborot uchun kata e’tibor va ahamiyat qaratib kelinadi. Shu sababli ham qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo‘llanilgan. Ulardan biri - sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o‘qiy olmagan. Asrlar davomida bu san’at - sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixona rezidensiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o‘n yil oldin hamma narsa tubdan o‘zgardi, ya’ni axborot o‘z qiymatiga ega bo‘ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi.

[19] Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy èxud javonmardlik tariqati. – T.: Oltin meros,1994. – B. 58.

ZJV5401

Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatishadi, sotadilar va sotib oladilar. Bulardan tashqari uni o‘g‘irlaydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug‘iladi. Axborotni qayta ishlash sanoatining paydo bo‘lishi axborotni himoyalash sanoatining paydo bo‘lishiga olib keladi.

Mamlakatimizda axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarning asosiy manbayi bu O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi hisoblanadi. Davlat va jamiyat hayotining eng muhim va istiqbolga mo‘ljallangan reja va oliy maqsadlari ham aynan asosiy qonunda belgilab qo‘yiladi. Jumladan, axborot va u bilan bog‘liq munosabatlar ham asosiy qonunimizning «Shaxsiy huquq va erkinliklar» bobida belgilab qo‘yilgan. Qolgan barcha axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlari asosiy qonunimiz bo‘lmish Konstitutsiyamiz asosida va unda belgilab qo‘yilgan normalarni mustaxkamlash uchun qabul qilingan. Davlat va jamiyatning eng muhim jabhalarini dastlabki tarzda tartibga soluvchi me’yoriy huquqiy hujjat hisoblanmish konstitutsiyamizning ko‘plab normalarida ham aynan axborot havfsizligining huquqiy jihatdan daslabki tarzda tartibga solinganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, konstitutsiyamizning 27, 29, 67 moddalaridagi normalar mamlakatimizdagi axborot sohasiga oid munosabatlarni tartibga soluvchi dastlabki bosh huquqiy manba, asos hisoblanadi. Axborot xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslari sifatida O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining 67-moddasini, ya’ni «Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi» 6 deb mustaxkamlangan normada ham axborot sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normani ko‘rishimiz mumkin. Ushbu norma orqali mamlakatimizda axborot bilan uzviy ravishda faoliyat olib boruvchi soha vakillarining va sektorlarning o‘zlari yig‘ayotgan, tarqatayotgan axborotlarining ishonchliligi va asoslanganligi, axborot va unga qo‘yilgan talab va me’yorlarga rioya qilinganligi uchun bevosita ma’suldirlar. Ya’ni uzatilayotgan axborot haqiqatga to‘g‘ri kelishligi va chinligi uchun ommaviy axborot vositalari bevosita javobgardirlar. Bundan tashqari konstitutsiyamizning 27 va 29-moddalaridagi quyidagi normalar ham axborot xavfsizligini bevosita ta’minlashga xizmat qiluvchi asosiy huquqiy norma hisoblanadi: “Hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibidan tashqari birovning turar joyiga kirishi, tintuv o ‘tkazishi yoki uni ko‘zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so ‘zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emas”, bu konstitutsiyaviy normada ham axborotning xavfsizligini ta’minlash

va fuqarolarning axborot sohasidagi xavfsizligini ximoya qiluvchi norma mustaxkamlangan.[1] 1993 yil 7- mayda qabul qilingan «Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida»gi qonunda ham axborotlarning, jumladan maxfiy hisoblanadigan axborot va sirlarning saqlanish tartibi belgilab qo‘yilgan. Ushbu qonunda ma’lumotlarning mahfiylik darajasini aniqlash va belgilash tartibi, O‘zbekiston Respublikasida maxfiylashtirilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxati, O‘zbekiston Respublikasining alohida tartibga bo‘ysunuvchi, alohida muhim va muayyan tartibga bo‘ysunuvchi obyektlar ro‘yxati; O‘zbekiston Respublikasida maxfiylikni saqlash tartibini ta’minlashga doir chora tadbirlar belgilab qo‘yilgan. Yuqoridagi konstitutsiyaviy normalarni rivojlantiruvchi va to‘ldiruvchi yana bir qancha qonun hujjatlarini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi har kimning axborotni erkin va moneliksiz olish hamda foydalanish huquqlarini amalga oshirishda, shuningdek, axborotning muhofaza qilinishi, shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi deyish mumkin». Ushbu qonunga ko‘ra axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi: shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash; axborot resurslarining tarqalib ketishi, o‘g‘irlanishi, yo‘qotilishi, buzib talqin etilishi, to‘sib qo‘yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish; axborotni yo‘q qilish, to‘sib qo‘yish, undan nusxa olish, uni buzib talqin etishga doir ruxsatsiz harakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish; axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash. Davlatning axborot xavfsizligini ta’minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta’minlashning asosiy va ajralmas qismi bo‘lib, axborotni muhofaza qilish esa davlatning birlamchi masalalariga, davlat siyosati darajasiga aylanmoqda. Davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinishini ta’minlashi shart. Axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi ularning mulkdorlari, egalari tomonidan mustaqil belgilanadi. Davlat sirlari hamda maxfiy sirlar to‘g‘risidagi axborotni o‘z ichiga olgan axborot resurslari va axborot tizimlarining muhofaza qilinadi.[2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi PQ-1989-son va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 16-sentyabrdagi 250-son Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Aloqa,

axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo‘mitasi huzuridagi Axborot xavfsizligini ta’minlash markazi tashkil etilgan

Markazning asosiy vazifalari:

• «Elektron hukumat» tizimi axborot tizimlari komplekslari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining axborot xavfsizligini ta’minlash;

• amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq «Elektron hukumat» tizimini joriy etish doirasida axborotlashtirish ob’ektlarini attestatsiyadan o‘tkazish;

• davlat organlarining axborot tizimlari va resurslari axborot xavfsizligi siѐsatini ishlab chiqish va amalga oshirishga ko‘maklashish;

• axborot xavfsizligiga hozirgi vaqtdagi tahdidlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va to‘plash, «Elektron hukumat» tizimi axborot tizimi, resurslari va ma’lumotlar bazalariga noqonuniy kirib olish holatlarining oldini olishni ta’minlaydigan tashkiliy va dasturiy-texnik echimlarni samarali qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish;

• «Elektron hukumat» tizimining axborot tizimlari, resurslari va ma’lumotlar bazalarining, shuningdek Internet tarmog‘i milliy segmentining axborot xavfsizligini ta’minlash sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

• telekommunikatsiyalar tarmoqlarining operatorlari va provayderlari bilan hamkorlik qilish, davlat organlarining kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi qonun buzilishlarining oldini olish masalalari bo‘yicha birgalikdagi ishlarini tashkil etish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;

• Internetning milliy foydalanuvchilarini Internet tarmog‘i milliy segmentida axborot xavfsizligiga paydo bo‘laѐtgan tahdidlar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish, shuningdek axborotlarni muhofaza qilish bo‘yicha konsultatsiya xizmatlari ko‘rsatish;

• qonun buzuvchilarni tahlil qilish, identifikatsiyalashda, axborotlar makonidagi ruxsatsiz ѐxud buzuvchi harakatlarni amalga oshirishda foydalaniladigan metodlar va vositalarni tahlil qilishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish;

Axborot resurslari va axborot tizimlari muhofaza qilinishini tashkil etish tartibi ularning mulkdorlari, egalari tomonidan mustaqil belgilanadi. [3].Tashkilotda axborot xizmatini tashkil etish va faoliyatini yo‘lga qo‘yishda uning huquqiy asoslari g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot xizmatining huquqiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasi qarorlari tashkil etadi. Aytish joizki, mamlakatimizda jamoatchilik bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish va shu maqsadda tashkilotlarda axborot xizmatlarini tashkil

etishda dastlab Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 22-sentyabrda qabul qilingan “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan aloqalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 203-qarori muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilgandi. Qarorda, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatining oshkoraligini ta’minlash, keng jamoatchilik va aholining O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning borishi to‘g‘risida muntazam xabardor qilish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizatsiyalashning, oshkora fuqarolik jamiyati qurishning muhim yo‘nalishi hisoblanishi qayd etilgan holda, “Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, agentliklar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, xo‘jalik boshqaruvi organlari (keyingi o‘rinlarida idoralar deb yuritiladi) tarkibida xodimlarning umumiy soni doirasida axborot xizmatlari tashkil etilsin” deb belgilangan.[4].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, zamon taraqqiy etgan sari jamiyatda axborotga bo‘lgan talab va ehtiyoj ham ortib bormoqda, ayniqsa, axborot texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi axborotlar hajmining ham ortib borishiga xizmat qilib kelmoqda. Bu kabi axborotlar ichida ma’lum ma’noda himoyani, mahfiylikni va sir saqlanishini talab etadiganlari ham bo‘ladi, negaki, bu toifadagi ma’lumotlarning oshkor bo‘lishi, o‘g‘irlanishi yoki yo‘q qilinishi, kiber hujumga uchrashi kabi holatlar davlat va fuqarolar, tashkilotlar uchun katta talofotlarni, moliyaviy yoki moddiy zararlarni olib kelishi mumkin. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun esa qanday soha bo‘lmasin albatta, axborot xavfsizligini, uning himoyasi va muhofazasini amalga oshirishi lozim. Axborot xavfsizligi bo‘yicha har bir rahbar va mutaxassislar tashkilot faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va tashkilotda yetarli darajada axborot xavfsizligini ta’minlashda amaliy chora va tadbirlarni ko‘rishlari darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. «O‘zbekiston» 2020 yil. 12-bet.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida» gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, - 1993-yil.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida» gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2004-yil.

4. https://kompy.info/-o‘zbekistonda-axborot-xavfsizligining-manaviy-va-huquq.html.

ZJV5401

VIRTUAL O‘YINLAR VA BUGUNGI DUNYOQARASHNING SHAKLLANISHI

Isomiddin SUYUNOV,
ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti talabasi

Videoo‘yinlarning tajovuzkorlikka ta’siri katta munozaralar va tadqiqotlar mavzusi bo‘ldi. Ushbu bo‘limda video o‘yinlarga ta’sir qilish va yoshlarda tajovuzkorlikning kuchayishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan tadqiqotlar haqida umumiy ma’lumot berilgan.

Ko‘plab empirik tadqiqotlar zo‘ravonlik video o‘yinlari va tajovuz o‘rtasidagi munosabatni o‘rganib chiqdi. Korrelyatsion tadqiqotlar zo‘ravon video o‘yinlarga ta’sir qilish va tajovuzkorlikning kuchayishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlagan bo‘lsa-da, korrelyatsiya sababini anglatmasligini ta’kidlash muhimdir. Boshqa tomondan, eksperimental tadqiqotlar o‘yin mazmunini manipulyatsiya qilish va keyingi tajovuzkor xatti-harakatlarni o‘lchash orqali sabab-oqibat munosabatlarini o‘rnatishga harakat qildi. Bunday tajribalarning natijalari aralashtiriladi, ba’zi tadqiqotlar tajovuzkorlikning qisqa muddatli o‘sishini ko‘rsatadi, boshqalari esa sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi[1].

Videoo‘yinlar tajovuzkorlikka ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan potentsial mexanizmlarni tushunish uchun tadqiqotchilar bir nechta nazariyalarni taklif qilishdi. Bunday nazariyalardan biri umumiy tajovuzkorlik modeli (GAM) bo‘lib, u zo‘ravon ommaviy axborot vositalariga, jumladan, video o‘yinlarga ta’sir qilish tajovuzkor fikrlar, his-tuyg‘ular va fiziologik qo‘zg‘alishning faollashishiga olib kelishi va shu bilan tajovuzkor xatti-harakatlar ehtimolini oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, odamlar video o‘yinlarda kuzatadigan tajovuzkor xatti-harakatlarga taqlid qilishlari mumkinligini ta’kidlaydi, ayniqsa, agar bu xatti-harakatlar mukofotlangan yoki ijtimoiy jihatdan maqbul deb ko‘rsatilsa[2]. Video o‘yinlarning tajovuzga salbiy ta’sirini yumshatishda ota-onalarning ishtiroki va tartibga solinishi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-ona nazorati, o‘yindan foydalanishga cheklovlar qo‘yish va video o‘yinlarning mazmuni va oqibatlari haqida munozaralarda qatnashish tajovuzkor xatti-harakatlar ehtimolini kamaytirishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash, hamdardlik va istiqbolga ega bo‘lishni rag‘batlantiradigan ota-onalar vositachiligi strategiyalari, shuningdek, video o‘yinlardagi tajovuzga nisbatan yoshlarning munosabati va xatti-harakatlarini shakllantirishda samarali bo‘lishi mumkin[3].

Ijtimoiy xulq-atvor deganda boshqalarga yoki umuman jamiyatga foyda keltirish uchun mo‘ljallangan harakatlar tushuniladi. Ushbu bo‘lim video o‘yinlarning yoshlarning ijtimoiy xulq-atvoriga, jumladan empatiya, hamkorlik va yordam berish xulq-atvoriga ta’sirini o‘rganadi. Video o‘yinlar va ijtimoiy xulq-atvor o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganuvchi tadqiqotlar aralash natijalar berdi. Ba’zi tadqiqotlar prosotsial video o‘yinlarga ta’sir qilish va empatiya, altruizm va hamkorlikdagi xatti-harakatlar o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik borligini aniqladi. Ushbu o‘yinlar ko‘pincha jamoaviy ish, hamkorlik va o‘yin kontekstida boshqalarga yordam berishni o‘z ichiga oladi. Biroq, boshqa tadqiqotlar video o‘yin o‘ynash va ijtimoiy xulq-atvor o‘rtasida izchil aloqani o‘rnata olmadi. Video o‘yinlar va ijtimoiy xulq-atvor o‘rtasidagi munosabatlarga bir qancha omillar vositachilik qilishi mumkin. O‘yin mazmuni, mexanika va kontekst video o‘yinlarning ijtimoiy ta’sirini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun, axloqiy qarorlar qabul qilish, ijtimoiy o‘zaro munosabatlar va ijobiy rol modellarini ta’kidlaydigan o‘yinlar ijtimoiy xulq-atvorni rivojlantirishga yordam beradi. O‘yin qahramonlari bilan aloqadorlik va identifikatsiya darajasi ijtimoiy xulq-atvorning real hayot sharoitlariga o‘tkazilishiga ham ta’sir qilishi mumkin[4].

Videoo‘yinlar ko‘pincha yoshlarga virtual jamoalarda boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. Ushbu ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar ijtimoiy ko‘nikmalar, jamoaviy ish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, onlayn multiplayer o‘yinlari umumiy maqsadlarga erishish uchun o‘yinchilardan hamkorlik qilish va samarali muloqot qilishni talab qilishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, video o‘yinlardagi ijobiy ijtimoiy tajribalar ijtimoiy xulq-atvorga va o‘yin muhitidan tashqarida yaxshilangan ijtimoiy kompetentsiyaga aylanishi mumkin[5].

Fantaziya inson tasavvuri va ijodining ajralmas qismidir. Videoo‘yinlar yoshlarga immersiv va xayoliy tajribalar bilan shug‘ullanish uchun noyob platformani taqdim etadi. Ushbu bo‘lim video o‘yinlarning yoshlarning fantaziya rivojlanishiga, jumladan, ijodkorlik, tasavvur va kognitiv qobiliyatlariga ta’sirini o‘rganadi. Ushbu immersiv tajriba ijodkorlikni namoyon etish va hikoya qilish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Ko‘pgina videoo‘yinlarda jozibali hikoyalar va hikoya qilish texnikasi mavjud. Ushbu hikoyalar bilan shug‘ullanish orqali yoshlar murakkab hikoya tuzilmalarini tushunish, xarakterni rivojlantirish va tematik izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. O‘yinchilarni hikoya chizig‘iga ta’sir qiladigan tanlov qilishga undaydigan video o‘yinlar agentlik tuyg‘usini rivojlantirishi va o‘yin dunyosida shaxsiy tajribalarni o‘tkazish imkonini beradi[6].

ZJV5401

Videoo‘yinlar o‘rganish tajribasini yaxshilaydigan qimmatli ta’lim vositalari sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. Ushbu bo‘limda video o‘yinlarning potentsial ta’lim foydalari, jumladan, muammolarni hal qilish ko‘nikmalari, kognitiv moslashuvchanlik, motivatsiya va bilimlarni egallash o‘rganiladi. Ko‘pgina video o‘yinlar o‘yinchilardan muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan murakkab muammolar va jumboqlarni boshqarishni talab qiladi. O‘yinchilarga tahlil, strategiya va mantiqiy fikrlashni talab qiladigan to‘siqlarni taqdim etish orqali video o‘yinlar yoshlarning tanqidiy fikrlash, bosim ostida qaror qabul qilish va muammolarni hal qilish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyatini oshirishi mumkin. Video o‘yinlarning o‘ziga xos jihatlaridan biri bu ularning yoshlar e’tiborini jalb qilish va ularni ushlab turish qobiliyatidir. Mukofotlar, qiyinchiliklar va taraqqiyotni kuzatish kabi o‘yin mexanikasi muvaffaqiyat hissi va o‘ynash va o‘rganishni davom ettirish uchun motivatsiyani kuchaytirishi mumkin. Video o‘yinlar dinamik va interaktiv ta’lim muhitini ta’minlashi mumkin, bu esa yoshlarni o‘z ta’lim ishlarida faol ishtirok etishga va qat’iyatli bo‘lishga undaydi. Ko‘pincha «jiddiy o‘yinlar» deb ataladigan ta’lim o‘yinlari maxsus tushunchalar, ko‘nikmalar yoki sohalarni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan. Bu o‘yinlar matematika, tabiatshunoslik, tarix va til o‘rganish kabi turli mavzularni qamrab olishi mumkin. Ta’lim mazmunini o‘yin jarayoniga integratsiyalashgan holda, video o‘yinlar yoshlarning bilimini saqlab qolish va tushunishni kuchaytirishi mumkin[7].

Gamifikatsiyalangan o‘rganish yondashuvlari qiziqarli va immersiv o‘rganish tajribasini yaratish uchun o‘yin dizayni elementlarini ta’lim mazmuni bilan birlashtiradi. Balli tizimlar, peshqadamlar jadvali va nishonlar kabi o‘yinlashtirish usullari yoshlarni o‘quv faoliyatida faol ishtirok etishga va ularning taraqqiyotini kuzatishga undashi mumkin. Qiyosiy tadqiqotlar an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan video o‘yinlarning ta’lim afzalliklarini baholashi mumkin. Bundan tashqari, ta’lim natijalariga ta’sir qiluvchi optimal dizayn tamoyillari, o‘qitish strategiyalari va individual farqlarni o‘rganish o‘quv video o‘yinlarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. Video o‘yinlarning ta’lim afzalliklaridan foydalanish uchun o‘qituvchilar va o‘yin ishlab chiquvchilari yuqori sifatli ta’lim o‘yinlarini loyihalash va o‘quv dasturlariga integratsiya qilishda hamkorlik qilishlari mumkin. Ta’lim maqsadlari va standartlariga mos keladigan o‘yinga asoslangan o‘rganish tajribasini o‘z ichiga olish talabalarning motivatsiyasini, faolligini va bilimlarni egallashini oshirishi mumkin.

Videoo‘yinlar orqali samarali va mazmunli o‘rganish tajribasini yaratish uchun o‘yin-kulgi va ta’lim qiymati o‘rtasidagi muvozanatni saqlash juda muhimdir[8]. Videoo‘yinlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylandi va ularning rivojlanish va xulq-atvorning turli jihatlariga ta’siri keng ko‘lamli tadqiqotlar va muhokamalar mavzusiga aylandi. Ushbu maqola tajovuzkorlik, ijtimoiy xulq-atvor, fantaziya va ta’lim afzalliklariga e’tibor qaratib, video o‘yin effektlarining turli o‘lchamlarini o‘rganib chiqildi.

Videoo‘yinlarning yoshlarning tajovuzkorligiga ta’siri aralash xulosalar bilan murakkab masala. Ba’zi tadqiqotlar zo‘ravonlik video o‘yinlariga ta’sir qilish va tajovuzkorlikning kuchayishi o‘rtasidagi potentsial bog‘lanishni taklif qilsa-da, individual farqlarni va natijalarni shakllantirishda ota-onalar vositachiligining rolini hisobga olish muhimdir. Video o‘yinlarning turli ta’sirlarini hisobga olish va hamma o‘yinlar bir xil ta’sir ko‘rsatmasligini tan olish kerak. O‘yin mazmuni, mexanika va kontekst natijalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, video o‘yinlarning ta’sirini o‘rganishda yosh, shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy kontekst kabi individual farqlarni hisobga olish kerak.

Videoo‘yinlar salohiyatidan foydalanish uchun manfaatdor tomonlar, jumladan, ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘yin ishlab chiquvchilari mas’uliyatli va foydali o‘yin tajribasini yaratish uchun hamkorlik qilishi mumkin. Ota-onalar ishtiroki, mas’uliyatli o‘yin tanlash va ochiq muloqot yoshlarni o‘yin odatlariga yo‘naltirishga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘quv natijalari va faolligini oshirish uchun yuqori sifatli ta’lim o‘yinlarini o‘quv dasturlariga kiritishlari mumkin. O‘yin ishlab chiquvchilari ijtimoiy xulq-atvorni, xayoliy tajribani va ta’lim qiymatini targ‘ib qiluvchi o‘yinlarni loyihalashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Global Games Market Report,» Newzoo, 2021, https://newzoo.com/insights/articles/global-games-market-report-2021-light-version/

2. Anderson, C. A., & Bushman, B. J. (2001). Effects of violent video games on aggressive behavior, aggressive cognition, aggressive affect, physiological arousal, and prosocial behavior: A meta-analytic review of the scientific literature. Psychological Science, 12(5), 353-359.

3. N. D. Bowman et al., «The Effects of Video Game Play on Young Children’s Aggression, Fantasy, and Prosocial Behavior» Journal of Applied Developmental Psychology 23, no. 3 (2002): 374-92.

4. Scott, M. G., & Alper, M. (2019). The relationship between social

and solitary video game play and mental health outcomes. Journal of Health Psychology, 24(3), 308-319

5. Steinkuehler, C. (2006). Massively multiplayer online games (MMOs) in the new media classroom. Journal of Educational Multimedia and Hypermedia, 15(1), 5-31.

6. Sherry, J. L. (2004). Flow and media enjoyment. Communication Theory, 14(4), 328-347.

7. J. Williams and Y. Guo, «The Benefits of Playing Video Games» American Psychologist 69, no. 1 (2014): 66-78.

8. Griffiths, M. (2002). The educational benefits of videogames. Education and Health, 20(3), 47-51.

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI MA'NAVIY TAHDIDLARDAN YOSH AVLODNI HIMOYA QILISHNING SAMARALI VA TA'SIRCHAN USULLARI

Xo'jamqul DAVRONOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Nishon tuman bo'linmasi rahbari

Mamlakat taraqqiyoti farzandlarning yurtiga bo'lgan muhabbati va sadoqati bilan belgilanadi. Vatanparvar, bilimli insonlar bugun dunyo ro'baro' bo'layotgan balo-qazolar - terrorizm, ekstremizm, odam savdosi, ommaviy madaniyat, ma'naviy, mafkuraviy-axborot xurujlari, bir so'z bilan aytganda, jaholat ta'siriga tushmaydi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev bu haqda shunday dedilar: *"O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalombor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tayyorlashimiz kerak. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql – zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir".* Masalaning dolzarbligi ham ana shunda.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi globallashuv davrida yosh avlodning turli xil tahdidlardan himoya qilish va ularda mafkuraviy immunitet hamda

axborot iste'mol madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Ko‘plab tadqiqotchilar muammoning yechimini topish maqsadida turli yo‘nalishlar va yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borganlar. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov hamda O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlarida ham masalaning yechimi ko‘rsatib berilgan. Ayniqsa, olimlar Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, A.To‘lepov, G‘.Xotamov, M.Yahyo kabi qator tadqiqotchilar risolalarida muammoning dolzarbligi va virtual mafkuraviy tahdidlarning oldini olish yo‘llari haqida so‘z yuritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada yoshlarni bilimli qilish hamda turli virtual tahdidlar haqida bor haqiqatni ma'lum qilish orqali ma'naviy, mafkuraviy, psixologik va axborot xurujlarga qarshi kurashish yo‘llari va usullari muhokama qilinadi. Ayniqsa, "Taqqoslash" va "Qiyoslash" usullari orqali virtual tajovuzlarni inson ongi va qalbiga yetkazadigan zararlarni ko‘rsatib berish mumkin.

Tahlil va natijalar. Mamlakat Prezidenti jaholatga qarshi kurashish uchun ma'rifat mexanizmi g‘oyasini ilgari surar ekan, eng avvalo, yosh avlodda mafkuraviy immunitetni shakllantirish zaruriyati taqozo qilinayotganini ta'kidlagan. Ya'ni, Prezident iborasi bilan izohlaganda *"yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir"*. Yanada sodda qilib aytganda, global axborot tarmog‘i orqali yog‘ilib kelayotgan ma'naviy- mafkuraviy va ruhiy xurujlardan faqat va yana faqat bugungi yoshlar bilim, ma'naviyat bilan va oqni qoradan ajratib himoyalanishi mumkin.

Buning uchun birinchi navbatda, o‘z farzandlarimizni o‘zimiz tarbiyalashimiz, har bir ota-ona bola tarbiyasi bilan jiddiy shug‘ullanishimiz, boz ustiga farzandlarimizni ilm bilan "qurollantirishi" ayni muddaodir.

Ikkinchidan, jamoatchilik, imom-xatiblar, mahalla yettiligi, nuroniylar, xotin-qizlar, faollar, barcha-barcha hududimizdagi har bir bolaga nisbatan o‘z e'tiborini ayamasdan, doimo bu borada ogoh bo‘lishi va uni g‘arazgo‘y kimsalar qo‘liga berib qo‘ymasligi, noto‘g‘ri yo‘ldan qaytarishi lozim. Prezident ta'biri bilan aytganda, *"ana shu yo‘nalishda shakllangan tizim samaradorligini yanada oshirishimiz, ayniqsa, diniy masalalar bilan bevosita shug‘ullanadigan hokim o‘rinbosarlari, mutasaddi tashkilotlar mas'uliyatini yanada kuchaytirishimiz zarur. Xususan, mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, imom-xatiblar, diniy-axloqiy masalalar bo‘yicha maslahatchilar, yoshlar, xotin-qizlar tashkilotlari faollari - barcha-barchamiz birgalikda ish olib borishimiz lozim"*. Aniqroq qilib aytganda, ish ana shunday mustahkam hamkorlikda

hamda befarq bo‘linmasdan risoladagidek tashkil etilsa, fuqarolarimiz diniy ekstremizm g‘oyalari va ma’naviy-mafkuraviy tahdidlar ta’siriga tushmaydi.

Uchinchidan, biz farzandlarimizda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishimiz darkor. Chunki kitob o‘qigan boladan hech qachon yomonlik chiqmaydi yoki u jinoyat ko‘chasiga kirib qolmaydi. Achchiq bo‘lsa ham tan olish kerakki, terrorchilar safiga qo‘shilib qolganlar ham, odam savdosi qurboniga aylanganlar ham, jinoyat botqog‘iga botganlar ham, ommaviy madaniyat targ‘ibotchilari ham bu eng avvalo, bilimsiz hamda kitob o‘qimagan johil kimsalardir. Jaholatning ham lug‘aviy ma’nosi ilmsizlik ekanligidan kelib chiqsak, Prezident Shavkat Mirziyoev aytmoqchi, bu illatning birdan bir davosi bu - ilm-ma’rifatdir. Shuning uchun bugun bolalarimiz lozim darajada ta’lim-tarbiya ko‘rsa, dunyoviy va diniy bilimlarni o‘zlashtirsa, nima yaxshi va nima yomonligini ajrata olsa, komil inson bo‘lib ulg‘aysa, qarabsizki bunday insonlar hech qanday qora kuchlar ta’siriga tushmaydi.

Biroq, har narsaning yaxshi va yomon tarafi bo‘lganidek, so‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarning ham jiddiy xatarlari – jaholat yuzaga chiqmoqda. Bu haqda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ijtimoiy odoblar” kitobida shunday degan: *“Shu bilan birga internetga bog‘liq muammolar ham ko‘payib va jiddiylashib bormoqda. Barcha sohalardagi kabi, internetning foydalari muqobilida zararlari ham ko‘payib bormoqda.*

Internetda foydali ma’lumotlar bilan bir qatorda zararli, buzuq ma’lumotlar ham tarqalmoqda. Aqidaga putur yetkazuvchi, fohishabozlik va behayolikni targ‘ib qiluvchi, axloqsizlikni tarqatuvchi va shunga o‘xshash inson zotiga or keltiruvchi ishlarni targ‘ib qiladigan saytlar ko‘payib bormoqda. Ba’zi odamlar internet orqali bir-biriga tuhmat qilmoqda, haqoratlab, so‘kishmoqda, bir-birini sharmanda qilmoqda va hakazo. Aynan internet orqali nafaqat axloqiy buzuqliklar, balki siyosiy, ijtimoiy, moliyaviy, ilmiy va boshqa ko‘pgina sohalarda ham jinoyatlar sodir etilmoqda. Qo‘pol qilib aytganimizda, internet mazkur qabohatlarni amalga oshirishni osonlashtirmoqda”. Aytib o‘tilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, internet ham ikki taraflama – ham yaxshilikka, ham yomonlikka xizmat qilishi mumkin manbaga aylandi. Bizning vazifamiz uni yaxshilikka xizmat qildirib, yomonlikka boshlamaslik choralarini ko‘rish, uning zararlaridan chetlanishga harakat qilishdir.

Shuning uchun ham bugungi kunda xalqimiz, xususan yoshlarni ana shunday xatarlardan ogoh etish har bir ziyoli, ma’rifatparvar insonning eng dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda. Zotan, mamlakat Prezidentining

“Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida ta’kidlanganidek, *“aholining Internet xalqaro axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish lozim”*. Hozirgi globallashuv davrida eng asosiy muammoga aylangan illatlardan biri – yolg‘on axborotdir. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda turli asossiz ma’lumotlarni tarqatish, turli bo‘htonlar va uydirmalarni urchitish holatlari ko‘plab uchramoqda. Ayrim soddadil musulmonlar mana shunday uydirmalarga ishonib, yolg‘on va bo‘htonga sherik bo‘lib qolmoqdalar. Alloh taolo Qur’oni karimda shunday deydi. ya’ni: **“Ey, mo‘minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat yetkazib qo‘yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo‘lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko‘ringiz!”** (Hujurot surasi 6-oyat). Odamlardan eshitgan narsasini surishtirmay gapiraverish gunoh ekaniga quyidagi hadis ham yaqqol dalil hisoblanadi. Bu borada Payg‘ambarimiz alayhissalom: ya’ni: *“Kishiga gunoh bo‘lishi uchun eshitgan narsasini gapirishining o‘zi kifoyadir”*, – deganlar (Imom Muslim va Imom Abu Dovud rivoyati). Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf iborasi bilan aytganda, *internetdagi imkoniyatlar ko‘payib ketganini ba’zilar siiste’mol qilishga o‘tishgan, yolg‘on xabarlar, suratlar va videolavhalar tarqatishga odatlanishgan. Bunda o‘z maqsadiga erishish ham, odamlarni mayna qilish ham, yaxshilikka chaqirish niyati ham bo‘lishi mumkin. Ammo nima bo‘lganda ham, buni qilmaslik kerak. Islomda bu kabi ishlar qattiq qoralanadi.*

Misol uchun, Qur’oni karimni behurmat qilgani uchun qiyofasi o‘ta jirkanch holatga o‘zgarib qoldi, deya bir qizning surati e’lon qilindi. Bunday bo‘lishi mumkin emas. Ehtimol bu narsa sodda odamlarga ta’sir qilishi mumkin. Lekin Qur’oni karim bu kabi “yordam”larga muhtoj emas. Shuning uchun ham soxtakorlik ila to‘qilgan mazkur xabar ulamolar tomonidan qoralandi. Qur’oni karimni ehtirom qilish kerakligini o‘z yo‘li bilan tushuntirish lozim.

Shuningdek, internet orqali go‘yo Ka’bai Muazzama ustida uchib yurgan farishtalarning videolavhasi ham tarqatildi. Bu ham yolg‘ondan, soxtakorlik bilan to‘qilgan narsa. Farishtalar doimo hamma yerda mavjudligiga barcha musulmon ummati iymon keltiradi. Ammo ularni videoga olishga iymon keltirishmagan. Bu shart ham emas. Agar ushbu narsaning keragi va foydasi bo‘lganida, avvaldan aytilgan bo‘lardi. Farishtalarga g‘aybdan iymon keltirishning o‘ziga xos hikmati bo‘lgani uchun, Alloh taolo bandalaridan aynan shuni talab qilgan.

Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siridan butun millat, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni himoya qilish har bir ongli insonning muqaddas burchi ekanini ta'kidlash lozim. Yoshlar o'rtasida internet tarmog'idan foydalanishning suiiste'mol qilinishi oqibatida turli ko'ngilsizliklar, oilasiga xiyonat, fahsh suratlar va kinolarni tomosha qilish, yuzdan hayo pardasining ko'tarilishi kabi noxush holatlar ko'paygani kuzatilmoqda. Bular hammasi oilalar tinchligiga rahna solmay qolmaydi. Agar bu kamchilik vaqtida tuzatilmas ekan, oilaviy ajralishlar soni yanada ko'payish xavfi kattadir.

Albatta, inson u yoki bu axborotni eshitar ekan, adashmasligi uchun hech bo'lmaganda: "Bu axborotni kim uzatayapti?", "Qanday maqsadda uzatyapti?" degan savollarni, avvalo, o'ziga berishi, ularga asosli javob topishga harakat qilishi kerak". Alohida ta'kidlash joizki, Muhammad Amin Yahyoning "Internetdagi tahdidlardan himoya" kitobida yozilishicha, *internetda kishilarning sha'niga, obro'-izzatiga tegadigan videolavhalar yoki suratlarni tomosha qilish yohud ularning shaxsiy hayotlariga tegishli ma'lumotlarni o'g'rincha bilishga harakat qilish, ularni yoyish inson haq-huquqlarini buzishdir. Bu to'g'rida Qur'oni karimda shunday deyiladi: "Ayting: "Rabbim, albatta, fahsh ishlarning oshkorayu pinhonasini, gunoh(ishlar)ni, nohaq tajovuzkorlikni va Alloh hech qanday hujjat tushirmagan narsa(lar)ni Unga sherik qilishingizni hamda Allohning sha'niga o'zingiz bilmagan narsalarni gapirishingizni harom qildi"* (A'rof, 33).

So'nggi yillarda internet siyosiy kurashlar maydoni, turli xil manfaatlarning kuchli quroliga ham aylanib bormoqda. Har qanday to'siq, cheklov va taqiqlarni aylanib o'tishga moslashtirilgan ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda chinakamiga jilovlab bo'lmas kuchga aylandi. Terrorchi to'dalar, adashgan firqalar va boshqa buzg'unchi kuchlar ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan keng foydalangan holda odamlarni, ayniqsa yoshlarni to'g'ri yo'ldan adashtirib, ulardan o'zlarining manfur maqsadlari yo'lida foydalanib, ayrim jamiyatlarda nifoq chiqarib hamda eng achinarlisi urush olovini yoqishga urinishmoqda va bunga ma'lum ma'noda erishishmoqdalar ham. Bunga yaqin tarixdagi "Arab bahori" deb nom olgan arab davlatlaridagi ziddiyatlar yaqqol misol bo'ladi.

Turli oqimlar o'zlarining manfur qarashlarini yoshlar ongiga singdirish uchun ijtimoiy tarmoqlardan keng ko'lamda foydalanmoqdalar. Bu ham yoshlar, umuman, dindan, diniy ma'rifatdan yaxshi xabardor bo'lmagan kishilarni sof aqidadan og'ib ketishiga, fiqhiy mazhablar borasida noto'g'ri fikr va tushunchalar shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Avvalo shuni aytish kerakki, islom ulamolari yosh avlodga ilmlarni tartib bilan o'rgatishga

alohida e'tibor berganlar. Ilmni o'rganish – dinni o'rganishdir! Ilmsiz odam hech qachon dinning maqsadini anglolmaydi. Qolaversa, diniy ilmlarni va fatvo olishda shaxsiyatlar muhimdir. Internet orqali, ijtimoiy tarmoqlar orqali dindan, shariatdan gapirayotgan, lekin aslida kimligi ham, kimdan ta'lim olgani ham noma'lum. Kelib chiqishi noma'lum kimsalardan din olinmaydi. Chunki, fatvo bu – din demakdir. Shariatga ko'ra esa uni kim yetkazayotgani muhimdir. Shuning uchun mashhur tobein Muhammad ibn Siyrin rahmatullohi alayhi: *"Bu ilm – dindir. Dinlaringizni kimdan olayotganingizga qaranglar"*, – deganlar (Imom Muslim rivoyati). Holbuki, terrorchilar o'zlariga tegishli veb-sahifa va ijtimoiy tarmoqlarda "shahidlik", "jihod", "hijrat", "takfir", "xalifalik" kabi tushunchalarni buzib talqin qilishi natijasida ayrim yoshlarni o'zlarining tuzoqlariga ilintirishga muvaffaq bo'lishayotgani achinarli hol, albatta.

Muhammad Amin Yahyo ta'biri bilan aytganda, bugungi kunda odamlarning ijtimoiy tarmoqlarda shiddat bilan suhbatdosh izlashi zamonamiz avlodiga xos ahmoqlikning yangi turidan boshqa narsa emas. Virtual olamda yoshlarning qancha faolligiga qarab, ularning fe'l-atvoriga baho bersa bo'ladi. Binobarin, tajribasiz, hali oqu qorani ajrata olmaydigan o'quvchi kiber do'stlariga shaxsiy hayoti, o'y-kechinmalari, o'tmishi, kelajagi haqidagi barcha ma'lumotlarni, sirlarini ishonib aytaveradi. Ularning daldasi, shirin aldovlari, soxta mulozamatlari kun sayin uni internet bilan mustahkamroq bog'laveradi. Borib-borib u internetsiz yashay olmay qoladi. Bu esa o'z navbatida g'arazgo'y kuchlarning virtual olamdagi zararli suhbatlari ta'siriga bilim saviyasi past va g'o'r yoshlarning tushish xavfini tug'diradi. Gap shundaki, bunday suhbatlar ta'siridagi yoshlar moddiy rag'batlarga berilib, turli buzg'unchi oqimlar nog'orasiga o'ynashi hech gap emas.

Xulosalar. Xo'sh, ongimiz va qalbimizni ishg'ol qilishga qaratilgan ma'naviy xurujlardan qanday himoyalanamiz? Internetdan foydalanishda va muloqot jarayonlarida qat'iy odob-ahloq qoidalariga rioya qilish himoyalanish choralaridan biridir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, internetdagi jaholat ko'rinishlariga qarshi faqat bilim, tarbiya va ahloq odob, ya'ni ma'rifat bilan kurashish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur.-T.: "Toshkent islom universiteti" NMB, 2009.-B.617.

2.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat,

2008.-B.176.

3.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar. T.:Hilol-nashr, 2012.-B.456.

4. Islom ensiklopediyasi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” DIN, 2004.-B.320.

5.Shermuhammedov K. Jaholat to‘ri.-T.: “Toshkent islom universiteti” NMB, 2010.-B.68.

6. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. T.: Movarounnahr, 2016.-B.456.

7.Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. T.: Sharq NMAK BT, 2014.-B.536.

8. Qorayev Sh. Dunyoni ma’rifat qutqaradi. Qarshi: Qashqadaryo OAV ko‘zgusi, 2028.-B.200.

ZJV5401

IV SHO‘BA.

ZAMONAVIY MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA: METODOLOGIYASI, MUAMMO VA YECHIMLARI

ZJV5401

MILLIY TARBIYA – MILLIY YUKSALISH DRAYVERI

Muhammadjon QURONOV,
RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti direktorining o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, professor

Yoshlar tarbiyasi milliy yuksalishimizning kuch-qudratiga, drayveriga aylanishi uchun, avvalo, Uchinchi Renessansning beshinchi ustuni – oila tarbiyasi birinchi va eng muhim vazifani bajarishi kerak. Bu esa ota-onalarning ijtimoiy-pedagogik bilimlarini oshirish, ularga farzandlarni Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi asosida tarbiyalashga o'rgatishni shart qilib qo'yadi.

Zero Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" iborasiga alohida to'xtalib, "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas", degan fikrlari ana shu najotbaxsh istiqbolni ko'rsatdi.

O'z tarixida ikki renessans qurgan mamlakatimizning gerbida Humo qushi qanot kerib turibdi. Bu tasodif emas. Humo – jahon sivilizatsiya markazlaridan biri, qa- dimiy va navqiron O'zbekiston ramzi – Renessans ramzi. Xalqimiz, ayniqsa, Yoshlar – shod. Chunki yangilanish, uyg'onish, jo'shqinlik Renessanslarning harakatlantiruvchi kuchi – Yoshlarga xos olovli tuyg'ulardir.

So'nggi yillarda dunyo ijtimoiy fanlarida madaniy kod, milliy kod tushunchalari keng qo'llanilmoqda. Madaniy kod bu – ajdodlardan meros qolgan noYob madaniy xususiyatlar. Ular xalqning ramzlarida, goh anglangan, goh anglanmagan holda xulq-avtor, odatlarida namoyon bo'ladi. Madaniy kod o'zbekcha aytganda "asli qonida bor narsa"ga to'g'ri keladi. Imom Buxoriy, Termiziy, Ibn Sino, Marg'inoniy, Beruniy, Nasafiy, Farg'oniy, Zamahshariy, Moturudiylarning merosxo'rlarimiz. Ular o'zlaridan 1000 yil keyin Islom Akademiyasi, Islom Sivilizatsiyasi markazini qurish huquqini olib, bizga berib ketdilar. Ikki renessansni yaratgan bobolar qoni bugun bizning tomirlarimizda oqayotir. Shunday ekan, Yangi O'zbekistonda qayta tiklanish tajribasini qayerdan izlashimiz kerak? Bu savolga javobni hazrat Alisher Navoiy aytib, tayinlab ketganlar: "**Har ne istarsen, o'zingdin istagil".** Darhaqiqat, ajdodlarimiz jahon ahliga diniy va dunyoviy ilmlarning aslini o'rgatgan. Dunyoning yetuk

olimlari bizning bobolarimiz bilan tanishliklari, ularga shogirdliklari, ularning asarlarini o‘qiganliklari bilan faxrlanishgan. Bizga bugun mana shu shon, mana shu sharaf darvozasi qayta ochilmoqda.

2019-yilning 31-dekabr kuni “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi” tasdiqlandi. Unga ko‘ra 30 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch fazilat, ijtimoiy kompetensiyalar rivojlantiriladi. Bu fazilatlar oilaviy tarbiyaga ijtimoiy buyurtmaga aylanadi. Shu vaqtgacha natijasi mavhum bo‘lib kelgan tarbiya mana shu tayanch fazilatlarda natija topadi. Mukammal kompetensiya-fazilatlar bilan mustaqil hayotga kirib borgan o‘g‘il-qizlarimiz o‘zini ham, Vatanini ham baxtli qiladilar.

Maktab, oilalar uchun “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepiya”sining innovasion ruhi nimada ko‘rinadi? Ilgari O‘zbekistonning 1-18 yoshgacha bo‘lgan bolalar, o‘smirlar Yoshiga mos qanday ma’naviy talablarga javob berishi kerak?”, “Bir yillik tarbiyaning natijalari qanday bo‘ldi?”, degan aniq savol qo‘yilmagan. Qo‘yilsa ham “Hamkorlikda ko‘p tadbirlar o‘tkazdik. Endi, bolalar katta bo‘lsa, ma’lum bo‘ladi-da, tarbiyasi”, degan fikrlar bilan “yopilgan”. Yoki 5-6 nafar iqtidorli yoshlarni ko‘rsatib, mana tarbiyaviy ishlar yutug‘i, deyilgan edi. Bolalar g‘ayratli raqsga tushishar, she’rni ko‘zlari yonib, to‘tidek o‘qishar, biroq, she’r, raqs tugagach, ko‘zlari bo‘m-bo‘sh, hamma qatori bo‘lib qolishar edi. Chunki tarbiya og‘zaki edi. Amaliy emas edi. Tarbiyaviy bilimlar berilar, ammo ular xulqqa ko‘chmas edi. Fazilatlar treninglarda o‘rgatilmasligi sababli odatga aylanmasdan, bilim darajasida qolib ketar edi. Shuning uchun bugun ayrim 15-20 yoshli bolalarimizning xulqi bizni ranjitayotgan bo‘lsa, bunga ular aybdor emas. Ularning bilmasligi – tushuntirilmaganidan, qilmasligi – xulq o‘rgatilmaganidan. Vatanparvarlikni ham, choy suzishni ham, uyalishni, mas’uliyatni, salom berishni ham.

Xulq nima? Xulq bu – tirik mavjudotlarning atrof muhit bilan o‘zaro ta’sirlanish jarayoni[20]. Xulq bu – tirik mavjudotlarning tashqaridan ko‘zga ko‘rinadigan, individ bilan muhit orasida hayotiy muhim aloqalar o‘rnatish va uni ushlab turishga qaratilgan faol harakatlari yig‘indisi. Xulq manbai – odamning ehtiyojlari hisoblanadi. Xulq odam psixikasining qo‘zg‘otuvchi, boshqaruvchi, aks ettiruvchi va ijroga qaratilgan tashqi harakatlari majmuasidir. Xulq natijasi odamning o‘z ehtiyojini qondirishi, qisman qondirishi yoki qondirmasligi bilan tugaydi. Xulq

[20] Поведение // Новая философская энциклопедия / Под ред. В. С. Стёпина. — М.: Мысль, 2001. С 432.

qiliqlar zanjiridan iborat bo‘lib, odamning qiliklarida uning pozisiyasi, ma’naviyati, e’tiqodi namoyon bo‘ladi[21]. Xulq bu – individning manfaatlaridan kelib boshqariladigan, tashqaridan kuzatiladigan, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlar yig‘indisidir[22].

Yangi O‘zbekiston tarbiya masalasini ham yangicha, texnologik tushunishni talab qilmoqda. Endi “Bugun maktablarni bitirayotgan Yoshlarimiz Uchinchi Renessansga xizmat qilishga tayyormi?”, degan savolga “Hamkorlikda ko‘p tadbir o‘tkazganmiz. Endi tarbiyasi katta bo‘lsa bilinadi-da”, degan gaplarga chek qo‘yilmoqda. Endi “Ha endi tarbiya, ma’naviyatni o‘lchab bo‘lmaydi-da. Boshiyam, oxiriyam yo‘q-ku”, degan eski pedagogik tafakkur chekinmoqda.

Yangi tarbiya Vatanning o‘g‘il-qizlariga Uchinchi Renessans nima uchun, kim uchun kerakligini xalqqa uning orzulari bilan bog‘lab uqtiradi, ko‘rsatadi. Tushungan xalq – g‘oya bilan qurollangan xalqqa aylanadi. O‘z milliy g‘oyasini anglagan xalqni esa to‘xtatib bo‘lmaydi.

“Uchinchi Renessans” natijalarining qachon, qanday bo‘lishi har bir oilaning innovasion fikrlashiga bog‘liq. Buning uchun innovatsion yashash – har birimizning hayot tarzimizga aylanib, har bir kishi o‘z sohasining innovatori bo‘lishi kerak. Ya’ni har bir ota-ona, tadbirkor, fermer, o‘qituvchi, san’atkor, jurnalist, bog‘cha tarbiyachisi, imom, talaba, quruvchi, olim, provayder, tikuvchi, tyutor, mahalla raisi “Nima qilsam, ishimning samarasi oshadi?”, deb o‘ylansin. Ijod qilsin, bosh qotirsin. O‘z ishiga, hayotiga yangiliklar kiritib yashasin. Ana shunda baxtning o‘zi bizga qarab kelaveradi. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konsepsiyasi”da o‘n tayanch fazilatning biri innovasion fikrlash etib belgilanganligining hikmati shunda. Harakatdan barakat.

Tarixda bir ziyolining innovasion fikrlashi butun boshli xalqni halokatdan saqlab qolganiga misollar bor. Bir tarixiy misol esga tushadi. Dunyodagi eng katta gonorar II asrda Rim imperatori Mark Avreliy tomonidan shoir-metodist Oppianga berilgan. Oppian sevgi, ishqiy o‘rtanishlar haqida emas, baliqchilik va ov qilish qoidalari haqida 20 000 baytli ikki doston yozgan edi. Imperator dostonlarning har bir satri uchun bir oltin tangadan qalam haqqi beradi. Nega? Chunki odamlar bu dostonlarni o‘qib, ko‘p kuylab, ko‘p eshitib, baliq tutish, ov qilish qoidalarini o‘rganib olishdi. Mana shu bitta artpedagogik innovatsiya xalqqa baliq tutish mahoratini o‘rgatib, uni ochlikdan saqlab qolgan.

Uchinchi Renessans ma’naviyati Z avlodga mansub yoshlarimizni,

[21] Поведение // Большой психологический словарь. — М.: Прайм-Еврознак, 2002.

[22] Поведение животных // Психология развития. Словарь / Под. ред. А. Л. Венгера. — М.: ПЕР СЭ, 2005. — С. 167—168. — 176 с. — ISBN 5-9292-0145-5.

xalqimizni innovasion fikrlashga, o‘ylashga, yashashga o‘rgatishni talab qiladi. Buning uchun nafaqat bolalar bog‘chalari, maktab, litsey, institutlar, balki oilalarda ham bolalarimizni innovasion fikrlashga o‘rgatish ham farz, ham qarzga aylanmog‘i maqsadga muvofiqdir.

Milliy tarbiyaning mazmuni milliy rivojlanishning yangi talablaridan kelib chiqib, yangilanib turadi. O‘z chiqishlaridan birida hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Milliy g‘oya nima uchun kerak?”, degan savolni o‘rtaga tashladi. Javobini ham bir jumlaga jo qilib, “Vatanni sevish uchun”, dedi. Uchinchi Renessans bizdan ana shu sevgini, Vatanni – o‘z uyimizdek, xalqimizni – o‘z oilamizdek sevishni so‘rayapti. Chunki faqat fidokor muhabbat, Vatan sevgisi insonni yangi, yaxshi kelajak yaratishga safarbar qiladi, madadkor bo‘ladi. Ana shunda o‘zida Vatanga sodiqlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, mas’uliyat, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovasion fikrlash, mehnatsevarlikni mujassam qilgan o‘zbekistonliklar Uchinchi Renessansni albatta barpo qiladilar. Uchinchi Renessans bizdan jon, sog‘liq, mablag‘ emas, yuqoridagi fazilatlarni har kuni, o‘zimiz uchun, amalda ko‘rsatishni so‘raydi. O‘z ishimizni halol-pok, sifatli, vijdonimiz nazoratida bajarishni so‘raydi.

Uchinchi Renessans inson ma’naviyatidagi renessansdan kuch oladi. Syeziladi va boshlanadi. Bu esa hamma narsaga, jumladan milliy xarakterimizga, fe’lu atvorimizga ham ma’naviy innovatsiyalar kiritishimizni, isloh qilishimizni talab qilmoqda. Aslida eng qiyin, ammo eng to‘g‘ri yo‘l va resurs shu. Bu xalqimiz xarakterini kuchli fazilatlar – iroda, tirishqoqlik, mehnatsevarlik, innovasion fikrlash, tadbirkorlik bilan kuchaytiradi.

Buning uchun yangi, bunyodkor shaxslarga xos xulq modellarini ishlab chiqish va o‘rgatish bo‘yicha ilmiy pedagogik-psixologik tadqiqotlarni muntazam o‘tkazib borishimiz zarur. Ularda “Uchinchi Renessans uchun xalqimiz xarakterida qaysi fazilat va xulqlarni kuchaytirish kerak?”, “Qaysilari bor?”, “Nimalar yetishmayapti?”. “Qaysi illatlar Uchinchi Renessansni qurishimizga xalaqit beradi?”(Masalan, hasad, ko‘rolmaslik, isrofgarchilik, loqaydlik, Yolg‘on, mehrsizlik, g‘iybat...) qabilida. Bularni bir tizimga solish uchun “Jamiyatni Uchinchi Renessansga tayyorlashning ilmiy-amaliy dasturi”ni ishlab chiqib, dadil joriy qilish maqsadga muvofiq. Nega deganda, yuqorida aytganimizdek, Uchinchi Renessans, avvalo, o‘zbekistonliklarning ma’naviyatida, xulqida ro‘y beradi. Milliy tarbiya o‘rgatgan mana shu g‘ayratli, vatanparvar xulqlar Uchinchi Renessansning drayveri bo‘lib xizmat qiladi.

Buning uchun tarbiyaviy ishlar texnologiyalarini, kouchingni,

pedagogik eksteriorizatsiyani kuchaytirish, amaliy milliy tarbiya talab etiladi. Ya'ni har bir pedagog vatanparvarlik, fidokorlik, tashabbuskorligu tadbirkorlik haqida gapirishi va bu fazilatlarning xulq va operatsiyalarini, qiliqlarini o'zi qilib ko'rsatishi kerak. Masalan, vatanparvarlik haqida she'rlar o'qish, suhbatlar o'tkazish jarayonida ham pedagog vatanparvar xulq modelining namunasini ko'rsatishi kerak. Ana shunda xalqimizning "100 eshitgandan 1 ko'rgan afzal" hikmati bog'cha, maktab, institut, universitetlar ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoniga joriy bo'ladi. Ma'naviyatning xulqqa ko'chishi, konvertatsiyasi kafolatlanadi. Tarbiyadagi bo'shliq to'ldiriladi.

Ana shunda hurmatli Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning **«Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi»**, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi"[23], degan dasturiy fikrlarini amalga oshirgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 30 iyunda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so'zlagan nutqi https://www.gazeta.uz/uz/2017/07/01/nutq/

2. Povedeniye // Novaya filosofskaya ensiklopediya / Pod red. V. S. Styopina. – M.: Мысl, 2001. S 432.

3. Povedeniye // Bolshoy psixologicheskiy slovar. — M.: Praym-Yevroznak, 2002.

4. Povedeniye jivotnых // Psixologiya razvitiya. Slovar / Pod. red. A. L. Vengera. – M.: PER SE, 2005. – S. 167–168. – 176 s. – ISBN 5-9292-0145-5.

[23] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 30 июнда «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракатининг IV қурултойида сўзлаган нутқи https://www.gazeta.uz/uz/2017/07/01/nutq/

YOSHLAR MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM MUASSASALARINING O‘RNI

Otabek BAZAROV,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hozirgi davr yoshlar tarbiyasiga va dunyoqarashiga o‘z ta’sirini o‘tkazadigan eng dolzarb hamda tahlikali davr sifatida tarix sahnasidan o‘rin olmoqda. Bu davrda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va islohotlarga o‘z mustaqil fikrini bildira oladigan, zamon bilan hamnafas yashab, o‘zlarining iste’dod va iqtidorlarini namoyon qila oladigan barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishishlari uchun barcha sa’y-harakatlar olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

«Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his yetadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan»[2], deya ta’kidlaganida Prezidentimiz tarbiyaning nechog‘li katta ahamiyatgaga ekanligiga e’tibor qaratgan edi.

Haqiqatdan ham, bugun murakkab vaziyatda jamiyatning ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, jahonning ayrim mintaqalarida tobora kuchayib, ildiz otib borayotgan ma’naviy inqiroz xavfi xalqimiz ma’naviyatini asrash barobarida uni yuksaltirish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan himoya qilishni talab qilmoqda.

Hech shubhasiz, dunyoning qaysi burchagida bo‘lmasin, ma’naviyatga qarshi har qanday tahdidning paydo bo‘lishi o‘zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o‘ylab yashayotgan har bir ongli inson, har bir xalqni tashvishga soladi. Albatta, bunday ma’naviy tahdid va mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishi, ulardan avvalo farzandlarimiz ko‘proq aziyat chekishi mumkinligi, yoshlarda ma’naviy-axloqiy ongini yanada yuksaltirishni taqozo etmoqda.

Xo‘sh, axloqiy ong o‘zi nima? Axloqiy ongning belgilari nimalarda namoyon bo‘ladi?

“Axloqiy ong – ijtimoiy ong shakli bo‘lib, kishilarning xulqi odobiga

taalluqli talab, me’yor, tamoyillarining mohiyatini anglashi va ular haqidagi qarashi, tasavvurning majmuidir.

Axloqiy ongda voqelik qonun-qoidalar tarzida emas, balki ixtiyor erkinligiga asoslangan ijtimoiy norma, tamoyillar sifatida aks ettiriladi. Shu bois mazkur ong jamiyat ma’naviy hayot tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Axloqiy ong aqliy bilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, axloqiy hissiyot orqali amal qiladi”.[9]

Demak, yoshlarda axloqiy ong shakllansa, ular o‘z ixtiyorlari bilan insoniylik fazilatlariga bo‘ysunadilar va hayotda faoliyat mezoniga aylanadi. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida bu fazilatlarni shakllantirish o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Tarbiyaviy ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan ta’lim muassasalarida yoshlarda o‘z faoliyatida maqsadli kurash olib borish, mustaqil fikrga ega bo‘lgan fidokor, tarixni to‘g‘ri anglash, o‘z kuchiga ishonchni qabul qilish, islohotlarda faol ishtirok etish, urf-odatlarni, an’analarni asrash, demokratiyaga hurmat bilan qarash, ezgu g‘oyalarga sadoqat, ma’rifatni yot g‘oyalarga qarshi qo‘ya bilish, ogohlikni, bunyodkorlikni, ma’naviy yuksaklikni namoyon etish, jamoa tashkilotlarida faol ishtirok etish, mafkuraviy tahdidga qarshi kurash, globallashuvning salbiy jihatlarini fosh etish, yurt tinchligini saqlash, demokratiya eksporti mohiyatini fosh etish fazilatlari namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, mustaqillikni mustahkamlashning faol kurashchisi bo‘lib, globalizm illatlariga, axborot xurujiga, “ommaviy madaniyat” tahdidiga nisbatan g‘oyaviy kurashchanlikni namoyon qilish, milliy o‘zlikni himoya qilish uchun kurasha olish, buzg‘unchi g‘oyalarga, xoinlikka, loqaydlikka, mahalliychilikka, terrorizmga, kosmopolitizmga qarshi kurashish, buyuk kelajakka ishonch hissi bilan yashash fazilatlari shakllanadi.

Ma’lumki, yoshlar tarbiyasining muhim bo‘g‘inlari bo‘lib, ta’lim muassasalari hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ishlarning mohiyati – uning milliy istiqlol mafkurasiga asoslangan, ma’naviy-axloqiy, huquqiy, vatanparvarlik, fuqaroviy, mehnat, madaniy-maishiy, ekologik va shu singari yo‘nalishlar bilan erishiladigan g‘oyaviy a’mol va ideallarga mos holda olib borilishi maqsadga molik masaladir. Bu muammolarni amalga oshirish barcha pedagoglarning oldida turgan yuksak vazifadir.

Jumladan: har bir ta’lim oluvchining ongida davlat mustaqilligiga xalqning oliy g‘oyaviy-axloqiy qadriyati ekani, o‘z vatani bilan faxrlanish, uning xavfsizligini ta’minlash va O‘zbekistonning ulug‘

tarixiy o‘tmishiga, yangi renessansga asoslangan yangi O‘zbekistonni qurishda tanlab olgan o‘ziga xos yo‘lini mustahkamlash, islom dini ruhi bilan sug‘orilgan oliy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni to‘g‘ri tushuntirish va uni e’tiqodga aylantirish vazifasini bajarishi lozim.

Ta’lim muassasalarida yoshlarda axloqiy tarbiyani amalga oshirishda avvalo axloqiy tushuncha va ishonch hissini yaratishdan boshlagan ma’qul. Chunki yoshlarda axloqiy tushuncha e’tiqodlarni tarkib toptirmay turib, axloqiy madaniyatni, xatti-harakat bilan bog‘liq malaka va odatlarni hosil qilib bo‘lmaydi. Bunda asosan yoshlarga axloq-odob norma va qoidalari mazmuniga oid bilim berishga katta ahamiyat berish lozim.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi bugungi kunning muammosi emas, balki bu boradi qadimdan mutafakkir bobolarimiz ham fikr yuritishgan, kelajak avlod tarbiyasi, komillik haqida izlanishlar olib borishgan.

Masalan, qadimiy manba hisoblangan “Avesto” asari, Imom Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abulqosim Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlarimizning ma’naviy-axloqiy ta’limotlari ma’naviy-axloqiy tarbiya borasida muhim manbalar bo‘lib xizmat qiladi. Mutafakkir bobolarimiz asarlarida inson va uning ma’naviy olami jamiyat hayotining ustuvor amallari sifatida qaraladi. Jumladan, Imom Buxoriy “Bolaning tabiati islomiy bo‘ladi, uni qanday g‘oyalar bilan to‘ldirish ota-ona va ustozga bog‘liq”[6] – deydi. Abu Nasr Forobiy inson kamolotga yolg‘iz o‘zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo‘lishi, ularning ko‘maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo‘ladi, deydi. Ana shu jarayonda insonda fazilatlarni kamol toptirish haqida ta’kidlab quyidagi fikrlarni ilgari suradi, «Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi»[3]. Abu Rayhon Beruniy inson tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi illatlar haqida fikr yurita turib, ular ko‘p hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd etadi[4]. Unga hamohang tarzda Ibn Sino esa bunday illatlarni bartaraf etishda tarbiya omiliga tayanishni ta’kidlaydi[4]. Mazkur muammolarga daxldor qarashlarni tahlil qilgan Yusuf Xos Hojib «Kamolotga yetish yo‘li ikkita: bilim olish va ibrat o‘rganish»[5], – deb inson ma’naviy-axloqiy tarbiyasining falsafiy mohiyatini ochib beradi.

Demak, bugungi kunda yoshlarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda qanday an’anaviylik hamda zamonaviylik dialektikasidan foydalanish yo‘llari mavjud ekanligi haqida fikr yuritamiz.

Yoshlarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishda an’anaviylik va zamonaviylik dialektikasi bo‘yicha olib borishda milliy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlarning tarkibiy qismlaridan biri

bo‘lgan milliy urf-odatlar, an’analar, diniy-tarbiyaviy marosimlar, xalq bayram va sayllari kabilar har bir kishini kelajakda nima qilish, qanday ishlar fazilatu, qaysinisi yomon narsa, yaxshi nomni olish uchun yaxshi xulq-atvorli, axloq-odobli bo‘lish lozimligi haqida o‘ylashga, fikrlashga undaydi. Ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analarini, jamiki moddiy-ma’naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Xalqimizning asrlar davomida shakllanib kelgan salomlashish odobi, ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, kamtarlik, farzandlik burchi haqida, bilimli va matonatli bo‘lish, insonparvarlik, tarixiy o‘tmishga hurmat bilan qarash, milliy urf-odat va an’analarimizni asrab-avaylash kabi an’analar yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan hamda milliy ruhda tarbiyalashga qaratilgan.

Milliy an’ana va qadriyatlar rivoji shunday bir dialektik prinsipga asoslanganki, kimki o‘z xalqi va milliy qadriyatini boshqa millat qadriyatlariga teskari bo‘lmagan holda va, aksincha, boshqa millat ma’naviyatini chuqur his qilish darajasiga olib chiqsa va o‘z milliy munosabatlarda do‘stona iqtisodiy va ma’naviy muloqotdan o‘zga niyat bo‘lmasa, ana shunda turli millatlarning ma’naviyatini ifodalovchi umumbashariy qadriyatlar o‘sib boraveradi.

Yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga o‘z ta’sir kuchini ko‘rsata oladigan usullardan biri teatr hisoblanadi. Ma’lumki, teatr san’atining qadimiy ildizlari xalq o‘yin va tomoshalariga borib taqaladi. Lekin XX asrga kelib o‘zbek teatr san’ati yangitdan – yurtimiz va jahon miqyosida shakllangan, davrlar sinovidan o‘tib kelayotgan an’ana va tajribalar asosida vujudga kelgani va kamol topganini e’tirof etish zarur[8]. Shunday ekan, teatrlarda namoyish etiladigan sahna asarlarida bugungi kunning muammo va yechimlari, voqealari yoshlarning ongiga shunday ta’sir ko‘rsata olishi lozimki, natijada tomoshabin o‘sha san’at asarida milliylik bilan birgalikda zamonaviylikni ko‘ra olsin. Hozirgi kunda poytaxtda hamda viloyatlarda faoliyat yuritayotgan teatr ijodkorlari buyuk ajdodlarimizning siymolarini yaratishga harakat qilmoqdalar. Masalan, Alisher Navoiy, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ibn Sino va boshqalarning hayoti va ijodi, faoliyati aks ettirilgan sahna asarlari yaratilmoqda. Bu esa yoshlarda o‘z ajdodlariga bo‘lgan hurmat hissining kuchayishiga, milliy g‘urur, iftixorning shakllanishiga xizmat qiladi.

Yoshlarda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning shakllanishida davra suhbatlari, seminarlar, treninglar, konferensiyalar, bayram tadbirlari,

anjumanlar, ko‘rgazmalar, iqtidorli talabalar bilan ishlash ham muhim ommaviy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadbirlar yuqori samara berishi uchun ularni tashkil qilishda asosan yoshlarning xohish-istagidan kelib chiqib tashkillashtirish, ulardan yoshlar uchun ma’naviy ozuqa bo‘ladigan g‘oyalardan foydalanish lozim. Ayniqsa, bayram tadbirlarini tashkillashtirishda milliylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirish, bugungi islohotlar bilan hamohang tarzda olib borish yaxshi natija beradi. Bundan tashqari ularning samaradorligi yuqori bo‘lishi va maqsadga erishilishi uchun ko‘proq samimiyat talab etiladi. Bu borada Prezident Sh.Mirziyoyev shunday ta’kidlaydi: «dunyodagi rivojlangan, demokratik mamlakatlarda yoshlar tashkilotlari asosiy e’tiborni dabdabali, balandparvoz tadbirlar o‘tkazish bilan emas, balki yoshlar bilan ishlash, ular bilan amaliy muloqot qilish, ularni o‘ylantirayotgan hayotiy muammolarni hal etishga qaratadi»[1].

Yuqorida sanab o‘tganlarimiz yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’sir o‘tkazishning omillaridan biri edi. Bu borada yana quyidagi ishlarni amalga oshirishni tavsiya qilgan bo‘lar edik:

1. Barcha ta’lim muassasalarida tarbiya masalasi faqatgina ijtimoy-gumanitar fanlarning emas, balki barcha fanlarning ham mazmuniga singdirilishi shart. Buning uchun esa barcha fanlar uchun ma’naviy-axloqiy tarbiyani singdirish mexanizmini ishlab chiqish lozim.

2. Xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish choralarini ko‘rish tavsiya etiladi.

3. Prezident Sh.Mirziyoyev “Maktablar bilim bilan birga tarbiya, ma’naviyat maskani hamdir. Shuning uchun ham tarbiyaviy targ‘ibot ishlariga hududlarda yashab, ijod qilayotgan shoir va yozuvchilarni keng jalb qilish, maktablarning direktor jamg‘armasidan va mahalliy byudjet mablag‘laridan ularga oylik maosh to‘lash lozim”ligini ta’kidlagan edi. Ammo, bu borada hali yetarlicha ishlar amalga oshirilgani yuq. Mana shunday yoshlar uchun ideal bo‘lgan, ularga motivatsiya ulasha oladigan taniqli insonlarning yordami kerak bo‘ladi.

4. Ma’lumki, har bir jamiyatda, har bir xalqda o‘ziga xos bo‘lgan ma’naviy tarbiya tizimi mavjud. Bizning o‘zbek millatida bu narsa ko‘proq oilaga ham borib taqaladi, ya’ni oilani “ibrat maktabi” deyiladi. Shunday ekan, oilalarda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning muammolarini va ushbu muammolarni bartaraf etishga hizmat qiladigan yechimlarni topish borasida ham keng ko‘lamli ishlar olib borish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Yangi O‘zbekistonimizda bugungi kunda o‘z haq-huquqini taniydigan, kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo‘ladigan, shu bilan birga, o‘z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda tasavvur etadigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Faqatgina shunday sharoitlardan ijobiy foydalanish, yoshlarimizni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, shu yurt kelajagi uchun qayg‘urish biz ziyolilarning zimmamizda. Chunki, ma’naviy tarbiya olib bormagan millat buguni va ertasini boy berishga mahkumdir. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, **“Bugun biz yagona xalq, yagona millat bo‘lib, ko‘zlagan yuksak maqsadlarimiz sari dadil bormoqdamiz. Vujudimizda, qonimizda ajdodlarimizdan meros buyuk qudrat jo‘sh urayotgan ekan, biz ezgu orzu va maqsadimiz bo‘lmish yangi O‘zbekistonni albatta bunyod etamiz. O‘zbekiston har tomonlama obod va farovon, erkin demokratik mamlakatga aylanadi.**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. –B.515.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi 15.06.2017
3. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 2001. – B. 38.
4. Abu Rayhon Beruniy. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”. – Toshkent: Fan, 1972. – B. 68.
5. Abu Ali Ibn Sina. Filosofski traktatы. Moskva: Nauka, 1980. – S.43.
6. Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. – Toshkent: Movarounnahr, 2005. – B. 16.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Fan, 1971. – B. 103.
8. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 144 b.
9. https://e-library.namdu.uz/

“O‘ZBEKISTON - 2030” STRATEGIYASI MANAVIY-MARIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI SIFATIDA

Abdug‘ani XOLBEKOV,
Sotsiologiya fanlari doktori,
O‘zMU Sotsiologiya kafedrasi professori

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi jamiyat hayotiga oid muhim jarayonlar, o‘zgarishlar va muammolarni hal etishning fundamental asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning yo‘nalishlarida shaxs manfaatlarini ta'minlash va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalq davlatini qurish; adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini mamlakat taraqqiyotining asosiy va zarur shartiga aylantirish; tez sur'atlarda iqtisodiy o‘sishni taminlash; adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, inson kapitalini rivojlantirish; ma'naviy rivojlanishni ta'minlash va bu sohani yangi bosqichga ko‘tarish; global muammolarga milliy manfaatlar asosida yondashish; mamlakatning xavfsizlik va mudofaa salohiyatini mustahkamlash, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish maqsadlari aniq belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga bu kabi strategik maqsadlarning ildizlari barcha tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda, avvalo O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-sonli, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmonlarida ham tayanchga egadir. Shu manoda o‘tgan yillar davomida, xususan Harakatlar strategiyasi va Rivojlanish strategiyasini amalga oshirish borasida to‘plangan tajriba va o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish bilan bog‘liq voqelik keng ko‘lamligi bilan xarakterlanadi. **Strategiya 5 ta ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olib, jami 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko‘rsatkichni bajarish yuzasidan 118 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi ko‘zda tutadi.** Uning mazmunidagi asosiy jihat unda har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Uning quyidagi asosiy indikatorlari doirasi o‘z qamroviga ko‘ra mamlakatimizning keyingi etti yildagi faoliyani belgilab beradi: I) talim tizimini isloh qilish; II) *tibbiyot tizimini yaxshilash; III) ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish; IV) yoshlar siyosatini amalga oshirish; V) ma'naviyat masalalariga oid chora-*

tadbir va vazifalarni joriy etish va b.

Albatta O‘zbekiston ijtimoiy hayotida yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarning umumiy ko‘rsatkichi muhim bir integral ko‘rsatkich borki, bu inson omilidir. Alohida shuni takidlash zarurki, O‘zbekistonda barcha uchun barobar inson taraqqiyoti imkoniyatlarini yaratish jamiyatimizning bugungi kundagi va istiqboldagi o‘ziga xos milliy g‘oyasiga aylandi. Barcha odamlar uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishmi, sifatli talim va sog‘liqni saqlash tizimimi yoki kambag‘allikni qisqartirishmi, bularning barchasi endilikda shakllanayotgan grajdanlik jamiyati va uning faollik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Masalan, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasini olaylik. Bu maqsadga davlat byudjetidan 3 trillion so‘m yo‘naltirilgan bo‘lib, bu 2016 yilga nisbatan 5 barobar ko‘p demakdir. Statistik ma'lumotlar bugun mamlakat aholisining 73 foizi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi haqida xabar bermoqda. Ammo respublikamizda xususan toza suv istemol qilish, umuman olganda esa suvdan rasional foydalanish madaniyati mutlaqo shakllangan emas. Vaholanki, hozirda rivojlangan mamlakatlarning deyarli barchasida toza suv isrofgarchiligi uchun iqtisodiy mexanizmlar orqali cheklovlar qo‘yilgan bir holatda mamlakatimizda bu holatga oid chora tadbirlar etarli emas. Evropaning ko‘plab shaharlari ko‘chalarida kran jo‘mraklaridan suv ichsa bo‘ladi. Ammo nafaqat bizning shaharlardagi ko‘chalarda, hatto xonadonlarda ham qaynatilmagan suvni ichib bo‘lmaydi. Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlardagi ko‘p qavatli uylarning har birida texnik suv rezervuarlari mavjud. Lekin bunday suv inshootlari bizda na ishlab chiqarish korxonalarida, na xonadonlarda mavjud emas. Buning ustiga, fuqarolar ko‘chalarga suv sepishda va avtomobillarni yuvish dardida texnik suv emas, balki ichimlik suvini sarflashadi. Eng achinarlisi, buning uchun hech kim hatto jarimaga ham tortilmaydi.

Mamlakatimizda inson qadrlanishi, uning munosib turmush kechirishi masalasi doimiy e'tiborda ekanligi ijobiy holat, albatta. Ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlashning o‘ziga 2016 yil bilan solishtirganda 5 barobar ko‘p mablag‘ ajratilmoqda. Ammo inson qadrining ikkinchi tomoni - bu inson masuliyatidir. Xalqimizda “qars ikki qo‘ldan chiqadi”, degan naql bor.

Boshqa muammolar, xususan kambag‘allikni tugatish masalasida ham ikki tomonlama kamchiliklar bor. Aytish mumkinki, bir tomondan boshqaruv tuzilmalari faoliyatida, ikkinchi tomondan ijtimoiy himoya oluvchilarning masuliyati borasida bir qator savollar tug‘iladi. Avvalo, muhtojlikning qaysi ko‘rinishini etiborga olish zarur? Buni aniqlashda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana olayapmizmi? Qizig‘i

shundaki, muhtojlik va qashshoqlik bizning hayotimizda emas, balki fikrlash tarzimizda mavjud. Boshqacha aytganda, gap "qashshoqlik tafakkurida" emas, balki "dunyoqarash qashshoqligida". Bizlar ijtimoiy jihatdan qashshoq bo'lishimiz sababi avvalo ongimiz, tafakkur tarzimiz etishmovchiligidandir.

Bunday kamchilik soha va uning uchun masul odamlar ishida ham mavjud. Masalan, chekka hududlarda aholining yashash ahvoli, uy-joy, ichimlik suvi, tibbiy xizmat bilan ta'minlanish holati monitoringi mavjud emasligi, ko'makka muhtoj shaxslar uchun berilayotgan imtiyozlar indikatorlari ishlab chiqilmaganligi, sohaga aloqador idoralarda zarur elektron baza va ma'lumotlardan foydalana bilmaslik holatlari saqlanib qolayotganligi yoki ortiqcha qog'ozbozlik va rasmiyatchilikka haligacha barham berilmaganligi shundan dalolat beradi. Hududlarda mehnat bozorlari holati, avvalo bo'sh ish o'rinlari hisobi aniq yuritilmayapti, nogironlar, ularga turli masalalarda yordam ko'rsatish tizimiga ilg'or xorijiy tajribalar joriy qilinmayapti.

Aytib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida bir qancha ishlarni amalga oshirish takliflarini keltirish mumkin. Masalan, "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi ishini takomillashtirish va bunda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish, shuningdek ijtimoiy yordam olish uchun zarur hujjatlar sonini kamaytirish, bunda idoralararo elektron hamkorlikni samarali tarzda yo'lga qo'yish va h.k. Ammo asosiy talab yana tafakkur tarzini o'zgartirish bilan bog'liq deyilsa to'g'riroq bo'ladi.

Shu manoda Strategiyada mamlakatning taraqqiyoti masalalari ma'naviy rivojlanish bilan mustahkam aloqadorlikda belgilab berilganligi bejiz emasligiga etibor qaratmoqchimiz.

Birinchidan, "manaviyat-marifat-madaniyat" uchligining birligi asosida jamiyat manaviy hayotini yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Gap shundaki, Yangi O'zbekistonning jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarni, balki ma'naviy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlarni ham ko'zda tutadi. Shu manoda Strategiya mamlakatimizda manaviy-marifiy ishlarni tashkil etishning o'ziga xos metodologiyasi sifatida maydonga chiqadi.

Ikkinchidan, qush ikki qanotisiz ucholmagani, inson esa ikki oyog'isiz yurolmagani kabi, jamiyat ham iqtisodiyotni tana deb bilsa, ma'naviyat unga jon va ruh baxsh etishini anglay olishi kerak. Mana shu ikki ustun, ya'ni zamonaviy iqtisodiyot va milliy ma'naviyatgina O'zbekistonni ishonchli rivojlanish darajasiga olib chiqadi.

Uchinchidan, O'zbekiston jamiyati nafaqat tahdidbardosh bo'lishi, balki marifatparvar ham bo'lishi lozim. Buning manosi

shuki, xalqimizning boy merosidan kuch oluvchi, milliy qadriyatlarga asoslangan ma'naviyatgina mamlakat taqdiriga befarq bo‘lmagan, uning kelajagini qurish yo‘lida tinimsiz faoliyat yuritishga qodir insonlargina jamiyatga nisbatan xavf, xatar va tahdidlarni seza olishi, ularga qarshi kurashish uchun o‘zida jismoniy kuch, intellektual salohiyat va ruhiy quvvat topa olishi mumkin.

Xo‘sh, bu sohada qanday dolzarb vazifalar mavjud. Fikrimizcha, quyidagilarni birinchi navbatda amalga oshirish lozim:

1) davr davatlariga hozirjavob bo‘lgan milliy g‘oyani yangi konsepsiyasini shakllantirish zarur. Bunda gap eski tuzumlardagi mafkuralar emas, avvalo etuk insonlar haqida ketmoqda. Aynan g‘ayrat-shijoatli, bilim-ma'rifatga intiluvchan, izlanuvchan, ajdodlar qoldirgan ma'rifat, madaniyat, ma'naviyatni, an'ana va urf-odatlarni boyitib boruvchi, yangi tashabbuslar bilan ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnigini egallayotgan har bir grajdaninning dunyoqarashi suv va havoday zarur;

2) dunyoda umuminsoniy qadriyatlar malum manoda deformasiyaga uchrab, manaviyatning yangi indikatorlari shakllanayotgan bir davrda biz o‘zlaridan keyin o‘lmas asarlar qoldirgan mutafakkirlarning ma'naviyatga oid qimmatbaho g‘oyalarini hozirgi zamonga mos tarzda nafaqat o‘zimiz anglab olishimiz, balki, tabir joiz bo‘lsa, “eksport” qilishimiz zarur;

3) mamlakatimiz mustaqilligining 33 yil ichida amalga oshirilgan islohotlar va o‘zgarishlarga g‘oyaviy asos bo‘lgan “inson-jamiyat-davlat” tamoyilini ijtimoiy hayotning real prinsipiga aylantirishimiz zarur;

4) to‘rtinchidan, davlat taraqqiyoti uchun ulkan xavf xatar bo‘lgan jiddiy ijtimoiy illatlar – korrupsiya, byurokratiya, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, poraxo‘rlik, boqimandalik va nigilizmga qarshi ijtimoiy murosasizlik muhitini yaratish talab etiladi;

5) “Ma'rifat” targ‘ibotchilar jamiyatining faoliyatini tizimli tarzda yo‘lga qo‘yish, aholi orasida targ‘ibot ishlarini muntazam olib borishni joriy etish zarur.

Jamiyatda sog‘lom ma'naviy muhitni yaratish bilimga chanqoq, ilg‘or (kreativ) fikrlovchi, mafkuraviy immuniteti mustahkam yosh avlodni tarbiyalash tahdidbardosh jamiyatni, boshqacha qilib aytganda terrorizm, diniy ekstremizm va aqidaparastlik kabi xavflarni to‘g‘ri anglovchi va sezuvchi, ularning tahdidiga qarshi to‘g‘ri pozisiyani tanlay oladigan insonlarimizning hayotga kirib kelishini taminlaydi.

Strategiya o‘z vazifalariga ko‘ra, hozirgi murakkab va globallashgan dunyoda yuz berayotgan tendensiyalarni ham hisobga olishni nazarda tutadi va shu manoda prognostik xususiyatlarga ham ega. Gap shundaki, endilikda global axborot xurujlari, turli ko‘rinishdagi vayronkor g‘oyalar

chetdan kelmoqda, deb hisoblash vaqti o‘tdi. Zero biz ularning ichida yashayapmiz. Endilikda bizning mafkuraviy va g‘oyaviy immunitetimiz sinovdan o‘tmoqda. Bazan uning zaifligi sezilib qolmoqda. Bu esa milliy o‘zligimizga jiddiy xavf solmoqda.

Shu bilan birga, har qanday mamlakatga xavf solishi mumkin bo‘lgan terrorizm, xalqaro jinoyatchilik, giyohvandlik, odam savdosi kabi jinoyatlar mintaqamizni qaysidir manoda qamrab olmoqda. Ularning ayrimlari tahdid darajasidan o‘tib, noxush reallikka aylanib bo‘ldi. Masalan, o‘z farzandlarini qabih yo‘llar bilan sotayotgan onalar haqidagi xabarlar nechog‘liq noxush bo‘lsada, yuz bermoqda.

Eng achinarlisi, axloqiy qarashlarimizga zid bo‘lgan ayrim odatlar ayrim yoshlarning turmush tarziga kirib olmoqda. G‘arbona madaniyatga taqlid va ergashish, milliylikdan ketish, o‘zbekchilikni mensimaslik, yani milliy nigilizm hollari ro‘y bermoqda.

Albatta, ma'naviy hayotda bo‘shliqqa yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Ammo, biz bir muddat manaviy mafkuraviy tarbiyada tanaffusga, o‘zibo‘larchilikka yo‘l qo‘ydik. Mafkuraviy kurashda charchoq sezildi, yani eski qarashlardan voz kechish ilinjida yangi tamoyillarni yarata olmadik. Ayrim muammolarni qo‘lda yaratdik, desa ham bo‘ladi. Xususan, farzand tarbiyasiga jamoatchilikning ta'sirini susaytirib yubordik. Odamlardagi loqaydlik va beparvolikning kuchayib ketishiga etibor qilmadik. Natijada bu holat tarbiya sohasidan talimga, undan esa ijtimoiy hayotga, hatto siyosiy voqelikka ko‘chib o‘tdi, oqibatda bu korrupsiya, byurokratiya va poraxo‘rlikning kengayib ketishiga sababchi bo‘luvchi omillardan biriga aylandi. Davlatimiz rahbari shaxsan jamiyatimizga erkin fikrlash, kamchiliklarni ayovsiz tanqid qilish muhitini olib kirib, asosiy kafolat bo‘lib turgan bir paytda ko‘plab lavozimli shaxslar haligacha erkin fikrni pinhona va ochiq tarzda bo‘g‘ish payida bo‘lganligini va bu holat hozirda ham davom etayotganligini qanday tushunsa bo‘ladi? Bu axir Yangi O‘zbekistonda aytib o‘tilgan murakkab illatlarga qarshi kurashda jamoatchilik nazorati rolini bajaruvchi erkin fikr omilining rolini pasaytirmaydimi?

Fikrimizcha, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash borasidagi ishlarni ko‘rsatmalar asosida emas, ilmiy asosda tashkil etish zarur. Manaviy-marifiy ishlarni tashkil etishning yangi mexanizmlari zarur. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar shu asosga yo‘lga qo‘yilmas ekan, sohada aniq natijalarga erisha olmaymiz. Ammo, bu sohada hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy fanlar davrdan oldinda yurish u yoqda tursin, hatto bugungi kun talablariga javob bera olmayapti. Aynan ijtimoiy fanlar yosh avlodning dunyoqarashini va kerakli fazilatlarini shakllantirish u

yoqda tursin, hatto ijtimoiy hayot haqidagi ilmiy tasavvurlarini boyita olmayapti. Sababi, ijtimoiy fanlarga doimiy xalal berish, ularning o‘qitilishiga sababsiz aralashish, hatto ularni o‘qitish prinsiplarini subektiv va volyuntaristik tarzda yuqoridan belgilab berish holatlari normaga aylanib qoldi. Shu vaqtning o‘zida, sohaga masul tuzilmalar esa holatga aralasha olmayapti. Masalan, O‘zbekiston Oliy talim, fan va innovasiyalar vazirligining yaqinda mamlakat Oliy talim muassasalariga kvotalar miqdorini qisqartirish haqidagi qaroriga Manaviyat va marifat markazi biror bir munosabat bildirmaganligi shundan dalolat emasmi?

Ijtimoiy fanlarni maktabdan boshlab ta'lim bosqichlari va ixtisosliklari talablariga mos tarzda, uzluksiz tarzda, o‘quvchi yoshlarning yosh darajalariga, ular egallashi kerak bo‘lgan kasb xususiyatlariga muvofiq holda o‘qitishni amalga oshirish zaruriyatini davr talab etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sohadagi ishlarni yaxshilashga oid ayrim tavsiyalarni bayon qilish mumkin, deb hisoblaymiz:

- Yangi O‘zbekiston hayotida manaviyat omilining favqulodda muhim ahamiyat kasb etishi ehtimolini nazarda tutgan holda, xususan davlat organlarining ma'naviyat borasidagi faoliyatini boyitish va kengaytirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasining ma'naviyat sohasidagi davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunini ishlab chiqish zarur.

- ma'naviy-ma'rifiy sohada davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini va ularning istiqboldagi faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida “O‘zbekistonning 2025 – 2030 yillarga mo‘ljallangan ma'naviy taraqqiyot strategiyasi”ni ishlab chiqish davr talablariga munosib javobdir.

- mamlakatimiz o‘z ijtimoiy hayotida so‘nggi yillarda qaror topayotgan tendensiyalarning ishonchli monitoring tizimini yaratish zarur. Bu ijtimoiy hayot sohasi dinamikasiga oid keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borishga yordam beradi, deb hisoblaymiz;

- jamiyat manaviy hayotiga doir kompleks metodologik tadqiqotlar bilan birga doimiy empirik sosiologik tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

ZJV5401

MAMLAKATIMIZ YOSHLARI – MA'NAVIY KUCH TIMSOLI!

M.B.Axmedov,
Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti
rektori, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mamlakatimizda keyingi yillarda olib borilayotgan islohotlar maqsadi, yoshlar kelajagining ma'naviy qiyofasi, mamlakat ravnaqida ularning dunyoqarashi, ma'naviyatining yuksalishiga qaratilgan. Ma'naviyat haqida so'z borar ekan, kelajak avlod qalbiga va ongiga milliy g'urur va shuurni singdirish, o'zlikni anglatish, maqsadga erishishning birdan bir ustivor yo'li ekani uqtiriladi. Ma'naviyatni singdirish hammamizga ma'lumki, ta'lim-tarbiya orqali tizimli amalga oshiriladi. Bir-biridan ayro qilib bo'lmaydigan bu tushunchalar maqsadga erishishda o'zaro bir-birini to'ldiradi. Shu bois ham yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida o'qituvchi pedagoglardan yuksak mahorat talab etiladi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma'naviy barkamol bo'lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Shu bilan birga yoshlik davri insonning hayot yo'llarining muhim pallasida turgan payti hamdir. Agar o'sha pallada inson yaxshi yo'lga kirib qolsa, o'zi, oilasi, qarindoshlari, xalqi, sari juda katta yuz burgan bo'ladi. Tinchlik va totuvlikni asrash, inson ma'naviyatini rivojlantirish, o'zaro bag'rikeng bo'lish, mehr-oqibat ko'rsatish kabi ulug' fazilatlar haqida aholimizga, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlodga so'zlab berish, ularning ongu-shuuriga singdirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Har bir davlatning kelajagi yoshlarning axloqiy-tarbiyaviy kamol topib rivojlanganligi bilan bog'liq. Yoshlari bilimli, har tomonlama yetuk davlatning kelajagi yorug', istiqboli porloqdir. Insonga yoshligidan singdirilgan madaniy-ma'naviy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, an'analar, diniy-ruhiy tuyg'ulardan iborat. Bu bo'g'inda u oilasi, qarindosh-urug'lari, mahallasi, millati, yurti bilan birligini, uning tarkibiy qismi ekanligini his etadi. Mamlakatimizda ro'y berayotgan yuksalish va taraqqiyotimiz yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va xotirjamlikning evaziga bo'layotgani, tinchlik esa o'z-o'zidan bo'lmasligini ta'kidlash lozim.

O‘zbekistonning ma’naviy hayotidagi o‘zgarish va yangilanishlar eng avvalo, milliy g‘oya va milliy mafkurada o‘z ifodasini topib, milliy g‘oya va milliy mafkura konsepsiyasi ishlab chiqilganda quyidagi masalalarga e’tibor qaratildi:

• milliy mafkura, avvalambor, o‘zligimizni, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyat oldiga bugun qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni o‘zida qamrab olishining shartligi;

• jamiyatimizda bugun mavjud bo‘lgan xilma xil fikrlar va g‘oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarning intilishlari, har qanday insonning e’tiqodi va dunyoqarashidan qat’iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning dahlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g‘oya - mafkura bo‘lishi zarurligi;

• milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o‘xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli bo‘lib, qochishni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda, munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo‘lishi darkorligi;

• milliy g‘oya Vatanimizning shonli o‘timishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turishga, o‘zimizni ulug‘ ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishishga yo‘l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da’vat qiladigan g‘oya bo‘lishi muhimligi.

Mamlakatimizda eng katta e’tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, bu vazifa O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son, shuningdek, ko‘plab qaror va yoshlarga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan. Ayniqsa, bu borada “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlarini yaratish sohasidagi yangilik bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma’naviyat xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilib, xalqni, millatni birlashtirib, bunyodkorlik ishlariga da’vat etadi. Mamlakatimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy

qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbiga ona yurtga muhabbat, milliy istiqlol g‘oyasiga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirish borasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy-ma’lifiy va axloqiy merosini har bir fuqaroning ma’naviy mulkiga aylantirish, milliy o‘zlikni anglashni ustuvor yo‘nalish sifatida amalga oshirish, milliy g‘oya va mafkurani xalqimizning ongi va qalbiga chuqur singdirish, uni ruhiy va ma’naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish lozim.

Yoshlar uchun bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq, shunday xulosa qilish mumkinki, bizning bosh maqsadimiz yangi O‘zbekiston kelajagi bo‘lmish yoshlarimizga ma’naviyat, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi g‘oyalarni singdirishdan iborat. Intellektual salohiyati yuqori yoshlarning ma’naviy barkamolligi jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir.

YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH – TARAQQIYOT YO‘LIDA MUHIM QADAM

Jo‘rabek XIDIROV,
RMMM huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvining barcha sohalarida mislsiz o‘zgarishlar yuz bermoqda. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining asosiy mohiyati shundaki, barcha islohotlar “Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining asosiy sub’ekti hisoblanadigan yoshlarda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yurtimiz kelajagi bo‘lmish yoshlarga g‘amxurlik qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Keyingi yillarda yosh avlodni hayotga qat’iy e’tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo‘lgan zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, mustaqil fikrga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Qolaversa, sohaga oid qabul qilingan qonun, Davlat dasturlari va boshqa me’yoriy hujjatlar, ayniqsa 2024-yilni mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilinishi zamirida yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, iqtidorini to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimioy-iqtisodiy, huquqiy,

tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlash, yurtimiz kelajagi, ertamiz egalari bo‘lmish yoshlarga bildirilgan katta ishonch yotadi.

Bugungi kunda yoshlarning ong-shuurini, tafakkurini to‘g‘ri shakllantirish, jismonan va ruhan sog‘lom tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb. Shu munosabat bilan mamlakatimizda yuksak ishlar jumladan, “Besh tashabbus” doirasida bir qator amaliy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Birgina misol yosh avlodni ruhan va jismonan sog‘lom qilib tarbiyalash borasida muntazam ravishda sport sohasida qator musobaqalar tizimli ravishda o‘tkazilib kelinmoqda. Ushbu musobaqalarda etarlicha toblangan yoshlarimiz qit’a, jahon birinchiliklarida va olimpiada o‘yinlarida yuksak natijalar ko‘rsatib xalqaro arenalarda yurtimiz obro‘sini mustahkamlayotganligi barchamizga ma’lum. Bu kabi misollarni boshqa sohalarda ham juda ko‘p sanab o‘tish mumkin. Bu islohotlarning barchasi yoshlarimiz kelajagiga xizmat qilishi shak-shubhasiz.

Ma’lumki, bugun yoshlar respublikamiz aholisining 60 foizidan ko‘pini tashkil etmoqda. Shu bois, yoshlarning milliy g‘oyani anglashi, uni ishonch va e’tiqodga aylantirishi, qanday yangi qadriyatlarni shakllanganligi muhim ahamiyatga ega. Chunki, milliy g‘oya, bir tomondan yoshlarni o‘zining ob’ek’ti sifatida qarasa, ikkinchi tomondan, yoshlar milliy g‘oyaning ilg‘or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga etkazuvchilari hisoblanadi. Uchinchidan, yoshlar qanchalik milliy g‘oya bilan qurollangan, adolat, halollik va ezgulik tuyg‘ulari yuksak shakllangan va uni anglab olgan bo‘lsa, qolaversa, davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida fuqaroviy mas’uliyatini chuqur his qilishi, jamiyatning ijtimoiy-iktisodiy, huquqiy munosabatlarida, ayniqsa kasbiy yo‘nalishlarini tanlashda sobitqadam, shijoatli, jasoratli va yangilikka intiluvchan fazilatlarini namoyish qila olishi jamiyatni shunchalik taraqqiyotga olib chiqadi.

Darhaqiqat, mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarga to‘la qonli ishtirok etuvchi, zamonaviy ilm-fan, texnologiya yutuqlarini egallovchi, sog‘lom va barkamol, erkin fikr va dunyoqarashga ega shaxslar sifatida tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan turli salbiy ta’sirlardan asrab-avaylash dolzarb vazifalar qatoriga kiradi.

Bugun yoshlar faoliyatini keng qamrovli yo‘nalishlarini belgilashda oila, mahalla, ta’lim va ta’limdan tashqari muassasalar faoliyatlari o‘rtasida uzviy hamkorlik ishlarini yangi sifat darajasiga ko‘tarish muhim. Yoshlarning intellektual salohiyatini, jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini aniqlash va uni maksad sari samarali yo‘naltirish, har bir yosh o‘smirga hayotiy pozisiyasini belgilash sharoitini yaratadi.

Shunday ekan, yoshlarning muvaffaqiyatga erishish sirlaridan saboq bermasdan, ma’naviy salohiyatlarini oshirmasdan ko‘zlangan natijalarga erishish qiyin. Zero, har bir yosh betakror o‘z xususiyat fazilatlari bilan shakllanadiki, uni ro‘yobga chiqarishning ilmiy-amaliy dasturlarini yaratish bilan yutuq va marralar zabt etiladi.

Tajribalar shundan dalolat beradiki, ayrim yoshlar maqsad deb, o‘z mayli va istaklarini qondirishga qaratilgan mavsumiy hamda tor intilishlarini tasavvur qiladilar. Maqsad axloqiy mazmun-mohiyatiga ko‘ra ezgu va bunyokorligi bilan inson maqsadiga aylanadi. Agar u komillikka, farovonlikka, baxt-saodatga xizmat qilmasa, uni maqsad deb bo‘lmaydi. Inson maqsadi xalqqa, kerak bo‘lsa bashariyatga xizmat qilmog‘i lozim. Zero, inson mehnat bilan o‘z qiyofasini yaratadi.

Shunday ekan, maqsadga erishishning sirlari nimada, uning qanday yo‘llari bor?! Maqsadga qaratilgan intilishlarimizning amaliy ifodasi qanday amallar bilan belgilanadi?! Nazarimda, bunday savollar barcha yoshlarni o‘ylantiradi. Chunki yoshlar eng faol, qiziquvchan, ayni paytda ishonuvchan, ehtirosli qatlam bo‘lib, ijtimoiy va ma’rifiy himoyaga muhtoj. Ayniqsa, yoshlarni hayotning murakkab, ba’zan ziddiyatli qarama-qarshi suqmoqlaridan olib o‘tish uchun ham ma’lum tajribalarni ommalashtirish zarurati tug‘iladi. Inson faqat o‘zining shaxsiy sa’y-harakatlari natijasidan baxtli bo‘ladi. Maqsadga erishish uchun esa unga ozroq jasorat, did, o‘z ishiga muhabbat va dastavval faoliyat mantig‘i kerak bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan bu boradagi ayrim mulohaza, tavsiya va qarashlarni[1] yoshlar bilan baham ko‘rsak:

- Ba’zan hoyu-havasga ham maqsad, deb qaraymiz. Zero, insonning maqsadi ana shu orzu-havaslardan boshlansa-da, unga ichki salohiyatlarimizni safarbar etmagach, maqsadga erishish murakkab bo‘lib qoladi. Natijada o‘zimiz bilan bog‘liq bo‘lgan muvaffaqiyatlarimizni orzular girdobiga g‘arq qilamiz. Aybni esa hargalgidek ijtimoiy omillardan yoki bizni tushunmagan yaqinlarimizdan qidiramiz.

- Maqsad kuchli hohish va istakning hosil bo‘lishi bilan boshlanadi. Xohish, oddiy eyish va ichishga bo‘lgan xohishdan farqli ravishda bizni komillikka etaklaydigan kuchli darajadagi ma’naviy ehtiyojga aylanmog‘i zarur. Chunki barcha yutuqlarning garovi ana shunday kuchli istaklardan boshlanadi. Ammo, maqsad yo‘lida sabr va qanoatli bo‘lish talab etiladi.

- Maqsadni amalga oshirish yo‘lida irodani mustahkamlang. Iroda orqali biz maqsadga erishishga qaratilgan harakatlarimizning muntazamligini ta’minlaymiz. Agar biz maqsadga erishish amallarini bilsagu, unga rioya qilmasak, maqsadimiz yo‘lida siljimaymiz.

- Maqsad yo‘lida o‘zingizning qusurlaringizga qarshi borishni

o‘rganing hamda shu yo‘nalishda moddiy, ma’naviy va jismoniy imkoniyatlaringizni takomillashtirib borishga erishing. Zararli bo‘lgan ishtiyoqlaringizni maqsad uchun foydali harakatlarga aylantiring, vaqtni qadrlash, tejash, samarali foydalanish malakasini shakllantiring. Kerakli va keraksiz narsalarni farqlang.

- O‘zingizga nisbatan beshavqat bo‘ling. Illatlarinigizni ayyovsiz fosh qiling va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini tuzing.

- Muvaffaqiyatsizlikning ko‘plab sabablari e’tiborsizlik, loqaydlik yoki yarim chala qilingan ishlardan qoniqish tufayli sodir bo‘ladi. Bu g‘oyaning mavhumligi va e’tiqodning zaifligi, intizomsizlik va irodasizlikning belgisidir.

Muxtasar aytganda, aqlan etuk, ruhan tetik va sog‘lom, erkin va tanqidiy fikrlovchi, ayni paytda, ijtimoiy mas’uliyatni to‘g‘ri his etadigan, muayyan kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash, ma’naviy-axloqiy tahdidlarga qarshi turadigan g‘oyalarni targ‘ib qilish – bugungi kunning asosiy shioriga aylanmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” qonuni (14.09.2016 yil O‘RQ-406-son). https://lex.uz/uz/docs/-3026246

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” PF-37-son Farmoni. https://lex.uz/docs/6811936

3. Alimardonov T. Maqsadga eltuvchi yo‘l yohud yosh do‘stimga maslahat (risola). T.: “TAQI”, 2014.

RAQAMLI DAVRDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA MUAMMOLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Emil MURTAZIN,
Jizzax politexnika instituti assistenti

Anvar QOSIMOV,
Jizzax politexnika instituti talabasi

Raqamli davr texnologiyaning jadal rivojlanishi va kundalik hayotga keng qamrovli kirib borishi bilan yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu davr nafaqat ma'lumot va aloqa vositalariga tezkor kirish, balki bir qator jiddiy muammolar, shu jumladan qadriyatlarning yo'qolishi, axloqiy ko'rsatmalarning buzilishi va psixologik muammolarning ko'payishi bilan ajralib turadi.

Ushbu maqolada biz raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'sirini ko'rib chiqamiz, shuningdek raqamlashtirishning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo'llarini ko'rib цифровизациисhiqamiz [1]. Ushbu muammolarni tushunish va ularni hal qilish yo'llarini topish raqamli dunyoda yoshlarning rivojlanishi uchun sog'lom va uyg'un muhit yaratish yo'lidagi muhim qadamlardir.

Raqamli va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri

Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta'siri ko'p jihatlarga taalluqlidir va ijobiy va salbiy oqibatlarga olib keladi.

Ijobiy tomonlarga quyidagilar kiradi:

1. Ma'lumotlarga tezkor kirish: yoshlar Real vaqt rejimida turli xil mavzular bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlari mumkin, bu ularning ta'lim va rivojlanishiga yordam beradi.

2. Ta'lim va o'z-o'zini rivojlantirish: raqamli texnologiyalar yoshlarga bilim va ko'nikmalarini kengaytirishga yordam beradigan onlayn kurslar, ta'lim resurslari va o'z-o'zini rivojlantirish ilovalariga kirish imkonini beradi [2].

3. Global aloqa: ijtimoiy tarmoqlar yoshlarga butun dunyo bo'ylab odamlar bilan muloqot qilish, tajriba va g'oyalar almashish imkonini beradi, bu esa madaniy boyitish va madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga yordam beradi.

4. O'zini ifoda etish platformasi: yoshlar o'z g'oyalari, ijodiy ishlari va jamoat hayotida ishtirok etish uchun raqamli va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishlari mumkin.

Biroq, salbiy tomonlar ham mavjud:

1. Axborotning haddan tashqari yuklanishi: ma’lumotlarning doimiy oqimi miyaning haddan tashqari yuklanishiga, stressga va diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

2. Giyohvandlik va begonalashish: ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish virtual dunyoga qaramlikka va haqiqiy munosabatlar va jamiyatdan uzoqlashishga olib kelishi mumkin [3].

3. Ruhiy salomatlik uchun xavf: raqamli texnologiyalar salbiy kontent, kiberbulling va xavotirni tarqatishga yordam beradi.

4. Maxfiylikni yo‘qotish: ijtimoiy media platformalarida shaxsiy ma’lumotlarni to‘plash va ulardan foydalanish imkoniyati yoshlarning shaxsiy hayoti va xavfsizligini buzishi mumkin.

Shunday qilib, raqamli va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlarga ta’siri ham ijobiy, ham salbiy tomonlarga ega va texnologiyadan foydalanishning afzalliklarini maksimal darajada oshirish va ularning salbiy ta’sirini minimallashtirish strategiyasini ishlab chiqish muhimdir.

Raqamlashtirishning salbiy oqibatlarini bartaraf etish usullari: Raqamlashtirishning salbiy oqibatlarini bartaraf цифровизацииetish ta’lim dasturlari, jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va ota-onalarning faol ishtirokini o‘z ichiga olgan tizimli yondashuvni talab qiladi [4]. Raqamlashtirishning salbiy oqibatlarini bartaraf etishning ba’zi usullariцифровизации:

1. Ta’lim va raqamli savodxonlik: yoshlar o‘rtasida raqamli savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim dasturlarini amalga oshirish muhimdir. Ushbu dasturlar ma’lumotni tahlil qilish ko‘nikmalarini, manbalarning ishonchliligini baholashni, shuningdek, internetning o‘zaro ta’siri madaniyatini o‘rganishni o‘z ichiga olishi kerak.

2. Sog‘lom muvozanatni qo‘llab-quvvatlash: yoshlarni onlayn faoliyat va haqiqiy hayot o‘rtasida muvozanatni saqlashga undash muhimdir. Bunga internetda vaqt chegaralarini belgilash, qurilmalardan muntazam ravishda tanaffus qilish vabozordan tashqari tadbirlarda faol ishtirok etishkiradi.

3. Psixologik yordam: raqamli muhit bilan bog‘liq stress, tashvish yoki depressiyadan aziyat chekayotgan yoshlar uchun arzon psixologik xizmatlarni taqdim etish muhimdir. Psixologik maslahat yoshlarga salbiy his-tuyg‘ularni engish strategiyasini ishlab chiqishga va raqamli haqiqatga moslashishga yordam beradi.

4. Jamiyatning faol ishtiroki: jamiyatni raqamli texnologiyalarning yoshlarga ta’siri va raqamli muhit uchun axloqiy va huquqiy qoidalarni ishlab chiqish bo‘yicha muloqotga jalb qilish muhimdir. Bunga

muammolarni muhokama qilish va echimlarni topish uchun platformalar yaratish, shuningdek, ota-onalar, o‘qituvchilar va jamoat arboblarining yoshlarni tarbiyalashda faol ishtiroki kiradi.

5. Xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish: ishlab chiquvchi kompaniyalar va Internet-provayderlar ham yoshlar uchun xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish choralarini ko‘rishlari mumkin [5]. Bunga zararli tarkibni filtrlash, kiberbullingga qarshi vositalarni amalga oshirish va foydalanuvchi ma’lumotlarining maxfiyligini ta’minlash kiradi.

Raqamlashtirishning salbiy oqibatlarini bartaraf etish ta’lim, jamiyat, ota-onalar va texnologiya sanoatining birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. Faqatgina birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali biz raqamli davrda yoshlarning rivojlanishi uchun sog‘lom va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishimiz mumkin.

Raqamli davrda yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash muammolari tobora keskinlashib bormoqda va ularni hal qilish uchun kompleks yondashuvni talab qilmoqda. Raqamli va ijtimoiy tarmoqlar, yoshlarga aql bovar qilmaydigan imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ma’lumotlarning haddan tashqari yuklanishi, aloqa ko‘nikmalarining yo‘qolishi va psixologik muammolarning kuchayishi kabi bir qator qiyinchiliklarga duch keladi.

Biroq, jamiyat, ta’lim, ota-onalar va yoshlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari orqali biz raqamlashtirishning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan strategiya va choralarni ishlab chiqishimiz mumkинцифровизации. Ta’lim, onlayn faoliyat va Real hayot o‘rtasidagi sog‘lom muvozanatni qo‘llab — quvvatlash va raqamli muhitni shakllantirishda jamiyatning faol ishtiroki yoshlarning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Tan olishimiz kerakki, raqamli davr nafaqat qiyinchilik, balki qadriyatlarimiz va ko‘nikmalarimizni rivojlantirish va yaxshilash uchun imkoniyatdir. Raqamli texnologiyalardan ongli va mas’uliyatli foydalanish orqali biz bu dunyoni yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini yanada uyg‘un va qo‘llab-quvvatlay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муртазина, Д. Р. (2023). Методики преподавания и изучения английского. Science and innovation, 2 (Special Issue 14), 139-145.

2. Шакирова, Л. Ф., & Муртазина, Д. Р. Применение аудирования в обучении. Учёный XXI века, 77.

3. Kuziev, B. N., Murtazin, E. R., & Kholmuminova, D. A. (2016). Introduction information technologies to educational process. Uchenыy XXI veka, (3-1 (16)), 26-28.

4. Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2021). Изменения в сифровой коммуникатсии во время глобалной пандемии COVID-19. Молодой ученый, (21), 90-92.

5. Kuziev, B. (2023). Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 14-17.

INTEGRATSIYA RUHIY-AXLOQIY TARBIYANI TA'LIM JARAYONIGA: ENG YAXSHI AMALIYOTLAR VA TAVSIYALAR

Diana MURTAZINA,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
«Pedagogika tarixi va nazariyasi» yo'nalishi magistri

Hozirgi zamon ta'lim tizimida ruhiy-axloqiy tarbiyani integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tez o'zgarayotgan dunyoda yosh avlodning axloqiy va ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lishi, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarurdir. Axloqiy tarbiya nafaqat yoshlarning axloqiy me'yorlar va qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi, balki ularni mustahkam axloqiy pozitsiyaga ega bo'lishga tayyorlaydi.

Axloqiy tarbiyaning mohiyati yoshlarning axloqiy ongini va his-tuyg'ularini rivojlantirish, ularda axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda o'quv dasturlari, o'qituvchilar va ota-onalarning o'zaro hamkorligi muhim rol o'ynaydi [1]. Har bir ta'lim muassasasida axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratish, ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish, axloqiy va estetik tarbiyani birlashtirish, axloqiy qadriyatlarning barqarorligini ta'minlash o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi.

Mazkur maqolada axloqiy tarbiyani ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish bo'yicha eng yaxshi amaliyotlar va tavsiyalar muhokama qilinadi. Ushbu tajribalar va tavsiyalar orqali maktab va oliy ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshirish va yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashga yo'naltirilgan yondashuvlar taqdim etiladi.

Axloqiy tarbiya: mohiyati va ahamiyati: Axloqiy tarbiya – bu insonning shaxsiy va ijtimoiy kamolotini qo'llab-quvvatlash, etika,

madaniyat va ma’naviy me’yorlarni o‘zlashtirish, jamiyatga foydali faoliyatlar ko‘rsatish va juda qadriyatli bir shaxs bo‘lish protsessi. Axloqiy tarbiya orqali inson faoliyatlari va munosabatlarida salohiyatli bo‘lish, muloqotlarda rahmatli, muxoliflar bilan tinchli munosabatlar qo‘llab-quvvatlanishi ko‘rsatiladi [2]. Ushbu tarbiya shaxsning qadriyatlari, yoshlarda yoki kichik kuzatuvlarda shakllanadi, bir necha marotaba axloqiy tarbiya orqali shakllanishi mumkin.

Axloqiy tarbiyaning ahamiyati juda katta. U insonning insonligini yanada oshirib, jamiyatda uzlikka munosib bo‘lishini ko‘rsatadi. Ahloqiy me’yorlarga ega bo‘lish kishiga tashqari, jamiyatga ham foyda keltiradi. Axloqiy tarbiyaning jamiyatdagi ommaviy muhimligi ma’lum. Ushbu tarbiya orqali insonni yotqizish va jamiyatdagi tartib-tezkorlikni saqlab qolish mumkin. Ahloqiy tarbiya insonning jismoniy va ruhoniy salomatligini qo‘llab-quvvatlash bilan birgalikda, jamiyatning umumiy salomatligini ko‘paytirish uchun ko‘rsatiladi.

Muassir integratsiya: eng yaxshi amaliyotlar: Muassir integratsiyada eng yaxshi amaliyotlar o‘quv dasturlarida axloqiy mavzularni joriy etish, qimmatli hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va ustozlar hamda ota-onalarning hamkorligi katta muhimlikka ega [3]. Ushbu amaliyotlarga ega bo‘lish hamda ularni amalga oshirish uchun asosiy tavsiyalar ko‘rsatilgan.

1. O‘quv dasturlarida axloqiy mavzularni joriy etish:

• Maktab va oliy ta’lim dasturlarida axloqiy ta’limga bag‘ishlangan alohida fanlar yoki modullarni kiritish. Masalan, tarix, adabiyot va falsafa darslarida axloqiy-etik mavzularni muhokama qilish.

• O‘quvchilarni bahs va muhokamalarga jalb etish orqali axloqiy masalalarni tahlil qilish.

2. Qimmatli hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish:

• Sinfdan tashqari faoliyatlar: ixtiyoriy ishlar, ijtimoiy loyihalar va madaniy tadbirlar orqali o‘quvchilarda rahmdillik, hamkorlik va jamoaviylikni rivojlantirish [4].

• Axloqiy tushunchalarni hayotda qo‘llashni o‘rgatish uchun simulyatsiyalar va ro‘yxatdan o‘tkazilgan vaziyatlardan foydalanish.

3. Ustozlar va ota-onalarning hamkorligi:

• Ota-onalar bilan uchrashuv va maslahatlashuvlar o‘tkazish orqali ularni ham axloqiy tarbiya jarayoniga jalb qilish.

• Ustozlar va ota-onalar uchun axloqiy tarbiya bo‘yicha maxsus seminar va treninglar tashkil etish.

Tavsiyalar

1. Ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish:

• O‘quvchilarga individual yondashuv: har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim berish.

• Insonparvar va xalqchil munosabatlarni shakllantirish: o‘quvchilarga hurmat, kamtarlik va mas’uliyat kabi qadriyatlarni singdirish.

2. Axloqiy va estetik tarbiyani birlashtirish:

• San’at, adabiyot va musiqa orqali axloqiy tarbiyani boyitish: badiiy asarlar va madaniy meroslarni tahlil qilish orqali estetik qadriyatlarni o‘zlashtirish.

• O‘quvchilarning axloqiy va estetik tushunchalarni shakllantirishga ko‘maklashish uchun madaniy tadbirlar tashkil etish.

3. Axloqiy qadriyatlarning barqarorligini ta’minlash:

• Axloqiy tarbiyani maktab hayotining barcha sohalarida uzluksiz amalga oshirish: darslar, sinfdan tashqari faoliyatlar va maktabdan tashqari tadbirlarda.

• Axloqiy qadriyatlarni ommalashtirish: maktab gazeta, sayt va ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy mavzularga bag‘ishlangan materiallarni chop etish.

Ruhiy-axloqiy tarbiyani ta’lim jarayoniga integratsiya qilish jamiyatning ma’naviy-axloqiy barqarorligini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘quvchilarda yuqori axloqiy qadriyatlarni shakllantirish, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirish va hayotga munosib tayyorlashni ko‘zda tutadi [5]. Eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish, jumladan, o‘quv dasturlarida axloqiy mavzularni joriy etish, hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va ustozlar hamda ota-onalarning hamkorligiga e’tibor qaratish, bu vazifani amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ustozlar o‘quvchilarga individual yondashuvni qo‘llash, axloqiy va estetik tarbiyani birlashtirish orqali ta’lim jarayonini insonparvarlashtirishlari lozim. Madaniy tadbirlar va badiiy asarlarni tahlil qilish axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Axloqiy tarbiyani maktab hayotining barcha sohalariga kiritish, uning uzluksizligini ta’minlaydi va jamiyatdagi ahamiyatini oshiradi.

Bu maqola yordamida axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar amalga oshirilishi, nafaqat o‘quvchilar, balki keng jamoatchilik uchun ham katta ahamiyatga ega. Axloqiy qadriyatlarning barqarorligini ta’minlash orqali, jamiyatimizda ma’naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Муртазина, Д. Р. (2023). Методики преподавания и изучения английского. Science and innovation, 2 (Special Issue 14), 139-145.
2. Шакирова, Л. Ф., & Муртазина, Д. Р. Применение аудирования в обучении. учёный XXI века, 77.
3. Кузиев, Б. Н., Муртазин, Э. Р., & Кҳолмуминова, Д. А. (2016). Интродустион информатион течнологиес то эдусатионал просэсс. Ученый XXI века, (3-1 (16)), 26-28.
4. Каршибоев, Ш. А., & Муртазин, Э. Р. (2021). Изменения в сифровой коммуникатсии во время глобалной пандемии СОВИД-19. Молодой ученый, (21), 90-92.
5. Kuziev, B. (2023). Искусственный интеллект в образовании. Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 14-17.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA TARBIYANING DOLZARB MUAMMOLARI HAQIDA AYRIM FIKR-MULOHAZALAR

Dilnoza XUSANOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

Ayni damda jamiyatimizda yuz berayotgan tub islohotlar va o‘zgarishlar mutaxassislarni har tomonlama raqobatbardosh va yetuk barkamol inson qilib tayyorlashni talab etmoqda. Ijodkor, faol, mustaqil fikrlovchi hayotdagi har qanday qiyinchiliklarga to‘g‘ri munosabatda bo‘lib, ularni yengib o‘tadigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun ta’lim tizimida muhim o‘zgarishlar va islohotlarni amalga oshirish hayotiy zarurat va ehtiyoj bo‘lib qolmoqda. Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yoshlarga raqobatbardosh ta’lim-tarbiya berish ularni barkamol avlod sifatida shakllantirish dolzarb maslalardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu farzandlarimizni mustaqil fikri, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustaqil hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir”[1]. Ta’lim-tarbiya oldiga qo‘yilgan muhim maqsad ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan holda ta’lim-tarbiya

mazmunini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishdan iborat. Shu asosda uning uzviyligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi asosida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni nazarda tutadi.

Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Alisher Navoiyining "Nasoyim ul-muhabbat", Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi asarlarida ma'naviy tarbiya tamoyillari jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar ahamiyatli ekanligi sanab o'tilgan. Bu tamoyillar o'tgan asrlarda qanchalik ahamiyatli bo'lsa hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q deb ayta olamiz. Aksincha, ushbu asarlardagi tarbiyaga oid nazariy va falsafiy xulosa va fikr-mulohazalarni chuqurroq o'rganib jamiyatga sodda va xalqchil qilib tushuntirishga ehtiyoj sezilmoqda. Abu Nasr Forobiyning shaharga hokim yoki imom bo'ladigan shaxsning o'n ikkita fazilatdan bittasi shaxsning jismoniy sog'lom bo'lishi aytilsa, qolgan o'n birta fazilat esa tarbiya bilan bog'liq tamoyillar haqida fikrlar bayon etilgan. Forobiy fikriga ko'ra, kishilarda tug'ma qusurlarning bo'lishi mumkin emas yoki ta'lim-tarbiya berishning imkoniyati bo'lmagan kishilar mavjud yemas. Shu nuqtayi nazardan u tarbiyani majburiy va ixtiyoriy ravishda ikkiga bo'ladi. Ikki xil kishilar borki, ularning ayrimlari ixtiyoriy ravishda qonunga bo'ysunadilar va bundan lazzatlanadilar. Boshqa tur kishilar esa, jazolanishdan qo'rqib, o'z xohish irodalariga qarshi turgan holda qonunlarga bo'ysunadilar.

Tarbiyaning o'ziga xos milliy jihatlari haqida fikr yuritganda milliy axloq xalqimiz tarixida ming-ming yillar davomida paydo bo'lib, asrlar o'tgan sari sayqal topib, insonlarni ezgu ishlarga boshlab, turmush tarzidan mustahkam o'rin olgani ma'lum. Hozirgi kunda mamlakatimizda uzviylik asosida ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Tarbiyali, ma'naviyatli yoshlar kelajak poydevoridir. Buyuk alloma Abdulla Avloniy aytganidek: Tarbiya biz uchun yo hayot–yo mamot, yo najot–yo halokat, yo saodat–yo falokat masalasidur"[3] Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham shunchalik, balki undan ham ko'proq dolzarb ahamiyatga ega. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida komil axloqli insonlarni yetishtirish, odil va xalqparvar jamiyatni yuksak axloq egalari qurishi mumkinligi haqida fikr yuritib, bunday insonlarda quyidagi fazilatlar bo'lishini ta'kidlaydi:

1. Jismoniy salomatlik va aqlik kamolotni ta'minlash. Bunday odamlarning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarni osonlik bilan amalga oshira olsin.

2. Barcha masalani, muhokama va munozarani tezda va to'g'ri tushuna

oladigan, uning ma’nosini anglay oladigan, so‘zlovchining maqsadi, aytilgan fikrlarning chinligini tezda payqay oladigan bo‘lsin.

3. Xotirasi juda baquvvat, ko‘rgan-eshitgan, sezgan narsalarning birortasini ham esdan chiqarmay yodida saqlab turadigan bo‘lsin.

4. Zehni shu darajada o‘tkir bo‘lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin.

5. So‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan ayta olsin.

6. Bilish va o‘qishga muhabbati bo‘lsin, o‘rganmoqchi bo‘lgan bilimini charchashni bilmay osonlikcha o‘zlashtira olsin.

7. Ovqatlanishda, ichimlik ichishda ochko‘z bo‘lmasin, tabiati qimor o‘yinlari o‘ynashdan uzoq bo‘lsin va ular keltiradigan xursandchilikdan jirkanadigan bo‘lsin.

8. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin.

9. Ruhning g‘ururi va vijdonini qadrlaydigan, ruhi o‘z tabiati bilan past ishlardan yuqori va olijanob ishlarga ishlatiladigan bo‘lsin.

10. Dirham, dinor va shu kabi turkumga qarashli buyumlarga jirkanib qaraydigan bo‘lsin.

11. O‘z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashlarga xayrixoh, adolatsizlik qilib jabr-zulm o‘tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo‘lsin, o‘z odamlari va boshqalarga adolatli bo‘lsin, go‘zal va yaxshi hisoblangan barcha narsalarni barchaga taqdim etgan holda, odamlarni adolatga targ‘ib etadigan, adolatsizlik oqibatlarini yo‘qotadigan, ularga yo‘l qo‘ymaydigan bo‘lsin.

12. Adolatli bo‘lsin, ammo qaysar bo‘lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, o‘zbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli bo‘lsin, o‘zi zarur deb topgan narsasini amalga oshirishda qat’iylik ko‘rsatsin, qo‘rqmas, jasur bo‘lsin, qo‘rqish va ojizlikni bilmasin[2].

Bundan tashqari yuksak ma’rifat egasi bo‘lgan Alisher Navoiy o‘zining bir qancha asarlarini ta’lim-tarbiyaga bag‘ishlagan. Insonlarni insonparvarlikka, ilm-ma’rifatli bo‘lishga chaqirgan. Shuningdek, uning o‘zi ham shu yo‘lda tinimsiz zahmatlar chekib, yoshlarning ta’lim olishi uchun qator chora-tadbirlar ishlab chiqqan. Uning asarlarida ufurib turgan ma’no shu qadar serjiloki, ular bugungi kunga qadar o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Mutafakkir shoir Alisher Navoiy tarbiya masalasi, jumladan, ota-onani hurmat qilish farzandlar burchi ekanini ta’kidlab, shunday misralarni yozgan: “Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo‘lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib,

uning boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyoing obod bo‘lishini istasang, shu ikki odam roziligini ol! Tun-u kunga nur berib turgan birisini oy, birisini quyosh bil”.

Shuningdek, milliy tarbiyamizda har bir insonning jamoat ichida o‘zini tutishi, ko‘pchilik oldida har bir so‘zni o‘ylab gapirishi, kam gapirib, ko‘p tinglashi, el ichida obro‘ topishning qiyinligi, obro‘ni to‘kish osonligini anglab yetishi, doimo yaxshilarga yondashib yurish, yomonlardan uzoqda bo‘lish va hokazolar; halollik, insoflilik borasida mehnatsevar, adolatli, kishilarga to‘g‘ri va yoqimli munosabatda bo‘lish, muhtoj kishilarga ko‘magini ayamaslik, barchaga mehr-oqibatli bo‘lish, baxil bo‘lmaslik, ta’magirlik qilmaslik, ko‘ngilda kek va g‘araz saqlamaslik, dangasalik, chaqimchilik, o‘g‘rilikdan uzoqda bo‘lish kabi yuksak axloqiy fazilatlarni o‘zida shakllantirish o‘ziga xos jihatlarimizni belgilaydigan mezonlardir.

Demak, bugungi yosh avlod ertangi kunimizning egasi, poydevori ekan, ularni milliy qadriyatlarimizdan keng va chuqur bahramand qilish, ular ongida ezgu g‘oyalarni atroflicha tarkib toptirish, bu borada milliy tarbiyamizning o‘ziga xos jihatlaridan, umuminsoniy qadriyatlardan o‘rinli va unumli foydalanish, yoshlarimizning dunyoqarashi, insoniy fazilatlarni egallab olishi va ana shu fazilatlarni izchil shakllantirib borishi jamiyatimizning, avvalo pedagogolimlarning ham asosiy vazifasidir. Zero, kelajagi buyuk davlatimiz talaba-yoshlari o‘zlarida umuminsoniy qadriyatlar, milliy ma’naviy va axloqiy fazilatlarni qanchalik puxta o‘zlashtirib olsalar, zamon talabiga shunchalik javob bera oladigan komil inson, yetuk mutaxassis bo‘lib yetishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev, “Buyuk kelajagimizni mard va olijyanob xalqimiz bilan birga quramiz”. -T. “O‘zbekiston”, 2017-yil.

2. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 159-161betlar.

3. A.Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”. –T. O‘qituvchi, 1967 yil.

YANGI O‘ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA ABDURAHMON TOSHKANDIY VA ABDULLA AVLONIY AXLOQIY QARASHLARINING AHAMIYATI

Abrorxon ASATULLOYEV,
Falsafa fanlari doktori (PhD),
Guliston davlat pedagogika instituti,
Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘lim boshlig‘i

XIX asrning oxiri XX asrning boshida Turkiston madaniyati qator talantli olim, sayyoh, shoir, pedagog, jurnalistlarni yetishtirib chiqardi, ular xalqimizning umumiy madaniyati rivojlanishiga juda katta ta’sir ko‘rsatdilar. Yevropa madaniyati yangiliklari, Yaqin Sharq mamlakatlaridagi o‘zgarishlar Turkiston madaniyatida yerli xalqning mustamlakachilik siyosati, kamsitilishiga qarshi ma’rifatchilik harakatini kuchaytirib yubordi. U asosan xalqni yangi madaniyat, ma’rifatga chaqirishga, millatni uyg‘otishga, yangilanayotgan ma’naviyatni egallashga yo‘naltirilgan edi. Asta-sekin ma’rifatchilikdan jadidchilik o‘sib chiqdi va u ma’lum darajada siyosiy masalalarni olg‘a sura boshladi. Yangi ta’lim-tarbiya, yangi maktab, yangi maorif, uni boshqarish, madaniy targ‘ibot, tashkilotchilik masalalari asosiy o‘ringa ko‘tarildi. Yangiliklarga asoslangan holda rus va eski feodal maorifdan farq qiluvchi fikr-g‘oyalar oldinga surildi, ular yerli matbuot, turli kitoblar orqali keng targ‘ib etildi. Bu madaniyatdagi mustamlakachilikka qarshi mustaqillikka xalq ongini oshirish, o‘z ahvolini yaxshilashga intilishning ko‘rinishlaridan edi[2].

Bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Ha, haqiqatan ham, shunday: bugungi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas. Sal oldingi tarixga nazar tashlaylik. XIX asrning ikkinchi yarmida milliy mustaqilligimizdan ajraldik. Jadidlar qatag‘on qilingandan boshlab ilm-fan sohasida ham turg‘unlik davri boshlandi. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, diniy, mafkuraviy tazyiqlar shunga majbur qilar edi. Hech kim o‘z fikrini ochiq-oydin bayon qila olmas, bayon qilganlarning, esa, boshiga kulfat yog‘ilar edi. Ushbu siyosat tufayli qanchadan qancha olimlar, shoiru yozuvchilarimiz “tug‘ildiyu, bo‘g‘ildi”.

Shukrki, mustaqillikka erishganimizdan keyin bunday noxush holatlarga barham berildi. Ajdodlarimiz merosi tiklana boshladi. Barcha sohalarda xalqchil islohotlar olib borildi. Xalqda ruhiy ko‘tarilish, kelajakka ishonch paydo bo‘la boshladi. Bu holat “milliy tiklanish”,

deya nom oldi. Bugungi kunda esa, milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichiga o‘tdik. Endi, albatta, qandaydir o‘zgarish bo‘lishi lozim. Chunki biz ikkita Renessansni yaratgan buyuk ajdodlarning vorislarimiz. Buni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Uchinchi Renessansga qadam qo‘yish bosqichi, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish bosqichi, deb nomlab, quyidagicha ta’rifladi: “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekist on emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”. Ushbu Uchinchi Renessans davrida Ahmad Donish, Berdaq, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Bayoniy, Avaz O‘tar kabi olim, shoirlar o‘z davrining muhim masalalarini ko‘tarib chiqdilar va xalqni ilm-fan, ma’rifatni egallashga undadilar.

Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurahmon Toshkandiy, Fitrat, Cho‘lpon, Sadriddin Ayniy, Hamza kabi iste’dod egalari jadidchilik g‘oyalarini olg‘a surish va targ‘ib qilish sohasida bayroqdor bo‘lib tanildilar. Turkistonning o‘z rivojlanish yo‘lini targ‘ib etishda jonbozlik ko‘rsatdilar. Mustaqilligimiz tufayligina millatimiz va jahon madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Sharq uyg‘onish davrini ilmiy, xolis o‘rganish, baholash imkoni ochildi. Abdurahmon Toshkandiy o‘z asarida yosh avlodni uyg‘otish uchun shularni keltirib o‘tadi: “Hayotning o‘tgan qismi o‘tib ketdi, uni qaytarish imkonsiz. Qancha qolgani ham g‘ayb pardasi ortiga berkitilgan. Kecha va erta o‘rtasidagi vaqt sizning qo‘lingizdagi vaqtdir. Umrni ayni damda deb bilmoq kerak va o‘z ishlaringizni shu zamon qilmoq kerak”[3]. Shuningdek, ma’rifatparvar “Me’yor ul-axloq” asarining ikkinchi xissasining 7 bobida inson hayotining ranginligi va Alloh taoloning ajriga noil bo‘ladigan 32 sifatning tahlilini berib o‘tganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bugungi yangi O‘zbekistonda ham ana shunday muhit yaratilayotir. Yoshlar ijodda ham, ilmda ham, tarbiyada ham peshqadam qilib tarbiyalanmoqda. Ular tarbiyasida hal qiluvchi o‘rin tutadigan bog‘chalar va maktablar tizimida ulkan o‘zgarishlarga guvoh bo‘lib turibmiz. Prezidentimiz boshchiligida “bola tug‘ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo‘lgan davrda uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o‘rin topishi uchun ko‘mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratish, mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni ta’minlash muhim”ligiga e’tibor qaratilmoqda.

Abdurahmon Sayyoh va Abdulla Avloniylarning ijtimoiy-axloqiy qarashlari ularning asarlarida izchil, mantiqiy bir-biriga bog‘liq holda

bayon qilingan. Lekin ulardan qat'iy nazar, ularning nazmiy va nasriy asarlarida axloq tushunchalari va xuld-odob qoidalarining ko'p jihatlari aks etganligi bilan ajralib turadi. Mutafakkirlarning asarlarida adolat va tenglik tushunchasiga keng o'rin beriladi. Buning boisi shuki, Jadid ma'rifatparvarlari yashagan zamonda zulm, istibdod, sitam va zo'ravonlik kuchaydi, oddiy xalqning ahvoli keskin yomonlashdi. Turkiston ma'rifatparvarlari bunday sharoitda adolatsizlik, yomonlik, fuqarolarni ezishni keskin tanqid qilibgina qolmasdan, balki amaldorlar, boylar, mustamlakachilar va uning yaqinlarini odil bo'lishga, mazlumlarga ozor bermaslikka da'vat qildilar.

Abdurahmon Sayyoh va Abdulla Avloniylar ko'tarib chiqqan yana bir masala odil va fozil podsho g'oyasidir. Bu mavzu aslida yangi bo'lmasdan insoniyatni azaldan qiziqtirib kelgan. Ular o'z salaflari singari odil podsho orqali o'z orzu-umidlarini, mukammal jamiyat to'g'risidagi fikrlarini ilgari surdilar, zolim va johil hukmdorlarning yaramas odatlarini qoraladilar.

Umuman olganda, har bir jamiyat adolatli va farovon jamiyat qurishga intiladi. Asrlar davomida kishilar adolat uchun kurashgan, mislsiz qurbonlar berilgan. Bizning nazarimizda, adolat va uning tantanasi uchun kurash g'oyasi hozir ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Biz yangi ozod jamiyat, huquqiy davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, adolat tamoyilini ustuvor vazifa sifatida e'tirof etamiz. Va hech qanday kuch bizni bu yo'ldan ortga qaytara olmaydi",[1] - degan edi.

Abdurahmon Sayyoh va Abdulla Avloniylar insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri insonparvarlikka ham katta e'tibor berganlar. Adolat singari, insonparvarlik uchun kurashib kelganlar.

Xulosa shuki, Renessansning tayanch ustunlari bo'lmish biz — pedagoglar, tarbiyachilar, o'qituvchi, ziyolilar hamda ota-onalar bunday imkoniyat va shart-sharoitlardan foydalanib, ma'naviyati yuksak avlodni tarbiyalashimiz va iymonni qaror toptirish choralarini ko'rishimiz kerak. Avvalo, har bir shaxs, ayniqsa, yosh avlodni Uchinchi Renessans barpo etilishiga ishontirishimiz kerak.

Bugun Yangi O'zbekistonda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" bosh g'oyasiga tayanib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasi qo'yilgan ekan, uni bajarish uchun birgina rahbar, pedagog yoki tarbiyachi emas, balki shu Vatan barchamizniki, deya ko'nglida vatanparvarlik, xalqparvarlik, insoniylik fazilatlari mujassam, iymon-e'tiqodi butun bo'lgan har qanday shaxs targ'ibotchi bo'lishi lozim.

To'g'ri, biz Uchinchi Renessansni bir yilda, besh yilda, o'n yilda

amalga oshiramiz, deb bong urmaymiz, lekin mana shu Renessansni yaratadigan avlodni voyaga etkazishga kuchimiz ham, qudratimiz ham, imkoniyatimiz ham yetarli. Shunday ekan, bizdan faqat mehnat va ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 31.08.2021.

2. Маънавият юлдузлари. Масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев. Т.: А.Қодирий номидаги халк мероси нашриёти, 1999., -Б. 321.

3. معیار الاخلاق. غلام حسن آرفجانوف متبعی. تاشکند،۲۱۹۱ –عبدالرحمان سیاح تاشکندی (Abdurahmon Sayyoh Toshkandiy-Me'yor ul-axloq. G‘ulom Hasan Orufjonov matbaasi. Toshkent, 1912) – B. 145.

YUKSAK INTELLEKTUAL SALOHIYAT – SUVERENITET KAFOLATI

Sanjar HAMROYEV,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
«Ijtimoiy-siyosiy fanlar» kafedrasi katta o‘qituvchisi

Insoniyat bir paytlari hayoliga ham keltirmagan g‘oyalar bugun globallashuv makonidan chiqib sayyoralararo muloqot maqomiga ko‘tarilib bormoqda. Hatto qudratli davlatlar o‘z imkoniyatlarini fazoda sinab ko‘rishmoqda. Oyni, Marsni o‘zlashtirish, samoviy kemalarda parvoz qilish odatiy holga aylanib bormoqda. Hattoki fazoda harbiy mashqlar o‘tkazish amaliyoti ham boshlab yuborildi. Bu esa davlatlar suvereniteti bora-bora kosmosda ham tatbiq etilishiga olib keladi. Endilikda sun'iy yo‘ldosh orqali butun Yer yuzini kuzatish imkoniyatlarining kengayishi davlatlar suveren dahlsizligini ham chetlab o‘tmoqda. Buning natijasida esa noma'lum hududlar, tabiiy resurslar aniqlanayotgani qatorida davlatlarning mudofaa, harbiy salohiyati haqida ham ma'lumotlar oshkor bo‘lmoqda. Shubhasiz bular yuksak intellektual salohiyat egalarining ilm-fan sohasidagi tinimsiz izlanishlari natijasi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu kabi intelligensiyaga ega davlatlar yuksalishda davom etadi va har tomonlama o‘zlarini muhofaza qila oladi.

Xo‘sh, qanday choralar milliy davlatlar intellektual salohiyatini

rivojlantirishga xizmat qiladi degan savolga javob izlaymiz.

Birinchidan, mamlakat ta'lim tizimiga ustuvor ahamiyat berish, uni sifatli amalga oshirishda mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi. Chunki millatni yuksaklikka olib chiquvchi, davlatning globallashuv jarayonlariga munosib ishtirok qilishiga asosiy omil aynan ta'lim tizimidir. «Insonlarni hech qaerda ishlatib bo'lmaydigan bilim bilan ta'minlash ularni isyon qilishga undash bilan barobardir»[6], deydi Gustav Lebon. Shuning uchun ta'lim tizimini nafaqat bugungi kun, balki kelajak nuqtayi nazaridan ham baholash talab etilmoqda. Biz buni Yaponiya, Janubiy Koreya kabi ko'plab rivojlangan davlatlar misolida juda yaxshi bilamiz. Qiziq tomoni ushbu davlatlarda tabiiy resurslar deyarli yo'q ekanligiga qaramasdan, avvalo, o'z intellektual salohiyatiga tayanib dunyoning rivojlangan davlatlariga aylangani barchaning e'tiborini tortadi. Ma'lumki, Yaponiya Ikkinchi jahon urushini mag'lubiyat bilan yakunlagan. Urushda 6,5 mln aholisi halok bo'lgan, 1,5 mln kishi bedarak yo'qolgan[5], atom bombalaridan zararlangan, ko'p hududlarini boy berib ayanchli holga tushib qolgan Yaponiya urushdan so'ng nafaqat o'zini tiklab oldi, balki tinch taraqqiyot yo'lida dunyoning eng ilg'or mamlakatlari qatoridan ham o'rin egalladi. Bunda uning o'ziga xos ta'lim tizimi, milliy an'analariga sodiq mehnatkash xalqi va G'arbning ilg'or tajribasini uyg'unlashtirgani muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bugun dunyo ta'lim tizimida oldingi o'rinlarda turuvchi Finlyandiya tajribasi ham ko'pchilikni havasini keltiradi. Chunki undagi ta'limga o'ziga xos yondashuv millat ravnaqiga munosib xissa qo'shib kelmoqda. Bunda har bir o'quvchiga iqtidor egasi sifatida qarash, tenglik tamoyilining mavjudligi, o'qituvchilar imkoniyatlarining kengaytirilganligi kabi amaliy ishlar o'z samarasini bergan;

Ikkinchidan, tafakkur va ilmiy ijod erkinligini ta'minlash. Har qanday ijod erkin muhitda yuksaladi, ayniqsa, kishining ijodkorligi bunda yaqqol namoyon bo'ladi. Bugun rivojlanishdan ortda qolayotgan davlatlarning kamchiliklaridan biri ular tomonidan inson tafakkuriga «senzura» o'rnatganligida, uni muayyan qolipga solganligidadir. Inson ijodiy faoliyati natijalariga fan, adabiyot, san'at asarlari, ixtiro, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari, EHM (elektron hisoblash mashinalari) dasturlari, asarlarning ijrolari kabilar kirib, bularni bir so'z bilan intellektual mulk ob'ektlari sifatida e'tirof etamiz. Ma'lumki, inson tafakkuri, aqli va ijodi har qanday taraqqiyotning, yuksalishning asosiy manbai hisoblanadi. Binobarin, o'z taraqqiyoti to'g'risida qayg'uradigan har qanday jamiyat ijod erkinligiga keng yo'l ochib berishi, barcha insonlar fan, adabiyot, san'at asarlaridan hech qanday to'sqinliklarsiz bahramand bo'lishiga imkoniyat yaratib berishi lozim. Undan siyosat, mafkuraviy

qurol sifatida foydalanish insoniyat tafakkuri mahsullaridan uning o‘ziga qarshi, noto‘g‘ri maqsadlarda foydalanilishiga olib kelishi mumkin. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida yagona kommunistik mafkura ta’sirida insonning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishiga qo‘yilgan to‘siqlar ko‘plab ziyolilarning o‘z qarashlaridan voz kechishiga yohud mamlakatni tark etishiga sabab bo‘lganligini unutmaslik darkor. Zero 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 19 moddasida: «Har bir inson e’tiqodlar erkinligi va ularni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to‘siqsiz o‘z e’tiqodlariga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat’iy nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi»[1], deyiladi. Shu asosda qabul qilingan mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida ham «har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi»[2] kafolatlangan bo‘lib, bu sobiq tuzumdan qolgan asoratlarni bartaraf etishning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda;

Uchinchidan, «Inson kapitali»ni qo‘llab quvvatlash ya’ni, mablag‘ni ayamaslikdir. Bugungi kunda «inson kapitali» tushunchasi shaxsning o‘ziga foyda keltiruvchi, yoki ijtimoiy himoyalash imkoniyati sifatidagi biryoqlama yondashuvdan insonning bilim darajasining samaradorligini anglatuvchi tushunchaga aylandi. Bu borada sotsiologiya fanlari doktori, professor Mansur Bekmurodov shunday deydi: «Inson kapitali – bu muayyan odamdagi bilim, tajriba, ko‘nikma va qobiliyatlarning iqtisodiy samaradorligidir. Inson kapitalidan to‘g‘ri foydalanish faqat bir tomonlama ya’ni, shaxsiy manfaat yo‘lida emas, balki jamiyat manfaatlari yo‘lida foydalanish zarurati kun tartibiga qo‘yila boshlandi»[4]. Albatta inson o‘z mehnati mahsulidan avvalo o‘zi bahramand bo‘lishga haqlidir. Chunki bunga u o‘z mehnati, qobiliyati, zehni, bilimi, harakati tufayli erishgan hisoblanadi. Lekin insonning muayyan millat vakili, muayyan davlat fuqarosi sifatida Vatani oldidagi muqaddas burchi ham borki, bu insoniylikning oliy mezonlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli ham har bir inson o‘z imkoniyatlarini Vatani, millati uchun ham safarbar qila olishi uning «ma’naviy» burchidir. Buning uchun inson kapitalini ro‘yobga chiqarishda va qo‘llab-quvvatlashda davlatning roli benihoya katta bo‘lishi kerak. Chunki inson kapitaliga yo‘naltirilgan mablag‘ ertami-kechmi o‘zini oqlaydi. Shundagina shu davlatga, shu millatga xizmat qiladigan fidoiy kadrlar yetishib chiqadi;

To‘rtinchidan, qonun ustuvorligini barcha sohalarda ta’minlanishiga erishish. Afsuski, kam taraqqiy etgan mamlakatlar hayotida qonunlarga yuzaki qarash, ularni chetlab o‘tish, yoki ularning barchaga bir hilda

ZJV5401

amal qilmasligi holatlari uchrab turadi. Buning hisobiga aholining qonunlarga, avvalo, davlatga nisbatan ishonchi yo‘qoladi. Qonun ustuvorligini ta’minlash uchun hokimiyatning barcha tarmoqlari, avvalo mansabdor shaxslarning qonun doirasida ish ko‘rib namuna ko‘rsatishlari talab etiladi. Shundagina jamiyatning qolgan a’zolari millat ravnaqiga beminnat xizmat qiladi;

Beshinchidan, fan va ishlab chiqarish o‘rtasida uzviy bog‘liqlikni ta’minlash. Ma’lumki, rivojlangan davlatlarda fan va ishlab chiqarish o‘rtasida mustahkam uzviy aloqa o‘rnatilgan. Universitetlar iqtisodiyotning, yangiliklarni joriy qilishning «lokomotivi» bo‘lib xizmat qiladi. Biroq kam rivojlangan milliy davlatlar hayotida fan ishlab chiqarishdan uzilib qolgan. Bunga sabab esa iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligi, sanoat korxonalarining yetishmasligi, ilmiy-tajribaviy ishlar uchun shart-sharoitlarning aytarli darajada ta’min etilmayotganligi kabi holatlardir. Bu «kamomad» to‘ldirilmas ekan, ushbu davlatlarning mavjud holatida o‘zgarishlar kuzatilmaydi, raqobat yuzaga kelmaydi;

Oltinchidan, xususiy mulk, shu jumladan mualliflik huquqini himoya qilish. Olim o‘zi yaratgan mulkka egalik qilishi, undan daromad ham olishi zarur. Chunki uzoq yillik mashaqqatli mehnati natijasidan boshqalar foydalanishi unga ham ma’naviy, ham moddiy ishtiyoq berishi unga keyingi ixtirolar yaratishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi. Yosh avlod esa bundan o‘ziga saboq olib, ilmiy yangilik qilishga intilishi kuchayadi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish kerakki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53 moddasida xususiy mulkning boshqa mulk shakllari singari daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi to‘g‘risidagi norma mustahkamlangan bo‘lib, bu orqali ishlab chiqarish, xo‘jalik yuritish jarayonining takomillashuvi qonunan himoya qilingan;

Yettinchidan, jamiyatda ziyolilar va o‘qituvchilar maqomini yuksaltirish. Afsuski, so‘nggi paytlarda jamiyatda san’atkorlar, sportchilar, ijtimoiy tarmoqlarda faol blogerlarga qarab ijtimoiy fikr shakllanmoqda. Biz jamiyatda yuqorida nomlari zikr qilingan toifaning ham o‘rni borligini e’tirof etamiz. Ular orasida ham bir vaqtning o‘zida ziyoli insonlar borligi ijobiy holat. Biroq ba’zi «san’atkor»lar, «sportchi»lar, «tik-toker»larning hayotga nisbatan yengil-yelpi qarashlari, o‘ziga xos turmush tarzlari qolgan jamiyat a’zolariga, ayniqsa millatning ertasi bo‘lgan yosh avlod tarbiyasiga «etalon» bo‘lishi ma’naviy qashshoqlikka, ilm-fanga qiziqmasdan pul topishning oson yo‘llariga berilib ketishiga olib keladi. Jamiyatda intelligensiyaning obro‘si, qadr-qimmati yuksak bo‘lsa, yosh avlod ularga qarab yo‘nalish oladi. Bir paytning o‘zida davlat har tomonlama rivojlanadi. Bugungi zamonda taraqqiyot cho‘qqisidagi

mamlakatlar rivojiga aynan intelligensiyaning xizmatlari borligi rad etib bo‘lmas haqiqatdir;

Sakkizinchidan, mamlakatda har kimga, har qachon, har qanday holatda va har qaerda bo‘lsa-da oliy ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish. Pandemiya insoniyatga xavf barobarida bir qator imkoniyat eshiklarini ham ochdi. Ayniqsa, aksar endi rivojlanish yo‘liga kirgan davlatlar hayotiga raqamli texnologiyalarni ommalashishiga sabab bo‘ldi. Ta’lim tizimi ham, xalqaro miqyosdagi uchrashuvlar ham onlayn tartibda tashkillashtirilmoqda. Shunday ekan oliy ma’lumotli bo‘lishga ehtiyoji bor jamiyat a’zolarining barchasiga sharoit yaratish zarur. Aholisining 55 foizini yoshlar tashkil etadigan O‘zbekiston misolida qarasak oliy ta’limga qamrov 35 mln aholiga nisbatan atigi 121 mingni tashkil etadi. Natijada ko‘pchilik xorij oliy ta’lim dargohlariga o‘qishga borishga majbur bo‘ladi. Shuning uchun ham 2030 yilgacha oliy ta’limga qamrovni 50 foizgacha oshirish maqsad qilindi[3]. Albatta bu ijobiy holat, biroq shiddatli globallashuv davri uchun bu juda kech hisoblanadi;

To‘qqizinchidan, jamiyatda tolerantlik (bag‘rikenglik) muhitini saqlanib qolishiga har tomonlama ko‘maklashish. Afsuski, bugungi aksar milliy davlatlar ijtimoiy-siyosiy hayotida mana shu tamoyilning amal qilishi tobora qiyin kechmoqda. Jumladan, davlat tomonidan olib borilayotgan ochiqlik va oshkoralik siyosati ortidan o‘zbek jamiyatida ham turli qarashlar, fikrlar, g‘oyalar «to‘qnashuvi» kuzatilmoqda. Eng xavfli tomoni diniy va dunyoviy qarashlar o‘rtasidagi murosasizlik jamiyatdagi bo‘linishga olib kelish ehtimolini yuzaga keltirmoqda. Diniy qarashlarni noto‘g‘ri talqin qilish orqali diniy mutaassiblik, dunyoviy qarashlarni bo‘rttirish orqali esa axloqsizlikning urchishi ortidan turli ijtimoiy bo‘hronlar sodir bo‘ladigan bo‘lsa, bundan tashqi kuchlar o‘z manfaati yo‘lida foydalanishi mumkin. Ilm-fan uchun esa jamiyatdagi barqaror, bag‘rikeng muhit juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki qaysi din, millat vakili bo‘lishidan qat’iy nazar o‘z intellektual salohiyati bilan insoniyatga nafi tegadigan shaxslar har doim shunday muhit tomon intilishadi. Buni Ikkinchi jahon urushi davrida fashistlar tazyiqi tufayli ko‘plab insonlar qatori olimlarning ham boshqa o‘lkalarga panoh izlab ketganligi misolida yaxshi bilamiz;

O‘ninchidan, barcha sohalarda sog‘lom raqobatni yo‘lga qo‘yish. Albatta raqobat bor joyda rivojlanish bo‘ladi. Shuning uchun ham milliy davlatlar barcha sohalar qatori ta’lim sohasida ham sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga bosh qosh bo‘lishi darkor. Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta-maxsus, oliy ta’limda professor-o‘qituvchilar, olimlar, talabalar o‘rtasida o‘zaro hurmatga asoslangan sog‘lom raqobat muhitini

shakllanishi milliy davlatlar uchun «tirgak» bo‘ladigan intelligensiyani yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, Globallashuvning shiddatli jarayonlarida mamlakatlarni teng ishtirok qilishi, yuksalishi uchun jamiyatning intellektual qatlamini safarbar qilish va ularni band qilishni davlat siyosati darajasiga ko‘tarish talab etiladi. Shuning uchun ham intellektual-ma’naviy omil milliy taraqqiyotning hal qiluvchi sharti bo‘lib, davlat qudratining eng muhim ko‘rsatkichi va jamiyatning rivojlanganlik darajasini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 1998. – B.28.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 2023. – B.23.

3. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019 yil 8 oktabr, PF-5847-son.

4. Bekmurodov M. Zamonaviy boshqaruv sotsiologiyasi. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – B.160

5. Ergashev Sh. Jahon tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2019. – B.355.

6. Lebon G. Omma psixologiyasi. – T.: Yoshlar matbuoti, 2021. – B.79.

ADABIYOTDAGI AYOL OBRAZLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI

Nodira IBROHIMOVA,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Adabiyotda ayol qahramonlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi qanday tasvirlangan? Ular hayotga qay darajada yaqin? Ko‘p hollarda erkak yozuvchilar nuqtayi nazaridan o‘sib chiqqan bu ayol personajlar ruhiyati qay darajada ochib berilgan? Erkaklar yaratgan ideal ayol qahramonlar qanday xususiyatlarga ega?

Klassik adabiyotda ayol obrazlarini aks ettirishga birinchi urinish afsonaviy qadimgi yunon shoiri Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlarida aks ettirilgan. Ushbu she’rlarda Homer qadimgi yunon adabiy an’analariga xos bo‘lgan ayol obrazining asosiy turini - sodiq, mehribon xotin tipini taqdim etadi. Iliadaning qahramoni Andromaxa

bu turga tegishli edi. Qadimgi yunon an'analarida ideal ayol va ayolning asosiy ajralib turadigan xususiyati - u jasoratli eri uchun doim tashvishda yashaydi. Qadimgi yunon adabiyotidagi bu turdagi qahramonning taqdiri ko'pincha chuqur fojiali bo'lib, uning buyukligi fojia orqali gavdalanadi. O'rta asrlar Yevropa jamiyatida ijtimoiy hayotning barcha asosiy sohalari xristian cherkovi tomonidan qat'iy nazorat qilingan va xristian qonunlariga asoslangan edi [1]. Shu munosabat bilan Yevropa adabiyotida asosiy yo'nalish paydo bo'ldi, ya'ni o'rta asr adabiyotida diniy adabiyot ustun o'rin egalladi. O'rta asrlardagi diniy adabiyot nafaqat ko'p asrlar davomida rivojlangan liturgik adabiyotlarning keng doirasini o'z ichiga oldi. Shu bilan birga, diniy pafos ko'plab adabiy asarlarga xos edi. Ba'zida diniy komponent vaqt o'tishi bilan dastlab dunyoviy janrga kiritilgan. Biroq, o'rta asrlarning oxirlarida qarama-qarshi tendensiya paydo bo'ldi.

O'rta asrlar oxiri va yangi davr chegarasida buyuk Florensiya shoiri Dante Aligeri Yevropa adabiyotida ayol obrazlarini ifodalash an'analariga yangi ruh kiritdi. U o'zining asosiy asari - "Ilohiy komediya"da asar obrazlari tizimida erkakdan kam bo'lmagan ayol - Beatriche obrazini yaratib, ayolni ilohiy poydevorga ko'tardi. Dante Aligerining deyarli barcha asarlari Beatrichedan ilhomlangan va unga bag'ishlangan. Dante o'zining marhum sevgilisiga nasroniylikning eng oliy, eng muqaddas ayoli - Xudoning onasi sifatida murojaat qiladi. Ilohiy komediyadagi Beatriche Masihning ayol analogidir, garchi ramziy ma'noda she'rning ba'zi qismlarida unga Masihga nisbatan yanada yuqori rol berilgan bo'lsada. Shunday qilib, ayol sevgisi Dante tomonidan ilohiy va qutqaruvchi Sevgi darajasiga ko'tariladi. Dantening shoir sifatida bergan va'dasi bajarildi, chunki jahon tarixida biron bir shoir biron bir ayol haqida bunday so'zlarni yozmagan. Yangi davr va ma'rifat davrida Yevropa adabiyotida ayol obrazlarining namoyon bo'lishi ayollarning huquqlari va muammolari, jamiyatdagi ayollarning o'rni haqidagi ommaviy munozaralar bilan chambarchas bog'liq edi [3].

XXIII asrdagi Ma'rifat davrida, ayol obrazlarining eng yorqin ifodasi Jan-Jak Russo asarida mavjud. «Yuliya yoki yangi Eloiza» va «Emil yoki ta'lim to'g'risida» kabi asarlarda ayol obrazlarining timsoli Jan-Jak Russoning jinslar o'rtasidagi tafovutga, erkak va ayol mos kelishi kerak bo'lgan rollardagi farqga shaxsiy falsafiy munosabatini ifodalaydi. Russo tushunchasida ayolning maqsadi erkakning maqsadidan butunlay farq qiladi. U faqat uy uchun tarbiyalanishi kerak. Ayolning taqdiri, Russoning fikriga ko'ra, mustaqil hukmlar, hatto o'z dini bo'lmagan taqdirda ham, boshqalarning fikriga moslashishdir. Shunday qilib, Russoning fikriga ko'ra, ayol hayotining ideali boshqa birovning irodasiga ko'r-ko'rona

bo‘ysunishdan kelib chiqadi. Russo ayolning tabiiy holati mutlaq qaramlikdir va qizlar itoatkorlik uchun yaratilganligini his qilishadi, qiz bola uchun jiddiy aqliy tayyorgarlik kerak emas deb hisoblardi.

Lev Tolstoyning yirik asari «Urush va tinchlik» romanidagi eng jozibali ayol obrazlaridan biri, bu shubhasiz Natasha Rostovadir. Hayotga tashna bu qiz hayratlanarli darajada ezgulik, haqiqat, san’at va tabiatning go‘zalligini his qilardi. Tolstoy Natashaning g‘ayrioddiy tabiatini uning tarbiyasi va atrof-muhitning rivojlanishiga ta’siri bilan bog‘laydi. U oddiy odamlarga, xalqining urf-odatlariga, qo‘shiqlari va marosimlariga juda yaqinlik hissiga ega. Umuman olganda, yozuvchining fikriga ko‘ra, ayol aql bilan yashamasligi kerak, sezgirlik va samimiylik uning aqli o‘rnini bosadi. Natasha Tolstoyning ideal ayol haqidagi g‘oyalarini to‘liq o‘zida mujassam etgan [4].

Ayolning yana bir ajoyib, unutilmas va ideal qiyofasini A. S. Pushkinning «Yevgeniy Onegin» romanida - Tatyana Larina obrazida yaratgan. Buyuk shoir ushbu romanda nihoyatda sodda, ammo jozibali va betakror ayol obrazini taqdim qildi. Ichkin, mehribon, ehtirosli Tatyana o‘quvchi oldida o‘zining soddaligi, yaxlit va shakllangan shaxsiyati bilan haqiqiy, jonli va mag‘rur ayol qiyofasida namoyon bo‘ladi. U oilasiga vafodorligi bilan kitobxon mehrini qozonadi [2].

«Bovari xonim» romani muallifi Gustav Flober fransuz ayoli obrazini shu qadar mohirona yarata oldiki, Emma fransuz adabiyotining asosiy qahramonlaridan biriga aylandi, oddiy ayollar esa romanni o‘qib, unga hamdard bo‘lishdi. Ayrim ayollar Bovarining qayg‘uli taqdirida o‘z hayotining aksini ko‘rishdi.

Sonya Marmeladova - F.M. Dostoyevskiy romanidagi eng ta’sirchan, himoyasiz, fidoyi ayol qahramon. Asarda u bosh qahramon Raskolnikov bilan birga markaziy rol o‘ynaydi. Qiz achchiq ichkilikboz Semyon Marmeladovning va Katerina Ivanovnaning o‘gay qizi. Sonya yosh, yuvosh, tortinchoq va chiroyli qiz. U o‘zining taqvodorligi va odob-axloqi tufayli yomon ishlarni qoralaydi. Qiz oilasini boqish uchun fohishalik qilishga majbur. Qahramon mehribon, hamdard va rahmdil odam. Sonya kichkina, taxminan o‘n yetti yoshda, ozg‘in, ammo juda chiroyli sariq sochlari, ajoyib moviy ko‘zlari bor edi. U Raskolnikovning ko‘z oldida shunday paydo bo‘ldi, o‘quvchi uni birinchi marta shunday ko‘rdi. Sonya obrazida yozuvchining har bir inson yashash huquqiga ega ekanligi haqidagi nazariya mavjud. U qizning gunoh, nima uchun qilingan bo‘lmasin, gunoh bo‘lib qolishi, jinoyat qilish bilan baxt topib bo‘lmaydi, degan e’tiqodi orqali o‘quvchiga ana shunday munosabatni taqdim etadi. Sonya baxtga yo‘l doimo azob-uqubatlardan o‘tishiga amin

va buni o‘zining kamtarligi va odamlarga va Xudoga bo‘lgan sevgisi bilan isbotlaydi. Sonya mansabdor Semyon Zaxarovich Marmeladov oilasida tug‘ilgan, u past darajadagi maslahatchi unvoniga ega. Sonyaning taqdiri qiyin edi. Bolaligida u onasidan ayrilgan. U hech qanday ta’lim olmagan. Sonya hayotining ma’nosi - bu Xudoga ishonish, rahm-shafqat, shuning uchun u Xudodan uzoq va axloqiy qonunlar kerak bo‘lmagan Raskolnikovning antipodidir. Romandagi bu qahramon obrazining vazifasi shundan iboratki, Sonya bosh qahramon Rodion Raskolnikov taqdiriga katta ta’sir ko‘rsatgan va uning axloqiy qayta tug‘ilishiga yordam bergan. Raskolnikov obrazini to‘liqroq ochib berish uchun Sonya Marmeladovaning tavsifi zarur. F.M. Dostoyevskiy uchun qahramoni - axloqiy ideal. Unga mehribonlik, kechirimlilik, muloyimlik, hamdardlik va sevgi kabi fazilatlarni beradi. Bu uning fikricha, haqiqiy ayol bo‘lishi kerak bo‘lgan yagona yo‘l. Tashqi mo‘rtligiga qaramay, u kuchli xarakterga ega.

Jahon adabiyotida bu kabi kuchli ta’sirga ega ayol obrazlar ko‘plab topiladi. O‘zbek adabiyotidagi ayol obrazlar deganda esa avvalo, ko‘z oldimizga Abdulla Qodiriyning Kumush, Zaynab, Ra’no obrazlari keladi. Ular avvalo, ibo-hayosi, kuchli irodasi, o‘qishimli ekani bilan o‘quvchi mehrini qozonadi. Adabiyot, ayniqsa, mumtoz adabiyot hamisha g‘oyalari teranligi, personajlari idealligi bilan ajralib turadi. Ayol qahramon, albatta, har qanday romanda, har qanday hikoyada mavjud. Asrlar osha bu obraz keyingi avlodning qarashlari va tarbiyasiga, shuningdek, muallifning dunyoqarashi, g‘oyalariga qarab shakllanadi. Ayollarning huquqlari, majburiyatlari va xatti-harakatlari asrdan asrga o‘zgarib turadi. Ilgari – yuz-ikki yuz yil avval – ayollarga bo‘lgan munosabat bugungi kundagidan farqli bo‘lib, ko‘plab tarixiy voqealar va o‘zgarishlarni boshidan kechirgan. Shunga ko‘ra, adabiyotdagi ayol obrazi ham o‘zgardi. Ayol va ayollik haqidagi munozaralar, albatta, adabiyotda o‘z izini qoldirmay qo‘ymadi. Klassik yozuvchilar ayollarning mohiyatini va murakkab ayol kechinmalarini iloji boricha real tasvirlashga intilishgan.

Shubhasizki, yuqoridagi adabiy obrazlarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi kitobxonlarni tarbiyalaydi, hayot va odamlarni bilishga xizmat qiladi, ayol siyratini anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Antipenko A.P. «Mifologiya bogini». M.: Ladomir, 2012.

2. A.S. Pushkin. Sochineniya v triox tomax, «Yevgeniy Onegin»; izdatelstvo «Xudojestvennaya literatura», M.,1986.

ZJV5401

3. Belyayev V.V. Antichniye tradisii v politicheskoy jizni Dante. Saratov, 2007.

4. L.N. Tolstoy. «Voyna i mir»; «Prosveshyeniye», M., 1981.

5. Sivova O.V. Obraz jenshini v poezii Serebryanogo veka (etiko-esteticheskiy analiz) - Saransk, 2002.

YOSHLAR SOTSIOLOGIYASI: TARBIYAT

Xurshid MIRZAXMEDOV,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Namangan davlat universiteti v.b. dotsenti

Globallashuv zamonga innovatsion ruhiyatini berishi, davlatlararo o‘rtasidagi taraqqiyot munosabatlarini yangi pog‘onasi onlayn (internet) shakliga o‘tkazdi. Onlayn aloqalar o‘z navbatida informatsion makonda o‘zaro siyosiy-ma’naviy murakkabliklarni hosil qilib, ta’lim-tarbiya qobig‘i, ya’ni onlayn ta’lim makonida ahloqiy tizimni izdan chiqarish kayfiyatini paydo qildi. Insoniyat tarixida sovuq urush tugab uni yangi gibrid ko‘rinishlari paydo bo‘layotgani dunyo xalqlarini tahlikaga solib qo‘ymoqda. Zamonaviy gibrid tahdidlar esa yoshlar ma’naviyatida ko‘p yoqlama immun qobig‘ining rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bugungi dunyoning 3.1 mld. aholci asosiy vaqtlarini turli videoo‘yinlarga qolgan qismi esa onlayn qimor o‘yinlarga sarflashlari, ularda befarqlik, loqaydlik, begonalashuv, jizzakilik, kosmopolitizm va nigilizm kabi salbiy tahdid avlodiga aylantirmoqda. Onlayn o‘yinlarga bugungi O‘zbek jamiyatida hamma narsaga qiziquvchi, o‘rganuvchi, talabchan bo‘lgan ilk bolalik (1-3 yosh), yosh bolalik (4-7 yosh), bolalik (8-12 yosh), o‘smirlik (13-16 yosh) va o‘spirinlik (17-21 yosh), yetuklik (22-35 yosh) davrini o‘tayotgan qatlamlarini band qilib ijtimoiy-psixologik holati izidan chiqarish bilan yangi qullik davrni boshlanayotganligi bilan o‘z tasdig‘ini topmoqda. Natijada yoshlarning ijtimoiy kayfiyati, mo‘ljali, maqsad-muddaolarida internetning yangi “virtual tahdidlar”i qaror topishga ulgurdi. Ya’ni, onlayn treyderlik, onlayn brokerlik, onlayn bukmekerlik, vertual kazino, onlayn qimor, onlayn lotereya, onlayn videoo‘yin, onlayn firibgar avlodi paydo bo‘lmoqda.

Shundan ko‘rinib turibdiki, bugungi innovatsion kapital dunyoda rivojlanib kelayotgan davlatlar aholisi pul topish va istemolchilik jamiyatida yashash kayfiyatini oshib ketishi yoshlar ma’naviyatidagi vatanparvarlik ahloqi transformatsiyalashayotganligi o‘z isbotini topmoqda. Ya’ni yoshlar fenomenining vatanparvarlik his tuyg‘usi

keskin sur'atda tushib ketishi, istemolchilik kayfiyati esa 90 %ga oshib ketishiga guvohi bo'lishimiz mumkin. Davlat kelajagini belgilovchi yoshlarni ong va qalbini iffatli saqlab qolish kundan kunga tarbiya mehnatini og'irlashib borayotgani har bir ota-onaning tarbiyada keskin innovatsion yondashish kerakligini talab etmoqda. Bunday vaziyatda yoshlar tarbiyasida oddiylikdan qochib innovatsion yondashish, yangi (oilaviy) yuvenologik immun muhitini yaratish har qachongidan ham dolzarb masala hisoblanmoqda. Shu bois, insoniyat tarixining eng muhim jihati yoshlar tarbiyasi, ularning har tomonlama dunyoqarashining kengligi, ijtimoiy faol hatti-harakatlarga tayyorligi bilan muammo, davlat siyosatining maqsad-mudaosini belgilab beradi. Zero millat har doim o'zining taqdirini yoshlarning fel-atvorida ko'rgan.

Tarbiya va innovatsion tarbiya tushunchasi: Tarbiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, jismoniy-ruhiy fazilatlarni paydo qilishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. Tarbiya insonni oila, mahalla, ta'lim va kasb muassasalarida o'qish, ishlash, yashashi uchun muhim bo'lgan fazilatlar yig'indisidir.

Innovatsion tarbiya – shaxs tarbiyasida halqning ming yildan beri shakllanib kelayotgan ma'naviy-axloqiy, jismoniy-ruhiy qadriyatlariga asoslangan milliy tarbiya muhiti, zamonaviy qadriyatlar va axborot texnologiyalariga asoslangan yangi immun tarbiya jarayoni hisoblanadi.

Yoshlar tarbiyasida innovatsion muhitni shakllantirish uchun avvaliga bugungi yoshlarini ehtiyoj, xoxish-istak va mo'ljallarini aniqlab olish orqali tarbiya muhitiga olib kira olamiz. Iste'molchilik jamiyati yoshlarining ehtiyoj va xoxish-istaklari zamonaviy hayotda yuqori ijtimoiy maqomga ega bo'lish hisoblanib, bu faoliyatini to'g'ri yo'naltirish uchun ta'lim va tarbiyada chet el tajribasidan milliy xususiyatni saqlagan holda unumli foydalanish orqali yoshlarda turli xil gibrid illat va tahdidlarni shakllanishini oldini olgan bo'lamiz.

Yoshlar tarbiyasi bo'yicha sotsiologik tahlili: Yoshlar hayotida "Yoshlar tarbiyasi" bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik so'rovnomada: "Bugungi yoshlarni shaxsiy axloqsizligini sababi" degan savol berildi. So'rovnomada qatnashganlarning 1300 nafar respondent bo'lib, undan 474 nafar respondent (36 %) "Tarbiyada ota-ona ishtirokining pasayishi", 437 nafar respondent (33 %) "Behayo rasm-videolarni tamosha qilishi", 230 nafar respondent (26 %) "Ta'limga nisbatan sovuqqonlik", 159 nafar respondent (19 %) esa "Ijtimoiy tarmoqqa bog'lanib qolish" javobini belgilab, bugungi transformatsiyalashayotgan jamiyat yoshlari hayotida ota-ona ishtirokining pasayishi ta'limga nisbatan sovuqqonlikni keltirib chiqarmoqda, bu esa jamiyatda loqaydlik, befarqlik va begonalashuv

bilan ijtimoiy sabr madaniyatiga zaruratni tasdiqladi [10].

Yoshlar tarbiyasida yangicha yondoshuvlar: Globallashuv muhitida katta bo‘layotgan yoshlar tarbiyasi borgan sari nozik va murakkablashmoqda. Uch kun farzandi bilan tarbiya munosabat o‘rnatmagan ota-ona o‘rtasida begonalashuv jarayoni kuzatilmoqda. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondoshish uchun **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqdik:

- jamiyat ijtimoiy komillik talabalarini shakllantirish va rivojlantirish kerak;

- oilada farzandni tarbiyasida jins subekti: qiz-ona, o‘g‘il-ota tarbiya texnologiyasiga e’tibor berish kerak;

- tarbiya maskani sifatida faqat oila saqlanib, mahalla va ta’lim muassasalari yo‘naltiruvchi maskanga o‘tish kerak;

- farzand idealida ota-ona obrazini saqlab qolish kerak;

- yoshlarni tarbiyasida mustaqillik g‘oyasini saqlagan holatida milliy xususiyatdan kelib chiqib, tarbiyani tizimli texnologiyalashtirish kerak;

- ta’lim-tarbiyaga innovatsion yondoshuv: smartfonlarda bog‘cha yoshidagilarga bola aqlan va ruhan rivojlanishi uchun enaga smartfon dasturi (Misol: “Gapiruvchi alfavit” dasturi), maktab yoshidagi bola-o‘spirinlarga maktab fan-dasturini tez va qulay o‘zlashtirish uchun maktab fanlarini amaliy o‘yin va ovozli va video fragmentli smartfon dasturi, OTM talaba-yoshlariga fan-dasturini tez va qulay o‘zlashtirish uchun OTM fanlarini interaktiv bosqichma-bochqich (step-by-step) o‘rganish va kutibxona smartfon dasturlarini yaratish zarur;

- kelajakda o‘g‘il bola tarbiyasida namunali ota (kuch-quvvatli, chidamli, intizomli, mas’uliyatli, sabr-toqatli) bo‘lish xususiyati, qiz bolada esa ona bo‘lish (latofatli, yumshoqli, mehribonli, nafosat va farosatli) xususiyatini saqlashga ehtiyoj ortib bormoqda;

- talaba-o‘quvchilarda yangi ijtimoiy ideal shakllanishi uchun milliy harbiy vatanparvarlik maktabi, yozgi mehnat-rohat lageri, ta’lim-tarbiyada psixologik motivatsiya beruvchi ta’lim formasini qo‘llash kerak. (Masalan: matros yoki uchuvchilarni keyim formasi);

- oilada ota-ona tomonidan dastlabki mutolaa muhabbatini shaklantirish kerak;

- bugungi yoshlarning hayotiga bosqichma-bosqich kirib kelayotgan narkotika, porno, onlayn qimor, onlayn fribgarlik va onlayn videoo‘yinlar hamma narsaga qiziquvchi, o‘rganuvchi, talabchan bo‘lgan yoshlar qatlamini band qilib vatanparvarlik kayfiyati va ijtimoiy-psixologik holatini izidan chiqarishini oldini olish uchun milliy xalq (jismoniy-ruhiy) o‘yinlarini bog‘cha, maktab va OTM dars jarayoniga amaliy kiritish

orqali yoshlar tarbiyasida interaktiv-o‘yin orqali milliylik ruhiyatiga yaqinlashish kuzatiladi.

Xulosa. Ta’lim va tarbiya tahlil va talqinlari Yaponiyada maktab o‘quvchilariga ko‘p asrlar davomida yashab kelayotgan millat milliy o‘zligi va qadriyatlarini saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazish uchun “Shodo va Xayku” she’riy san’atini dars mashg‘ulotlaridan tashqari o‘rgatiladi. Fransiyada taniqli arxitektorlar mamlakati sifatida ta’limda an’anaviy dars mashg‘ulotlaridan tashqari o‘quvchilarga dizayn va arxitektorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun to‘garaklar tashkil qilingan. Italiyada qo‘shimcha darslarni ta’lim sohasida o‘zgachaligi rassom va xaykaltaroshlar VATANI maqomini saqlab qolish uchun ham dars mashg‘ulotlaridan keyin o‘quvchilarga to‘garaklar tashkil qilinadi. Rossiya tarixan mudofaa extiyoji yuqorligi va ta’lim tizimida xarbiy litseylarni tashkili orqali yoshlarda vatanparvarlik va jangovorlik ruhini saqlab qolish uchun qo‘shimcha darslarni tashkil qiladi. Gruziyada milliy ruh va o‘zlikni saqlab qoluvchi Shota Rustavelini “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” asarini bilmagan er-yigit kuyovlik sinovdan o‘tolmaydi. Oilaviy tarbiyani jamiyatda yo‘qolishi yoshlarni YURTga sodoqat kayfiyatini susaytiradi. Er-yigitni xarbiy xizmatga bormasa, davlatning mudofaa va xavfsizlik kuch-qudrati pasayishi mumkin. Bu hol davlatga nisbatan urush va bosib olish kayfiyatini hosil qiladi. Oilaviy tarbiyani qiz bolada yo‘qolishi ona bo‘lish, halol turmush o‘rtoq bo‘lish kayfiyati o‘ladi. Bunday jamiyat va davlat halokatga uchraydi. Shu sabab, yoshlarni oilada xush fe’l va ezgu fazilatli qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi muhim masala hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida etnokonfessional qo‘l-oyog‘i, til-so‘zi, ko‘zi-qulog‘i ijtimoiy iffatli avlodni tarbiyalash, bir farzandni voyaga yetkazish eng buyuk jasoratdir. Shu ma’no-mazmunda, O‘zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev: Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangandir [7].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2021. - 464 b.

2. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2- jild, -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. - B. 229.

3. Yaponlarda bolalar tarbiyasi qanday? URL: ttps://farzand.uz/post/yaponlarda-bolalar-tarbiyasi-qanday [murojaat sanasi: 05.12.2022]
4. Shavkat Mirziyoyev: yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan URL: https://soglom.uz/archives/8338 [murojaat sanasi: 05.12.2022]
5. “Overton oynasi” yohud “yo‘q qilish texnologiyasi” URL: http://info.islom.uz/jamiyat/item/86-overton-ojnasi-jo-ud-j-ilish-tekhnologiyasi.html [murojaat sanasi: 05.12.2022]
6. Kak pravilno rastit detey ili sekretы yaponskogo vospitaniya! URL:https://hronika.info/obwestvo/21135-kak-pravilno-rastit-detey-ili-sekrety-yaponskogo-vospitaniya/ [murojaat sanasi: 05.12.2022]
7. Prezident mamlakat mafkurasining asosiy g‘oyasi nimalardan iboratligini ma’lum qildi. URL: https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/19/selector/ [murojaat sanasi: 05.12.2022]
8. Isoqov B. Oila – jamiyatning yuragi. – Namangan: Namangan, 2018. − B. 85.
9. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T-harfi. Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2004. – B. 634.
10. Muallif dissertatsiya tadqiqot so‘rovnomasidan bergan tahlili. (Mirzahmedov X.A. Yoshlarning tolerantlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning sotsiologik tahlili. sos.f.f.dok. (PhD) diss. T.: 2022)

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YAQIN SHARQ DAVLATLARIDA ZAMONAVIY SIYOSIY-IJTIMOIY JARAYONLAR XUSUSIYATLARI VA YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI

Axadjon JO‘RAYEV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni olishga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir.

Keyingi yillarda Yer yuzida keskin geosiyosiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, xalqaro miqyosda xavfsizlik va barqarorlik tizimi izdan chiqmoqda. Globallashuv jarayonining tobora shiddatli tus olishi nafaqat insoniyat imkoniyatlarini kengaytirmoqda, balki ziddiyatlarning keskinlashuvi, rivojlangan va qoloq davlatlar o‘rtasidagi tafovutning

o‘sishiga olib kelmoqda. Buning oqibatida tinchlik va barqarorlikka rahna solayotgan, mohiyati va ko‘lamiga ko‘ra transmilliy xususiyatga ega turli xatti-harakatlar sodir etilmoqda.

Mana shunday dunyoning qaynoq nuqtalaridan biri hisoblangan Yaqin Sharq globallashgan zamonaviy davrda jahon siyosatining geostrategik ahamiyatga molik mintaqalaridan biri ekanligi soha mutaxassislariga yaqindan ma’lum. Bugungi kunda ushbu mintaqadagi kuchlar nisbati va hattoki unga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari ham tobora yangi xususiyat kasb etib kelmoqda. Tabiiyki, geografik, energetik, mafkuraviy va diniy omillar Yaqin Sharqqa bo‘lgan geosiyosiy qiziqishning oshib borishi sabablaridan bo‘lib, mintaqani “katta o‘yinlar” girdobiga tortishga olib kelmoqda. Alohida qayd etadigan bo‘lsak, bu mintaqa jahonda neki muammo bo‘lsa, barchasini o‘zida mujassam qiladi. Chunki, unda etnik va diniy muammolar, chegara va qochoqlar, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar, terrorizm, ekstremizm va separatizm, uyushgan jinoyatchilik, tashqi kuchlarning geosiyosiy raqobati kabi dolzarb muammolar bir-biri bilan bog‘lanib ketgan.

Bugungi kunda bir qator tadqiqotchilar Yaqin Sharq mamlakatlarida birin-ketin sodir bo‘lgan siyosiy jarayonlar xususida hali hanuz bahs-munozaralar olib borishadi. Ushbu hodisalarda “boshqariladigan beqarorlik” texnologiyasi yetarli darajada qo‘llanilganini ta’kidlash mumkin. Bu hodisalarni g‘arb OAV “arab bahori inqilobi” deb atasa, boshqalari “arab bahori va qishi”, “arab uyg‘onishi”, “panarab inqilobi” kabi tushunchalar bilan nomlashadi (1).

“Arab bahori” tushunchasining paydo bo‘lishi xususida turli xil munozaralar va bahsli holatlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Ba’zi bir tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bugungi “arab bahori” va “arab uyg‘onishi” kabi tushunchalarni o‘rganishda arab jamiyatlaridagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning o‘ziga xos tarixiy xususiyatlarini tahlil qilish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Arab olamidagi hodisalarni tadqiqotchilar ommaviy tartibsizliklarning uchta to‘lqini sifatida baholashadi. Birinchi to‘lqin 1914-yilda sodir bo‘ldi va “Buyuk arab inqilobi” nomi bilan ataldi. Sharif Husayn rahbarlik qilgan ushbu inqilobning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning asosiy mo‘ljali arab dunyosida Usmonlilar imperiyasini tugatishga qaratilgan edi.

Ushbu to‘lqin ikkita asosiy hodisa bilan muvofiq keladi - global va mintaqaviy. Birinchi jahon urushi asosiy global hodisa hisoblansa, Usmonlilar imperiyasining tugatilishi asosiy mintaqaviy hodisa edi. Britaniya imperiyasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan ushbu inqilob to‘lqinining asosiy sababi Usmonlilar imperiyasini mintaqada mavjudligini yo‘qotish hisoblangan (2).

Ikkinchi to‘lqin XX asrning 50-60-yillarida sodir bo‘ldi va aynan 1959-yilda fransuz yozuvchisi Jak Benua Meshin tomonidan “arab bahori” atamasi foydalanildi. U o‘zining 1959-yilda nashr etilgan “Un Printemps Arabe” nomli maqolasida Yaqin Sharqda sodir bo‘lgan arab voqealarini tasvirladi va ularni 1848-yildagi “millatlar bahori” yoki “xalqlar bahori” nomi bilan mashhur Yevropa inqiloblari bilan bog‘lashga harakat qildi (3). Xuddi birinchi to‘lqin singari ikkinchi to‘lqinga ham asosiy global va mintaqaviy hodisalar muvofiq keladi. Asosiy global hodisa ikkinchi jahon urushi hisoblansa, asosiy mintaqaviy hodisa arab dunyosining markazida Isroil davlatiga asos solinishi edi. Ushbu davrda Isroil davlatining “sionizm”iga qarshi o‘laroq “arabizm” shiori asosiy o‘rinni egalladi.

Arab voqealarining uchinchi to‘lqini 2010-yil 17-dekabrda Tunisda yosh savdogar yigit Muhammad Buazzaziyning Sidi-Buzid shahar maydonida namoyishkorona norozilik bildirishi natijasida boshlandi. Bu esa mamlakat yoshlari hayotida chuqur ma’naviy inqirozning yaqqol ko‘rinishi edi. Shundan so‘ng norozilik to‘lqinlari Misr, Liviya, Suriya, Iroq, Bahrayn, Yaman, Iordaniya, Marokash, Jazoir, Ummon, Quvayt, Saudiya Arabistoni, Sudan, Mavritaniya va boshqa arab mamlakatlariga yoyilib ketdi. Shu tariqa Yaqin Sharq mamlakatlarida ommaviy tartibsizliklarning ketma-ket avj olishi “arab bahori” degan atamaning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. (4)

Agar “arab bahori” arafasidagi arab mamlakatlarining ijtimoiy iqtisodiy ko‘rsatkichlariga e’tibor bilan qaraladigan bo‘lsa, quyidagi manzarani ko‘rish mumkin bo‘ladi:

Arab mamlakatlari aholisining yarmidan ko‘pini 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etgan; yoshlar va ayollar o‘rtasida dunyo miqyosidagi eng yuqori darajadagi (37%) ishsizlik mavjud edi; Misr, Tunis va Iordaniyadagi 30% oliy ma’lumotlilar ishsiz bo‘lgan; yoshlarning har beshtasidan biri boshlang‘ich maktabni tugatmagan va 50 millionga yaqin katta yoshdagilar (aholining 1/8) savodsiz bo‘lgan, ularning 2/3 qismi ayollarni tashkil etgan. (5)

Shunga qaramay, mazkur tarixiy voqea butun mintaqaning qiyofasini o‘zgartirib yubordi: Yaqin Sharqdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar dinamikasiga ta’sir ko‘rsatgan, hattoki, mintaqa geosiyosiy xaritasida o‘zgarishlar bo‘lishiga olib kelgan muhim voqea “Arab bahori” hodisalari hisoblanadi (6).

Ilmiy doiralarda mamlakat yoki ma’lum mintaqa ichidagi ijtimoiy tartibsizlik, o‘zaro nizolar va boshqa turdagi ixtiloflarga umumiy nisbat berilib “xaos” atamasi ishlatiladi. So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda

“boshqariladigan xaos”, ya’ni “boshqariladigan beqarorlik” tushunchasi keng ravishda qo‘llanilmoqda. Boshqariladigan xaos – umumiy ma’noda, tartibsizlikni keltirib chiqarish yoki tartibsizlik vujudga kelganda uni nazorat qilish va o‘z manfaatlari doirasiga moslashtirish texnologiyasi sifatida tushunilishi mumkin (7).

Zamonaviy konfliktlarning Yaqin Sharqdagi oqibatlari ko‘p qirrali va ular gumanitar, iqtisodiy, siyosiy, geostrategik, ijtimoiy-ma’naviy aspektlarni o‘z ichiga oladi. “Suriyaning o‘zida xuddi oynadagidek “arab bahori”ning salbiy va ijobiy tomonlari, ya’ni: aholining etnik bo‘linishi o‘z aksini topdi va konfessiyaviy mansubligi, mintaqadan tashqari kuchlarning aralashuvi, BMTning kuchsizligi, arab davlatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik, demokratik tuzilmalarning zaifligi, Isroilning tajovuzkorligi, Misr, Saudiya Arabistoni, Qatar, Eron, Turkiyaning gegemonlik intilishlari, transmilliy, mintaqaviy va mamlakat ichidagi terrorizmning kuchayishi, Katta Yaqin Sharqning qayta formatlanishi va h.k.”, - deya qayd etadi V.S. Yagya (8).

Ko‘pchilik tahlilchilar sodir bo‘lgan voqealarning o‘z-o‘zidan, tartibsiz ro‘y berganligi va ularni globallashuvning zamonaviy jarayonlari bilan bog‘liqligiga va ”arab bahori “ning kutilgan mevalari kutilgan natijani bermaganligini ishora qiladilar, ya’ni “arab bahori”: birinchidan, ushbu mamlakatlardagi elitalarni tubdan o‘zgartira olmadi, ikkinchidan, korrupsiya ustidan g‘alaba qozana olmadi, uchinchidan, mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni yaxshilay olmadi va to‘rtinchidan, mazkur mamlakatlarda erkinlik darajasini oshira olmadi.

Darhaqiqat, Tunisni hisobga olmaganda, hech qanday demokratik islohotlar tuzumlar qulashi bilan bo‘shliqni to‘ldirmadi va aksincha, zo‘ravonlik yanada kuchaydi.

Demak yuqorida qayd etilgan masalalardan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- birinchidan, iyosiy jarayonlar globallashib, mamlakatimizga nisbatan g‘oyaviy taxdidlar kuchayayotgan bir paytda yoshlar tarbiyasi masalalarining dolzarbligi yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

- ikkinchidan, bugungi kunda bizning fikrimizcha ma’naviyat masalalari nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyo hamjamiyatida har jihatdan davrimizning eng dolzarb masalasiga aylanmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda yoshlar ma’naviy kamolotining ijtimoiy-siyosiy tahlili masalasi yanada dolzarb ahamiyatga ega.

– uchinchidan, jahonda bugungi kunda turli global muammolar – ekologik halokatlar, terrorizm, ekstremizm, odam savdosi, giyohvandlik kabi illatlar xalqaro xavfsizlikka tahdid solayotgan bir paytda bunyodkor

g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan, odamlarni ezgulikka da’vat eta oladigan, milliy g‘oyani o‘rganish, hozirgi davrdagi murakkab ilmiy-kontseptual muammolarni tahlil qilishda, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda siyosiy, ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlarning roli muhim ahamiyatga ega.

– to‘rtinchidan, bugungi globallashuv jarayonlari dunyo xalqlarining hayotiga, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy negizlariga o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda. Dunyo xalqlari bir-biri bilan uzviy bog‘lanib bormoqda. Shunday sharoitda o‘zligini saqlab qolish, o‘ziga xos va mos diniy, milliy-ma’naviy qadriyatlarini unutmasdan, uni demokratik jamiyat qurish tamoyillari bilan bog‘liq holda amalga oshirishga erishish, demokratik jamiyat qurishni maqsad qilib olgan O‘zbekiston xalqi uchun ham muhim va dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jacques Benoist-Méchin. Un Printemps Arabe (An Arab Spring), Paris: Albin Michel, 1959.

2. Mehmet Sahin, ‘1950-1960 Arab Revolutions and the 2011 Arab Spring: Similarities and Differences’, in New World Order, Arab Spring and Turkey, B. Senem Cevik- Ersaydi and Bora Baskak (eds.), Ankara: Ankara University Center for the Study and Research for Political Psychology, 2012. – P. 3-5 .

3. The Arab Spring. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arab Spring

4. Арипов Шавкат “Араб баҳори”нинг кутилган мевалари кутилган натижаларни бердими? // “Uzbekistan-China: development of cultural, historical, scientific and economic relations”, 2021 – B.495

5. Крылов А.В., Федорченко А.В., Торин А.И. «Арабская весна»: итоги и перспективы» (круглый стол в МГИМО) // Вестник МГИМО-Университета. 2012, № 4 (25). СС. 296-299

6. Манойло А.В. Специфика цветных революций “Арабской весны” // Тренды современного политического процесса, 2013. – С. 32.

7. Подгорнова Н.П. “Арабская весна” в странах Магриба. – М.: 2014. –Б. 4

8. Сундиев И. “Управляемый хаос” Социальные технологии в массовых беспорядках // Dictum et factum, 2014. – С. 95

9. Ягья В.С. Международные аспекты арабского кризиса // Арабский кризис и между народные последствия / Под общ. ред. А.М. Васильева. Отв. ред. А.Д. Саватеев, Л.М. Исаев. – М.: ЛЕНАНД, 2014. – С. 176-238.

ZJV5401

ZAMONAVIY MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYADA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI

Dilshod SHARIPOV,
Buxoro davlat pedagogika instituti,
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

Ma'lumki, hozirgi zamonaviy dunyoda ma'naviyat ham, axloq ham, tinchlik va madaniyat ham o'ta uzviy va nisbiy tushunchalar bo'lib bormoqda. Negaki, g'arb ijtimoiy-siyosiy fikri mahsuli bo'lgan "G'arb va Sharq" bo'linishi, yoki siyosiy leksikondagi "(boy) shimol va (qoloq) janub" kabi bo'linishlar orqali ham umuminsoniy yakdil axloq va yalpi tinchlik ko'zga ko'rinmayotir. Yer sayyorasi qalqib turgan bir kosa suvga o'xshab qolmoqda. Sharqiy Evropa va Yaqin Sharqdagi notinchliklar, har xil "katta o'yin"lar jahon hamjamiyatini larzaga solmoqda. Xalqaro huquqning ojiz qoldirilishini kuzatmoqdamiz.

Biz bu yerda, ilmiy maqola ustida ishlab, anjuman, deb ma'ruza qilib turganda, G'azoda qaysidir bir norasida daydi o'qdan vafot etmoqda, qaysidir bola o'z ota yoki onasi murdasi ustida dahshatdan uvvos solmoqda yoxud qaysidir bola o'z uyining vayronasi ostida ota-onasining tirikligiga ishonmoqda, ayrimlari sochilib yotgan egulikka qovjiragan panjalarini urmoqda. Jahon ijtimoiy tarmoqlari, aqlu zakovati bor siyosatdonlar, ilm va ta'lim ahli bu haqda bong urmoqda. Yuqorida eslatilgan notinch va dahshatli holatda mavjud bo'lgan bola – ulg'aysa kim bo'ladi ? Uning bugun yoki ertaga tirik qolishiga kim kafolat beradi? Inson shunchalar ojiz qoldirildimi? Insonning insonligi unuttirildimi? Insonning azizu mukarramligi qayerda qoldi?.. Bu kabi fikrlar va savollar bo'lishi tabiiy, albatta. Biz, insoniylik, axloqiylik va tinchlik haqida o'ylashimiz, fikr yurtishimiz ham tabiiy jarayondir. Chunki xalqimizda hamma ham odam, degan naql bor. Odam borki o'ylaydi, fikrlaydi, mushohada yuritadi. *Tinchlikni qadriga etish uchun ham unga muhtoj kishilarni ko'z o'ngimizdan o'tkazishimiz zarur*. Chunki har bir inson fikrlovchi va aqlli mavjudotdir. Insonga ato etilgan ne'matlar boshqa mavjudotlarga ato etilmagan. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning ushbu ta'kidlari shu o'rinda joiz deb hisoblaymiz: "...dunyoda hech qachon bir xil tong otmaydi. Lekin jahondagi barcha xalq va davlatlar, butun insoniyat yorug' tongga qarab intilishdan charchamaydi. Ularning barchasi tinch, erkin va farovon hayot barpo etishni, bu tiriklik olamida o'zining taraqqiyot tongi, yuksalish davrlari bo'lishini istaydi"[1].

Fikr, ilm, aql, mehr, muhabbat, sabr-toqat kabi fazilatlar faqatgina

insonga xosdir, shu sababli ham ularni insoniy fazilatlar, deymiz. Bu esa tinchlikni insoniylikning zaruriy va uzviy ehtiyoji sifatida ta'kidlaymiz va shu bilan birga, tinchlik madaniyati, degan iborani ishlatamiz. ***Farobiy*** "Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim", deydi – bu qanchalar ulug' hikmat – inson insoniyat turkumida bo'lgani uchun ham tinchlikda yashashi, ya'ni inson o'z hayoti va umri davomida faqatgina tinchliknigina tanlashi shart, deyilmoqda[2]. Bu Farobiy kabi ulug' ajdodlarimizdan bizgacha etib kelgan bilimni ham eslab turish kerak, degani hamdir. Ta'kid va taklif o'rinliki, ushbu jumlani BMT Xavfsizlik Kengashining kirish qismi (majlislar zali) peshtoqiga zarhal harflar bilan yozib qo'yilishi maqsadga muvofiq ish bo'lardi. Chunki insonga insonligini eslatib turish lozim. Insonga insonday muomala qilish uchun tinchlik yer yuzi bo'ylab o'rnatilishi kerak va (BMT Xavfsizlik Kengashida) ushbu masalaga mas'ul qilingan shaxs buni his qilishi shart va unga eslatilishi kerakki, yer yuzidagi barcha xalqlar (dini, irqi, iqtisodiy holati, kelib chiqish tarixidan qat'iy nazar) faqat va faqat tinchlikka loyiqdir va har bir xalq o'z yerida suveren jamiyat/davlat sifatida oshiyon o'tashga haqlidir, ya'ni har bir xalq o'z yerida, o'z davlatini qurishga haqlidir. Inson tinch va hur yashash uchun tug'iladi va shuning uchungina kurashadi, inson zoti hayotni asrab qolish uchungina mavjuddir. Chunki o'zga tushunchalar, qadriyatlar, deylik, baxt yoki farovonlik tushunchalari tinchliksiz mavjud emas. *Hayot insonga ato etilgan eng ulug' ne'mat – u tinchlik holatidagina mavjud bo'ladi*. *Shu sababli ham tinchlik jumla tartibot mag'zi*, *taraqqiyot va barqarorlik*, *hamkorlik va o'zaro ishonch ustunidir*[3]. Buni esa yoshlarga ilm shaklida ham etkazish zarur, toki, tinchlikning inson hayotidagi nechog'lik ulug' ahamiyati borligini his etish va anglash uchun jumla mezonlar mezoni ekanligini anglab etsin. Buni metodologik bilim tarzida ishlab chiqishimiz kerak, tizimlashtirishimiz kerak – bu fan yo'lida eng diqqatli bilimlardandir. Bilim insonni ma'naviy yuksaltiradi, lekin (dunyo siyosatida) tinchlikni ta'minlashga shu asosning o'zi etarlimi? Yo'q, albatta. Unda qanday asoslar kerak? Modomiki, bilim kerak bo'lsa, qaysi bilim yer uzra tinchlikni ta'minlaydi ? Shuni ham tan olib aytish kerakki, negadir jahon siyosatida qo'lida mikrafon tutgan siyosatchiga ham, qurol tutgan askarga ham bugun (chuqur) bilim va (xolis/mustaqil) tafakkurning keragi bo'lmay qoldi, xususan, inson haqidagi bilim keraksiz bo'lib bormoqda. *Inson qadri insoniyat uzra yo'qotilmoqda.* Bu ayniqsa, hozirgi global hamjamiyatdagi "olovli o'choq"larda, global qashshoqlik, migratsiya va ish izlash asnosida sarson bo'layotgan minglab

migrantlar hayotida, ekologik fojealar va tabiiy ofatlarda barchaning – xoh u siyosatchi bo‘lsin, xoh u oddiy fuqaro bo‘lsin – ojiz qolayotganini kuzatishimiz mumkin. Zamonaviy global jamiyatda inson o‘z insonligini unutmoqda – insonga insonligini ham eslatib turish kerak. Insonga insonday muomala kerak, toki, inson hayotda o‘zini keraksiz matohdek emas, insondek his qilsin.

Garchi g‘arb olami ijtimoiy va siyosiy fanlar sohasida ancha ilgarilab ketgan bo‘lsa-da, ayrim g‘arb siyosatdonlariga tinchlik nazariyasi otaxonlari fikri etib bormayotgan ko‘rinadir. Ularning ayrimlarini insonga ta’luqli bo‘lgan qismlarini eslatib o‘tamiz. Masalan, ***I.Kant*** falsafasining eng muhim tomoni shundaki, ungacha hech bir faylasuf insonni insondek ko‘rish, insonning insoniyat bo‘lish uchun huquqi mavjudligini yozmagandi[4]. Immanuel Kant insonni tinchlik yaratuvchisi, uni hal qiluvchi “hissiy mavjudot”, deb ataydi[5]. “Uyg‘onish davri” fransuz ma’rifatining buyuk ikki mutafakkiri va ma’rifatparvar olimi Sharl Irine de Sen-P’erning Evropada abadiy tinchlik loyihasi konsepsiyasi mohiyati va *Jan Jak Russo* falsafasida esa abadiy tinchlik g‘oyasining ijtimoiy-falsafiy va siyosiy nazariya bo‘yicha mazmun-mohiyati o‘rganilgandi va tegishli tahlillar keltirilgandi. Masalan, *Sharl Irine de Sen-P’er ilk marotaba jamiyatning olg‘a qarab boradigan taraqqiyotning uzviyligi haqidagi g‘oyani ilgari surdi[6]*. Bu g‘oya amalda jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan BMTning “barqaror taraqqiyot/rivojlanish” g‘oyasining ildizidir. Evropa yoki hozirda g‘arb olami deb ataluvchi siyosiy borliqdagi tenglik holati va ichki ozodlik holatining metodologiyasining asoschilaridan biri ingliz ma’rifatparvari *Jon Lokk*ning quyidagi fikri o‘rinlidir: “Jon Lokk “to‘liq ozodlik holati” bilan birga “tenglik holati” iborasini ham qo‘llaydi: “tenglik holati – barcha hokimiyat va barcha yurisdiksiya (sud qilish hukmi) o‘zaro aloqadorki, hech kim boshqasidan ko‘prog‘iga ega emas”. Bunda quyidagicha izoh keltiriladi: “Hammaga ma’lumki, bir zot va bir turga taalluqli mavjudot tug‘ilishi bilanoq farqsiz ravishda bir xil tabiiy imtiyozga ega bo‘lishi va bir xil layoqatdan foydalanishi, shuningdek, o‘zaro munosabatlarda har qanday bo‘ysunish yoki bo‘ysundirishdan xoli tarzda teng bo‘lishi”, tushunilgan”[7]. Demak, tenglik insonni inson sifatida ko‘rsatuvchi navbatdagi mezon bo‘lib, bu ko‘proq siyosiy borliqda millatlar va davlatlar tengligi tarzida rivojlandi, insonning boshqa bir inson bilan tengligi masalasi hali hanuz o‘z qadriyat o‘lchovlarini to‘la-to‘kis topganicha yo‘q. *E.Rotterdamskiy* esa inson tabiati tinchlikka moyilligi, faqatgina munkirlargina (dindan qaytganlar) ilk marta va hozir ham hamjihatlikni buzib osmonda ham, (yerda) insonlar orasida ham bir-birlari bilan ittifoq tuzishib va yakdillik bilan o‘zlarining

tiraniya hokimiyatini o‘rnatishadi, deydi[8].

Endi, savol tug‘ilishi tabiiydirki, o‘zi qaysi fan insonni o‘rganadi, qaysi ijtimoiy soha unga insonlik ilmini o‘rgatadi – *ijtimoiy antropologiya* bo‘yicha yurtimizda biror darslik yoki o‘quv qo‘llanma yozildimi ? Shunday fan ijtimoiy fanlar tizimida shakllandimi? Chuqur fundamental tadqiqotlar amalga oshirildimi? Toki, insonshunoslik, ta’bir joiz bo‘lsa, shakl topmas ekan, insonga bolalikdan (insonni hurmat qilish) uqtirilmas ekan, ma’naviy yuksalish o‘ta qiyin jarayonga aylanadi. Yer yuzida inson ma’naviyatni o‘rnatish uchun, madaniyatni asrash uchun, axloqni saqlash uchun, insonni anglash uchun – o‘zini anglashi uchun yashaydi yoki shunday yashash joizdir, yoki shunday bo‘lishi kerak. Kerakli ish o‘zlik ishidir, millatni asrovchi ish esa milliy o‘zlikdir.

Xalqimizda insonning dardini inson oladi, degan naql borki, mehr tafti insonni inson ekanligini eslatib turadi. Ulug‘ ajdodlarimizdan meros qolgan ma’naviyat ham, aslida o‘shal mehr taftini anglashga vositadir. Bugungi kun odami ertangi kun uchun “*ma’naviyat vositachisi*” ekanligini his qilishi lozim – ma’no ajdodlarimizdan bizgacha keldimi, bizdan keyin ham ma’naviyat zanjiri bog‘lanishi kerak. Bundan tashqari, *ma’naviyat va bilimni mehr bilan ulashmoq kerak. Bilim beg‘arazdir*, *asldir*. Asliyat esa aynimaydi, u izlanadi, o‘rganiladi, mehr qo‘yiladi va etkaziladi, xolis yoziladi. Mehr aynan ulug‘ bobokalonlarimiz va samimiy o‘zbekona lutflik sodda momolarimizdan bizlargacha etib kelgan ajoyib va ulug‘vor estetik fazilatlarimizdandir, xalqimizning abadiy tinchlik madaniyatiga xos mulkidir. Ilm-fanda shu tendensiyani kuchaytirish lozim. Chunki haqiqiy ilm millat tarbiyalaydi.

Yoshlarni va odamlarni tinchlikka o‘rgatish uchun esa avvalo insonni qadrlashni, inson haqidagi bilimlarni, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatidagi oila va jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini uqtirib turishga to‘g‘ri keladi. *Jamiyat ma’lum xulq-atvor qoidalaridan iboratdir.* Bo‘lmasa, u to‘da yoki olomondir. Olomoncha madaniyat aslo madaniyat emas, aksincha, destruktiv g‘oyalar makonidir. Shuning uchun ham insonga insonligini anglatish – bu madaniyat, tinchlikka va totuvlikka o‘rgatish esa axloqdir, deb singdirilishi lozim. Tinchlik madaniyati shundagina shakllanadi. Chunki insonga insonligini, inson bolasi ekanligini tushuntirish kerak. Tushunmaydigan kishi yo‘q, tushuntirolmaydigan yoki faqatgina o‘z manfaatlarini ko‘zlaydigan jahon siyosatchilari bor – ularga yer yuzasi uzra xuddi o‘zidek, lekin rangi va tili, madaniyati va dini, urfu odatlari, qonun va mafkurasi farqlansa hamki, insonlar yashashini eslatib turish kerak. Siyosatchilarga insonni eslatib turish kerak – kim uchun ular bor va kimning manfaatlarini ifodalaydi, deb.

I.Kant shunday tushunadigan siyosatchilarni “axloqli siyosatchi” deb atagandi – bu madaniyat belgisi hamdir.

Inson hamma narsadan xoli holda tug‘iladi. “Uyg‘onish davri”dan beri “inson hur tug‘iladi”, deyiladi. Ammo hozirgi global sharoitlarda inson hur va ozod yashay olyaptimi ? Butun insoniyat tarixi guvohki, inson hamma narsani ortmoqlaydi, lekin hech narsani o‘zi bilan eltganicha yo‘q. Demak, insonga insoniylik kerak, insonshunoslikni o‘rgatish kerak va inson xolis fikrga o‘rgatilishi kerak. Shundagina jamiyatda tinchlik hukm suradi, uning mezonlari o‘rnashadi, ongu tafakkurda madaniy ildiz otadi. Jamiyat ayni madaniyatning o‘zidir, zero, unda inson yashaydi va har bir insonga ta’luqli huquq boshqasiga ham ta’luqli bo‘ladi, teng ko‘rilgan ne’matni esa adolat ataymiz. Huquqni saqlovchi qo‘riqchisi esa qonundir.

Inson yashashining o‘zi madaniyatdir. Insonning yashashi bilangina madaniyat mavjuddir. Inson bilangina jamiyat shunday ataladi. Madaniyatsiz kishi esa urushqoq va xulqsiz kishidir. Xulq insonda bo‘ladi, xulqsizni inson atolmaymiz – ya’ni urushqoqni inson atolmaymiz, u insonlikdan tashqaridadir. “...chunki tarix inson xulq-atvorining o‘zgarishidan iborat bo‘ladi”(S.Xantington iborasi)[9].

Tinchlik ongi esa insonda xulq bilan shakl topadi, madaniyat bilan fikrga aylanadi, bilim bilan xolislikka erishadi. Huquq esa insonga ato etilgan ana shunday madaniy o‘zlikdir.

Inson huquq bilangina jamiyatga tegishlidir, huquq bilangina inson inson ataladi, huquq bilangina baxt nimaligini anglaydi; inson umr, tiriklik va mavjudlik mazmunini faqatgina huquq bilangina tushunib etadi. Axloq va huquq egiz tushunchalardir, garchi xulq huquqdan avval (paydo bo‘lgan) bo‘lsa hamki. E.Rotterdamskiy falsafasida inson, insoniylik, inson tabiati yaxshi o‘rganilganki, inson uchun tabiatda “birdamlik uchun sabablar ko‘pdir”. Insonlar o‘rtasidagi o‘zaro muhabbat esa alohida etikaga oid kategoriya sifatida qaralgandi: “Shuning uchun ham o‘zaro muhabbatni qo‘llab-quvvatlashni xalqda insoniylik deyishadi va “insoniylik” so‘zining o‘zi tabiatga oid sifatlar bo‘lmay, inson tabiatiga mos bo‘lgan axloqqa oid(tushuncha)dir”[10]. Demak, xulq insoniylik mezonidir.

To‘g‘ri, axborot asrida axborotning o‘rni beqiyosdir, lekin har qanday axborot ham bilimning, ma’rifatning o‘rnini bosolmaydi. Yoshlarimizning internet va ijtimoiy tarmoqlardan axborot izlashi, xuddi o‘rta avlod vakillari ish va turmushda foydalangani kabi, bu tabiiy holdir, albatta. Lekin ularni kitobga, ma’rifatga va bilimga undash har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning ma’rifatli jamiyat qurish yo‘lidagi ushbu ta’kidlari o‘rinlidir: “Albatta,

hayot bor ekan, uning o‘tkir talablari, muammolari bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘ladi. Lekin har qanday muammoni oqilona hal qilish uchun, avvalo, *ilm* va *ma’rifat* zarur. Barchamizga, ayniqsa, rahbar va etakchilarga chuqur bilim, aql-zakovat, sabr-toqat kerak”[11]. Demak, bugungi kun rahbar shaxsi ilm va ma’rifatli, aql-zakovatli, sabru toqatli bo‘lishi kerakligi uqtirilmoqda.

Yoshlarimizni esa ilm va ma’rifatga, aql-zakovatga, sabrga kim o‘rgatadi? Oilada ota-ona, ta’lim dargohlarida ustozlar, hayot mashaqqatlarida “halollik vaksinasi” emasmi ? Demak, bolaning luqmasi halolligiga ota-onasi, so‘zi va ilmi to‘g‘riligiga ustozlari, ish va so‘z birligiga ishdagi yo‘l ko‘rsatuvchi ustoz/ustasi, jamiyatda esa to‘g‘ri va vijdonli umrguzaronlik o‘tashiga rahbar-etakchilar mas’uldir – buni esa ularga eslatib turish kerak. Rahbarga rahbarligini eslatib turish kerak, toki, insonligini unutmasinki, inson bilan ishlaydigan shaxs insonni tushunsin – shundagina u boshqaradi. Insonni tushunib qilingan ish esa o‘z o‘rnida va maromida bajariladi. Jamiyatda tinch-totuv umrguzaronlik va bag‘rikenglik siyosati shunda ildiz otadi. Metodologiya shundadir. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ushbu masalani davlat siyosati darajasiga ko‘tardi: “Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan”[12].

Alohida ta’kidlash o‘rinliki, eng yaxshi eslatma esa yaxshi bilimlar va mumtoz nazariyalardir. Gohida har doim bilim va ma’rifatni mehr bilan singdirish kerak, o‘z egasiga yetkazish kerak. Bunda, albatta, va’z-nasihat bilan uzoqqa borib bo‘lmaydi. Ko‘proq mutolaa, kitob tahsili, zamonaviy til o‘rganish va bilimlarning eng sarasini izlab topish va yoshlarga yetkazish barchamizning navbatdagi vazifalarimizdan bo‘lishi kerak, deb o‘ylaymiz. Insonni tarbiyalash, uni shaxs sifatida qaror toptirish bosh maqsadimizga aylanishi darkor. Global hamjamiyatda “siyosat ishonch qozonish musobaqasiga aylangan”(J.S.Nay ta’biri)[13] bir davrda global hamjamiyat o‘lchovlarini insonshunoslik mezonlari va o‘zaniga qaytarishi kerak. Bu esa ilmiy jamoatchilikning ko‘proq va kengroq insonga atalgan ishlarni ilmiy va siyosiy doiralarda ko‘proq taqdim etishlarini talab etadi. Chunki ko‘p eshitilgan musiqa ohangi quloqlarda qolib ketgani kabi, insonni insonga eslatib turish, har bir insonning huquqqa va tugal maqsad baxt va farovon turmush tarziga loyiq ekanligini yetkazish vositasi qayta-qayta insonni va tinchlik madaniyatini eslatib, takrorlab turishimiz kerakligini ko‘rsatmoqda.

Tinchlikni esa barchamiz qo‘z qorachig‘idek asrash uchun ham gohida har doim tinchlik haqida bildirilgan fikr-qarashlarni o‘rganib, eslab va eslatib turishimiz joizdir. Shunda uning qadriyat sifatidagi o‘rni ongu shuurimizdan o‘chmaydi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. “O‘zbekiston”. Toshkent.2022. -B. 434.

2. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. -№ S/5 (3)-2023 ISSN: 2181-1342 (Online) https://scienceproblems.uz. Sharipov Dilshod Baxshilloevich, Buxoro davlat pedagogika instituti «Ijtimoiy fanlar» kafedrasi o‘qituvchisi. Jon Lokkning tabiiy holat va tinchlikka oid qarashlari. - B.140.

3. IJTIMOIY FANLAR ilmiy, ijtimoiy va tarixiy jurnal. Qarshi – 2023. 2023 yil, 4-son. Erazm Rotterdamskiy falsafasida tinchlik qonuniyatlari. Sharipov Dilshod Baxshilloevich Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.-B.54.

4. Samuel Fillips Hantington. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va yangi dunyo tartibi. Tarjimon: Javlon Qodirov. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2023.-B.78.

5. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. “O‘zbekiston”. Toshkent.2022. -B. 289.

6. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. “O‘zbekiston”. Toshkent.2022. -B. 294.

7. Jozef Nay. Yumshoq kuch. Jahon siyosatida muvaffaqiyat vositasi. Tarjimon: “Sharqshunos tahlilchilar” klubi jamoasi. Toshkent. “Trust and support”. 2023. -B.207.

ZJV5401

SAMYUEL F.HANTINGTON QARASHLARIDA SIVILIZATSIYALARARO MUAMMOLAR IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

ZJV5401

Islombek RAXMONBERDIYEV,
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
tayanch doktoranti (PhD) va o‘qituvchisi

Nima uchun S. Xantington jamoatchilik e’tiborini madaniy farqlarga qaratdi? Uning fikricha, ular iqtisodiy va siyosiy tafovutlar bilan solishtirganda eng barqaror hisoblanadi:“...Sobiq Ittifoqda kommunistlar demokrat, boylar kambag‘al, kamba-g‘allar boyib ketishlari mumkin, lekin ruslar estonga, ozarbayjonlik esa armanga aylana olmaydi... Din odamlarni millatidan ham keskinroq ajratadi. Bir kishi yarim fransuz va yarim arab, hatto bu ikkala davlatning fuqarosi bo‘lishi mumkin. Yarim katolik va yarim musulmon bo‘lish ancha qiyin”[24].Xantington 1993-yilda “Foreign Affairs” jurnalida chop etilgan “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi?” nomli tezisida shun-day falsafiy dunyoqarashni ilgari surgan ediki,o‘z davrining siyosiy elitasi va siyosatshunos faylasuflari o‘rtasida qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘lgan edi.1996-yilda Xantington ushbu tezisni kitob holiga keltirdi.Kitob maqolaning argumentini kengaytiradi va chuqurlashtiradi: “...Bu yerda men ilgari tuzilgan savollarni takomillashtirish, batafsilroq qilish, to‘ldirish va iloji bo‘lsa, aniqlashtirishga, shuningdek, boshqa ko‘plab g‘oyalarni ishlab chiqish va ilgari umuman ko‘rib chiqilmagan yoki o‘tib ketgan mavzularni yoritishga harakat qildim...”deya ta’kidlagan.

Samuel Xantington o‘zining “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nomli tezisida sivili-zatsiyalararo konfliktlarning asosiy sababi sifatida oltida omilni keltiradi.[25]

1.Sivilizatsiya farqlari haqiqiy va asosiy bo‘lib, tez orada yo‘qolmaydi;

2.Dunyo kichikroq joyga aylanib bormoqda va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlar ortib boradi. Ushbu o‘zaro ta’sirlar “sivilizatsiya ongini” oshiradi; ya’ni ta-fovutlarni anglash. Bu, o‘z navbatida, adovatga olib keladi;

3.Iqtisodiy modernizatsiya va ijtimoiy o‘zgarishlar odamlarni uzoq yillik ma- halliy o‘ziga xosliklardan ajratib turadi. Bu milliy davlatni

[24] Huntington, Samuel P. The Clash of Civilizations. Foreign Affairs,1993. – P 21

[25] Huntington, Samuel P., The Clash of Civilizations and the Remarking World Order. Simon&Schuster&UK Ltd: London, 1998. – P 27.

o‘ziga xoslik manbai si- fatida zaiflashtiradi. Bu sodir bo‘lganda, din ko‘pincha bu bo‘shliqni to‘ldirish u- chun “harakat qiladi”. Ko‘pincha, din fundamentalistik harakatdir;

4. Sivilizatsiyaviy ongning o‘sishi G‘arbning roli bilan kuchayadi. Bir tomondan, G‘arb kuch cho‘qqisida. Bu hasad uchun sababdir. Shu bilan birga, G‘arbda ta’lim olmagan yangi elitalar boshchiligidagi mamlakatlarda “o‘zlikka qaytish” harakati mavjud. Bu harakat G‘arb g‘oyalarini (sotsializm, millatchilik) muvaffaqiyatsizlik deb biladi;

5. Madaniy xususiyatlar va tafovutlar siyosiy va iqtisodiy xususiyatlarga qara- ganda kamroq o‘zgaruvchan va murosa qilish va hal qilish oson emas. Xanting- tonning fikricha, inson o‘zining sivilizatsiyaga “a’zoligini” qanday belgilashining eng muhim jihati uning dinidir. U dinda mujassamlangan sivilizatsiya farqlarini ni- ma uchun yengish qiyinligini ko‘rsatish uchun quyidagilarni taqdim etadi. Odam- lardan milliy yoki etnik kelib chiqishini aniqlashlarini so‘rang. Ba’zi odamlar bitta identifikatsiya bilan javob berishsa (masalan, men nemisman), boshqalari bir nechta identifikatsiya bilan javob berishadi (“men yarim frantsuz va yarim irlandiyalik- man”). Lekin buning o‘rniga odamlardan o‘z dinlarini ko‘rsatishni so‘rashsa, hech kim bittadan ko‘proq identifikatsiya bilan javob berishini tasavvur qilish qiyin;

6. Iqtisodiy mintaqaviylik kuchaymoqda. Bu sivilizatsiyaviy ongni mustah-kamlashga xizmat qiladi.

Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi ikki darajada sodir bo‘ladi. Mikro darajada, turli sivilizatsiyalarning qo‘shni guruhlari hudud va bir-birlarini nazorat qilish uchun kurashadilar. Makro darajada asosiy birliklar guruhlar emas, davlatlar hisoblanadi. Turli sivilizatsiyalarga mansub davlatlar nisbiy harbiy va iqtisodiy qudrat, xalqaro institutlarni nazorat qilish va o‘zlarining siyosiy va diniy qadriyatlarini ilgari surish uchun raqobatlashadilar.

Hozircha Xantingtonning umumiy argumentini qabul qilaylik. Bu, albatta, G‘arb va Islom qandaydir darajada ziddiyatga duchor bo‘lishini anglatadi. Ammo G‘arb va Islom katta to‘qnashuvlarni boshdan kechirishini kutishga asoslar bormi?

Xantington shunday deb hisoblaydi. U “islom va nasroniylik o‘rtasida davom etuvchi va chuqur ziddiyatli munosabatlar”[26] mavjud deb hisoblaydi. U buni XI asr oxirlarida salib yurishlarining boshlanishi bilan kuzatadi. Xantingtonning fikricha, bu mojaroning sabablari geografiya, hokimiyat yoki siyosiy realizm bilan bog‘liq boshqa omillar bilan

[26] Huntington, Samuel P., The Clash of Civilizations and the Remarking World Order. Simon&Schuster&UK Ltd: London, 1998. – P 209.

bog‘liq emas. Bundan tashqari, bu to‘qnashuv “qadimgi tarix” emas; ya’ni, bu avvalgi davrda sodir bo‘lgan va hozirgi holat bilan bog‘liq emas. Xantington uchun bu mojaroning asl sababi XI asrda bo‘lgani kabi bugungi kunda ham xuddi shunday.

U G‘arb va Islom sivilizatsiyalarining o‘ziga xosligini tashkil etuvchi ikki dindan kelib chiqadi. Muammoning bir qismi din va siyosatni birlashtirgan islom- ning musulmon tushunchasi o‘rtasidagi farq va G‘arb xristianligida bu ikki tushun- chani ajratishdir. Ammo Xantingtonning fikricha, ikki sivilizatsiya o‘rtasidagi qarama-qarshilik ularning o‘xshashligi tufayli kuchayadi. Ikkala din ham monoteistikdir va qo‘shimcha xudolarni osongina o‘zlashtira olmaydi. Ikkalasi ham universaldir va hamma amal qilishi mumkin bo‘lgan (kerakmi?) yagona haqiqiy e’tiqod deb da’vo qiladi. Va nihoyat, ikkalasi ham missionerlik dinlari bo‘lib, ularning tarafdorlari imonsizlarni o‘zgartirish vazifasi borligiga ishonishadi.[27]

Shu o‘rinda Xantington G‘arb sivilizatsiyasiga asosiy raqib sifatida Islom sivi-lizatsiyasi va islom dinini keltirar ekan.Bu ikki qarama-qarshiliklarni kuchaytiruv-chi bir nechta omillarni qayd etib o‘tadi.

1. Musulmon dunyosida aholining o‘sishi ishsizlar va norozi yoshlarning katta massasini yaratdi. Bu musulmonlar ishiga yollanganlar uchun qulay zamin yaratadi;

2. Islomning qayta tiklanishi musulmonlarga, xususan, G‘arbga nisbatan o‘z sivilizatsiyasining o‘ziga xosligi va qadr-qimmatiga ko‘proq ishonch bag‘ish ladi;

3. G‘arbning bir vaqtning o‘zida o‘z qadriyatlarini universallashtirish, global hukmronligini saqlab qolish va musulmon dunyosiga aralashish harakatlari tufayli musulmonlarning noroziligi yuqori;

4. Kommunizmning yo‘q bo‘lib ketishi Islom va G‘arbning umumiy dushmanini yo‘q qildi va ikki sivilizatsiya bir-biriga tahdid degan tushunchani kuchay tirdi;

5. Global o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishi ikki sivilizatsiya o‘rtasidagi aloqa larning kuchayishiga olib keldi. O‘z navbatida, bu aloqalar har bir sivilizat siyaning o‘ziga xosligini, demak, ular orasidagi farqni kuchaytirishga xizmat qildi.

S.Xantington o‘zining tezisida sivilizatsiyalararo to‘qnashuvning nima uchun muqarrar ekanligi omillarini atroflicha yoritib bergan.”Nima uchun sivilizatsiyalar to‘qnashadi?”[28] degan savolni o‘zinining tezisida

[27] Sean Bolks,Richard Stoll. Examining Conflict Escalation within the Civilizations Context.Rice University

[28] Huntington, Samuel P. The Clash of Civilizations. Foreign Affairs,1993. – P 25

sivilizatsiyalar tabiatini tavsiflab bo‘lgach,alohida ahamiyat beradi.Ushbu jihat Xantingtonning sivilizatsiyalarga oid falsafiy qarashlarini yoritishda mantiqiy izchillikni ta’minlab bergan.

“Nima uchun sivilizatsiyalar to‘qnashadi?”

Birinchidan, Sivilizatsiyalar o‘rtasidagi farqlar nafaqat haqiqiy, balki asosiy hi- soblanadi. Sivilizatsiyalar o‘zaro tarix, til, madaniyat, urf-odatlar va eng muhimi dinga ko‘ra farqlanadilar. Turli sivilizatsiyalarga mansub aholi yaratgan va inson, shaxs va jamiyat, fuqaro va davlat, ota-ona va farzand, er va xotin munosabatlari haqida turlicha qarashlarga, shuningdek, umuminsoniy huquq va erkinliklar, adolat, mas’uliyat, hokimiyat, tenglik kabi umuminsoniy tushunchalar ahamiyati haqida turlicha qarashlarga egadir. Qarashlardagi ushbu tafovutlar asrlar mahsulidir. Ular o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘lib ketmaydi. Xantingtonning qarashlariga ko‘ra, yuqorida keltirilgan ushbu tafovutlar siyosiy g‘oyalar va siyosiy rejimlarga qaraganda ahamiyatliroq hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ushbu tafovutlar faqatgina nizolarni anglatmaydi, nizolar esa faqatgina zulmni anglatmaydi. Ammo asrlar mobaynida sivilizatsiyalar- aro tafovutlar eng uzoq va eng shavqatsiz nizolarga sabab bo‘ldi.

Ikkinchidan, Dunyo tobora kichrayib bormoqda. Sivilizatsiyalararo muloqot ko‘lami esa tobora o‘sib bormoqda. O‘sib borayotgan sivilizatsiyalararo muloqot o‘z navbatida sivilizatsiyaviy ong va sivilizatsiyalararo tafovut hamda umumiy-liklarni anglab yetishga xizmat qiladi. Misol uchun, Fransiyaga Shimoliy Afrika-ning keng ko‘lamli immigratsiyasi fransuzlar o‘rtasida qarshilik harakatini keltirib chiqaradi.

Amerikaliklar Kanada va Yevropa investitsiyasiga Yaponiya investitsiya qaraganda kamroq salbiy munosabatda bo‘lishadi.Shu o‘rinda amerikalik siyosat-shunos faylasuf Donald Horovitz “... Ibo, ehtimol, Nigeriyaning sharqiy mintaqa-sida Overri Ibo yoki Onitsha Ibo bo‘lishi mumkin.Lagosda u shunchaki Ibo. Londonda u nigeriyalik.

Nyu-Yorkda esa u afrikalik…”deya Xantingtonning qarashlarini qo‘llab quvvatlagan edi. Sivilizatsiyalararo muloqot natijasida yuzaga kelgan sivilizatsi-yaviy ong sivilizatsiyalararo uzoq tarix mobaynida kuzatilgan tafovut va ziddiyat-larni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, dunyo bo‘ylab iqtisodiy modernizatsiya jarayoni va ijtimoiy o‘z- garishlar insonlarni uzoq davom etgan mahalliy birlik

maqomidan ajratib "global qishloq"[29]birligiga aylantirdi. Ushbu jarayonlar, shuningdek, milliy davlatchilikni o'zlikni anglash manbai sifatida ham zaiflashtiradi. Natijada yuzaga kelgan bo'shliqni to'ldirish vazifasini din, asosan, "fundamentalistlar" deb ataluvchi harakat vakillari bajaradi. Ushbu harakat Katolik xristianlari (G'arbiy xristianlik), yahudiylik, buddizm va hinduizm, shuningdek, Islomda ham kuzatiladi. Ushbu harakat tarkibi esa asosan yoshlar, talabalar, o'rta sinf vakillari,mutaxassislar va biznes vakillaridan iborat bo'ladi. Amerikalik siyosiy sharhlovchi va jamiyatshu-nos Jorj Veygel bu borada "Dunyoning desekulyarizatsiyasi XX asr oxiridagi hayotning ijtimoiy faktlaridan biridir."[30] deya ta'kidlagan edi. Shuningdek, ushbu fikrga qo'shimcha tarzda fransuz siyosatshunos faylasufi va arabshunosi Jil Kepel o'z asarlarida "dinning tiklanishi (la revanche de Dieu[31]) milliy chegaralardan oshib ketadigan va sivilizatsiyalarni birlashtiradigan o'ziga xoslik va sadoqat uchun asos yaratadi." Yuqorida keltirilgan mutafakkirlar va Xantingtonning ushbu qarashlari shuni oydinlashtiradiki, din sivilizatsiyalaviy ongning asosi vazifasini bajaradigan eng muhim omil hisoblanadi.

XX asrning birinchi yarmida intellektual elita vakillari, qoida tariqasida, iqti- sodiy va ijtimoiy modernizatsiya inson hayotining muhim qismi bo'lgan dinning rolini kuchsizlantirishga olib keladi, deb hisoblashgan. Bu taxminga uni mam-nuniyat bilan qabul qilganlar ham, ushbu tendensiya haqida noliganlar ham qo'shilishgan. Modernizatsiya ateist-adeptlari mavjud dinlarning asosini tashkil etgan bid'atlar, afsonalar, irratsionalizm va diniy marosimlarning ilm-fan, ratsionalizm va pragmatizm tomonidan siqib chiqarishini olqishlaganlar. Vujudga kelayotgan davlat tolerant, ratsional, pragmatik, progressiv, insonparvar va dunyoviy bo'lishi kerak. Boshqa tarafdan xavotirga tushgan konservatorlar diniy e'tiqod, diniy institutlar va insonning individual va jamoaviy hulq-atvoriga ta'sir etuvchi dinning axloqiy dasturilamali yo'q bo'lib ketishning dahshatli oqibatlari to'g'risida ogohlantirganlar. Buning yakuniy natijasi – anarxiya (hokimiyatsizlik), ahloqsizlik, sivilizatsiyalashgan hayotning izdan chiqishi. "Agar siz Xudoni ulug'lashni xohlamasangiz (U esa – rashkchi Xudodir), unda Gitlerni yoki Stalinni hurmat qilishingizga to'g'ri keladi"

---

[29] Pim Martens, Axel Dreher, Noel Gaston. The global village and the social and cultural aspects of globalizations. Bond University. Globalization & Development centre. 17, July 2008.

[30] George Weigel, Peter L. Berger, Jonathan Sacks, Tu Weiming. The Desecuralization of the World Resurgent Religion and World Politics. Ethics and Public Policy Center Washingtong, D.C. / William B. Eerdmans Publishing Company Grand Rapids, Michigan. 1999.

[31] Gilles Kepel. Resurgence of Islam, Christianity, and Judaism in the Modern World. Pennsylvania State University Press, 1994.

– deydi T.S. Eliot.[32]

XX asrning ikkinchi yarmi bu umidlar va xavotirlar asossiz ekanligini ko‘rsatdi. Iqtisodiy va ijtimoiy modernizatsiya global miqyosga ega bo‘ldi va shu vaqtning o‘zida dinning global tiklanishi yuz berdi. Jil Kepel uni “la revanche de Dieu”, deb nomlagan tiklanish har bir qit’aga, har bir sivilizatsiyaga va deyarli har bir mamla-katga kirib bordi. Kepel ta’kidlagandek, 70-yillarning o‘rtalarida sekulyarizatsiya (cherkov yoki monastir mulkini davlat mulkiga aylantirish, din ta’siridan chiqarish) va ateizm bilan dinning qotib qolish kursi “qarama-qarshi tomonga” burildi. Yangi diniy yondashuv vujudga keldi, endi uning maqsadi dunyoviy qadriyatlarni qabul qilish emas, balki kerak bo‘lsa jamiyatni o‘zgartirish orqali jamiyatni tashkil qilish- ning muqaddas asoslarini qaytarishdir. Ko‘p usullar bilan ifodalangan ushbu yonda- shuv muvaffaqiyatsizlikka duchor bo‘lgan modernizatsiyani, uning barbodini va bo-shi berk holatini Xudodan chetlashish bilan izohlab, rad qilishni targ‘ibot qiladi. Bu endi “aggiornamento” bo‘rtirilishi emas, balki “Yevropaning ikkinchi cho‘qintirilishi”, mos ravishda boshqa maqsad bu islomni modernizatsiya qilish emas, balki “zamonaviylikni islomlashtirish”[33]dir.

To‘rtinchidan, sivilizatsiyaviy ong G‘arbning ikki tomonlama aralashivu natija- da kuchayadi. Bir tomonlama, G‘arb sivilizatsiyasi o‘z taraqqiyoti cho‘qqisidadir.

Shu bilan bir qatorda, G‘arbdan tashqari sivilizatsiyalar orasida “o‘zlikka qaytish” hodisasi sodir bo‘lmoqda. Bunga misol tariqasida Yaponiyada “Osiyolashtirish”, Hindistonda J. Neru merosi Hindistonni “hindlashtirish” siyosatining qulashi, Yaqin Sharqda sotsializm va millatchilik g‘oyalari inqirozi natijasida “qayta islo-miylashish” jarayonlarining sodir bo‘lishi, shuningdek, Boris Yelsin Rossiyasida g‘arblashuv yoki ruslashuv tanlovi borasidagi dilemmasini keltirish mumkin. Shuningdek, G‘arb o‘zining eng qudratli davrini yashayotgan bir paytda dunyoni g‘arbcha bo‘lmagan yo‘sinda shakllantirishga urinayotgan sivilizatsiyalar bilan kurashishga majbur.

Sharqiy Osiyoda hukumatlar konfutsiychilikni targ‘ib qilib, siyosiy va intellek- tual rahbarlar o‘z mamlakatlarining “osiyoliklashtirish”i haqida gapirishmoqda. XX asr 80-yillarning o‘rtalarida Yaponiya “Nixonjinron yoki Yaponiya va yaponlar nazariyasi”ga moyil bo‘lib qoldi. Keyinchalik yaponiyalik yetakchi ziyoli tarixan Yaponiya “tashqi madaniyatlarni

[32] T.S. Eliot. Idea of a Christian Society. New York: Harcourt, Brace and Company,1940. – P 64.

[33] Gilles Kepel, Revenge of God: The Resurgence of Islam,Christianity and Judaism in the Modern World. University Park, PA: Pennsylvania State University Press,1994. – P 2.

singdirish” va “bu madaniyatlarni ko‘paytirish va takomillashtirish orqali mahalliylashtirish” jarayonlaridan o‘tib kelgan, singdirilgan va ijodiy ta’sirning tugatish va tashqi dunyoga qaytish natijasida yuzaga kelgan muqarrar tartibsizliklarni boshdan kechirdi, deb ta’kidladi. ”Hozir Yaponiya“ ushbu jarayonning ikkinchi bosqichiga o‘tmoqda”.[34]

O‘tmishda G‘arb sivilizatsiyasiga mansub bo‘lmaganlar G‘arb bilan chambar-chars bo‘lgan yoki G‘arb tomon intilish kuchli bo‘lgan. Xususan, ular Oksford, Sorbon, Kembrij singari nufuzli universitetlarda ta’lim olganlar. Ular shu orqali g‘arbcha dunyoqarash va qadriyatlarni o‘zlashtirganlar. Shuningdek, ular ko‘pincha mahalliy madaniyat bilan chuqur singib ketgan.Ammo hozirda ushbu jarayonning teskarisini kuzatishimiz mumkin. G‘arbiy bo‘lmagan ko‘plab mamlakatlarda elitaning g‘arbiylashuvi va mahalliylashuvi bir vaqtning o‘zida sodir bo‘lmoqda, shu bilan birga g‘arbiy, odatda, amerikacha madaniyatlar,uslublar va odatlar xalq ommasi orasida mashhur bo‘lib bormoqda.

Beshinchidan, madaniy xususiyatlar va tafovutlar siyosiy va iqtisodiy xususi-yatlarga qaraganda kamroq o‘zgaruvchan va shuning uchun ularni buzish va hal qilish qiyinroq. Ushbu omilga Xantington quyidagicha misol keltiradi:”Sobiq Ittifoqda kommunistlar demokrat, boylar kambag‘al, kambag‘allar esa boy bo‘la olar edi.Ammo ruslar eston yoki ozarlar arman bo‘la olmas edilar. ” Sinflararo va g‘oyaviy kurashlarda o‘rtaga “Siz qaysi tomondasiz?” deya savol qo‘yiladi. Negaki bunday kurashlarda tomonlarni o‘zgartirish yoinki bir tomondan ikkinchi tomonga og‘ish holatlari kuzatilishi tabiiy. Vaholanki, sivilizatsiyalararo kurashda “Siz kimsiz?”[35] deya savol qo‘yiladi. Ushbu savolni hamda savolga berilgan javobni o‘zgartirish mutlaqo imkonsiz. Va biz bilganimizdek, Bosniyadan Kavkazgacha Sudangacha, bu savolga noto‘g‘ri javob boshdagi o‘qni anglatishi mumkin. Diniy omil, etnik omildanda ko‘ra kuchliroq odamlarni ajratib qo‘yish kuchiga egadir. Biror bir shaxs yarim fransuz yoki yarim arab bo‘lishi, shuningdek, bir vaqtning o‘zida ikki davlavlat fuqaroligiga ega bo‘lishi mumkin. Ammo yarim katolik yoki yarim musulmon bo‘lish mutlaqo imkonsizligini Xantington o‘z tezisida shunday shaklda argumentlab bergan. Albatta yuqorida keltirilgan qarashlar anchagina soda va primitiv tuyulishiga qaramasdan, XX asrda AQSH boshchiligidagi liberal demokratiya va kapitalizm tarafdorlari bo‘lmish G‘arbiy blok davlatlari ularga g‘oyaviy mutlaqo zid bo‘lgan sotsializm rahnamosi bo‘lmish totalitar SSSR o‘rtasida yuzaga

[34] William E, Naff. Reflections on the Questions of East and West from the Point of View of Japan.Comparative Civilizations Review, fall 1985 and spring 1986. – P 211.

[35] Huntington, Samuel P. The Clash of Civilizations. Foreign Affairs,1993. – P 27

kelgan “Sovuq urush”ga ko‘nikib qolgan siyosiy elita Xantington ning qarashlariga ratsional qarashi avvalboshdanoq mushkilligi o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy muhitining natijasi edi.

Oltinchidan, iqtisodiy mintaqaviylik tobora kuchayib bormoqda. Mintaqalararo savdoning umumiy hajmi 1980-1989-yillar oralig‘ida Yevropada 51% dan 59% ga, Sharqiy Osiyoda 33% dan 37% ga,Shimoliy Amerikada 32% dan 36% ga oshdi. Mintaqaviy iqtisodiy bloklarning ahamiyati yaqin kelajakda ortib borishi ehtimoli katta.[36] Avvalambor,muvaffaqiyatli mintaqaviy iqtisodiy bloklar sivilizatsiyaviy ongni kuchaytiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Qolaversa, mintaqaviy iqtisodiy bloklar faqatgina uning ildizlari umumiy sivilizatsiyaga borib taqalsagina muvaf-faqiyatli bo‘lishi mumkin. Yevropa Ittifoqi mafkuraviy jihatdan Yevropa madani-yati va G‘arbiy xristianlikka tayanishini bunga misol tariqasida keltirishimiz mum-kin. Shuningdek, Shimoliy Amerika Erkin Savdo Hududi iqtisodiy blogi Meksika, Amerika va Kanada uchun umumimiy bo‘lgan madaniyat asos bo‘lib xizmat qiladi.Yaponiya shunday iqtisodiy blog analogini Uzoq Sharqda tuzishda qiyin-chiliklarga uchramoqda. Negaki, yapon jamiyati va sivilizatsiyasi o‘zi uchun yagona hisoblanadi. Biroq Yaponiya kuchli savdo va investitsiya aloqalari orqali boshqa Sharqiy Osiyo mamlakatlari integratsiyaga kirishishi yoki uning ushbu mamlakat-lar bilan madaniy tafovutlari Yevropa va Shimoliy Amerikada mavjud bo‘lgan mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishga to‘sqinlik qilganidek to‘sqinlik qilishi mumkin.

Umumiy madaniyat omili Xitoy Xalq Respublikasi(XXR)ning Gonkong, Tayvan, Singapur va dengiz ortidagi boshqa xitoy diasporasi istiqomat qi- luvchi boshqa Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyasi jarayonlarini tobora kuchayib borishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.Sovuq urush tugashi bilan umumiy madaniyat omili g‘oyaviy tafovutlar bo‘shlig‘ini to‘ldira boshladi va materik Xitoy va Tayvan munosabatlarida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. ”Agarda madaniy umumiylik omili iqtisodiy integratsiya uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilsa,Sharqiy Osiyo iqtisodiy blogining kelajagi bevosita va bilvosita Xitoy bilan bog‘liq bo‘ladi.”[37] Xantingtondan tashqari boshqa bir qator olimlar ham Sharqiy Osiyo iqtisodiy blogi va uning faoliyatida Xitoy Xalq Respublikasining roli haqida turlicha qarashlarni ta’kidlab o‘tishgan.Ulardan biri amerikalik iqtisodchi faylasuf Murrey Vaydenbaumning qarashlari Xantingtonning qarashlariga mos keladi.”

[36] Huntington, Samuel P., The Clash of Civilizations and the Remarking World Order. Simon&Schuster&UK Ltd: London, 1998. – P 157

[37] Huntington, Samuel P. The Clash of Civilizations. Foreign Affairs,1993. – P 28

Hozirgi kunda Yaponiyaning mintaqadagi dominantligiga qaramasdan, Xitoyga tayanuvchi Osiyo iqtisodiyoti katta suratlarda sanoat, savdo va moliya markazi sifatida bo‘y ko‘rsatmoqda. Ushbu strategik mintaqa nihoyatda katta darajada texnologiya va ishlab chiqarish salohiyatiga (Tayvan), ajoyib tadbirkorlik, marketing va xizmat ko‘rsatish qobiliyati (Gonkong), yaxshi aloqa tarmog‘i (Singapur), ulkan moliyaviy kapital (Tayvan, Gonkong, Singapur) va bepayon yer maydonlari, ishchi kuchi (Xitoy) Guanjoudan Singapurgacha, Kuala Lumpurdan Manilagacha bo‘lgan ko‘pincha an’anaviy klanlarning kengayishi mahsuli bo‘lgan ulkan tarmoqni Sharqiy Osiyo iqtisodiyoti asosi deb atash mumkin.”[38]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samuel P. Huntington. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. New York, 1996.

2. Michael Kennedy. Critical Review: The Clash of Civilizations. Samuel P. Huntinton. INTL Introduction to International Relations: Webster University, 2012

3. Samuel P. Huntington. The Third Wave: Democratization in the Late Twentieth Century.University of Oklahoma Press: Norman and London, 1991.

4. Juan J. Linz & Alfred Stepan.Problems of Democratic transition and Consolidation.The Johns Hopkins University Press: Baltimore and London,1996.

5. Gregorio Betizza & Fabio Petito.Why (Clash of) Cvilizations Discourses Just Won’t Go Away? Understanding the Civilizational Politics of Our Times,2018.

6. Vincenco Bove & Gunes Gokmen.Cultural Distance and Interstate Conflicts.British Journal of Political Science, 2016.

7. Guido Thiemeyer.The “Forces Profondes” of Internationalism in the Late Nineteenth Century: Politics, Economy and Culture. The Nation State and Beyond,2013.

8. Edward Said. What They want is my silence. International Socialistic Review.2001.

[38] Murrey Weidenbaum. Greater China: The Next Economic Superpower?. St. Louis: Washington University Center for the Study of American Business, Contemporary Issues, Series 57, February 1993, pp 2-3.

ZJV5401

MA’NAVIY TARBIYANING SAMARALI VA TA’SIRCHAN USULLARI: EMPIRIK TAJRIBALAR ASOSIDA

Munira RAMAZONOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tarixi muzeyi mutaxassisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan inson qadrini ulug‘lash, aholimiz manfaatlarini ta’minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish kabi muhim vazifani hayotga tatbiq etish maqsadida 2024 yil mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilindi. Bizningcha, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash” degan iboraning tagida olam-olam ma’no mujassam. Avvalo, mamlakatimiz yoshlar mamlakati. Aholimizning 60 foizdan ortig‘ini yoshlar tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonida yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlardagi islohotlar, yoshlarning zamonaviy kasb bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minlash, ta’lim sifatini oshirish, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini joriy qilish, milliy qadriyatlar va ma’naviy merosni asrab-avaylash, keng ommalashtirish, rivojlantirish talab etilishi belgilab berildi. Avvalo, “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” degan tushunchaga izoh bersak: “Biznes” so‘zining lug‘aviy mag‘zi inglizcha business – ish, mashg‘ulot, korxona, degan ma’nolarni anglatadi. Demak, biznesni qo‘llab-quvvatlash deganda bandlikni, mashg‘ullikni, korxonalarni qo‘llab-quvvatlashni tushunishimiz kerak. Shuningdek, biznes deganda, faqat pul topishga qaratilgan sohani emas, balki doimiy ravishda e’tiborga, qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoji bor sohani tushunish lozim. Ya’ni davlat tomonidan biznes qanchalik qo‘llab-quvvatlansa, biznes ham mamlakatning rivojiga, taraqqiyotiga, xizmatlar sifatining oshishiga, mamlakat imijining ko‘tarilishiga va alaloqibat xalqning farovonligiga xizmat qiladi. Yoshlar bandligini ta’minlaydi, yoshlarning noqonuniy migratsion jarayonlarga jalb etilishini kamaytiradi. Ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama sog‘lom shaxsni shakllantirish, jahon talablariga javob bera oladigan raqobatdosh kadrlarni yetishtirib berish ota-onalar va o‘qituvchilar oldidagi eng muhim burchdir[39]. Men so‘zimni L. Tolstoyning mashhur so‘zlarini eslatish bilan davom ettiraman. “Nima yaxshiligini bilish uchun nima yomonligini, nima qilish

[39] “Fazilatli avlod” 7-18 yoshli bolalarni ma`naviy tarbiyalash bo`yicha qo`llanma. 7-bet. M. Quronov pedagogika fanlari doktori, professor.

kerakligini bilish uchun nima qilmaslik kerakligini bilish lozim.”

Bizga ma’lumki, o‘zbek psixologlaridan N.Shomurotova tomonidan “professional ota-ona” degan tushuncha kiritilgan. Bu – er-xotin ota-ona bo‘lishidan oldin bola tarbiyasi bo‘yicha puxta nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi shartligini anglatadi. Bu fikrga yaqinroq xulosani yana bir mashhur ayol Klara Setkin ham aytgan edi.

“Pedagogik bilimlarga ega bo‘lmagan ayol (bolaning o‘n marta o‘z onasi bo‘lsa ham) haqiqiy insonni tarbiyalay olmaydi. Bola tarbiyasini unga ishonib bo‘lmaydi”, – deb yozgan edi. K. Setkin. U ona qanchalik mehribon, bolasini sevadigan va sevimli odam bo‘lmasin, pedagogik bilimlarga ega bo‘lmasa, bola tarbiyasidan chetlashtirishi kerak, deb hisoblaydi[40]. Shu nuqtai nazardan bola tarbiyasi masalasiga jiddiy qarash kerak. Tarbiyaning makoni bo‘ladi. Hozirgi zamon burungi sokin yillar emas, balki hayot o‘ta tezlashgan, tahlikali, murakkab... Tarbiyaning natijasi ushbu zamon talablariga javob berishi lozim. Biz XXI asrda yashayapmiz, ya’ni uchinchi Renessans va Yangi O‘zbekiston bolalariga zamonaviy usulda internetdan foydalanishni o‘rgatish uchun avval o‘zimiz bilishimiz kerak. O‘zimiz bilmasak, Poliglot, Skype dasturlaridan foydalanishga bolamizni qanday qiziqtiramiz? Yangi zamon, globallashuv bobo-momolarimiz bilgan udumlarni ham, ular bilmagan yangi, zamonaviy bilim va texnologiyalarni ham qo‘llashimizni talab qilayotir.

Ayonki, o‘smirlarni vatanparvarlik ruhda tarbiyalash oiladan boshlab, bog‘cha, maktab va oliygohlarda shakllanib boradi. Muhtaram Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarining IV bandi 41 va 70-maqsadlarida “yoshlarni san’at dunyosiga oshno etish, kompьyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta’minlangan 100 mingdan ortiq bepul to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash[41]. V bandining 71-maqsadida “maktablarni chinakam ma’naviyat va ma’rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta’lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash ko‘nikmasini shakllantirish, maqsad qilingan. Bu maqsadlar ostida ham bizning ta’lim tizimdagi sharqona va milliy qadriyatga aylangan

[40] “Fazilatli avlod” 7-18 yoshli bolalarni ma`naviy tarbiyalash bo`yicha qo`llanma. 61-bet.

[41] https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144

“ma’naviy tarbiya asosida ta’lim berish” tamoyili asos sifatida namoyon bo‘lib turibdi. Bu jarayon “Uzluksiz ma’naviy tarbiya Konseptsiyasi”da ko‘zda tutilgan vazifalarning amali sifatida yuzaga chiqadi.

Ta’lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lganidek, ma’naviyat va ma’rifatni ham bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

Men izlanishlarim natijasida, ma’naviy tarbiyaning emperik tajribalari asosida “ko‘rsatib tarbiyalash metodi”dan foydalanish lozim, degan xulosaga keldim.

Tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlari Toshkent shahri, Buxoro, Namangan viloyatlarida tanlab olingan tajriba va sinov maktablarida o‘smirlar bilan olib borildi. Tadqiqot olib borish jarayonida, O‘zbekiston xalq rassomi Rahim Ahmedovning “Ona o‘ylari” suratini ko‘rsatib, mazmunini aytib berdim. Keyin xuddi shunga o‘xshash “Ona o‘ylari” nomli hikoyani shunchaki rasmlarsiz gapirib berdim. Keyingi darsda o‘tgan mavzu bo‘yicha savol berdim: “Ona o‘ylari” hikoyasi kimning yodida qoldi?” Ularning aksariyati tasviriy san’atdagi “Ona o‘ylari” hikoyasini so‘zlab berishdi.

Natijada tasviriy san’at vositasida o‘smirlar ma’naviyatini rivojlantirish, ularning qay darajada xotirasida eslab qolish qobiliyati, iste’dodi sinab ko‘rildi. O‘zbekiston tasviriy san’ati durdonalarini yaxshi bilish va o‘z xulqida ma’naviy qadriyatlar ustuvorligi, afzalligi va yuqori darajada ekanligi yanada isbotlandi. Ma’anaviy tarbiyaning samarali va ta’sirchan usullari emperik tajribalar asosida o‘zini oqladi. Tasviriy san’at to‘garaklari faoliyatida o‘smirlarni ma’naviy-estetik tarbiya jarayonini o‘rganish, bu borada artpedagogik texnologiyalardan foydalanish talab darajasida emasligini ko‘rsatdi. 82 nafar to‘garak rahbarlari orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra respondentlarning 69 foizi o‘z faoliyatlarida artpedagogik texlonologiyalardan foydalanmasliklari, 23 foizi qisman foydalanishlari va 8 foizi esa muntazam foydalanishlari aniqlandi. Buning natijasida to‘garaklarda ma’naviy tarbiya samaradorligi rahbarlarning shaxsiy namunasiga, mahoratiga va boshqa sub’ektiv omillarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida professor Sh. Mustafoyev tomonidan ishlab chiqilgan, qamrov hajmiga ko‘ra umimiy pedagogik, xususiy pedagogik va modulli kichik universal texnologiya modifikatsiya qilindi va artpedagogik texnologiya shaklida tasviriy san’at to‘garaklari faoliyatiga moslab, joriy qilindi. Chunki didaktik o‘yinli, fikrlashga o‘rgatuvchi, suggestiv texnologiyalar universal xarakterda bo‘lib, badiiy to‘garaklar xususiyatlariga mos kelishi tasdiqlandi.

Ma’naviy tarbiyaning emperik tajribalari asosida shakllantirishda

ko‘rsatib tarbiyalash metodi singdirilishi mustahkam asoslab qo‘yilgan. Masalan, “Yaponiya. Uni qanday tushunish kerak” kitobi muallifi Ikeno Osamu qiziq bir tajriba haqida yozadi. Yapon onalari va yevropalik onalardan bolalari bilan birga piramida yig‘ish so‘ralgan. Yapon onalari dastlab o‘zlari yiqqan va keyin bolalardan takrorlashni so‘ragan. Agar bolalar biror narsani o‘xshata olmasa, ular ishni qayta boshlagan.

Yevropalik onalar esa boshqa usulini tanlagan: ular bolalarga piramida qanday yig‘ilishini batafsil tushuntirgan. Keyin esa bolalarga ishni bajarishni taklif qilgan. Ko‘rinib turibdiki, yapon onalari “men kabi qil” tushunchasini bergan bo‘lsa, g‘arblik onalar faqat nazariyani tushuntirib, bolalarni hammasini o‘zi bajarishga majbur qilgan.

Shuning uchun yapon ta’limi va tarbiyasi “hijjalovchi” deb ataladi. Yapon onalar kamdan-kam hollarda bolalarni qilib ko‘rmagan ishini qilishga majburlaydi. Ular avval misol ko‘rsatib, bolada shu ishni qilishga xohish uyg‘otadi[42].

Xulosa qilib aytganda, ma’naviy tarbiyaning samarali va ta’sirchan usullarini qo‘llash uchun emperik tajribalari asosida shakllantirishda artpedagogik talablar o‘smirlar orasida san’at turlariga qiziqishning qanchalik ommalashganini, o‘smirlar ulardan qanday foydalana olishlarini ko‘rsatib boradi. Bu bejiz emas, chunki, hozirgi kunda san’atning inson hayoti, tarbiyasidagi roli ortib bormoqda. Artpedagogika o‘smirlarga ijtimoiy-siyosiy, badiiy, ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy bilim asoslarini singdiradi. U o‘smirlar g‘oyaviy-estetik dunyoqarashining shakllanishi va mustahkamlanishi yo‘lida asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

O‘smir yoshlarga milliy va jahon tarixini o‘rganish jarayonida badiiy qadriyatlar mohiyatining ochib berilishi, alohida belgilari bo‘yicha o‘rganib chiqilishi, ularning o‘ziga xos mazmuni taqdim etilishi maqsadga muvofiq. Buning uchun o‘smirlar yuksak badiiy qadriyatlar mezonlari bilan tanishtirilishi lozim. Albatta, badiiy asarning g‘oyasi, mantiqini bilish, tahliliy o‘rganish, uning g‘oyaviy mazmunini emotsional-estetik idrok etish, badiiy idrok etilayotgan asarga qadriyatli bo‘lish kabilar katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlarga O‘zbekiston tasviriy san’ati orqali darslarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkillashtirish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda dolzarb ahamiyatga egadir.

Birinchidan, o‘smirlarning badiiy, g‘oyaviy qarashlarini virtual pedagogik o‘rganish, mashhur kartinalar, kishilar tasviriy san’at haqidagi aforizmlari, hikmatli fikrlari, qarashlarini o‘rtaga tashlab, ularga badiiy to‘garaklar a’zolarining munosabatlarini rivojlantirib borish;

Ikkinchidan, o‘smirlarda ma’naviy tarbiyaning e’tiqodni shakl-

[42] “Fazilatli avlod” 7-18 yoshli bolalarni ma`naviy tarbiyalash bo`yicha qo`llanma. 130-bet.

lantirishda milliy tasviriy san’at namunalari, buyuk o‘zbek musavvirlari haqida axborot olishga yo‘naltirilgan artpedagogik suhbatlar majmuidan foydalanish o‘smirlarni hayotga, voqea-hodisalarga ma’naviy-estetik baho berishga o‘rgatib borish maqsadga muvofiqdir;

Uchinchidan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari tasviriy san’at to‘garaklarida tanlovlar, ekspozitsiyalar, dekoratsiya, natyurmort, portret, peyzaj, haykaltaroshlik janrlaridagi asarlar bilan madaniy tadbirlarda ishtirok etish, jihozlash tasviriy san’at to‘garaklarining yillik ish rejalarida alohida aks ettirmog‘i lozim. Shundagina yoshlarni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda samarali natijalarga erishish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2021. – B. 270.

2. “Fazilatli avlod”. 7-18 yoshli bolalarni ma’naviy tarbiyalash bo‘yicha qo‘llanma. 130-bet.

3. Avtoritar tarbiya. TARBIYA. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent,2010. 9-10 b.b.

ZAMONAVIY “MILLIY KADRLAR KORPUSI”NI TARBIYALASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Maxbuba XOLIYAROVA,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o‘qituvchisi, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutimustaqil tadqiqotchisi

O‘zbekistonda davlat boshqaruvi sohasida kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha maxsus ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish hamda ular faoliyati samaradorligini oshirishning zamonaviy usul va vositalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tadbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. O‘zgarishlar jarayoni davlat xizmatida milliy va umumbashariy qadriyatlarni teran anglagan holda intellektual salohiyat va ilg‘or milliy va horijiy texnologiyalarni egallagan, innovatsiyalarga chanqoq, yangiliklarga moslashuvchan, zamonaviy davlat xizmatchilari hamda rahbar kadrlar milliy korpusini tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatda davlat boshqaruv organlarini isloh etish va davlat xizmati sohasida mutaxassislar, davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini

takomillashtirishning zamonaviy uslublarini milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha AQSh, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Koreya, Singapur, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa xamkor davlatlarning tajribalarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab hamkorlik dasturlari va malaka oshirish hamda davlat xizmatchisi faoliyati yuzasidan ko‘plab tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Izlanishlar natijasida davlat xizmati va davlat xizmatchisi faoliyatiga zamonaviy yondashuvni ishlab chiqish uchun mazkur sohada chuqur tahlilga asoslangan tadqiqot ishlari olib borish zarurati mavjud. Shu sababdan, dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallagan davlatlarning davlat xizmati va davlat xizmatchisi faoliyatini tashkil etish bo‘yicha amalga oshirgan ishlarini ketma-ketlikda ko‘rib chiqamiz.

AQSh tajribasi davlat boshqaruvi sohasida yetakchi davlatlardan biri sanalib, o‘zining kuchli kadrlar korpusi hamda mafkuraviy to‘yintirilgan kadrlar zahirasi orqali dunyoning mafkuraviy manzarasida boshqa davlatlarga iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy hamda mafkuraviy ta’sir o‘tkazuvchi gegamon davlat bo‘lishida kadrlar tayyorlash amaliyoti o‘rni va ahamiyati muhim. Uning siyosiy tizimi 1787 yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiya asosida tashkil etilgan [1]. Konstitutsiyaga ko‘ra faoliyatga kiritilgan o‘zgartishlar va boshqa qonunlar orqali tartibga solinadi. Davlat xizmatining huquqiy maqomi turli aktlarning katta qismida belgilanib, ular AQSh qonunlarida o‘z ifodasini topadi. Davlat boshqaruvi haqida Amerika Normativ hujjatlarda 2 ta atama qo‘llanilgan [2]. Bular:

– “davlat xizmati”;

– “fuqarolik xizmati” qo‘llanilgan bo‘lsada ko‘pincha “davlat xizmati” tushunchasi ustunlik qiladi. AQShda mehnatiga federal byudjetdan haq to‘lanadigan istalgan shaxs federal davlat xizmatchisi hisoblanadi. Federal davlat xizmati tashkiloti asoslarini xizmatchilarning uch xili (segmenti) ta’minlaydi:

– “konkurs asosida tayinlanganlar”;

– “patronaj”;

– “alohida tayinlanganlar”ga bo‘linadi. Qonunchilik tomonidan xizmatchilarning quyidagi guruhlari ajratilganini ko‘rishimiz mumkin:

• **karyerali davlat xizmatchilari,** “xizmatiga yarasha” tizimi asosida xizmat faoliyati olib boradigan xizmatchilar;

• **mehnat shartnomasi ma’lum bir muddatga yollanadigan xizmatchilar** (muddati 3-yilgacha);

• **zahira lavozimlarda ishlaydigan xizmatchilar** (bu turdagi xizmat lavozimlar soni har yili Davlat xizmatlari ishlari boshqarmasi tomonidan

belgilanadi,

• **karyerasiz xizmatchilar** bo‘lib, ularga patronaj xizmatchilar egallaydigan lavozimlarga nisbatan tadbiq etiladi.

Amerika davlat tashkilotlari rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyati va kompetensiyalarini rivojlantirish yirik kompaniya va korparatsiya rahbarlari 59 yoshni o‘rtacha tashkil etib, yuqori bo‘g‘in rahbarlarining ko‘pchiligi o‘z tashkilotida 30 yildan ortiq faoliyat olib borishi, katta yoshli rahbarlarning salomatligi jihatdan talablarga javob bersa tashkilot uchun katta tajriba manbai sifatida xizmat davri amaliyotdan foydalaniladi [3]. Shuningdek, davlat xizmati organlarida faoliyat olib boruvchi xizmatchilarning oddiy xalq bilan ijtimoiy hayot tarziga singdirib yuborilish amaliyoti davlat xizmatchilarga bo‘lgan ishonchning oshishi, xodimlarning xalqchil xizmatchiga aylanishi bugungi AQShning qudratli davlatlardan biriga aylanishiga sabab bo‘lgan.

Hozirgi kunda o‘zining **nemis tartib intizomi** bilan tanilgan Germaniya davlati Yevropa davlatlari orasida davlat xizmati tizimining mukammal va adolatli tashkil etilgan bo‘lib, davlat xizmatchisi deganda, davlat ijtimoiy boshqaruvida huquqiy shaxs sifatida sadoqatli xizmat qilish uchun qasamyod etgan, davlat xizmati munosabatlari bilan bog‘liq faoliyat yurituvchi va davlat vazifalaridan kelib chiqib, ijtimoiy-huquqiy, xo‘jalik va ilmiy-texnikaviy vazifalarni bajaradigan shaxs tushuniladi. Qo‘shimcha sifatida davlat sektori xodimlarining uchdan bir qismi davlat xizmatchilaridir. Ular davlat xizmati va davlat bilan sodiqlik munosabatlariga ega. Ulardan - Asosiy Qonunda nazarda tutilganidek (33-moddaning 4-bandi) - birinchi navbatda suveren vakolatlar amalga oshiriladigan joylarda qo‘llaniladi. Germaniya Federativ Respublikasida (GFR) davlat xizmatchilariga boshqaruv organlari xodimlaridan tashqari, *maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlari va o‘qituvchilari, davlat universitetlarining professor-o‘qituvchilari, sudyalar, vazirlar, Federal bank a’zolari, shuningdek, politsiya xodimlari, harbiy xizmatchilar, temir yo‘l xodimlari, pochta muassasalarining xodimlari va boshqalar* kiradi [4]. Germaniyada “davlat sektori xizmatchisi” sifatida foydalanilib, ushbu tushuncha 3 ga bo‘linadi:

- davlat xizmati “beatme”,
- sektor xodimlari angestelte”,
- davlat sektori ishchilari “arbeiter”. Shuningdek, Germaniya boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, o‘zining yagona davlat xizmati tizimiga ega ekanligi bilan ham boshqa rivojlangan davlatlardan ajralib turadi. Germaniya davlat tuzilishiga ko‘ra, federativ davlat bo‘lganligi sababli davlat hokimiyati Federatsiya va alohida yerlarga (Länder) taqsimlangan.

ZJV5401

Shu sababli Germaniya davlat xizmatining tizimi – federal davlat xizmatiga, yerlar doirasida amalga oshiriladigan xizmatga hamda jamoalar va o‘zini-o‘zi boshqarish tuzilmalari doirasida amalga oshiriladigan xizmatga bo‘linadi. Germaniyada davlat xizmatida band bo‘lgan shaxslar davlat boshqaruv tizimi faoliyat olib borishiga qarab davlat xizmati uch toifaga ajratiladi. Davlat xizmatchilarining mazkur kategoriyalari nafaqat federatsiya miqyosida, balki yerlar va jamoalar miqyosida ham mavjud. Davlat xizmatida mansabdor shaxslar tegishli davlat hokimiyati (Federatsiya, yerlar, jamoalar) tomonidan xizmatga tayinlansa, davlat muassasalari xizmatchi va ishchilari xizmatga kirish to‘g‘risidagi mehnat shartnomasi orqali xizmatga qabul qilinadilar. Germaniya boshqaruv tizimida mansabdor shaxslar davlat xizmatchi xodimi sifatida alohida kategoriya hisoblanadi. Ular maxsus boshqaruv funksiyasini bajaradi. Ushbu xizmatchilarga davlat tomonidan ikki xil maqom berilib, xizmatga tayinlanishi bilan huquqiy va siyosiy maqomga ega bo‘ladilar. Ularning maqomi maxsus Qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi [5]. Xizmatga tayinlanishda esa jinsi, kelib chiqishi. irqi, dinga munosabati, diniy va siyosiy qarashlaridan qat’iy nazar kasbiy malakasidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Germaniya davlat xizmatida faoliyat yuritishiga oid quyidagi talablarni ko‘rishimiz mumkin:

• *Davlat xizmati darajasiga qarab boshlang‘ich ta’lim,*

• *Davlat imtihoni bilan tugallanadigan doimiy va har tomonlama tayyorgarlik,*

• *Xizmatga o‘tishdan oldin sinov muddatini o‘taganligi,*

• *Navbatdagi yuqori lavozimga imtihonlarni topshirganligi, (munosiblik imtihoni)*

• *Ma’muriy xizmatga loyiq ekanligi isbotlangan shaxslarga agar ular o‘rnatilgan talablardan o‘tmasa ham bir marta imkoniyat berilishi mumkin.*

Germaniya boshqaruvi shunchalik mukammal tuzilganki unda davlat xizmatchilariga xizmat darajalari, qoida tariqasida, ularga yuklatilgan funksiyalarga qarab bo‘linishi Davlat xizmati to‘g‘risidagi qonunga muvofiq bo‘linadi. Bu quyidagicha amalga oshiriladi: **quyi va o‘rta darajadagi xizmatchilar zimmasiga** – ijrochilik funksiyalari; **yuqori darajadagi xizmatchilar zimmasiga** – aniq sohalarda rahbarlik vazifalarini amalga oshirish, vositachilik funksiyalari, ijrochilik vazifalari (javobgarlik ostida amaldagi holatni tahlil qilish, qarorlarni tayyorlash va qabul qilish); **oliy darajadagi xizmatchilar zimmasiga** – esa rahbarlik funksiyalari biriktirilgan. Davlat xizmatida mansabga

tayinlanishda “Mansabga tayinlash to‘g‘risidagi yorliq” topshirilishi bilan amalga oshiriladi. Mansabga tayinlash to‘g‘risidagi yorliqda xizmatga tayinlashning muddatlari “umrbod, sinov muddati, vaqtincha yoki aniq muddat” ko‘rsatilishi shart.

Davlat boshqaruvidagi mansabdor shaxslar davlat xizmatida qanday martabada bo‘lgan davrida - mamlakatdagi mavjud siyosiy vaziyatdan qat’iy nazar, o‘rnatilgan cheklovlarga (taqiq) amal qilishi, har qanday holatda ham o‘ziga yuklatilgan majburiyatlarni qat’iy bajarishi talab etiladi. Germaniyada boshqa davlatlardan farqli o‘laroq davlat xizmatchilari, odatda, umrbod tayinlanadi hamda xizmat munosabatlari ularning pensiyaga chiqishi munosabati bilan bekor bo‘ladi. *(Istisno tariqasida Germaniya qonunchiligida nazarda tutilgan qonun buzilish holatlari bundan mustasno*).

Shuningdek, davlat xizmatchilarni xizmatga tayinlashda 3 xil muddatga ya’ni umrbod muddatga, alohida huquqiy ko‘rsatmalar asosida ma’lum bir (muayyan) muddatga, nomuayyan muddatga mansabga tayinlangan davlat xizmatchilariga bo‘linadi. Ularning ijtimoiy himoyasi davlat tomonidan kafolatlanadi. Jumladan, davlat xizmati faoliyat jarayonida xizmatchilarning sodiqlik burchiga alohida e’tibor qaratilgan. “Mansabdor shaxslar to‘g‘risida”gi Federal Qonunga binoan mansabdor shaxslar davlatdagi erkin demokratik tuzumni tan olishi va uning himoyasi bo‘ladi. Davlat apparatida xizmatda bo‘lgan har bir mansabdor shaxs – erkinlik, demokratiya, huquqiy davlat va ijtimoiy davlat singari davlat faoliyatining asosiy prinsiplariga amal qilishi hamda ular asosida faoliyatini amalga oshirishi lozim. Davlat xizmatida mansab bo‘yicha harakatlanish malakasini majburiy tartibda oshirib borish va mansab pillapoyasi bo‘yicha ketma-ketlikda harakatlanish prinsiplariga asoslangan. Germaniya davlat xizmatining asosiy talablaridan biri bu kasbiy ta’lim bo‘lib, unda yosh kadrlarni aniq bir yo‘nalish bo‘yicha tayyorlash emas, balki yosh kadrlarni ma’muriy xizmatga integratsiya qilishga asosiy e’tibor qaratiladi. Ikki yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan yosh kadrlar Federativ davlat huquqiy boshqaruvi akademiyasiga tayyorgarlikka qabul qilinadi.

Soha bo‘yicha kasbiy rivojlanishi ta’lim tadbirlariga qarab amalga oshiriladi. Bu ta’lim tadbiri olib borilishi ishdan ozod qilingan holda, to‘la band bo‘ladigan ikki yillik muddatda. kunduzgi ta’lim kurslari, qayta ta’lim olish dasturlari uchun xarakterli qisqa muddatli seminarlar, ikki soatli ma’ruzalar orqali kasbiy malaka berib boriladi. Bu Germaniya taraqqiyoti uchun muhim hisoblangan kasbiy o‘sish sohadagi tadbirlar siyosiy, umumiy yoki madaniy ta’lim sohasiga oid uzoq va davomli

malaka ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Kadrlarni davlat xizmatiga tayyorlashda ish vaqtidan tashqari (kechki payt) haftada bir yoki ikki marta o‘tkaziladigan yoki kunduzgi shakldagi ishlamaydigan shaxslar uchun mo‘ljallangan o‘quv kurslari, dam olish kunlari seminarlar bir yoki ikki kunlik o‘quv semenarlari mavjud. Shuningdek davlat xizmatida faoliyat olib boruvchi xizmatchilar malaka oshirishi uchun bir yoki ikki haftalik “Ta’lim ta’tillari” ishlab chiqilgan. Kadrlar malakasini amalga oshirishda avvalo, xalq universitetlari, ta’lim markazlari, korxonalar, shuningdek, “Ish va hayot” (ishdan ajralmagan holda ta’lim beruvchi) kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Yosh kadrlarni davlat boshqaruv tizimi ya’ni mansablarga “Karera uchun trening” 6 haftalik shtat treninglaridan keng foydalanilish orqali davlat xizmati kadrlar tizimi zahirasi shakllantirish bilan birgalikdagi o‘rtadagi tafovut oldi olinib, kadrlar o‘rtasidagi qarashlardagi farqlarni kamayishiga olib keladi.

Umuman olganda, Germaniya davlatida kadrlarni davlat xizmatiga tayyorlash masalasi na’munali tarzda yo‘lga qo‘yilgan deyish mumkin. Xuddi shu asnoda, davlat xizmatchilarining vazifalari qonuniy va adolatli asosda taqsimlanganki, bu tajribadan har qanday davlatning o‘z faoliyati davomiyda foydalanishi foydadan holi bo‘lmaydi. Eetiborli jihati Germaniya kadrlar korpusini ma’naviy kamol toptirish davrida “nemis millati uchun” g‘oyaining xalqning ongiga singib ketishi, nemis jamiyatidagi shaxsiy manfaatlar ustunligi, korrupsion illat kabilarni ildiz otishiga yo‘l qo‘ymaydi va davlat taraqqiyoti garoviga aylanadi.

Jahon davlatlari orasida milliy qadriyatlar va ulkan ma’naviy merosini saqlab qolgan holda jadal sur’atlarda taraqqiy etayotgan **Xitoy –** o‘zining milliy kadrlar zahirasini shakllantirganligi bilan dunyo hamjamiyati tomonidan yuksak e’tirof etiladi. Xitoy kadrlar tayyorlashning yangi bosqichida ekanligi butun dunyoning diqqat markazida desak adashmagan bo‘lamiz. Xitoy davlati tomonidan olib borilayotgan keng qamrovli taraqqiyot dasturi avvalo xitoy xalqi manfaatlari va qadriyatlari ostida amalga oshiriladi. Bu ishlarning negizida esa “buyuk xitoy xalqi” g‘oyasi yotadi.

Islohotlar davrida, davlat rahbari boshchiligida o‘tkazilgan 17-yopiq Xitoy xalq s’ezdida mamlakatni kelgusi 5 yil ichida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirish bo‘yicha muhim strategik maqsad vazifalarga bag‘ishlangan bo‘lib, rivojlanishning ilmiy konsepsiyasini hamda iqtisodiy o‘sish usuli transformatsiyasini amalga oshirish, zamonaviy dunyoga mos bo‘lgan jamiyatni shakllantirish hamda kadrlar inqilobi davrida malakali kadrlar zahirasini shakllantirishga oid

muhim masalar yuzasidan amalga oshiriladigan ishlar belgilab olindi. Bularning barchasini bajaruvchisi salohiyatli kadrlar tayyorlash borasida boshqaruvchilar fikrini o‘zgartirish to‘g‘risida so‘z yuritilib, milliy ta’lim tizimidagi zamonaviy ta’lim texnologiyalar orqali yangi milliy kadrlar zahirasini kamol toptirishga asosiy e’tibor qaratiladi.

Xitoy ayni vaqtda “Kadrlar tayyorlash konsepsiyasi” asosida butun dunyoda amalga oshirilayotgan chuqur islohotlarga moslashish uchun avvalo: – o‘qituvchi yetakchi rol o‘ynaydigan ta’lim tizimidan o‘qituvchi va tinglovchi muloqotiga asoslangan interfaol shakldagi ta’lim tizimga o‘tildi. Shu bois, tinglovchi dars jarayonida o‘tilgan darslarni qay daraja o‘zlashtira olganini o‘qituvchi tahlil qilish imkon ega bo‘ladi. Ta’lim jarayonida oddiy bilim berishdan tashqari, malaka va qobiliyatlarni rivojlantirish, kadrlar sifatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Endi faqat miqdorni oshirishga qaratilgan bir tomonlama yondashuvdan sifatni oshirishga qaratilib samaradorligi yuqori ekanligi qayd etildi. XXRda kadrlarni tayyorlash bo‘yicha yondashuv davlat xodimidan umumiy tartibga rioya qilish, rivojlanishning ilmiy konsepsiyasini har tomonlama amalga oshirish, ma’muriy boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish, malakali kadrlarga ta’lim berish sifatini oshirish, iqtidorli, qobiliyatlilarni har tomonlama iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazardan rivojlantirishda hukumatni qo‘llab-quvvatlash talab etiladi.

Hukumat, kadrlarni tayyorlash xalqaro vaziyatdagi yangi o‘zgarishlar, yangi islohotlar va modernizatsiyaning ochiqligi va xodimlar fikrlari amaliyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishini talab etmoqda. Shuning uchun davlat xizmatchilari va xodimlari zimmasiga o‘z hududi va muassasalarida islohotlarni amalga oshirish, rivojlanish va barqarorlikni ta’minlash, ishlab chiqarish hamda xalq hayotidagi muammolarni o‘rganib chiqib, ularni hal etish vazifalari hukumat tomonidan birinchi masala sifatida topshirilgan.

Vaholanki, yuqoridagilardan Xitoy madaniyatlar kurashi jarayonida o‘zining tarixiy qadriyatlari hamda buyuk xitoy madaniyatini saqlab qolish jarayonida tun-u kun 4 mingga yaqin tadqiqot markazlar o‘z faoliyatini olib bormoqda. Kadrlar tayyorlash tizimida o‘tmishdan meros qolgan ta’lim metodlari bilan hamohang ravishda iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyotga uzluksiz ravishda moslashish bo‘yicha ko‘plab ishlarni amalga oshirmoqda. Xitoy davlat xizmati boshqaruvi o‘zining jamoaviy boshqaruv xususiyati bilan ajralib turib, davlat xizmatida faoliyat yuritish har bir xitoylik uchun yuksak sharaf sanaladi.

Eng muhimi, hukumati tomonidan ishonib topshirilgan xizmat vakolatlarini amalga oshiruvchi davlat xizmatchilari va mansabdor,

vakolatli shaxslarga nisbatan qonun hujjatlari, davlat rahbari, davlat boshqaruvi hamda jamiyat manfaatlariga nisbatan hilof faoliyat uchun javobgarlik, jazoni muqararligi, qat'iyligi hamda barcha uchun barobar ekanligi bilan boshqa davlat jazo turlaridan ajralib turadi. Xitoy hukumatida yuqorida ta'kidlanganidek, vakolatli shaxslar tomonidan qonunga hilof xatti-harakat yoki harakatsizlikning jazosi o'lim jazosi hisoblanibgina qolmay uning oila a'zolari va yaqin qarindoshlari davlat ishlari va jamiyat a'zolaridan ijtimoiy munosabatlardan chetlashtirilishi bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun ham bugungi kunda davlat xizmatchilari tomonidan korrupsion holatlar va mansab lavozimini su'istemol qilish holatlari juda katta jinoyatlardan biri hisoblanadi. Bu esa davlat iqtisodiyoti va siyosati rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan inson huquqlarini himoya qilish, davlat boshqaruv organlari faoliyat olib borishida hisobdorligi va oshkoralik siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada takomillashtirish, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy-huquqiy faolligini yanada oshirish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash va jamiyat hayoti uchun barcha zaruriy sohalar islohotida bajaruvchichi bo'lgan davlat xizmachilari samaradorligini oshirish hamda faoliyat jarayonida ularning ma'naviy qiyofasini rivojlantirishda horijiy davlatlar tajribasini o'rganishning ahamiyati yuqori. Buni biz o'rgangan, Xitoy, AQSh, Germaniya va boshqa xorijiy davlatlarning davlat xizmati va davlat xizmatchilari faoliyatiga oid manbalari orqali olingan ma'lumotlardan ham ko'rishimiz mumkin.

Xalqaro rivojlangan davlatlar tajribasi va rivojlanish xususiyatlaridan kelib chichib, Mamlakatda milliy kadrlar korpusini shakllantirish, ularni amaliy tajribasi, ilmiy salohiyatini oshirish, mafkuraviy to'yintirish, ma'naviy qiyofasini yuksaltirilgan professional davlat xizmatini rivojlantirishning asosiy elementlaridan kelib chiqib, davlat xizmatchilari faoliyatini tashkil etishga oid quyidagi xulosaga kelindi:

– Boshqaruv samaradorligini oshirishda turli tasniflash modellarini o'rganish davlat xizmatchilarini boshqarishning eng samarali usullarini aniqlash hamda davlat apparati samaradorligini oshirish,

– Yetakchi davlatlar ilg'or tajribalarni tahlil qilish davlat xizmatchilarini ishga qabul qilish, o'qitish, rag'batlantirish va baholashga oid sohasidagi yondashuvlar,

– Davlat xizmatida korrupsiyani kamaytirish va shaffoflikni ta'minlashda normativ huquqiy modellar hamda milliy xususiyatlarni

o‘rganish korrupsiya ehtimolini kamaytiradigan tizimlarni ishlab chiqishga va davlat xizmatlarini ishga olish va ko‘tarishda shaffof tizimni joriy etish,

– O‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish, xorijiy mamlakatlar tajribasi mavjud tasniflash tizimlarini o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va muammolarga moslashtirish kabilar o‘rganish davlat boshqaruvi sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va ilg‘or tajriba almashish kabi tajribalarni O‘zbekistonda milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda tadbiq etish biz uchun zarur bo‘lgan “milliy kadrlar korpusi”ni tarbiyalashga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Америка Қўшма Штатлари. Конституция The Constitution of the United States: A Transcription (англ.). US National Archives

2. National Archives: Delegates to the Constitutional Convention Архивная копия от 16 мая 2008 на Wayback Machine, Национальные архивы США

3. Виктор Лабанов. Госслужба США: подготовка высших руководителей.

4. С.И. Муцалов. Государственная служба в германии. Международный научный журнал «инновационная наука» №11-3/2016 issn 2410-6070

5. Gesetz zur Regelung des Statusrechts der Beamtinnen und Beamten in den Ländern (Beamtenstatusgesetz - BeamtStG) 3 Beamtenverhältnis.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNI MA’NAVIY TARBIYALASHNING MAZMUN-MOHIYATI

Ulmas MEYLIYEV,
MTTDMQTMOI katta o‘qituvchisi

Bugungi globallashuv sharoitida hayotning o‘zi ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarning har bir mamlakat taraqqiyoti, taqdiri, kelajagi uchun naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Biz bugun oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan yoki balog‘at yoshiga yetgan yoshlarimizning ma’naviy mezonlarimiz, ming yillik axloq-odob qoidalarimiz, qadriyatlarimizga nisbatan bepisandligini ko‘ryapmiz. Oliy ta’lim tizimida, yoshlar jamoalarida uyushganu uyushmagan yoshlar bilan tizimli ishlarni tashkil etish bo‘yicha rejalar, dasturlar ishlab chiqib

amalga oshiryapmiz. Ammo bir haqiqatni esdan chiqaryapmiz, nima uchun ular bunday holatga kelib qoldi? O‘z-o‘zidan bo‘ldimi bu ishlar? Yo‘q! Bu ko‘p yillar davomida oilada, bolalar bog‘chalarida, maktablarda tarbiya borasida yo‘l qo‘ygan xatolarimiz oqibati[1].

O‘z vaqtida ma’naviy tarbiya, ajdodlar o‘giti, insoniy qadriyatlar, axloq va odamiy fazilatlar bilan to‘ldirilmagan yuraklarni internet to‘ldirdi, biz ta’sir ko‘rsatolmagan farzandlarimizga qo‘lidagi telefon ta’sir ko‘rsatdi. Internet bu insoniyatning XX asrdagi eng katta kashfiyoti, ammo unutmaslik kerakki har qanday kashfiyotdan nafaqat ezgulik, balki yovuzlik va jaholat quroli sifatida ham foydalanish mumkin.

Shu ma’noda biz ko‘p yoshlarimizga internetdan foydalanish odobini ham hali singdira olmadik. Agar farzandlarimizni biz ezgu an’analar, yuksak ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalasak, u internetdan ham faqat yaxshi ma’noda foydalanishga o‘rganadi. Dunyo ilmlaridan bahramand bo‘ladi. Xorijiy tillarni egallab jahondagi eng mashhur virtual kutubxonalarga kirib zarur bilim va ma’lumotlar bilan tanishadi. O‘z kamolotiga o‘zi narvon qo‘yadi.

Ana shu ma’noda biz bugun oliy ta’lim tizimida yoki umuman yoshlar tarbiyasi borasida muhim chora-tadbirlarni ko‘rgan holda oila, bog‘cha, maktablardagi ma’naviy tarbiya masalalariga hali yetarli darajada e’tibor berolmayapmiz.

Xo‘sh, oilalarda, bog‘chalarda maktablarda, kollej va texnikumlarda bu borada ahvol qanday? Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimi asosida tashkil etayotgan ma’naviy ishlarimiz samaradorligi va natijadorligi qay darajada? “Tarbiya” darslari qanday o‘tilyapti? Kutilgan natijani beryaptimi? Bog‘chadachi? Mamlakatimizda juda ko‘p xususiy bog‘cha va maktablar ochilishda davom etmoqda. Mana shu ta’lim muassasalarida farzandlarimizga ma’naviy-axloqiy, vatanparvarlik tarbiyasi borasida qanday ta’lim berilmoqda?

Yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadida 2023-yilning 22-dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Ma’lumki, respublikamizda ushbu Kengash raisi Prezident, hududlarda esa birinchi rahbarlar hisoblanadi[2]. Chunki ilm-fan, ta’lim va tarbiya, ma’naviyat ustuvor masala hisoblanadi. Davlatimiz rahbari buning uchun avvalo mustahkam iqtisodiy asoslar kerakligini ta’kidlab, shu borada amalga oshirilayotgan ishlarni qayd etib o‘tdi.

Ushbu iqtisodiy asos natijasida bu yil ijtimoiy sohaga eng ko‘p – 134 trillion so‘m mablag‘ ajratilganlini ta’kidladi. Bu – 2016 yilga solishtirganda 5,6 barobar ziyod demakdir.

Bugun jahon miqyosida taraqqiyot sur’atlari shiddatli tus olgani, o‘ta ziddiyatli jarayonlarning ta’siri mamlakatimizda ham sezilayotgani haqida qayd etildi.

Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur, – deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev[3].

Ma’rifatparvar bobolar g‘oyalarini o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha Prezident qarori qabul qilinishi belgilandi. Shuningdek, Buxorodagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi ochiladi, “Jadid” nomli yangi gazeta tashkil etiladi.

So‘nggi yillarda ma’naviy-ma’rifiy sohalarda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasi hamda Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tizimidagi xodimlar soni ikki karra oshirildi, ularni moddiy rag‘batlantirish choralari ko‘rildi.

Ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibor izchil davom ettiriladi. Bu borada ham tenglik ta’minlanishi, xususan, qiz bolalarning o‘qishi va kasb-hunar egallashi jamiyat rivojida muhim ekani alohida ta’kidlandi.

Ikkinchidan, madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas’uliyati oshiriladi. Tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari ishga tushiriladi.

– Bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak, – dedi Prezident. Shu maqsadda, Surxondaryo viloyatida bildirilgan taklif asosida hududlardagi 4 ta sektorga qo‘shimcha ravishda ma’naviyat sektori tashkil etilishi ma’lum qilindi. Ular joylardagi Ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Uchinchidan, teatr san’atini rivojlantirish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi. Unda eng yaxshi pesalar uchun ijodiy buyurtma berish, ijodiy va yordamchi xodimlarning chet el teatrlarida mahoratini oshirish, yosh rejissyorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun Mannon Uyg‘ur nomidagi mukofot ta’sis etish kabilar nazarda tutiladi.

Korxona va muassasalarda oyning bir kuni “Teatr kuni” deb belgilanib, xodimlarning teatrlarga borishi yo‘lga qo‘yiladi.

To‘rtinchidan, aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda 837 ta madaniyat markazining faoliyati juda muhim. Ularda 4 mingga yaqin to‘garak faoliyat ko‘rsatmoqda, 120 mingdan ortiq yoshlar shug‘ullanmoqda.

Lekin ayrim markazlar o‘z binosiga ega emas, jami 8 mingta musiqa anjomiga ehtiyoj bor. Bu borada hokimlarga ko‘rsatmalar berildi.

Shuningdek, kelgusi yildan har bir tumanda sahnali zal, kutubxona, kinozal va to‘garak xonalari bo‘lgan bittadan madaniyat markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Joylardagi 600 dan ziyod badiiy havaskorlik jamoalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha dastur qabul qilinib, bunga 100 milliard so‘m yo‘naltiriladi.

Beshinchidan, maqom va baxshichilik san’atini ilmiy asosda o‘rganish va rivojlantirish kuchaytiriladi.

Hozirgacha 120 ta maqom, baxshichilik dostonlari, xalq kuyi va qo‘shiqlari “oltin fond”ga yozib olindi. Kuni kecha O‘zbekiston Prezidentining nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib etishga doir qarori imzolandi. Unda, jumladan, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros institutini tashkil etish, qadim musiqa asarlarini tadqiq qilish, mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan 3 mingdan ziyod doston, maqom va folklor asarlarini zamonaviy formatga o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Yana bir muhim yangilik – maqom, katta ashula, baxshichilik, atlas va adras, kulolchilik va zargarlik kabi an’analarni davom ettiradigan maktablar yaratiladi.

Oltinchidan, musiqa va raqs san’ati rivoji qo‘llab-quvvatlanadi. Jumladan, “Bahor” raqs ansambli ilgari Filarmoniya joylashgan mashhur san’at saroyida faoliyat yuritadi. Taniqli ashula va raqs ansambllarining xorijga gastrol safarlari ko‘paytiriladi. Musiqa va raqs san’ati masalalarini ilmiy o‘rganish, sohada ilmiy kadrlarni ko‘paytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi.

Shuningdek, Toshkent davlat sirki binosi ta’mirdan chiqariladi.

Yettinchidan, xalqaro maydonda o‘zbek madaniy diplomatiyasi kengaytiriladi. Kelgusi yili Toshkentda jahon kreativ iqtisodiyotiga bag‘ishlangan konferensiya, Nukusda esa “Orol madaniyati” xalqaro ilmiy anjumani o‘tkaziladi.

Muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha yetti yillik dastur qabul qilinadi. Tarix muzeyi hamda San’at muzeyining yangi binolari barpo etiladi. Temuriylar tarixi hamda Tabiat muzeylarining

ekspozitsiyasi yangilanadi. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi kapital ta’mirlanadi.

Bundan tashqari, muzeylarimizda, xususan, Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Renessans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo‘yicha yangi ekspozitsiyalar tashkil qilinadi.

Fransiya bilan hamkorlikda Milliy restavratsiya markazi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Muqaddas kitob – Usmon Qur’oni sahifalari konservatsiya qilinadi.

Yurtimizning ko‘hna tarixiga bag‘ishlangan 18 ta arxeologiya yodgorligi ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantiriladi. Samarqandda Sohibqiron Amir Temur bog‘lari qayta tiklanadi, “Buyuk ipak yo‘li” muzeyi barpo etilib, Bibixonim majmuasi restavratsiya qilinadi.

Sakkizinchidan, kino sohasi rivojlantiriladi. Bu borada “Tirik tarix” seriyasida Vatanimizning shonli o‘tmishiga bag‘ishlangan filmlar yaratish dasturi ishlab chiqiladi. Bunga xorijiy ijodkorlar, kinokompaniyalar hamda investorlar ham jalb etiladi. Shuningdek, bolalar uchun buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘li haqida ko‘p qismli animatsion filmlar yaratish zarurligi ta’kidlandi.

Kinoni iqtisodiyot bilan uyg‘un rivojlantirish maqsadida Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida “erkin iqtisodiy kinohududlar” barpo etish vazifasi qo‘yildi.

Milliy seriallar bo‘yicha mavjud tizimni tubdan isloh etish, ularni g‘oyaviy-badiiy va texnik jihatdan jozibali darajaga yetkazish zarurligi ta’kidlandi. Buning uchun IT-park kabi erkin iqtisodiy zona – “Cinema park” tashkil qilish tashabbusi ilgari surildi.

To‘qqizinchidan, tasviriy va amaliy san’at sohasini rivojlantirish bo‘yicha dastur qabul qilinadi. Jumladan, Markaziy ko‘rgazmalar zali rekonstruksiya qilinib, jihozlanadi. Badiiy fond hududida zamonaviy galereya binosi quriladi hamda 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi tashkil etiladi. Xattotlik va miniatyura san’ati ta’limini amaliyot bilan bog‘lash maqsadida milliy usulda qog‘oz tayyorlash ustaxonasi tashkil etiladi.

Sohada ta’lim sifatini yaxshilash, musiqa va san’at maktablari muallimlarining oyligini oshirish, ushbu maktablarning kommunal xarajatlarini budjetdan qoplash bo‘yicha takliflar bildirildi.

Davlatimiz rahbari o‘zbek tilini o‘qitish samarasini oshirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratdi. Milliy sertifikatga ega bo‘lgan “O‘zbek tili va adabiyoti” fani o‘qituvchilariga kelgusi o‘quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to‘lanishi qayd etildi.

Shuningdek, boshqa tillarda ta’lim olgan hamyurtlarimizni davlat

tilini o‘rganishga rag‘batlantirish choralari ko‘riladi. Boshqa tillarga ixtisoslashgan maktablarda davlat tilini o‘qitish soatlari ko‘paytiriladi. O‘zbek tili bo‘yicha xalqaro fan olimpiadasi tashkil etiladi.

Jamiyatimizda kitobxonlik madaniyatini oshirish qo‘llab-quvvatlanadi. Ijodiy buyurtmalar, muallif va tarjimonlarga qalam haqi ko‘paytiriladi. Nashriyot va matbaa korxonalarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 5 yilga soliqlardan ozod qilinadi[4].

Hozirgi davrda ma’naviy tarbiya yo‘nalishida mamlakat oldida turgan muhim vazifalarni bajarish, el-yurtga fidoyi va sadoqatli, haqiqiy vatanparvar, chuqur bilimli va ma’nan barkamol shaxslarni tarbiyalash bu borada xizmat qiladigan ziyoli va xizmatchilar, o‘qituvchilar va mutaxassislar, umuman, barcha ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlarining muqaddas burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taroqqiyot strategiyasi. – Toshkent:2022-yil. O‘zbekiston nashriyoti, 2021-yil.

2. Shavkat Mirziyoyev raisligida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi 2023-yilning 22-dekabr

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-son Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori.

JAMIYAT A’ZOLARINING MA’NAVIY-INTELLEKTUAL TAKOMILI YANGICHA IJODIY IZLANISHLAR VA ILMIY-AMALIY MUNOSABATLARGA HAR TOMONLAMA BOG‘LIQ

Safar ALLAYOROV,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi,
RMMM Toshkent shahar bo‘limi
Yashnobod tuman bo‘linmasi bosh mutaxassisi

Ayni paytda qaysi makonda qanday ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlarda umrguzaronlik qilayotganidan qat’i nazar, biz bilan bir havodan nafas olayotgan tavalludi yangi asr bilan tengdosh yoki ulug‘roq jamiyat a’zolari XXI-yuzyillikning qariyb chorak qismiga

jonli guvohdirlar. Bu yangi davrni avvaliga “axborot asri” deb atadik: keraklisidan ko‘ra keraksizlari, hatto har jihatdan zararli axborotlar haddan tashqari ko‘payib ketib, shu davrgacha insoniyat erishgan jamiki bilim va ko‘nikmalardan tortib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ham bilvosita daxl qilib, ularning tarixiy vazifalari va barcha zamonlarga mos muqim o‘rnini beayov inkor etib, adlu e’zoz maydonlarini oydin-huvaydo ishg‘ol qilishga urinishlar tah-batah ko‘z o‘ngimizda takror-takror sodir bo‘lavergach, nainki ijtimoiy-ma’naviy hayotimiz, hattoki ongu shuurimizga kirib olgan bu ichki yovdan qutulish choralarini izlab, najot istab intellektual mulkka talpindik. Na ilojki, bu muazzam cho‘qqiga chiqish har kimning ham imkoniga mos emas ekan, bois shumi, “XXI-asr – intellektual mulk asri” degan yangi atama ham hali to‘la egallab ulgurmagan urf sarhadlaridan asta-sekin chetga chiqib, o‘z o‘rnini “targ‘ibot asri” degan zo‘rma-zo‘raki istilohga bo‘shatib berishiga to‘g‘ri kelmoqda.

Ana shunday azaldan barqaror ilmiy-estetik jihatdan ham, vaqtincha beqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitning muallaq “talab”lari jihatidan ham bir qadar dolg‘ali, bir qadar munozarali va yana bir qadar qiziqarli jarayonlariga o‘z munosabatimizni bildirish maqsadida, biz mazkur ilmiy tadqiqot mavzuiga doir chet elda va respublikamizda chop qilingan ilmiy, badiiy adabiyotlar, adabiy taqrizlar, ijodiy kuzatuvlar bilan tanishib, ularni atroflicha o‘rganib, o‘ziga xos ilmiy-ijodiy jihatlariga ko‘ra, badiiy tahlil chig‘irig‘idan o‘tkazib, muayyan xulosalarga kelganimizni mulohazalarimiz davomida izchil hamda uzviy holda bayon qilib borishni o‘z oldimizga bosh vazifa sifatida belgiladik.

E’tirof etish joizki, xalqimiz hayoti qadim-qadimdan o‘z davriga nisbatan yuksak darajadagi ma’naviy-ma’rifiy ta’limotlarga boy bo‘lib, jahon tamadduniga sezilarli ta’sir ko‘rsatib kelgan. Moziyga bir qur nazar solsak, ilmu ma’rifatda ham, badiiy ijodda ham jahon ahlini lol qoldirgan – o‘z quvvai hofizasi va aqliy salohiyati bilan keksa tamaddun ravnaqiga benazir hissa qo‘shgan daholarimiz ko‘plab topiladi. Milliy faxru iftixor yuzasidan, ular ulug‘lagan, nufuzini imkon qadar baland ko‘targan Ezgu So‘z – ma’rifat tug‘larining barqarorligi allaqachonlar oliy hakam sanalmish Vaqt sinovidan o‘tib, mangulik maqomiga ega bo‘lganini mavridi bilan ta’kidlab o‘tish o‘rinli, albatta. Biroq bu zabt etilgan ilmu ma’rifat marralari nechog‘li yuksak bo‘lmasin, zinhor-bazinhor ular bilan kifoyalanib qolish mumkin emas. Ayniqsa, shunday ulug‘vor maqsadlarni juda og‘ir sharoitlarda yashab amalga oshirgan donishmand ajdodlarning davomchilari bo‘lgan yangi avlodlar raqamli axborot jadal rivojlanayotgan intellektual mulk asrida har jihatdan peshqadam bo‘lishlari lozim. Ta’bir

bilan aytganda, ilmu ijod ahli uchun ilmiy-ijodiy izlanmaslik – bir joyda depsinib qolishgina emas, ortga tisarilib ketish bilan barobar. ***“Kim olg‘a yurmasa, u ortga ketadi: bir joyda to‘xtab qolish holati yo‘q”*** [1], – degan edi faylasuf V. G. Belinskiy. Hech shubhasiz aytish mumkinki, bu ilmoqli gapni nafaqat bir shaxsga, shu bilan birga, butun bir millatga yoki yashash tarzi, orzu-umidlari va intilishlari mushtarak xalqlarga nisbatan ham qo‘llash mumkin.

To‘g‘ri, bugungi kunda ham bir emas, ikki bora Sharq Uyg‘onish davrining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qilgan zukko va kashshof ota-bobolarimizning boy ma’naviy-intellektual meroslaridan nainki ziyokor millatdoshlarimiz, balki jahon afkor ommasi ham keng foydalanib kelmoqda. Shu boisdan ham, ularni yanada quvvatlantirish, yangi to‘lqinlar bilan boyitib borish milliy O‘zligini qadrlagan va o‘zini hurmat qilgan ilmu ijod ahli uchun hamisha dolzarb masala bo‘lib qolaveradi. Axir, xalqimizning **“Oqqan daryo oqmasdan qolmas”** degan naqli g‘oyat purma’noligi bois ilhombaxsh da’vatdir. Basharti, daryo yo‘l-yo‘lakay yangi muntazam jilg‘a va irmoqlar bilan boyib, to‘lishib bormas ekan, erga singish va bug‘lanish kabi tabiiy hodisalar tufayli tobora ingichkalashib boraveradi. Bil’aks, unga yo‘l-yo‘lakay doimiy ravishda jilib turadigan yangi jilg‘a va irmoqlar qo‘shilaversa, oqqan sari tobora to‘lishib, ona tabiat bag‘rini to‘ldirib, to‘lqinlanib-to‘lqinlanib baravj mavj taratishi mutlaqo tabiiy hol.

Shunday ekan, shonli ajdodlarimizning keng va ko‘p tarmoqli ma’naviy-intellektual hamda madaniy meroslaridan faxrlanish hissi nekbin tuyg‘ular og‘ushida bedor urayotgan yuragimizni hayajonga solib, uyg‘oq ongu shuurimiz ila sobitqadam intilishlarimizni olqishlab, ana shu ulug‘vor tog‘lar tomon undayveradi bizni. Ushbu ilmiy ishning yozilishiga ham ana shunday sohir qalblarni kuchli zavqyob hayajon va umidbaxsh orzularga to‘ldirib, doimiy so‘nmas oru g‘urur baxsh etguvchi milliy iftixor tuyg‘usi sabab bo‘ldi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi – dunyoda o‘z o‘rni bor mustaqil davlat, tub aholisi tiliga asoslangan davlat tili, madhiyasi, bayrog‘i, Konstitutsiyasi – Bosh Qomusi, aniq jug‘rofiy hududi mavjud suverenitet. Bu Vatanning dilbandi bo‘lish sharafiga muyassar jamiyat a’zolari uchun uning bunday sifatlari bilan doimiy faxrlanib yashash tuyg‘usining o‘zi kamlik qiladi, chunki unga munosib bo‘lish – bugungi va kelgusi avlodlar uchun ham farz, ham qarz. Toki jamiyat a’zolarining ma’naviy-intellektual takomili yangicha ijodiy izlanishlar va ilmiy-amaliy munosabatlarga har tomonlama bog‘liq bo‘laverar ekan, mazkur burch va vazifalarni hech qaysi vatandoshimizning unutishga haqqi yo‘q.

ZJV5401

Bu borada, qayd etish joizki, adabiyot – bosh vosita. Ma'lumki, har qanday badiiy asarni qiziqarli qilish tamoyilining ilmu amalda sinalgan, sinalayotgan va hali to‘la sinalmagan usullari, metodlari mavjud. Ijodkor o‘zini qiziqtirgan muayyan mavzu bo‘yicha uzoq vaqt mobaynida ijodiy izlanishlar olib borishi, xususan, zarur materiallarni to‘plashi, fakt va dalillarni zimdan o‘rganishi, o‘z g‘oyasini ishlab chiqishi, qahramonlari uchun prototip topishi, to‘qima obrazlarni shakllantirish uchun betakror tarh yaratishi va hokazo ijodiy tamoyillarni olg‘a surishi mumkin va muqarrar. Zero, har qaysi shoir – zamonaviy she'riyat daryosi o‘zaniga qo‘shilayotgan yangi jilg‘a. Ularning qaysi biri favqulodda zilolligi bilan e'tiborni tortsa, qay bir(lar)i esa, juda sayozligidan tuproqqa esh bo‘lib, natijada loyqalanishdan tina olmay tor doirada o‘zicha sa'y-harakat qilayotgani ham – bor gap.

Zamonaviy o‘zbek she'riyatidagi yangicha izlanishlar, yangi kashfiyot va ijodiy hodisalar mohiyati, ularning ahamiyati va faol zamonaviylashuvi hamda ommalashuvi xususida ma'lumotlar to‘plab, ularni mufassal tahlil qilishga kirishar ekanmiz, oldimizda turgan salaflarimiz to‘plagan tajriba va ko‘nikmalarni e'tibordan soqit qilmaslik, ularga atroflicha to‘xtalib o‘tish joizligini tanlagan mavzuimizning o‘zi taqozo qilganligini qat'iy qayd etamiz. Xususan, adabiyottanuvchilarga yaxshi ma'lumki, XX-asr o‘zbek adabiy muhitida Abdulla Qahhor ham mohir adib, ham talabchan ustoz, ham faol munaqqid sifatida katta rol o‘ynagan. ***“Yozuvchimiz Abdulla Qahhor badiiy mahorat haqida yozgan bir maqolasini*** *(maqolasida – bizningcha)* ***“Kitob shavq bilan o‘qilishi kerak” deb aytadi. Darhaqiqat, zo‘r qiziqish bilan, baland shavq bilan o‘qilmaydigan asarni kitobxon o‘zining qimmatli vaqtini sarf qilib o‘qib o‘tirmaydi.***

Asarning *(Asarni – bizningcha)* ***qiziqarli, shavq bilan o‘qiladigan qilishning eng zarur sharti, Abdulla Qahhor ko‘rsatganidek, uning ilhom bilan yozilishidir: “...ilhomsiz yozilgan o‘lik asarlarni hech qanaqa yuksak g‘oya, hech qanday muhim tema, texnika, malaka tiriltira olmaydi”*** *(“Badiiy ijod haqida”, to‘plam, O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent, 1960 yil, 227-bet.)****, – deydi.***

Asarning qiziqarli bo‘lishining boshqa tomonlari ham borki, ularni ham nazarga olmasdan ilojimiz yo‘q. Masalan, qahramonlar taqdiri, voqealarning tartibga solinishi masalasini olib ko‘raylik.

Asarning qiziqarli bo‘lishining zarur shartlaridan biri voqealarning kishilar obrazi, xarakterlar psixologiyasi bilan organik ravishda tasvirlanishidadir. Aniqroq qilib aytganda, asardagi har bir voqea shaxslar taqdirini ko‘rsatuvchi oyna bo‘lishi kerak.” [2] Shunday tig‘iz,

ham jo‘yali fikrlarni o‘rtaga tashlab, XX-asrning atoqli adabiyotshunos olimi Matyoqub Qo‘shjonov asarning qiziqarli bo‘lishida muhim omil sifatida dastlab qahramonlar taqdiri, voqealarning tartibga solinishi masalasini batafsil tahlil qiladi. So‘ngra ***“Asarning qiziqarli bo‘lishining yana bir siri, voqealarning tasviriy tartibiga bog‘liqdir”*** [3] degan qat’iy qarorini bayon qilib o‘tadi va buni yetarlicha dalillashga muvaffaq bo‘ladi. O‘z o‘rnida, bu hol tajribali munaqqidning mazkur mavzu yuzasidan yuritayotgan mulohazalarini kulminatsion nuqtaga olib chiqadi: ***“Badiiy asarning qiziqarli bo‘lishining yana bir manbai tasvirlanayotgan xarakterlarning ruhiy boyligi, donoligi, aql va idrokiga bog‘liqdir. Tartib nuqtai nazaridan voqealar qiziqarli bo‘lsa-yu, tasvirlanayotgan shaxslar ruhan kambag‘al bo‘lsa, o‘quvchi saviyasi talabiga javob bera olmaydigan bo‘lsa, yozuvchi kitobxonni maftun qila olmaydi. Qahramon qiyin, ulug‘ ishlarni qilsin: yo‘lsiz joyga yo‘l solib o‘tib ketsin, yechilishi mushkul bo‘lgan jumbog‘ni yecha olsin, boshi berk ko‘chadan ham chiqib keta olsin... Shundagina kitobxon qahramon ishlari bilan qiziqadi.”*** [4]

Bunday mulohazalardan so‘ng bizning fikrimizda shunday savol paydo bo‘ldi: xo‘sh, badiiy asarning qiziqarliligi, Abdulla Qahhor aytganidek, shavq bilan o‘qilishi muhimmi yoki shu qiziqarli syujet ustida Bugundan Kelajakka eltib qo‘yish uchun ortilgan ijtimoiy-ma’naviy yukning naqadar ahamiyatliligi ahamiyatliroqmi? Yanayam aniqroq aytganda, bu yukning zalvori badiiy asarning “yelka”sini ezsayu, biz kuzatgan bu karvon ko‘zlangan maslak manziliga yetib borolmasa, yoinki yetib borgan taqdirda ham, u yerda o‘z salobatiga yarasha hurmat-izzatini topolmasa, uning qadriga kim yetishi kerak? Bizningcha, bunday vaziyatda yosh kitobxonlarga, kelgusi avlodlarga iddao qilish nojoizdir. Bunday holda, hattoki, hozirgi zamonning uzviy qismi bo‘lgan Ertangi Kun hukmini kutish ham eng oqilona va odilona tadbir bo‘lolmaydi. Zero, Kechagi Kunning davomi bo‘lgan Bugun egamanlik huquqini qo‘lga kiritgan paytdan boshlab, egasiz qolgan tortmalardan tortib, mahobatli javonlargacha ana shunday o‘zini oqlamagan, ya’ni o‘zining davriy ijodiy missiyasini bajarolmagan “zobit”lardan bir sidra tozalab chiqqani hech kimga sir emas.

Akademik adabiyotshunos olimimiz “tanga”ni qo‘lga olib kuzatarkan, unga nisbatan qiziqish doirasi uning qiymatini ifodalaydigan tomonining izohoti bilangina cheklanmaydi, balki ikkinchi tomoniga ham juda sinchkov nazar tashlaydi: ***“Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, asarning qiziqarli bo‘lishi yakka-yagona maqsad emas. Bu kitobni o‘qishli qilishning bir vositasidir. Asarning qiziqarli bo‘lishi orqali***

ZJV5401

yozuvchi o‘zining demoqchi bo‘lgan “gapi”ni kitobxonga osonlik bilan yetkaza oladi, zarur bo‘lgan his va tuyg‘ularni uyg‘ota oladi, uning emotsiyasiga ta’sir qiladi.” [5]

Mana, maslak manzilini tusmol qilgan edik – topdik: “*asarning qiziqarli bo‘lishi yakka-yagona maqsad emas*” ekan. Unday bo‘lsa, asar nima uchun yoziladi? Shuning uchunki, chunki barcha mas’uliyat “*zarur bo‘lgan his va tuyg‘ularni uyg‘ota olish, kitobxonning emotsiyasiga ta’sir qilish*” masalasiga bevosita va bilvosita bog‘liq bo‘lib qolaveradi. Bu fikrlarga qo‘shilamiz, biroq bu masalalar hali yechim uchun yetarli emas, inchunin, ilmiy tugun ancha ingichka va zich holda bo‘lib, tadqiqotchidan o‘ta jiddiy hafsalaga payvasta bag‘oyat sinchkov ilmiy-ijodiy kuzatuvchanlikni talab qiladi. Negaki, ijodkor *“o‘zining demoqchi bo‘lgan “gapi”ni kitobxonga osonlik bilan yetkaza olishi”* bunday chigal masalani yecha olmaydi. Unday bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga yetmoq uchun nima qilmoq kerak, galdagi vazifalar nimalardan iborat bo‘ladi? Bu o‘rinda adabiyotshunos Qozoqboy Yo‘ldoshning ish tutumi juda o‘ng‘ay, ham adolatli: ***“So‘z – ilohiy ne’mat. Shu bois so‘z aytish hamisha ulkan mas’uliyatdir. Jamiyat, millat yoki insonga qilinadigan zulm uning so‘ziga zug‘umdan boshlanadi. Har qanday erk ham so‘z hurligidan ibtido oladi. Shu boisdan so‘z erkinligi hur insonning dastlabki talabi hisoblanadi.”*** [6]

Albatta, dastlabki talab – kechadigan voqelikning tagzaminini izlash demak. Har qanday mahobatli bino uning uchun oldindan hozirlangan mustahkam poydevorga tayangani kabi “*har qanday erk ham so‘z hurligidan ibtido oladi*”. Magarki, So‘z hurlikka erisholmagan bo‘lsa, Erk nomidan so‘z yuritish jamiyat a’zolarining ma’naviy-intellektual takomiliga hech qanday naf bermaydi. Bu – bugungi adabiyotning o‘yi emas, balki yashash mazmuni, yana ham aniqroq aytganda, azaldan tarkib topgan hayot haqiqatidir.

Ilmiy mushohadalarimiz mavzui dissertatsiya ishining dissertatsiya bajarilgan ta’lim tizimi rejalari bilan aloqadorligi xususida borar ekan, hozirgi zamonaviy o‘zbek adabiyotining beshigini tebratgan XX-asr namoyondalarining ijodiy pozitsiyalarini tadqiq etish maqsadga muvofiq keladi.

Inchunin, 1974-yilning kuzagida bo‘lib o‘tgan bir mushoirani eslarkan, adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldosh shunday yozadi: ***“Menimcha, o‘sha paytda she’riy avlodlar almashayotgan edi. E. Vohidov, Sh. Xolmirzayev, A. Oripov, O‘. Hoshimov, O. Muxtor, O. Matjon singari iste’dodlar o‘zidan oldingi oqsoqol ijodkorlar tomonidan bir qadar qo‘llab-quvvatlangan, juda qo‘llanmaganlari ham***

o‘z yelkasi osha A. Qahhor, G‘. G‘ulom, G‘ayratiy kabi ustozlarning nafasini sezib turishgan bo‘lsa, Halima Xudoyberdieva, Tog‘ay Murod, Azim Suyun, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Xurshid Davronlar avlodi oqsoqollardan madad olish u yoqda tursin, ular bilan tuzukroq til topisholmadilar ham, shekilli.” [7] Ha, bizningcha ham shunday: o‘z vaqtida A. Qahhor, G‘. G‘ulom, G‘ayratiy, Mirtemir, A. Muxtor kabi zabardast adiblar mashvaratlaridan baholi qudrat tahsil olgan va ularning mehrlaridan yetarlicha bahramand bo‘lgan o‘sha paytdagi o‘rta avlod vakillari yoppasiga faqat o‘z “o‘z”ini o‘ylaydiganlardan chiqib qolganligi, natijada katta adabiyot yo‘lidagi tajribali ijodkorlarga xos xolis tahsil va ijodiy xayrixohlik, nekbinlik fazilatlari bilan bog‘langan beg‘araz mehr rishtalari zanjiri uzilganligi bois milliy adabiyotimizda avlodlar “batalon”lari vujudga kelganligi xususidagi haqiqat allaqachon o‘zining sir qobig‘ini yorib chiqqan va bunday bo‘linishlar ulardan keyingi avlodlar o‘rtasida ham ko‘zga tashlanadiki, bu hol – ko‘pdan beri birikaolmayotgan bir millatning ming tusli dardu dunyosi. Domla o‘sha paytdagi voqelikni shunday sharhlaydi: ***“Negaki, adabiyotga gurillab kirib kelgan bu yoshlar so‘z aytish mumkinligining o‘zidan shodmon bo‘lmasdilar. Ularga millatning shodligisiz o‘z baxtlari kemtik tuyular, barcha bitganlari zug‘um-zo‘rlikka qarshi isyon ruhi bilan yo‘g‘rilgan edi.”*** [8] Haqrost. Ijodni shon-shuhratga burkanib yashash imkoni emas, vatandoshlarining ma’naviy-intellektual takomiliga baholi qudrat xizmat qilish uchun buyurilgan qismat yo‘rig‘i sifatida taniganidan va tan olganidan “*millatning shodligisiz o‘z baxtlari kemtik tuyulgan*” shoirlardan biri Shavkat Rahmonning *“G‘am so‘zin elimdan avvalroq aytdim, baxt so‘zin aytaman, eldan keyinroq”* [9] degan dardli satrlari – mo‘jaz dilnomasini misol keltirsak, yuqoridagi fikrning naqadar to‘g‘riligini yaqqol tasdiqlaydi. Biroq bu hol bir-biriga yelkadosh va kamarbasta bo‘lishi lozim bo‘lgan ikki avlodni bir-biridan ajratib qo‘yishga asos bo‘la oladimi? Bu savolni biz qo‘yayapmiz, biroq adabiyot sinchisi bo‘lgan ulkan olim bu savolga o‘rin qoldirmay jo‘yali javob berib o‘tgan: ***“Maksimalist bu yoshlar adabiyotnigina emas, ham har bir odam ko‘nglini, ham butun jamiyatni tozartishni istardilar. Erkka tashnaliklarini yashirib o‘tirmasliklarida qandaydir sarkashlik, isyon bor edi.***

Sutga og‘zi kuyganidan qatiqni-da mudom puflab ichishga o‘rgangan katta avlodning, tabiiyki, ularni qabul etishi, ayniqsa, imdod berishi amri mahol edi. Ehtimol, adashayotgandirman. Lekin menga, aynan, o‘tgan asrning 70-yillarida ijodiy avlodlar bo‘linib ketganday, hatto, qaysidir darajada bir-biriga qarshi turganday tuyulaveradi.”

[10] Bizningcha, atoqli sinchkov olim adashayotgani yo‘q. Kamina “Do‘rmon” ijod uyida atoqli shoir Erkin Vohidovning oshxonada o‘ziga kitob taxtlashda ko‘mak berib yurgan ikki yigitga gurung berib, *“Farhod (Musajonov, u biz bilan birga nonushta qilayotgan edi – S. A.) akalarning avlodi yo‘q”* deganini va boshqa kim kimga avlod bo‘lgan ijodkorlarni birma-bir sanab berganini o‘z qulog‘im bilan eshitgandim. Bundan tashqari, 1990-yilning oktyabrida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi O. Yoqubovning vakolat muddati tugaganligi bois uyushma raisligiga nomzodlar saylovi yuzasidan A. Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida o‘tkazilgan Qurultoyda raislik maqomi – mansab uchun avlodlar to‘qnashuvi yuz berganiga jonli guvoh bo‘lganmiz. Ayniqsa, O. Yoqubovning *“Men bularning sakkiztasini SSSR Yozuvchilar uyushmasiga a’zo qilaman deb Moskvada uyushma eshigida nechchi kun yotganman”* degan gapi uch nafar o‘sha paytdagi yosh ijodkorlarning uyushma guvohnomasini pisanda bilan tashlab chiqib ketishiga sabab bo‘lgandi.

Ehtimol, adabiyot olamida bunday sarosimaliklar yana ko‘plab ro‘y bergandir. Biz bu yerda mavzu yuzasidan, ya’ni yuqoridagi *“Maksimalist bu yoshlar adabiyotnigina emas, ham har bir odam ko‘nglini, ham butun jamiyatni tozartishni istardilar. Erkka tashnaliklarini yashirib o‘tirmasliklarida qandaydir sarkashlik, isyon bor edi.*

... Lekin menga, aynan, o‘tgan asrning 70-yillarida ijodiy avlodlar bo‘linib ketganday, hatto, qaysidir darajada bir-biriga qarshi turganday tuyulaveradi.”, degan mushohada aynan o‘sha davrdagi jamiyat ma’naviy-intellektual olamining ruhiy-ijtimoiy in’ikosi, desak, mantiqan o‘rinli bo‘ladi.

Biz mavzuimiz to‘laqonli yoritilishini maqsad qilgan holda, mazkur ilmiy ishimizda jamiyat a’zolarining ma’naviy-intellektual takomiligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan ijodiy omillar bilan birga bu jarayonga to‘siq bo‘lgan va hanuz g‘ovligicha saqlanib qolayotgan ayrim salbiy unsurlar xususida ham atroflicha to‘xtalib, ularga nisbatan munosabatimizni ilmiy dalil va xulosalar asosida oydinlashtirishga harakat qildik. O‘ylaymizki, bu mulohazalar yaqin o‘tmish va bugungi milliy adabiyotimiz, ya’ni mustabid tuzum jabrdiydalari va Egamanlik ruhida kamol topayotgan yangi avlod o‘rtasidagi tafovutni farqlashda asqotadi – kelgusida o‘z mevasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamoa. “Tafakkur gulshani” –T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va

ZJV5401

san’at nashriyoti. 1989. 215-bet.
2. Matyoqub Qo‘shjonov. “Ijod mas’uliyati”, to‘plam. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. 33-34-betlar.
3. O‘sha manba. 38-bet.
4. O‘sha manba. 39-bet.
5. O‘sha manba. 40-bet.
6. Qozoqboy Yo‘ldosh. “So‘z yolqini”, to‘plam. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU. 2018. 4-bet.
7. O‘sha manba. 74-bet.
8. O‘sha manba. 74-bet.
9. Shavkat Rahmon. “Abadiyat oralab”, to‘plam, – T.: “Movarounnahr” nashriyoti, 2012. 214-bet.
10. Qozoqboy Yo‘ldosh. “So‘z yolqini”, to‘plam. – T.: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU. 2018. 74-bet.

ZAMONAVIY MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA: TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Musurmon XOLMURADOV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti,
Bank ishi kafedrasi assistenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni talablariga muvofiq tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi, va raqobatbardoshligini ta’minlash maqsadi ko‘zda tutilgan. Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, bunda mazkur oliy ta’lim muassasalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari, mazkur Konsepsiyaning mantiqiy davomi sifatida amaldagi me’yoriy hujjat talablariga muvofiq, oliy ta’lim tashkilotlarining milliy reytingi nufuzini oshirish maqsadida: milliy reytingda so‘nggi 3 yil davomida doimiy ravishda birinchi 3 ta o‘rindan birini egallab kelayotgan

ZJV5401

oliy ta’lim tashkilotlariga oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlash bo‘yicha akademik va moliyaviy mustaqillik berish, mustaqillik mezonlari Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi standartlariga muvofiq qabul qilinishi; milliy reytingda birinchi 10 ta o‘rindan birini egallagan oliy ta’lim tashkilotiga mavjud ixtisosliklar bo‘yicha ilmiy unvonlarni mustaqil berish vakolatini berilishi belgilangan.

Shuningdek, Zamonaviy ma’naviy-axloqiy ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi va tizimida oliy ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lgan vazirlik va idoralarga 2021 yil 1 fevralga qadar 2030 yilgacha xalqaro reytinglarda 2 ta oliy ta’lim tashkilotini – birinchi 500 ta o‘rindagi, 8 ta oliy ta’lim tashkilotini – birinchi 1000 ta o‘rindagi oliy ta’lim tashkilotlari ro‘yxatiga kiritish uchun tegishincha “2+500” va “8+1000” loyihalarini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmonida oliy ta’lim sohasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda 2021 yil 1 sentabrga qadar har bir hududda nodavlat, jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida kamida bittadan oliy ta’lim tashkilotini tashkil qilish vazifasi yuklatilgan.

Bugun yangi O‘zbekiston jahon hamjamiyati safida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Mamlakatdagi har bir soha zamonga xos va mos tarzda rivojlantirilib, har bir sohada yangilanish nafasi ufurmoqda. Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, yoshlarning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, ularning qobiliyat va iste’dodini yuzaga chiqarish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu haqda gapirganda yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy ta’lim muassasalari soni 177 taga yetganini alohida ta’kidlash joiz. O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Negaki, unga muvofiq, ta’lim olishning masofaviy, inkluziv shakllari joriy qilindi, ta’lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo‘shma fakultet va o‘quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etilib, o‘qituvchilarga mualliflik dasturi va o‘qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o‘qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Zamonaviy ma’naviy-axloqiy oliy ta’lim muassasalarining mavzuga

oid muammolari va ularni tizimli bartaraf etish, muassasalarda oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oqilona tashkil etish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, muassasalar reytingi, imiji, mavqei, jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish, professor-o'qituvchilarni ilmiy-pedagogik salohiyatini va bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalalari Prezidentimizning hujjatlarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida o'z aksini topgan. Bu normativ hujjatlarda belgilangan vazifalar tegishliligicha dissertatsiya tarkibiga kiritilgan va tadqiq etilgan.

Ye.V.Yekimovalarning ma'lumotlariga ko'ra 2003 yildan boshlab universitetlarning umumjahon reyting tizimini ishlab chiqishga kirishilgan. ARWU – Academic Ranking of World Universities reyting tizimida 2003 yildan Shanxay universiteti tomonidan 300ta universitet tahlil qilingan, "The Times Higher Education" jurnalida 2004 yilda Britaniyaning "TSL Education LTD" tashkiloti, shu yili 16000-20000 ta universitetning tahlilini o'tkazuvchi Webometries – Ranking Web of World Universities reyting tizimi Ispaniyada, 500 ta eng kuchli universitet tahlil qilinayotgan Performanse Ranking of Scientific Papers for World Universities tizimi 2007 yildan Tayvan Respublikasida, 3000-6000 ta universitet tahlil qilinadigan The World University Ranking tizimi 2010 yildan Britaniyada faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Olimlarning ta'kidlashicha, "... universitetlarning birinchi xalqaro reyting tizimi 1997 yilda "Asia Week" jurnali tomonidan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi eng yirik universitetlar reytingini ishlab chiqish bilan boshlangan".

An'anaviy ravishda olingan takliflar tizimlashtirilganda, asosan, dunyoda eng kuchli 1000 ta OTM safiga, O'zMU va SamDUni eng kuchli 500 ta OTM tarkibiga kiritishda OTMda faoliyat ko'rsatuvchi professor-o'qituvchilarning oylik maoshlarini oshirish, qabul komissiyasi ishini yuqori shaffoflik darajasida tashkil etish, bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha davlat granti asosida qabul ko'rsatkichlarini ko'paytirish, OTMga da'vogarlarga ilmiy daraja va ilmiy unvonlarni berish vakolatini taqdim etish, OTMga akademik va moliyaviy mustaqillik berish,

OTMning xorijiy OTMlari bilan transformatsiyalashuvini yo'lga qo'yish, oylik maoshlari va ish o'rni saqlangan holda ilmiy darajali (ilmiy unvonli) professor-o'qituvchilarni rivojlangan mamlakatlarning birinchi top-300 talik ro'yxatidagi OTMlariga xizmat safarlariga, xorijiy professor o'qituvchilar ishtirokida o'tkazilgan tanlovlar natijasi asosida O'zbekistonlik talaba (magistrant)larni o'qishga yuborish taklifi ilgari surilganligi e'tirof etildi.

Jahon amaliyotida oliy ta’lim muassasalarining xo‘jalik faoliyati an’anaviy tarzda ma’lum tashqi doirada iqtisodiy konyunkturaning ma’lum qoidalari bilan ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy ta’sirlarning mikro va makro darajali tahlili vujudga kelgan. Boshqaruv qarorlarini tahliliy jihatdan tayyorlash va ularning sifatini yaxshilash bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy diagnostika boshqaruv tahlilining yangi yo‘nalishi hisoblanadi. Umuman olganda, iqtisodiy diagnostika boshqaruv sifatini keskin oshirish zarurati natijasida paydo bo‘ldi va innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq.

Xorijiy mamlakatlarda tashkilot moliyaviy holatini tahlil qilishda likvidlik ko‘rsatkichlari, majburiyatlarning ta’minlanganligi koeffitsientlari, to‘lovga qobillik koeffitsientlari, rentabellik ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqishni va tarmoqdagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan taqqoslash kabi iqtisodiy diagnostikani amalga oshirishning ilmiy-amaliy jihatlari tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarini iqtisodiy tizim sifatida boshqarish ushbu tizimning murakkabligidan kelib chiqadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishning iqtisodiy bo‘lmagan usullaridan foydalanishi yangi institutsional sharoitlarga moslashish yo‘llarini topishga to‘sqinlik qiladi. Hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasasini boshqarishning turli bo‘g‘inlarida samaradorlikni baholashning sodda, qulay va egiluvchan uslublari yetarli emas.

Bunday sharoitda iqtisodiy diagnostika mexanizmi oliy ta’lim muassasalarini yangi bozor sharoitlarga moslashtirish muammolarini hal etadi. Chunki, iqtisodiy diagnostika tamoyillariga asoslangan boshqaruv noto‘g‘ri qarorlarni oldini olish rejimida faoliyat ko‘rsatadi. Iqtisodiy diagnostika turli darajadagi muammolarni aniqlaydi, majmuali tahlilni amalga oshiradi va oqilona qarorga kelishni ta’minlaydi hamda o‘zining imkoniyatlari kengligi va istiqbolligi bilan ajralib turadi. Oliy ta’lim muassasasi boshqaruvjarayoni samaradorligini majmuali baholash bozor subektlarida qiziqish uyg‘otadi va dolzarbahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari rahbar xodimlari uchun talabalar bilan ishlash, o‘qitish va baholash tizimini takomillashtirish, sifat jarayonlari, natija va xulosalarini tahlil qilish kabi amaliy maslahatlarga boy bo‘lgan tadqiqotlar olib borilgan. Oliy ta’limda sifatni boshqarish va uni kafolatlash bir-biri bilan bog‘liq jarayon ekanligi ta’kidlangan.

Iqtisodiy diagnostika taqqoslashga asoslangan bo‘lib, tahlildagi kabi birlamchi axborotlardan foydalanadi va iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda mehnat va oliy ta’lim xizmatlar bozorlarini

modellashtirish xorij

tajribasi, oliy o‘quv yurtlari inson kapitalini boshqarishda baholash masalalari, ta’lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini baholashdagi yondashuvlar va usullar, oliy ta’lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish yo‘llari va boshqa oliy ta’limni boshqarish masalalariga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mazkur ilmiy ishlarning aksariyat qismi oliy ta’lim marketingi va menejmentini o‘rganishga Bag‘ishlangan. Shuningdek, O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, jahon ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi va mehnat bozori bilan uzviy bog‘liqligi tadqiq etilgan.

Ayni paytda boshqaruv qarorlarini tahliliy qo‘llab-quvvatlash va ushbu jarayonda iqtisodiy diagnostikaning vazifalari belgilash, oliy ta’lim muassasasining boshqaruv qarorlari va uning samaradorligini baholashda iqtisodiy-diagnostik modellarni ishlab chiqish kabi muammolar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, boshqaruv o‘z mazmuni bo‘yicha oliy ta’lim muassasasining tizim sifatida barqarorligini ta’minlashga va oldindan nazarda tutilayotgan holatga o‘tishga qaratilgan bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasasi (OTM) faoliyati ham iqtisodiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi, undagi pedagogik va ilmiy jarayonlar ham iqtisodiy munosabatlardan ajralmagan holda sodir bo‘ladi.

OTMda ham o‘ziga xos takror ishlab chiqarish yuz beradi, u muayyan ko‘rsatkichlarda va ko‘rsatkichlarning dinamikasida ifodalanadi. OTMning iqtisodiy diagnostikasida xo‘jalik faoliyatidagi o‘zgarishlarga e’tibor qaratish orqali boshqa jarayonlardagi o‘zgarishlar sabablari va xarakteriga oydinlik kiritiladi.

OTM faoliyatining iqtisodiy diagnostikasi axborotni qayta ishlashga asoslanadi. Bunda axborotni qayta ishlashga qo‘llanilayotgan usullar obektdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali ifodalanayotgan jarayonlarning turli sifat xususiyatlarini inkor etmasligi lozim, va aksincha, shu jihatlarga bog‘liq holda muammolarni aniqlab berishi zarur.

Ta’kidlash lozimki, OTMda sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlarning sifat jihatlari ta’lim jarayonlari maqsadiga qanchalik darajada erishilayotganligining tavsifi bo‘lib ham xizmat qiladi. Umumlashtirilgan holda ta’riflasak, iqtisodiy diagnostikaning maqsadi xo‘jalik qarorlarini (boshqaruv, moliyaviy, tashkiliy) axborot bilan ta’minlash va asoslab berishdan iborat bo‘lib, natijada u ta’limning zarur sifatiga erishishga qaratilgan bo‘ladi.

O‘zbekistonning oliy malakali kadrlari vakillari – respondentlar o‘zlari

ishlab turgan OTMning nufuzi yuqori bo‘lishidan manfaatdor, shuningdek, hozirgi kunda eng kuchli OTMlardan hisoblanuvchi O‘zbekiston Milliy universiteti va Qarshi davlat universitetining dunyodagi eng kuchli 500 ta OTM tarkibiga kiritilishiga ham befarq emas.

Xulosa qilib aytganda, bunday nufuzga, etirofga va reyting ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan OTMda faoliyat ko‘rsatuvchi professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar O‘zbekistonning boshqa soha va yo‘nalishlarda taraqqiyot indeksi ko‘rsatkichlarini oshirilishiga mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishiga, aholi farovonligini oshirilishiga va yoshlarimizning kelajagi ta’minlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Zero, amaldagi Nizom talablariga muvofiq, OTMlari reytingini aniqlash indikatorlari belgilangan va ular asosida OTMlari reytinglari hisoblanib, har yilda bir marta e’lon qilinayotgan bo‘lsa-da bu reyting tizimiga ba’zi o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, OTMlari raqobatbardoshlik darajasini aniqlovchi omillar guruhini taklif etish tadqiqot ishining vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni. PF-60. 2022 yil 28 yanvar. Manba: lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2909-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 21 aprel. Manba: http: www.president.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3151-son Qarori. – Toshkent. 2017 yil 27 iyul. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 30-son, 729-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-3775-sonli Qarori. – Toshkent, 2018 yil 5 iyun. Manba: http: www.president.uz

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4210-son Qarori. – 2019 yil 25 fevral. Manba: www.lex.uz

ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSIDA IJTIMOIY FAOLLIKKA OID QARASHLAR

Marhabo PARDAYEVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
Buxoro viloyati bo'limi rahbari,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Temuriylar davri ijtimoiy-falsafiy fikrining muhim xususiyati shundaki, unda inson va uning fazilatlarini tasvirlash markaziy o'rinni egalladi. Inson zotini ulug'lash, uni boshqa tirik mavjudotlar ichida eng a'losi, deb bilish insonga xos bo'lgan xislatlarni, "insonparvarlik, bag'rikenglik, ezgulik, halollik, mehr-shafqat, o'zaro yordam, adolatparvarlik, komil insonni tarbiyalash, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, mehnatsevarlik, sevgi-muhabbat, donolik, aqllilik, jasurlik, saxiylik, iffat, nafsni tiyish, tinchliksevarlik va qadriyatlarni tahlil qilish XIV-XV asr mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy, axloqiy hamda badiiy qarashlarida o'z in'ikosini topdi"(1).

Alisher Navoiy uchun tasavvuf komillik yo'lidir. Tasavvuf g'oyalari Navoiy asarlarida goh oshkora, goh yashirin tarzda talqin etiladi. Alisher Navoiy o'zining qit'alari, ruboiy va g'azallarida tasavvuf va naqshbandiya g'oyalarini asos bilib, o'z asarlarida mazkur falsafiy oqimning mag'zini, ya'ni adolat, insonparvarlik, halol rizq topish, faol hayot tarzini, kasb hunar egallashni insoniy fazilatlarning eng muhimlari sifatida e'tirof qiladi. Mutafakkir naqshbandiya sulukiga kirib, umri davomida "Diling Allohda, qo'ling mehnatda bo'lsin" degan tamoyilga amal qiladi va boshqalarni ham shunga chaqiradi, ilm-u amali bilan naqshbandiya tariqati, uning g'oyalarini targ'ib qiladi, asarlarida "tariqati oliya", "qanoat tariqi", "faqr yo'li" deganda naqshbandiya tariqatini nazarda tutadi.

Temuriylar davrini o'rgangan taniqli rus sharqshunosi Ye.Bertels o'zining "Navoiy va Jomiy" asarida Navoiyning Jomiy taklifi bilan naqshbandiylik sulukiga kirganligini aytar ekan, bu sulukning, asosan, amaliyotga qaratilganligini, u ixtiyoriy faqirlikka, ya'ni halol mehnat evaziga kun kechirishga, Alloh irodasiga bo'ysunishga, "Qalbing Xudoda, qo'ling mehnatda" degan qoidaga asoslanganini aytadi(2).

Navoiy ham naqshbandiya g'oyalariga ergashib insonning barkamolligi uning moddiy va ma'naviy muvozanatiga ham bog'liq ekanligiga ishonadi. Naqshbandiya ta'limotining bag'rikenglik, murosasozlik, ilm va ma'rifatga undovchi g'oyalari, inson va jamiyatning osoyishtaligi, barqarorligi aynan yakdillik, o'zaro hamjihatlik, xayr-

saxovat, halollikka bog‘liqligi xususidagi qarashlari Navoiy ma’naviy merosining markazidan o‘rin egallagan.

Darhaqiqat, naqshbandiylik ta’limotining ahamiyatli jihatlaridan biri ta’limot izdoshi albatta, biron kasb-hunar egasi bo‘lmog‘i lozimligidir. Zero, tasavvufda tanani inkor etib, chilla, uzlatda o‘tirish, tarkidunyo qilishni tavsiya etgan ta’limotlar bor. Biroq ta’kidlash joizki, tana va ruhga me’yorda munosabatni talab etganlar ham bor. Shulardan tana va ruh masalasini me’yorda turib, hal qilgan ta’limot naqshbandiyadir. Chunki bu ta’limotdagi “Dil ba Yor” (Qalb Yorda) – talabi Alloh bilan ruhning muhimligini bildirsa, “Dast ba kor” (Qo‘l ishda) – talabi tananing zarurligini anglatadi. “Dil ba Yor-u, dast ba kor” ruh va tanani o‘zaro aloqadorlikda ekanligini, tana kamoloti uchun ruh, ruh yuksalishi uchun tana yuksalishining zarurligini ko‘rsatadi. Demakki, inson kamoloti uchun faqat tana yoki faqat ruh emas, ikkoviga ham maxsus e’tibor berish zarur.

Aynan shuning uchun mutafakkir Navoiy ijodida Allohga bo‘lgan muhabbat va halol mehnat masalasi juda katta o‘ringa egadir. “Nazm ul-javohir” asarida qalb nuri – halol taomdan paydo bo‘ladi, foniy va boqiydagi eng halol luqma – halol mehnat ila topilgan luqma ekanligi ta’kidlanadi (3). Taqvo yo‘lidagi inson uchun kimningdir himmati yoki minnati bilan berilgan ziyofatdan ko‘ra, o‘z kasbi, mehnati orqali qo‘lga kiritilgan bir parcha non quyoshdan ham a’lodir. Halol luqma bilan umrguzaronlik qilgan kishining himmati shunga muvofiq baland bo‘ladi.

Tasavvuf ta’limoti xususan naqshbandiylik insonlarni faol hayot tarziga, mehat qilishga, sof e’tiqodli bo‘lishga chaqirgan. Tarixan ma’lumki, tasavvuf namoyandalari, yirik valiylari ham muayyan bir kasb-hunar bilan shug‘ullanganlar. Navoiyning ma’lumot berishicha, mashoyixlardan Xoja Abdulloh Ansoriy etikdo‘z, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchi, Shayx Abu-Hafs Haddod temirchi, Shayx Abulabbos Omiliy qassob, Shayx Abulhasan muzayyin, Shayx Banon hammol, hazrati Bahouddin Naqshband esa, matolarga naqsh soluvchi bo‘lganlar(4). Mutafakkir avliyolar amal qiladigan ba’zi xislatlarga maxsus to‘xtab o‘tadi. Xususan, u halol luqma deganda, valiyning o‘z mehnati bilan kun ko‘rishini, biror kasb bilan mashg‘ul bo‘lib, uning orqasidan bir burda nonini topib yeyishini tushunadi. Mashoyix va avliyolar mehnat qilib topgan daromadiga hayot kechirganlar, ortib qolganini esa beva-bechora va muhtojlarga tarqatganlar, xayr-ehson qilganlar.

Filologiya fanlari doktori Sultonmurod Olim “Naqshband va Navoiy” asarida ta’kidlab o‘tganidek, “Naqshbandiya tariqati jahonning ana shunday eng muhim ijtimoiy muammosi — mehnatga va uning natijasida

erishiladigan boylikka munosabat masalasiga nihoyatda jiddiy e'tibor berdi. "Dil ba Yor-u, dast ba kor!" shiori soliklarning mehnat qilib turib ham tasavvuf bilan mashg'ul bo'lishi mumkinligini isbotlaydi va shunga undaydigina emas, hatto, so'fiyni o'z mehnati, ya'ni qo'l kuchi bilan tirikchilik qilishga ham da'vat etadi. Agar har kim o'z mehnatining ketidan tirikchilik o'tkazsa, boyliklarga faqat mehnati darajasida ega bo'lishga intilsa, bu dunyoda nohaqlik yuz bermaydi, ijtimoiy adolat tantana qiladi. Bu naqshbandiya yo'liga kirganlar uchun shunchaki bir g'oyagina emas edi. Ular shu aqidalariga qat'iy amal qilib yashar edilar. Bu tariqat jahonning ana shu eng asosiy deyayotganimiz ijtimoiy muammosini har kimning o'zi adolat bilan hal etishiga chorlar edi"(5).

Naqshbandiya tariqati o'zidan oldingi tariqatlardan hayotga bevosita yaqinligi bilan ajralib turadi. Chunki ta'limotdagi qoidalarning hammasi ana shu bosh g'oyadan kelib chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, ta'limotdagi o'n bir qoidaning mazmunini mazkur bosh g'oya tashkil qiladi. So'fiylar nafaqat zikrda, balki butun umri davomida shu g'oyaga asoslanishi lozim.

Ingliz olimi Trimingem "naqshbandiya bevosita kasb-kor kishilariga – shaharliklar, hunarmandlar, ziyolilar, o'troq holda kun kechirayotgan dehqonlarga mo'ljallangan edi(6)", – deya ta'kidlaydi. Bu soliklar, faqat zikr bilan mashg'ul bo'la olmaydilar, albatta, o'z tirikliklari, yaqinlari ta'minoti - umrguzaronligi uchun faollk ko'rsatishlari, mehnat qilishlari kerak, degani edi. Demak, Allohga intilish ko'ngil bilan, qalb bilan bo'lishi lozim. Inson tashqi tarafdan mehnat bilan, ichki tomondan Alloh ishqida bo'ladi.

Alisher Navoiy ijodini Naqshbandsiz tasavvur etib bo'lmaydi. "Nasoyim ul-muhabbat"da Bahouddin Naqshbandning birovning mehnatidan foydalanmaganligi aytiladi: "Derlarki, alarg'a (Bahouddin Naqshbandga) hargiz qul va dadak (cho'ri) bo'lmas ermish. Alardan bu ma'nida so'rubturlar. Alar debturlarki: "Qachon bu bandalig' xojalig' bila rost kelur?!"(7). Ushbu fikr hozirgi kunda ham ahamiyatlidir. Jahonda insonning inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishi nafaqat og'ir jinoyat, balki o'ta manqurtlik hisoblanadi. "Banda" – Allohga qul degan ma'noni bildiradi. Bu fikrdan anglash mumkinki, inson Allohning quli bo'lsa, qanday qilib birovni o'ziga qul qilib olishi mumkin? Insonning insonga nisbatan hukmronlik, xojalik qilishi bu bandalik aqidasiga to'g'ri kelmasligi ta'kidlanadi. Insonning inson tomonidan ekspluatatsiya qilinmasligi, hozirgi ibora bilan aytganda, majburiy mehnatga yo'l qo'yilmasligi aytib o'tiladi. Bahouddin Naqshbandning "Qachon bu bandalig' xojalig' bila rost kelur?!" degan fikri barchaning Alloh oldida

teng ekanligiga ishoradir.

Naqshbandning tariqat yo‘lida ekanligi, dovrug‘i yoyilganda uning tarbiyasini olishga intilganlar ko‘p bo‘lgan, lekin u muridlikka qabul qilishni so‘rab kelganlardan biror bir hunarni egallashni talab qilgan. Shuningdek, Navoiy ham bu dunyoda kasb o‘rganish zarurligini targ‘ib etadi. Kamolotni kasb etishni, ya’ni barkamol bo‘lishga intilmay umrguzaronlik qilgan odamni olam uyidan g‘amgin bo‘lib, maqsadiga erishmay chiqayotgan kishiga, pishib yetilmagan chala narsaga o‘xshatadi. Dunyodan notavon o‘tish hammomga kirib, chala yuvinib chiqqan odamdan farq qilmasligini ta’kidlaydi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq(8).

“Kamol et kasb” so‘zlarini “komilikka yetishni kasb qil” ma’nosini bildirib, bu “dast ba kor”ning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Buni “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhodning garchi boyligi ko‘p bo‘lsa-da kasb-kor va ilm egallashga bo‘lgan intilishlaridan ilg‘ab olish qiyin emas.

“Farhod va Shirin” dostonining “Mehnatnoma” deya nomlanishi ham o‘ziga xos ramziy ma’no kasb etadi. Chunki asarda asosan, mehnat – mashaqqat haqida fikr boradi. Navoiy dostonidagi qo‘l tasvirlari naqshbandiya ta’limoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Qo‘l insoniyat uchun, dunyo uchun juda katta ishlarni qilishga qodir. U bu dunyodan hech narsa olib ketolmaydi, lekin yaratguvchi xususiyatiga ega bo‘ladi. Navoiy bu fikrni Farhod misolida ifodalaydi. Inson qo‘lidan kelmaydigan ishni bajarib, mo‘jiza ko‘rsatishga qodir, deya ta’riflaydi:

Bo‘lur erduk husuli ichra ojiz,
Hunar ermas, qo‘lung ko‘rguzdi mo‘jiz (9).

Navoiy ko‘ngil bilan qo‘lni bog‘lash orqali mo‘jiza yaratilishini ta’kidlaydi. Inson qanchalik Allohni zikr qilsa, unga tavakkal qilsa, mehnati ila yangilik yarata oladi. Ta’kidlash joizki, “Dil ba Yor-u, dast ba kor” shiori allaqachon tasavvufiy ma’no doirasidan chiqib, juda katta, olamshumul mazmun kasb etgan.

Tasavvufda nafs – insonning eng katta dushmani hisoblanadi. Nafsning nafsi ammora, nafsi lavvoma va nafsi mutmainna degan turlari mavjud. Nafsi ammora va nafsi lavvoma insonni haq yo‘lidan chalg‘itadi. Uni zikr qilishdan uzoqlashtiradi. Dostonda Farhod nafsning bu ikki turidan voz kechib nafsi mutmainna, ya’ni xotirjam nafs maqomiga ko‘tarilganini to‘rt ravzada tashkil etilgan rohat va lazzatlarni tark etishidan ham bilish mumkin. Bu bilan Navoiy naqshbandiya tariqatining asl mazmunini

ko‘rsatishga harakat qiladi.

Ta’kidlash joizki, Navoiy o‘zining boshqa dostonlarida ham insonning yaratuvchilik salohiyatiga kata e’tibor beradi. Jumladan, mutafakkir “Badoe ul bidoya” asarida dehqonning bunyodkorlikka qaratilgan mehnati mamlakatni odil boshqaruvchi podshoga qiyoslaydi. Tinimsiz jangu jadallar qilib, mamlakatni, ekinzor dalalarni xarob qiluvchi podsholardan ularni afzal biladi. Uningcha, dehqon yerga tig‘ suqishi natijasida olam bog‘-u bo‘stonga aylanib, u tufayli zafar durlari sochiladi.

Navoiy inson mehnati bilan bunyodkorlikka, farovonlikka erisha olishini ta’kidlagan holda, tabiatdagi juda ko‘p voqea hodisalarni insonlarga o‘rnak qilib ko‘rsatadi. Jumladan, “Badoe’ ul-bidoya”da mutafakkir lolaning piyozi zamin ostidan o‘sib chiqib yashashga intiladi, insonlarning ko‘zini quvontirib, zavq bag‘ishlaydi, deydi. Yana bir o‘xshatmada ipak qurtining tinmay mehnat qilishi va nihoyat o‘zi nobud bo‘lib, insonlarga foyda qoldirishini quyidagicha tasvirlaydi:

Tuxm yerga kirib chechak bo‘ldi,
Qurt jondin kechib ipak bo‘ldi.
Lola tuxmicha g‘ayrating yo‘qmu?
Ipak qurtichalik himmating yo‘qmu?(10)[43]

Yuqoridagi misralar g‘ayrat, shijoat, faollik, halollik g‘oyalarining O‘rta asrlar ijtimoiy hayotida ham dolzarb masala bo‘lganligidai dalolat beradi. Zero, mutafakkir asarlarida mehnatga bo‘lgan munosabat, faollik zamirida tasavvufning qoidalari ustunlikka ega ekanligi yaqqol seziladi. Chunki inson Alloh zikri bilan qo‘li mehnatda bo‘lib, faoliyat ko‘rsatgandagina *birinchidan,* boshqalarga naf keltiradi, *ikkinchidan* halol luqmaga ega bo‘ladi, *uchinchidan* ko‘ngil xotirjamligiga, *to‘rtinchidan* Allohning roziligiga erishadi.

Alisher Navoiy boshqa bir misralarda inson mehnatining xosiyatini ilohiy qismatning xohish irodasi deb biladi. So‘z mulkining sultoni Navoiyning birgina “mehnat” so‘zi bugun biz talqin qilayotgan mehnat tushunchasiga nisbatan juda ko‘p ma’nolidir.

Tengri ehsonig‘a shod o‘lg‘on – qilur
O‘zni shodu mehnatidin elni ham(11).

Bu misralar orqali insonning olijanob va oliyhimmat sifatlari ifodalangan. Birinchidan, “Tengri ehsoni” mazmunida har bir kishining o‘zligini tanishi, shuningdek, nima sabab bilan bu dunyoga kelganini anglashi; ikkinchidan, bunday ulug‘ nasiba – toledan “shod o‘lmoq” mazmunida insoniylik burchlarini chuqur idrok eta olishi; uchinchidan,

[43] Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ. Йигирма томлик. Т. 1. – Т.: Фан. 1987. – Б. 18.

“mehnatidin”, ya’ni o‘z maqsadiga erishish yo‘lida tinimsiz harakat qilishi, g‘ayrat-shijoat ko‘rsatishdan avval, “o‘zni shod” qilish mazmunida har bir kishining insoniy kamolot kasb etishi, bu dunyodan armonda o‘tmaslik; to‘rtinchidan, “mehnatidin elni ham” rozi qilish, rahmatga ega bo‘lish masalasi o‘z aksini topgan. “Tengri ehsoni”ni idrok qilish – Alloh qalbda ma’nosiga hamohangdir. Bu insonga berilgan sharafli xislatdir. “Mehnati” bilan odamlarga quvonch, najot baxsh etish – qo‘l mehnatda mazmunini ifodalaydi.

Mutafakkir o‘zining “Majolis un-nafois” asarida hunarmandlarning shahar go‘zalligi, xalq farovonligida roli beqiyos ekanligini, ular mehnatining bunyodkorlikka qaratilganligini e’tirof etadi. Shuningdek, xuddi shunday fazilatlarga ega bo‘lgan Hirot shahri hunarmandlarini birma bir tilga oladi: kosagarlar Mashriqiy, Saidiy, Hamdamiy, jomabof Najmiy, kalvogar Ofatiy, kuftagar (metallga zarb chekuvchi) Mir Hoshimiy, kamongar Baqoiy, kordgar (pichoqchi) Ustod Muhammad Ubahiy, kafshdo‘z Tohiriy, kissado‘z Zayn, haymado‘z (chodir tikuvchi) Arg‘un, darzilik qiluvchi (tikuvchi) Xonariy, xishtmollik (g‘isht quyish) san’atiga mansub Darvesh Dehaqiylar shular jumlasidandir. Navoiy o‘rta asr shaharlari taraqqiyotida boshqa kasb egalarining mehnatini ham yuksak qadrlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda har bir fuqaroning halol mehnat qilib, farovonlikda yashashi, orzu-havaslarni amalga oshirishi uchun imkoniyatlar yaratilgan. Biroq, hayotdan noliydigan, ro‘zg‘or tashvishlarini ro‘kach qilib, o‘zini to‘rt tomonga uradiganlar ham uchrab turadi. Aslida esa harom yo‘l bilan bo‘lsa-da, yengil-yelpi yashash, shohona hayot kechirish ilinjida bo‘lgan shunday kimsalar, ta’bir joiz bo‘lsa, nafs bandalaridir. Undaylar nafsi uchun har qanday qabihlikka qo‘l urishdan qaytmaydilar. Natijada mamlakatda odam savdosi, giyohvandlik, o‘zgalar mulkini talon-taroj qilish, poraxo‘rlikdek mudhish jinoyatlar sodir etiladi.

Yuqorida keltirilgan o‘gitlar Alisher Navoiyning insonparvarlik, mehnatsevarlik, ijtimoiy faollik, adolat g‘oyalari namunasidir. Ular ulug‘ mutafakkir Navoiy mansub bo‘lgan naqshbandiylik ta’limotining mohiyatidan kelib chiqadi. Uningcha, mehnat qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, u birinchi navbatda, inson, xalq manfaatlariga xizmat qilmog‘i lozim.

Xulosa qilib aytganda, XIV-XV asrlarda Bahouddin Naqshbandning “Dil ba yor-u, dast ba kor” nazariyasi ta’sirchan g‘oya bo‘lib, Sharq Renessansining taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shdi. Alisher Navoiyning naqshbandiya tariqatiga ixlosining sababi bu ta’limot inson va jamiyatni

yaxlit organizm sifatida qarab, uning yashovchanligini ta’minlovchi asosiy omil “halollik” ekanligiga urg‘u berishi bo‘ldi desak, xato bo‘lmaydi. Alisher Navoiy mutafakkir va davlat arbobi sifatida fikr yuritganda, albatta, insonning sobit e’tiqodli, halol va haromni farqlaydigan, Allohni tanigan bo‘lishini istaydi, asarlarida shunday insonlar obrazini yaratib temuriylar saltanatining mafkurachisi sifatida davlat ravnaqi, jamiyatni yaxshilanishiga hissa qo‘shadigan, illatlardan yiroq, ezgu fazilatlarni o‘ziga kasb qilgan insonlarni tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. – Т.:: Фан, 1994. – Б. 10.
2. Бертельс Е.Э. Навои и Джами. Избранные труды. – М.: Наука, 1965. – С. 112-113.
3. Алишер Навоий. Назм-ул жавоҳир. МАТ. – Т.: Фан, 1999. – Б. 196-197.
4. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. –Тошкент: Фан, 2001. – Б. 10.
5. Султонмурод Олим. Нақшбанд ва Навоий. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 34.
6. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – Москва. 1988. – С. 83.
7. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. Т. 17. – Тошкент. Фан, 2001. – Б. 261.
8. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Ғаройиб ус-сиғар. МАТ. Т. 3. Т.: Фан, 1988. – Б. 545.
9. Алишер Навоий. Хамса. Фарҳод ва Ширин. МАТ. Т. 8. – Тошкент: Фан. 1991. – Б. 265.
10. Алишер Навоий. Бадойиъ ул-бидоя. МАТ. 20 томлик. Т. 1. – Т.: Фан. 1987. – Б. 18.
11. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. TAT. J 4. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU. 2013. – B. 722.

ZJV5401

TARBIYALANUVCHILARDA MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH

Olmas TOSHEV,
MTTDMQTMOI katta o'qituvchi

Maktabgacha ta'lim tizimiga qo'yilayotgan hozirgi davr talabi uning pedagogik jihatlarini tubdan yangilash, maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta'lim tarbiya ishlarini yangi sifat pog'onasiga ko'tarishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifalaridan biri bu tarbiyalanuvchilarning ma'naviy fazilatlarini shakllantirishdir. Ma'naviy tarbiyani esa katta guruhlarda amalga oshirish eng qulay davr hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishda Prezidentimiz "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yagona tizimini yaratish, xususan, o'g'il-qizlarni bolaligidanoq bilimli va fazilatli etib tarbiyalash, buning uchun maktabgacha ta'lim muassasalariga metodik yordam ko'rsatish muhimligini" ta'kidladilar.

Ta'lim-tarbiya jarayoni vositasida shaxs axloqini korreksiya qilish (sayqallashtirib) borish muhim masaladir. Bunda ikkita yo'l bor, birinchisi axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, ikinchisi axloqiy illatlarni cheklash. Bu masalada maqsadli yo'nalish kerak. Aks xolda faqat axloq haqida gapirish bilan ish bitmaydi, chunki bugungi avlod axborotlar olamida yashayotganligini unutib bo'lmaydi[1].

Qulay sharoitlarda olib borilgan ijtimoiy va oilaviy tarbiya natijasida besh-yetti yoshli bolada tengdoshlariga, tarbiyachiga, bolalar bog'chasiga yaqinlik tuyg'ulari namoyon buladi. Bolalar atrofdagilar bilan xushmuomala bo'ladilar, oson muloqotga kiradilar, ular mehribon, sezgir, kattalarning koyishlariga e'tibor bilan qaraydilar, bu koyishlardan zo'r tashvish tortadilar. O'z xatti-harakatlarining ma'qullanishini quvonch bilan qabul qiladilar va yanada yaxshiroq bo'lishga tayyorlikni ifodalaydilar[2].

Demak ma'naviy tarbiyani maktabgacha ta'lim tashkilotlarining katta guruh tarbiyalanuvchilari o'rtasida boshlash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi 1059-son qarorida tarbiyachilar va ota-onalar tomonidan maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarga milliy tarbiya usullari va zamonaviy pedagoglarning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rgatish belgilangan[3].

Shuningdek qarorda Vatanga sadoqat, burch va mas’uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayotganligi ko‘rsatilgan. Aynan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy tarbiya berishni samarali tashkil etish orqali esa biz bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishimiz mumkin.

Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida inson hayotida ta’lim tarbiyaning o‘rniga to‘htalar ekan “Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilan bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va o‘rganish bilan bo‘ladi” deb ta’kidlaydi[4]. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglari avvalo o‘zlarining ma’naviy fazilatlari bilan tarbiyalanuvchilarga o‘rnak bo‘lishlari shart.

Barkamol avlodni shakllantirish jarayonida yoshlarning tabiiy-biologik, ruhiy-fizologik xususiyatlarni hamda shu hududda tarixan shakllangan aholi mentalitetini hisobga olish ta’lim va tarbiyaning zaruriy shartlari hisoblanadi[5].

Ta’lim juda mas’uliyatli ishdir. Bolalarni tug‘ilishidan maktabgacha tarbiyalash haqida gap ketganda, bu ikki baravar mas’uldir. Nimani xohlaganini, nima tashvishga solayotganini, nima yoqishini har doim so‘z bilan tushuntirib berolmaydigan kichkina bolani tushunish uchun siz ko‘p narsani bilishingiz, tushunishingiz, qalbingiz bilan his qilishingiz kerak[6].

Kimki go‘dakni ko‘tarmoqchi bo‘lsa, avval unga egilib, qo‘lida tutib,keyin yuqoriga ko‘taradi. Xuddi shuningdek, kim kimni o‘ziga moslashtirmoqchi bo‘lsa, avvalo, o‘zi unga moslashadi. O‘zgartirishni istamasa, befarq bo‘ladi, moslashmaydi. Demak, tarbiyachilar bog‘chada bola bilan boladek, maktabda – o‘spirindek, institutda – yoshlardek gaplashishi kerak[7].

Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsining ma’naviy-axloqiy sohasini boyitishning ijtimoiy-pedagogik darajadagi dolzarbligi ma’naviy-axloqiy qadriyatlardan xabardorligi va qabul qilinmaganligi hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari va ota-onalarning ushbu yehtiyojni amalga oshirishga tayyor yemasligi bilan bog‘liq ijtimoiy ehtiyoj o‘rtasidagi tafovut bilan belgilanadi.

Xozirgi sharoitda maktabgacha ta’lim tashkilotlari katta guruh tarbiyalanuvchilarining ma’naviy fazilatlarini shakllantirishda quyidagi

muommolar mavjud.

- mavjud maktabgacha ta'limning o'quv dasturlarida katta guruh tarbiyalanuvchilarining ma'naviy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan yo'nalishlarning kamligi.

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ma'naviy axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga medodik tayyor emasligi.

- maktabgacha pedagogikada mavjud ilmiy ishlanmalar asosan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilganligi va katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bola shaxsining ma'naviy-axloqiy asoslarini shakllantirish muammosi bilan bevosita bog'liq ilmiy tadqiqotlarning kamligi.

Katta guruh tarbiyalanuvchilariga yuksak ma'naviy fazilatlar adolat, andisha, ahillik, bag'rikenglik, burch, vatanparvarlik, do'stlik, jamoaviylik, jasorat, insonparvarlik, intizom, iroda, kamtarlik, majburiyat, mehnatsevarlik, mehribonlik, millatparvarlik, muomala odobi, milliy iftixor, rahmdillik, rostgo'ylik, hurmat kabilar. Shu bilan birga ma'naviy illatlar bo'lmish berahimlik, bezorilik, beparvolik, beodoblik, millatchilik, yolg'onchilik, dilozorlik, yovuzlik, nodonlik, ikkiyuzlamachilik, irodasizlik, hurmatsizlik, dangasalik, hasadgo'ylik, xoinlik, o'g'irlik, qat'iyatsizlik, uyatsizlik kabi illatlarni nima ekanligi bolalarga tushintirib bu ishlarni qilishdan qaytarishga chorlash lozim.

Makbagacha ta'lim tashkilotlari katta guruh tarbiyalanuvchilarini ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda, bu yoshdagi bolalarning taqlidchanlik odatlarini inobatga olgan xolda ma'naviy idealni yaratish lozib deb o'ylaymiz. Maktabgacha ta'li tashkilotlarida olib borgan kuzatishlarimiz davomida katta guruh tarbiyalanuvchilarida o'rnak olib shunga intiladigan ma'naviy ideal shaxs surati yaratilmagan, tarbiyalanuvchilar ongida chet el multfilmlari qahramonlari timsollari gavdalanmoqda, o'zimizning tarixiy va afsonaviy shaxslarimiz to'g'risidagi ta'savurlar shakllanmagan. Bu esa katta maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda ma'naviy zaiflikni keltirib chiqarmoqda.

Katta guruh tarbiyalanuvchillariga *(pedagogik va psixologik imkoniyatlarini inobatga olib)* ma'naviy ideal shaxsni ko'rsatib berishlarimiz kerak masalan O'g'il bolalarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Alpomish. Qiz bolalarda To'maris, Barchinoy kabi siymolarni ma'naviy ideal sifatida ko'rsatib ulardan o'rnak olishga chorlash zarur. Ze'ro bu tarixiy va afsonaviy shaxslar o'zida bir qancha ma'naviy fazilatlarni mujassam etganlar.

Xulosa qilib aytganda katta maktabgacha yoshi rivojlanish salohiyatiga

yega bo‘lib, dunyo bilan ijtimoiy aloqalarni kengaytirish, kattalar va tengdoshlari bilan faoliyat jarayonida birgalikdagi muloqot orqali insoniy munosabatlarning ijtimoiy makonini o‘zlashtirish davridir. Bu yoshda bolalarda dunyo va voqelikka munosabat asoslarini shakllanish lozim va bu qadriyatlardan biri shaxsning ma’naviy-axloqiy asoslaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori
2. M.Quronov “Milliy tarbiya”.T.:2007.”Ma’naviyat”.
3. Fbu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”. “Yani asr avlodi” T.: 2018.
4. E.M.Razboeva, R.V.Kurskix, E.A.Nanyoyshvili, A.V.Nikolskaya «Bolalar bog‘chasida estetik tarbiya» - T.: O‘qituvchi. 1967.
5. M.Quronov “Ma’rifat texnologiyalari” T.: “Ma’naviyat” 2018.
6. B.Ziyomuhammadov, F.Ismoilov “Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari”. “Sano-standart” T.:2011.
7. S.A.Kozlov, T.A.Kulikova «Doshkolnaya pedagogika» Moskva. «Akademiya» 2001.

MA’NAVIYAT TUSHUNCHASI, UNING GENEZISI VA ILMIY TAHLILI

Elyor MEYLIMUXAMETOV,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda xalq ma’naviyati bilan bog‘liq muammolar eng muhimlaridan bo‘lib, ularning yechimi Vatanimiz kelajagi bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov har qanday xavf-xatarga, xoh qurolli, xoh moddiy, mafkuraviy, xoh ijtimoiy bo‘lsin, bardosh bera oladigan ma’naviyat ekanligini to‘g‘ri ta’kidlagan. O‘tish davrida, O‘zbekiston fuqarolik demokratik davlat barpo etish va bozor iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘lidan borar ekan, bu jarayon sub’yektlari o‘rtasidagi munosabatlar bilimli, madaniy, yuksak darajada rivojlangan axloq va ma’naviyatga ega bo‘ladi, deb taxmin qilinadi.

Iqtisodiy muvaffaqiyat tegishli ma’naviyat bilan qo‘llab-quvvatlanishi

kerak. Yuqoridagi fazilatlarga ega bo‘lsangiz, o‘tish davri qiyinchiliklariga bardosh berish osonroq.

Bundan kelib chiqadiki, ma’naviyat jamiyatning ijtimoiy faolligini, siyosatini va boshqa yo‘nalishlarini rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biridir. Jamiyatning oldinga siljishi moddiy va ma’naviy sohalarning o‘zaro ta’siri asosida sodir bo‘ladi. Ma’naviyat bu hayotning ajralmas elementidir.

So‘nggi paytlarda O‘zbekiston olimlari tomonidan ma’naviyat sohasidagi ilmiy izlanishlar bo‘yicha katta ishlar amalga oshirildi. Bunga keyingi yillarda yaratilgan qator asarlar misol bo‘la oladi.

“Ma’naviyat” tushunchasiga ta’rif berishda, uning rolini anglashda ijtimoiy hayot, tadqiqotchilar ma’naviyatning qadriyat mazmuni, uning tuzilishi, shakllari va boshqalarni tahlil qilishga intildilar.

A.Jalolov[44] o‘zining “Mustaqillik ma’naviyati” asarida ma’naviyatni bog‘liq holda tadqiq etgan holda inson faoliyati va uni shaxsning umumiy xususiyati sifatida belgilaydi. Ma’naviyat, uning fikricha, inson faoliyatining ajralmas qismi va uning ongi, aqli natijasi.

Abdiraxim Erkayevning[45] “Ma’naviyat – istiqlol quvvati”, “Milliy g‘oya va ma’naviyat” asarlarida ma’naviyat “Insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati” sifatida ta’riflanib, ma’naviyatning mazmuni, tuzilishi va me’yoriyligi tadqiq etilgan.

Tadqiqotchining asarlari ma’naviyat taraqqiyotining tarixiy bosqichlari va uning iqtisodiyot, demokratiya, qonun ustuvorligi va milliy istiqlol g‘oyalari bilan bog‘liqligini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Ma’naviyat rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlari tavsifi berilgan birinchi ishlardan biri M.Imomnazarovning[46] «Ma’naviyatimizninging takomil bosqichlari» monografiyasi hisoblanadi. Muallifning fikricha, ma’naviyat diniy asosga ega va uni « nur inson qalbidagi haqiqatlar.» deb ta’riflaydi

Tadqiqotchilar E. Yusupov va U. Yusupov[47] ma’naviyatni o‘rganishga insonning ijobiy fazilatlari nuqtai nazaridan yondashadilar: «insonning ongli faoliyatining har qanday shakli, fikrlash imkoniyatlarini ma’naviyat deb hisoblash mumkin emas. Faqat ma’lum bir ijobiy ma’noga ega bo‘lgan insonning ichki (ruhiy) dunyosining fazilatlari ma’naviyat deb ataladi.»

T. Ortikov va R. Aliyevning «Ma’naviyat va ma’rifat taxlili»asari

---

[44] Жалолов А. Мустакиллик маънавияти.-Т.: Ўзбекистон, 1996. - С.29

[45] Эркаев А. Миллий гоя ва маънавит.-Т.: Маънавият,2002

[46] Имомназаров М. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар.-Т.: Шарқ,2003. – С.14

[47] Юсупов Э, Юсупов У. Маънавий камолот ва жамият тараққиёти.-Х.: 1996. – С.29

jamiyatning ma’naviy hayotini, ma’naviyat va ma’rifatning o‘zaro ta’sirini tahlil qilishga bag‘ishlangan.

I. Karimovning «Ma’naviyat, falsafa va hayot» maqolalar[48] to‘plamida yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni birlashtirish asosida ilmiy - falsafiy dunyoqarashni shakllantirish vazifasi qo‘yilgan.

Bundan tashqari, muallif falsafaning asosiy vazifasi – shaxsni axloqiy takomillashtirishga ko‘maklashish deb ataydi.

Ma’naviyat muammosi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishga T.Mahmudov[49] “Mustaqillik va ma’naviyat” asari katta hissa qo‘shdi. Olim ma’naviyatni jismoniy, aqliy, ruhiy kamolot va inson dunyoqarashi bilan bog‘laydi. Ma’naviyat muammolariga yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan barcha O‘zbekiston tadqiqotchilari tomonidan jamiyatning ma’naviy tiklanishi va yangilanishi O‘zbekiston Respublikasi milliy mustaqilligi asoslarini rivojlantirish va mustahkamlash jarayonidagi zarur bosqich ekanligi haqidagi Nizomga asoslanadi. Barcha tadqiqotlar ma’naviyatni jamiyatning ijtimoiy dinamikasining omili sifatida ko‘rib chiqishni birlashtiradi.

O‘rganilayotgan muammoga mavjud ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish asosida biz o‘z ta’rifimizni taklif etamiz: ma’naviyat – bu shaxsning axloqiy - diniy, madaniy - estetik, ilmiy - intellektual, ijtimoiy - siyosiy salohiyati, uning o‘zini anglashi, faoliyati va dunyoga munosabati darajasini ifodalovchi falsafiy kategoriya.

Ma’naviyat jamiyat hayotining mahsuli bo‘lib, uning ehtiyojidan kelib chiqadi. Tarix rivojlanishining har bir bosqichi ma’naviy tajribani mustahkamlaydi va etkazadi.

Mustaqil, ob’yektiv ijtimoiy hodisa sifatida ma’naviyat inson hayotini aks ettiradi. Agar jamiyat hayotining moddiy tomoni insonning biologik mohiyati bilan bog‘liq bo‘lsa, unda ma’naviy qadriyatlarni yaratish, ma’naviy faoliyat uning ijtimoiy mohiyati bilan bog‘liq.

Iqtisodiyot va ma’naviyat bir butunlikning ikki tomonidir. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan iqtisodiyot ma’naviyatni belgilaydi.

Albatta, bu ta’rif to‘liq emas. Tadqiqotchilar ushbu masalalarni o‘rganishda o‘z tuzatishlarini kiritish huquqiga ega.

Ammo ma’naviyat passiv ta’lim emas, u iqtisodiyotning mohiyatini aks ettiradi: iqtisodiyot va ma’naviyat inson omiliga qaratilgan va unga xizmat qiladi.

Inson jamiyat taraqqiyotining asosiy omili, tarix mavzusidir. Jamiyatning gullab-yashnashi uning ongi darajasiga, dunyoqarashiga

[48] Каримов И. Маънавият,фалсафа ва хаёт.-Т.: Фан,2001.- С.69,71

[49] Махмудов Т. Мустакиллик ва маънавият.-Т.: Шарк,2001.- С.9

va ma’naviyatining ijtimoiy-tarixiy jarayonlarga mos kelishiga bog‘liq. Mustaqillik sharoitida sharoit yaratish zarur inson omilining, uning ijtimoiy-ma’naviy salohiyatining to‘liq namoyon bo‘lishi uchun.

Mustaqillik ulkan kengliklarni, shaxsning, millatning gullab-yashnashi uchun imkoniyatlarni ochib beradi, ularning rivojlanishi tezlashadi, bu tegishli darajadagi ta’lim, professionallik, ijtimoiy faollik, dunyoqarashni talab qiladi.

Ma’naviyat-bu murakkab tizim, shu jumladan tuzilishi turli xil komponentlar (yelementlar) va shakllar. Ma’naviyatning tarkibiy qismlari tuyg‘u, kayfiyat, xulq-atvor, e’tiqod, bilim, e’tiqod, irodani tashkil qiladi. Ma’naviyat shakllari axloq, din, san’at, fan, siyosat, huquq, falsafa.

Shu ma’noda ma’naviyat, ma’naviy madaniyat tushunchasi bilan birlashtiriladi. Ammo u «madaniyat» tushunchasidan farq qiladi, chunki u moddiy tarkibiy qismni o‘z ichiga olmaydi. Bu tushunchalar mazmunan o‘xshashdir.

“Madaniyat” tushunchasi “ma’naviyat” tushunchasidan kengroqdir. “Ma’naviy madaniyat” tushunchasi madaniyat turini aks ettiradi. Shu ma’noda ma’naviyat ong mazmuni bilan ko‘proq bog‘langan bo‘lib, inson ma’naviy faoliyatining tegishli shakllarda – axloq, din, san’at, fan, siyosat va huquqda namoyon bo‘lishidir.

Ma’naviyatning tarkibiy qismlari alohida mavjud emas, ular o‘zaro ta’sir qiladi va bir-birini to‘ldiradi. Umuman olganda, ma’naviyat ochiq tizimdir.

Bu xususiyat uning uzluksiz rivojlanishini belgilaydi, bu esa, o‘z navbatida, ma’naviyat tarkibiy qismlari va tizimining rivojlanishiga bog‘liq. O‘tish davrlarida ushbu tizim elementlarining o‘zaro ta’siri yanada murakkablashadi va ularning o‘zaro kirib borishi sodir bo‘ladi.

Tarixiy jarayonda rivojlanish, alohida shaklning roli oshishi mumkin: din, fan yoki ma’naviyatning boshqa shakllari.

Har bir davrning o‘ziga xos ma’naviyati va o‘ziga xos shakllari mavjud. Tarix rivoji o‘tmishdan hozirgi kungacha davom etadi.

Tarixdagi inqiroz davrlari tabiiydir, bunday damlarda ma’naviy qadriyatlarni qayta baholash, tiklanish va yangi ideallarning paydo bo‘lishi. Ammo, umuman olganda, ma’naviyatni bir tarkibiy qism yoki shaklga aylanib bo‘lmaydi, u ularning umumiyligining sintezi bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan abadiy mazmunga ega.

O‘tish davrida ushbu tizim elementlarining o‘zaro ta’siri murakkablashadi va ularning o‘zaro ta’siri sodir bo‘ladi. Tarixiy jarayonda rivojlanish alohida shaklning rolini oshirishi mumkin: din, fan yoki ma’naviyatning boshqa shakllari.

Har bir davr o‘ziga xos ma’naviyat va o‘ziga xos shakllarga ega. Tarixning rivojlanishi o‘tmishdan hozirgi kungacha kelajakka o‘tadi. Tarixdagi inqiroz davrlari tabiiydir.

Bunday paytlarda ma’naviy qadriyatlarni qayta baholash, qayta tug‘ilish va yangi ideallarning paydo bo‘lishi. Ammo umuman olganda, ma’naviyat alohida, bitta tarkibiy qism yoki shaklga qisqartirilmaydi, bu ularning umumiyligining sintezi bo‘lib, avloddan avlodga o‘tadigan abadiy tarkibni o‘z ichiga oladi.

Hozirgi kunda odamlar ko‘pincha dinga asoslangan ma’naviyat haqida gapiradilar. Shuni ta’kidlash kerakki, demokratik jamiyatning ma’naviy sohasi faqat din bilan chegaralanib qolmaydi. Din bu holda ma’naviyat shakllaridan faqat biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy o‘zgarishlarga zaruriy moslashishni ta’minlaydigan va axborot muhitida munosib o‘rinni kafolatlaydigan tafakkur tarziga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

«Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”[50].

Shu bois, bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, ayniqsa ularning ongi va qalbini egallashga qaratilayotgan axborot xurujlaridan samarali himoyalashning konseptual asoslarini, usul-vositalari hamda mexanizmlarini ilmiy - nazariy tadqiq qilish ob’yektiv ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ma’naviyat mavzusi zamonaviy dunyo muammolari va uning chuqur tizimli inqirozini anglash kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi. Inqiroz ko‘p jihatdan insonparvarlik axloqiy qadriyatlarni yo‘qotish, axloqni siyosiy va mafkuraviy manfaatlarga bo‘ysundirish bilan bog‘liq. Uni yengish uchun faqat ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy islohotlarning o‘zi yetarli emasligi tobora ayon bo‘lmoqda.

Yangi dunyoqarashni shakllantirish kerak. Bugungi hayotning paradoksi shundaki, bizning sharoitimizda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarni hal etish yangi ideallarni ishlab chiqmasdan, buyuk g‘oyasiz imkonsiz bo‘lib qoladi.

Zamonaviy muammolarning butun majmuasiga yechim izlash inson va jamiyatning ma’naviy tiklanishi yo‘lida ekani bugun e’tirof

[50] Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва баркамол ёшлар – бугунги ва эртанги кунимизнинг ҳал қилувчи кучидир // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж 1. - Т.: Ўзбекистон, 2017. - Б.504-505.

etilmoqda. Shubhasiz, axloq, axloqiy me'yorlar va qadriyatlar insoniyat taraqqiyotining butun jarayoniga o'z ta'sirini doimiy ravishda kengaytiradi va chuqurlashtiradi, uning kelajagi har bir shaxsning aql-zakovati va axloqining parallel ravishda o'sishiga bog'liq bo'ladi.

Har bir shaxsning odob-axloqdan uzoqlashishi siyosatning ildiz otishi tufayli to'xtaydi va u tor va keng ma'noda ijtimoiy munosabatlarning asosiy tartibga soluvchisi sifatidagi mavqeini tiklay boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov A. Mustaqillik ma'naviyati.-T.: O'zbekiston, 1996. - B.29
2. Erkayev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. -T.: Ma'naviyat,2002
3. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar.- T.: Sharq, 2003. – B.14
4. Yusupov E, Yusupov U. Ma'naviy kamolot va jamiyat taraqqiyoti.-T.: 1996. – S.29
5. Karimov I. Ma'naviyat, falsafa va xayot.-T.: Fan,2001.- B.69,71
6. Maxmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat.-T.: Sharq,2001.- B.9
7. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir // Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J 1.- T.: O'zbekiston, 2017.- B.504-505.

ZJV5401

MUNDARIJA

№	Muallif, maqola mavzusi	
	Kirish	10
I. Yoshlarni vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash asosida milliy o‘zlikni yuksaltirish texnologiyalari		
1.	**Yoshlar davlatimizning bebaho boyligidir** Dilorom Yusupova	4
2.	**Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va milliy o‘zlikni anglash yo‘lida tarbiyalashda ajdodlar merosining o‘rni** To‘rayev Shavkat Nishonovich	6
3.	**Vatanparvarlik va axloqiy tarbiya: yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishning bosh mezoni** Sarvarjon G‘afurov	10
4.	**Ijtimoiy-gumanitar fanlar – yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning ta’sirchan omili** Qo‘chqorov Rahmon O‘rmonovich	
5.	**Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning ahamiyati** Nuriymon Abulhasan	
6.	**Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o‘rni** Bo‘ri Qodirov	
7.	**Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotidagi o‘zgarishlarning Abdurahmon Toshkandiy dunyoqarashi va ijodiga ta’siri** Bekdavlat Aliyev	

ZJV5401

8.	**Yoshlar muammolari va milliy o‘zlik** Baxtiyor Omonov	
9.	**Ma’naviyat takomillashuvining ma’naviy salohiyat yuksalishidagi ahamiyati** Jabborova Saodat Sattorovna	
10.	**Milliy tarbiya, milliy o‘zlikni yuksaltirishda qadriyatlarning o‘rni** Xadiyeva Gulbahor Djumayevna	
11.	**Zamonaviy ekoturizm ta’lim-tarbiyasi shakllanishining tarixiy davrlari** Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich	
12.	**Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Bobur ilmiy va ma’naviy merosining o‘rni** Ahmadjonova Umida Tojimurodovna	
13.	**Yosh avlodni tarbiyalashda Sadriddin Ayniyning pedagogik-axloqiy merosi** G‘ulomova Hilola Shavkatovna	
14.	**Xalq og‘zaki ijodida botirlar obrazi** Bobur Elmurodov	
15.	**Yoshlarni vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash asosida milliy o‘zlikni anglash va yuksaltirish** Raxmatullayeva Saodat Ibragimovna, Mo‘ydinova Irodaxon Abdumannob qizi	
16.	**O‘zbekistonda shaxs befarqligini bartaraf etish - ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish omili** Kenjayev Ulug‘bek Muratovich	

17.	**Yoshlarning ongiga salbiy ta’sir etuvchi g‘oyalarga qarshi samarali kurash olib borishning ma’naviy-ma’rifiy uslublari** Niyozova Shohista Nusratilloyevna	
18.	**Yoshlar ta’lim-tarbiyasi hamda vatanparvarlik** Tuxtarov Nemat Niyozovich	
19.	**Yoshlar ongida vatanparvarlik hissini shakllantirish – davr talabi** Xudayberganova To‘xtajon Maxsud qizi	
20.	**Yoshlarda vatan tuyg‘usini shakllantirishda ekologik ta’lim-tarbiyaning ahamiyati** Abdullayev Dilmurodxakim Xamidovich, Xojamqulov Ibrohimjon Said o‘g‘li	
21.	**Milliy ta’lim va kasb-hunar islohotlarining yoshlar bilimi va dunyoqarashini yuksaltirishdagi o‘rni va ahamiyati** Urinov Xushnudjon Abdulomitovich	
II. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning samarali va ta’sirchan usullari		
22.	**So‘nggi yillarda diniy-ma’rifiy sohada yoshlar bilan bog‘liq amalga oshirilayotgan ishlarning xususiyatlari** Muhammadolim Muhammadsiddiqov	
23.	**Xalqaro maydonda volontyorlik harakati va uni o‘zbekistonda tatbiq etishda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati** Sultanov Fozil Xojiyevich, Muzaffarov San’atbek Ikromjon o‘g‘li	

ZJV5401

24.	**Alisher Navoiy ma’naviy merosida ijtimoiy faollikka oid qarashlar** Pardayeva Marhabo Davlatovna	
25.	**Yoshlar migratsiyasi va multikulturalizm siyosati** Yakubov Sobirjon Salimovich	
26.	**O‘quvchi-yoshlarning ijtimoiy kompetentligini shakllantirish yangi tamoyil mezoni** Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
27.	**Zamonaviy jamiyatda yoshlar tarbiyasining ma’naviy-axloqiy jihatlari** Madraximov Alisher Usubjon o‘g‘li	
28.	**Yoshlar ijtimoiy faolligi va uning o‘ziga xos jihatlari** Ergashev Axror Shuxrat o‘g‘li	
29.	**Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda milliy g‘oyaning o‘rni** Narkulov Dusmurat Toshpulatovich, Narkulov Suxrob Dusmuratovich	
30.	**Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda huquqiy madaniyatning o‘rni** Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o‘g‘li	
31.	**Ommaviy madaniy tadbirlarning yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishdagi roli** To‘ychiyev Anvar Nabijonovich	
32.	**Yoshlar va intellektual kapital: yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda kitobxonlik va ma’rifatning o‘rni** Saidkulov Nuriddin Akramkulovich	

ZJV5401
ZJV5401
ZJV5401

33.	**Yangi O‘zbekistonda yoshlar ma’naviy qiyofasi** Fayzullayev Ilxom Shukurullayevich	
34.	**Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning samarali va ta’sirchan usullari** Yoqubjonova Mashhura Zohid qizi	
35.	**Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishda pedagogik imkoniyatlariga qo‘yiladigan talablar** Abubakirova Shaxlo Ulmesovna	
36.	**Yoshlarning odam savdosi qurboniga aylanib qolishlarining ijtimoiy sabablari va bartaraf etish omillari** Umarov Nodirbek Nasirdin o‘g‘li, Murodova Gulzora Rahimovna	
37.	**Raqamlashgan jamiyatda va yoshlar ijtimoiy faolligi** Kamolova Kimyoxon G‘ulomjonovna	
38.	**Yoshlarda ijtimoiy faollikni oshirishda davlat va nodavlat tuzilmalarining roli va o‘rni** Hojiyev Farhod Jumaboevich	
39.	**Yangi O‘zbekiston yoshlarini ma’naviy tarbiyalash va hayotda o‘z o‘rnilarini topishlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar** Abdilxamedov Abbos Abilatibovich	
40.	**Fuqarolik pozitsiyasining genezisi** Mahmudjon Sulaymonov	
41.	**Farzand tarbiyasida ma’naviy odatlarni shakllantirish** Oygul Kajanova	

ZJV5401

III. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda mediaolam, milliy kontentni yaratish hamda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati		
42.	**Axborot tarbiyaviy-profilaktik ishlarning uzviyligini ta’minlash zaruriyati** Suvanov Ilhom Abdixalilovich	
43.	**Globallashuv sharoitida diniy e’tiqod kontingentidagi radikal o‘zgarishlar va missionerlik tahdidining rivojlanish dinamikasi** Musaev Mansur Tursunpo‘latovich	
44.	**Axborot tarqalishining gorizontal va vertikal yo‘nalishi** Egamberdiev Azizbek Abdumalikovich	
45.	**Virtual reallikning bolalar ongiga ta’siri: ijtimoiy-falsafiy tahlil** Rizayev Ilhom Imomaliyevich, Raxmanova Rushana Karimovna	
46.	**Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda mediaolam o‘rni va ahamiyati** Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li, Ro‘zmatova Mahliyo Baxrom qizi	
47.	**Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda mediaolamning o‘rni va ahamiyati** Sultonov Fozil Hojiyevich, Hojiyev Farhod Jumaboevich	
48.	**Yoshlar o‘rtasidagi kiberbulling oqibatlarini bartaraf etish texnologiyalari** Kamoliddin To‘rayev	

ZJV5401

49.	**Axborot texnologiyalari sohasida yoshlar madaniyatini shakllantirish** Xurshid Serobov	
50.	**Ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarning jamiyat xavfsizligiga ta'siri** Zoirxo'ja O'lmasxo'jayev	
51.	**Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ma'naviy-ma'rifiy omillari** Berdimurod Xolbekov	
52.	**Axborot madaniyatining jamiyatdagi ahamiyati** Shamsiddinova Azizabonu Fazliddin qizi	
53.	**Sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyat rivojini belgilovchi muim kuch sifatida** Shermatov Avazbek G'ofur o'g'li	
54.	**Milliy kontent zaruratmi?** Nigora Xusanova	
55.	**Ta'lim va ma'naviyatni yuksaltirishda mediaolam, milliy kontentni yaratish hamda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati** Ernazarov Barkamol Dilshodovich	
56.	**Internetdagi destruktiv harakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari** Karimov Ulug'bek Dilmurodjonovich	
57.	**Yoshlar sotsiologiyasi: mediamakon tadqiqot obyekti sifatida** Rayimjonova Sitora Muxammadjon qizi, Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich	
58.	**Talabalarda estetik madaniyatni rivojlantirish muammolari, vosita va shakllari** Choriyeva Dildora Ismat qizi	

ZJV5401
ZJV5401

59.	**Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma’naviyatiga ta’siri** Hayitov Sirojbek Ilhomjon o‘g‘li	
60.	**Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda oilaviy urf-odatlar, an’analar, marosim va bayramlarning o‘rni** Mahmudova Mahfuza Solijonovna	
61.	**O‘zbekistonda axborot xavfsizligining ma’naviy va huquqiy asoslari** Sharifov Dilmurod Dilshod o‘g‘li	
62.	**Virtual o‘yinlar va bugungi dunyoqarashning shakllanishi** Suyunov Isomiddin Husniddin o‘g‘li	
63.	**Ijtimoiy tarmoqlardagi ma’naviy tahdidlardan yosh avlodni himoya qilishning samarali va ta’sirchan usullari** Xo‘jamqul Davronov	
	IV. Zamonaviy ma’naviy-axloqiy tarbiya: metodologiyasi, muammo va yechimlari	
64.	**Milliy tarbiya - milliy yuksalish drayveri** Muhammadjon Quronov	
65.	**Yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda ta’lim muassasalarining o‘rni** Bazarov Otabek Hasanboyevich	
66.	**“O‘zbekiston - 2030” strategiyasi manaviy-marifiy ishlarni tashkil etish metodologiyasi sifatida** Xolbekov Abdug‘ani Jumanazarovich	

ZJV5401

67.	**Mamlakatimiz yoshlari – ma’naviy kuch timsoli!** M.B.Axmedov	
68.	**Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash – taraqqiyot yo‘lida muhim qadam** Jo‘rabek Xidirov	
69.	**Raqamli davrda ma’naviy-axloqiy tarbiya muammolari: muammolar va yechimlar** Murtazin Emil Rustamovich, Qosimov Anvar Musurmanovich	
70.	**Integratsiya ruhiy-axloqiy tarbiyani ta’lim jarayoniga: eng yaxshi amaliyotlar va tavsiyalar** Murtazina Diana Rahimovna	
71.	**Sharq mutafakkirlari asarlarida tarbiyaning dolzarb muammolari haqida ayrim fikr-mulohazalar** Xusanova Dilnoza Alimqul qizi	
72.	**Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy qarashlarining ahamiyati** Abrorxon Asatulloyev	
73.	**Yuksak intellektual salohiyat – suverenitet kafolati** Hamroyev Sanjar Samiyevich	
74.	**Adabiyotdagi ayol obrazlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi** Nodira Ibrohimova	
75.	**Yoshlar sotsiologiyasi: tarbiyat** Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich	

ZJV5401

76.	**Globallashuv sharoitida Yaqin Sharq davlatlarida zamonaviy siyosiy-ijtimoiy jarayonlar xususiyatlari va yoshlar ongiga ta’siri** Jo‘rayev Axadjon Ilyosjon o‘g‘li	
77.	**Zamonaviy ma’naviy-axloqiy tarbiyada tinchlik madaniyatini shakllantirish metodologiyasi** Sharipov Dilshod Baxshilloevich	
78.	**Samyuel F.Hantington qarashlarida sivilizatsiyalararo muammolar ijtimoiy-falsafiy tahlili** Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o‘g‘li	
79.	**Ma’naviy tarbiyaning samarali va ta’sirchan usullari: empirik tajribalar asosida** Ramazonova Munira G‘ulomjonovna	
80.	**Zamonaviy “milliy kadrlar korpusi”ni tarbiyalashda xorijiy davlatlar tajribasi** Maxbuba Xoliyarova Sottorovna	
81.	**Globallashuv sharoitida yoshlarni ma’naviy tarbiyalashning mazmun-mohiyati** Meyliyev Ulmas Farmonovich	
82.	**Jamiyat a’zolarining ma’naviy-intellektual takomili yangicha ijodiy izlanishlar va ilmiy-amaliy munosabatlarga har tomonlama bog‘liq** Safar Xushvaqtovich Allayorov	
83.	**Zamonaviy ma’naviy-axloqiy tarbiya: ta’lim sifatini oshirishda xorijiy tajribalardan foydalanish yo‘llari** Xolmuradov Musurmon Avlakulovich	

84.	**Alisher Navoiy ma’naviy merosida ijtimoiy faollikka oid qarashlar** Pardayeva Marhabo Davlatovna	
85.	**Tarbiyalanuvchilarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish** Toshev Olmas Nuriddinovich	
86.	**Ma’naviyat tushunchasi, uning genezisi va ilmiy tahlili** Meylimuxametov Elyor Akbarovich	

ZJV5401

ZJV5401

ZJV5401

QAYDLAR UCHUN

ZJV5401

ZJV5401

ZJV5401

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari

Mas'ul muharrir: Olimjon Davlatov,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

"ELNUR-PRINT" nashriyoti,
100129. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30 uy.
Litsenziya raqami № 104733. 20.07.2023-yil

Texnik muharrir: Javohir Meliyev

Sahifalovchi-dizayner: Iqbolbek Ismoilzoda

Terishga 28.25.2024-yil berildi.
Bosishga 01.06.2024-yil ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1/32
Ofset bosma usuli. 28 shart b.t.
Adadi 250 nusxa.

"ELNUR-PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, A.Navoiy ko'chasi, 30-uy.

ISBN: 978-9910-9464-9-3